

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**HAMRAYEV MADRIM
SHODMONQULOVA DILOROM
DOSANOV NURIDDIN**

**ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI
(1-qism: ONA TILI)**

TOSHKENT - 2022

Annotatsiya

Mazkur darslik pedagogika oliv o'quv yurtlarining bakalavriat yo'nalishi talabalariga mo'ljallangandir. Muallif bakalavr-talabalarga umumiy tilshunoslik, dunyo tillari tasnifi, hozirgi zamон o'zbek tilining predmeti, uning ajralmas bo'lmlaridan bo'l mish fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, orfografiya, grafika va orfoepiya, morfologiya va sintaksis, ishorat qoidalari va uslubiyat asoslari yuzasidan chuqur va har tomonlama keng bilim berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Shuningdek, bu darslikda har bir yirik bo'lim oxirida nazorat savollari va test topshiriqlari ham berilgan bo'lib, bu talabalarning olgan nazariy bilimlarini tekshirish va mustahkamlashda yordam beradi.

Darslik oxirida berilgan glossariy tilshunoslik atamalari haqida ixcham, qisqa ma'lumot berish uchun mo'ljallangan.

Аннотация

Данный учебник предназначен для студентов бакалавриата высших учебных заведений педагогического направления, основной целью которого является дать глубокие и объёмные знания непосредственно о предмете современного узбекского языка, его целях и задачах, основополагающие сведения об общем языкознании, классификации мировых языков, лексикологии и фразеологии, о качественном составе словаря современного родного языка, о фонетике и фонологии, о современной графике и правилах орфографии, о грамматическом строем и морфологии, о грамматическом смысле слова и его грамматической форме, о грамматических категориях, о частях речи и их свойствах; удалено внимание и синтаксису, предложению, его типам и членам предложений с их определением; отведено место и сложноподчинённым членам предложений, косвенным предложениям, а также пунктуации и основам стилистики.

Учебник оснащен комплексом тестовых заданий и вопросами контроля усвоенных знаний студентами, который поможет проверить и закрепить усвоенный материал.

Глоссарий, который приложен к данному учебнику даёт краткие сведения о лингвистических терминах.

Annotation

The textbook is intended for students on speciality 5111700 – of primary education and sport, educational work. It is considered theoretical knowledge of mother tongue, its phonetics, script, orthography, orthoepy, lexicology, lexicography, phraseology, knowledge of morphemes, word-building and grammatical structure of Uzbek language, grammar, morphology and syntax system. This textbook explain independent parts of speech: the noun, the adjective, the numeral, the pronoun, the verb, the adverb, form – words, the sentence, the types of sentence, the parts of sentence and others.

Taqrizchilar:	SH.KO`CHIMOV, filologiya fanlari doktori, professor Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
	J.ABDULLAYEV, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Guliston davlat universiteti

Mazkur darslik Nizomiy nomidagi TDPU BTM kafedrasi dotsenti M.A.Hamrayev tomonidan tuzilgan “Ona tili va bolalar adabiyoti” dasturi (2020-yil) asosida yozildi. Bu darslik oily o‘quv yurtlarining boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim, pedagogika-psixologiya kabi nofilologik (ya’ni ona tili chuqur o‘rganishga ixtisoslashmagan) mutaxassislik talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, umumiylar tilshunoslikdan hamda ona tili fanining barcha bo‘limlari bo‘yicha shu mutaxassisliklar o‘quv rejalarida ajratilgan soat hajmida ma’lumot beradi.

Bu darslikni yozishda “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjatlar va jahon hamda o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha keyingi yillarda yaratilgan ilmiy ishlar dasturulamal bo‘lib xizmat qildi. Darslikda umumiylar tilshunoslikka oid masalalar, o‘zbek tilining fonetikasi, lug‘at boyligi, lug‘atshunosligi, grammatik qurilishi, uslubiyati, ishorat qoidalari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Darslik an’anaviy tilshunoslikning boy tajribasidan hamda sistem-struktur tilshunoslikning keyingi yillarda qo‘lga kiritilgan ijobiy yutuqlaridan unumli foydalangan holda yaratildi.

TILSHUNOSLIK DAN UMUMIY MA’LUMOT

1-§. Tilshunoslik fani, uning o‘rganish obyekti va turlari

Manbalardan ma’lumki, hozirgi zamon fanlarini quyidagi yirik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari¹.

Tilshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiiga mansub bo‘lib, inson tili, ya’ni so‘zlashuv quroli uning o‘rganish obyekti. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da bu fanga shunday ta’rif beriladi: “Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiat, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan”².

Tilshunoslik fani yuqoridagi guruh fanlarning ko‘pchiligi bilan aloqadordir.

Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Har qanday til tovush tilidir, chunki nutq tovushlarning muayyan ketma-ketligidan iborat bo‘lgan so‘zlardan tashkil topadi. Nutq tovushlari esa **fizika** fanining **akustika** bo‘limida ham o‘rganiladi. Nutq faoliyati insonning markaziy asab tizimi yordamida boshqariladi, demak, tilshunoslik fani **fiziologiya** fani bilan aloqada bo‘lishi lozim. **Kimyo** fanida **valentlik** degan tushuncha mavjud. Bu molekula tarkibidagi atomning boshqa atom bilan bog‘lanish xususiyatidir. Xuddi shu xususiyat tildagi so‘zlarda ham mavjuddir. Masalan, *qizil*, *shirin*, *achchiq*, *yirik* so‘zлari *olma* so‘zi bilan bog‘lana oladi, lekin *yupqa*, *aqli*, *a’lochi*, *beg’am*, *ozg’in* so‘zлari *olma* so‘zi bilan bog‘lana olmaydi.

Tilshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar. Har qanday fan **falsafa** bilan bog‘liq, chunki falsafa barcha fanlarning kelib chiqish manbasi sifatida tan olingan. Tilshunoslik fani, birinchidan, falsafaning bilish nazariyasi bilan bog‘langan bo‘lsa, ikkinchidan, bu fan bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis o‘z tadqiqotlarida muayyan falsafiy yo‘nalishga tayanadi.

Ma’lumki, adabiyot so‘z san’ati sifatida tan olingan. Demak, tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan bo‘lmish so‘z adabiyot uchun ham asosiy quroq bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslik adabiyotni o‘rganadigan **adabiyotshunoslik** fani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tilshunoslik **tarix** fani bilan bog‘liq, chunki til tarixi shu tilning egasi bo‘lmish millat tarixining bir qismidir.

Siz ”mantiqiy fikr”, ”bu mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan fikr” degan gaplarni eshitgansiz. Bu esa tilshunoslik va **mantiq** fanlarining o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Har ikkala fanni birlashtiruvchi narsa tafakkurdir. Tafakkur tilda so‘z, so‘z birikmasi va gaplar orqali namoyon bo‘lsa, mantiqda hukm, tushuncha va xulosalar ko‘rinishida aks etadi.

Tilshunoslik va matematik fanlar. Hozirgi paytda matematika fani aralashmagan fan bo‘lmasa kerak. Oddiy arifmetik amallardan tortib, murakkab matematik formulalar ham barcha fanlardagi hisob-kitoblarda qo‘llanadi. Tilshunoslikda ”**Bir** bosh bo‘lakli va **ikki** bosh bo‘lakli gaplar” degan nomlarning mavjudligi oddiy arifmetik sonlarning qo‘llanishiga misol bo‘ladi. Endi quyidagi parchaga e’tibor qiling: ”*Vaholanki eng tor tovushni 0 raqami bilan, eng keng tovushni 1 raqami bilan belgilasak, tovushlarning bu jihatdan farqi quyidagicha bo‘ladi:*

$$\begin{array}{c} i - u - o - e - \hat{a} - a \\ 0 - 0,2 - 0,3 - 0,8 - 0,9 - 1 \end{array}^3$$

Bu parchada ishlatilgan ifodalar nisbatan murakkabroq formulalarga misol bo‘la oladi.

Tilshunoslik va texnik fanlar. Tilshunoslik va texnik fanlardan hisoblangan **kibernetikaning** o‘zaro bog‘liqligi shundaki, kibernetikaning mahsuli bo‘lmish EHM ham

¹ А. Нурмонов, Б. Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. “Шарқ” НМАК бош таҳририяти. Т.: 2001, 11-бет.

² А. Хожиев. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти . –Т.: 2002, 107-бет.

³ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. “Universitet” nashriyoti. –Т.: 2006, 14-bet.

insonga o‘xshab axborot qabul qilib, uni uzatish vazifasini bajaradi. EHM yaratilishi uchun inson organizmi asos bo‘lib xizmat qilgan. EHMning paydo bo‘lishi avtomatik tarjimaning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldi.

Tilshunoslik fanining turlari. Tilshunoslik ikkita xususiyatiga ko‘ra turlarga bo‘linadi:

1. O‘rganish obyektining hajmiga ko‘ra:

a) **xususiy tilshunoslik** alohida olingen tilning tovush tizimi, lug‘at boyligi va grammatik qurilishini o‘rganadi, shu sababli bunday tilshunoslik “o‘zbek tilshunosligi”, “rus tilshunosligi” kabi nomlar bilan ataladi.

b) **umumiyl tilshunoslik** yer yuzida mavjud bo‘lgan barcha tillarning umumiy xususiyatlarini, kelib chiqishini, dunyo tillarning tasiflanishini o‘rganadi. U o‘z tadqiqotlarida xususiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalanadi.

2. O‘rganish maqsadiga ko‘ra:

a) **nazariy tilshunoslik** til hodisalariga nazariy jihatdan yondashadi, ya’ni shu hodisalar bo‘yicha umumlashma tarzida chqarilgan xulosalar, qoidalar yaratadi.

b) **amaliy tilshunoslik** tilga amaliy nuqtai nazardan yondashadi, ya’ni uning insonlar hayotidagi amaliy ahamiyatini o‘rganadi. Masalan, chet tillarni o‘rganish, avtomatik tarjima kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

2-§. Tilning paydo bo‘lishi

Olimlarning taxminiga ko‘ra, til ibridoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo‘lgan. Bunga shubha qilishga o‘rin yo‘q, chunki insoniyat tarixi shu davrdan boshlanadi. Inson inson deb atalishi uchun u hayvonot olamidan ajralib chiqishi lozim edi. Tilning paydo bo‘lishi mazkur jarayonni boshlab berdi. Xo‘s, eng universal aloqa vositasi bo‘lgan til qanday paydo bo‘lgan? Bu o‘rinda biz hozir yer yuzida mavjud bo‘lgan uch mingga yaqin tilni nazarda tutayotganimiz yo‘q, balki umuman dastlabki tilni nazarda tutmoqdamiz.

Dastlabki tilning paydo bo‘lishi haqida hech qanday yozma ma’lumot yo‘q, chunki yozuvning, ya’ni og‘zaki nutqni uzoq masofaga, uzoq davrga yetkazish vositasining o‘zi ancha keyin paydo bo‘ldi. Demak, dastlabki tilning qachon, qayerda va qanday paydo bo‘lganligini faqat taxmin qilish mumkin. Bu uchta savolga taxminan quyidagicha javob berish mumkin: **dastlabki til fikrlovchi inson shakllangan paytda, shunday inson paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan joyda va insonlarning bir-birlariga nimanidir aytish istagi yuzaga kelganligi uchun paydo bo‘lgan.**

Dastlabki tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risida aniq moddiy dalillarning yo‘qligi bir qancha farazlarning (ba’zi manbalarda **nazariya** ham deyiladi) yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

1. Tovushga taqlid nazariyasi qadimgi Yunonistonda antik davrda (eramizdan oldingi 1-2 asrlarda) **stoiklar** degan faylasuflar guruhi tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra inson tili tabiatdagi turli tovushlarga taqlid qilish asosida paydo bo‘lgan emish. Haqiqatan ham, deyarli barcha tillarda tovushga taqlid bildiruvchi so‘zlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilida *taq-tuq, shitir-shitir*; rus tilida *gav-gav* (it hurishiga taqlid), *kva-kva* (qurbaqa ovoziga taqlid), *ga-ga* (o‘rdak ovoziga taqlid) kabi so‘zlar bor va hatto shu so‘zlar asosida bir qancha so‘zlar ham yasalgan: *shitiralamoq, taqa, kvakayet, gavknul*. Bu nazariyaning g‘ayri-ilmiy nazariya ekanligi quyidalarda namoyon bo‘ladi:

1) tovushga tiqlid so‘zlar barcha tillarda ham juda ozchilikni tashkil etadi va lug‘at tarkibidagi boshqa so‘zlarning qanday kelib chiqqanligini bu nazariya asoslab bera olmaydi;

2) mantiqan fikrlaganda, rivojlangan tillarga nisbatan rivojlanmagan tillarda bunday so‘zlar ko‘p bo‘lishi kerak edi, vaholanki, tekshirishlar buning aksini ko‘rsatadi;

3) qadimgi odamning hali uncha rivojlanmagan hiqildog‘i bunday so‘zlarni talaffuz qilishga moslashmagan.

2. Undov nazariyasi eramizdan oldin yashab o'tgan Epikur (341-270) degan faylasuf tarafdarlari bo'l mish **epikuristlar** tomonidan o'ylab topilgan nazariya bo'lib, unga ko'ra til insonning his-tuyg'ularini ifodalaydigan *oh, uf, dod* kabi undov so'zlar asosida yuzaga kelgan emish. To'g'ri, taqlid so'zlar kabi undov so'zlar ham har bir tilning lug'at tarkibida mavjud va ular asosida ham yangi so'zlar hosil qilish mumkin: *uflamoq, dodlamoq* kabi. Bu nazariya ham quyidagi kamchliklarga ega:

1) undov so'zlar ham barcha tillarda juda ozchilikni tashkil etadi va bu nazariya ham lug'at tarkibidagi boshqa so'zlarning qanday kelib chiqqanligini asoslab bera olmaydi;

2) inson o'z his-tuyg'usini yolg'iz qolganda ham ifodalashi mumkin, vaholanki, tilning asosiy vazifasi aloqa-aratashuv vositasi bo'lishdir.

3) bu nazariya tilning paydo bo'lishini ong bilan emas, his-tuyg'u bilan izohlab qo'ya qoladi.

3. Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi XIX asrda yashagan fransuz faylasuflari L.Nuare va K.Byuxerlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning fikricha, til odamlarning jamoa bo'lib mehnat qilishi jarayonida chiqaradigan qiyqiriq ovozlar asosida paydo bo'lgan emish. Masalan, odam yer chopayotganda (*hah*), og'ir narsani ko'tarayotganda (*ho 'o'p*) o'ziga yordam berish uchun turlicha ovozlar chiqaradi. Bu nazariya insonning beixtiyor chiqargan va ma'no ifodalamaydigan ovozlar asososiga qurilganligi bilan undov nazariyasiga o'xshab ketadi. Bu ovozlar his-tuyg'u ifodalamaydi, shu bilan bu nazariyalar o'zaro farq qiladi. Bu nazariyaning g'ayri-ilmiyligi esa quyidagilarda ko'rindi:

1) mehnat qiyqiriqlarining tildagi miqdori o'ta kamdir;

2) mehnat qiyqiriqlari, yuqorida qayd qilinganidek, his-tuyg'u ifodalamaydi;

3) bu ovozlar faqat mehnat jarayonini tartibga solish uchungina zarur.

4. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi XIX asrda paydo bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, yer yuzidagi odamlar tushunchalarga nom berishda o'zaro kelishib olishgan emish. Bunga turki bo'lgan narsa shuki, 1887-yilda taxallusi **Doktor Esperanto** ("umidvor shifokor" degani) bo'lgan polyak ko'z shifokori **Lyudvik Zamenhof⁴** tomonidan **esperanto** tili o'ylab topilgan⁵. Bu til ko'pgina Yevropa tillaridan olingan so'zlar asosida shakllangan. Bundan tashqari, olimlar ayrim ilmiy atamalarni qo'llashda o'zaro kelishib olishi ham bunga sabab bo'lgan. Masalan, 1892-yilda ximiklarning Jeneva shahrida o'tkazilgan qurultoyida terminologiya masalasida kelishib olingan. Albatta, sun'iy tilning va atamalarning yaratilishi bo'yicha kelishuv dastlabki tilning paydo bo'lishini izohlay olmaydi. Buning sabablari quyidagicha oddiyidir:

1) bu nazariya ijtimoiy kelishuvgacha tilning mavjudligini inkor qiladi;

2) bu nazariya tabiiy tilning emas, balki sun'iy tilning yaratilishinigina tushuntira oladi.

Ko'rib o'tilgan barcha nazariyalarning eng asosiy kamchiligi shundaki, ularda insonning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisani, ya'ni tilni shu faoliyatdan ajratgan holda tushuntirishga harakat qilinadi.

Inson hayvonot olamidan ajralib chiqqandan keyin ijtimoiy mehnat bilan shug'ullana boshlagan. Bu jarayon, albatta, juda uzoq davom etgan. Shu davr mobaynida odamsimon mavjudot jamoa bo'lib yashashni va mehnat qilishni o'rganadi. Mehnat jarayonida bu mavjudotlarda (ular arxeologlar tomonidan *avstralopitek, pitekanthrop, sinantrop, neandertal odami* kabi nomlar bilan ataladi) tafakkur shakllana boradi. Buni taxminan quyidagicha tushuntirish mumkin. Oldiniga mehnat harakatlari mehnat predmetidan ajralmagan holda amalga oshirilgan. Masalan, biz nafas olish uchun o'ylab o'tirmaymiz, ya'ni miyani ishlatmaymiz. Bu instinctiv tarzda yuz beradi. Yuqorida jarayon ham shunday bo'lgan bo'lishi kerak. Ma'lum bir

⁴ Энциклопедик лугат. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти . Н-Х. –Т.: 1990, 440-бет.

⁵ Энциклопедик лугат. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти . А-Н. –Т.: 1990, 289-бет.

davrda mehnat harakati va mehnat predmeti bir-biridan ajraladi, chunki mazkur harakatlar odamsimon mavjudotning ibtidoiy xotirasida saqlanib qolgan edi va u endi o‘z tasavvurlariga taqlid qilishi mumkin bo‘ladi, natijada mehnat predmeti bo‘lmasa ham, u bilan qilinadigan harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Bu esa odamsimon mavjudotda **ibtidoiy ongning** dastlabki kurtaklari shakllanayotganidan dalolatdir. Hozirgi odamga eng yaqin turgan odamsimon mavjudot fanda *homo sapiyens* (lot. *ongli odam*) deb yuritiladi. Ana shu *homo sapiyens* o‘z taraqqiyotining ma’lum davrida o‘z jamoadoshiga nimanidir aytish istagini sezgan bo‘lishi kerak va natijada dastlabki ibtidoiy so‘zlar talaffuz qilingan. Albatta, ungacha *homo sapiyens*ning nutq a’zolari muayyan tovushlar miqdorini talaffuz qilashga moslashgan bo‘lishi kerak edi. Bizningcha, ana shu tariqa dastlabki til paydo bo‘lgan.

Kembridj universiteti professori Jorj Yulning yozishicha, tilning paydo bo‘lishida quyidagi manbalar mavjud bo`lgan:

1. Ilohiy manba (The divine source).
2. Tabiiy tovush manbasi (The natural sound).
3. Ijtimoiy o‘zaro ta’sir manbasi (The social interaction source).
4. Jismonan moslashish manbasi (The physical adaptation source).
5. Instrumental manba (The tool-making source).
6. Genetik manba (The genetic source).⁶


3-§. Til ijtimoiy hodisadir

Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunish kerak? Eng avval mana shu savolga javob berish lozim. “Ijtimoiy” degani yakka shaxsga emas, balki butun jamiyatga tegishli deganidir. Demak, nimaiki butun jamiyat uchun xizmat qilsa, jamiyat tomonidan rivojlantirilsa, shu narsa ijtimoiy hodisadir. Bunga bиринчи navbatda **til** kiradi. Adabiyot, san’at, madaniyat ham ijtimoiy hodisalardir, lekin bu hodisalarning asosida baribir til turadi.

Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vosisasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli beqiyosdir. Til bo‘lmasa, jamiyatning bo‘lishi mumkin emas, chunki til insonlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne’matdir. Bundan tashqari, til bir millatni boshqa millatdan ajratib turuvchi eng muhim belgilardan biridir. Til taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.

4-§. Til va tafakkur

Tafakkur – bu fikrlash deganidir. Inson gapirishdan oldin o‘ylaydi, fikrlaydi. “Avval o‘yla, keyin so‘yla” degan maqol bejiz yaratilmagan. Demak, til va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liqidir. Tafakkur borliqning ongda aks etishi bo‘lsa, til tafakkurning muayyan belgilari (masalan, tovushlar) orqali ifoda qilinishidir. Buni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Yuqorida maqolda fikrning so‘zdan oldin kelishiga ishora qilingan. Borliq dastavval so‘zlovchi ongida fikr shaklida namoyon bo‘ladi, keyin bu fikr so‘zlar vosisasida gapga aylanib, tinglovchiga yetkaziladi. Tafakkur va tilning o‘xshash va farqli tomonlari bor. O‘xshashligi:

1. Til ham, tafakkur ham insonga xos.
2. Har ikkalasi ham borliqni aks ettiradi.

⁶ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010, 2-6-betlar.

3. Har ikkalasi ham bir paytda paydo bo‘lgan.

Farqlari:

1. Tafakkur birliklari tushuncha, hukm, xulosa hisoblansa, til birliklari so‘z, birikma va gapdir.
2. Tafakkurni mantiq fani o‘rgansa, tilni tilshunoslik o‘rganadi.
3. Turli millat vakillari bir xil fikrlashlari mumkin, lekin ular o‘z fikrlarini har xil tillarda ifodalaydilar.

Tafakkur va til bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi, chunki til bo‘lmanida insonning tafakkuri yuzaga chiqmagan bo‘lar edi. Xuddi shuningdek, tafakkur bo‘lmasa, tilga hech qanday ehtiyoj yo‘q. Biz bu o‘rinda til deganda fikrni ifodalovchi har qanday vositani nazarda tutyapmiz: kar-soqovlarning imo-ishora tili, yo‘l harakati belgilari va boshqalar ham shu jumлага kiradi.

5-§. Til va nutq

Til va nutq tushunchalari yaqin-yaqingacha farqlanmasdan kelinardi, bu ikki so‘zni ma'nodosh (sinonim) so‘zlar sifatida ishlataverar edik. Keyingi paytlardagi tadqiqotlar til va nutq tushunchalarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Til deganda ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo‘lgan hodisani tushunishimiz kerak. **Nutq** esa shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o‘rinda namoyon bo‘lishidir. Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o‘yinini misol qilib keltirishadi⁷. Shaxmat donalari, taxtasi, shaxmat o‘yini qoidalari yig‘indisi tilga qiyos qilinadi. Bu narsalar taxminan to‘rt ming yildan beri o‘zgarishga uchramasdan kelyapti. Har bir shaxmatchining o‘yin uslubi, o‘ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o‘xshatishadi. Muayyan til birliklari vositasida turli fikrni ifoda qilish mumkin. “Ega+to ldiruvchi+kesim” ko‘rinishidagi qolip tilga tegishli bo‘lsa, nutqda shu qolip asosida son-sanoqsiz gaplar tuzish mumkin: “Men ukamni ko‘rdim // Sobir akasiga yordamlashdi // Salim opasidan eshitdi...” Bu esa shu nutqning yaratuvchisiga bog‘liqidir.

Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - **lison** va **nutq** tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. “Lison, - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasni qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi”⁸. Olimning fikricha, bu juftlikda nutq asosiy rol o‘ynaydi, chunki tildagi hodisalar dastlab nutqda yuzaga keladi va keyinchalik lisonga ko‘chadi. O‘z navbatida bu hodisa lisondan nutqqa olib chiqiladi⁹.

Til va nutq tushunchalari ikkita har xil hodisalarni ifodalamas ekan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas, chunki hodisani shu hodisaning namoyon bo‘lishiga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi.

6-§. O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasining davlat tili

Til jamiyatsiz mavjud bo‘la olmaydi. Jamiyat a’zolari tilning yashashi, rivojlanishi uchun mas’uldirlar. Shu munosabat bilan, o‘tgan asrning 70-80-yillardagi o‘zbek tilining ahvolini eslash o‘rinlidir. Bu davrda o‘zbek tilining faoliyat ko‘rsatish doirasi juda torayib, uning butunlay yo‘qolib ketish xavfi paydo bo‘ldi. Ana shunda jamiyatimizning ilg‘or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg‘urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo‘ylgan ilk qadamlardan biridir.

⁷ X.Невматов, О.Бозоров. Тил ва нутқ. “Ўқитувчи” нашриёти, - Т.: 1996, 9-бет.

⁸ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. “Universitet” nashriyoti. –Т., 2006, 4-bet.

⁹ O`sha kitob, 5-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”¹⁰.

Eng avvalo, ”**davlat tili**” tushunchasiga izoh berib o‘tish lozim. Bu degani til boshqa davlat ramzlari qatorida qonun asosida davlat himoyasiga olingani, til bilan bog‘liq masalalar davlat darajasida hal qilinadi, deganidir.

Quyida mazkur qonunni to‘laligicha keltiramiz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT TILI HAQIDA (yangi tahrirda)

1-modda: O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda: O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitusiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda: O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda: O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’milanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda: O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zinch yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta’milanadi.

6-modda: O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiyligi, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

7-modda: Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda: O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruvenin organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruvenin organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruvenin organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

9-modda: Davlat hokimiyati va boshqaruvenin organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatiga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’milanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarining o‘zlarini tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2001-yil, 6-bet.

10-modda: Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda: Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagisi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishgaga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’milnadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

12-modda: O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda: Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda: O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’milnadi.

15-modda: O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda: Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda: Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda: Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda: Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning, shuningdek, milliy, madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda: Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda: Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’milnadi.

22-modda: Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda: O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda: O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqilanganadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sinqlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

7-§. Tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari

Tilning tuzilishi. Yer yuzidagi har qanday til tuzilish jihatidan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug‘at tarkibi.
3. Grammatik qurilishi.

Dastlab til og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan va bu tilning asosini nutq tovushlari tashkil etgan. Har qanday tilda muayyan miqdordagi nutq tovushlari mayjud bo‘lib, bu shu tilning **tovush tizimini** tashkil etadi. Shu tovushlarning turlicha birikishi orqali so‘zlar hosil bo‘ladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida 30 ta nutq tovushi bor. Shulardan *a*, *d*, *m*, *o* tovushlarining turlicha joylashtirilishi natijasida *odam*, *omad*, *moda* kabi so‘zlarni hosil qilish mumkin.

Har qanday tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar yig‘indisi shu tilning **lug‘at tarkibi** (ayrim darsliklarda **leksika**) deb yuritiliadi. Lug‘at tarkibi bir tilni boshqa tildan farqlantiradi. Leksika muayyan til paydo bo‘lgan paytdan boshlab shu tilning egasi bo‘lmish xalq tomonidan boyitib borilishi lozim, aks holda bu til iste’moldan chiqib, o‘lik tilga aylanadi.

Lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy jihatdan aynan shu tilga tegishli bo‘lmasligi mumkin, lekin bu so‘zlar shu tilda so‘zlashuvchi odamlar uchun o‘zaro muloqot vositasi bo‘lib kela olsa, ular mazkur tilning lug‘at tarkibiga mansub bo‘ladi. Masalan, *kitob*, *maktab*, *a’lo* so‘zlari aslan arabcha bo‘lib, o‘zbek tiliga taxminan VII-VIII asrlarda kirib kelgan. Hozirgi paytda bu so‘zlar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar uchun tushunarli va ular shu insonlar tomonidan o‘zbekcha so‘zlar sifatida qabul qilinadi. Hatto bu so‘zlar asosida *kitobxon*, *maktabdosh*, *a’lochi* kabi yangi so‘zlar ham yasalgan.

Tovushlar tizimi va leksikaning mavjudligi tilning muloqot vositasi darajasiga ko‘tarilishi uchun yetarli emas. Buning uchun so‘zlar o‘zaro birikib so‘z birikmasi va gaplar hosil qilinishi lozim. Buni esa tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi. Demak, muayyan tilga mansub bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning qurilishi shu tilning **grammatik qurilishi** deb yuritiladi. ”*Bizning fakultetimizda talabalar ko‘p to‘garaklarga qatnashadilar*” gapini olib ko‘raylik. Avvalo, so‘zlarning qurilishini tekshiramiz: *Biz-ning fakultet-imiz-da talaba-lar ko‘p to‘garak-lar-ga qatnash-a-di-lar*”. Ko‘rinyaptiki, *ko‘p* so‘zidan boshqa barcha so‘zlar turli ma’noli qismlarga ajraladi. Endi so‘z birikmalarining qurilishini tekshiramiz: *Bizning fakultetimizda, fakultetimizda qatnashadilar, ko‘p to‘garaklarga, to‘garaklarga qatnashadilar*. Va, nihoyat, gap qurilishini tekshiramiz: ”*Bizning (aniqlovchi) fakultetimizda (hol) talabalar (ega) ko‘p (aniqlovchi) to‘garaklarga (hol) qatnashadilar (kesim)*”. Demak, tildagi har bir birlik o‘zining ichki qurilish qonuniyatlariga asosan tarkib topadi.

Til tizim sifatida. Bu masalaga to‘xtalishdan oldin ”**tizim**” tushunchasi izohlanishi kerak. Manbalarda bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: ” **Tizim** - 3. O‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui”¹¹. Yana: ”**Sistema** (yun.), o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlik, birlik hosil qiluvchi juda ko‘p elementlar”¹². Demak, tizimning asosiy belgilari, birinchidan, juda ko‘p qismlardan iborat bo‘lishi kerak, ikkinchidan, bu qismlar o‘zaro munosabatda, aloqada bo‘lishi lozim.

Tizimga misol keltirish uchun gapni uzoqdan boshlashga to‘g‘ri keladi. Astronomiyadan ma’lumki, Yer sayyorasi Quyosh tizimiga kiruvchi 9 ta sayyoraning biridir. O‘z navbatida, Quyosh tizimi ham kamida xuddi shunga o‘xshagan 100 mlrd. yulduzni o‘z ichiga olgan Galaktika (bizda uni Somon yo‘li deyishadi)¹³ tizimi tarkibiga kiradi. Bizning galaktika esa galaktikalar tizimiga mansubdir.

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. –Т., 2008, 85-бет.

¹² Энциклопедик луғат. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти . Н-Х.-Т.: 1990, 188-бет.


¹³ Энциклопедик луғат. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти . Н-Х.-Т.: 1990, 173-бет.

Endi ulkan tizimlardan nisbatan kichik tizimlarga, ya’ni Yer sayyorasiga qaytamiz. Yer yuzida yashovchi aholi 5600 dan ortiq tilda so‘zlashadi. Yuqorida aytiganidek, til ijtimoiy hodisalar tizimiga mansub bo‘lib, bu tizimga yana adabiyot, san’at, madaniyat kabi bir qancha ijtimoiy hodisalar kiradi. Til ham o‘z navbatida tizim sifatida o‘zaro bog‘langan va munosabatda bo‘ladigan tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi va grammatic qurilishi kabi qismlardan iborat (yuqorida bularning har biriga ta’rif berildi). Bu o‘rinda biz bu qismlarning o‘zaro aloqasi va munosabatini ochishga harakat qilamiz. Yakka olingen nutq tovushi so‘z sifatida shakllanmasa yoki so‘z tarkibiga kirmasa, u oddiy **fiziologik** hodisa sifatida qolaveradi. Boshqacha aytganda, nutq tovushi **ijtimoiy** ahamiyat kasb qilishi lozim. Masalan, **u** tovushi so‘zlashuvchi insonlar uchun ”o‘zga shaxs” ma’nosini ifodalovchi so‘zga aylanmasa, oddiy tovushligicha qolaveradi. O‘z navbatida **u** so‘zi gap ichida ishtirok etib, ma’lum vazifa bajarmasa, oddiy so‘zligicha qolaveradi. Mazkur so‘z ishtirok etgan gap esa ”gap” deb ataluvchi tizim tarkibiga kiradi.

Xullas, tilning tovushlar tizimi, lug‘at tarkibi, grammatic qurilishi til tizimini tashkil etadi.

8-§. Til taraqqiy qilib, o‘zgarib boruvchi hodisa

Tarixdan ma’lumki, yuqori va quyi paleolit davrida odamlar urug‘-urug‘ bo‘lib yashashgan. Buning sababi shuki, birgalashib ov qilish yolg‘iz faoliyat ko‘rsatishdan afzalroq hisoblangan. Demak, bu davrda **urug‘ tili** mavjud bo‘lgan va bu til urug‘ a’zolari uchun umumiylil til hisoblangan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga kelib odamlar qabilalarga birlasha boshlaganlar va natijada **qabila tili** shakllangan. Qabila tili shu qabila tarkibiga kiruvchi barcha urug‘ a’zolari uchun umumiylil til hisoblangan. Odamlar o‘rtasidagi tenglik yo‘qola borishi natijasida, ya’ni ibtidoiy jamoa tuzumining yemirish davrida qabila ittifoqlari paydo bo‘lgan, natijada endi **qabila ittifoqi tili** paydo bo‘lgan. Keyinchalik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qabilalar o‘rtasidagi aloqalarning yo‘qolib, hududiy aloqalarning yuzaga kelishi natijasida xalqlar paydo bo‘lgan. Natijada endi **xalq tili** shakllanadi, qabila tillari xalq tili tarkibida shevalar ko‘rinishida saqlanib qoladi. Xalqlar yagona hudud, yagona til, yagona madaniyat va yagona ma’naviy birlikka erishgandan keyin millat sifatida shakllanadilar va buning natijasida **millat tili** paydo bo‘ladi. Bu jarayonni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:



Ko‘rinyaptiki, til to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib, rivojlanib boruvchi ijtimoiy hodisa ekan. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Tildagi o‘zgarishlar birinchi navbatda uning **lug‘at tarkibida** aks etadi. Kishilar hayotidagi o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyat hamda iqtisodning rivojlanishi tilning lug‘at tarkibini boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatic qurilishi esa juda sekinlik bilan o‘zgaradi. Buni til tarixini o‘rganish orqaligina sezish mumkin. Tilning mutazam tarzda taraqqiy qilib borishini ona tilimiz bo‘lgan **o‘zbek tili** misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilij ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug‘at tarkibida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Tilimiz lug‘at tarkibining ichki imkoniyatlar vositasida yangi yasalgan so‘zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar hisobiga boyib borishi ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, *aqlidosh, telemahmadana, muzlatgich, purkagich* kabi yangidan yasalgan so‘zlar, *broker, diler, makler, komputer, menejer, fermer, biznes* kabi boshqa tillardan olingen so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Ayrim o‘zbekcha so‘zlarning ma’nosida o‘zgarishlar yuz berib, ular boshqa ma’nolarda qo‘llana boshladi. Masalan, *ishbilarmon* va *tadbirkor* so‘zları ilgari sifat

turkumiga mansub bo‘lib, belgi ifodalagan bo‘lsa, hozirgi paytda bu so‘zlar ot turkumiga ko‘chib o‘tdi va shaxs ma’nosini ifodalaydigan bo‘lib qoldi.

O‘zbek tilining tizimida, nisbatan kam bo‘lsa ham, ayrim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, o‘zlashma so‘zlarda bo‘g‘inning o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan yangi turlari (so‘z boshida va so‘z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo‘ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlarda ikkita har xil unlining o‘zbek tili uchun xos bo‘lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, poema, geologiya, teatr, bionika* kabi (arabcha *doim, inshoot, maorif, taassurot, shuur, tabiiy* kabi so‘zlar ilgaridan mavjud edi).

Ona tilimizning grammatic qurilishida ham juz’iy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Masalan, morfologik o‘zgarishlarga *-lar* ko‘plik qo‘sishchasi ma’nolari kengayishini (hurmat, kinoya, jamlash, ayirish, noaniqlik, kuchaytirish), egalik qo‘sishchasi ma’nosidagi umumdan ajralganlik (*Bobur bog‘i, Navoiy ko‘chasi*) kabi ma’noning paydo bo‘lishi kiriritilsa, sintaktik o‘zgarishlarga boshqa tillarning ta’sirida yangicha tarkibdagi to‘liqsiz gaplarning (*Tug‘ilgan kuningiz bilan, Bayramlar bilan* va h.) yuzaga kelganligini, qo‘shma gaplar tasnidagi o‘zgarishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ona tilimizning bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatic qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog‘liq ravishda davom etadi.

9-§. Milliy til va adabiy til

Qayerda yashashidan qat‘i nazar bir millatga mansub bo‘lgan barcha insonlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy til** deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so‘kish, qarg‘ish so‘zları), varvarizm (tilda o‘rinsiz ishlatilgan chet so‘zlar) kabi guruh so‘zlarni qamrab oladi.

Ayrim manbalarda milliy til tarkibiy jihatdan **jonli xalq tili** va **adabiy tilga** bo‘linib, birinchisi yana **jargonlar va dialektlarga**, ikkinchisi esa **og‘zaki va yozma** turlarga ajraladi:¹⁴

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarining barchasi uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, **fin** tilida) shevalar kam bo‘lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo‘q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjud.

10-§. Dunyo tillari va ularning tasnifi

Dunyo tillari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi muassasasi bo‘lmish YUNESKOning ma'lumotiga ko‘ra, yer yuzida 5600 ta til mavjud ekan.¹⁵ Bu tillarda gaplashuvchilar soni bir-biridan juda katta farq qiladi. Masalan, 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan dan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 millionandan ortiq kishi gaplashadi. Qolgan tillarining har birida esa 1 milliondan kam kishi o‘zaro muloqotga kirishadi. Shunday tillar borki, ular 100-200 kishidan iborat bo‘lgan qabilaning tili hisoblanadi. Dunyodagi eng yirik 13 ta til quyidagilardir: xitoy tili

¹⁴ А.Мухторов, УА.Muxtorov, U.Sanaulov. O‘zbek adabiy tili tarixi. “O‘qituvchi” nashriyoti. –T., 1995, 9-bet

¹⁵ М.Ирисколов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -T.; 1992, 166-бет

(1 mld. odam gaplashadi), ingliz (400 mln.), hind tili va unga yaqin urdu tili (300 mln.), ispan tili (280 mln.), rus tili (220 mln.), indoneziya tili (160 mln.), arab tili (160 mln.), portugal tili (140 mln.), yapon tili (120 mln.), nemis tili (100 mln.), fransuz tili (95 mln.). Bu tillarda dunyo aholisining **uchdan ikki qismi** muloqot qiladi. Bu tillardan 6 tasi, ya’ni **ingliz, fransuz, rus, ispan, arab** va **xitoy** tillari BMTning rasmiy ishchi tillari hisoblanadi.¹⁶

Yana shunisi borki, bitta til bir necha mamlakat aholisiga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tili Angliya va AQSH aholisi uchun (Hindistonda ikkinchi til hisoblanadi), portugal tili Portugaliya va Braziliya aholisi uchun, ispan tili Ispaniya va Lotin Amerikasidagi 20ga yaqin mamlakat aholisi uchun, nemis tili Germaniya va Avstriya mamlakatlari aholisi uchun, fransuz tili Fransiya, Belgiya va Shveysariya mamlakatlari aholisi uchun muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ba’zi mamlakatlarda esa ikki tillilik joriy qilingan. Masalan, Kanada mamlakatida ingliz va fransuz tillari, Belgiya va Shveysariyada nemis va fransuz, Hindistonda hind va ingliz tillari rasman davlat tili sifatida qonunlashtirilgan.

Dunyo tillari tasnifi. O‘z xalqidan boshqa xalq tilini va og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish inson tabiatiga xos bo‘lgan xususiyat - bilishga qiziqish tufayli amalga oshirilgan. Bu jihatdan buyuk vatandoshimiz Mahmud Koshg‘ariyning xizmatlari haqida to‘xtalmasdan ilo yo‘q. ”U (Mahmud Koshg‘ariy) haqli ravishda turkologiya fanining asoschisidir”, - deb yozadi tilshunos olim Abduhamid Nurmonov.¹⁷ Mahmud Koshg‘ariy uzoq vaqt davomida turkiy qabilalar yashaydigan ulkan hududni kezib chiqdi va bu qabilalarning tilini, og‘zaki ijod namunalarini sinchiklab o‘rgandi hamda o‘zining ”Devonu lug‘atit turk” asarini yaratdi. ”Devon” aslida turkiycha-arabcha lug‘at hisoblanadi, ya’ni olim o‘z asarida turkiycha so‘zlarni arab tiliga tarjima qiladi hamda ularni izohlash uchun qo‘sish, maqol, matal va afsonalardan misollar keltiradi. Shu bilan birga, bu asarda turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatikasi qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Bu sohada buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning ”Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ham qiyosiy tilshunoslik bo‘yicha yaratilgan mukammal asar namunasi sifatida qayd qilinishi mumkin.

Har ikkala mutafakkirning yaratgan asarlari juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Yevropada esa tillarni bir biriga qiyoslab o‘rganish ko‘proq amaliy tabiat kasb qilgan. Buni quyidagicha izohlash mumkin.

Tarixdan ma’lumki, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Fransiya, Gollandiya kabi dengiz mamlakatlari XV-XVI asrlardan boshlab mustamlakachilik siyosatini boshlab yuborganlar va ko‘pgina mamlakatlarni bosib olib, ularning moddiy va ma’naviy boyliklarini o‘zlashtirishga kirishgan. Bu siyosatni o‘tkazish uchun ularga mahalliy aholining tilini, madaniyatini, urf-odatlarini bilish zarur edi, natijada ularning tillarini o‘z tillari bilan qiyoslab o‘rganishga kirishganlar.

Bu sohada Gvilelm Postellus degan olimning 1538-yilda yaratilgan ”Tillarning qarindoshligi haqida” (”De affinitae linguarum”) asarini, Iosif-Yustus Skaligerning 1599-yilda yozilib, 1610-yilda Fransiyada nashr qilingan ”Yevropa tillari haqida mulohazalar” (”Diatriba de europeorum linguis”) nomli asarini, shuningdek, E.Gishar, Iov Ludolf, Gotfrid-Vilgelm Leybnis, Yuriy Krijanich, Filipp-Iogann Stralenberg, Frans Bopp, Rasmus Rask, Vilgelm Gumboldt, Avgust Shleyxer, F.F.Fortunatov, Ferdinand de-Sossyur, A.Meye kabi ko‘plab tilshunoslarning ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Dunyo tillarini tasniflashning diqqatga sazovar bo‘lgan ikkita turi mavjud. Quyida shularni ko‘rib chiqamiz.

Geneologik tasnif

¹⁶ С.И.Брук. Население мира. Издательство “Наука”. Москва, 1986, стр. 100-101.

¹⁷ А.Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. “Ўзбекистон” нашриёти, Т.: 2002, 27-бет.

Geneologik (yun. *shajara* degani) tasnifda tillarning kelib chiqishi, ya’ni qarindoshligi asos qilib olinadi.

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, qarindoshligi, lug‘aviy va grammatic jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo‘linadi. Yer yuzida 20 dan ortiq til oilasi bor. Til oilalari **bobo til** nomi bilan ataladi. Til oilalari o‘z navbatida til turkumlariga bo‘linadi.

I. Hind-yevropa oilasi. hind turkumi: hind, urdu, bengal, panjob, gujarat va h.; **eron turkumi:** fors, afg‘on, osetin, kurd, tojik va h.; **slavyan turkumi:** rus, ukrain, belorus, chex, slovak, polyak, serb, makedon, bolgar, xorvat, sloven; **boltiq turkumi:** litva, latish, latgal; **german turkumi:** dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy tili (idish); **roman turkumi:** fransuz, provansal, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan tillari, o‘lik lotin tili; **kelt turkumi:** irland, shotland, breton, uels; **anatoliy turkumi** (o‘lik), **tohar turkumi** (o‘lik). Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo‘lmashdan, shu til oilasiga kiradi.

II. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi (ular so‘zlashuvchi aholi miqdori tartibida berildi). **Tirik tillar:** turk, o‘zbek, ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur, qozon-tatar, turkman, chuvash, qirg‘iz, boshqird, qumiq, yoqut, qoraqalpoq, tuva, qorachoy, balqar, xakas, no‘g‘oy, qoraim, qrim-tatar, oltoy, shor, gagauz, truxman, karagas. **O‘lik tillar:** o‘rxun, pecheneg, qipchoq, xazar, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or, chig‘atoy.

Mashhur turkolog olim N.A.Baskakov turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarni uchta tarmoqqa ajratadi:¹⁸

A. G‘arbiy xun tarmog‘i:

I. Bulg‘or guruhi: 1. *Tirik til:* chuvash tili. 2. *O‘lik tillar:* bulg‘or, xazar tili.

II. Og‘iz guruhi: 1. **Og‘iz-turkman guruhchasi:** *Tirik tillar:* turkman tili, truxman tili. *O‘lik til:* o‘g‘iz tili (X-XI asrlarda qo‘llangan); 2. **O‘g‘iz-bulg‘or guruhchasi:** *tirik til:* gagauz tili; *o‘lik tillar:* pecheneg tili, uz tili. 3. **O‘g‘uz saljuq guruhchasi:** *tirik tillar:* usmonli turk tili, ozarbayjon tili. *O‘lik tillar:* saljuq tili, eski usmonli turk tili.

III. Qipchoq guruhi: 1. **Qipchoq-bulg‘or guruhchasi:** 1) *tirik tillar:* tatar, boshqird; *o‘lik til:* g‘arbiy oltin o‘rda tili; 2. **Qipchoq-o‘g‘uz guruhchasi:** 1) *tirik tillar:* qoraim, qumiq; *o‘lik til:* kuman. 3. **Qipchoq-no‘goy guruhchasi:** no‘g‘oy, oraxoniylardan keyingi davr tili. 2. **Qarluq-xorazm guruhchasi:** *tirik:* o‘zbek, uyg‘ur; *o‘lik:* qorluq-xorazm, eski o‘zbek tili.

B. Sharqiy xun tarmog‘i. 1. **Uyg‘ur guruhi:** 1) **uyg‘ur-tukyu guruhchasi:** tuva, karagas. 2) **yoqut guruhchasi:** yoqut tili, dolgan tili. 3) **xakas guruhchasi:** xakas, qamashi, kyuerin, shor, tuba, sariq uyg‘ur tillari. 2. **Qirg‘iz-qipchoq guruhi:** qirg‘iz, oltoy tillari.

Bu tasnif batafsilligi bilan ajralib turadi.

III. Fin-ugor tillar oilasi. fin guruhi: fin, eston, karel, vepss, ijom, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordva tillari; **ugor guruhi:** venger, mansiy, xantiy tillari) mansubdir.

IV. Som-xom tillar oilasi. som guruhi: arab, amxar, xarari, tigre, tigrinnya, gurage, oysor, ivrit tillari; **qushit guruhi:** galla, agau, somali, saho, beja, sidamo tillari; **berber guruhi:** tuareg, kobil, shilk, rif, shaviya, tamazist tillari; **chad-xom guruhi:** xuasa, ngizim, kotoko, angas, karekare, sura, muzgu, mubi, sokoro tillari; **arab guruhi:** qadimgi arab.

V. Kavkaz oilasi. g‘arbiy guruhi: abxzaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari; **nax guruhi:** chechen, ingush, batsbiy tillari; **dog‘iston guruhi:** avar, darg‘in, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari; **janubiy guruhi** (megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy).

VI. Xitoy-tibet oilasi. tay-xitoy guruhi: xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vietnam tillari; **tibet-birma guruhi:** tibet, birma tillari.

VII. Samodiy tillar oilasi: nenes, ngasan, selkup, enes.

VIII. Mo‘g‘ul tillar oilasi: xalxa-mo‘g‘ul, buryat, qalmiq.

¹⁸М.Ирисқулов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т,: 1992, 177-бет .

IX. Tungus-manjur oilasi. *Tungus guruhi:* evenk, even, negidal; *manjur guruhi:* manjur, nanay, udey, ulch, orochon.

X. Dravid tillari: tamil, telugu, malalayali, kannara, tulu, gondi, braxun.

XI. Malay-polinez oilasi. 1. *Malay yoki indoneziya guruhi:* 1) *Sumatra guruhchasi:* indonez, batak, achex tillari; 2) *yavan guruhchasi:* yavan, sundan, bali, madur tillari; 3) *dayak yoki klementan guruhchasi:* dayak, kayan, kenyax tillari.

XII. Avstraliya tillari: aranta tili va juda ko'p mahalliy aholi tillari.

XIII. Papuas tillari: enga, chimbu, xagen, kamano va b.

XIV. Afrika tub aholisi tillari. 1. *Bantu tillari.* 1. *Shimoli-g'arbiy guruhi:* bube, lundu, fang, benga va b. 2. *Shimoliy guruuh:* konjo, ganda, rundi va b. 3. *Kongo daryosi havzasidagi tillar:* kongo, ndongo, poto, ngala va b. 4. *Markaziy guruuh:* luba, bembra, subiya va b. 5. *Sharqiy guruuh:* suaxili, sango., shambala va b. 6. *Janubi-g'arbiy guruuh:* zulu, soto, venda, shona va b. 7. *G'arbiy guruuh:* ndonga, lunda va b. 2. **Bantoid tillari.** Sharqiy: tiv, bamileke, bali, efik va b. *Markaziy:* senufo, kulango, mosi, gurma va b. *G'arbiy:* gola, tenda, fomi, volof, ful va b. 3. **Mande tillari:** mandingo, malinke, bombara, mende, loma va b. 4. **Gviney tillari:** kru, kva, akai, eve, yoruba, nupe, edo, ibo, tvi va b. 5. **Songai tillari:** songai, zarma, dend. 6. **Kanuri-teda tillari:** kanuri, teda. 7. **Markaziy va sharqiy Sudan tillari:** zanda, banda, miltu, berta, koma, barea, kunama va b. 8. **Kordofan tillari:** talodi, lafafa, tageli va b. 9. **Nilot tillari:** nuer, shilluk, bari, nyangya, pokot, gola va b.

XV. Paleoafrika tillari oilasi: bushmen (sani), gottengot (nama).

XVI. Paleoosiyo tillari oilasi: A. *Chukot guruhi:* chukot, koryak, kamchadal. B. *Sibir guruhi:* odul, nivx. D. *Ket tili.*

XVII. Eskimos tillari oilasi: eskimos, aleut.

XVIII. Shimoliy Amerika tillari oilasi: algonkin tillari, irokez tillari, siu tillari, naetchz-muskok tillari, atabask, mossk tillari, penuti, xoka tillari.

XIX. Markaziy Amerika tillari oilasi: uto-astek tillari, mayya tillari va b.

XX. Janubiy Amerika tillari oilasi: tupi-guarani, kechua, aravak, aruakan, chon, alakaluf, pano, je va b.

XXI. Uzoq Sharq tillari oilasi: yapon, ryukyuk, koreys, ayn.

XXII. Avstraosiyo tillari oilasi: munda, santali, mundari, xo, bxumadji.

XXIII. Bask tili (birorta ham oilaga kirmaydi).

XXIV. Burjask tili (birorta ham oilaga kirmaydi).

Morfologik tasnif

Avvalo, bu tasnif nomidagi "morfologik" so'ziga e'tiboringizni qaratamiz. Bu so'z orqali muayyan tildagi so'zlarning tarkibiga ishora qilingan, chunki **morfologiya** bo'limi so'zlarning o'zgarishi haqidagi qoidalar yig'indisidan iboratdir. Demak, bu tasnifda dunyo tillari tarkibidagi so'zlarning tuzilishi asos qilib olinadi.

Bu tasnifga ko'ra tillar quyidagi 4 guruhga bo'linadi:

1. **Amorf** (ing. *amorphous* – "shaklsiz" degani) **tillar** tarkibidagi so'zlar hech qanday so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan-to'g'ri birikib, bog'lanib keladi. So'zlar o'tasidagi grammatik munosabatlар so'z tartibi, urg'u va ohang orqali amalga oshiriladi. Bu guruh yana o'zak tillar, ajratuvchi tillar, o'zak ajratuvchi tillar degan nomlar bilan ham ataladi. Bu tillarga xitoy, tibet, birma, vietnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar misol bo'la oladi.

2. **Agglyutinativ** (ing. *agglutinative* – "yelimlangan", "yopishtirilgan" degani) **tillarda** qo'shimchalar o'zgarmas asosga qo'shilib keladi va shu tariqa so'zlar o'zaro bir birlariga bog'lanadi.

Agglyutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

Agglyutinativ tillarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) qo'shimchalar asosdan keyin qo'shiladi: *kitob-lar-ning*.
- 2) har bir qo'shimcha asosan bitta grammatic ma'noni ifodalaydi: *maktablarga* so'z shakli tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik ma'nosini, -ga affaksi yo'naliш ma'nosini ifodalaydi.
- 3) o'zak va qo'shimchaning chegarasi aniq bilinib turadi, ya'ni ular qo'shilib ketmaydi.
- 4) qo'shimchalarning qo'shilishida ham o'ziga xos tartib mavjud: oldin so'z yasovchi, keyin shakl yasovchi, undan keyin so'z o'zgartuvchi qo'shimcha qo'shiladi: *gul-zor-lar-dan*.

3. Flektiv (ingl. *Inflexional* – “o'zgaradigan”, “turlanadigan” degani) **tillar grammatic ma'nolar o'zak ichidagi tovush almashinuvlari asosida yasaladigan tillardir. Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi. Bu tillarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

- 1) o'zakdagi tovush o'zgarishlari yangi grammatic ma'noning yasalishiga olib keladi. Arab tilidagi quyidagi so'zlarga e'tibor bering: *naqsh, naqqosh; xalq, xaloyiq* kabi.
- 2) bir grammatic ko'rsatkich (qo'shimcha) birdan ortiq grammatic ma'noni ifodalaydi: rus tilidagi *kniga* so'zi tarkibidagi *-a* qo'shimchasi jinsni (jenskiy rod), bosh kelishikni, birlik sonni bildirib kelgan.
- 3) bir grammatic ma'no turli shakllardagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Rus tilida ko'plik ma'nosni *-i, -a, ы, ы* qo'shimchalar orqali ifodalanishi mumkin: *книгу, городъ, ножы, братъя*.
- 4) o'zak-negiz mustaqil qo'llanmasligi mumkin. Rus tilidagi *idu, idya, idti, idiom* so'zlarida *id* – qismi o'zak hisoblanadi va u mustaqil ishlatalmaydi.

4. Mujassamlantiruvchi (polisintetik)¹⁹ tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, AQSHning Yuta shtatida yashovchi hindularning *payyut* tilidan misol keltiramiz: “vii-to-kuchum-punku-ryugani-yugvi-var-tyum” tarzida yoziladigan “so'z-gap” so'zma-so'z quyidagicha tarjima qilinadi: “pichoq-qora-bizon-ko'lga o'rgatilgan-bo'laklamoq-o'tirmoq”. Ma'nosni: *Pichoq bilan qo'lga o'rgatilgan qora bizonni bo'laklab o'tirishibdi*. Polisintetik tillarga chukot tili, suningdek, Amerikadagi ayrim hindu tillari, Osiyodagi paleoosyo oиласига mansub ayrim tillar kiradi. Bunday tillarda bizning tushunchamizdagи so'z birligi yo'q, ya'ni so'zlar gapdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tillarning morfologik tasnifi **nisbiy** tabiatga egadir, chunki o'z xususiyatlari bilan mutlaq tarzda bir guruhga tegishli bo'lgan til yo'q. Misol uchun, o'zbek tili asosiy xususiyatlari bo'yicha agglyutinativ tillar guruhiga kirsa ham, flektiv tillarga xos belgilardan xoli emas. Masalan, o'zbek tilida ham so'z tarkibidagi tovush o'zgarishi natijasida yasalgan so'zlar mavjudligi haqida buyuk o'zbek tilshunosi Ayyub G'ulomov fikr bildirib o'tganlar. U kishi *bo'r* va *bo'z* (gazmol nomi), *ko'r* va *ko'z*, *semir* va *semiz*, *qimir* va *qimiz* so'zlarining o'zaro aloqadorligini, ya'ni yasalganligini ta'kidlagانilar²⁰. Shuningdek, *keldim* so'zidagi *-m* qo'shimchasi ham 1-shaxsni, ham birlikni ifodalaydi. Bular o'zbek tilidagi **fleksiyaning** izlaridir.

11-§. Tilshunoslik fanining bo'limlari

Tilshunoslik fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. **Leksikologiya** tilning lug'at boyligini o'rganuvchi bo'limdir. Uning quyidagi sohalari mavjud:
 - 1) **semasiologiya** (yun. *semasia* – belgi, ma'no, *logos* – ta'limot, fan) so'zning ma'no tomonlarini o'rganadi.
 - 2) **onomasiologiya** (yun. *onyma* – nom, *logos* – ta'limot, fan) narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi.²¹
 - 3) **onomastika** (yun. *onomastike* – nom qo'yish san'ati) atoqli otlarni o'rganadigan soha bo'lib, quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:
 - a) **antroponimika** (yun. *anthropos* – odam, *onyma* - nom) odam ismlarini o'rganadi;
 - b) **toponimika** (yun. *topos* – joy, *onymo* - nom) joy nomlarini o'rganadi;
 - 4) **etimologiyada** (yun. *etymon* - haqiqat) so'zlarning paydo bo'lish yo'llari o'rganiladi.

¹⁹ М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т.; 1992, 185-бет

²⁰ Ўзбек тили грамматикаси. 1-қисм. “Фан” нашриёти. –Т.: 1975, 22-бет.

²¹ М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т.; 1992, 91-бет.

5) leksikografiya (yun. *lexis* – со'з, *grafo* - yozaman) lug'at tuzish masalalari bilan shug'ullanadigan soha.

2. Frazeologiya ko'chma ma'noli birikmalar, ya'ni iboralarni o'rganadigan bo'lim.

3. Shevashunoslikda (dialektologiya) tildagi shevalar o'rganiladi.

5. Fonetika tilning tovush tizimini, tilda yuz beradigan asosiy tovush jarayonlari o'rganiladigan bo'lim.

6. Fonologiya so'z va so'zshakllar ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turi – fonemalar o'rganiladigan bo'lim.

7. Orfoepiya bo'limida talaffuz me'yorlari o'rganiladi.

8. Grafika bo'limida har bir tilning yozuv va harflar tizimi o'rganiladi.

9. Orfografiya bo'limida to'g'ri yozishning qonun-qoidalari o'rganiladi.

10. Morfemika bo'limida so'zlarning morfologik tarkibi, ya'ni o'zak va qo'shimchalar, ularning turlari o'rganiladi.

11. So'z yasalishida so'z yasash usullari o'rganiladi.

12. Grammatikada tilning grammatic qurilishi o'rganiladi. U ikki qismidan iborat:

1) **morfologiyada** so'z turkumlari o'rganiladi;

2) **sintaksisda** so'z birikmasi va gap turlari o'rganiladi.

13. Punktuatsiya bo'limida tinish belgilarni ishlatish qoidalari o'rganiladi.

14. Uslubiyat (stilistika) bo'limida nutq uslublari o'rganiladi.

FONETIKA VA FONOLOGIYA

1-§. Fonetika haqida umumiy ma'lumot

Fonetika trilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, so'z ma'nolarini farqlashdagi roli, shuningdek, urg'u, intonatsiya(ohang) nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalar o'rganiladi.

Fonetika ham o'rganish obyektining hajmiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillarning tovush tomoni va u bilan bog`liq hodisalarini o'rganadi. Bularga barcha tillarda unli va undosh tovushlarning mavjudligi, nutq apparati, tovush o'zgarishlari kabilar kiradi.

2. Xususiy fonetikada muayyan bir tilning fonetik xususiyatlari o'rganiladi. Masalan, o'zbek tili fonetikasi, turkman tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Fonetikaning bu turi tilning fonetik tomonini qay tarzda o'rgashiga qarab ikki turga bo'linadi: **1) tavsifiy fonetikada** muayyan tilning fonetik tizimi tarixiy jarayon va dalillarga bog`lanmagan holda o'rganiladi. **2) tarixiy fonetikada** ma'lum bir tilning fonetik tizimi til tarixi bilan bog`liq tarzda o'rganiladi.

3. Qiyosiy fonetikada bir-biriga yaqin tillarning fonetik xususiyatlari qiyoslab o'rganiladi. Masalan, o'zbek va rus tillarini qiyoslab o'rganish makkablarda shu tillarni o'qitishning metodik muammolarini hal qilishda yordam beradi.

4. Eksperimental fonetikada fonetik biliklar va hodisalar maxsus asboblar yordamida tekshiriladi. Bunda olingan natijalar nazariy xulosalarning ishonchliligi ta'minlanadi.

2-§. Fonetik birliklar va ularning turlari

Fonetik birliklar deganda so`z yoki qo'shimchalarining shakliy tomonini hosil qiladigan va ularning ma'nolarini farqlash, chegaralash vazifalarini bajariladigan birliklar tushuniladi. Bunday birliklar so`z va qo'shimchalarining qaysi tomoni (shakl va mazmun) uchun muhimligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi: **1. Segment (ingl. qism, bo`lak²²) birliklar** so`z yoki qo'shimchalar tarkibida birin-ketin kelib, o`zaro ulanadigan birliklardir. Bularga **nutq tovushlari** va **bo`g'in** kiradi. **2. Ustsegment (supersegment) birliklar** qo'simcha, so`z, jumla,

²² Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 682.

gap yoki matnning mazmun tomoniga aloqador birliklardir. Bu guruhga **urg`u**, **ohang (intonatsiya)**, **to`xtam (pauza)** kiradi.

Quyida shu birliklar bilan batafsil tanishamiz.

3-§. Nutq apparati

Avvalo, nutq tovushlarining **anatomik-fiziologik** tomonini ko`rib chiqamiz. Bunda nutq tovushlarining hosil bo`lishida ishtirok etadigan nutq a`zolari bilan tanishamiz. Bunday nutq a`zolarining jami **nutq apparati** deb yuritiladi.


Nutq apparatiga quyidagilar kiradi:

- 1. Nafas appa rati:** o`pka, bronxlar (bir juft), nafas yo`li (traxeya).
- 2. Bo`g`iz bo`sning ida** xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog`aylar hamda un paychalari joylashgan.
- 3. Og`iz bo`sning ida** til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan .
- 4. Burun bo`sning ida**.
- 5. Markaziy asab tizimi.**


Nutq a`zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a`zosining vazifasi xususida to`xtalib o`tamiz.

1-rasm²³. Nafas apparati:


1 – qalqonsimon tog`ay; 2 – uzuksimon tog`ay; 3 – kekirdak(traxeya); 4 – bronxlar; 5 – bronxlarning ichki tarmoqlari; 6 – o`pkaning tepe qismi; 7 – o`pkaning tag (ost) qismi .



A



B



2-rasm. Bo`g`iz(hiqildoq):

A – bo`g`izning old tomoni: 1 – qalqonsimon tog`ay; 2 – uzuksimon tog`ay; 3 – til osti suyagi; 4 – qalqonsimon tog`ayni til osti suyagiga ulab turuvchi pay; 5 – uzuksimon tog`ayni qalqonsimon tog`ay orasidagi pay; 6 – kekirdak(traxeya).


B - bo`g`izning orqa tomoni: qalqonsimon tog`ay; 2 – uzuksimon tog`ay; 3 –

²³ Rasmlar olinchasi Molxonov H.A. Hozirgi ozberadabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 27-29-betlar.

qalqonsimon tog`ayning yuqori shoxlari; 4 - qalqonsimon tog`aynini quyi shoxlari; 5 - cho`michsimon tog`aylar; 6 - bo`g`iz qopqog`I; 7 - traxeyaning pardasimon (orqa) qismi.


3-rasm. Bo`g`izning ko`ndalang kesilgandagi ko`rinishi:

1- *qalqonsimon tog`ay;* 2- *cho`michsimon tog`aylar;* 3 - *un psychalarining qirralari;* 4 - *ovoz psychalarini orasidagi tirkish.*




O`pka inson organizmini kislород билан та'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o`pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o`pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi.

Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo`g`izga** tomon harakatlanadi. Bo`g`izdagi **cho`michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog`aylar** un psychalarini ushlab turuvchi a'zolardir. **Un psychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o`xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog`ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko`z oldingizga keltiring). **Og`iz bo`shlig`i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko`p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (*q, g', x*) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi **burun bo`shlig`i** orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy asab tizimi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.



5-rasm. Nutq apparati. Yumshoq tanglay yuqori tomon siljigan:

Faol a'zolar: 1- lablar; 2 – tilning old qismi;



6-rasm. Nutq apparati. Yumshoq tanglay quyi tomon siljigan:

quyi siljigan:

3 – tilning o`rta qismi; 4 – tilning orqa qismi; I – og`iz bo`shtlig`i; II – halqum; III – burun
5 – til o`zagi; 6 – kichik til; 7 – yumshoq bo`shtlig`i; IV – bo`g`iz.
tanglay; 8 – halqumning orqa qismi.

Nofaol a'zolar: 9- old tomondagi yuqori
tishlarning uchi; 10 - old tomondagi yuqori
tishlarning orqa qismi; 11-12 – qattiq
tanglayning old qismi; 13 – tanglayning o`rta
qismi; 14 – yumshoq tanglayning old qismi; 15
- yumshoq tanglayning orqa qismi;

4-§. Fonetik akustika

Endi nutq tovushlarining fizik-akustik tomonlari bilan tanishamiz. Bunda fonetikaning fizika fani bo`limlaridan biri bo`lmish akustika bilan aloqadorligi namoyon bo`ladi va natijada fonetikada **fonetik akustika** degan bo`lim borligi aniqlanadi.

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning qulogqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o`pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo`ladigan ovoz va nutq a'zolarida **hosil** bo`ladigan shovqinning qulogqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida ko'yidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi ma'lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un paychalari ko'p tebransa, tovush baland bo`ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi ma'lum kenglikdagi maydonidan ma'lum vaqtida o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: "Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydonidan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdoridir"²⁴ Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil bo`ladi. Tovushlarning tembri og`iz bo`shtlig`i va burun bo`shtlig`ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo`lishiga bog'liq.

4. Tovushning cho'ziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo`ladi.

5-§. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Har qanday tovushni talaffuz qilishda biror nutq a'zosining faolligi yetarli bo`lmaydi. Bunda a'zolarning ma'lum izchillikdagi kompleks ishtiroki zarur bo`ladi. Nutq a'zolarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati **artikulyatsiya** (ingl. *bo`g`im* ma'nosi bildiradi²⁵) deyiladi. Artikulyatsiyada ikki narsa farqlanadi: **artikulyatsiya o'rni** va **artikulyatsiya usuli**. Tovush hosil qilishda u yoki bu nutq a'zosining faol qatnashgan qismi artikulyatsiya o'rni deyiladi. Masalan, **b**, **p** kabi tovushlarni hosil qilishda lablar, **d**, **t** kabi tovushlarni hosil qilishda esa tilning oldingi qismi qatnashadi. Demak, **b**, **p** tovushlarining artikulyatsiya o'rni lablar, **d**, **t** tovushlarining artikulyatsiya o'rni esa til oldidir.

Tovush hosil qilish paytida havo oqimining ikki nutq a'zosining bir-biri bilan jipslashishi natijasida portlab chiqishi yoki a'zolarning jipslashmay, ular orasidan sirg'alib o'tishi

²⁴ Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.

²⁵ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 49.

artikulyatsiya usulu deb ataladi. Masalan, *b, p, d, t* tovushlarining artikulyatsiya usulu – portlash, *v, f, z, s* tovushlarining artikulyatsiya usulu sirg‘alishdir.

FONOLOGIYA

4-§. Fonologiya haqida umumiy ma'lumot

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda “tovush haqidagi ta'limot” degan ma’noni bildiradi (*phone – tovush, logos - ta'limot*). “**Fonologiya, - deb yozadi Jorj Yul, - aslida tildagi nutq tovushlari tizimi va modellarini tavsiflashdir**”.²⁶ Bu bo`limda tovushlarning so`z va qo'shimchalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar **fonetika** bo`limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo`lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'r ganiladi. Fonetika va fonologiyaning o'zaro munosabatiga kelsak, ikkinchisi birinchisining yuqori bosqichidir, ya'ni fonetika nutqqa daxldor bo`lsa, fonologiya tilga taxdordir.

4-§. Tovush va fonema

Tovush va fonemaning o'zaro farqi ham nutq va til o'rtasidagi o'zaro farqqa borib taqaladi. Boshqacha aytganda, tovush nutqqa tegishli tushuncha bo'lsa, fonema tilga tegishli tushunchadir.

So`zlar tarkibidagi nutq tovushlari ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi. Bu ularning asosiy vazifasidir: *tob, toj, toy, tok, tol, tom, tor, top, tot, tosh, tog', toq*. Ko'rinyaptiki, bu so`zlar o'zaro bitta (oxirgi) tovush bilan farq qilyapti. So'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush **fonema** deb ataladi. Fonemaning aniq talaffuz qilingan, qulqoqqa eshitilgan ko'rinishi **tovush yoki fon (allofon)** deb yuritiladi²⁷. Masalan, *bir, bilan* so`zlaridagi qisqa *i, biy, tiy* so`zlaridagi cho`ziq *i, qirq, G'irot* so`zlaridagi ruscha *bi* ga yaqin aytildigan **i fon (allofon)** hisoblanadi. **Jorj Yul yuqorida zikr qilingan darsligida yozishicha, fonema ongda mavhum tushuncha sifatida mavjud bo`lgan paytda, real nutqda uning turli variantlari hosil bo`ladi.**²⁸

Fonemalarini tasnif qilganda ularni bir-biridan farqlantiruvchi belgilar **farqlovchi (differensial)** belgilar hisoblansa, shu tovushlar uchun umumiy belgilar esa **birlashtiruvchi (integral)** belgilar sanaladi: **b** va **p** tovushlari uchun lablar ishtirokida hosil bo'lish va portlochilik belgilari **birlashtiruvchi** belgilar sanalsa, jarangli-jarangsizlik belgisi **farqlovchi** belgidir.

5-§. Fonemalarning turlari

Fonemalar quyidagi xususiyatlariga ko`ra ikkita guruhga bo`linadi:

№	Unli fonemalar	Undosh fonemalar
1.	Unli fonemalar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi.	Undosh fonemalarni hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi.
2.	Unlilarni cho'zib talaffuz qilish mumkin.	Undoshlarni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi

²⁶ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.

²⁷ A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylar uchun darslik). I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 35-bet.

²⁸ George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010, 43-bet.

3.	Unlilar talaffuzida un paychalari albatta titraydi.	Undoshlar talaffuzida un paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.
4.	Unlilar bo`g in hosil qilib biladi: <i>a-ka, o-i-la, mu-do-fa-a</i> .	Undoshlar bo`g`in hosil qilib bilmaydi, ular bo`g`in tarkibida kelishi mumkin.

7-§. O`zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi

Hozirgi o`zbek adabiy tilida unli fonemalar oltita: *i, e, a, u, o‘, o*. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (*ingl. unli* degan ma`noni bildiradi²⁹) deb yuritiladi.

Unlilar hosil bo`lishida til va lablar faol ishtirok etadi, shuning uchun ular tasnifi uch xususiyatga asoslanadi: tilning oldinga yoki orqaga harakat qilish darajasiga, tilning tanglay tomon ko`tarilish darajasiga va lablarning ishtirokiga ko`ra. Shu jihatdan unlilar uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) tilning gorizontal harakatiga ko`ra;
- 2) tilning vertikal harakatiga ko`ra;
- 3) lablarning ishtirokiga ko`ra.

Tilning gorizontal harakatiga ko`ra unlilar ikki guruhga bo`linadi:

- 1) old qator unlilar: *i, e, a*;
- 2) orqa qator unlilar: *u, o‘, o*.

Og`iz bo`shlig`idagi eng faol a`zo **tildir**. U unlilarni talaffuz qilishda oldinga yoki orqaga qarab harakat qiladi. Masalan, *i, e, a* unlilarini hosil qilishda til oldinga siljiydi, *u, o‘, o* unlilarini hosil qilishda orqaga tortiladi.

Tilning vertikal harakatiga ko`ra unlilar uch turga ajratiladi:

- 1) yuqori (tor) unlilar: *i, u*;
- 2) o`rtta (keng) unlilar: *e, o‘*;
- 3) quyi (keng) unlilar: *a, o*.

Unlilar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko`tarilishi va tushishi **vertikal** harakat sanaladi. Bu harakat tufayli og`izning ochilish darajasi har xil bo`ladi. Masalan, *i, u* unlilarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi va og`izning ochilish darajasi tor bo`ladi; *a, o* unlilarini hosil qilishda esa til tanglaydan uzoqlashadi va til bilan tanglay o`rtasidagi oraliq keng bo`ladi.

Lablarning ishtirokiga ko`ra unlilar ikkiga bo`linadi:

- 1) lablangan unlilar: *u, o‘, o*;
- 2) lablanmagan unlilar: *i, e, a*.

Unlilar talaffuzida lablar ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi mumkin. Masalan, *u, o‘, o* unlilarini hosil qilishda lablar cho`chchayadi, *i, e, a* unlilarini hosil qilishda bunday holat kuzatilmaydi.

Unli fonemalar tasnifi jadvali:

Lablarning ishtirokiga ko`ra	Tilning gorizontal harakatiga ko`ra		Tilning vertikal harakatiga ko`ra
	Old qator	Orqa qator	
Yuqori tor unlilar	<i>i</i>		Lablanmagan
		<i>u</i>	Lablangan
O`rtta (keng) unlilar	<i>e</i>		Lablanmagan
		<i>o‘</i>	Lablangan
Quyi (keng) unlilar	<i>a</i>		Lablanmagan
		<i>o</i>	Lablangan

²⁹ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 843.

8-§. Ayrim unli fonemalar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida (*ipak*), so‘z o‘rtasida (*tilak*) va so‘z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so‘z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytildi: *bilan, sira*.
- 3) **k, g, x** undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytildi: *qir, G‘irot, oxir*.
- 4) cho‘ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) **e(e)** tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*,

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida (*urmoq*), so‘z o‘rtasida (*tugun*) va so‘z oxirida (*urg‘u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g‘ulg‘ula, tuxum* so‘zlarida esa til orqa varianti qo‘llangan.
- 4) **i** tovushi kabi kuchsizlanishi, ya’ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida, so‘zning birinchi bo‘g‘inida keladi: *eshik, elak, e’tibor, kel, bet* kabi.
- 2) jonli nutqda sheva ta’sirida **i** tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.
- 3) o‘g‘uz shevalarida **a** tovushiga o‘tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda **e** tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida (*ari*), o‘rtasida (*daftar*) va so‘z oxirida (*qora*) keladi.
- 2) **q, x, g‘** tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qaxr, g‘azab, xabar*.
- 3) ba’zi so‘zlarda sheva ta’sirida o tovush kabi aytildi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda a tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida (*olim*), o‘rtasida (*toza*) va so‘z oxirida (*bobo*) keladi.

O‘ unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda so‘zlarining asosan birinchi bo‘g‘inida uchraydi: *o‘g‘il, bo‘ri, to‘g‘ri, o‘rin, bo‘yin*.
- 2) o‘zlashma so‘zlarining oxirgi bo‘g‘inida ham keladi: *ro‘baro‘, xushro‘y, gulro‘, kubok, (kubo‘k)*.
- 3) til oldi varianti ham bor: *o‘rik, ko‘l, cho‘l*.

9-§. O‘zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi

10-§. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 24 ta undosh fonema bo‘lib, bular **b, d, f, g, h, j** (*jurnal, vijdon* kabi so‘zlardagi birinchi va ikkinchi undosh), **dj** (*jumla, joy* kabi so‘zlaridagi birinchi undosh), **k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng** fonemalaridir. Undosh fonemalar tizimi tilshunoslikda **konsonantizm** (ingl. *undosh* degan ma’nioni ifodalaydi³⁰) deb ham yuritiladi. Undosh fonemalar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) hosil bo‘lish (artikulyatsiya) o‘rniga ko‘ra;
- 2) hosil bo‘lish (artikulyatsiya) usuliga ko‘ra;
- 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra.

Hosil bo‘lish (artikulyatsiya) o‘rniga ko‘ra undoshlar uch guruhga bo‘linadi:

- 1) lab undoshlari;
- 2) til undoshlari;
- 3) bo‘g‘iz undoshi.

Lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida paydo bo‘luvchi undoshlar bo‘lib, ularga **b, n, m, v, f** undoshlari kiradi.

Lab undoshlaridan **b, p, m** undoshlari, shuningdek, *ov, qovun, vodiy, voris, birov* kabi so‘zlaridan **v** undoshi hamda *pufak, tuflı, juft, Fotima* kabi so‘zlaridagi **f** undoshi ikki lab orasida paydo bo‘ladi; *vatan, va‘da*,

³⁰ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 166.

vafو, vagon, arava kabi so‘zlar tarkibidagi v undoshi, *fazo, farzand, fitna, telefon* kabi so‘zlar tarkibidagi undoshi pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra lab undoshlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) lab-lab undoshlari: *b, p, m, v, f;*
- 2) lab-tish undoshlari: *v, f.*

Til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo‘lib, ularga *g, d, j* (*jurnal* so‘zidagi undosh), *dj* (*jilo* so‘zidagi undosh), *z, y, k, l, n, ng, r, s, m, x, ch, sh, q, g’* undoshlari kiradi.

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo‘lishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi, masalan, *z, s, sh* kabi undoshlar tilning old qismida, *y* undoshi tilning o‘rta qismida, *k, g, ng* kabi undoshlar tilning orqa qismida hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra til undoshlari to‘rt guruhga ajratiladi:

- 1) til oldi undoshlari: *d, j* (*jurnal* so‘zidagi kabi), *dj* (*jyda* so‘zidagi kabi) *z, l, n, r, s, t, ch, sh:*
- 2) til o‘rta undoshi: *y;*
- 3) til orqa undoshlari: *k, g, ng;*
- 4) chuqur til orqa undoshlari: *q, g’, x.*

Bo‘g‘iz undoshi faqat bitta – *h* dan iborat bo‘lib, u bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida paydo bo‘ladi.

Hosil bo‘lish (artikulyatsiya) usuliga ko‘ra undoshlar uch guruhgaga bo‘linadi:

- 1) portlovchilar;
- 2) sirg‘aluvchilar;
- 3) portlovchi – sirg‘aluvchilar.

Portlovchi undoshlar ikki nutq a’zosining o‘zaro jipslashuvi va o‘p kadan chiqayotgan havo oqimining ana shu a’zolarga zarb bilan urilib, portlab o‘tishidan hosil bo‘ladigan undoshlar bo‘lib, ularga *b, g, d, dj* (*jilva* so‘zidagi) *k, p, t, ch, q* undoshlari kiradi. Bular orasida *dj* (*jippi* so‘zidagi) va *ch* undoshlari o‘ziga xos artikulyatsiyasi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi:

- a) sof portlovchilar: *b, g, d, k, p, t, q;*
- b) qorishiq portlovchilar (affrikatlar): *dj* (*jahon* so‘zidagi) *dj* (*d+j*), *ch* (*t+sh*).

Sirg‘aluvchi undoshlar ikki nutq a’zosining bir-biriga yaqinlashishi va havo oqimining ana shu a’zo orasidan sirg‘alib chiqishi bilan hosil bo‘ladigan undoshlar bo‘lib, ularga *v, j* (*jirafa* so‘zidagi), *z, y, s, f, x, sh, g’, h* undoshlari kiradi.

Portlovchi – sirg‘aluvchi undoshlar bir vaqtning o‘zida ham portlash, ham sirg‘alish ro‘y berishi natijasida hosil bo‘ladi. Ularga *m, n, ng, l, r* undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg‘aluvchilar) dangina emas, balki o‘zaro ham farq qiladi. Chunonchi, *m* undoshining hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining bir qismi og‘iz bo‘shlig‘idan lablarning to‘siqligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib, *n* undoshining hosil bo‘lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqadi. Portlovchi-sirg‘aluvchilardan bo‘lmish *ng* undoshining talaffuzida tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, yarim portlash yuz beradi va havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi.

Demak, *m, n, ng* undoshlari talaffuz qilinganda, havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqqani ular burun undoshlari deb ataladi. *L* undoshini hosil qilishda til uchi milkka tegadi, ammo havo oqimining milkning ikki yonidan sirg‘alib o‘tishi uning og‘iz bo‘shlig‘idan qisman portlab, qisman sirg‘alib chiqishiga sabab bo‘ladi, shuning uchun u **yon tovush** deb ataladi; *r* undoshini hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tilning uchiga zarb bilan uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘idan yarim portlab, yarim sirg‘alib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun u **titroq tovush** deyiladi. Shu jihatdan portlovchi-sirg‘aluvchi tovushlar uch turga ajratiladi:

- a) **burun undoshlari:** *m, n, ng;*
- b) **yon undoshi:** *l;*
- c) **titroq undosh:** *r.*

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar dastlab ikki turga bo‘linadi:

1. Sonor yoki shovqin ishtirok etqan ovozdor undoshlar; 2. Shovqinli undoshlar.

Sonor (ingl. sonorous - jarangdor degani³¹) undoshlar tarkibiga ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo‘ladi, ularga *m, n, ng, l, r* undoshlari kiradi. Bunday undoshlarning hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi bo‘g‘iz bo‘shlig‘idagi un (ovozi) psychalarini faol ishtirok ettiradi, shuning uchun bu

³¹ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 843.

undoshlar unlilarga yaqin turadi. Lekin bu undoshlar havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida yuzaga keladi.

Shovqinli undoshlar tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko‘p bo‘ladi yoki ovoz mutlaqo qatnashmaydi. Ularga **b, v, g, d, j, dj** (*jigan* so‘zidagi kabi), **z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h** undoshlari kiradi. Bunday undoshlar tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko‘ra, ikki turga bo‘linadi:

1) **jarangli undoshlar** tarkibida qisman bo‘lsa-da ovoz qatnashgan shovqinli undoshlardir: **b, v, g, d, j, dj** (*jilg‘a* so‘zidagi kabi) **z, y, g‘**.

2) **jarangsiz undoshlar** faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘lgan, tarkibida ovoz mutlaqo qatnashmagan undoshlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, h**.

Undosh fonemalar tasnifi jadvali

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra	Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra	Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra						Bo‘g‘iz undoshi	
		Lab undoshlari		Til undoshlari					
		lab-lab	lab-tish	til oldi	til o‘rta	til orqa	Chuqr til orqa		
Portlovchilar	jarangli	b, m		d, r, n		g, ng			
	jarangsiz	p		t		k	q		
Sirg‘aluvchilar	jarangli		v	z, j, l	y		g‘		
	jarangsiz		f	s, sh			x	h	
Qorishiqlar	jarangsiz			ch					
	jarangli			j					

10-§. Undosh tovushlar tavsifi

1.Lab undoshlari

B fonemasi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh fonemasi bo‘lib, so‘z boshida (*bahor*), o‘rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu fonema so‘z oxirida kelganda jarangsizlashadi va **p** fonemasi bilan almashadi: *maktab* – *maktap*, *odob-* *odop*. Bu fonema ko‘pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe’l birikib talaffuz qilinganda, **v** fonemasi kabi aytiladi va ba’zan shunday yoziladi: *kabob* – *kavob*, *qobirg‘a* - *qovurg‘a*, *sabil* – *savil*, *qurbaqa* – *qurvaqa*, *ko‘ra ber* – *ko‘raver* kabi.

So‘z boshida kelgan **b** fonemasi ayrim shevalarda talaffuz paytida **m** fonemasiga o‘tadi: *murch* > *burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan **b** va **m** fonemalarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben* – *men*, *bunga* – *munga* va h.

V fonemasi – lab-lab va lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangli undosh fonemasi. So‘zning boshida (*vazifa*, *vafo*), o‘rtasida (*sovun*, *lavlagi*, *taqvim*) va oxirida (*o‘tov*, *birov*) kela oladi. Sof o‘zbekcha so‘zlarda bu fonema so‘z boshida deyarli qo‘llanmaydi.

M fonemasi - lab-lab, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*mehr*, *mo‘ylov*, *mulk*), o‘rtasida (*omon*, *umr*) va oxirida (*tom*, *bodom*, *qadam*) kela oladi.

P fonemasi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*pilla*, *po‘choq*, *parda*), o‘rtasida (*opa*, *qipiqa*, *to‘piq*) va oxirida (*cho‘p*, *top*, *sop*) kela oladi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida bu fonema deyarli uchramaydi.

F fonemasi - lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, faqat o‘zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning boshida (*faqir*, *oftob*, *fabrika*), o‘rtasida (*qofiya*, *iffat*, *kofe*) va oxirida (*sarf*, *urf*) kela oladi. Ba’zi so‘zlarda talaffuzda **p** fonemasi bilan

almashadi: *foyda* > *poyda*, *Farida* > *Parida*. Bunday o‘zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

2.Til undoshlari

T fonemasi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*to‘ti, tuxum*), o‘rtasi (*katta, vatan*) va oxirida (*savat, qavat, harakat*) kela oladi. O‘zbek milliy tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub shevalarda **t** ba’zan **d** ga o‘tadi: *tuz* > *duz*, *o‘t* > *o‘d* kabi. Bu o‘tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o‘zlashtirigan so‘zlardagi qo‘sh undoshlar tarkibidagi **t** fonemasi talaffuzda ko‘pincha tushib qoladi: *g‘isht* > *g‘ish*, *pastqam* > *pasqam*, *taksist* > *taksis* kabi. Bu o‘zgarish yozma imloda aks etmaydi.

D fonemasi til oldi, portlovchi, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*devor, do‘kon, dala*), o‘rtasida (*shabada, sodda, to‘da*) va oxirida (*qasd, hudud, gard*) kela oladi. So‘z oxirida kelgan **d** fonemasi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va **t** fonemasiga o‘tadi: *Asad*>*Asat*, *Samarqand*>*Samarqant*, *Xo‘jand*>*Xo‘jant* kabi. Bu fonema ham o‘zlashma so‘zlar tarkibidagi qo‘sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand*>*farzan*, *baland*>*balan*.

N fonemasi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*nom, nima, nusxa*), o‘rtasida (*aniq, tiniq*) va oxirida (*un, to‘n, son*) kela oladi. Bu fonema ayrim so‘zlar tarkibida **b** yoki **m** fonemalaridan oldin kelganda, shu fonemalar ta’sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) **m** fonemasiga o‘tadi: *manba*>*mamba*, *tanbal*>*tambal*, *ko‘nmadi* > *ko‘mmadi* kabi.

S fonemasi til oldi, sirg‘aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*soat, semiz, sabr*), o‘rtasida (*asar, mustaqil, osma*) va oxirida (*tus, mos, tovus*) kela oladi. Bu fonema o‘zbek tilidagi eng faol qo‘llanadigan fonemalardan biridir.

Z fonemasi til oldi, sirg‘aluvchi, shovqinli, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*zahar, zehn, zina*), o‘rtasida (*Aziza, andoza, qiziq*) va so‘z oxirida (*tig‘iz, qarz, yulduz*) kela oladi; bu fonema sof o‘zbekcha so‘zlarda so‘z boshida deyarli qo‘llanmaydi. Ayrim so‘zlar tarkibida yonidagi jarangsiz fonemalar ta’sirida ko‘pincha **s** fonemasiga o‘tadi: *rizq* > *risq*, *tuzsiz*>*tussis*. Bu fonema ba’zi so‘zlarda **y** fonemasiga mos kelishi mumkin: *sizlamoq*>*siylamoq*, *so‘zlamoq* > *so‘ylamoq*, *yozmoq* > *yoymoq* kabi.

Sh fonemasi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonemas bo‘lib, so‘z boshida (*shart, shahar, sholi*), o‘rtasida (*hashar, o‘sha*) va oxirida (*qish, yosh, tashvish*) keladi. Bu fonema so‘zlarning turli o‘rinlarida ko‘p qo‘llanadi.

J til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh fonema arab, fors-tojik va rus tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning boshida (*janr*), o‘rtasida (*vijdon, sajda, furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

J̄ til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh fonema so‘zning boshida (*jamalak, jabr, jilov*), o‘rtasida (*kajava, ojiz, o‘jar*) va oxirida (*xorij, xiroj, saj*) keladi. Bu fonema o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. O‘zlashma so‘zlar oxirida qo‘sh undoshlar tarkibida kelgan **J̄** fonemasi **ch** fonemasiga o‘xshab talaffuz qilinadi: *mavj*>*mavch*, *avj*>*avch*.

Ch fonemasi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘zning boshida (*chaqa, chigit, chuqur*), o‘rtasida (*achchiq, ochiq, ko‘cha*) va oxirida (*och, uch, kech*) keladi. Ayrim so‘zlarda o‘zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta’sirida talaffuzda **sh** fonemasiga o‘tadi: *kechdi*>*keshti*, *qochdi*>*qoshti*, *sochdi*>*soshti*.

L fonemasi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, jarangli (sonor) undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*lagan, latifa, lof*), o‘rtasida (*olis, uloq, belgi*) va oxirida (*kasal, kel, yol*) keladi. Bu fonema so‘z o‘rtasida kelganda so‘zlashuv nutqida ko‘pincha tushib qoladi: *olsa*>*osa*, *kelsa*>*kesa*, *bo‘lsa*>*bo‘sa*, *kelgan*>*kegan*.

R fonemasi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*randa, rang, ruh*), o‘rtasida (*arra, mo ‘ri, baraka*) va oxirida (*bozor, hozir, huzur*) keladi. Bu fonema sof o‘zbekcha (turkiysha) so‘zlar boshida qo‘llanmaydi.

Y fonemasi til o‘rta, sirg‘aluvchi va jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*yigit, yo ‘l, yil*), o‘rtasida (*sayr, qayir*) va oxirida (*to ‘y, uy, oy*) keladi.

K fonemasi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*katta, kim, ko ‘p*), o‘rtasida (*ikki, aka, uka*) va oxirida (*tilak, yuk, to ‘k*) keladi. Bu fonema bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga unli bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda, **k** fonemasi **g** fonemasiga o‘tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak>malagi, ko ‘ylak>ko ‘ylagim*.

G fonemasi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*gulxan, gilam, go ‘zal*), o‘rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu fonema sof o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. **G** fonemasi bilan boshlanadigan qo‘shimchalar **k** fonemasi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **k** fonemasiga, **q** fonemasi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda esa **q** fonemasiga aylanadi: *ko ‘k+ga > ko ‘kka, boq+gan >boqqan*. O‘zlashma so‘zlarda bunday o‘zgarish bo‘lmaydi: *geologga, biologga*.

Ng fonemasi til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida mutlaqo uchramaydi. So‘z o‘rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q fonemasi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*qadr, qovoq, qo ‘l*), o‘rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o ‘roq, yo ‘q*) keladi. Bu fonema ayrim ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo‘shimchalar qo‘shilsa, **g‘** fonemasiga almashadi: *qulog+im>qulog‘im, to ‘yoq+i >tuyog‘i. To ‘qson, maqtov, maqsad* kabi so‘zlarda esa **x** fonemasiga o‘xshab talaffuz qilinadi.

G‘ fonemasi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh fonemas bo‘lib, so‘z boshida (*g‘azab, g‘ildirak, g‘o ‘za*), o‘rtasida (*dag‘al, og‘ir, o ‘g‘ri*) va oxirida (*tog‘, bug‘, tig‘*) keladi.

X fonemasi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, so‘z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o‘rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo‘llanadi.

3. Bo‘g‘iz undoshi

H fonemasi bo‘g‘izda hosil qilinadigan, sirg‘aluvchi, jarangsiz fonema bo‘lib, so‘z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o‘rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo‘llanadi. Bu fonema asosan arab, fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi.

11-§. Qo‘sh tovushlar va ularning qo‘llanilishi

Ma’lumki, unli fonemalar so‘zlarni shakllantirishda yakka holda, qo‘sh holatda va ketma-ket holda qo‘llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o‘zbek tili tabiatiga xos bo‘lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o‘rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o‘rinda **qo‘sh** holda qo‘llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta’siri, xalqlarning o‘zaro aloqasi tufayli paydo bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o‘rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira, ...*

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo‘sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo‘sh holatda (*g, x, h, g‘* undoshlari bundan mustasno) qo‘llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o ‘ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to ‘qqiz*. Bu undoshlar talaffuzda ham qo‘sh tarzda aytildi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so‘zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Anna, Emma, milliard, affiks*. Qo‘sh unlilar so‘zning o‘rtasida (*manfaat*), so‘z oxirida (*mutolaa*), qo‘sh undoshlar esa so‘z boshida (*ssenariy*), o‘rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo‘llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so‘z oxirida **ketma-ket** (qator) kelishi qo‘s sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o‘zlashdi: *daraxt, g‘isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand* kabi.

O‘zbek tilida oldin so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo‘q edi, rus tili va boshqa tillarning ta’sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo‘ldi: *brom, prezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf* kabi.

13-§. Fonemalarining o‘zgarishi

Fonemalar bo‘g‘in, so‘z va jumla tarkibida qo‘llanib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi va buning natijasida xilma-xil o‘zgarishlarga uchraydi. Nutq zanjiridagi fonemalarning turlicha o‘zgarishlari **fonetik o‘zgarishlar** deb ataladi.

Fonetik o‘zgarishlar fonemalarning o‘zaro ta’siri natijasida yoki fonemalarning so‘z tarkibidagi o‘rniga qarab ro‘y berishi mumkin. Shunga ko‘ra ular ikki xil bo‘ladi:

1. **Kombinator o‘zgarishlar.**
2. **Pozitsion o‘zgarishlar.**

Masalan: *ketdi* va *obod* so‘zlaridagi **d** undoshi **t** undoshi kabi talaffuz qilinadi. [ketti], [obot]; birinchi holatda jarangli **d** undoshi jarangsiz t undoshi ta’sirida o‘zgaradi (kombinator o‘zgarish yuz beradi); ikkinchi holatda so‘z oxirida kelgan jarangli **d** undoshi jarangsizlashadi (demak, pozitsion o‘zgarish yuz beradi).

1. Kombinator o‘zgarishlar

So‘z tarkibidagi fonemalarning o‘zaro ta’siriga ko‘ra o‘zgarishi **kombinator o‘zgarishlar** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. **Assimilyatsiya** (ingl. **assimilation** - o‘xshatish degani³²) hodisasiga ko‘ra so‘z tarkibidagi bir xil toifadagi fonemalardan biri ikkinchisini o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatib oladi. Masalan: *chiq+gan* → *chiqqan*. Bunda o‘zak tarkibadagi **q** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini aynan o‘ziga o‘xhash fonema **q** ga aylantiriladi; *tosh+gan* → *toshkan*. Bunda o‘zakdagagi jarangsiz **sh** fonemasi affiks tarkibidagi **g** fonemasini o‘ziga qisman o‘xshatadi, yozilishi: *toshgan*. Shunga ko‘ra assimilyatsiya ikki turga bo‘linadi:

- 1) **to‘liq assimilyatsiya;**
- 2) **to‘liqsiz assimilyatsiya.**

So‘z tarkibidagi bir fonemaning boshqasini aynan o‘zi kabi fonemaga aylantirishi **to‘liq** assimilyatsiyadir: *bir+ta=bitta, tuz+sa=tussa, ayt+di=aytti*, (yozilishi *tuzsa, aytdi*).

So‘z tarkibidagi bir fonemaning boshqasini qisman o‘xshatib olishi **to‘liqsiz** assimiltatsiya bo‘ladi: *ish+ga=ishka, osh+di=oshki, shan+ba=shamba*, (yozilishi: *ishga, oshki, shamba*).

Oldin kelgan fonema o‘zidan keyin kelgan fonemani (masalan, *bilak+ga=bilakka*) yoki aksincha keyin kelgan fonema o‘zidan oldin kelgan fonemani (masalan, *non+voy=novvoy*) o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatishi mumkin. Shunga ko‘ra assimilyatsiya yana ikki turga ajratiladi:

- 1) **progressiv assimilyatsiya;**
- 2) **regressiv assimilyatsiya.**

Progressiv assimilyatsiyada oldingi fonema o‘zidan keyin fonemani o‘ziga o‘xshatadi: *qishloq+ga→qishloqqa, idish+da→idishta, ko‘k+ga→ko‘kka* (yozilishi *qishloqqa, idishda, ko‘kka*).

Rewgressiv assimilyatsiyada keyingi fonema o‘zidan oldingi fonemani o‘ziga o‘xshatadi: *tanbur→tambur, mazkur→maskur*, (yozilishi: *tanbur, mazkur*).

O‘zgargan fonemalar orasidagi masofa jihatidan assimilyatsiya ikkiga bo‘linadi:
1) **kontakt assimilyatsiya** yonma-yon kelgan undoshlarning o‘zaro o‘xhash bo‘lib qolishidir: *oq+gan→oqqan*; 2) **distant assimilyatsiya** uzoqda joylashgan fonemalarning o‘zaro ta’sir natijasida o‘zgarishidir: *soch→choch*.

2. **Akkomodatsiya** (ingl. **accommodation** – moslashuv degani³³) hodisasida unli va undosh tovushlarning bir-biriga ta’siri natijasida o‘zaro moslashuvidir. Masalan, *go‘zal* so‘zidagi **o`** orqa qator

³² Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 52.

³³ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 19.

unlisi *g* undoshi ta'sirida old qator unliga aylanadi. Bunda ikki holat kuzatiladi: **1) unli undoshga moslashadi** (misol yuqorida); **2) undosh unliga moslashadi:** *shafqat* so`zidagi *f* undoshi lab-tish undoshi hisoblansa, *pufak* so`zida bu fonema *u* unlisining ta'sirada lab-lab undoshiga o'zgaradi, uni lab va tish orqali talaffuz qilishning iloji yo`q.

Akkomodatsiya ham moslashgan tovushlarning **o`rniga** qarab ikki xil bo`ladi: **a)** **progressiv akkomodatsiyada** oldingi tovush keyingi tovushga ta'sir qiladi: *gul* so`zidagi oldingi *g* tovushi keyingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga aylantiradi; **b) regressiv akkomodatsiyada** keyingi tovush oldingisini o'zgartiradi: *bukmoq* so`zidagi *k* undoshi o`zidan oldingi orqa qator *u* unlisini old qator unliga o'zgartiradi.

3. Dissimilyatsiya (ingl. **dissimilation** - *noo'xshashlik* deganidir) hodisasiga ko'ra ikkita aynan yoki qisman bir xil fonemadan biri o'zgarib, noo'xshash fonemaga aylanadi: *zarur*→*zaril*, *mabodo*→*nabodo*, *bebosh*→*bevosh* (yozilishi: *zarur*, *mabodo*, *bebosh*).

Dissimilyatsiya ham o'zgarishning yo`nalishiga qarab ikki xil bo`ladi: **a) progressiv dissimilyatsiyada** keyingi tovush o'zgarishga uchraydi: *birorta* → *bironita*; **b) regressiv dissimilyatsiyada** oldingi tovush o'zgarishga uchraydi: *to qson* → *to xson*.

4. Metateza (ingl. **metathesis** - *o`rin almashish* deganidir³⁴) hodisasiga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlar o`rin almashadi: *daryo*→*dayro*, *ahvol*→*avhol*, *tuproq*→*turpoq*, *yomg`ir*→*yong`ir* (yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *tuproq*, *yomg`ir*)

2.Pozitsion o'zgarishlar

So'z tarkibidagi tovushlarning o'rniga ko'ra o'zgarishi **pozitsion o'zgarishlar** deyiladi. Bunga quyidagi hodisalar kiradi:

- 1. Aferezis** – keyingi so`z boshidagi unlinking tushirilishi: *ne uchun*→*nechun*.
- 2. Apokopa** – so'z oxiridagi tovushning tushirib qoldirilishi: *do'st* →*do's*, *farzand* →*farzan*, *Toshkent*→*Toshken*, *Samarqand*→*Samarqan*.
- 3. Eliziya** – unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanadigan so'zning qo'shilishi natijasida birinchi so'z oxiridagi unlining tishishi: *yoza oldi* →*yozoldi*, *bora oldi* →*boroldi* kabi.
- 4. Epenteza** – so'z o'rtasida tovush orttirilishi: *sinf*→*sinif*, *fikr*→*fikir*, *aql*→*aqil* kabilar.
- 5. Epiteza** – so'z oxirida tovush orttirilishi: *otpusk*→*otpuska*, *kiosk*→*kioska*, *tank*→*tanka* kabi.
- 6. Geminatsiya** – so`zdagi bir undoshning ikkilantirilishi: *maza*→*mazza*, *achi+q*→*acchiq*, *isi+q*→*issiq*.
- 7. Degeminatsiya** - geminatsiyaning teskarisi: *sen+ni*→*seni*, *qay+yoqqa*→*qayoqqa*.
- 8. Prokopa** – so'z boshida tovush tushirilishi: *ylon*→*ilon*, *yigna*→*igna*.
- 9. Proteza** – so'z boshida tovush orttirilishi: *rus*→*o'ris*, *shkaf*→*ishkaf*, *stol*→*ustol* kabi.
- 10. Reduksiya** – unli tovushning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: *bilan*→*bylan*, *biroq*→*buroq*, *birikma*→*brikma* kabi.
- 11. Sandxi** - to`liqsiz fe'llarning birinchi tovushi tushirib, oldingi fe'lga qo'shib yozilshi: *kelar edi*→*kelardi*.
- 12. Singarmonizm** - unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inida qanday unli kelsa, keyingi bo'g'inida ham shunday unli kelishi kerak: *burun*, *quruq*, *uzun*. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan. Masalan, *bola* so'zida birinchi unli til orqa bo'lsa, ikkinchisi til oldi unli.
- 13. Sinkopa** – so'z o'rtasidagi tovushning tushib qolishi: *sust+ay*→*susay*, *pastqam*→*pasqam* (*pastqam*), *o'gil*→*o'g'li*, *burun*→*burni*, *shahar*→*shahri* kabi.
- 14. Sinerezis** - ketma-ket kelgan unlilarning bir cho`ziq unli sifatida aytilishi: *mudofaa*→*mudofa*, *maorif*→*mo:rif*.
- 15. Spirantizatsiya** – ayrim jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi: *ko`ylak+i*→*ko`ylagi*, *o`choq+i*→*o`chog`i*.

³⁴ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр. 477.

14-§. Transkripsiya

16-§. Og‘zaki nutqda fonemalarning turlicha o‘zgarishlarini, har xil variantlarda talaffuz etilishini aniq aks ettiradigan yozuv **fonetik yozuv** yoki **transkripsiya** (*ingl. transcription – qayta yozish degani*³⁵) deyiladi. Bu yozuvda harflardan tashqari, maxsus belgilar ham ishlataladi.

Transkripsadagi ko‘pchilik belgilar alfavitdagi harflardan farq qilmaydi, ayrim o‘rinlarda ba’zi qo‘sishimcha belgilar olinadi. Lekin transkripsiyyada alfavitda bo‘lmagan ba’zi belgi – harflar ham qo‘llanadi.

Transkripsiyaning asosiy qoidalari va unda ishlataladigan belgi – harflar quyidagilardan iborat:

1. Transkripsiya qilinadigan tovush yoki nutq parchasi kvadrat qavslarga olinadi: *kitob* –[kitob], *telefon* – [tilifon].

2. Transkripsiyyada nutqiy taktlar bir – biridan bitta vertikal chiziq bilan, jumlalar esa ikkita vertikal chiziq // bilan ajratiladi. Katta harflar ishlatilmaydi.

3. Ilki bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u belgisi qo‘yiladi, bir bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u qo‘yilmaydi: [paxtā], [paxtakór], [gap].

4. [ɔ] belgisi *o* unlisini ifodalaydi: [qɔ p], [ɔ zɔ t], [ɔ bɔ t].

5. [oɔ] harf belgisi *o*unlisini ifodalaydi: [ozarɔ], [kon], [sozlar].

6. [b] belgisi *bilan, chigit, kishi* kabi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidagi hamda *tik, bir, chit* kabi bir bo‘g‘inli so‘zlarda qisqa til oldi unlisini ifodalaydi: *bylan, ch̥igit, k̥ishi, t̥ik, b̥ir, ch̥it*.

7. [b] belgisi *qish, g‘isht, xirmon* kabi *q̥ish, g̥̥isht, x̥irmon*.

8. *b, g, d, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, x, q, g̥, h* harflari o‘z vazifasida ishlataladi.

9. [v] belgisi *vaza, vazir, zavod* kabi so‘zlarda lab-tish undoshini ifodalaydi: *vaza, vazi:r, zavot*.

10. [w] belgisi *vodiy, sovuq, saylov* kabi so‘zlarda lab – lab *v* undoshini ifodalaydi: [wədi:], [sɔwəq], [saylow].

11. [f] belgisi *fazo, fabrika, fil* kabi so‘zlarda lab – tish undoshini ifodalaydi: [fazɔ], [fabrika], [fil].

12. [f] belgisi *tufli, tuf, uf* kabi so‘zlarda lab-lab *f* undoshini ifodalaydi: [tuf'li], [tuf'], [uf'].

13. [j] belgisi *juda, jazo, jilva* kabi so‘zlarda jarangli qorishiq portlovchi undoshini ifodalaydi: [judaj], [jazoj], [jilva].

14. [ŋ] belgisi *ng* til orqa burun tovushini ifodalaydi: [oŋ], [eŋ], [mŋ].

15. [ç] belgisi til oldi jarangsiz qorishiq portlovchi *ch* undoshini ifodalaydi: [çədam], [çaros].

16. [ʃ] belgisi til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi *sh* undoshni ifodalaydi: [şaşmaqɔm], [şaşka], [şarçyit].

17. Unli tovushning cho‘ziqligi [:] belgisini unlinking o‘ng tomoniga qo‘yilishi bilan ko‘rsatiladi [ilmi:], [me:mor], [a:lo].

18. Undosh tovushning yumshoq talaffuz qilinishi /'j/ belgisini undoshning o‘ng tomoniga, teparoqqa qo‘yilishi bilan ko‘rsatiladi: [aprel'], [iyun'], [iyul'].

15-§. Nutqning fonetik bo‘linishi

Nutqimiz tovushlar oqimidan, tovush zanjiridan iborat. Bu zanjir turlicha hajmdagi fonetik bo‘laklarga ajratiladi. O‘zbek tilida bunday bo‘laklarga **matn**, **jumla (fraza)**, **takt**, **fonetik so‘z**, **bo‘g‘in** va **tovush** kiradi.

1. Matn. Bir mavzu atrofiga birlashgan va turli vositalar bilan o‘zaro bog‘langan mustaqil gaplardan iborat bo‘lgan butunlik matn deb ataladi: *Vatan! Vatan tuyg‘usi. Vatan muhabbatı. Nimadir bular? Bular qanday sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyo ko‘rmagan, turmushning pastrbalandlaridan bexabar, o‘yin-u sho‘xliklardan o‘zga dardi yo‘q bir o‘smirning yuragiga jo bo‘lib olib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini boshqarib turadi? Bu tuyg‘u inson farzandida tug‘ma bo‘larmiñ?* (O.Sh.)

2. Jumla (fraza) nutq oqimida kattaroq pauza (to‘xtam) bilan ajratib aytildigan nutq birligidir. Masalan, *Kech kuz edi.// Qo‘qqisdan boshlangan qora sovuq cho‘ponlarni tashvishga solib qo‘ydi* (M.Qoriyev). Mazkur_tovushlar zanjiri pauzalar vositasida ikki jumla bo‘linadi (ular orasidagi chegara ikki vertikal chiziqlar //) bilan belgilangan. Jumla intonatsion va fikriy tugallikka ega bo‘lgani uchun

³⁵ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.801.

ko'pincha gapga teng keladi. Lekin jumla va gap bir xil tushunchalar emas. Jumla - fonetik birlik, gap grammatik birlik. Ular tilning har xil sathlariga mansubdir. Jumla taktlarga bo'linishi mumkun .

3. Takt – jumla (fraz) ichida qisqa pauza bilan ajratib aytildigan nutq birligi. Masalan, yuqorida keltirilgan nutq zanjiridagi birinchi jumla (*Kech kuz edi*) bitta taktga teng. Ikkinci jumla – (*Qo'qqisidan boshlangan qorasovuq / cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi*) ikki taktdan iborat bolib (ular orasidagi chegara bir vertikal chiziq bilan belgilangan), birinchi takt uch fonetik so'zdan, ikkinchi esa ikkita fonetik so'zdan tashkil topgan. Birdan ortiq fonetik so'zdan tuzilgan taktlar ma'no va sintaktik jihatdan yaxlitlikka ega bo'ladi.

Shunday qilib, jumla va takt ritmik-intonatsion vositalar orqali ajratiladi. Takt bir fonetik so'zdan yoki bir necha fonetik so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

4. Fonetik so'z o'z urg'usiga ega bo'lgan so'z yoki bir urg'uga birlashadigan ikki va undan ortiq so'z shakllaridir. Takt tarkibidagi fonetik so'zlar soni undagi so'zlarning umumiyligini bilan emas, balki urg'uli so'zlar miqdori bilan belgilanadi, boshqacha aytganda, takt ichida urg'uli so'z qancha bo'lsa, fonetik so'z ham shuncha bo'ladi. Masalan: *Qalamkashga / qishloqning qalbi, / shaharning aqli kerak.* // (O'. Hoshimov).

Bu jumlada uchta takt bo'lib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda ikkita, uchinchi taktda uchta fonetik so'z qatnashgan. Bu jumladi so'zlarning umumiyligini soniga teng.

Mustaqil urg'uga ega bo'lmasigan yordamchi so'zlar o'ziga aloqador bo'lgan so'z bilan birga bir urg'uga ega bo'lib, bir fonetik so'zni tashkil etadi. Masalan: *Mevali daraxt o'ziga ishongani uchun, yonidan yangi nihol o'sib chiqsa, quvonadi.* (O'. Hoshimov). Mazkur jumlada 9 ta fonetik so'z bo'lib, bularning ikkitasi tarkibida ko'makchi (*ishongani uchun*) va ko'makchi fe'l (*o'sib chiqsa*) qatnashgan.

Bir tushunchani ifodalaydigan qo'shma so'zlar ham bir fonetik so'z sanaladi. Masalan: *Badiiy asar o'quvchining ongiga ta'sir qiladi, biroq qalbi orgali ta'sir qiladi.* (O'. Hoshimov). Bu jumla tarkibidagi *ta'sir qiladi* qo'shma fe'l bitta fonetik so'z deb qaraladi.

Fonetik so'z bo'g'indarga bo'linishi mumkin.

5. Bo'g'in – o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytildigan fonemalar yoki ayrim bir fonemadir. Fonologiyada bo'g'in **sillabema (ingl. silla**ble – **bo'g'in degani**³⁶) deb ataladai. Unli bo'g'in hosil qiluvchi fonema sanaladi. Shuning uchun ham so'z tarkibida nechta unli bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Masalan: *adolat* so'zida (a-do-lat) uch bo'g'in bo'lib, birinchi bo'g'in bir fonemadan, ikkinchi bo'g'in ikki fonemadan, uchinchi bo'g'in uch fonemadan iborat. Shuning uchun bo'g'inlar **bir** fonemali, **ikki** fonemali va **ko'p** fonemali bo'lishi mumkin. Bir fonemali bo'g'inlar unlidan iborat bo'lsa, ikki fonemali va ko'p fonemali bo'g'inlar unli va undoshlardan tuziladi.

Bo'g'inlar **qanday tugashiga yoki boshlanishiga** qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1) ochiq bo'g'in – bir fonemali yoki oxiri unli bilan tugagan bo'ldi: *o – na, o – ta, a – ka, bo – la, ja – zi – ra – ma, Ma – li – ka;*

2) yopiq bo'g'in undosh bilan tugagan bo'g'in: *mak – tab, kap – tar, daf – tar, shuh – rat, gul – zor, Tosh – kent.*

3) berkitilgan bo'g'in – undosh bilan boshlanadigan bo'g'in: *mak-tub, poch-ta, te-leg-ram-ma, sez-gir, ziy-rak, ja-sur;*

4) berkitilmagan bo'g'in – unli bilan boshlanadigan bo'g'in: *o-i-(la), ol-, il-, ot-, o't-.*

Hozirgi o'zbek tilida **tarkibiy jihatdan** quyidagi bo'g'inlar uchraydi (bunda V (vokal) – unli fonema, C (consonants) – undosh fonema belgisi hisoblanadi):

- 1) V – u, a;
- 2) VC – ish, oq, ek...;
- 3) CV – shu, ma, be...;
- 4) VCC – aft, ishq, ilm...;
- 5) CVC – bor, gul, dog`...;
- 6) VCCC – Orsk, Omsk, ...;
- 7) CCCV – Brno, ...;
- 8) CVCC – barg, vazn, gard...;
- 9) CCVC – kran, stol, xrom...;
- 10) CCVCC – kross, sport, spirt...;

³⁶ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.765.

- 11) VCCCC – Ernst, ...;
 - 12) CCVCCC – Dnestr, spektr, ...;
 - 13) CCCCCCVC – Mkrchyan, ...;
- So‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi:
- 1) yozuvda so‘zning bir qatorga sig‘may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo‘g‘in asosida ko‘chiriladi;
 - 2) birinchi sinf o‘quvchilarini savodga o‘rgatish davrida asosiy diqqat so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish va yozishga qaratiladi.
 - 3) barmoq vaznida yoziladigan she‘r misralari bo‘g‘in sonining teng bo‘lishiga asoslanadi.
- 6. Tovush** bo‘g‘in (yoki so‘z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo‘linmaydigan fonetik birlikdir.

16-§. Urg‘u

So‘z (fonetik so‘z) tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining yoki (jumla) tarkibidagi so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi **urg‘u** deyiladi. Fonologiyada urg‘u **aksentema** (ingl. **accent** – **urg‘u** degani³⁷) deb yuritiladi.

Urg‘u so‘z tarkibidagi biror bo‘g‘inga ham, gap tarkibidagi biror so‘zga (bo‘lakka) ham tushishi mumkin. Shunga ko‘ra urg‘u ikki turga ajratiladi:

1. So‘z urg‘usi (yoki leksik urg‘u);
2. Gap urg‘usi (yoki logik urg‘u).

So‘z bo‘g‘inlaridan biriga tushadigan urg‘u **so‘z urg‘usi** (yoki **leksik urg‘u**) deyiladi. Leksik urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi.

- 1) **bog‘liq urg‘u;**
- 2) **erkin urg‘u.**

So‘zning biror bo‘g‘ini bilan bog‘liq bo‘lgan urg‘u **bog‘liq urg‘u** deyiladi. O‘zbek tilida urg‘u asosan, so‘zning asosiy bo‘g‘iniga tushadi, shuning uchun so‘zlarga affikslar qo‘shilishi bilan urg‘u ham oxirgi bo‘ginga ko‘cha boshlaydi. Masalan: *uzúim- uzumzor-uzumzorlár-uzumzorlarní*.

O‘zbek tilida urg‘usi birinchi bo‘g‘inga, ba’zan ikkinchi bo‘g‘inga tushadigan so‘zlar ham bor. Quyidagi so‘zlarda urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi: *hámma, bárcha, dóim, hózir, álso, gárchand, lékin, gárchi, hátto*. Ko‘rinadiki, bunday so‘zlar ayrim olmoshlar, ravishlar, bog‘lovchilar, yuklamalar guruhida uchraydi.

Ba’zi ravishlarda, modal so‘zlarda urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushadi: *hamísha, albáttá, afsúske*.

O‘zbek tilida urg‘u olmaydigan affikslar va affiks yuklamalar ham borki, ular quyidagilardan iborat:

- a) fe’lning bo‘lishsizligini ifodalovchi – *ma* affksi: *bórma, yózma, ishláma*;
- b) o‘xshtish ma’nosini ifodalovchi – *cha, - day* (- dek) affikslari: *qúshcha* (*Uning qúshcha kuchi qolmadi*), *qúshday* (*U qúshday yengil his qildi o‘zini*);
- c) ot kesim tarkibidagi - *man, -san, -miz, -siz* kabi shaxs-son affikslari, shuningdek, -*dir* affiks bog‘lamasi: *Men o‘qituvchíman. Kitob bilim manbaídır*.
- d) -*ku, -ki, -mi, -chi, -a (-ya), -u (yu), -da, gina* kabi affiks yuklamalari: *bordí-ku, nimaíki, ulárgina, bórmi, ú-chi?*

So‘zning turli bo‘g‘inlariga tushishi mumkin bo‘lgan urg‘u **erkin urg‘u** deyiladi. Bu urg‘u asosan, ruscha – baynalminal so‘zlarga xos. Masalan, *fábrika, kómpas, tráktor, síntaxis* (birinchi bo‘g‘inda); *proféssor, kompyúter, trolléybus, kikbóksing* (ikkinchi bo‘g‘inda); *displéy, futból, telegráf, telefón* (oxirgi bo‘g‘inda).

Leksik urg‘u muhim amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, u talaffuz qilish me’yorlarini belgilaydi, ikkinchidan, so‘z ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: *fízik* – shaxs oti, *fízik* – sifat, *olma* – mevali daraxt ma’nosini bildiruvchi ot, *ólma* – bo‘lishsizlik ma’nosidagi fe’l.

Logik urg‘u (yoki gap urg‘usi) gap tarkibidagi so‘zlardan (gap bo‘laklaridan) biriga tushadigan urg‘udir. Bunda so‘zlovchi o‘ziga muhim sanagan so‘zni boshqalariga nisbatan kuchliroq aytadi va bu bilan tinglovchining diqqatini shu so‘zga qaratadi. Masalan: *Adab aqilning tashqi suratidir*. (“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.”) gapida logik urg‘u quyidagicha tus olishi mumkin:

³⁷ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.19.

Adab (*boshqa narsa emas*) *aqlning tashqi suratidir.*
Adab aqlning (*boshqa narsaning emas*) *tashqi suratidir.*
Adab aqlning tashqi (*ichki emas*) *suratidir.*

16-§. Ohang

Fonetik-fonologik tizimning ustsegment birliklaridan biri ohangdir. **Ohang** - bu nutq melodikasi, gap urg'usi, to`xtam(pauza), sur'at, ritm va tembr yig`indisidir.

1. Nutq melodikasi deganda og`zaki aytilgan gapda ovozning ko`tarilishi va pasayishini tushunish lozim. Masalan, darak, so`roq va buyruq gaplarning ohangi bir-biridan farq qiladi. Darak gap tinch ohang bilan, so`roq gap ko`tariluvchi ohang bilan, buyruq gap esa buyruq ohangi bilan aytildi.

2. Nutq ritmi deganda badiiy matndagi vazndoshlikni, ohangdoshlikni tushunish kerak. Masalan, quyidagi misralarni tekshirib ko`ramiz:

*Vodiylni / yayov kezganda,
Bir ajib his / bor edi menda.* (H.Olimjon)

Birinchidan, har ikkala misra ham 9 ta bo`g`indan iborat. Ikkinchidan, har ikkala misradagi turoqlar bir xil miqdordagi bo`g`inlardan tashkil topgan: $4 + 5 = 9$. Uchinchidan, har ikkala misra ham o`zaro qofiyadosh so`zlarga ega: *kezganda / menda*. Bularning barchasi nutq ritmini hosil qiladi.

3. Nutq tempi deganda gap tarkibidagi tovushlarni talaffuz qilishdagi sur'at, daraja va tezlikni tushunish kerak. Masalan, darak gaplarda gap boshida sekin, oxiriga borib tezlashadi, so`roq gaplarda teskarisi – gap boshida tez, oxirida sekinlashadi, buyruq gaplarda esa gap oxiriga qarab tezlashib boradi, lekin oxirgi so`z tezligi keskin pasayadi.

4. Nutq intensivligi talaffuzning kuchli va kuchsiz bo`lishidir. Masalan, uy ichidagi nutq ko`chadagiga nisbatan kuchsiz bo`ladi.

5. Nutq tembri nutqning bo`yoq dorligidir. Nutq quvnoq, shodon, ma'yus, g`amgin bo`lishi mumkin.

6. To`xtam (pauza) nutq paytida nafasni rostlash uchun yoki ma'lum bir so`zni ta'kidlash uchun qilingan to`xtrashlardir.

Ohangning **tugallangan, tugallanmagan, darak, so`roq, undov, chaqiruv, sanash** ohangi kabi turlari mayjud.

Ohang gapning yaxlitligini, gap turlarin farqlashda katta ahamiyatga ega.

17-§. Orfoepiya

1. Orfoepiya haqida umumiylar ma'lumot

Orfoepiya³⁸ adabiy til talaffuz me`yorlarini o`rganuvchi tilshunoslikning sohasidir.

Orfoepiya milliy til uchun yagona talaffuz me`yorlarini belgilaydi. Ma'lumki, o`zbek milliy tili dialektik tarkibi jihatdan rang-barang bo`lib, u uch katta lahja(dialekt)ni o`z ichiga oladi:

1. Qipchoq lahjasi.

2. O`g`uz lahjasi.

3. Qarlug` – chigil – uyg`ur lahjasi.

Bu lahjalar ba`zi leksik, fonetik va morfologik belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, qipchoq lahjasida so`z boshida adabiy tildagi *y* undoshi o`rnida *j* undoshi (*yo`q*→*jo`q*, *yigirma*→*jigirma*) talaffuz qilinadi: *ch* undoshi o`rnida *sh* undoshi (*kech*→*kesh*, *kechir*→*keshir*) aytildi.

O`g`uz lahjasida so`z boshida kelgan *t*, *k* jarangsiz undoshlari *d*, *g* jarangli undoshlari tarzida aytildi: *tog*→*dog*, *keldi*→*galdi*.

Qarlug` – chigil – uyg`ur lahjasida esa so`z ohiridagi *q* undoshi *g`* tarzida talaffuz qilinadi yoki umuman talaffuz qilanmaydi, *k* undoshi *y* tarzida aytildi: *qishloq*→*qishlog`*, (yoki *qishlo:*), *iliq*→*ilig`* (yoki *ilu:*), *qatiq*→*qatig`* (yoki *qatu:*), *kesak*→*kesay*, *kepak*→*kepay*, *telpak*→*telpay*. Lekin, so`zlar tarkibidagi tovushlar har xil lahjalarda turlicha talaffuz qilinsa ham, adabiy til an'analariga mos keladiganlari tanlab olinadi.

Adabiy talaffuz me`yorlarini tilning tovushlar tizimi (sistemasi) asosida yaratiladi, bu esa talaffuz me`yorlarini belgilashda tilning tovush tarkibi, ularning nutqdagi turli kombinator va pozitsion o`zgarishlarini hisobga olishini taqozo etadi. Masalan, so`z oxirida kelgan *b* undoshining jarangsiz *p* tarzida aytish: *kitop*, *maktab*, *kelip* (yozilishi: *kitob*, *maktab*, *kelib*), *q* undoshining so`z o`rtasida *s* yoki

³⁸ Orfoepiya - grekcha *orphos* – “to`g`ri” epos – “nutq” degani.

sh undoshidan oldin kelib, **x** tarzida talaffuz qilinishi: *oxsil, oxshom, taxsim* (yozilishi: *oqsil, oqshom, taqsim*), **ba'zan** so'z oxirida kelgan **d, t** undoshlarining talaffuzda tushib qolishi: *xursan, monan, farzan, do's, sus, g'ish* (yozilishi: *xursand, monand, farzand, do'st, sust, g'isht*) adabiy talaffuz me'yorlariga mos.

Ko'rinaridiki, so'zning talaffuzdagi shakli yozuvdag'i shakliga hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. Orfoepiya unlilar talaffuzi, ayrim undoshlar talaffuzi, o'zlashma so'zlar talaffuzi, ayrim grammatik shakllar talaffuzi qoidalarini o'z ichiga oladi.

1. Unlilar orfoepiyasi

i unlisi:

1) *bir, bitta, kir, tiq* kabi bir bo'g'inli so'zlarda, *kishi, bilan, bilak, tila, firibgar* kabi ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarda qisqa aytildi;

2) chuqur til orqa undoshlari *q, g'*; **x** dan keyin kelganda, qisqa til orqa unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qish, qirg'iz, qirmizi, og'iz, g'irrom, xira, axir* kabi;

3) *bino, ahil, do'stlik, birja* kabi so'zlarda, shuningdek, **y** undoshdan oldin kelganda, cho'ziq talaffuz qilinadi: *ziyrak, tiyrak, biyron, tiyin* kabi.

U unlisi:

1) *kun, tun, buvi, buloq* kabi so'zlarda qisqa aytildi;

2) *maxsus, mag'rur, masrur, urg'u, yozuv* kabi so'zlarda, shuningdek, **y** undoshlaridan oldin kelganda, cho'ziq talaffuz qilinadi: *tuyg'u, buyruq, uyg'ur* kabi;

3) *tugun, tutun, tuzum, tushuncha, ustun* kabi so'zlarning ikkinchi bo'g'inida qisqa *i* tarzida aytildi.

O 'unlisi:

1) *bo'r, zo'r, o't, do'st, to'rva, sho'rva, ko'lanka* kabi bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarda qisqa talaffuz qilinadi

2) *zo'rg'a, lo'nda* kabi ikki bo'g'inli so'zlarda, shuningdek, takroriy so'zlarning birinchi qismida cho'ziq aytildi: *zo'r-bazo'r, mo'l-mo'l, ko'p-ko'p* kabi.

E unlisi:

1) *ertalab, erta, erka, ertak* kabi so'zlarda kengroq talaffuz qilinadi;

2) *gerdaymoq, keksa, men, sen, kema* kabi so'zlarda bir oz torroq talaffuz qilinadi;

3) *attestatsiya, delegatsiya, injener, metro, metafora, metonimiya* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg`usiz bo'g'inida *i* tarzida aytildi.

O unlisi:

1) *ong, tong, son, ot, ol* kabi bir bo'g`inli so'zlarda, *ona, ota, xola, tog'a, bola* kabi ikki bo'g`inli so'zlarning birinchi bo'g`inida, *bahor, qaror, daho, baho, davo* kabi ikki bo'g`inli so'zlarning ikkinchi bo'g`inida, *obod, ozod, ozor, omon, olomon, oshqozon* kabi ikki bo'g`inli va ko'p bo'g`inli so'zlarning hamma bo'g`inlarida keladi;

2) hamma bo'g`inida **o** keladigan *tolqon, to'polon, poymol* so'zlarining birinchi yoki ikkinchi bo'g`ini tarkibidagi **o** unlisi **a** tarzida aytildi;

3) *ocherk, kosmos, tonna* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg`uli bo'g`inida **o'** tarzida aytildi;

4) *kometta, komediya, botanika, geologiya* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg`usiz bo'g`inida **a** tarzida talaffuz qilinadi;

5) *direktor, traktor, auditor* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg`usiz bo'g`inida qisqa *i* tarzida aytildi.

A unlisi:

1) *kam, sal, chang* kabi bir bo'g`inli so'zlarda, *dada, aka, katta, kaltak* kabi ikki bo'g`inli so'zlarda, *arava, pakana, mastava* kabi ko'p bo'g`inli so'zlarda **yumshoq** aytildi;

2) chuqur til orqa undoshlari **q, g', x** undoshlaridan keyin kelib, til orqa unlisi tarzida talaffuz qilinadi: *qarg'a, qalam, g'arb, g'laba, xalta, xabar*;

3) *a'lo, ma'no, da'vo, ta'sir, ma'rifat* kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarning birinchi bo'g`inida **cho'ziq** talaffuz qilinadi;

4) *mudofaa, mutolaa, murojaat* kabi arab tilidan o`zlashgan so`zlardan bir unli bilan talaffuz qilinadi.

2. Ayrim undoshlar orfoepiyasi

1. So`z oxirida kelgan jarangli *b, v, g, d, j, z* undosh tovushlar jarangsiz *p, f, k, t, ch, sh, s* tarzida talaffuz qilinadi:

maktab→[*maktap*], *Salimov*→[*salimɔf*], *pedagog*→[*pidagok*], *zavod*→[*zavot*], *avj*→[*avch*], *garaj*[*garish*], *faraz*→[*faras*].

2. ba`zan so`z o`rtasida jarangsiz undoshlardan oldin kelgan *v, z* jarangli undoshlar ham jarangsiaz *f, s* tarzida aytildi: *avtobus*→[*aftobus*], *mazkur*→[*maskur*].

3. Ayrim undoshlardan (*g, s, t, sh*) oldin qo`llangan chuqur til orqa portlovchi *q* undoshi sirg`aluvchi *x* tarzida talaffuz qilinadi: *naqd*→[*naxt*], *maqsad*→[*maxsat*], *vaqt*→[*vaxt*], *qaqsha*→[*qaxsha*].

4. kombinator o`zgarishga uchragan ayrim so`zlar talaffuz me`yorlariga mos deb qaraladi: *manba*→[*mamba*], *tanbur*→[*tambur*], *karnay*→[*kannay*], *bebosh*→[*bevosh*], *buncha*→[*muncha*].

3. Ayrim affikslar orfoepiyasi

1. Hozirgi o`zbek tilida qaratqich va tushum kelishigi affikslari (-*ning* va -*ni*) bir xil -*ni* tarzida aytildi. Qiyoslang : *maktabni* (hovlisi), *maktabni* (esladi), *kitobni* (muqovasi), *kitobni* (o`qidi).

2. *Men, sen* olmoshlariiga qaratqich kelishigi affiksi (-*ning*), tushum kelishigi affiksi (-*ni*) hamda qarashlilik affiksi (-*niki*) qo`shilganda, *n* undoshi bitta talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: *men+ning = meni, sen+ ni = seni, men+ niki = meniki*.

3. Oxiri *b, p, d, t, s, f, x, ch, sh, h* undoshlari bilan tugagan so`zlarga qo`shilgan jo`nalish kelishigi affiksi -*ka* tarzida aytildi: *kitobka* (*kitobga*), *kanopka* (*kanopga*), *avlotka* (*avlodga*), *tutka* (*tutga*), *giloska* (*gilosga*), *insofka* (*insofga*), *mixka* (*mixga*), *sochka* (*sochga*), *idishka* (*idishga*).

4. Oxiri *k* yoki *g* bilan tugagan so`zlarga *g* undoshi bilan boshlanadigan -*ga*, -*gan*, -*gach*, -*guncha*, -*gin* affikslar qo`shilganda, affikslardagi *g* undoshi *k* tarzida aytildi : *etak-etakka*, *barg-barkka*, *ek-ekkan*, *tug-tukkan* kabi.

5. Oxiri *q* yoki *g'* bilan tugagan so`zlarga *g* undoshi bilan boshlanadigan -*ga*, -*gan*, *gach*, -*gunsha*, -*gin* kabi affikslar qo`shilganda, affikslardagi *g'* undoshi *q* tarzida talaffuz qilinadi: *qishloq-qishloqqa, tog'-toqqa, chiq-chiqqan, sog'-soqqach* kabi.

6. Oxiri *b, p, d, t, s, f, x, ch, sh, h* undoshlari bilan tugagan so`zlarga qo`shilgan o`rin payt va chiqish kelishigi affikslari -*ta*, -*-tan* tarzida aytildi: *kitopta* (*kitobga*), *kanoptan* (*kanopdan*), *zavottan* (*zavotdan*), *muhlatta* (*muhlatda*), *gilostan* (*gilosdan*), *takliftan* (*taklidan*), *cho`michta* (*chomichda*).

7. *Dorboz, ishqiboz, kaptarboz, bog'bon, darvozabon, tarozibon* so`zleri tarkibidagi -*bos*, -*bon* shaklida talaffuz qilindi: *dorvos, ishqivos, kaptarvos, bog'ven, darvozabon, tarozibon* kabi.

Grafika

Grafika (grekcha **grapho** – *yozmoq* degani) tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, unda fonetik-fonologik, leksik va morfologik birlklarni ifodalash uchun qo`llanadigan optik-grafik (ingl. **optic – qaraydigan, ko`radigan** degani³⁹) belgilar haqida so`z yuritiladi. Bu belgilar **grafema** deb ataladi. Masalan, fonetik birlik bo`lgan fonemani ifodalash uchun harflardan (*a* fonemasi uchun *a* grafemasi olingan va *h*.), leksik birlik bo`lgan leksemalarni farqlash uchun tutuq belgisidan (*sher* – hayvon, *she'r* – adabiy atama, janr turi), morfoloik birlik bo`lgan morfemani ifodalash uchun raqamdan (son turkumiga mansub “*olti*” so`zini ifodalash uchun “6” raqami olingan) foydalilanadi.

Grafemalar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

³⁹ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.528.

1. Harflarga asoslangan grafemalar tilda mavjud bo`lgan fonetik-fonologik birliklarni ifodalovchi grafemalardir. Masalan, *nodir* so`zidagi beshta fonemani ifodalash uchun beshta grafema [n], [o], [d], [i], [r] ishlataladi. Bunday grafemalar tarkibiga ko`ra bir necha guruhlarga ajraladi. Lotin yozuviga asoslangan yangi o`zbek grafikasidagi grafemalar tarkiban ikki guruhga bo`linadi: 1) **monografemalar** bir harfdan iborat bo`ladi: *a, b, d...* 2) **dograflar** ikki harf qo`shilmasidan iborat: *ng, ch, sh.*

2. Tinish belgilariga asoslangan grafemalar nutqning mazmuniy tomonini yozuvda ifodalash uchun qo`llanadigan belgilardir. Bu belgilari quyidagi vazifalarni bajarishga mo`ljallangan:

1) muloqot jarayonini yozuvda to`g`ri aks ettiradi: *Bahor!* (his-hayajon); *Bahor?* (so`roq).

2) gaplarni tarkib jihatidan farqlashga xizmat qiladi: *Karimjon* (ega) *bugun ham kelmadimi?* *Karimjon* (undalma), *bugun ham kelmadimi?*

3) uslubiy qulaylikka xizmat qiladi: “*Toshkentdan Nukusga qatnaydigan poyezd keldi*” deyish o`rniga “*Toshkent - Nukus*” *poyezdi keldi*” deb yozilsa, tire tufayli usluban qulay, ixcham bo`ladi.

4) yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi: *Agronom?* *Nima?!* - *Nosirov shunaqangi qattiq baqirdiki, nazarimda olis-olislardagi tog`lar ham larzaga kelib silkingandek bo`ldi.* (X.To`xtaboyev) So`roq va undov belgilarining birga qo`llanishi shu so`z orqali ham so`roq, ham taajjublanish, ham hayajon ifodalanganini aks ettirgan.

Shuni aytish joizki, “Grafika” bo`limida tinish belgilari faqat grafemalar sifatida tasnif qilinadi, ularning qo`llanish o`rinlari “Punktuatsiya” bo`limida o`rganiladi.

3. Raqamlarga asoslangan grafemalar miqdor va tartib tushunchalarini yozuvda aks ettirish uchun qo`llanadigan grafemalardir. Hozirgi o`zbek yozuvida ishlataladigan raqamlar ikki guruhga bo`linadi:

1) arab raqamlari avval Hindistonda yaratilib, keyinchalik buyuk vatandoshimiz Muhammad Xorazmiy xizmatlari tufayli Arabiston, Ispaniya va butun Yevropaga tarqalgan raqamlardir: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 100, 1000, 100000, 1000000000 kabi.

2) rim raqamlari eramizdan besh asr oldin **etrusk** qabilalari tomonidan yaratilgan va qadimgi rimliklar qo`llagan raqamlardir: *I* (bir), *V* (besh), *X* (o'n), *L* (ellik), *C* (yuz), *D* (besh yuz), *M* (ming).

Raqamlarga asoslangan grafemalar asosan matematika faniga tegishli bo`lsa ham, tilga oid leksema va morfemalarni ifodalash uchun xizmat qilganligi tufayli “Grafika” bo`limida ham o`rganiladi.

4. Ramziy belgilarga (simvollarga) asoslangan grafemalar ilm-fan (shu jumladan, tilshunoslikda ham) sohasida qo`llanadigan maxsus belgilari tizimi: 1) **matematik faniga oid ramziy belgilari** - √ (ildiz), - (ayiruv), + (qo'shuv), x (ko'paytiruv), : (bo'luv), x (iks), (katta), < (kichik) va boshqalar; b) **astronomiyaga oid ramziy belgilari** - ☽ (Quyosh), ☿ (Mars), ☿ (Venera), ☽ (Saturn) va boshqalar; d) **tilshunoslikka oid ramziy belgilari** - < > (o'tish belgisi), // (ajratish belgisi), : - fonemaning cho'ziqlik belgisi; e) **moliyaga oid ramziy belgilari** – \$ (dollar), € (yevro), £ (funt sterling).


Komputerning yozuv vositasi sifatida qo`llanishi natijasida juda ko`p miqdordagi ramziy belgilari yozuv tizimiga kirib keldi. Bu computer bilan ishlaydigan har bir insonga tanishdir, shuning uchun ularning barchasini keltirishga hojat yo`q deb hisoblaymiz.

19-§. Yozuv haqida umumiy ma'lumot


Yozuv insoniyat tomonidan qilingan buyuk kashfiyotlardan biridir. U insonga oz fikrini uzoq masofaga va uzoq davrga yetkazishda yordam beradigan qulay vositadir. Demak, yozuv insonning ma'lum axborotni zamon va makon ichida bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazish zaruriyatidan kelib chiqqan. Albatta, yozuv birdaniga paydo bo`lgan emas. Dastlabki “muktub”lar hozirgi yozuvdan juda katta farq qilgan. Buyuk bobokalonimiz, g`azal mulkining sultonı Alisher Navoiy o`zining “Saddi Iskandariy” dostonida ana shunday “muktub”lardan biri haqida hikoya qiladi. Eron shohi Doro Iskandarga o`z elchisi orqali uchta narsa: chavgon tayog`i, koptok va bir idishda kunjut donalarini jo`natadi. Bunda chavgon tayog`i va koptokning ma`nosи: “Sen, Iskandar, hali men bilan jang qilishga yoshlik qilasan, yaxshisi, chavgon (hozirgi chim ustidagi xokkeyga o`xshagan o`yin) o`ynab yuraver”. Idishdagи kunjutning ma`nosи: “Mening qo`shinim shu idishdagи kunjut donalaridek son-sanoqsiz, sen unga bas kelolmaysan”. Iskandar esa bularni boshqacha talqin qiladi: “Koptok - yer shari va u mening qo`limda”. Iskandar, shunday deya, bir necha tovuq keltirishni buyuradi va ular kunjut donalarini bitta

qo`ymay yeb tugatishadi. Ma`nosi: “Mening qo`shinim senikini bitta qoldirmay qirib tashlaydi”. Bu yerda har bir narsa ramziy ma`noga ega: koptok va chavgon – o`yin yoki koptok – yer shari; kunjut donalari – askarlar va h.

Ba`zan narsalar ramziy ma`no ifodalamasdan, shartli belgi vazifasini bajargan. 7-rasmida peruliklarning **kipu** nomli xati, 8-rasmida esa irokez qabilasining **vampum** nomli yozuvlari ana shunga misol bo`la oladi:



7-rasm.
Peruliklarning kipu yozuvi.



8-rasm.
Irokezlarning vampum yozuvi.

20-§. Yozuvning turlari

Yozuvni taraqqiyot bosqichlari bo`yicha to`rtta turga ajratsa bo`ladi. Bular quyidagilardir:

1. Piktografik yozuv

Piktografik (*lot. pictus – chizilgan va yunon. grapho – yozaman*)⁴⁰ **yozuv** rasmlarga asoslangan yozuv turidir va uning birliklariga **piktogramma** deyiladi. Bu yozuv namunalari quyidagi rasmlarda berilgan:



9- rasm. Piktogramma. Eskimos-ovchining “kundaligi”. *Mazmuni*: “Odam ovga chiqqan, hayvon terisini qo`lga kiritgan, keyin yana bittasini topgan, morj ovlagan, boshqa ovchi bilan qayiqda suzgan, tunni o’tkazgan”.



⁴⁰ М.Ирисколов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т.; 1992, 218-бет

10- rasm. Piktogramma. Hindularning prezidentga “arznomasi”. *Mazmuni*: “Turna, Uchta suvsar, Ayiq, Dengiz odami va Dengiz mushugi qabilalari yagona qalb jo`shqinligi ila Turna qabilasi boshlig`iga ko`llar hududiga ko`chib o`tishga ruxsat berish haqida prezidentdan iltimos qilishni topshiradi”.

Ikkinchi piktogrammani o`qish qiyinroq, chunki unda “yagona qalb jo`shqinligi ila”, “prezidentdan iltimos qilishni” kabi mavhum tushunchalar ham berilgan.

Piktografik yozuv quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) piktogrammalarda hayotiy vaziyatlarni (ov, safar) aks ettiruvchi rasmlar ifodalanadi;
- 2) rasmlarning badiiy tomoni ahamiyatsiz;
- 3) mavhum tushunchalarni ifodalay olmaydi;

2. Ideografik yozuv

Ideografik (*yun. idea – tushuncha; grapho - yozaman*)⁴¹ yozuvni “**tushunchaviy yozuv**” desa bo`ladi, uning birligi **ideogramma** deb ataladi. Bunda rasmlar orqali bevosita narsa, hayvon yoki boshqalarning o`zi emas, balki shu rasmlar ta`sirida inson ongida aks etgan tushuncha muhimdir. Masalan, piktografik yozuvda ifodalangan yurak va unga sanchilgan o`q ideografik yozuvda muhabbat ma`nosini ifadalaydi. Demak, bu yozuv orqali mavhum tushunchalarni ham ifodalash imkoniyati paydo bo`ladi. Bu yozuvning quyidagi belgilari mavjud:

- 1) qo`llangan rasmlar so`z ma`nosini ifadalaydi;
- 2) voqelik haqida ancha kengroq ma`lumot berish mumkin;
- 3) rasmlar barqarorlashgan, ya`ni bir tushunchani ifodalash uchun bir xil rasm ishlataligan;
- 4) rasmlar o`z va ko`chma ma`nolarida maydonga chiqadi.

3. Iyeroglifik yozuv

Iyeroglifik (*yun. hieroglyphoi – muqaddas yozuvlar*)⁴² yozuv ideografik yozuvrning mukammalashgan shakli sifatida yuzaga kelgan. Bu yozuvda ideografik yozuvda qo`llangan rasmlar shartli belgilarga – **iyerogliflarga** aylantirilgan. Demak, bu yozuvning birligi **iyeroglif** deb ataladi.

⁴¹ O`sha kitob, 219-bet.

⁴² М.Ирисколов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т.; 1992, 219-бет.




11-rasm. Iyerogliflar. Qadimgi Misr yozuvi.

Bu yozuvning quyidagi belgilari mayjud:

- 1) bu yozuvda tez yozish mumkin, chunki endi rasmlardagi ortiqcha qismlarni aks ettirish shart emas;
- 2) mazmunan ancha murakkab matnlarni yaratish mumkin, chunki mavhum tushunchalarni ifodalasa ham bo`ladi;
- 3) hajm jihatdan yirik matnlar yaratish mumkin, chunki ixchamlik bunga imkon beradi.



12-rasm. Iyerogliflar. Ptolemy va Kleopatraning nomlari aks ettirilgan kartushlar.(qalqon ko`rinishidagi taqinchoq)



13-rasm. Iyeroglifik yozuvdan kelib chiqqan qadimgi Misr sodda yozuvi (iyeratik yozuv).


14-rasm. Xitoyliklarning leksik-figurali yozuvi.

Лексическо-фигурное письмо китайцев

eski	старое	○	日	山	木	犬
yangi	новое	日	月	山	木	宀
Солнце Луна Гора Дерево Собака						

Quyosh Oy Tog` Daraxt It

Ko`rinyaptiki, rasmlar vaqt o`tishi bilan asta-sekin shartla belgilarga aylana borgan (13- va 14-rasmlar). Bunda, yuqorida aytiganidek, rasmlardagi ortiqcha detallar tushirilgan. Qadimgi Messopotamiyada assiriyaliklar va vavilonliklar qo`llagan mixxat ana shu yo`l bilan yaratilgan. Mixxat deyilishiga sabab shundaki, bu yozuvning belgilari mixga o`xshab yozilgan. Quyidagi rasmga e'tibor bering:



14-rasm. Assiriyaliklar va vavilonliklarning mixxati.

4. Fonografik yozuv

Fonografik (*yun. phone – tovush, grapho – yozaman* degani)⁴³ yozuv eng mahsuldor yozuv sifatida yuzaga keldi, chunki bu yozuv tilning fonetik tomonlarini ham aks ettirishga imkon yaratdi. Buning mohiyati shundaki, endi so`zlar bo`g`inlarga bo`linib, har bir bo`g`in ayrim iyeroglif yordamida ifodalangan. Bu fonografik yozuv taraqqiyotining **birinchi – sillabik** (*yun. sillabe – bo`g`in* degani) bosqichi hisoblanadi. Qadimgi hind yozuvi bo`lmish **devanagari** bunga yaxshi misol bo`la oladi:

पा णी उपधेहि

15-rasm. Qadimgi nind yozuvi “devanagari”dan namuna.

Devanagari yozuvida har bir belgi undosh tovushlarning **a** unlisi bilan qo`shib aytilgan: **ba, va, ga, da** va h. Bu yozuv birligi **sillabema** hisoblanadi. Kirill yozuvidagi **e, ē, ю, я** harflarini eslasangiz, ular **ye, yo, yu, ya** kabi bo`g`inlarni aks ettiradi.


⁴³ М.Иришкулов. Тилшуносликка кириш. “Ўқитувчи” нашриёти, -Т.; 1992, 221-бет.

Fonografik yozuvning bu bosqichida muayyan miqdordagi unli tovush ishtirok etadigan belgilar talab qilingan, demak, ularning soni ko`p bo`lmaydi.

کیاپ

15-rasm. Arab yozuvi (*kitob*).

rasm. Fera orolidan topilgan qaqimgi yunon



16-

yozuvi.

Fonografik yozuvning **ikkinchı** bosqichi **consonant (undosh)** bosqich hisoblanadi, chunki bu yozuvda o`zak hosil qiluvchi undoshlarga harflar bilan ifodalanadi, unlilar esa diakritik (*yun. diakritikos – farqlovchi* degani)⁴⁴ belgilar yordamida aks ettiriladi. Bunga **arab** yozuvi misol bo`la oladi.

Fonografik yozuvning **uchinchı** bosqichi fonematik bosqich deb atalishi mumkin, chunki bu bosqichda har bir tovush uchun bitta harf qo`llangan. Bu yozuvning yuzaga kelishida qadimgi **yunonlarning** xizmatlari kattadir. Ular qadimgi **finikiyaliklardan** grafik belgilarni o`zlashtirib oldilar va unli tovushlar uchun ham harf qo`shdilar. Bunda ham ular finikiyaliklar alifbosidagi ortiqcha undosh harflardan foydalanganlar. **Alifbo** so`zi haqida quyidagi fikrlar mavjud: finikiyaliklar tilida **aleph** (yunoncha **alpha**) “ho`kiz”, **beth** (yunoncha **betha**) “uy”, **gimel** (yunoncha **gamma**) “bo`yinturuq”, **daleth** (yunoncha **delta**) “eshik” degan ma`nolarni ifodalagan. Dastlabki ikkita harf nomidan **alifbo** so`zi paydo bo`lgan.⁴⁵

Shunday qilib, yunon alifbosi birinchi **harf-tovush** alifbosi hisoblanadi va u lotin, slavyan va boshqa ko`pgina alifbolar yaratilishi uchun asos bo`ldi.

⁴⁴ O`sha kitob, 222-bet.

⁴⁵ А.А.Реформатский. Введение в языкоковедение. М., 1967, стр. 360.

17-rasm. Alifbo taraqqiyoti: Misr iyerogliflaridan to lotin alifbosigacha.

21-§. O'zbek yozuvi tarixidan

Чернолипцы	Черноти-чесные	Финно-китайские	Древесные		Латинизация
			Древесные	Новые	
А	Г	4	А	А	А
В	З	9	В	В	В
Г	Ж	7	Г	Г	Г
Д	Д	9	Д	Д	Д
Е	П	3	Е	Е	Е
Ж	Ж	7			F
З	Ж	2	И	I	Z
И	И	0	Н	H	H
К	К	0	О	O	O
Л	Л	7	Л	I	I
М	М	4	К	K	K
Н	Л	Л	Л	L	L
Ң	Ж	Ж	М	M	M
Ҥ	Ж	7	Н	N	N
Ҳ	Ж	3	Ҳ	X	X
Ӯ	Ҷ	0	Ӯ	O	O
Ҿ	Ҷ	2	Ҿ	P	P
Ҹ	Ҷ	0	Ҹ	Q	Q
ҹ	Ҷ	4	ҹ	R	R
Һ	Ҷ	3	Һ	S	S
һ	Ҷ	4	һ	T	T

O'zbek xalqi o'z tarixi davomida Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda quyidagi yozuvlardan foydalanib kelgan:

1. Mixxat. Eramizdan oldin VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatalilgan yozuv (namunasi oldingi bo`limda berilgan).

2. Oromiy yozuvi. Finikiy yozuvi asosida eramizdan oldin 1-ming yillikda oromiy davlatida shakllangan consonant yozuvdir. Uning namunalari oromiylar shohi Farasman tomonidan chiqarilgan tangalar orqali bizgacha yetib kelgan.

3. Yunon va karoshta yozuvlari. Eramizdan oldingi III-I asrlarda ishlatalilgan yozuvdir.

4. So`g`d yozuvi. Hozirgi eramiz boshidan VI asrlargacha ishlatalilgan yozuv.

5. Xorazm yozuvi. II asr oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi chiqargan tangalarda uchraydigan yozuv bo`lib, oromiy yozuviga o`xshash bo`lgan.

6. O`rxun-enasoy yozuvi. Namunalari Mo`g`ulistonning O`rxun (yoki O`rxon) vodiysidan hamda Rossiyaning Enasoy (Yenisey) daryosi havzasidan topilgan yozuv.

7. Uyg`ur yozuvi. VI asrdan XV asrgacha turkiy xalqlar va mo`g`ullar tomonidan qo`llangan yozuv.

8. Arab yozuvi. VIII asr boshlaridan 1930-yilgacha O'zbekiston hududida amalda bolgan yozuv.

9. Lotin yozuvi. 1929-yildan 1940-yilgacha O'zbekistonda amal qilingan yozuv. Maktablarda bu alifboga o`tish 1927-28 o`quv yilidan boshlanib, 1929-30 o`quv yilida tugallangan. Davlat idoralarida esa 1928-1930-yillarda to`liq o`tib bo`lingan. Quyida shu yozuvga asoslangan alifbo berilgan:

Aa	Bb	Cc	Ҫҫ	Dd	Ee	Әә	Ff	Gg	Ƣƣ
Aa	Bb	Cc	Ҫҫ	Dd	Ee	Әә	Ff	Gg	Ƣƣ
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Ңң	Oo	Pp
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Ңң	Oo	Pp
Qq	Rr	Ss	Ҫҫ	Tt	Uu	Vv	Xx	Zz	Zz
Qq	Rr	Ss	Ҫҫ	Tt	Uu	Vv	Xx	Zz	Zz

10. Kirill yozuvi. 1940-yil 6-8-may kunlari bo`lib o`tgan O'zbekiston Oliy Soveti III sessiyasida qabul qilingan qarorga binoan joriy qilingan yozuv bo`lib, unga to`liq o`tish 1942-yil boshlarida yakunlandi.

харф	номи										
Аа	а	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
Бб	бे	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
Вв	ве	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
Гг	гे	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
ҶҶ	де	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ
Ее	е	ҶҶ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ	Ҷ

11. Yangi lotin yozuvi. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyin yangi yozuvga o`tish masalasi kun tartibiga qo`yildi. Bunga quyidagilar sabab bo`ldi:

1. Dunyo tamadduniga qo`shilish zaruriyat: dunyo aholisining 30 foizi shu yozuvdan foydalanadi.

2. Hayotimizga computer texnologiyasining shiddat bilan kirib kelishi: computer dasturlari asosan shu yu yozuvda yaratiladi.

Ana shular hisobga olingan holda, ancha muhokamalardan keyin 1993-yilda maxsus qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunni quyida to`liq keltiramiz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan.

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etilsin:

2-modda. Lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o'rghanish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: I.A.KARIMOV
Toshkent shahri, 1993-yil 2-sentabr**

Лотинча			Кирилл-ча	Лотинча			Кирилл-ча
Ҳарфлар			Ҳарфлар	Ҳарфлар			Ҳарфлар
Босма	Ёзма	Талафф.		Босма	Ёзма	Талафф.	
A a	Ӑ а	ә	А а	R г	Ӣ г	гे	Р ғ
B b	Ӣ ӣ	be	Б б	S с	Ӣ с	ес	С с
C c	Ҫ ҫ	ce	Ҷ Ҷ	T т	Ӣ т	те	Т т
D d	ڏ ڏ	de	ڏ ڏ	U ү	Ӣ ү	и	Ү ү
E e	Ӗ ӗ	e	Ӗ Ӗ	V в	Ѹ ݒ	ве	В в
F f	ڦ ڦ	ef	ڦ ڦ	X ҳ	Ҳ Ҳ	ха	Ҳ ҳ
G g	ڱ ڱ	ge	ڱ ڱ	Y ҹ	Ӣ ҹ	ye	Ӣ ӣ
H h	Ҳ Ҳ	he	Ҳ Ҳ	Z ӝ	Ӣ ӝ	зе	З ӝ
I i	Ӥ Ӯ	i	Ӥ Ӯ				
J j	ߖ ߖ	je (Jöra)	ߖ ߖ	Ҫ Ҫ	Ҫ Ҫ	çe	Ч ч
K k	Ҝ ҝ	ka	Ҝ ҝ	Ӯ Ӯ	Ӣ Ӣ	га	Ғ ғ
L l	Ӆ Ӆ	el	Ӆ Ӆ	Ӯ Ӯ	Ӣ Ӣ	(ajdod)	Ж ж (аждод)
M m	Ӎ ӎ	em	Ӎ ӎ	Ӯ Ӯ	Ӣ Ӣ	ńe	Нг нг
N n	Ҥ Ҥ	en	Ҥ Ҥ	Ӯ Ӯ	Ӣ Ӣ	(ördak)	Ӯ Ӯ (ўрдак)
O o	Ӫ ӫ	o (ota)	Ӫ ӫ	Ӯ Ӯ	Ӣ Ӣ	še	Ш ш
P p	Ӫ ӫ	pe	Ӫ ӫ	(,) — тутуқ белгиси (апостроф)			I).
Q q	Ҩ Ҩ	qa	Ҩ Ҩ				

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN
O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA"GI QONUNIGA
O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 331-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi "31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan" so'zları "26 harf va 3 ta harflar birikmasidan" so'zları bilan almashtirilsin.
2. *Cc, Jj* harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifboden chiqarilsin.
3. *Ōō* harfi *O' o'* shaklida, *Ğğ* harfi *G'g'* shaklida, *Şş* harfi *Sh sh* shaklida, *Çç* harfi *Ch ch* shaklida, *Ññ* harfi *Ng ng* shaklida, *Q* harf belgisi *q* shaklida ifodalansin.
4. *Aa, Ii, Gg, G'g', Qq, O'o', Zz* harflari va *Ch ch* harflar birikmasining yozma shakli tegishlichcha *Aa Ii Gg Ğğ Qq Oo Zz Ch ch* tarzda ifodalansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: I. KARIMOV
*Toshkent shahri, 1995-yil 6-may***

Demak, barcha o`zgarishlardan keyin lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi quyidagi shaklni oldi: **Aa (1) Bb (2) Dd (3) Ee (4) Ff (5) Gg (6) Hh (7) Ii (8) Jj (9) Kk (10) Ll (11) Mm (12) Nn (13) Oo (14) Pp (15) Qq (16) Rr (17) Ss (18) Tt (19) Uu (20) Vv (21) Xx (22) Yy (23) Zz (24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh (27) Ch ch (28) Ng ng (29).**

22-§. Orfografiya

Orfografiya (grekcha *orphos* – to'g'ri, *grapho-* yozaman) so'zlar va ularning shakllarini yozish haqidagi qoidalar tizimidir.

Bu qoidalar orfografiyaning quyidagi tamoyillari asosida yaratiladi : **fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, etimologik-an'anaviy tamoyil, differensiatsiya tamoyili.**

Fonetik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlar va so'z tarkibidagi affikslar qanday talaffuz qilinsa, xuddi o'shanday yoziladi. Masalan, 1) *ong* so'ziga *-la* affiksini yoki *son* so'ziga *-a* affiksini qo'shish bilan yasalgan so'zlar *ongla* yoki *sona* tarzida emas, *angla*, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 2) oxiri *a* unlisi bilan tugagan so'zlarga *v* yoki *q* undoshi bilan boshlanadigan affikslar qo'shilganda, *a* unlisi *o* tarzida aytildi va shunday yoziladi: *tanlov* (*tanla+v*), *ishlovchi* (*ishla+vchi*), *taroq* (*tara+q*), *qaynoq* (*qayna+q*), *sayroqi* (*sayra+qi*); 3) oxiri *i* unlisi bilan tugagan so'zlarga *v* undoshi bilan boshlanadigan affikslar qo'shilganda, *i* unlisi *u* tarzida aytildi va shunday yoziladi: *o'quv* (*o'qi+v*), *to'quvchi* (*to'qi+vchi*); 4) *q* yoki *k* undoshi blan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *q* undoshi *g'* tarzida, *k* undoshi *g* tarzida aytildi va shunday yoziladi: *qishlog'i* (*qishloq+i*), *etagi* (*etak+i*); 5) *o'g'il*, *og'iz*, *singil*, *burun*, *zahar*, *shahar* kabi so'zlarga egalik affikslari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi *a*, *i*, *u* unlilari talaffuzda ham, yozuvda ham tushub qoladi: *o'g'li*, *burni*, *shahri* kabi.

Ko'rinaridiki, orfografiyaning fonetik tamoyili yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiriladi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlar va ularning tarkibiy qismlari talaffuz qilinishiga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Masalan: 1) *maktab*, *kitob*, *borib*, *kelib*, *yuzlab*, *kuylab*, *ozod*, *obod* kabi so'zlarning oxiridagi *b* va *d* undoshlari *p* va *t* tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq *b* va *d* yoziladi; 2) *bog'bon*, *kaptarboz* kabi so'zlar tarkibidagi yasovchilardan *b* undoshi *v* tarzida aytilsa-da, asliga muvofiq *b* yoziladi; 3) *shanba*, *manba*, *sunbul* kabi so'zlar tarkibidagi *n* undoshi *m* tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq *n* yoziladi; 4) *do'st*, *past*, *sust*, *farzand*, *xursand* kabi so'zlarda yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi.

Morfologik tamoyil orfografiyaning yetakchi tamoyili sanaladi.

Tarixiy-an'anavy tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra, boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladi. Masalan: 1) *muomala, muhokama, munosabat* kabi so'zlar arab tilidan o'zlashgan bo'lib, ularning uchinchi bo'g'inidagi *a* unlisi *i* tarzida aytildi, ammo yozuvda tarixiy-an'anavy shaklini saqlaydi; 2) rus tilidagi *schyot, shyotka* so'zları o'zbek tiliga *cho't, chotka* tarzida o'zlashtirilgan. Bu so'zlarning manba tilda asli qanday yozilishi ma'lum bo'lsa ham, an'anaga muvofiq *cho't, chotka* tarzida yoziladi.

Etimologik (yoki grafik) tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra, boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. 1) *ocherk, tonna, kosmos, pochta* kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inidagi *o* unlisi o'zbekcha *o'* tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakliga mos ravishda *o* yoziladi. 2) *samolyot, kometa, morfema, direktor, traktor* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi *o* unlisi *a* yoki *i* tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq ravishda *o* tarzida yoziladi; 3) *televizor, telefon, gerbariy* kabi ruscha-baynalminal so'zlarning urg'usiz bo'g'inlarida kelgan *e* unlisi *i* tarzida talaffuz qilinadi, lekin rus tilidagi shakliga mos ravishda *e* saqlanadi.

Differensiatsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgililar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi. Masalan: 1) urg'u vositasida farqlash: *atlás* – mato, *átlas* – geografik atlas, – ot, *fízik* – sifat (fizik hodisalar); 2) unlining qisqa yoki cho'ziqligini farqlash: *she'r –sher, ta'na –tana, da'vo - davo* (*she'r, ta'na, da'vo* so'zlaridagi *a* unlisingin cho'ziqligi ayirish (tutuq) belgisi orqali ko'rsatilgan); 3) boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida farqlash: *shoh* – podshoh, *shox* – daraxtning shoxi, *urush* – jang, *urish* – qo'l bilan urmoq.

Ko'rindiki, fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari bo'lib, morfologik tamoyil yetakchi, chunki imloga oid ko'pchilik qoidalar ana shu tamoyil asosida yaratiladi.

1995-yil 24-avgustda qabul qilingan asosiy imlo qoidalari quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

- a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
 - b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).
2. *Asos va qo'shimchalar imlosi* (33-37-bandlar)
 3. *Qo'shib yozish* (38-50-bandlar)
 4. *Chiziqcha bilan yozish* (51-56-bandlar)
 5. *Ajratib yozish* (57-65-bandlar)
 6. *Bosh harflar imlosi* (66-74-bandlar)
 7. *Ko'chirish qoidalari* (75-82-bandlar)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI⁴⁶**

1995-yil 24-avgust

339- son

Toshkent shahri

**O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI
TASDIQLASH HAQIDA**

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

⁴⁶ *Qarang:* T.Tog'ayev va boshq. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – T.: Sharq, 2004. – 31-48-betlar.

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdag'i yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko'rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lif va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

**VAZIRLAR MAHKAMASINING RAISI
I. KARIMOV**

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

Harflar imlosi

Unlilar imlosi

1. Aa harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda **a** aytildi va yoziladi.

2. Oo harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. Ii harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida **o'** unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytildi va yoziladi.

4. Uu harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; maskura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun,sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o**' unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytildi va yoziladi.

5. O'o' harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. Ee harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) *unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:*

a) **ia:** material, milliard, radiator; tabiat, shariat kabi;

b) **io:** biologiya, million, stadion, radio kabi;

d) **ai:** mozaika, ukrain, said, maishat kabi;

e) **oi:** alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;

f) ea: teatr, okean, laureat kabi;

2) **ae, oe unlilar** so‘z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytildi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. Bb harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so‘zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so‘zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so‘zlarda ba’zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. Pp harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so‘zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. Vv harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so‘zlarda ovozdor sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda **v** ba’zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so‘zlarda **f** tovushi ba’zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. Mm harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so‘zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so‘zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so‘zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. Tt harfi *tong, tun; butun, o'tin, o't, kut* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so‘zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. Ss harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. Sh sh harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (‘) belgisi qo‘yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

18. Jj harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gjida, ajdar, tiraj* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. Ch ch harflar birikmasi *choy, chevar, chiroqli, chaman; achchiq, uchun, bichiqli; kuch, kech* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. Rr harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. Li harfi *lola, loyiq, la'l; iloj, mahal* kabi so‘zlarda sirg‘aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. Nn harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinnmaslik* kabi so‘zlarda **n** tovushi ba’zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. Gg harfi *gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so‘zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. Kk harfi *ko'l, ko'yak; uka, moki; tok, bilak* kabi so‘zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. Yy harfi *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi so‘zlarda til o‘rtalari sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. Ng ng harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so‘zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. Qq harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. G‘g‘ harfi *g'oz, bag'ir, tog'* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. Xx harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. Hh harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarcand, poyezd; do'st, artist, g'isht* kabi so‘zlarda **d**, **t** tovushi ba’zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi* kabi.

32. ' – tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim, ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho‘ziqroq aytishini ifodalash uchun qo‘yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so‘zlarda **o‘** unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, *tutuq belgisi qo'yilmaydi*;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytishini ifodalash uchun qo‘yiladi.

Asos va qo‘shimchalar imlosi

33. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v**, **-q**, **-qi** qo‘shimchasi qo‘shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe'llarga **-v**, **-q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi - o'quvchi, qazi - qazuvchi, sovi - sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi

bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytildi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: *ol-oluv, yoz-yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz - uzuq, yut - yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (*shuningdek, bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytildi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak - tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayog'i, qo'shiq-ko'shig'i, yaxshiroq-yaxshiroq'i, yo'q-yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytildi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalar qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rni, qorin-qorni, burun-burning, o'gil-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug' - ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yetton* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalar qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha kabi*; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalar quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalar quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalar **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (**yoki -lari**) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (*yoki bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro'; mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalar qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoing; parvoymiz, parvoingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro' ; mavqe* so'zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa **-si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi y undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: *dohysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalar qo'shilganda qo'shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarining birinchi tovushi ikki xil aytilda ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalar ba'zan **-von, -voz** aytilda ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytildi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) *o'rin* kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasing, *o'tgan* zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasing boshidagi undosh ba'zan **t** aytilda ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarining bosh tovushi ikki yoki uch xil aytildi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa** (**chirilla, taqilla**) qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bolganda **-ulla** aytildi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel so'zidan boshqa*), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan

barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytildi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'naliш kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi *-gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi *-gach*, *-guncha*, *-gani*, *-gudek*, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo'shimchasi uch xil aytildi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalaming bosh tovushi k aytildi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukan, ekkin, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarining bosh tovushi **q** aytildi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarining bosh tovushi **k** yoki **q** aytishidan qat'i nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

Qo'shib yozish

38. Xona, *noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan **qo'shma ot** va **qo'shma sifatlar** qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a) r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rribosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gjigjila (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otqulok, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymatuxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochילדasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinci qismi turdosh ot bilan yoki **obod** so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'ma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elekrotexnika, telekomunikatsiya, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalaming barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi* kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, ufff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to‘rt, o‘n-o‘n beshta* (10-15 ta), *bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o‘ylab-netib, so‘ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, yop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo‘slashmoq* kabi;

2) juft so‘z qismlari orasida **-u (-yu)** bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: *do‘st-u dushman (do‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo‘ysan, uxbabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to‘ppa-to‘g‘ri, bab-barobar* kabi so‘z shakkari chiziqcha bilan yoziladi (*lekin oppoq so‘zi qo‘shib yoziladi*).

53. So‘zning **-ma, ba-** qo‘shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko‘chama-ko‘cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi: *ro‘baro‘, darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. -chi, -a (-ya) , -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo‘y-e, yashang-e, o‘g‘lim-ey, keldi-yeey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *keliboq, o‘ziyoq, ko‘rganov, ko‘rdiyov, mengina, qo‘shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo‘shimchasi o‘miga chiziqcha (-) qo‘yiladi: 7- *sinf*, 5- “A” *sinf*, 3-, 7-, 8- *sinf o‘quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X inf* kabi.

Ajratis yozish

57. Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: *surf qil, ta‘sir et, tamom bo‘l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bolsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi* kabi. Lekin **bilan** ko‘makchisining **-la** shakli, **uchun** ko‘makchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha so‘zlar o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so‘zlar qo‘shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so‘zi **yoq, yer** so‘zlar bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *on bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi **ko‘pdan ko‘p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi** kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga **i** shaklida, unli bilan tigagan so‘zlarga **yi** shaklida qo‘shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “*Tong*” (mehmonxona), “*Saodat*” (firma), „*Navro‘z*” (xayriya jamg‘armasi), “*Kamalak*” (matbaa birlashmasi), „*G‘uncha*” (bog‘cha), “*Botanika*” (sanatoriy), “*Paxtakor*” (stadion), “*Qutlug‘ qon*” (roman), “*Dilorom*” (opera), “*Tanovar*” (kuy), “*Ozodlik*” (haykal), “*Jasorat*” (yodgorlik), “*Sino*” (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Juhon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o‘rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog‘lioni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “*O‘zbekiston Qahramoni*” (unvon), “*Oltin Yulduz*” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy

unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “*Sog‘lom avlod uchun*” (*orden*), “*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*” (*faxriy unvon*), “*Matbaa a‘lochisi*” (*nishon*) kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.*

Eslatma:

1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmassa) kichik harf bilan yoziladi: “*Bu men*”, – *qo‘rqibgina javob berdi ko‘laga* (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– *mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;*

– *ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavslari raqam yoki qavslari harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

1) *umumturkiy so‘zlar*; 2) *o‘zbekcha so‘zlar*; 3) *tojik tilidan kirgan so‘zlar*; 4) *arab tilidan kirgan so‘zlar*; 5) *rus tilidan kirgan so‘zlar* (“*O‘zbek tili*” darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalarini bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (Amerika Qo‘shma Shtatlari), *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *AES* (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Ko‘chirish qoidalari

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxta-kor* kabi. **Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi:** *va‘-da, ma‘-rifat, mash‘al, in‘-om* kabi.

76. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (**sh, ch, ng**) birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-nviz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5 - “A” sinf, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: “Navro‘z-92” (festival), “O‘qituvchi-91” (ko‘rik tanlov), “Andijon-9”, “Termiz-16” (g‘o‘za navlari), “Boing-767” (samolyot), „Foton-774” (televizor) kabi.

82. A.J.Jabborov, A. D. Abdulyaliev kabilarda ismning va ota ismining birlinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

Eski (1956-y.) va yangi (1995-y.) imlo qoidalari o‘rtasidagi ayrim farqlar haqida

Yangi alifboga o‘tilgandan keyin 1995-yil 24-avgustda “O‘zbek alifbosining yangi imlo qoidalari” qabul qilindi. Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o‘rtasida quyidagi ayrim o‘zgarishlar mavjud:

1) juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelgan yuklamalar o‘zi bog‘langan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *dost-u dushman, kecha-yu kunduz*;

2) yil, oyni ko‘rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo‘yiladi: *1995-yil 24-avgust, 1993-yil 2-sentabr*;

3) kirilchadagi *ts* harfi so‘z boshida va oxirida *s* harfi bilan beriladi: *үирк – сирк, авзас – абзас*. So‘z o‘rtasida unlidan keyin *ts* harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa *s* harfi bilan beriladi: *лицеј – litsey, акция – aksiya*.

4) *-ga* qo‘srimchasi *g‘* tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda morfologik yozuv bo‘yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog‘+ga= bog‘ga, tog‘+ga= tog‘ga*.

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko‘p chet tili so‘zları endilikda fonetik yozuv bo‘yicha yoziladigan bo‘ldi: *sentabr* (сентябрь), *oktabr* (октябрь), *budget* (бюджет), *rejissor* (режиссёр), *likor* (ликёр).

6) ayrim so‘zlar esa oldin fonetik yozuv bo‘yicha yozilgan bo‘lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko‘ra yoziladigan bo‘ldi: *ertalabki* emas *ertalabgi*.

LEKSIKOLOGIYA 24-§. Leksikologiya, uning o‘rganish obyekti, vazifalari

Oldingi bo‘limlarda ta’kidlanganidek, tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar yig‘indisi **lug‘at tarkibi** yoki **leksika** deb yuritiladi. Lug‘at tarkibni o‘rganadigan bo‘lim esa **leksikologiya** (yun. *lexikos* – lug‘atga oid, *logos* – ta’limot) deb ataladi.

Lug‘at tarkibiga mansub bo‘lmish birlik **so‘z tilshunoslik** fanining asosiy birligi bo‘lib, u tilning boshqa bo‘limlarida, jumladan, morfologiya, so‘z yasalish va uslubiyat bo‘limlarida ham o‘rganiladi.

Morfologiyada so‘zning qaysi leksik-grammatik guruhga mansubligi o‘rganilsa, so‘z yasalishi bo‘limida u yasalgan yoki yasalmagan birlik sifatida tekshiriladi. Uslubiyat bo‘limida esa so‘z qo‘llanish ma’qulligi yoki ma’qul emasligi jihatidan tekshiriladi.

Leksikologiya bo‘limida so‘zning ifodalagan ma’nosи, lug‘at tizimida tutgan o‘rni, kelib chiqishi, qo‘llanish darajasi o‘rganiladi. Bu bo‘limda so‘z **lug‘aviy birlik** sifatida o‘rganiladi. So‘z muayyan tilning lug‘at tarkibiga mansub bo‘lganligi uchun leksikologiya mazkur tilning lug‘at tarkibini tizim sifatida tekshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni **inson** so‘zi misolida isbotlashga harakat qilamiz:

Morfologik nuqtai nazardan bu so‘z quyidagi xususiyatlarga ega: 1) ot turkumiga tegishli; 2) turdosh ot, aniq ot, yakka ot; 3) bosh kelishikda; 4) birlikda.

So‘z yasalish nuqtai nazaridan bu so‘z quyidagi xususiyatlarga ega: 1) tub so‘z; 2) sifat yasalishi uchun asos bo‘la oladi: *insoniy, insonparvar*:

Uslubiyat nuqtai nazaridan bu so‘z quyidagi xususiyatlarga ega: 1) kitobiy uslubda qo‘llanadi; 2) hissiy-ta’siriy bo‘yoqqa ega.

Leksikologiya nuqtai nazaridan bu so‘z quyidagi xususiyatlarga ega: 1) lug‘aviy manoga ega; ongli mavjudot; 2) bu so‘z *odam, kishi, bashar* so‘zlariga ma’nodosh hisoblanadi; 3) o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan; 4) nisbatan faol so‘z hisoblanadi;

Demak, tilnshunosliking har bir bo‘limida so‘zning turli qirralari tadqiq qilinar ekan.

Ilmiy adabiyotlarda leksikologiya bir qancha turlarga bo‘linadi.

O‘rganish obyektining hajmiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Umumiy leksikologiya dunyodagi barcha tillarning lug‘at trkibini tekshiradi.

2. Xususiy leksikologiya ma’lum bir tilning lug‘at tarkibini o‘rganadi va lug‘at tarkibini **qay holatda** o‘rganishiga qarab ikki turga bo‘linadi:

1) tavsifiy leksikologiya ma’lum bir tilning lug‘at tarkibini **statik (turg‘un)** holatda, ya’ni uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘lanmagan holatda o‘rganadi. Bu yana **sinxronik** (yun. *sin* – “birga”, *chronos* – “vaqt” degani) **leksikologiya** deb ham ataladi.

2) tarixiy leksikologiya ma’lum bir tilning lug‘at tarkibini **dinamik (harakatli)** holatda, ya’ni uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘langan holatda o‘rganadi. Bu esa **dioxronik** (yun. *dia-* “orqali”, *chronos* – “vaqt” degani) **leksikologiya** deb ham ataladi⁴⁷.

Leksikologiya quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

1. Tilning lug‘at tarkibini ma’no jihatidan tavsiflaydi.
2. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarni kelib chiqishi jihatidan tavsiflaydi.
3. Tilning lug‘at tarkibini ijtimoiy guruhrar qo‘llashi jihatidan tavsiflaydi.
4. Tilning lug‘at tarkibini faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflaydi.
5. Tilning lug‘at tarkibini hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflaydi.
6. Tilning lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarni ma’no va tarkib jihatdan tavsiflaydi.

Quyida ana shu vazifalarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

O‘ZBEK TILI LUG‘AT TARKIBINING MA’NO JIHATIDAN TAVSIFI

25-§. So‘z va leksema munosabati

Tilshunoslikda so‘zning markaziy birlik ekanligi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. Bunda muayyan tilning lug‘at tarkibiga kiruvchi barcha so‘zlar nazarda tutiladi. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Atash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar. Bular, shaxs (*odam, bola*), narsa (*kitob, daftар*), belgi (*yaxshi, go‘zal*), miqdor (*olti, yettinchi*), holat (*tez, oson*), payt (*hozir, bugun*), harakat (*yurmoq, yozmoq*), ishora (*bu, shu*) kabi tushunchalarga nom bo‘lib keladi.

2. Atash xususiyatiga ega bo‘lmagan so‘zlar. Bular so‘zlarni bir-biriga bog‘laydigan (*va, uchun*), so‘zlarga qo‘shimcha ma’no kiritadigan (*faqat, xuddi*), tovush va harakatlarga taqlid bildiradigan (*gurs, jimir-jimir*), inson his-tuyg‘ularini aks ettiradigan (*oh, voy*), aytilgan fikrga munosabat bildiradigan (*shekilli, menimcha*) kabi so‘zlardir.

Ma’no jihatidan birinchi guruhga mansub so‘zlar **lug‘aviy birlik** hisoblanadi va leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi, ikkinchi guruh so‘zlar esa **grammatik so‘zlar** hisoblanadi va ular faqat grammatika bo‘limida o‘rganiladi.

⁴⁷ H.A.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2-qism. –T., 2004, 3-4-betlar.

Ilmiy adabiyotlarda atash xususiyatiga ega bo`lgan so`zlar **leksema** termini bilan atalmoqda. “O’zbek tili system leksikologiyasi asoslari” nomli o’quv qo’llanmada leksemaga quyidagicha ta’rif beriladi: “**Jamiyat a’zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo`lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, vogelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug`atda grammatic morfemalarini o`ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir**”.⁴⁸

Leksema va so`zning o`zaro munosabati fonema bilan tovush o`rtasidagi munosabatga o`xshaydi, ya’ni leksema til birligi hisoblansa, so`z nutq birligidir. Boshqacha aytganda, so`z leksemaning nutqda vogelashgan shaklidir. Masalan: *Bolalar keldi* gapini olaylik. Bu gapda **bola-** (kichik yoshdagи odam) va **kel-** (harakat)⁴⁹ birliklari leksema hisoblansa, *bolalar* va *keldi* qismlari so`z hisoblanadi.

26-§. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni

Falsafa fanida shakl va mazmun birligi haqida so`z yuritiladi. Bu narsa tilshunoslik faniga ham taalluqli bo`lib, u leksemaning tashqi (shakliy) va ichki (mazmuniy) tomonlarida o`z aksini topadi.

Leksemaning ifoda (tashqi) tomoni deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Leksema tarkibidagi tovushlar: *maktab-* leksemasi *m, a, k, t, a, b* tovushlaridan iborat.
2. Leksema tarkibidagi harflar: *maktab-* leksemasi *m, a, k, t, a, b* harflaridan iborat.
3. Leksema tarkibidagi bo`g`inlar: *maktab-* leksemasi *mak-tab* kabi ikki bo`g`indan iborat.
4. Leksema tarkibidagi ma’lum bir unli tovushga tushadigan urg`u: *maktāb*.

Xulosa shuki, leksemaning inson sezgi a’zolari yordamida sezish mumkin bo`lgan tomonlari uning **ifoda (moddiy) tomoni** deb yuritiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu **nomema** deb ham yuritiladi.⁵⁰

Leksemaning mazmun (ichki) tomoni deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Leksema ifodalagan **lug`aviy ma’no**, ya’ni leksemaning borliqdagi shaxs (*adam*), narsa (*kitob*), belgi (*yomon*), rang (*yashil*), hajm (*katta*), miqdor (*olti*), harakat (*yugur*) kabi tushunchalarni nomlashi.
2. Leksema orqali ifodalangan **uslubiy belgi**: *ona* (uslubiy betaraf), *volda* (uslubiy xoslangan).
3. Leksema orqali ifodalangan **hissiy-ta’siri bo`yoq**: *chehra* (ijobiy bo`yoq), *bashara* (salbiy bo`yoq).

Ba’zi ilmiy adabiyotlarda lug`aviy ma’no **denonativ** ma’no⁵¹, uslubiy belgi va hissiy-ta’siri bo`yoqlar esa birgalikda **konnotativ** ma’no⁵² ham deyiladi.

27-§. Lug`aviy ma’no va uning tarkibiy qismlari

Leksemaning **lug`aviy ma’nosি** quyidagicha shakllanadi: inson o`z sezgi a’zolari orqali borliqdagi narsa, hodisa, belgi, harakat va boshqalar haqida tushuncha hosil qiladi. Bu tushuncha inson ongida muhrlanib qoladi. Xuddi shu tushunchaga atab qo`yilgan nom ham inson ongida saqlanib qoladi va natijada nom va tushuncha o`rtasida mustahkam aloqa yuzaga keladi.

⁴⁸ Ne’matov H. Rasulov R. “O’zbek tili system leksikologiyasi asoslari”. T., “O’qituvchi”, 1995, 37-bet

⁴⁹ Yozuvda leksemalardan keyin chiziqcha qo`yishni prof. Sh. Rahmatullayev taklif qilgan: *Sh. Rahmatullayev*. Hozirgi adabiy o`zbek tili. T., 2006, 22-bet.

⁵⁰ Ne’matov H. Rasulov R. “O’zbek tili system leksikologiyasi asoslari”. T., “O’qituvchi”, 1995, 55-bet

⁵¹ H.A.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-qism. –T., 2004, 10-bet.

⁵² O.C.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. М., 1969, стр. 203

Semasiologiya fanida leksemaning lug`aviy ma'nosini **semema** atamasi bilan ham beriladi. Semema ham o`z navbatida qismlarga bo`linadi. Bu qismlar **semalar** deb ataladi. Har bir sema tushunchaning turli belgilarini aks ettiradi. Masalan, *quyosh* leksemasining lug`aviy ma'nosini, ya'ni sememasini quyidagi semalar tashkil etadi: 1) yulduz; 2) issiqlik tarqatuvchi osmon jismi; 3) yorug`lik tarqatuvchi osmon jismi; 4) bir qancha sayyoralarini o`ziga birlashtirgan tizim markazi; 5) Yer sayyorasidagi hayot manbasi; Bu ro`yxatni o`z bilimimizga tayangan holda yana davom ettirish mumkin.

Semalar ma'no xususiyatlari ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Atash semalari narsa, belgi, harakat, miqdor kabi tushunchalarni nomlaydigan semalardir. Masalan, *ruchka*, *qalam*, *bo`r*, *flomaster* kabi leksemalar uchun “yozish va chizish quroli” semasi atash semasi bo`lib hisoblanadi.

2. Ifoda semalari atashdan tashqari tushunchaga munosabatni ifodalaydigan semalardir. Masalan, *lab-* leksemasidagi “betaraflik” semasi, *dudoq* leksemasidagi “kitobiylilik” semasi ifoda semalariga misol bo`la oladi.

3. Vazifa semalari leksemalarning gapda qanday vazifa bajarishini, ya'ni qanday leksemalar bilan birika olishini belgilaydigan semalardir. Masalan, *Bola kitob o`qidi* gapidagi leksemalarni tahlil qilib ko`ramiz. *Bola-* leksemasi sememasida shu gap ichida “harakatni bajaruvchi” semasi bor, shuning uchun bu leksema ega bo`lib kelgan. *Kitob-* leksemasida “harakat o`tgan narsa” degan sema mavjud, shuning uchun u to`ldiruvchi bo`lib kelgan. *O`qi-* leksemasida esa “bajarilgan harakat” degan sema bor, shuning uchun u kesim vazifasida kelgan.

28 -§. Leksemalarda bir ma'nolilik va ko`p ma'nolilik

Til birligi sifatida tan olingan leksemalarda ham bir ma'nolilik va ko`p ma'nolilik mavjuddir. Boshqacha aytganda, bitta leksema bir sememaga, boshqa leksema esa bir necha sememaga ega bo`lishi mumkin.

Til va nutq birliklarini barcha sathlarda farqlay borish lozim. Shunday ekan, bir ma'nolilik va ko`p ma'nolilik hodisalarini ta'riflashda ham shunday yo`l tutish kerak bo`ladi.

Tilshunos olimlar bu o`rinda lisoniy ma'no va nutqiy ma'nolarni farqlaydilar.⁵³ **Lisoniy ma'no** deganda til birliklariga xos bo`lgan ma'no nazarda tutiladi. **Nutqiy ma'no** esa leksemaning nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ifodalaydigan ma'nosidir. Masalan, *Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum* (*Oybek*) gapidagi *kumush* leksemasi til biligi sifatida “oq-ko`kish rangli yaltiroq, asl metall”⁵⁴ ma'nosini bildirsa, atoqli adibimiz Oybek bu leksemani “oq rangli” ma'nosida qo`llagan.

Shuni ta'kidlash lozimki, nutqiy ma'no leksemaning ko`chma ma'nosini emas, chunki bu ma'no hali til vakillarining barchasi tomonidan tan olinmagan, umumlashmagan ma'nodir.

Shunday ekan, biz bu o`rinda leksemadagi **lisoniy ma'noning** bitta yoki bittadan ortiq ekanligi haqida so`z yuritamiz.

Agar leksema bittagina ma'noga ega bo`lsa, bunday leksemalarga **bir ma'noli leksemalar** deyiladi. Bu hodisa tilshunoslikda **monosemiya** (yun. *mono* – bir, *sema* - belgi) deb ham yuritiladi. Masalan, *ko`l* leksemasining yagona sememasi quyidagi semalarni qamrab oladi: 1) suvga to`lgan havza; 2) atrofi berk suv havzasi; 3) chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi; Shu leksemaning gap tarkibidagi hosilasi bo`lgan *ko`l* so`zida ham shu ma'nolar mavjud: *Ko`l juda katta edi*.

Ko`pincha lmiy atamalar, atoqli otlar, yangilik bo`yog`i o`chmagan leksemalar bir manoli hisoblanadi.

⁵³ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. T., 2006, 53-bet.

⁵⁴ O`zbek tilining izohli lug`ati. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2006, 427-bet.

Agar leksema birdan ortiq ma'noga ega bo'lsa, bunday leksema **ko'p ma'noli** leksema deb ataladi. Bu hodisa tilshunoslikda **polisemiya** (yun. *poli* – ko'p, *sema* - belgi) deb ham yuritiladi.

Masalan, izohli lug`atda **og`ir** so`zining jami 17 ta ma'nosi keltirilgan⁵⁵. Shulardan ba'zilarini quyida keltiramiz:

- 1) vazni katta bo`lgan, tosh bosadigan, vaznli, vazmin (*og`ir yuk*);
- 2) o`zini tuta biladigan, sipo, vazmin, bosiq (*og`ir, vazmin yigit*);
- 3) muayyan me'yori buzilgan, talabga javob bermaydigan (*og`ir havo*);
- 4) yomon oqibatlarga olib borishi mumkin bo`lgan, jiddiy, xavfli (*og`ir dard*) va h.

29 -§. Lug`aviy ma'noning turlari

Ilmiy adabiyotlarda ko'p ma'noli leksemalar ifodalaydigan lug`aviy ma'nolar **til taraqqiyotining qaysi davrida mavjudligiga qarab** dastlab ikkita katta guruhga bo`linadi:⁵⁶

I. Avvalgi lug`aviy ma'nolar til taraqqiyotining oldingi davrlariga tegishli bo`lgan ma'nolardir. Bu ma'nolar ham eskirish darajasiga qarab ikki turga bo`linadi:

1. Eski lug`aviy ma'no leksemaning hozirgi paytda arxaiklashgan ma'nosidir: *qimron* leksemasi aslida “qaynatilgan sut bilan suvning aralashmasi” degan ma'noni bildirgan. Bu ma'no shu leksemaning **eski lug`aviy ma'nosidir**. Uning **hozirgi ma'nosi** “tuya sutidan tayyorlanadigan qimiz” degan ma'nodir⁵⁷.

2. Etimologik lug`aviy ma'no leksemaning til tarixiga asoslanib, tuzilishidan kelib chiqib aniqlanadigan ma'nodir: *chaqa* (mayda pul) leksemasi “chaq” fe'lining “parchala”, “bo'lak-bo'lak qil” ma'nosidan –a qo`shimchasini qo`shish bilan yasalgan⁵⁸.

II. Hozirgi lug`aviy ma'nolar til taraqqiyotining hozirgi davriga mansub ma'nolardir. Bu ma'nolar **bir ma'nodan boshqa ma'noning o'sib chiqishi** nuqtai nazaridan ikki turga bo`linadi:

1. Bosh ma'no ko'p ma'noli leksemalarning o`zaro bog`langan barcha ma'nolarini birlashtiruvchi ma'nodir. Bu ma'no odamning esiga keladigan birlamchi ma'nodir. Izohli lug`atda **uzmoq** leksemasining quyidagi ma'nolari berilgan: a) “kuch bilan tortib, yulqib butundan ajratmoq, butunni qismga bo`lmoq” (*ipni uzmoq*); b) palak, novda yoki tupidan ajratib olmoq (*uzum uzmoq*); d) kesib qirqib joyidan bo`lak qilmoq (*boshini uzmoq*); e) turgan, yopishgan joyidan ajratmoq (*boshini yostiqdan uzmoq*); f) davom qildirmaslik, to`xtatmoq (*suhbatni uzmoq*); g) qarzni to`lamoq (*yegan oshlarini uzmoq*); h) qattiq tishlamoq yoki chaqmoq (*Itning ishi uzmoq...*); i) qattiq ta'sir qilib, azob bermoq (*gap bilan uzmoq*); 1-ma'no (*ipni uzmoq*) mazkur leksemaning bosh ma'nosidir, chunki qolgan barcha ma'nolar shu ma'no bilan bog`langandir.

Bosh ma'no o'z navbatida **leksema ma'no tuzilmasida tutgan o'rniliga** qarab ikki turga ajratiladi: **a) to`ng`ich bosh ma'no** leksema ma'no tuzilmasida birinchi o'rinda turgan ma'nodir. Yuqoridagi *uzmoq-* leksemasining 1-ma'nosi shunga mos keladi; **b) nisbiy bosh ma'no** boshqa hosila ma'noning o'sib chiqishi uchun asos bo`lgan hosila ma'nodir. Yuqoridagi *uzmoq-* leksemasining 7-ma'nosi shunga mos keladi, chunki mazkur ma'no 8-ma'noning o'sib chiqishi uchun manba hisoblanadi;

Bosh ma'no unga turlicha yondashuvlar asosida quyidagi nomlar bilan ataladi:

⁵⁵ O'zbek tilining izohli lug`ati. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.3-jild, –T., 2007, 187-189-betlar.

⁵⁶ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006, 63-bet. H.A.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. –T., 2004, 26-bet. M.Mirtojiyev. O'zbek tilida polisemiya. T., 1975, 112-bet.

⁵⁷ Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining qisqa etimologik lug`ati. T., 1999, 99-bet.

⁵⁸ Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining qisqa etimologik lug`ati. T., 1999, 20-bet.

1) to`g`ri ma'no voqelikdagi narsa, belgi, miqdor, harakat tushunchalarini to`g`ridan-to`g`ri ifodalaydigan bosh ma`nodir.

2) nominativ ma'no voqelikdagi narsa, belgi, miqdor, harakat tushunchalariga nom bo`lib kelgan bosh ma'no.

3) erkin ma'no - bu yuzaga chiqishi muayyan matn, qurshov bilan cheklanmagan bosh ma'no.

2. Hosila ma'no bosh ma'nodan hosil bo`lgan, undan o`sib chiqqan ma`nodir. Yuqorida berilgan *uzmoq* leksemasining 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ma`nolari 1-ma`noga nisbatan hosila ma`nolar hisoblanadi, 8-ma`no esa 7-ma`noga nisbatan hosila ma`no bo`lib hisoblanadi.

Hosila ma'no ham turlicha yondashuvlar asosida quyidagi nomlar bilan ataladi:

1) ko`chma ma'no to`g`ri ma`noga zid qo`yiladigan hosila ma`no bo`lib, narsa, shaxs, belgi, miqdor, harakat tushunchalariga ko`chgan **hosila** ma`nodir. Masalan, *ko`chaning boshi* birikmasi tarkibidagi *bosh* leksemasining ma`nosini *odam boshi* birikmasi tarkibidagi *bosh* leksemasining ma`nosidan o`xshashlik asosida ko`chgan ma`nodir.

2) figural (lot. majoz degani) ma'no nominativ ma`noga zid qo`yiladigan hosila ma`no bo`lib, borliqdagagi narsa, shaxs, belgi, miqdor, harakatlarni majoziy tarzda ifodalagan hosila ma`nodir. Figural ma`noda obrazlilik kuchli bo`ladi. Masalan, *bahor* leksemaning *umr bahori* birikmasi tarkibida ifodalagan “*umrning yashnagan davri*” degan ma`nosini majoziy ma`nodir, chunki bu ma`no “*hayotning kamolga yetgan, yashnagan davri*” degan mavhum tushunchani “*yil fasllaridan biri*” degan aniq tushunchaga bog`lagan holda ifodalayapti. Figural ma`no ko`pincha **mavhum** tushunchalarni ifodalaydi.

3) bog`li ma'no erkin ma`noga zid qo`yiladigan hosila ma`no bo`lib, uning voqelashuvi uchun muayyan matn, qurshov zarur boladi. Ayrim leksemalarning turg`un (frazeologik) iboralar tarkibidagina ifodalaydigan hosila ma`nolari **bog`li** mano hisoblanadi. Masalan, *bel* leksemasining *bel olishmoq, bel bog`lamoq, beliga tepmoq, belini ko`tarmoq, belini sindirmoq, beli uzilmoq, belini bukmoq* kabi iboralar tarkibidagina ifodalaydigan hosila ma`nolari **bog`li** ma`noga misol bo`la oladi.

30-§. Lug`aviy ma'no taraqqiyoti yo'llari

Ma'lumki, ijtimoiy hayotda, inson ongida, tafakkurida yuz bergen o`zgarishlar natijasida til ham o`zgarib, taraqqiy qilib boradi. Bu o`zgarishlar birinchi navbatda uning lug`at boyligida aks etadi. Lug`at boyligidagi o`zgarishlar esa birinchi navbatda leksemalar ma`nolarining rivojiga bog`liqdir.

Leksemalar ma`nolarining rivojlanishi quyidagi yo'llar orqali amalgalari oshadi.

1. Lug`aviy ma'noning ko`chishi

Leksema lug`viy ma`nosining ko`chishi deganda bir tushuncha nomining boshqa tushuncha nomi sifatida ishlatalishidir. Yuzaki qaraganda, bu yerda ma`no ko`chishi emas, **nom ko`chishi** yuz berayotgandek ko`rinadi. Aslida unday emas, chunki bunda oldin birinchi tushuncha bilan bog`liq tarzda yangi tushuncha yuzaga keladi va u inson ongida barqarorlashadi. Tildagi **tejamkorlik** tamoyili esa yangi tushuncha uchun yangi so`z qidirib o`tirmasdan tilda oldin mavjud bo`lgan so`zni yangi ma`noda ishlatalishga imkon beradi. Masalan, *oyoq*-leksemasini olib ko`ramiz. Bu leksema sememasi quyidagi semalarga ega: 1) a'zo; 2) gavdani ushlab turuvchi a'zo; 3) yurishga yordam beradigan a'zo; 4) miqdoran bittadan ortiq a'zo; 5) shaklan uzunchoq a'zo; 6) uchida barmoq tirnoq va tuyoqlari mavjud bo`lgan a'zo. Albatta, bu ro`yxatni yana davom ettirish mumkin, lekin bizga shu leksema ma`nosining ko`chishi qay tarzda yuz berishini tushuntirish uchu shularning o`zi yetarli deb hisoblaymiz. Inson atrofidagi narsa va tushunchalarni idrok qilishda birinchi navbatda o`zidan andoza oladi, shuning uchun u

stol, stul kabi narsalarning qismlarini ham o`ziga qiyoslagan holda idrok qiladi va o`z oyog`iga xos belgilarning ayrimlari stol va stullarda mavjudligini ko`radi. Natijada, u *oyoq* leksemasining 2-, 5-semalariga tayangan holda stol va stullardagi qismni ham shu nom bilan ataydi: *stolning oyog`i*.

Lug`aviy ma`noning ko`chishi bu kabi shakily o`xshashlikdan tashqari belgi, harakat, vazifa o`xshashligiga, narsalar o`rtasidagi aloqaga asoslangan holda yuz berishi mumkin. Shularga asoslanib, lug`aviy ma`no ko`chishining quyidagi turlarini ajratsa bo`ladi:

1. Metafora (grekcha *metaphora* – «ko`chirma») o`xshashlik asosida ma`no ko`chishidir. O`xshashlik esa turlicha bolishi mumkin:

1) shakliy o`xshashlik: *odamning qulog`i* (bosh ma`no) - *qozonning qulog`i* (ko`chma ma`no). Bunda quyidagilar asos bo`ladi: a) odamning tana a`zolari nomlari: *bosh, qosh, peshona, ko`z, bet, yuz, burun, qulog, og`iz, lab, tish, til, yelka, bel, qo`l, oyoq, qo`ltiq*; b) kiyimlar va ularning biror qismi nomlari: *etak, yoqa*; d) hayvon, parranda va hasharotlardagi biror a`zoning nomi: *qanot, dum, tumshuq*; e) o`simlik va uning bir qismi nomi: *tomir, ildiz*; Yana misollar: *stolning oyog`i, arraning tishi, varrakning dumi, o`choq og`zi, ariqning labi, egarning qoshi, yog`ochning beli, matabning biqini (yonboshi), rubobning qorni, ko`chaning boshi, kemaning tumshug`i*;

2) belgi-xususiyat o`xshashligi: *shirin qovun* (bosh ma`no) – *shirin so`z* (ko`chma ma`no). Bunda narsa va harakat belgi-xususiyatlarini bildiruvchi so`zlar asos bo`ladi.

3) harakat-holat o`xshashligi: *eshikni ochmoq* (bosh ma`no) – *sirni ochmoq* (ko`chma ma`no). Bunda

2. Metonimiya (grekcha “qayta nomlash”) – narsa, belgi va harakatlar o`rtasidagi aloqadorlik asosida ma`no ko`chish hodisasi. Bu aloqadorlik o`rin hamda vaqt jihatdan bo`ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo`ladi. Bunda: 1) narsaning nomi shu narsa ichidagi boshqa bir narsaga ko`chiriladi: *auditoriya* – “xona” (bosh ma`no); *auditoriya* kului – “xona ichidagi odamlar” (ko`chma ma`no); 2) narsaning nomi shu narsaga asoslangan o`lchov birligi nomiga ko`chiriladi: *qop* – narsa (bosh ma`no) = *besh qop shakar* (o`lchov birligi – ko`chma ma`no); 3) o`lchov birligi nomi shu o`lchov birligi bilan bog`liq bo`lgan narsa nomiga ko`chiriladi: *to`qson besh* – o`lchov birligi (bosh ma`no) = *to`qson besh choy* – choy navi (ko`chma ma`no); 4) muallifning nomi uning asarlari ma`nosida ishlataladi: *Navoiyni ko`p mutolaa qilgan*. 5) belgining nomi shunday belgisi bor narsa nomiga ko`chiriladi: *ko`k* (bosh ma`noda - rang) – *ko`k* (ko`chma ma`noda - osmon). Buni belgi o`xshahsligi asosida metafora usuli bilan ko`chishdan farqlash lozim. Metaforada belgi tushunchasi saqlanadi, metonimiyada esa belgi tushunchasi narsa tushunchasiga aylanadi. 6) o`simlikni ifodalagan nom shu o`simlikdan tayyorlanadigan narsa nomiga ko`chadi: *kofe* (bosh ma`noda – o`simlik nomi) – *kofe* (ko`chma ma`noda - ichimlik). Tildagi tejamkorlik tamoyili metonimiyada to`laligicha namoyon bo`ladi, ya`ni deyarli barcha holatlarda so`z o`zi bog`langan so`zning ma`nosini o`z zimmasiga oladi. Qiyoslang: *bir piyola suv ichmoq* – *bir piyola ichmoq*.

3. Sinékdoxa (grekcha “birga anglash” degani) narsa yoki shaxs qismi nomini aytish bilan o`zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma`no ko`chish hodisasidir. 1) qism nomi butunga ko`chadi: *Dunyoda o`zimizdan keyin qoladigan tuyog`imiz...* (A. Qodiriy). *Tirnoq* (farzand ma`nosida), *ko`z* (mahalla qora ko`zları), *qulog* (*Eshitgan qulog nima deydi?*), *qo`l*, *oyoq* (*egri qo`llar, qing`ir oyoqlar* – o`g`rilar ma`nosida), *bosh* (*Bu bosh nimalarni ko`rmadi?!*), *yostiq* (hayot, umr ma`nosida – *Urush ko`plarning yostig`ini quritdi*), *yurak* (*Sher yuraklar jangda chekinmaydilar!*), *bo`yin* (... yo`g`on bo`yinlar bekor yurishibdi), *tish* (*Sichqon tish tirjayib javob berdi...*), *soch* (*Jingalak soch burilib qaradi.*), *yuz* (**Rapida** *yuz* yoyilib kului.) so`zleri ham sinekdoxaning shu turiga misol bo`la oladi. 2) butun nomi qismiga ko`chadi: *qo`l* (*Besh qo`l barobar emas*), *panja* (*Besh*

panjangni og ‘zingga tiqma), *osh* (umuman ovqat ma’nosidan *palov* ma’nosiga ko‘chadi) kabi so‘zlardagi ma’no ko‘chishi sinekdoxaning shu turiga misol bo‘la oladi.

4. Vazifadoshlik (funktional) asosida ma’no ko‘chishi narsalarning bajaradigan vazifasi o‘xshashligi jihatidan ma’no ko‘chishidir: *o‘q* – yoy o‘qi; *o‘q* – miltiq o‘qi, *tomir* – daraxt ildizi; *tomir* – qo‘l tomiri, *siyoh* – yozuvda qo‘llanadigan qora rangdagi suyuqlik (*siyoh* – fors-tojikcha *qora* deganidir), *siyoh* – yozuvda shu vazifani bajaradigan har qanday rangdagi suyuqlik, *chiroq* – kerosin bilan yonadigan yorug‘lik taratuvchi asbob; *chiroq* – elektr toki yordamida yorug‘lik taratuvchi xuddi shu vazifani bajaradigan asbob, *ko‘mir* – ilgarilari o‘tinni ko‘mib kuydirish orqali olinadigan yoqilg‘i turi; *ko‘mir* – yer ostidan qazib olinadigan va xuddi shu vazifani bajaradigan yoqilg‘i turi.

Diqqat qiling! Metaforik ma’no ko‘chishi bilan va funksional ma’no ko‘chishi bir-biriga yaqindir, chunki ikkala usul ham o‘xshashlikka asoslanadi. Shu sababli ayrim misollarda har ikkala usul ham mavjud bo`ladi. Masalan, *qanot*- leksemasi ma’no ko‘chishini tahlil qilaylik: *qush qanoti* (bosh ma’no) – *samolyot qanoti* (ko‘chma ma’no). **1. Shakliy** o‘xshashligi: 1) ikki tomonga turtib chiqib turishi; 2) har ikkala uchiga tomon ingichkalashib borishi; 3) old tomon qirrasining qalinligi; 4) o‘zi birikkan tanaga nisbatan tor burchak hosil qilishi. **2. Vazifa** o‘xshashligi: 1) qush va samolyotni havoda ushlab turishga yordam berishi. **Xulosa:** bu so‘z ma’nosi **metafora** usuli yordamida ko`chgan. Qolgan holatlarda ham shu metoddan foydalansa bo`ladi.

2. Ma’no torayishi

Bunda leksema sememasidagi ayrim semalar kamayib, uning ma’nosi torayadi. Masalan, *dehqon* (fors-tojikcha *deh* – “qishloq”, mo‘g‘ulcha *qoon* - “xon” degani) so‘zining quyidagi semalari mavjud bo`lgan: 1) katta yer egasi; 2) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan shaxs; 3) o‘z yerida boshqalar mehnatidan foydalanadigan shaxs. Hozirgi paytda bu so‘zning bitta semasi, ya’ni “qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi shaxs” degan semasigina saqlanib qolgan. Yana bir misol: *yaroq* (*yaramoq* so‘zidan olingan)– zarur bo`lgan narsalarning jami; hozir esa faqat “hujum qilish yoki himoyalanish uchun ishlatiladigan qurol” ma’nosigina saqlanib qolgan.

Turdosh otlarning, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi so‘zlarning atoqli otga o’tishi ham ma’no torayishiga misol bo‘la oladi: *zafar* (g’alaba) – turdosh ot = *Zafar* (ism) – atoqli ot; *go‘zal* – sifat = *Go‘zal* (ism) – atoqli ot; *sakson* – son = *Sakson ota* (ism) – atoqli ot; *kimsan* – so‘roq olmoshi = *Kimsan* – odam ismi; *sotib oldi* – fe'l, *Sotiboldi* - atoqli ot.

3. Ma’no kengayishi

Bunda leksema sememasini tarkibiga kiruvchi semalar miqdori ko`payadi va shuning hisobiga uning ma’nosi kengayadi. Masalan: *suv* leksema sememasini oldin quyidagi semalarga ega bo`lgan: 1) vodorod va kislородning birikmasidan iborat bo`lgan suyuqlik; 2) shaffof suyuqlik; 3) rangsiz suyuqlik; 4) hidsiz suyuqlik. Keyinchalik bu leksema sememasini quyidagi semalar hisobiga kengaydi: 5) ho‘l meva hamda sabzavotlar tarkibidagi suyuqlik: *anor suvi*; 6) tirik organizm a’zolaridan ajralib chiqadigan suyuqlik, shira: *oshqozon suvi*; 7) umuman turli narsalar tarkibidagi namlik: *suvi qochgan non*. Bu ma’nolar ko‘chma ma’nolar emas, balki bir ma’noning turli qirralaridir.

Atoqli otlarning turdosh otlarga o’tishi ham ma’no kengayishiga misol bo‘la oladi: *Makintosh* – ism, *makintosh* – kiyim turi; *Xosiyatxon* – ayollar ismi, *xosiyatxon* – atlas turi, *Volt* – mashhur fizik olimning familiyasi, *volt* – elektr toki kuchlanishi birligi.

31-§. Leksemalarning shakliy munosabatlariga ko'ra turlari

Yuqorida aytiganidek, leksemaning shakily (ifoda) tomoni deganda uning tovush tomoni, harfiy ifodasi, urg'u olish xususiyatlari nazarda tutiladi. Ana shular tilde **leksik omonimiya** degan hodisani yuzaga keltiradi. **Leksik omonimiya** leksemalar o'rtasidagi ifoda tomoni jihatidan teng kelib qolishdir. Bu hodisa o'z ichiga quyidagi guruh leksemalarni qamrab oladi:

1. Omonimlar - grekcha *homos* – “bir xil”, *onoma* yoki *onyma* – “nom” degan ma'nolarni ifodalab, tovush tomoni ham, harfiy ifodasi ham, barcha grammatik shakllari ham bir xil, ammo mazmun tomoni har xil bo'lgan leksemalardir: *ot* (ism) – *ot* (hayvon), *sir* (davlat siri) – *sir* (idish siri).

Omonim leksemalar asosan bir xil so'z turkumi doirasida bo'ladi. Bularga **ot** (*yosh* – umr o`lchovi; *yosh* – ko'z yoshi), **fe'l** (*betla* – qarashga botinmoq; *betla* – sahifala), **sifat** (*hur* – ozod; *hur* – go`zal) turkumlariga xos omoleksemalar misol bo'ladi. Grammatik shakllar (kelishik, egalik, ko`plik, zamon, shaxs-son kabi) tizimiga ega bo`lmagan ayrim turkumga oid leksemalar ham o`zaro omonim bo`lishi mumkin (*ham* bog`lovchisi va *ham* yuklamasi o`zaro shunday omonimlik hosil qiladi).

Omonim leksemalarni ko'p ma'noli leksemalardan farqlash zarur. Ko'p ma'noli leksemalar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o`zaro bitta bosh ma'noga bog'langan bo'ladi. Omonimlar boshqa-boshqa leksemalar bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi.

Ko'p ma'noli leksemalar ma'nolari o'rtasida aloqa uzilsa, omonim vujudga keladi: *dam I* – havo, *dam II* – temirchi bosqoni, *dam III* – lahza, nafas, *dam IV* – bog`lovchi, *dam V* – tig', o`tkir joy, *dam VI* – havo *yig`ilib* yurishmay qolgan (ichi dam bo`libdi)⁵⁹; Bu misollardagi *dam I* leksemasi ifodalagan “havo” manosi mazkur ko'p ma'noli leksemaning bosh ma'nosini bo`lib, qolganlari hosila ma'nolardir, lekin hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan bu oltita leksema omonim leksemalardir, chunki ular orasidagi ma'no aloqalari uzilgan.

2. Omoformalar grekcha *homos* – “bir xil”, *forma* – “shakl” degan ma'nolarni ifodalab, faqat ayrim grammatik shakllari bo'yicha teng keladigan leksemalar guruhidir.

Omoformalar har xil turkumlar doirasida mavjud bo`ladigan leksemalardir. Bularni nechta turkumga oid leksemalar ishtirot etishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) **ikkita** turkum doirasidagi omoformalar:

- a) **ot** va **sifat** turkumi doirasida: *issiq* (yoz issig`i) – *issiq* (issiq non);
- b) **ot** va **son** turkumi doirasida: *yigirma* (marosim) – *yigirma* (miqdor);
- c) **ot** va **fe'l** turkumi doirasida: *yoy* (kamon) – *yoy* (yoymoq);
- d) **ot** va **ravish** turkumi doirasida: *burun* (a'zo) – *burun* (avval);
- e) **olmosh** va **fe'l** turkumi doirasida: *siz* (2-shaxs, ko`plik) – *siz* (sizmoq);
- f) **ot** va **taqidiy** so'z turkumi doirasida: *shart* (shart qo`ymoq) – *shart* (shart uzmoq);
- g) **fe'l** va **taqlidiy** so'z turkumi doirasida: *taq* (taqmoq) – *taq* (tovushga nisb.);
- h) **fe'l** va **sifat** turkumi doirasida: *to`la* (to`lamoq) – *to`la* (to`liq);
- i) **sifat** va **taqlidiy** so'z turkumi doirasida: *chars* (qo`rs) – *chars* (tovushga nisb.);
- m) **ot** va **modal** so'z turkumi doirasida: *lozim* (kiyim)- *lozim* (zarur).
- n) **fe'l** va **ravish**: o`ta-o`ta;

2) **uchta** turkum doirasidagi omoformalar:

- a) **ot**, **sifat** va **fe'l** turkumlari doirasida: *bez* (yog` bezi) – *bez* (bezbet) – *bez*(moq);
- b) **fe'l**, **modal** so'z va hisob so`zлari doirasida: *bor* (moq) – *bor* (mavjud) – *bor* (marta);
- d) **ot**, **fe'l** va **ravish** turkumlari doirasida: *kech* (vaqt) – *kech*(moq) – *kech* (kelmoq);
- e) **ot**, **sifat** va **ravish** turkumlari doirasida: *sira* (tartib) – *sira* (ochiq) – *sira* (aslo);

⁵⁹ Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. T., “O'qituvchi”, 1984, 49-50-betlar.

- f) ot, fe'l va son: *uch* (yuqorisi) – *uch(moq)* – *uch(ta)*;
- h) ot, undov so'z va taqlid so'z turkumlari doirasida: *chuv* (pona) – *chuv* (chuh) – *chuv* (qiy-chuv);
- i) ot, fe'l va taqlid so'z turkumlari doirasida: *qiy* (go`ng) – *qiy* (kes) – *qiy* (qiy-chuv);
- k) ot, son va fe'l turkumlari doirasida: *qirq* (marosim) – *qirq* (miqdor) – *qirq* (kes);
- l) sifat, fe'l va ravish turkumlari doirasida: *qoq* (quruq) – *qoq(moq)* - *qoq* (ayni);

3) **to`rtta** turkum doirasidagi omoformalar:

- a) ot, sifat, fe'l va ravish turkumlari doirasida: *quv* (oqqush) – *quv* (ayyor) – *quv(moq)* – *quv* (butunlay);

2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) - grekcha *synonymos* yoki *synonymon* – “bir nomli” degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim so'zlar bir xil predmetlarni (*ovqat, osh, taom*), predmetning bir xil belgisini (*ishchan, harakatchan, tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi.

Bunday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z **asosiy so'z (dominanta, bosh so'z)** deb ataladi: *chiroqli, go'zal, ko'hlik*.

Ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *o'qishni bitirmoq* – *o'qishni tugatmoq*; *ishni bitirmoq* – *ishni bajarmoq*; *sotib bitirmoq* – *sotib yo'qotmoq*.

Sinonim so'zlar nutqning ta'sirli bo'lishiga yordam beradi. Ular bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi: *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol* (ot); *hayoli, andishali, oriyatli, iboli* (sifat); *yarim, ikkidan bir* (son), *hamma, bari, barcha* (olmosh); *gapirdi, so'zladi* (fe'l), *ko'p, mo'l, bisyor* (ravish); *va, hamda* (bog'lovchi); *kabi, singari, yanglig'* (ko'makchi); *xuddi, naq* (yuklama) va hokazo.

Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: *respublika* (lot.) – *jumhuriyat* (arab.). Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: *his* (tub) – *sezgi* (yasama), *savol* (tub) – *so'roq* (yasama), *ho'l* (tub) – *quruq* (yasama). Sinonimik qatordagi so'zlar eskirishi mumkin: *odat, rasm, urf, fan* (rasm, odat); *iltimos, o'tinch, tavollo; oqsoq, cho'loq, lang*.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) **leksik (lug'aviy) sinonimlar.** Bular ham ikki xil bo'ladi:
- a) **to'liq sinonimlar** har jihatdan teng keladigan, o'zaro farq qilmaydigan, birining o'rnida ikkinchisini bemalol qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlardir (bular yana **leksik dubletlar** deb qam yuritiladi): *kosmos* – *fazo, respublika* – *jumhuriyat, savol* – *so'roq*; b) **ma'noviy sinonimlar** ayrim ma'no nozikliklari bilan farq qiladigan, birining o'rnida ikkinchisini har doim ham qo'llab bo'lmaydigan sinonimlardir: *ovqat, taom, yemish, xo'rak, kului, jilmaydi, tirjaydi, irjaydi, ishshaydi, irshaydi, xoxoladi*; 2) **frazeologik sinonimlar:** *boshi osmonda* – *og'zi qulog'ida* - *do'ppisini osmonga otmoq* (o'ta xursand). 3) **leksik-frazeologik sinonimlar** so'z va ibora o'rtasidagi ma'nodoshlikdir: *yuvosh* – *qo'y og'zidan cho'p olmagan*; 4) **grammatik sinonimlar** ikki xil bo'ladi: a) **morfologik sinonimlar:** *adabiyotchi* – *adabiyotshunos, keldilar* – *kelishdi*. Qo'shimcha va ko'makchmilarning o'zaro sinonimligi ham morfologik, ya'ni grammatik sinonimlar jumlasiga kiradi: *maktabga ketdi* – *maktab tomon ketdi*. b) **sintaktik sinonimlar** erkin so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi sinonimlikdir: *dala ishlari* – *daladagi ishlar; kitobni o'qidi* – *Kitob o'qildi*.

3. Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) - grekcha *anti* – “zid”, “qarama-qarshi”, *onoma* yoki *onyma* “nom” degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p* - *oz* (ravish), *keldi* - *ketdi* (fe'l).

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: *qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam*. Antonimik juftlar ko'chma ma'no ifodalashi mumkin: *tun-u kun* (ravishga ko'chgan), *achchiq-chuchuk* (otga ko'chgan).

Bir sinonimik qatordagi antonim so'z sinonimik qatordagi barcha so'zlarga antonim bo'ladi: *chiroqli – go'zal – xushro'y – ko'hlik = xunuk – badbashara – badburush – ta'viya*.

Antonimlikda uchta belgi bor: 1) shakliy jihatdan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Ana shu uchta belgiga ega bo'lgan ikkita so'zgina o'zaro antonim bo'lishi mumkin.

4. Paronimlar (talaffuzdosh so'zlar) - yunoncha *para* – “yonida”, *onyma* – “nom” so`zlaridan hosil qilingan bo`lib, aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlar ko'pincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi: *asr - asir, shox - shoh, amr - amir*.

Paronimlar ba'zan og'zaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir so'z turkumiga ham, turli so'z turkumlariga ham oid bo'lishi mumkin: *zirak* (ot) - *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) - *asir* (ot). Paronimlarning quyidagi turlari mavjud:

1) lug'aviy (leksik) paronimlar: *shox-shoh, asl-asil, nufuz-nufus, dara-dala, dadil-dalil;* **2) frazeologik paronimlar:** *joni kirdi* (rohatlanmoq) – *jon kirdi* (tetiklashmoq), *og'ziga qaramoq* (tinglamoq) – *og'ziga qaratmoq* (mahliyo qilmoq).

5. Uyadosh so'zlar bir turdag'i narsa, belgi, voqe'a-hodisa, harakat ma'nolarini ifodalaydigan, bir mazmuniy guruhga mansub bo'lgan so'zlardir: **kiyim turlari:** *ko'ylak, shim, kostyum, do'ppi;* **rang turlari:** *oq, qizil, sariq;* **ruhiy holatni bildiruvchi harakat turlari:** *yig'lamoq, kulmoq, xo'rsinmoq.* Uyadosh so'zlarni sinonim so'zlardan farqlash kerak. Sinonimlar bir tushunchanining turli qirralarini ifodalaydi, uyadosh so'zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi.

LUG'AT TARKIBIDAGI SO'ZLARNING KELIB CHIQISHI JIHATIDAN TAVSIFI

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar kelib chiqishi jihatidan turli-tumandir. Dunyoda faqat o'z so`zlaridangina foydalanidan biron ta til yo`q. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Shunga ko`ra tilimizda mavjud bo'lgan so`zlarni bir qancha guruhlarga bo`lish mumkin.

32 -§. O`zbek tili leksikasida o`z va o`zlashgan qatlam

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo`lib kelgan. Bu aloqlar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo`limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo`ldi.

O'zbek xalqi qardosh bo`lmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada bo`ldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bog`liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo`ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so`zlarning o`zlashishiga sabab bo`lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O`z qatlam.
2. O`zlashgan qatlam.

I. O`z qatlam. O`z qatlamga umumturkiy so`zlar va o`zbekcha so`zlar kiradi.

1. Umumturkiy so`zlar. Ko`pchilik turkum xalqlar tilida qo`llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiyl bo`lgan so`zlar **umumturkiy so`zlar** deyiladi. Bu so`zlar turkiy qabilalarning goh qo`shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so`zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: **o`zbek, qozoq, uyg`ur, boshqird, qirg`iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no`g`oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qumiq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari** tillari mavjud.

Umumturkiy so`zlar hozirgi o`zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi.

Umumturkiy so`zlar turli sohalarga oid bo`lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg`u bildiradigan so`zlar kiradi: *kishi, oyoq, qo`l, bosh, ko`z, qosh, qizil, ko`k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to`rt, o`n, kel, tur, yot, o`tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez* kabi.

2. O`zbekcha so`zlar. O`zbek tili ichida o`zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so`zlar **o`zbekcha so`zlar** deyiladi. O`zbekcha so`zlar o`zbek tilining o`z ichki imkoniyatlari asosida, o`z qonuniyatları asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o`zbekcha so`zlarga shu tildagi so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shilishi natijasida hosil qilingan so`zlar: *ter+im+chi, bir+lash+ma, qo`l+lan+ma, o`t+kaz+gich, tur+g`un, bola+larcha*.

2. Boshqa tildan o`zlashgan so`zlarga o`zbek tilidagi yasovchi qo`shimchalarni qo`shish bilan yasalgan so`zlar: a) tojikcha so`zlardan yasalgan so`zlar: *mard+lik, jang+chi, do`s+lik, pul+siz*; b) arabcha so`zlardan yasalgan so`zlar: *rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li*; d) ruscha-internotsional so`zlardan yasalgan so`zlar: *sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi*.

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo`shimchalar yordamida o`z va o`zlashma so`zlardan hosil qilingan so`zlar: *til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz* va boshqalar.

II. O`zlashgan qatlamlar. Hozirgi o`zbek tilining lug`at tarkibiga tarixiy sabablarga ko`ra boshqa tillardan ko`plab so`zlar kirib kelgan. O`zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so`zlar o`zlashgan so`zlar (olinma so`zlar) deb yuritiladi. O`zlashgan so`zlar **uyg`ur, tojik, arab, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz** va boshqa tillarga oid.

O`zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so`zlarni quyidagi qatlamlarga bo`lish mumkin:

1. Fors-tojikcha so`zlar: Bu so`zlarning o`zlashishiga sabab shuki, o`zbek va tojik xalqlari asrlar mobaynida qo`ni-qo`shni bo`lib yashab kelyapti. Shunga ko`ra, *osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, g`isht, dasht, xonodon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham* kabi so`zlarning o`zbek tiliga o`zlashishi tabiiy holdir. Misollardan ko`rinyaptiki, fors-tojikcha so`zlarda *poy, dast, dar* kabi qismlar qatnashyapti, so`zlar oxirida jarangsiz undoshlardan keyin *t*, jaranglidan keyin *d* tovushlari ishtirot etyapti;

2. Arab tilidan o`zlashgan so`zlar. Arabcha so`zlar o`zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog`liq. *Kitob, maktab, xalq, maorif, shoир, ma'no, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g`alla, fil, parranda, hasharot, inson, oila, amma, xola, dimog`, idora* kabi so`zlar arab tilidan kirib kelgan. O`zbek tilidagi arabcha so`zlar ko`proq ot va sifat turkumiga tegishli bo`lib, ularning belgilari quyidagilardir: a) ikkita unli yonma-yon keladi: *doim, shoир, muomala, shijoat, shuur, inshoot, murojaat, tabiiy*; b) tutuq belgisi (') ishtirot etadi: *ma'no, qal'a; d) -iy, -viy* qo`shimchalarini olib yasalgan bo`ladi: *asabiу, oilaviy*)

3. Xitoy tilidan olingan so`zlar. Buyuk ipak yo`li Markaziy Osiyo bilan Xitoyni bog`lagan va natijada xitoycha so`zlar o`zlashgan: *choy* (xitoy tilida *ttsay* deyilar ekan), *manti* (*myan* – xamir, *ti* – go`sht degani), *lag`mon* (“cho`ziq xamir” degani)⁶⁰.

4. Mo`g`ul tilidan kirgan so`zlar. XIII asrda mo`g`ullarning Markaziy Osiyoni bosib olganligi va buyuk Amir Temur tomonidan bu bosqinchilikka barham berilganligi tarixdan ma'lum. Tilimizga o`zlashgan mo`g`ulcha so`zlarning ayrimlarini keltiramiz: *navkar* (no`xo`r – do`sht, o`rtoq degani), *tuman* (o`n ming).

5. Ruscha-baynalmilal so`zlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O`zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining o`zbek tiliga ta'siri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko`plab so`zlar o`zlashdi.

O`zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Yevropa xalqlari tillaridan (fransuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) so`z kirishi ikki tarixiy davrni o`z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo`lgan davr.
2. 1917-yildan keyingi davr.

Rus tilidan so`zlar ikki yo`l bilan o`zlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarları, amaldorlarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari tufayli og`zaki nutq orqali: *chilon* (chlen), *adbakat* (advokat), *apisor* (ofitser), *iskalat* (sklad), *axran* (oxrana), *choynay* (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: *ayrapilan* (aeroplan), *pabrik* (fabrika), *po`shta* (pochta), *zovut* (zavod), *uyez* (uyezd), *kredit* (kredit), *banka* (bank), *veksil* (veksil) kabi.

Rus tili orqali kirgan so`zlarning ba`zilari dunyodagi ko`pgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli o`zgartirilmay ishlatiladigan xalqaro so`zlardir. Ular, odatda, internotsional (baynalminal) so`zlar deb yuritiladi. O`zbek tiliga o`zlashgan internotsional so`zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: *sud*, *samolyot*, *stol*, *stul*, *tok* (elektr), *ruchka*.
2. Lotin tiliga: *reviziya*, *nota*, *metall*, *refleks*, *rezina*, *general*, *kapital*, *kanal*, *plan*, *direktor*, *radio*.
3. Yunon tiliga: *grammatika*, *pedagog*, *talant*, *tezis*, *kafedra*, *poeziya*, *poema*, *metr*, *neft*, *taktika*, *parallel*.
4. Nemis tiliga: *raketa*, *kran*, *shaxta*, *rolik*, *politsiya* kabi.
5. Ingliz tiliga: *champion*, *futbol*, *dollar* kabi.
6. Fransuz tiliga: *roman*, *palto*, *serjant*, *bank* kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so`zlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xo`jaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, san`at, savdo, sport, harbiy sohaga oiddir.

Hozirgi Yevropa tillaridan so`zlar bevosita aloqalar orqali o`zlashmoqda.

O`zbek tilidan ham boshqa tillarga so`zlar o`tgan: *o`rik*, *anjir*, *somsa* (ruscha: *uryuk*, *injir*, *samsa*). *Karandash* (qora tosh), *kavardak* (qovurdoq), *yeralash* (aralash), *utyug* (o`tli yuk) kabi so`zlarning ham rus tiliga o`zbek tilidan o`tganligi isbotlangan. O`zbek tilida ishlatilayotgan *bekat* so`zi ham yevropa tillarida *piket* tarzida qo`llanayotganligi fanga ma'lum. Hozirgi paytda o`zbek milliy sport turlaridan bo`lgan **kurashning** xalqaro miqyos darajasiga ko`tarilishi munosabati bilan *kurash*, *yonbosh*, *chala*, *halol* kabi o`zbekcha so`zlar boshqa tillarda ham ishlatilyapti.

Xalqlar orasidagi turli xildagi aloqa tillarning lug`at tarkibining boyib borishiga xizmat qiladi.

⁶⁰ O`zbek tilining izohli lug`ati. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.2-jild, –T., 2007, 493, 539-betlar.

TIL LUG'AT TARKIBINING QO'LLASHI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI

Ma'lumki, tildagi barcha so'zlar shu til egalari tomonidan bir xilda, barcha o'rirlarda qo'llanavermaydi. Shu jihatdan tilda mavjud bo'lgan so'zlarni ma'lum guruhlarga bo'lish mumkin.

33 -§. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika (so'zlar)

Bu guruh o'zbek millatiga mansub barcha insonlar tomonidan kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlar guruhidir. Bu so'zlar guruhi **qo'llanish doirasi chegaralangan leksika** yoki **umumxalq leksikasi** deb yuritiladi.

Qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksikaning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Bunday so'zlardan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha kishilar foydalanadi.

2. Bu so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi.

3. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi.

4. Bu so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi.

5. Boshqa tillardan kirgan so'zlar ham o'zbek xalqining barchasiga tushunarli bo'lsa, ular ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan *shamol, soat, inoq, dohiy, mag'rur, xafa, maqol, hayot, millat, hikoya* so'zlari; fors-tojik tilidan o'zlashgan *go'sht, non, sozanda, suhabat, sabzavot, ombur* kabi so'zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan *traktor, kino, teatr, sirk, kartoshka, fabrika, zavod* kabi so'zlar umumxalq tilida qo'llanadi.

Demak, qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar o'z qatlamga ham, o'zlashgan qatlamga ham oid bo'lishi mumkin.

Shuni aytish lozimki, umumxalq leksikasi har qanday til lug'atining asosini, yadroisini tashkil etadi. Bu leksika tarkib jihatidan barqaror bo'lib, hayotiy zarur bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

34 -§. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksika (so'zlar)

Bunday so'zlar turli sabablarga ko'ra o'zbek tili egalari tomonidan bir xil darajada qo'llanavermaydi.

Qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Bu leksika tarkibiga kiruvchi so'zlarning ma'nolari barcha o'zbek millati vakillariga tushunarli bo'lavermaydi. Masalan, *doyi* so'zining ma'nosini faqat xorazmliklar (yoki ularga qo'shni hududdagilar) tushunishadi (bu so'z adabiy tilde *tog'a* degan ma'noni bildiradi).

2. Bu so'zlarning qo'llanish doirasi chegalanishi ularning kelib chiqishiga bog'liq emas. Masalan, kelib chiqishi jihatidan o'zbekcha bo'lgan *purkagich* (purka+gich) so'zi barcha o'zbek tilida so'zlashuvchilar tomonidan faol ishlatilmaydi (bu so'z ruscha *pulverizator* so'zining tarjimasidir)⁶¹.

O.S.Axmanovaning "Slovar lingvisticheskix terminov" lug'atida **dialekt** so'ziga quyidagicha ta'rif beradi(tarjima): "**DIALEKT** - ... 1. Muayyan tilning hududiy, kasbiy yoki ijtimoiy umumiylilik bilan chambarchas bog'langan va doimiy hamda bevosita til orqali aloqada bo'lib turadigan u yoki bu miqdorda cheklangan kishilar tomonidan ishlatiladigan ko'rinishi(varianti)dir"⁶² Shundan kelib chiqqan holda, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika **hududiy dialektal leksika, ijtimoiy dialektal leksika** va **terminologik leksika** kabi guruhlarga bo'linadi.

⁶¹ Русско-узбекский словарь. В двух томах. Ташкент, 1984, стр. 278.

⁶² О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. М., 1969, стр. 131.

Shuni ta'kidlash joizki, bu guruhga kiruvchi so`zlar tarkiban barqaror emas, ya'ni vaqt o'tishi bilan ularning ayrimlari umumxalq leksikasi tarkibiga o'tishi mumkin. Masalan, ijtimoiy dialektal leksikaga tegishli bo`lgan *gap yo`q* iborasi hozirgi paytda adabiy til guruhiga o'tmoqda (shu 69nomli teleko`rsatuv ham bor edi).

1. Hududiy dialektal leksika

Bir millatning ma'lum hududdagina yashaydigan vakillari tomonidan ishlataladigan so`zlar yig`indisi **dialektal leksika** deb ataladi. *Dialekt* – yunoncha so`z bo`lib, *dialektos* – «tilning mahalliy ko`rinishi» demakdir⁶³. Dialektal leksika birligi **dialektizmlar** deb yuritiladi.

Millatning ma'lum hududda yashaydigan qismi ishlataladigan birliklar ichida adabiy tilga tegishlilari ham bo`lishi mumkin. Dialektizmlar tilning faqat mahalliy ko`rinishigagina tegishli bo`lgan birliklardir.

Dialektal leksika tarkibida quyidagi ko`rinishlar mavjud:

1) lug`aviy dialektizmlar shakl va ma'no jihatidan shevaga xos bo`lgan so`zlardir. Bunday dialektizmlar ham ikki xil bo`ladi:

a) **to`liq dialektizmlar** shakli ham, ma'nosi ham faqat shevaga xos bo`lgan so`zlardir. Masalan: **xorazmcha**: *momo* (buvi), *gashir* (sabzi), *moyak* (tuxum), *o'jak* (buzoq), *taxya* (do`ppi), *secha* (chumchuq), *hovva* (ha); **farg'onacha**: *valish* (ishkom) *paqir* (chelak); **buxorocha** *kallapo`sh* (do`ppi), *inak* (sigir), *nana* (ona); **toshkentcha**: *ada* (ota), *doda* (bobo).

b) **yarim dialektizmlar** faqat ma'nosigina shevaga xos bo`lgan so`zlardir. Masalan, **xorazmcha** *taka* so`zining “yostiq” manosi, *o'ra* so`zining “ustun” manosigina shevaga xosdir, adabiy tilda *taka* va *o'ra* so`zları boshqa ma'nolarni (“echkining erkagi” va “qazilgan chuqurlik”) ifodalaydi.

Bir lug`aviy dialektizm har xil shevalarda har xil ma'nolarni ifodalaydi: *andi* so`zi Toshkent shevasida “lo`li yoki qorayib ketgan, kir odam” ma'nosini ifodalasa, Qashqadaryo (Qovchin) shevasida “anqov, bechora” ma'nolarini bildiradi⁶⁴.

2) **fonetik dialektizmlar** adabiy tildagi so`zdan tovushlari bilan farqlanadigan birliklardir: *jo`q* (ad. *yo`q*), *dag`* (ad. *tog`*), *chish* (ad. *tish*) va b.

3) **grammatik dialektizmlar** shevagagina xos bo`lgan grammatik birliklardir (bular asosan affikslardir): *boryotti* (ad. *boryapti*), *yurtqa* (ad. *yurtga*), *bozorgir* (ad. *bozorbop*) va b.

4) **frazeologik dialektizmlar** adabiy tilda muqobili bo`lmagan va shevaga xos frazeologik birliklardir: **Xorazm** shevasida: *boshi aylanmaydi* (ad. *e'tibor bermaydi*). Bu haqda “Frazeologiya” bo`limida bat afsil bayon qilinadi.

2.Ijtimoiy dialektal leksika

Bu leksikaga mansub so`zlar ma'lum ijtimoiy guruhlar tomonidan ishlataladigan so`zlardir. Bu guruhga **jargonlar** va **argo** so`zlar kiradi.

a) **jargonlar** (fransuzcha “*buzilgan til*” degani) «umumtildagi”(ustoz prof. Sh. Rahmatullayev ifodasi) so`zlardan shakily jihatdan farq qiladigan, ko`pincha og`zaki muloqotda ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan o`zini tilning boshqa vakillaridan ajratib ko`rsatish maqsadida qo'llanadigan birliklardir: *yakan* (pul), *nishtyak* (zo`r) va h.

Jargonlarning quyidagi xususiyatlari bor:

- shakily jihatdan umumtildagi so`zlardan farq qiladi. Masalan, *mullajiring* jargon so`zi qismlari bizga tanishday ko`rinadi, lekin bu ikki qismning o`zaro bog`lanishi mantiqan to`g`ri emas.

⁶³ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. “Universitet” nashriyoti. –T.: 2006, 88-bet.

⁶⁴ Ўзбек халқ шевалари луғати. “Фан” нашриёти, Т., 1971, 30-бет.

- kamsitish, yerga urish, yomonlash kabi qo'shimcha ma'no bo`yoqlariga ega. Masalan, *dum* jargon so`zida kamsitish ma'nosi borligi seziladi.

b) argolar (fransuzcha **argot** – “*o'zgalar uchun yopiq*” degani⁶⁵) ayrim salbiy ijtimoiy guruuhlar (o`grilar, qaroqchilar) tomonidan ishlataladigan yashirin ma'noli so`zlardir: *oq qirg'oq* (100 so`m), qizil (tilla) va h.

Argolarning xususiyatlari:

- shakily jihatdan umumtildan farq qilmaydi;
- yashirin ma'noga ega;
- kamsitish, yerga urish ma'nolari yo`q.

3.Terminologik leksika

Ma'lum sohaga oid maxsus tushunchalarni mantiqan aniq ifodalash uchun qo'llanadigan so`z yoki so`z birkmalari yig`indisi **terminologik** (lot. *terminus* – “chegara”, *logos* - “fan” degani)⁶⁶ **leksika** deb ataladi. Terminologik leksikaning birligi **termin** (yoki **atama**) deb yuritiladi. Har qanday termin ma'lum bir terminlar tizimidagina termin hisoblanadi. Shu bilan u umumxalq leksikasiga mansub bo`lgan so`zdan farq qiladi.

Terminlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) biror sohaga oid maxsus tushunchani ifodalaydi. Masalan, *leksikologiya* termini tilshunoslik sohasiga tegishli bo`lib, tilning lug`at boyligini o`rganadigan bo`lim tushunchasini ifodalaydi.

2) bitta terminologik tizimda har doim bir ma'noli bo`ladi. Masalan, *ot* so`zi atama sifatida faqat so`z turkumi tushunchasini bildiradi (bu so`z “ism”, “hayvon”, “otmoq”, “ichmoq” ma'nolaridagi so`zlar bilan omonim hisoblanadi).

3) ko`pincha tillararo xususiatga ega bo`ladi. Masalan, lotin tilidan olingan *respublika* termini dunyodagi ko`pgina tillarda bir xil tushunchani ifodalaydi.

4) bir so`z bittadan ortiq sohaga tegishli termin bo`lishi mumkin. Masalan, *valentlik* termini **kimyo** hamda **tilshunoslik** fanlarida ishlataladi.

5) asosan ot turkumiga tegishli bo`ladi, boshqa turkumga tegishli bo`lsa, otga ko`chgan bo`ladi: *sintaksis* (*ot*), *ishlab chiqarish* (harakat nomi otga ko`chgan).

Atamalarni quyidagi mezonlar bo`yicha **tasnif** qilish mumkin:

1) qaysi sohaga oidligiga ko`ra:

a) **kasb-hunar atamalari** ma'lum kasb yoki hunar egalari tomonidan ishlataladigan atamalardir. Dunyoda qancha kasb yoki hunar bo`lsa, shularning har biriga xos bo`lgan atamalar mavjuddir. Ayrim kasblarga oid atamalarga misollar:

- **o'qituvchilik:** *reying, yillik baho, sinf jurnali, pedkengash, semestr, choraklik* va h.
- **duradgorlik:** *randa, iskana, tesha, bolg'a* va h.

b) **ilmiy atamalar** ma'lum fan-texnika sohasiga mansub tushunchalarni ifodalaydigan atamalardir. Bunday atamalar tabiiy fanlar, texnika fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, matematik fanlarning barchasida mavjuddir. Masalan:

- **kimyo:** *oksid, sulfat, reaksiya, valentlik, kislород, vodorod* va h.
- **matematika:** *sinus, kosinus, ayniyat, romb, parallelogram, teorema, aksioma* va h.
- **mantiq:** *predikat, subyekt, obyekt, hukm, tushuncha* va h.
- **kibernetika** (yoki **komputer texnologiyasi**): *EHM, axborot, fayl, disk, internet* va h.

2) kelib chiqishiga ko`ra:

a) **umumxalq leksikasidan olingan terminlar.** Bunda tilning o`zida mavjud bo`lgan so`zlar termin sifatida maydonga chiqadi. Masalan, tilshunoslikka oid *ot, sifat, son, fe'l, ravish,*

⁶⁵ Д.Э.Розенталь, И.Б.Голуб, М.А.Теленкова. Современный русский язык. М., 2003, стр. 93.

⁶⁶ А.А.Реформатский. Введение в языковедение. М., 1967, стр. 110.

ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, gap, so`z kabi, me`morchilikka oid pardozi, davra, namoyon, o`ymakor, taqsim kabi⁶⁷, temirchilikka oid pesh, tana, yelka, charxdor, dam kabi⁶⁸ atamalar bunga misol bo`la oladi.

b) chet tillardan olingan terminlar. Bunda tilimizga hozirgi paytda aloqa vositasi hisoblangan chet tillardan olingan atamalar nazarda tutiladi. Masalan, yadro fizikasiga oid *activator, barion, diproton, kvant;*⁶⁹ botanikaga oid *azaliya, valeriana, gortenziya, magnoliya,*⁷⁰ logopediya faniga oid *anamnez, giperkinez, distoniya, patogenez kabi*⁷¹, zargarlik kasbiga oid *parma, bargak, peshxalta, dahanda kabi*⁷² atamalar shunga misol bo`la oladi. .

4. Vulgarizm va varvarizmlar

Tilda so`kish, qarg`ash ma`nolarini ifodalaydigan so`zlar **vulgarizmlar** (lot. *vulgaris* “qo`pol” degani)⁷³ deb ataladi. Masalan: *haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqpadar* va b. Vulgarizmlarni ham qo`llanish doirasi chegaralangan leksikaga kiritsa bo`ladi, chunki bu guruh so`zlar ham har doim ishlatilavermaydi. Bunday so`zlar badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini chuquroq ochish uchun xizmat qiladi.

Varvarizmlar (yunoncha *barbarismos* – “tushunarsiz nutq” degani)⁷⁴ biror tilda tarjimasi bo`la turib, o`rinsiz tarzda ishlatiladigan so`zlar guruhidir. Masalan: *znachit* (demak), *tak* (demak), *ostanovka* (bekat), *svet* (chiroq) kabi ruscha so`zlar; *yes* (ha), *vau* (qoyil) kabi inglizcha so`zlar shunga misol bo`la oladi

LUG`AT TARKIBINING FAOLLIGI YOKI NOFAOLLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI. LUG`AT TARKIBINING HISSIY-TA`SIRIY BO`YOQDORLIGI JIHATIDAN TAVSIFLANISHI

10 -§. Tarixiy jihatdan o`zbek tili leksikasi

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo`limlarida, jumladan, leksikasida ham o`zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba`zi so`zlar eskirib, iste`moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so`zlar paydo bo`ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlama ajratishni taqozo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o`zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo`lib, uni umumuxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so`zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so`zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so`zlar yangilik bo`yog`iga ham, eskilik bo`yog`iga ham ega bo`lmaydi.

Zamonaviy qatlama so`zlarning nutqda ko`p yoki kam ishlatilishi, barcha kishilarning ishlatishi yoki ma`lum guruh kishilarini nutqidagina ishlatilishi asosga olinmaydi.

⁶⁷ Т.Турсунова. Меморчилик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. -Т., “Фан” нашриёти, 1987, 42, 89- бетлар

⁶⁸ С.Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Т., 1959, 107, 108, 109-бетлар.

⁶⁹ А.А.Абдураззоков, Э.Н.Назиров. Ядро физикасидан русча-ўзбекча терминлар лугати. Т., 1988, 11, 20, 52, 86-бетлар.

⁷⁰ А.И.Қосимов, М.М.Набиев. Ботаникадан қисқача изоҳли лугат. Т., “Ўқитувчи”, 1990, 7, 20, 28, 50-бетлар.

⁷¹ Л.Мўминова, М.Қаҳрамонова. Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. Т., “Ўқитувчи”, 1988, 8, 16, 21, 36-бетлар.

⁷² С.Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Т., 1959, 134-135-бетлар.

⁷³ А.Алиев, К.Назаров. Ўзбек тили маълумотномаси. Т., “Фан” нашриёти, 17-бет.

⁷⁴ А.А.Реформатский. Введение в языкознание. М., 1967, стр. 137.

Eskirgan qatlama. So`z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo`qolishi, yoki ularning ma`nosini ifodalaydigan boshqa so`zlarning paydo bo`lishi munosabati bilan ayrim so`zlar asta-sekin qo`llanmay unutila boradi. Ular nutqda kam qo`llanadi. Ularning ba`zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko`pchilik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo`llansa, izoh talab etadi. Eskilik bo`yog`iga ega bo`lgan so`zlar **eskirgan leksika** deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy so`zlar yoki istorizmlar.

2. Arxaik so`zlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy so`zlar o`tmishdagi narsa va hodisalarning nomi bo`lgan, ammo hozir eskirib qolgan so`zlardir. Tarixiy so`zlar jamiyatda yo`q bo`lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda ishlatiladi. Hozirgi tilda ularning sinonimii yo`q. Masalan: *foyton, yasovul, taxt, kanizak, dinor* (tilla pul), *chaqirim* (1 km), *tosh* (8 chaqirim – 8 km), *gaz* (71 sm), *botmon* (176, 128 kg), *misqol* (4,25 g.), *miri* (5 tiyin).

Ba`zi so`zlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan bo`lib qoladi. Bunday so`zlarning bir ma`nosi eskirsa, ikkinchi xil ma`nosi zamonaviy qatlamda ishlatiladi.

Masalan: *boy* so`zining ma`nosini qiyoslang: *Boy Yo`lchini zimdan kuzatdi* (*Oybek*). Sen *boy bo`laman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima bo`ldi?*

Arxaik so`zlar. Hozir mavjud bo`lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so`zlar deyiladi. Arxaik so`zlar yig`indisi **arxaizmlar** deyiladi. *Arxaizm* – grekcha so`z bo`lib, archaios – «qadimgi» degan ma`noni bildiradi.

Eskirgan so`z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo`lgani uchun uning eskirgan nomini almashtira oladigan zamonaviy qatlamga oid so`z mavjud bo`ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo`lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigani tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik bo`yog`iga ega bo`lib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, *sekretar* – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan *kotib* so`zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko`lamda qo`llanilyapti. *Sekretar* so`zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so`zlar so`zlovchining ko`z oldida iste'moldan chiqib ketayotgan so`zlardir: *revolyutsiya* (inqilob), *tuman* (rayon), *viloyat* (oblast), *baynalmilal* (internotsional), *bitik* (kitob), *ulus*, *budun* (xalq), *o`miz* (ko`krak) kabi.

So`zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma`nosini arxaiklashishi mumkin. Shunga ko`ra ular: a) leksik arxaizmlar; b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo`ladi.

Leksik arxaizmda so`z eskiradi: *gulgun, siymo* (obraz).

Semantik arxaizmda ma`no eskiradi: *chechak* – «gul» ma`nosida eskirgan, *bekat* – karvonlar to`xtaydigan joy ma`nosida eskirgan, *bag`ir* – «jigar» ma`nosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatic hodisalar doirasida ham yuz beradi. Ibosalarning arxaiklashishi: *dasti alif-lom qilib, gordonini ham qilib; yoqasini chop etmoq*; grammatic hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: sifatdoshning *-din, -mish* shakllari, ravishdoshning *-bon, -ibon* shakllari, *-dur* – kesimlikni ko`rsatuvchi bog`lama eskirgan grammatic shakllardir.

Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo`lib, unda tovush eskiradi: *sobun, qaboq* kabi (sovun, qovoq).

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi yangi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so`zlar yoki yangi ma`noda qo`llangan eski so`zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so`z bo`lib, *neos* – «yangi» degan ma`noni bildiradi. Neologizm yangilik bo`yog`iga ega bo`lgan so`zlardir. Masalan: *bakalavr, magistratura, kompyuter, kompyuter texnologiyasi, marketing, supermarket* kabi. Neologizmlar yangi paydo bo`lgan paytda, ishlatilish doirasiga ko`ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmning ma`nosini tushunarligilik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo`yog`ini yo`qotadi va umumxalq so`ziga aylanadi. Masalan: *brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt* va hokazo.

Ba'zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralangan leksikadan o`rin olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha. Chunki har bir davr o`z neologizmiga ega bo`ladi.

So`z yoki so`zning ma'nosi neologizm bo`lishi mumkin.

So`z neologizm bo`lsa, **leksik neologizm** deb yuritiladi: *broker*, ...

Leksik neologizmlar tamomila yangi, hali o`zlashib ketmagan so`zlardir. Bunday so`zlar: 1) o`zbek tilida avvaldan mavjud bo`lgan so`z va yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan yangi so`zlardir: *aqlidosh*; 2) boshqa tildan kirgan, hali umumxalq tiliga singib o`zlashib ketmagan yangi so`zlardir: *magistr, bakalavr*.

Leksik ma'noldan biri yangi bo`lsa, **semantik neologizm** deb yuritiladi. Masalan: *tadbirkor, ishbilarmon*.

11 -§. O`zbek tili leksikasining boyish manbalari

O`zbek tilining leksikasi fan-texnika, san'at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog`liq holda boyib boradi. Tilning lug`at tarkibi 2 manba asosida boyiydi.

1. O`zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida (ichki manba). Bunda so`z yasash orqali yangi so`zlar hosil qilinadi: *sinfidosh, limonzor, vazirlik, ijarachi, tinchliksevar, MDH, BMT* kabi. Ichki imkoniyatga shevalardan adabiy tilga so`z olish ham kiradi: *aya, bolish, uvildiriq* (ikra) kabi.

2. Boshqa tillardan so`z olish (tashqa manba). O`zbek tiliga boshqa tillardan so`z o`zlashtirish turli davrlarda turlicha bo`lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq rus tilidan va rus tili orqali Yevropa tillaridan so`z o`zlashtirish faollahgan. O`zlashgan so`zlar ham o`zbek tili leksikasida anchagina miqdorni tashkil etadi. Keyingi yillarda tilning leksik tarkibini so`z yasashdan ko`ra boshqa tillardan so`z o`zlashtirish hisobiga boyishi yyetakchilik qilmoqda.

Boshqa tillardan so`zlar ikki usul bilan o`zlashtiriladi: 1) so`zni aynan olish yo`li bilan; 2) kalkalab olish yo`li bilan.

So`zni aynan olish yo`li bilan tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tillaridan, rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan ko`proq o`zlashtirilgan. Masalan, *sinch, devor, yana, rubob, kitob, mifik, daraxt, mutolaa, muomala, traktor, sport* kabi.

Kalkalab o`zlashtirishda so`z aynan olinmaydi, balki so`zning ma'nosi o`zlashtiriladi. Ikkinci tildagi so`zning ma'nosi shu so`zning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa ko`chirish orqali ifoda etiladi. Kalkalab o`zlashtirishning 2 xil yo`li bor:

1. To`liq kalka. Bu usulda o`zlashtirilayotgan so`zning barcha qismlari o`z til materialidan tuziladi. Masalan: *polugramatniy – chalasavod, ledokol - muzyorar*.

2. Yarim kalka. Bu usulda o`zlashtirilayotgan so`zning bir qismi aynan saqlanib, bir qismi o`z til orqali beriladi. *Traktorist – traktorchi, tabelshik – tabelchi* kabi.

O`zga til so`zidagi ma'no o`z tildagi so`z bilan berilsa, bu **semantik** kalka deb ham yuritiladi. Masalan, *bo`g`in* so`zining ruscha «pokoleniye» ma'nosi.

LUG‘AT TARKIBIDAGI AJRALMAS BIRIKMALAR – FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNI MA’NO VA TARKIB JIHATDAN TAVSIFLANISHI

12 -§. Frazeologiya

Nutqda ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro ma'no va grammatik jihatdan bog`lanishidan tuzilgan birikmalar ham qo`llaniladi.

Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mavjud bo`ladi. Ular bir-biridan o`ziga xos belgilari bilan farq qiladi.

Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so`zdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday so`z birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi so`zlarning ma'nosi asosida yuzaga keladi: *qiziqarli asar*. Bunday so`z birikmasi tarkibidagi so`zlar ayrim-ayrim so`zlarga ajrala oladi: *qiziqarli asar – zerikarli asar*. Shuning uchun ular erkin so`z **birikmasi** deb yuritiladi.

Tilda ko`p vaqt bir qolipda qo`llanaverib, bo`linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud: *og`zi qulog`ida*. Demak, so`z birikmalari ikki xil: a) erkin so`z birikmasi; b) turg`un so`z birikmasi. Turg`un birikmalar ikki xil: a) birikmali atamalar; b) iboralar.

Tilda ikki yoki undan ortiq so`zdan tarkib topib, ko`chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so`zga teng keladigan turg`un birikmalar **ibora (frazeologik birlik)** deyiladi.

Iboralarning quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. Iboralar ahamiyati va qo`llanishi jihatidan, odatda, so`zga teng keladi: *kapalagi uchib ketdi* (cho`chidi), *og`zing qani desa qulog`ini ko`rsatadi* (lapashang)

2. Iboralar ko`chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo`ladi. Masalan, *qo`y og`zidan cho`p olmagan* iborasani o`qigan odam o't yeb turgan qo`y, uning og`zidagi cho`p kabi timsollarni ko`z oldiga keltiradi. *Yuvosh* so`zida esa bu kabi xususiyatlar yo`q.

3. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko`rinishda bitta so`roqqa javob bo`ladi va bitta gap bo`lagi vazifasini bajaradi: *yulduzni benarvon uradigan* (yigit)– qanday (yigit)?

4. Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so`zlarni kiritish yoki tarkibidagi so`zlarni o`zgartirish mumkin: *ko`zi tushdi – ko`zi menga tushdi; burni ko`tarilgan - burni ko`tarilib ketibdi – burni ko`tarilibdi* va h.

5. Iboralar ko`proq so`zlashuv va badiiy uslubda ishlataladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

6. Birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holiga kelib qolishi mumkin: *ishtahasi ochildi, dili siyoh bo`ldi*.

Iboralarning barchasi ko`chma ma'no ifodalaydi va ularda emotsionallik so`zga nisbatan kuchli bo`ladi. Shuning uchun iboralar nutqning ifodalaligini va ta'sirchanligini oshiradi.

Tilning iboralarni o`rganadigan bo`limi **frazeologiya**, iboralar yig`indisi esa **frazeologizm** deb yuritiladi.

Iboralar o`rtasida ham o`zaro sinonimlik, antonimlik, omonimlik, paronimlik hodisalari bo`lishi mumkin. (*Qarang: 8-§. So`zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko`ra turlari.*)

Frazeologiya birliklarining tasnifi

Frazeologiya birliklarining ma'no darajasiga ko`ra turlari

1) **frazeologik qo`shilmaning** farqli xususiyati shundaki, bunday iboralarning tarkibidagi kamida bitta so`z o`zma'nosida, qolganlari ko`chma ma'noda qo`llanadi: *qo`l qo`ymoq, imzo chekmoq*.

2) **frazeologik birlashmaning** farqli tomoni shundaki uning tarkibidagi barcha so`zlar ko`chma ma'noda qo`llanib, iboraning ma'nosi shu ko`chma ma'nolardan kelib chiqadi: *tепа сочи тикка bo`ldi(bir lahzaning o`zida nihoyatda g`azablanmoq), jon demoq(xursand bo`lmoq), ona suti og`zida(hali yosh, tajribasiz)*.

3) **frazeologik chatishmaning** asosiy xususiyati shundaki, uning tarkibidagi ayrim so`zlar eskirgan bo`lib, hozirgi til nuqtai nazaridan tushunarsiz bo`ladi: *pixini yorgan (o`taketgan uddaburon, quv), so`xtasi sovuq (yoqimsiz, badha), enka-tenkasi chiqmoq(qiynalmoq)*. Bu misollardagi *pix, so`xta, enka-tenka* so`zлari hozir eskirgan, ma'nosi tushunarsizdir.

Frazeologik birliklarning shakl va ma’no turlariga ko`ra tasnifi

Omonim iboralar- shakli bir xil ma’nosи har xil iboralar. M: *boshga ko`tarmoq-e’zozlamоq; boshga ko`tarmoq- shovqin solmoq*

Sinonim iboralar- bir-biriga ma’nosи yaqin ma’nodosh iboralar. M: *dunyoga kelmoq-tavallud topmoq*

Antonim iboralar- qarama-qarshi ma’noli iboralar zid ma’noli iboralar. M: *dunyoga kelmoq- dunyodan ko`z yummoq*

Paronim iboralar – bitta so`zi yoki affaksi bilan farqlanadigan iboralar: *yetti uxbab, tush(i)ga kirmaslik va yetti uxbab tush(i)da ko`rmaslik;*

Frazeologik birliklarning ko`p manoliligiga ko`ra ko`ra tasnifi

1.Bir ma’noli frazeologik birliklar . Xuddi bir ma’noli so`zlarga o`xshab bir ma’noli frazeologik birliklar ham tarkibidagi so`zlarning ma’nolaridan kelib chiqadigan bitta ma’noga ega bo`ladi. Masalan *bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi* “hamjihat bo`lmoq” degan bitta ma’noni, *yer bilan osmoncha iborasi* “juda katta, beqiyos (farq)” degan bitta ma’noni ifodalaydi.

2. Ko`p ma’noli frazeologik birliklar. Ko`p ma’noli leksemaga o`xshab polisemantik iboralar ham bir-biriga bog’langan kamida ikkita ma’noga ega bo`ladi. Ko`p manoli iboralar ko`chma ma’nolari ikkitadan oltitagacha borishi mumkin.

1) ikki manoli iboralar: ***yo`lga tushmoq.*** 1. *Kim.* jo`namoq, keta boshlamoq. 2. *To`g`ri yo`lga qaytmoq.*

) uch manoli iboralar: ***bino qo`ymoq*** – 1. *o`ziga.* Ortiqcha baho bermoq, yuksak fikrda bo`lmoq. 2. *o`ziga.* Qiyo fasiga alohida e’tibor bermoq. 3. *Kimga yoki nimaga.* E’tiqod bilan qaramoq.

3) to`rt manoli iboralar: ***bosh ko`tarmoq.*** 1. *Kim.* Qaramoq. 2. *Kim nimadan.* Qilib turgan ishini to`xtatmoq. 3. *Nima.* Qo`zg`almoq, harakatga kelmoq. 4. *Kimga qarshi.* Kurashga chog`lanmoq.

4) besh manoli iboralar: ***javob bermoq.*** 1. *Kim nimaga yoki kimga.* Javob qilmoq. 2. *kim nimaga nima bilan.* Javoban ish tutmoq. 3. *Nima nimaga.* Qondirmoq. 4. *Kim nimaga.* Javobgarlikni o`z ustiga ustiga olmoq. 5. *Kim kimga.* Ketishga ruxsat bermoq.

5) olti manoli iboralar: ***to`g`ri kelmoq*** – 1. *Nima yoki kim nimaga yoki kimga.* Muvofiq bo`lmoq. 2. *Nima nimaga.* Bir vaqtida bo`lmoq. 3. *Nima kimga yoki nimaga qanchadan.* Taqsimlaganda tegmoq. 4. *Nima yoki kim kimga.* Yo`liqmoq, uchramoq. 5. *Nima yoki nima qilish.* Qulay bo`lmoq. 6. *Nima qilishga.* Lozim bo`lmoq, zarur bo`lmoq.

Frazeologik birliklarning variantliligiga ko`ra tasnifi

Leksik variant. Bunda ibora tarkibidagi mustaqil so`z turkumiga oid so`zi o`zgartilishi nazarda tutiladi. Masalan: *o`yga cho`mmoq – o`yga botmoq, og`ziga tolqon solmoq – og`ziga so`k solmoq* va b.

Grammatik variant deganda ibora tarkibidagi biror grammatik qismning almashtirilishi nazarda tutiladi. Masalan: *o`tirgani joy topolmaslik – o`tirishga joy topolmaslik, holdan toymoq – holdan toydirmoq.*

13-§. Tasviriy ifoda (parafraza)

Narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so‘z birikmasi **tasviriy ifoda** (yoki **parafraza**) deyiladi: qushlar - *qanotli do’stlar;* fazogirlar - *samo lochinlari;* makkajo‘xori - *dala malikasi;* paxta - *oq oltin,* rassomlar – *mo’yalam sohiblari.* Tasviriy

ifodalardagi bitta so‘z har doim o‘z ma’nosida bo‘ladi, shu bilan ular iboralardan farq qiladi. Tasviriy ifodalar ham omonimlik, sinonimlik xususiyatlari ega bo‘lishi mumkin. **Omonim** tasviriy ifodalar: *aql gimnastikasi* – 1) matematika; 2) shaxmat, *qora oltin* – 1) neft; 2) ko‘mir. **Sinonim** tasviriy ifodalar: *g‘azal mulkining sultonni* va *o‘zbek tilining asoschisi* – Alisher Navoiy; *uyg‘onish fasli* va *fasllar kelinchagi* – bahor.

14 -§. Leksikografiya

Tildagi jamiki so‘zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug‘atshunoslik (yoki leksikografiya) shug‘ullanadi. Mukammal tuzilgan lug‘at va so‘zliklar u yoki bu tilning boyligini o‘zida to‘playdi. Lug‘atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy tomonidan XI asrda yaratilgan “Devonu-lug‘otit-turk”, XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug‘atlari tarixdan bizga ma'lum. Lug‘atlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Qomusiy lug‘atlarda mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma'lumot beriladi. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, “Salomatlik ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima” kabi lug‘atlar shular jumlasidandir.

2. Lingvistik (tilshunoslik) lug‘atlar bir tilli va ko‘p tilli bo‘ladi. **Bir tilli** lug‘atlarga **imlo lug‘ati** (so‘zlarni to‘g‘ri yozishga yordam beradi), **chappa (ters) lug‘at** (so‘zlar oxirgi harfi bo‘yicha alfavit tartibida joylashtiriladi), **orfoepik lug‘at** (so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi), **morfem lug‘at** (so‘zlarni asos va qo‘srimchalarga ajratishga yordam beradi), **o‘zlashma so‘zlar lug‘ati** (chet tillardan kirgan so‘zlarga ta’rif beriladi), **frazeologik lug‘at** (iboralar lug‘ati), **terminologik lug‘at** (ma'lum fan sohasi bo‘yicha atamalarga izoh beriladi), **izohli lug‘atlar** (tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarga izoh beriladi), **chastotali lug‘atlar** (ma'lum asarlarda so‘zlarning qo‘llanish darajasi haqida ma'lumot beradi), **paronimlar lug‘ati** (tilda mavjud bo‘lgan talaffuzdosh so‘zlar haqida ma'lumot beradi).

1981-yilda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ikki jiddan iboratdir. Bu lug‘atda so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida to‘la ma'lumot beriladi.

Bunday lug‘atlar ma'lum bir ijodkor asarlari bo‘yicha ham yaratilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 tomlik lug‘atda 60 000 dan ortiq so‘z berilgan.

Ko‘p tilli lug‘atlarga esa tarjima lug‘atlari kiradi.

MORFEMIKA (SO‘Z TARKIBI)

So‘zlar kopincha tarkibiy jihatdan turli qismlardan iborat bo‘ladi: *Mustaqil-lik-ning 22 yil-lik bayram-i nishon-la-n-di*. Ko‘rinyaptiki, gap tarkibidagi so‘zlar atash ma’nosini yoki grammatic ma’noni ifodalaydigan qismlarga bo‘lindi. Bu **qismlar** asos va **qo‘srimchalar** deb yuritiladi.

So‘zning tub (atash) ma’nosini bildirib, mustaqil qo‘llana oladigan qism **asos** deb ataladi: **gulzor**, **bog‘bon**, **chizg‘ich**, **paxtakor**. O‘zak so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. O‘zak so‘z tarkibida doim qatnashadi.

Asosga qo‘silib, turli ma’nolarni ifodalaydigan yoki so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qiladigan qism **qo‘srimcha** deyiladi: **tokzor**, **qizcha**, **yozgi**, **kattaroq**, **ishla**, **keldi**, **birinchisi**, **ishni**. Qo‘srimchalar so‘z tarkibida qatnashmasligi ham mumkin, ular ayrim qo‘llanmaydi, doim o‘zakka qo‘silib keladi.

Qo‘srimchalar vazifasi va so‘zga qo‘silib anglatadigan ma’nosiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. So‘z yasovchi qo‘srimchalar asosga qo‘silib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan qo‘srimchalardir: *o’t - o’tloq, arra - arrala, kuch - kuchli, hosil -serhosil*. So‘z yasovchi qo‘srimchalar unumli (-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor) va unumsiz (-vul, -ag‘on, -chil, -in, -a) bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘srimchalar orasida asli so‘z shaklidan qo‘srimchaga aylangan birliklar ham mavjud. Bular **affiksoidlar** deb ataladi. Ularning affiksga aylanishiga sabab shuki, ular turli asoslarga qoshilib, mustaqil so‘z yasash tizimini hosil qiladi. Bunday birliklar ham qo‘silish o‘rniga qarab oldqo‘srimcha (prefiksoid), ortqo‘srimcha (postfiksoid)ga bo‘linadi. **1. Postfiksoidlar:** -xona - *ishxona, oshxona, molxona...* -noma – *taklifnoma, xabarnoma...* -aro: *xalqaro, matablararo, millatlararo...* **2. Prefiksoidlar:** *hamsuhabat, hamqishloq...* *tagmatn, tagmazmun...* ust: *ustqatlam, ustqurma*.

2. Shakl yasovchi qo‘srimchalar asosga qo‘silib, ma’noni bir oz o‘zgartiradigan yoki so‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladigan qo‘srimchalardir. Bu qo‘srimchalar bajaradigan vazifasi hamda ma’nolariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: **1) lug‘aviy shakl yasovchi qo‘srimchalar** asosga qo‘silib, unga ko‘plik, kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, taxmin kabi ma’nolarni ifodalaydigan qo‘srimchlardir: *uycha, kitoblar, kattaroq, ozgina, yurib, onajon, bura, oqarinqira(di), chayqa, tepkila*. **2) sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar** so‘zlarni bir-biriga bog‘laydigan qo‘srimchlardirdir: Bularga **kelishik** (*kitobni o‘qidi, uyga ketdi, daftarning varagi*), **egalik** (*maktabimiz hovlisi, mening ukam, talabalar uyi*), **shaxs-son** (*biz keldik, men bordim, sen kelding*) qo‘srimchalari kiradi. Bu qo‘srimchalar yana **sintaktik munosabat shakllari** ham deyiladi.

O‘zbek tilida qo‘srimchalarning asosga qo‘silish tartibi, odatda, quyidagicha: **asos + so‘z yasovchi qo‘srimcha + lug‘aviv shakl yasovchi qo‘srimcha + sintaknik shakl yasovchi qo‘srimcha:** *kitob+xon+lar+ning*. Qo‘srimchalar asosga qo‘silish o‘rniga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Prefiks asosdan oldin qo‘siladigan, ya’ni old qo‘srimchalardir. Bular ko‘pincha fors-tojik tillaridan o‘zbek tiliga kirgan so‘zlarda uchraydi: *bebaho, bama’ni, boobro’, noqulay, serhosil*.

2. Interfikslar so‘zning ichida qo‘llanadigan qo‘srimchalardir. Ba’zi bir shevalarda *uyida, boshida* so‘zlaridagi egalik qo‘srimchasi –i emas –in tarzida qo‘siladi: *uyinda, boshinda*. Ko`rsatish olmoshlaridagi –n qo‘srimchasi (*bunda, shunda*) ham interfikslardir.

3. Postfikslar asosdan keyin qo‘siladigan qo‘srimchalardir: *aqli, gulni, kattaroq*.

Qo‘srimchalar tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1. Sodda qo‘srimchalar boshqa qo‘srimchalarga ajralmaydi: *ish-chi, aql-li, gul-la-di*.

2. Murakkab qo‘srimchalar kamida ikkita qo‘srimchaning qo‘silishidan hosil bo‘ladi: *dehqonchilik, odamgarchilik, yordamlash, otlan, uydag, yuzlab, butunlay, ochiqchasiga, tortgila, xomligicha, tepkila, turktika, yugurgilamoh, ezbilamoh, akalarcha*. Bu qo‘srimchalar ma’lum so‘zlar tarkibida kelganida boshqa ma’noli qismlarga ajralmaydi.

SO‘Z YASALISHI

So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi ma’noli so‘z yasalishi, so‘z yasash usullari, so‘z yasalishiga aloqador bo`lgan hodisalarni o‘rganadi.

“**So‘z yasalishi**” atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qo‘llanadi: 1) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog`liq hodisalarni tekshiruvchi bo`limini; 2) umuman so‘z yasalishi, so‘z hosil qilinishini bildiradi.

Nutqda so‘zlar **tub** yoki **yasama** shaklda qo‘llanadi.

Tilda mayjud usullar bilan yasalmagan so‘z **tub so‘z** deb yuritiladi: *inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyrak, xursand, besh, o’n, yigirma, biz, hamma, ba’zi, bormoq, kelmoq, o‘qimoq, sekin, birga, hozir* va h.k.

Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan so`z **yasama so`z** deb yuritiladi. Masalan, *tinchlik, bog`bon, gulzor, jonlan, birlash, ko`kar, sezgir, zavqli* so`zlari o`zakka yasovchi affikslar (-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li) qo`shish usuli bilan yasalgan bo`lsa, *Dilorom, Oqtepa, bilaguzuk, sohibjamol, sofdil, erksevar* so`zlari so`zlarni yoki so`z shakllarini qo`shish, biriktirish usuli bilan hosil qilingan.

Tilda mavjud bo`lgan so`z (yoki so`zlar, so`z shakllar) negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so`zlarni hosil qilish **so`z yasalishi** deyiladi.

O`zbek tilida so`z yasalishining **affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya** kabi usullari mavjud bo`lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi so`z yasash usullar hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli. So`zga so`z yasovchi affiks qo`shish bilan yangi so`z hosil qilish **affiksatsiya usuli** deyiladi. Masalan, *paxtakor, sinfdosh, quvonch, do`stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o`yla, kengay, shodlan, tinchchi, tasodifan, oqilona, ko`pincha, ertalab* va boshqalar.

So`z yasovchi affikslar o`zbek tilida asosan suffiks tarzida qo`llanib, so`z o`zagidan so`ng qo`shilib keladi. Ba`zan bunday affikslar o`zak oldiga **prefiks** tarzida qo`shilib, yangi ma'nodagi so`z yasashi mumkin. Masalan, *serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara* va h.k.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so`z yoki so`z shakllarining qo`shilushi, birikuvi orqali yangi so`z yasash **kompozitsiya usuli** bilan so`z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo`shma, ayrim juft so`zlar hosil qilinadi. Masalan, *guldasta, gultojixo`roz, asalari, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olajanob, hozirjavob, havo rang, e'lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gal, yonma-yon, zo'r-bazo'r, ketma-ket* va b.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko`ra, bir butun holda qo`llanadigan to`g`ri ma'noli turg`un birikmalarining qismlari har xil yo`l bilan qisqartirilib so`z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo`lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *MDH* - Mustaqil davlatlar hamdo`stligi, *ATS* – Avtomatik telefon stantsiyasi, *ToshMI* – Toshkent meditsina instituti, *filfak* – filologiya fakulteti, *akademlitsey* – akademik litsey, *peduniversitet* – pedagogika universiteti va b.

Fonetik usul. Bu usulga ko`ra, so`zda fonetik o`zgarish yuz berib, yangi so`z hosil qilinadi. Chunonchi, so`z urg`usining o`rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so`z turkumiga doir so`zlar hosil bo`lishi mumkin: *yózma* (fe'l) - *yozmá* (sifat, *súzma* (fe'l) - *suzmá* (ot), *fízik* (sifat), *akadémik* (ot), *akademík* – (sifat) va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so`z ma'nosida o`zgarish ro'y berib, ma'nosini boshqa-boshqa, shaklan o`xhash yangi so`z hosil bo`ladi: *kun* – sutkaning yorug` qismi, *kun* - quyosh, planeta; *ko`k* – osmon, *ko`k* - havorangga o`xhash rangi, *bir* – son, *birga*, *birdan*, *birda* – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan nofaol tarixiy so`z yasash usullari deb qaraladi.

So`z yasash usullari haqida har bir so`z turkumi doirasids btafsilroq to`xtalamiz.

GRAMMATIKA

1 -§. Grammatika haqida umumiy ma'lumot

Grammatika – tilning grammatik qurilishini o`rganuvchi tilshunoslikning bo`limi. Grammatika so`zlarning gapda o`zgarishi va ularning o`zaro birikib, so`z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to`plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksidan iborat. **Morfologiya** qismida so`z turkumlari va ularga xos bo`lgan shakllar haqida bahs yuritsa, **sintaksis** qismida so`zlarning bir-biri bilan bog`lanib, so`z birikmasi, gap hosil qilishi tekshiriladi.

Ko`rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so`zni o`rganadi. Ammo leksikologiya leksik so`zni – **leksemani** o`rgansa, grammatika grammatik so`zni – so`zning shaklini, so`z shaklini tekshiradi.

2 -§. So`zshakl va grammatik ma’no

Leksik so`z yoki **leksema** ma’no va ifoda birligidan iborat bo`lganidek («*kitob*» leksemasining ma’nosи, yoki mazmun plani – «o`qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda plani **k, i, t, o, b** tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so`z, yoki so`z shakl grammatik ma’no hamda grammatik ifoda (shakl) birligidan iboratdir. Jumladan, *kitob* so`zi «o`qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik tushunchalarini ham bildiradi. Bunda *kitob* so`zining «o`qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik ma’nosи sanaladi va shu so`zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma’nosidir.

So`zning grammatik ma’nosи uning leksik ma’nosи bilan belgilanmaydi. Masalan, *suv*, *havo*, *shamol*, *bulut* kabi so`zlarining leksik ma’nolari turlicha, lekin grammatik ma’nolari bir xil, ya’ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, biringa leksik so`z, leksema, ma’lum leksik ma’no anglatgani holda turli shakllarda qo`llanib, har xil grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan, *o`qimoq* fe’lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma’nolarni bildiradi: *o`qiyapman* so`z shakli hozirgi zamon davom fe’lining I shaxs birlik ma’nosini, *o`qiyapsan* so`z shakli hozirgi zamon davom fe’lining II shaxs birlik ma’nosini va h.k.

Demak, so`zning ma’lum turkumga mansubligini ko`rsatuvchi, so`zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma’no **grammatik ma’no** hisoblanadi. Ko`rinadiki, grammatik ma’no o`z xususiyatiga ko`ra ikki xil bo`ladi: 1) **umumiy grammatik ma’no** ma’lum bir so`z turkumi uchun xos bo`lgan ma’no; 2) **xususiy grammatik ma’no** so`zning kategorial grammatik ma’nosи ma’lum so`z turkumlari uchun xos bo`lgan umumiy grammatik ma’nolardir. Masalan, *non*, *suv*, *uy*, *dala* so`zlarining har biriga xos bo`lgan ma’no – **leksik ma’no**. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo`lgan ma’no, ya’ni predmet ma’nosи **grammatik ma’nodir**. Ayni shu umumiy grammatik ma’no ularni bir turkumga, ya’ni ot turkumiga birlashtiradi. Shuningdek, *chiroyli*, *dono*, *fozil*, *kamtarin* so`zlar uchun umumiy bo`lgan belgi ma’nosи va *o`qi*, *o`rgan*, *mehnat qil*, *bor*, *kel* so`zlar uchun umumiyl bo`lgan harakat ma’nosи **kategorial grammatik ma’no** sanaladi.

So`zning xususiy grammatik ma’nosи ma’lum bir so`z turkumi uchun mansub bo`lib, bunday ma’noga otlarga xos bo`lgan son, egalik, kelishik ma’nolari, fe’llarga xos bo`lgan nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, bo`lishli-bo`lishsizlik kabi ma’nolar kiradi.

3 -§. Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari

O`zbek tilida grammatik ma’no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalananadi:

1. **Affiksatsiya.** Bunda grammatik ma’no so`zning negiziga turli shakl yasovchi
2. **Yordamchi so`zlar.** Bu guruh so`zlar o`zlar grammatik ma’no ifodalay oladi Bundan tashqari, mustaqil ma’noli so`zlar yordamchi so`zlar orqali grammatik ma’no ifodalashi ham mumkin: *Daraxt mevasi bilan ko`rkam*, *odam - mehnati bilan*. (*maqol*). Bu maqoldagi ko`makchilar **mevasi** va **mehnati** so`zlar yordamida “birga”, “orqali” degan ma’nolarini ifodalaydi.

3. **Takrorlash.** So`zlarni takrorlash ham grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi: *dasta-dasta gul*, *xirmon-xirmon paxta* kabi. Bunda *dasta*, *xirmon* so`zlarini takrorlash bilan ko`plik, mo’lllik ma’nosи ifodalangan.

4. **Suppletivizm.** Bu - o`zaro bog`langan, ma’lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma’nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so`zdan foydalanish usuli. Masalan, o`zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi *men* va *sen* so`zlarini

orqali, ko`pligi *biz* va *siz* so`zlaori orqali ifodalanadi. Bu usul asosan hind-yevropa tillar oilasiga xos bo`lib, turkiy tillarda kam uchraydi.

5. Urg`u so`zning grammatik ma`nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: *akadémik* (ot), - *akademik* (sifat), *yangi* (sifat) – *yángi* (ravish), *termá* (sifat) – *térma* fe'l ning bo`lishsiz shakli.

6. So`z tartibi. So`zlarning gapda oldinma-keyin kelishi ham ba'zan grammatik ma'no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. *Ajoyib odamlar*. 2. *Odamlar ajoyib*. Birinchi gapda *ajoyib* so`zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so`z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Ohang ham grammatik ma'no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma'no so`zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog`liq. Masalan: *Hamma keldi*. (Darak gap) - *Hamma keldi?* (so`roq gap) - *Hamma keldi!* (undov gap).

4-§. So`zning grammatik shakli

So`zning biror grammatik ma'no ifodalaydigan ko`rinishi uning **grammatik shakli** deyiladi. Grammatik shakl grammatik ma'noni ifodalashning eng zaruriy sharti, tilda ular biri ikkinchisiz mavjud bo`lmaydi. Masalan, otlardagi ko`plik ma`nosi –*lar* affiksli shakl orqali ifodalanadi: *gullar*; tushum kelishigi ma`nosini –*ni* affiksli shakl ko`rsatadi va h.k.

O`zbek tilida so`zlar bir grammatik ko`rsatkichli, ko`p grammatik ko`rsatkichli yoki grammatik ko`rsatkichsiz shaklda bo`lishi mumkin. Masalan: *mamlakat* – grammatik ko`rsatkichsiz so`z shakli; *mamlakatlar* – bir grammatik ko`rsatkichli so`z shakli; *mamlakatlarida* – ko`p grammatik ko`rsatkichli so`z shakli.

Hozirgi o`zbek tilida so`zlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi so`zlar vositasida, so`zlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga ko`ra so`zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil bo`ladi: *kitobning*, *kitobni*, *kitobga*, *kitobda*; *o`qimoqdaman*, *o`qimoqdasan*, *o`qimoqdamiz*, *o`qimoqdasiz* kabi.

2. Analitik shakl. Mazkur shakl yordamchi so`zlar orqali yuzaga keladi: *bolalar uchun*, *zavq bilan*, *o`qib tur*, *o`qib ko`r* kabi.

3. Juft va takroriy shakl. Ikki so`zni juftlash yoki bir so`zni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladiki, bunday shakl juft va takroriy shakl deb yuritiladi: *tog`-tosh*, *katta-kichik* juft shakli umumlashtirish ma`nosini, *savat-savat* (non), *tog`-tog`* (paxta) takrorlash shakli ko`plik, mo`llik ma`nosini ifodalaydi, *katta-katta*, *tez-tez* takroriy shakl ma`noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, so`zning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo o`zbek tilida so`zlarning maxsus grammatik ko`rsatkichga ega bo`lmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar – institut Ø (birlik son);

institutda – institut Ø (bosh kelishik);

ishlama – ishla Ø (bo`lishli fe'l shakli) kabi.

So`zning shakllari tizimida ko`rsatkichga ega bo`lmagan so`zning maxsus ko`rinishi nol ko`rsatkichli (Ø ko`rsatkichli) shakl deb yuritiladi. So`zning bunday ko`rinishi so`z shakllari tizimida belgilanadi.

So`zning grammatik shakllari tizimi **paradigma** (yunoncha *paradeima* – «namuna») deyiladi.

Paradigma o`z xususiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) xususiy paradigma, 2) to`liq paradigma.

Bir turkumga oid so`zning muayyan shakllari tizimi **xususiy** paradigmmani yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (*kitob-kitoblar*), kelishik paradigmasi (*kitob – kitobning – kitobni – kitobga – kitobda - kitobdan*) va boshqalar xususiy paradigmalar hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalar yig`indisi **to`liq** paradigmmani hosil qiladi. Masalan, otga xos to`liq paradigma: *kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz...* Bunda son, kelishik va egalik paradigmalari to`liq paradigmanni tashkil etgan.

5-§. Grammatik kategoriya

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma’no bilan shu ma’noni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi **grammatik kategoriya** deyiladi.

Grammatik kategoriya so`zlarni, so`z shakllarni, so`z o`rinlarini, so`z qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. Shunga ko`ra grammatik kategoriyalarning to`rt turi farqlanadi: 1) so`zning grammatik kategoriyalari; 2) so`z shakllarning grammatik kategoriyalari; 3) so`z o`rinlarining grammatik kategoriyalari; 4) so`z qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

So`z va so`z shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, so`z o`rnlari va so`z qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyalarni **morfologik kategoriyalarga** va **sintaktik kategoriyalarga** ajratish mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, so`z turkumlarining o`zi, ya’ni **ot, sifat, son, fe’l** kabilalar kirsa, ikkinchidan, ma’lum bir turkumga xos bo`lgan kategoriyalari, ya’ni otlarga xos bo`lgan **son, egalik, kelishik kategoriyalari**, fe’llarga xos bo`lgan **bo`lishli-bo`lishsizlik, nisbat, mayli, zamon, shaxs-son** kategoriyalari kiradi.

Sintaktik grammatik kategoriylar deyilganda, gap, gap bo`laklari: **ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol** kabilalar nazarda tutiladi.

6 -§. So`zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari

Nutqimizda mavjud so`zlar bir-biridan ma’no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Shu jihatdan so`zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlarga, turkumlarga ajratiladi. So`zlarining ma’no va grammatik belgilarining o`xshashligiga qarab guruhlarga bo`linishi so`z turkumlari deyiladi. So`zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

- 1) leksik-semantik tamoyil;
- 2) morfologik tamoyil;
- 3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratishda, so`zning leksik ma’nosiga e’tibor beriladi. Masalan: *tuz, non, tinchlik, daryo, tog, osmon* kabi so`zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so`zlar ot so`z turkumi deb nomlangan); *katta ko`cha, shirin olma, tiniq osmon, ko`k ko`ylak* kabi ajratilgan so`zlar predmetning belgisini (bunday so`zlar sifat deb nomlangan), *beshta daftар, yuzlab odam, o`ntadan o`quvchi, ikinchi kurs* kabilarda ajratilgan so`zlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday so`zlar son deb nomlangan); ayrim so`zlar *bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq* kabi harakat va holat tushunchasini (bunday so`zlar fe’l deb nomlangan); *asta o`qidi, do`stona gapirdi, piyoda yurdi* kabi ajratilgan so`zlar esa ish-harakatning belgisini (bunday so`zlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

Chunonchi, ayrim so`zlar predmet, belgi, miqdor ma’nosini nomlab ko`rsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday so`zlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday so`zlar (*bilan, va, ammo, uchun, chunki, xuddi, faqat, albatta, yo`q, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult* kabi) ham borki, ular mustaqil holda leksik ma`no ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi bo`la olmaydi. Bunday so`zlar hozirgi o`zbek tilida ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid so`zlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. So`zlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning ma`no xususiyati bilan bog`liq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan so`zlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan so`zlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat ma`nosini bildirgan so`zlar (fe'l) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi so`zlar (olmosh) ham morfologik jihatdan o`zgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi so`zlar (son) morfologik jihatdan o`zgarmaydi. Shuningdek, leksik ma`no anglatmaydigan so`zlar (ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, modal so`z, undov va taqlid so`zlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga ko`ra so`zlarni guruhlarga ajratish esa uning sintaktik tomoni, ya`ni qanday so`zlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga ko`ra belgilanadi. Masalan: predmet ma`nosini anglatuvchi so`zlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi shakllarida to`ldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning ko`rki, xatni yozdi, universitetda o`qiydi kabi.

Belgi bildiradigan so`zlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi so`zlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (to`g`ri so`z, o`z, beshta bola, ko`p kitob, yaxshi o`qiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular o`rnida almashinib qo`llanuvchi so`zlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday so`zlar bilan birikishiga ko`ra gapda ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim – shu, bu bino, nimani o`qiding, qayerda yashaydi kabi).

Tildagi leksik ma`no ifoda etmaydigan so`zlar esa (ko`makchi, bog`lovchi, yuklama) leksik ma`no ifodalovchi so`zlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, gap pyoki uning tarkibidagi ayrim so`zlarga qo`shimcha ma`no qo`shadi. Bunday so`zlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

Shuningdek, leksik ma`no ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) bo`lmasa ham, lekin gap bo`lagi sifatida yoki mustaqil holda so`z-gap sifatida qo`llana oladigan so`zlar (modal, undov, taqlid so`zlar) ham mavjud (*kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur* kabi).

Demak, so`zlarning gapda qanday gap bo`lagi bo`lib kelishi, uning qanday so`zlar bilan aloqaga kira olishi, ma`nosiga va grammatik shakliga bog`liqdir.

O`zbek tili lug`at tarkibidagi so`zlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) mustaqil so`zlar, 2) yordamchi so`zlar, 3) alohida guruh so`zlar.

Mustaqil holda leksik ma`no ifoda eta oladigan, biror morfologik shaklda kelib, gap bo`lagi vazifasini bajaradigan so`zlarga **mustaqil so`zlar** deyiladi. Mustaqil so`zlarga **ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish** kabi so`z turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik ma`no ifoda etmay, gap bo`lagi vazifasini bajarmaydigan, faqat so`zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qo`shimcha ma`no qo`shishga xizmat qiladigan so`zlar **yordamchi so`zlar** deyiladi. Yordamchi so`zlarga **ko`makchi, bog`lovchi, yuklama** kiradi.

Modal so`zlar modal ma`no ifodalashi jihatidan yuklamalarga o`xshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap bo`lagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid so`zlar mustaqil so`zlar kabi biror hodisaning nomi bo`la olmaydi, lekin gap bo`lagi vazifasida, so`z-gap vazifasida kela oladi. Shuning uchun ham bunday so`zlar **alohida guruhni** tashkil etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Grammatik ma'noni ifodalash vositalari haqida gapiring.
2. So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida qanday tur-kumlar yasaladi? Misollar.
3. So`zlarni qo`shib, juftlab yasashda qanday so`zlar hosil bo`ladi?
4. Qisqartma usul haqida gapiring.
5. Qaysi turkumlardagi so`zlar boshqa turkumga ko`chib, yangi so`z yasaladi?
6. So`zlarni takrorlash yordamida so`z yasalishi haqida gapiring.
7. Sodda tub va sodda yasama so`zlarga misollar keltiring.
8. Qo`shma so`zlarga misollar keltiring.
9. Qisqartma so`zlarning turli ko`rinishlariga misollar keltiring.
10. Juft so`zlarning qismlari qanday xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin?
11. Juft so`zlarning qismlari ma'no jihatdan qanday turlarga ega bo`lishi mumkin?
12. Takroriy so`zlar qanday ma'nolarni ifodalaydi?
13. Morfologiya va sintaksis bo`limlari-da qanday masalalar o`rganiladi?
14. "Grammatika" va "morfologiya" so`zlarining ma'nolarini izohlang.
15. "So`z turkumlari" deganda nimani tushunasiz?
16. Mustaqil so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.
17. YOrdamchi so`zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.

OT

1 -§. Otning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning nomini (keng ma'noda) bildiruvchi mustaqil so`z turkumiga ot deyiladi. Ot so`z turkumiga oid so`zlar *kim?* *nima?* *kimlar?* *nimalar?* *qayer?* savollaridan biriga javob beradi: *o`qituvchi, xonanda, tilshunos* – *kim?*, *yer, suv, tuz, non* – *nima?*, *shahar, joy* – *qayer?* kabi.

Keng ma'noda predmet ma'nosini ifodalash otning leksik xususiyatidir. Predmetlik ma'nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), yer va osmonga oid narsalarning nomi (*quyosh, oy, tog`, tosh, daryo* kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (*tuz, non, choynak, qatiq* kabi), o'simliklarning nomi (*paxta, sholi, jo`xori, beda* kabi), voqe-a-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (*to`y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash* kabi), o`rin va vaqt nomlari (*yoz, kuz, pastlik, tepalik* kabi), shuningdek atab qo`yilgan shaxs va predmet nomlari (*Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O`qituvchi» nashriyoti* kabi) ifoda etadi.

Ot shu ma'no xususiyati jihatidan ikki turga bo`linadi: turdosh otlar va atoqli otlar. *Kitob, daftar, tinchlik* – turdosh otlar; *Samarqand, Akmal, «Qora ko`zlar» (roman), «Fan» (nashriyot)* – atoqli otlar.

Ot o`ziga xos morfologik xususiyatlarga ega, ya'ni:

1) Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so`zlar birlik va ko`plik sonda qo`llanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: *daraxt* – yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; *daraxtlar* - noaniq ko`plik son shaklida kelgan;

2) ot egalik kategoriyasiga ega, ya'ni predmetning uch shaxsdan biriga (so`zlovchi, tinglovchi, o`zga shaxsga) taalluqlilagini, qarashlilagini, maksubligini bildiradi: *mening daftaram, sening ukang, uning quvonchi* kabi;

3) ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma'nosiga ega bo`lib, bu kelishik shakllari otning boshqa so`zlarga bo`lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi (*Barnoning kitobi, kitobni o`qidi, kitobdan foydalandi* kabi);

Ot o`ziga xos sintaktik belgilarga ham ega:

1) ot ot bilan bog`lanadi. Bosh va qaratqich kelishigidagi otlar *ana shunday xususiyatiga ega: paxta g`ururimiz, farzandning baxti* kabi;

2) ot fe`l bilan bog`lanadi, ya`ni tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe`l bilan birikadi: *xatni o`qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan, xatdan ko`chirdi* kabi;

3) ot ba`zan sifat, ravish, son, olmosh, taqlid va undov so`zlar bilan ham birika oladi: *osmon tiniq, uylar ko`p, beshta bola, maqsadim shu, dupur-dupur ovoz, holiga voy* kabi;

4) bosh kelishik shaklidagi ot gapda asosan, ega va kesim, ba`zan sifatlovchi-aniqlovchi, izohlovchi kabi gap bo`laklari vazifasida, shuningdek, undalma, nominativ gap tarzida keladi. Masalan: *O`zbekiston – kelajagi buyuk davlat* (I.Karimov). *Olim kishi o`zining ilmi va odobiga tayanadi.* (*Oz-oz o`rganib dono bo`lur*). *Seni ulug`layman, ey ona xalqim* (A.O.) *Subhidam. Quyosh yotog`idan bosh ko`tardi* (P.Q.);

5) Qaratqich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi: *Sen Pushkinning sevgan malagi* (A.O.);

6) tushum, jo`nalish, o`rin-payt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to`ldiruvchi, hol, ba`zan kesim vazifasini bajaradi. Masalan: *Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi* (S.A.). *Bog`chada daraxtilar oltin rang bilan tovlanardi* (O.). *Oltin o`tda bilinadi, odam mehnatda.* (Maqol).

Demak, otning qanday sintaktik vazifada kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bog`liqdir.

Shuningdek, ot so`z turkumi so`z yasalish xususiyatiga ega. Ot so`z turkumi faol so`z yasalish usullari morfologik, sintaktik va faqat ot so`z turkumi yasaydigan abbreviatsiya usuli bilan yasaladi: *xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, sevinch* (morfologik usul bilan); *belbog`, ko`zoynak, baxt-saodat, ota-on* (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviatsiya usuli bilan) kabi.

Otlarda modal shakl yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma`no otning leksik ma`nosiga kengaytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatiq, ta`kid, umumlashtirish kabi qo`shimcha ma`nolarni qo`shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo`zichoq, bo`taloq, bolagina, Karimjon, Ra`noxon, un-pun, non-pon kabi.

2 -§. Otlarning ma`no turlari

Otlar ma`no jihatdan ikki turga bo`linadi: **atoqli otlar va turdosh otlar.**

Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardagi birinchi ayirib ko`rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar atab qo`yilgan nomlardir. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

1) kishilarning ismi va familiyalari: *Murod, O`ktam, O`tkir, Mahmudov, Ahmedov* kabi;

2) yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: *Oybek, Uyg`un, Muqimi, Furqat* kabi;

3) uy hayvonlariga atab qo`yilgan nomlar: *Olapar, To`rtko`z, Mosh* kabi;

4) planeta, yulduzva sayyoralarning nomi: *Yer, Zuhra, Etti qaroqchi, Mirrix* kabi.

5) geografik nomlar (shahar, qishloq, tog`, daryo, ko`l, cho`l, qit'a nomlari): *Samarqand, Chotqol, Pomir, Ohangaron, CHirchiq, Osiy* kabi;

6) oliy davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: *O`zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O`zbekiston Oliy Kengashi* kabi;

7) ilmiy muassasalar, oliy o`quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: *Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki* kabi;

8) yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: *O`zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo`mondon* kabi;

9) turli anjuman, hujjat va rezolyutsiyalar, tarixiy voqealar nomi: *Ulug` Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani* kabi;

10) fabrika, zavod, jamoa xo`jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal nomlari: «*Sharq yulduzi*» xo`jaligi, «*O`rtoq*» konditer fabrikasi, «*Yosh kuch*» sport jamiyat, «*Turkiston*» kontsert zali, «*Yulduzli tunlar*» romani, «*Ma`rifat*» gazetasi, «*Guliston*» jurnali kabi.

Atoqli otlar, odatda, bosh harf bilan yoziladi, shuningdek, ko`plik son shaklida qo`llanmaydi. Shu xususiyatlari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir turdag'i predmet, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, g`oya, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga nisbatan ko`p miqdorni tashkil etadi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar turdosh otlarga yoki aksincha, turdosh otlar atoqli otga o`tishi mumkin. Masalan, frantsiyalik ustaning nomi *Batist* (atoqli ot) so`zi turdosh otga (matoning nomi) aylangan bo`lsa, *muhabbat* turdosh oti (abstrakt ot) atoqli otga (ismga) aylangan.

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko`ra konkret (aniq) va abstrakt (mavhum) otlarga ajratiladi. Bevosita predmet anglatadigan otlar konkret otlar deyiladi: *qalam*, *daftar*, *bola*, *tog'* kabi. Konkret otlarni bevosita sanash va ko`rish mumkin: *o`nta daftar*, *beshta bola* kabi. Birlik va ko`plik shaklida kela oladi: *bola* (birlik) – *bolalar* (ko`plik) kabi.

Mavhum tushunchani, belgini predmet sifatida ifodalaydigan otlar abstrakt ot deyiladi: *tinchlik*, *iropa*, *baxt*, *quvonch* kabi.

Abstrakt otlarni sanash va ko`rish mumkin emas. Ko`plik son shaklida qo`llanmaydi.

Turdosh otlar birlik shaklida kelib yakka bir predmetni yoki predmetlarning to`dasini ifodalashi mumkin. Shu xususiyatga ko`ra turdosh otlarning ikki turi mavjud: yakka ot va jamlovchi ot.

Birlik shaklida kelib bir turdag'i predmetlardan bittasini ifodalaydigan ot yakka ot deyiladi: *daraxt*, *stol*, *kishi*, *daryo* kabi.

Birlik shaklida kelsa ham, lekin bir turdag'i predmetlarning jamini, to`dasini ifodalaydigan ot jamlovchi ot deyiladi: *xalq*, *lashkar*, *to`da*, *olomon*, *ko`pchilik*, *ozchilik* kabi.

3 -§. Otlarda son kategoriyasi

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan birlik son shakli va ko`plik son shakli tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo`llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni ajratilmaydigan predmetni anglatadi: *qalam*, *daftar*, *tog'*, *uy*, *talaba* kabi. Birlik son shaklida qo`llangan ot maxsus grammatik ko`rsatkichga ega emas. Shuning uchun otning bunday qo`shimcha olmagan shakli (nol ko`rsatkichli shakl) grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi.

Ko`plik son shaklida qo`llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko`plikni) anglatadi: *qalamlar*, *daftarlari*, *tog`lar*, *uylar*, *talabalar* kabi.

Otlarda grammatik ko`plik son shakli *-lar* affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko`rinadiki, otlardagi birlik ma`nosи va ko`plik ma`nosи hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig`indisi son kategoriyasini hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasini birlik va ko`plik ma`nosida qo`llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo`lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko`plik son shaklida ham qo`llanadi: *xona* – *uchta xona* – *xonalar*; *bola* – *besh bola* – *bolalar* kabi.

O`zbek tilida birlik va ko`plik son shakliga ega bo`lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo`llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (*sevgi*, *ishonch*, *ko`ngil* kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (*un*, *suv*, *yog'*, *guruch* kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (*til*, *bosh*, *yurak* kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (*ko`z*, *qosh*, *qo`l*, *etik*, *paypoq* kabi),

atoqli otlar (*Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo* kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga *-lar* ko`plik affiksi qo`shila oladi. Bunday holda *-lar* ko`plik ma`nosini emas, balki quyidagi ma`nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda *-lar* affiksi qo`shilganda ma`noni kuchaytiradi yoki ta'kidlaydi: *Kumushning qoshlari chimirildi* (*A.Qodiriy*).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga *-lar* affiksi qo`shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo`llik kabi ma`nolarni bildiradi: *Zilol suylar, eram kabi bog`u-bo`stonlar* (*G`ayratiy*).

3. Atoqli otlargaga qo`shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma`nolarni bildiradi: *Saidalar kelishdi* kabi.

Shuningdek, qarindosh-urug`lik munosabatini bildiruvchi (*ota, ona, buvi, aka, opa* kabi) otlargaga egalik qo`shimchasidan keyin *-lar* affiksi qo`shilganda, bu otlar hurmat ma`nosini anglatadi: *otamlar, opamlar, buvimlar* kabi.

Otlarda ko`plik ma`nosini turli xil usullar bilan ifodalanadi.

1. Otlarda ko`plik ma`nosini, asosan, *-lar* affiksini qo`shish bilan hosil qilinadi. Ko`plik ma`nosining bunday maxsus grammatik ko`rsatkich bilan ifodalanishi ko`plikning **morfologik usul** bilan ifodalanishi sanaladi: *eshiklar, ko`chalar* kabi. Bunday otlargaga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko`plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko`plik ma`nosini, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko`plik ma`nosini leksik ma`nosini ko`p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo`lsa ham, bir turdag'i predmetlarning to`dasini, jamini bildiradi: *to`da, gala, aholi, xalq, olomon* kabi. Ko`plik ma`nosining bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi **leksik-semantik** usul deyiladi. Bunday ma`nodagi otlargaga grammatik jihatdan birlik shaklda, lekin semantik jihatdan ko`plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko`plik ma`nosini ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, guman olmoshlarini keltirish, so`zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko`plik ma`nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: *ko`p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dastada gul, to`da-to`da odam* kabi.

4 -§. Otlarda aloqa-munosabat kategoriyalari Otlarda egalik kategoriyasi

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba'zan predmetga) taalluqli ekanligini ko`rsatuvchi umumiyligi ma`nolar va bu ma`nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga **egalik kategoriyasi** deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya`ni so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shaxs) shaxsga taalluqlilagini ifodalaydigan affikslar **egalik affikslari** deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma`nosini bilan birga uning sonini (birlik yoki ko`plik ma`nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

Shaxs	Birlik	Ko`plik
I shaxs	<i>-(i)m</i>	<i>-(i)miz</i>
II shaxs	<i>-(i)ng</i>	<i>-(i)ngiz</i>
III shaxs	<i>-i, -si</i>	<i>-i, -si</i>

Jadvaldan ko`rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko`plik son uchun umumiyligi. Predmetning bir shaxsga yoki ko`p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog`lanib kelgan so`zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: uning kitobi – birlik, ularning kitobi – ko`plikdir.

Shuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo`llanadi.

Shaxs	Birlik		Ko`plik	
	unlidan so`ng	undoshdan so`ng	unlidan so`ng	undoshdan so`ng
I shaxs	<i>sovg`a+ -m</i>	<i>daftar+ -im</i>	<i>sovg`a+ -miz</i>	<i>daftar+ -imiz</i>
II shaxs	<i>sovg`a+ -ng</i>	<i>daftar+ -ing</i>	<i>sovg`a+ -ngiz</i>	<i>daftar+ -ingiz</i>
III shaxs	<i>sovg`a+ -si</i>	<i>daftar+ -i</i>	<i>sovg`a+ -si</i>	<i>daftar+ -i</i>

Egalik affikslari odatda, ko`plik affiksidan keyin qo`shiladi: *kitob+ -lar+ -im* kabi.

Egalik affiksi qo`shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so`z bilan bog`lanadi: daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so`zi kabi. Bu bog`lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so`zga qaramli ekanligini ko`rsatadi.

Egalik affiksini olgan ot ba`zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog`lanishi mumkin. Masalan: talabalardan bir guruhi kabi. Bunday bog`lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma`nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma`nosini ifodalaydi. Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma`nosi mavjud.

Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniq ko`rsatadi. Chunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: *mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz* kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so`zlar bilan ham bog`lana oladi: *uning burchi, farzandning baxti, ko`plarning orzusi* kabi.

Ba`zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o`zgacha bo`lishi mumkin, ya`ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko`pligi uchun qo`llanishi mumkin: senlarning maqsadining kabi. Yoki, aksincha, otning II shaxs ko`plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo`llanishi mumkin: sizning opangiz kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatiq kabi ma`nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma`nosi ifodalanadi.

Ot ko`plik son shaklida kelib, ko`plik ma`nosini ifodalaganda, egalik affiksi *-lar* qo`shimchasidan keyin qo`shiladi: *opalarim* kabi. Lekin hurmat ma`nosi ifodalanganda, egalik affikslari *-lar* qo`shimchasidan oldin qo`shiladi: *opamlar, akamlar* kabi.

Egalik affikslari otning gapdagisi sintaktik vazifasini ko`rsatmaydi.

Ba`zi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida turli fonetik o`zgarishlar ro`y beradi. Bular quyidagilar:

1. *k, q* undoshi bilan tugagan ko`p bo`g`inli so`zlarga, shuningdek, bek kabi ayrim bir bo`g`inli so`zlarga egalik affikslari qo`shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi g` undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: *tilak – tilagi, yurak – yuragi, bek – begi, kubok – kubogi, qishloq - qishlog`i* kabi. Lekin ko`p bo`g`inli o`zlashma so`zlarga, bir bo`g`inli so`zlarga (ko`p hollarda) egalik affikslari qo`shilganda k, q undoshi asliga mos holda aytildi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherking, erk – erki; huquq - huquqim, zavq - zavqi* kabi.

2. *O`rin, qorin, burun, o`g`il, bo`yin, ko`ngil, singil* kabi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, ikkinchi bo`g`indagi i, u unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: *o`rin - o`rnim, qorin - qornim, burun – burning, o`g`il - o`g`lim, ko`ngil – ko`ngli, singil – singlim* kabi.

3. *Parvo, obro`, mavqe, avzo, mavzu* so`zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida bir y tovushi qo`shib aytildi va shunday yoziladi: *parvoyim,*

parvoying, obro`yim, obro`ying kabi; III shaxsda esa *parvo, obro`, mavqe, avzo* so`zlari *parvoyi, obro`yi, mavqeyi, avzoyi* kabi, *mavzu* so`zi esa *mavzusi* tarzida aytildi va yoziladi.

5 -§. Otlarda kelishik kategoriyasi

Ot (yoki otlashgan so`z)ning boshqa so`zlarga bo`lgan sintaktik munosabatini ko`rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatick ma'no va uni ifoda etuvchi shakllarni o`z ichiga oladi. Bularga bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo`nalish kelishik, o`rin-payt kelishik va chiqish kelishik kabi grammatick ma'nolar hamda bu ma'nolarni ifodalovchi *-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan* kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o`z nomi, ifoda shakliga ega, ma'lum bir so`roqlarga javob beradi.

Kelishiklar	Turlanishi	So`roqlari
Bosh kelishik	<i>Saida, kitob, Toshkent</i>	<i>kim? nima? qayer?</i>
Qaratqich kelishigi	<i>Saidaning, kitobning, Toshkentning</i>	<i>kimning? nimaning? qayerning?</i>
Tushum kelishigi	<i>Saidani, kitobni, Toshkentni</i>	<i>kimni? nimani? qayerni?</i>
Jo`nalish kelishigi	<i>Saidaga, kitobga, Toshkentga</i>	<i>kimga? nimaga? qayerga</i>
O`rin-payt kelishigi	<i>Saidada, kitobda, Toshkentda</i>	<i>kimda? nimada? qayerda</i>
Chiqish kelishik	<i>Saidadan, kitobdan, Toshkentdan</i>	<i>kimdan? nimadan? qayerdan?</i>

Otlarda kelishik affikslari **turlovchi affikslar** deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan o`zgarishi **turlanish** deb yuritiladi.

Kelishik affiksi yo`q holat bosh kelishik bo`lib, bunday shakldagi ot ko`pincha boshqa so`zni o`ziga tobelaydi. SHuning uchun ham bosh kelishik deb yuritiladi. Qaratqich, tushum, jo`nalish, o`rin-payt chiqish kelishigi shaklidagi ot gapda boshqa so`zlarga grammatick jihatdan tobe bo`ladi. Bu kelishiklar vositali kelishiklar deyiladi. Masalan: *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi* (*U.Mahkamov*). Bu gapda *aql* so`zi bosh kelishikda bo`lib, affiksi bo`lmagan shaklda *qutqaradi* fe`liga nisbatan hokim holatda; *insonni* so`zi –ni tushum kelishigi shakli vositasida, *ayb* (-*dan*), *kamchiliklardan* so`zlari *-dan* chiqish kelishigi vositasida *qutqaradi* fe`liga tobe bo`lib kelgan.

Kelishik shaklidagi otlar boshqa so`zlar bilan o`zaro sintaktik munosabatga kirishadi.

Qaratqich va qisman bosh kelishik shakli ot bilan otning, tushum, jo`nalish, o`rin-payt va chiqish kelishiklari, odatda, ot bilan fe`lning sintaktik munosabatini ko`rsatadi: *oilaning ko`rki, onani ardoqlamoq, sayohatga bordi, matabdan qaytdi*.

Ba`zan kelishik shaklidagi otlar sifat, son, olmosh, ravish, undov bilan ham bog`lanib, ularga tobe bo`lib keladi: *ipakdan mayin, talabalardan beshtasi, Barnoning o`zi, xonada ko`p, holiga voy kabi*.

Kelishik shaklida kelgan otning ma'nosи va vazifasi uning leksik, grammatick ma'nosи, qanday so`zlar bilan (fe'l, ot) bog`lanishiga qarab aniqlanadi. Masalan: jo`nalish kelishigining asosiy ma'nosи harakatning yo`nalish o`rnini ko`rsatishidir: *maktabga bordi*. Bu ma'nodan tashqari jo`nalish kelishigida kelgan ot vosita, payt, atash, maqsad ma'nolarini ifoda qiladi: *rasmga qaradi, kuzga qoldirildi, singlisiga oldi, o`qishga keldi* kabi. Lekin kelishik ma'nolaridan biri asosiy ma'no sanaladi, kelishik nomi shu asosiy ma'noga ko`ra nomlanadi.

Bosh kelishikdagi ot shaxs, predmet, voqeа-hodisalarining nomini ataydi. *Kim? nima? qayer?* kabi so`roqlardan biriga javob beradi. Bu kelishikning ko`rsatkichi yo`q, ya`ni nol ko`rsatkichli shaklda keladi. Bunday shakl tahlilda Ø belgisi bilan ifodalanadi.

Bosh kelishik shaklida kelgan otning asosiy sintaktik vazifasi ega vazifasida kelishdir. Masalan: Himmatlilik o`zining saxovati bilan odamlar qalbiga singib ketadi. (*O`Mahkamov*)

Nutqda oz uchrasada, ega vazifasidagi so`z qaer? so`rog`iga ham javob bo`lib keladi, bunday holda o`rin predmeti ma`nosi anglashiladi. Masalan: Toshkent – tinchlik shahri.

O`zbek tilida bosh kelishikdagi ot yana bir necha sintaktik vazifani bajaradi.

1.Kesim vazifasida keladi: *Ilm – insoniyat gavhari (Bedil)*.

2.Izohlovchi vazifasida keladi: *Navro`zda ona tabiat uyg`onadi*.

3.Sifatlovchi vazifasida keladi: *Po`lat pichoq qinsiz qolmas (Maqol)*. Bunda bosh kelishik shaklida kelgan ot boshqa ot oldida kelib, *qanday? qanaqa?* so`roqlaridan biriga javob beradi.

4. Hol vazifasida keladi: *Yulduzlar chaman-chaman yonadi (O).*

5. Undalma vazifasida keladi: *Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!* Undalma vasifasida kelgan bosh kelishikdagi ot gap bo`laklari bilan grammatik jihatdan bog`lanmaydi.

6.Nominativ (atov) gap vazifasida keladi: Subhidam. *Quyosh yotog`idan bosh ko`tardi (T.Q.).*

Bundan tashqari bosh kelishikdagi otlar ko`makchi shaklda kelib to`ldiruvchi va hol vazifasini ham bajaradi. Masalan: *Ignan bilan quduq qazib bo`lmas (Maqol)*. *Yuksak guyosh kabi, yuksak oy kabi. Sep bilan bezalsin yurtning fazosi (Uyg`un)*.

Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigida kelgan ot *kimning? nimaning? qaerning?* kabi so`roqlardan biriga javob beradi. *-ning* affiksi bilan shakllanadi. Masalan: *Bilim va donishmandlik insonning bezagidir (A.Navoiy)*.

Ba`zan she`riyatda qaratqich kelishigi egalik affiksidan so`ng –n shaklida ham qo`llanadi: *Har bolam ufurgan nafasin atrii. She`rimning eng yetuk, eng yaxshi satri (G`.G`ulom)*.

Qaratqich kelishigidagi ot egalik affiksini olgan ot bilan grammatik jihatdan bog`lanib, gapda aniqlovchining turi qaratuvchi vazifasida keladi. Qaratqich kelishigidagi so`z qaratuvchi, unga bog`lanib kelgan egalik affiksini olgan ot esa qaralmish sanaladi. Masalan: Guruchning kurmagi bor, yomonning to`g`mog`i bor (Maqol).

Qaratqich kelishigi ikki xil – belgili yoki belgisiz shaklda qo`llanadi.

Qaratqich kelishigi *-ning* (-n) affiksi bilan qo`llansa, belgili sanaladi. Belgili qaratqich kelishigidagi ot aniq qarashlilik ma`nosini ifodalaydi: *daraxning ildizi, onaning baxti kabi*.

Qaratqich kelishigi *-ning* affiksi bilan qo`llanmasa, belgisiz sanaladi: *umid uchquni, bahor fasli kabi*. Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o`zi bog`lanib kelgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan predmetga aloqador hodisa ekanligini ifodalaydi.

Beltisiz qaratqich kelishigidagi ot o`zi bog`langan ot bilan ma`no va grammatik jihatdan juda zinch bog`langan bo`lib, ular orasiga boshqa so`z kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qo`llanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot shaxs otlari bo`lganda: *Zulfiyaning xati, talabaning bahosi kabi*.

2.Butunning qismini anglatgan otlar: *uzukning ko`zi, stolning oyog`i*.

3.Qaratqich kelishigidagi so`z o`zi bog`latgan otdan anglashilgan predmet bilan o`zaro genetik aloqada bo`lsa: *buvining neverasi, sherning bolasi*.

4.Qaratqich kelishigidagi so`z manba ma`nosini ifodalaganda: *olimning ma`ruzasi, talabaning fikri*.

5.Qaratqich kelishigidagi so`z bilan qaralmish o`rtasida boshqa so`zlar kelganda: *shaharning baland imoratlari, yozning issiq shamoli kabi*.

6. Qaratqich kelishigida ot o`zining maxsus aniqlovchisiga ega bo`lganda: *alo`chi o`quvchining hulqi kabi*.

7. Qaratqich kelishigidagi so`z tarkibida *-lar* ko`plik affiksi qo`llanganda: *qizlarning raqsi, gullarning hidi* kabi.

8. Qaralmish otlashgan so`zlar bilan ifodalanganda: *olmaning shirini, so`zning ozi, do`stlarning uchtasi* kabi.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgisiz qo`llanadi:

1. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot abstrakt otlar bilan ifodalanganda: *muhabbat sehri, bilim manbai, ilm ahli, tafakkur gulshani* kabi.

2. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi otlar payt ma'nosini anglatganda: *bahor fasli, oqshom payti, tong chog'i, yakshanba kuni* kabi.

3. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot ifodalagan predmetning qaralmish ifodalagan predmetga umumiy xosligini bildirganda: *ipak qurti, er islohoti* kabi.

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot nomiga qo`yilgan, atab qo`yilgan otlar bilan ifodalanganda: *Navoiy teatri, Orol dengizi, Toshkent shahri* kabi.

5. Qaratqich kelishigi shaklidagi otlar bir-biriga tobe holda birin-ketin kelganda, eng so`nggisidagi oldingilari belgisiz shaklda qo`llanadi: *Toshkent Davlat pedagogika universiteti, boshlang`ich ta'lim va defektologiya fakulteti boshlang`ich ta'lim bo`limining talabasi* kabi.

Tushum kelishigi ot ish-harakatni o`z ustiga olgan predmetni anglatadi. Tushum kelishigidagi ot, odatda, ish-harakatni o`z ustiga olgan predmetni, ya`ni ob`ekt ma'nosini ifodalaganda kimni? nimani? so`rog`iga javob beradi: *Hayot harakatni talab qiladi (Arastu)*.

Tushum kelishigidagi otning negizi o`rin ma'nosini anglatsa, qaerni? so`rog`iga javob beradi: Hujrani yasatgamisan? (A.Qahhor). To`rtta karnay, oltita surnayning shovqini ko`kni tutdi (O.).

Tushum kelishigi –ni affiksi bilan shakllanadi: *Ulug` kishilarni mehnat etiltiradi* («*Tafakkur gulshani*»).

Ba`zan she`riyatda egalik affiksidan so`ng –n shaklida ham uchraydi: *Olmazorlar gulin to`kadi, Meva bog`lab shoxin bukadi (H.O.)*.

Tushum kelishigida kelgan ot fe'l bilan bog`lanadi va gapda asosan, vositasiz to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Tushum kelishigi ham qaratqich kelishigi singari 2 xil shaklda qo`llanadi: belgili tushum kelishigi va belgisiz tushum kelishigi.

Belgili tushum kelishigi shaklidagi ot –ni (-n) affiksini olgan holda keladi: *Xushro`yning rahmsiz muhokamasidan oqqan bu haqiqatlar Zaynabni yig`latdi* (A.Qodiriy).

Belgisiz tushum kelishigi shaklidagi otida esa –ni affiksi qo`llanmaydi: *Gul tufayli tikan suv ichar (Maqol)*.

Tushum kelishigining ham belgili va belgisiz shaklda qo`llanishi ma`no talabi va grammatic holatga ko`ra belgilanadi. Belgisiz tushum kelishigidagi otning tushum kelishigida ekanligi uning mazmunidan va fe'lga bog`lanishidan bilinib turadi.

Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l kesim bilan juda zinch bog`langan bo`lib, ular orasiga boshqa so`zni kiritib bo`lmaydi: *Nazira singlisiga xat yozdi*.

Tushum kelishigi quyidagi hollarda faqat belgili qo`llanadi:

1.Tushum kelishigi shaklidagi ot atoqli ot bilan ifodalangan holda: *Saidani o`z qanoti ostiga oldi (A.Qahhor)*.

2.Tushum kelishigidagi ot payt bildiruvchi otlar bilan ifodalansa: *Zulfiya ta'tilni yaxshi o`tkazdi*.

3.Tushum kelishigidagi ot o`z aniqlovchisiga ega bo`lsa: *Bu kuchli irodani, bu jahoniy qudratni har kimki mensimasa, o`ziga-o`zi zolim (G.G`ulom)*.

4.Tushum kelishigidagi ot bilan uni boshqargan fe'l o`rtasida boshqa so`zlar kelsa: *Bog`ni bir bog`bon yaratadi, Ming odam bahramand bo`ladi (Hikmatlar xazinasi)*.

5.Tushum kelishigi shaklidagi ot, ya`ni kelishik affiksidan oldin egalik affiksi bo`lsa, belgili qo`llanadi: ... *Uzoq vaqt hayotda yo`lini topolmay yuribdi* (A.Qahhor).

SHuningdek, boshqa so`z turkumlari (olmosh, fe'lning harakat nomi shakli, otlashgan so`zlar) faqat belgili tushum kelishigi shaklida keladi.

Jo`nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo`nalgan predmetni, shuningdek, harakatning bajarilish payti, ish-harakatning bajaralishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. Otlarda jo`nalish kelishigining asosiy ma`nosi harakatning yo`nalish nuqtasini ifodalashdir. Ob`ekt, payt, sabab, maqsad kabi ma`no xususiyatlarining ifodalanishi bu kelishik shaklini olgan va uni boshqargan so`zning leksik ma`nosiga bog`liq. SHu ma`nolariga ko`ra jo`nalish kishilik shaklidagi ot *kimga? nimaga? qayerga? qachon?* kabi so`roqlarga javob beradi.

Jo`nalish kelishigi –ga affiksi bilan shakllanadi: daftarga, osmonga kabi. Lekin so`z negizi k tovushi bilan tugasa, -ka shaklida: q tovushi bilan tugasa, -qa shaklida qo`shiladi: *terak-terakka, qishloq-qishloqqa* kabi.

Jo`nalish kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatganda, *kimga?* yoki *nimaga?* so`rog`iga javob bo`ladi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasida keladi: *Mahmadona, valdirovchi odam ochiq bir maktubga o`xshaydi* (*Oz-oz o`rganib dono bo`lur*).

2.Harakatning yo`nalish o`rnini anglatganda, *qaerga?* so`rog`iga javob bo`ladi va o`rin holi vazifasida keladi: *Qishloqqa shahar tutash, ikkov birga hamnafas* (*G`G`ulom*). *Inson agar jahl qilsa osmonni ham yerga olib tushadi* (*Bedil*).

3.Harakatning bajarilishi vaqtini anglatganda *qachon?* so`rog`iga javob bo`ladi va payt holi vazifasida keladi: *To`y ko`klamga belgilandi*.

Shuningdek, jo`nalish kelishigi shakli fe'lning harakat nomi, otlashgan sifatdoshlarga qo`silib harakatning bajarilish sababi va maqsadini anglatib, *nega? nima maqsadda?* so`roqlariga javob beradi va gapda sabab, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Men Farg`onadan ataylab siz bilan ko`rishishga, rozi bo`lsangiz, otpuska ichida to`y qilishga kelgan edim* (*Oydin*). *Turmushning qaynab turgan joyiga tushib qolganima* xursandman (*A.M.*).

O`rin-payt kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish o`rnini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. Bu kelishik shaklidagi ot qanday leksik ma`noni anglatishiga qarab o`rin, payt, ob`ekt ma`nolari haqida gapiriladi. SHu ma`nolariga ko`ra o`rin-payt kelishigi shaklidagi ot *kimda?* *nimada?* *qaerda?* *qachon?* kabi so`roqlarga javob beradi. O`rin-payt kelishigi –da affiksi bilan shakllanadi: *Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi* (*S.Z.*). *Ayvonda bosma guli bo`z ko`rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o`tiradi* (*O.*). *SHavvozlarda shuncha hunar bor ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz* (*H.N.*).

O`rin-payt kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatib, *kimda?* *nimada?* so`rog`iga javob beradi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Bolaga otaning mehnati singgan bo`lsa, so`ng u bolaning hulq-atvorida bilinadi* (*YUsuf Xos Hojib*).

2.Ish-harakatning bajarilish o`rnini anglatib, *qaerda?* so`rog`iga javob beradi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi: *Vohidlarning qishlog`ida boshqa erlarda juda kam uchraydigan halim va shirin olma bor.* (*O.Y.*)

3.Ish-harakatning bajarilish paytini anglatib, *qachon?* so`rog`iga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi: *Bahorda shaftoli gullari ko`m-ko`k maysalar ustida to`kilib qoladi* (*M.I.*).

4.Ish-harakatning bajarilish holatini anglatib, *qanday?* so`rog`iga javob beradi va gapda ravish holi vazifasini bajaradi: *Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi* (*O.*).

Ba`zan predmet yoki hodisaning bo`lish o`rnini, yoshini, holatini ifodalab, *qayerda?* *nechada?* *kimda?* *nimada?* so`roqlaridan biriga javob berib, gapda kesim vazifasini bajaradi: *Singlim uyda. Barno yigirma yoshda. Kuch birlikda.*

Chiqish kelishigi shaklidagi ot ish-harakatning kelib chiqish o`rni, manbai, payti, sababi, holati yoki ish-harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni anglatadi. SHu ma`nolariga ko`ra chiqish kelishigi shaklidagi ot *kimdan?* *nimadan?* *qayerdan?* *qachondan?* kabi

so`roqlardan biriga javob beradi. Chiqish kelishigi *-dan* affiksi bilan shakllanadi: *Insonga bilimdan durustroq biror narsa topilmaydi* («*Hikmatlar xazinasi*»).

Chiqish kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo`lgan predmetni, bir predmetni boshqa bir predmet bilan chog`ishtirish ma`nolarini anglatib, kimdan? nimadan? so`rog`iga javob beradi va gapda vositali to`ldiruvchi vazifasini bajaradi:

Ilmdan bir shu`la dilga tushgan on,

Shunda bilursankim, ilm bepoyon (Firdavsiy).

2.Harakatning boshlanish o`rni, payti, harakatning bajarilish holati, sababini anglatib, qayerdan? qachondan? qanday? nega? kabi so`roqlardan biriga javob beradi va gapda o`rin, payt, holat, sabab holi bo`lib keladi: *Ulug` musavvir Kamoliddin Behzod hali yoshlikdan Hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg`aydilar (P.Q.). Zumrad ignani palakka to`g`nadi-da, o`rnidan turdi (O.) Umaralining yurakdan yozgan iliq so`zlari uning ko`nglini shodlikka to`ldirib yubordi (O.). El tikilar va sevinchidan javadiraydi ko`zlarida yosh (H.O.).*

3.Kimdan? yoki nimadan? kabi so`roqlarga javob berib, gapda kesim vazifasida keladi: *Shaxnoza, zerikmaydigan bo`ldingiz, bu onangiz havaskor alpinistlardan ekan (S.Abdullayeva).*

6 -§. Otlarning yasalishi

Hozirgi o`zbek tilida ot so`z turkumi lug`at tarkibida mavjud bo`lgan so`zlarning miqdorini tashkil qiladi. Chunki ot so`z turkumi boshqa so`z turkumlariga nisbatan yangi so`zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir.

O`zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko`ra so`z negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qo`shish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so`z turkumlari, shuningdek, modal va taqlid so`z negizlaridan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar ma`no jihatdan quyidagi guruhdagi otlarni yasaydi:

- 1.Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.
- 2.Narsa, quroq, o`lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.
- 3.O`rin-payt otlarini yasovchi affikslar.
- 4.Abstrakt ot yasovchi affikslar.

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo`shilib, negizdan anglashilgan predmet bilan bog`liq shaxs otlarini va ma`lum bir soha, kasb bilan shug`ullanuvchi kasb-hunar otlarini yasaydi.

Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

- chi: tarbiyachi, terimchi, sportchi, tijoratchi, navbatchi
- dosh: fikrdosh, kursdosh, zamondosh, suhbatdosh, muallifdosh
- gar,-kor: zargar, kamyogar, g`allakor, san`attkor
- bon:,-boz: bog`bon, darvozabon, darboz, bedanaboz
- paz: oshpaz, somsapaz, kabobpaz
- kash: suratkash, aravakash, mehnatkash
- dor: chorvador, mulkdor
- shunos: tilshunos, tuproqshunos, tabiatshunos
- xon: kitobxon, gazetxon, g`azalxon
- soz: mashinasoz, traktorsoz, soatsoz
- do`z: do`ppido`z, etikdo`z, mabsido`z, gilamdo`z
- xo`r: choyxo`r, oshxo`r.

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslardan –chi eng mahsuldor ot yasovchi affiks sanaladi.

Yuqorida qayd etilgan –kash, -xo`r, -paz, -do`z, -boz, -gar, -soz, -xon, -shunos so`z yasovchi affikslari tojik tilida fe'l o`zaklari bo`lib, o`zbek tilida so`z yasovchi affiks vazifasini bajaradi.

Narsa, qurol, o`lchov birligi otlarini yasovchi affikslari, asosan, fe'l negiziga qo`shilib negizdan anglashilgan ish-harakat va holatning natijasi bo`lgan yoki ish-harakatni bajarish uchun qo`llaniladigan narsa, qurol otini yasaydi. Kam hollarda ot, sifat, taqlid so`z negizlari narsa, qurol, o`lchov birligi otlarini yasashga asos bo`la oladi. Bu affikslar quyidagilar:

-k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq: elak, kurak, teshik, pirpirak, bo`lak, bo`yoq, so`roq, chopiq, topshiriq, yutuq, o`roq kabi.

-gich (-g`ich, -kich, -qich): suzgich, o`chirg`ich, qirg`ich, ko`rsatkich, tutqich, qisqich.

-gi (-ki,-qi,-g`i,-g`u): supurgi, kulgi, tepki, chopqi, tutatqi, yoqilg`i, cholg`u.

-m (-im,-um): to`plam, tishlam, chimdim, kiyim, unum.

-ma: qiyma, qatlama, dimlama (mahsulot nomi), tenglama, ayirma (matematik terminlar), isitma, jamg`arma.

-don: qalamdon, guldon.

-indi: yuvindi, chirindi, qirindi.

-qin (-qun, -g`in, -g`un): to`lqin, toshqin, uchqun, yong`in, yulg`un.

-in (-un, -on): yig`in, tugun, to`zon.

-ak (-oq): qarsak, varrak, qaltiroq.

-a: sharshara, jizza.

-os: gulduros, chuvvos.

-gak (-kak): ilgak, eshkak.

-doq: qovurdoq.

-moq (-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak.

-cha: qizilcha, olacha.

-chiq: yopinchiq.

-ildoq: shaqildoq.

-machoq: bekinmachoq, tortishmachoq.

-noma: taklifnomा, tashakkurnomা, vasiyatnomा.

Yuqorida sanalgan affikslardan –a, -os, -gak, -doq, -moq, -cha, -chiq, -ildoq, -machoq affikslari ot yasashda kam unum so`z yasovchi affikslar sanaladi.

O`rin-joy oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo`shilib, negizdan anglashilgan predmet mavjud bo`lgan, ekiladigan, dam oladigan, yashaydigan o`rin-joy otini yasaydi. Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

-zor: olmazor, gulzor, bug`doyzor

-loq: o`tloq, toshloq, qumloq

-iston: O`zbekiston, guliston, qabriston

-goh: oromgoh, sayilgoh

-xona (affiksoid): choyxona, oshxona, yotoqxona, sartaroshxona

-qoq: botqoq (fe'l negizidan yasalgan o`rin-joy oti).

Abstrakt ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ba'zan modal so`z negizlariga qo`shilib, negiz anglatgan tushuncha bilan bog`liq abstrakt ma'nodagi ot yasaydi. Bular quyidagilar:

-lik (-liq): go`zallik, mardlik, yaxshilik (ot negizidan yasalgan); ko`plik, tezlik (ravish negizidan); birlik, yuzlik (son negizidan); qarindoshlik, bolalik (ot negizidan); o`zlik, manmanlik (olmosh negizidan); yo`qlik, borliq (modal so`z negizidan).

-ch (-inch): sevinch, quvonch, tayanch, qo`rqinch (fe'l negizidan yasalgan)

-chilik, -garchilik: pillachilik, temirchilik, ipakchilik, odamgarchilik (ot negizidan), xursandchilik (sifat negizidan), yo`qchilik (modal so`z negizidan yasalgan).

-gilik, -kilik: ko`rgilik, ichkilik (fe'l negizidan yasalgan).

Sintaktik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko`ra ikki va undan ortiq so`z shakllari Biron qolipda birikib, bir predmetni anglatadigan yangi ot yasaladi.

Sintaktik usulga ko`ra qo`shma va juft otlar yasaladi.

Qo`shma ot ikki va undan ortiq so`zning birikishidan hosil bo`lib, bir predmetni anglatadigan yangi ot. Qo`shma ot tarkibidagi so`zlar dastlab ma`no va grammatic jihatdan tobelanish yo`li bilan (qo`shimcha aniqlovchi+aniqlanmish) tuzilgan so`z birikmasi bo`lib, keyinchalik shu sintaktik munosabatning yo`qolishi natijasida bir tushunchani, yangi bir predmetni ifoda etadi: *ko`zoynak, belbog`, o`rribosar* kabi. Qo`shma ot bir bosh urg`u bilan aytildi.

Qo`shma ot qismlari orasidan quyidagi sintaktik munosabatlarning yo`qolishi natijasida hosil bo`ladi:

1. Aniqlovchi+aniqlanmish: *bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshko`mir, bedapoya, so`zboshi, Beshariq, Kattaqo`rg`on.*

2. Ega+kesim: *Soykeldi, qoryog`di.*

3. To`ldiruvchi+kesim: *dunyoqarash, kungaboqar, muzyorar, otboqar, ish tashlash.*

4. Hol+kesim: *besh otar, iskabtopar, bosvoldi.*

5. Kesim+undalma: *Yoriltosh, ochildasturxon.*

O`zbek tilida rus, tojik va boshqa tillardan o`zlashgan parovoz, aeroport, dushanba, chorshanba, obdasta kabi otlar kelib chiqishiga ko`ra qo`shma ot bo`lsa-da, o`zbek tilida qo`shma ot ekanligi anglashilmaganligi tufayli sodda ot deb qaraladi.

Juft ot bir xil grammatic shaklda kelgan ikki so`zning grammatic jihatdan teng bog`lanishidan tuzilgan jamlovchi, bir umumiy ma`noni anglatadigan yangi ot. Juft ot qismlari orasidagi tenglik munosabati yozuvda chiziqcha bilan ko`rsatiladi. Bunday juft otning qismlari 2 xil bog`lanadi: a) bog`lovchilarsiz: ota-on, gul-lola; b) bog`lovchi vazifasidagi -u, -yu yuklamalari yordamida: *tog`-u tosh, olma-yu o`rik* kabi.

Juft ot qismlari bir so`z turkumiga oid bo`lib, qismlarining har biri o`z urg`usiga ega bo`ladi. Juft otlarning ma`nosini qismlar ma`nosining yig`indisidan kelib chiqadi: kuch-quvvat, aql-xush, ota-on.

Juft ot tarkibidagi qismlar quyidagi ma`no munosabatlarini ifodalaydi:

Har doim ham ikkita otning juftlanishidan yangi ot yasala bermaydi. Juft so`zning turkumini qismlarning qaysi turkumdan ekanligiga qarab emas, balki juft so`zning butunligicha qanday ma`no anglatishiga qarab aniqlash kerak bo`ladi. Shu jihatdan qaraganda, quyidagi turkum so`zlar juftlanib, ot yasaladi:

1. Ot: *yor-birodar, to`y-tomosha.*

2. Sifat: *oq-qora, issiq-sovuq.*

3. Ravish: *kam-ko`st.*

4. Sof fe'l: *ur-yiqit, keldi-ketdi.*

5. Fe'lning harakat nomi shakli: *yurish-turish, yozuv-chizuv.*

6. Taqlidiy so`zlar: *adi-badi, qiy-chuv.*

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

1. Juft otning har ikala qismi mustaqil ma`noli so`zlardan tuziladi: o`yin-kulgi, opa-singil

2. Juft otning bir qismigina mustaqil ma`noga ega bo`ladi: kiyim-kechak, bozor-o`char

3. Juft otning har ikki qismi mustaqil ma`noga ega bo`lmagan so`z bo`lishi mumkin: g`ala-g`ovur, dali-g`uli.

Juft otlar takrorlangan holda kelishi mumkin, lekin bunday ot yasama ot sanalmaydi: choy-poy, ish-pish, don-dun kabilar. Bunday juft otlar modal ma`no ifodalaydi.

Abbreviatsiya usuliga ko`ra turg`un so`z birikmalarini turli usullar bilan qisqartish orqali qisqartma ot hosil qilinadi. Qisqartma otlar abbreviaturalar deb yuritiladi. Bu usul bilan so`z yasash o`zbek tiliga rus tilidan o`zlashtirilgan bo`lib, nutqda ixchamlikka erishish maqsadida qo`llaniladi.

Hozirgi kunda rus tilidan aynan o`zlashtirilgan bir qator qisqartma otlar bir qatorda rus tilidagi qisqartma otlarning o`zbek tilidagi shakli ishlatilmoqda. *GES, ZAGS – aynan o`zlashtirilgan, VAK – Vissaya Attestatsionnaya Komissiya, OAK – Oliy Attestatsiya komissiyasi, GA – gosudarstvennaya attestatsiya – DA – davlat attestatsiyasi* kabilar o`zbekcha qisqartma shakli hosil qilingan. Shuningdek, o`zbek tilining o`z ichki imkoniyatlari asosida yasalgan yangi qisqartma otlar lug`at tarkibidan joy olmoqda: *DTM, DAN, O`zFA* kabi.

Qisqartma otlar tuzilish jihatdan quyidagicha bo`ladi:

1.Qisqartirilayotgan so`zlarning bиринчи tovushlaridan tuziladi: *BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti), XXR (Xitoy Xalq Respublikasi), DTM (Davlat test markazi); DAN (davlat avtomobil nazorati).*

2.Qisqartirilayotgan so`zning bosh qismi va keyingi so`zlarning bиринчи tovushlaridan: *ToshDIU (Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti), O`zFA (O`zbekiston Fanlar Akademiyasi).*

3.Bиринчи so`zning bosh qismi va keyingi so`z to`liq olinadi: *pedkolledj (pedagogik kolledj), pedamaliyot (pedagogik amaliyot).*

4.So`zlarning bosh qismlaridan: *Toshunivermag (Toshkent universal magazini), ...*

7 -§. Otlarda modal shakl yasalishi

Otlarda so`z o`zgarish, so`z yasalish xususiyatlari bir qatorda modal shakl yasash hodisisi ham mavjud.

Otlarning leksik ma`nosiga qo`sishma modal ma`no qo`shilishi bilan hosil qilinadigan shakl modal shakl yasash deyiladi. Otlar o`z leksik ma`nosiga qo`sishma kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik kabi modal ma`nolarni ifodalaydi.

Otlarda bu modal ma`nolar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik usul va takrorlash usuli.

Morfologik usulga ko`ra otning leksik ma`no ifoda etuvchi qismiga modal shakl yasovchi affikslarni qo`sish orqali modal ma`no yasaladi. Bu usulga ko`ra otlarning kichraytish, erkalash, hurmat kabi modal shakllari hosil qilinadi.

Otlarda modal shakl yasovchi affikslarga quyidagilar kiradi:

-cha: *qizcha, uycha*

-chak, -choq: *kelinchak, qo`zichoq, toychoq*

-loq, -aloq: *joyloq, bo`taloq, qizaloq*

-gina: *bolagina, qizgina*

-xon, -jon, -oy, -boy: *otaxon, onajon, Ra'noxon, Yulduzoy, Karimboy.*

Otni maxsus takrorlash yo`li bilan gumon, kamsitish, umumlashtirish, noaniqlik kabi modal ma`nolar yasaladi. Bu usulga ko`ra modal shakl hosil qilishda takrorlanuvchi qismda turli fonetik o`zgarishlar yuz beradi:

1.Ot unli tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qism boshqa p, m, s, ch, d, j, t tovush orttiriladi: *un-pun, ot-pot, o`rik-mo`rik, irim-sirim, irim-chirim, imi-dimi, alang-jalang* kabi.

2.Ot undosh tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qismdagи bиринчи undosh p, m, s, ch, b tovushlaridan biri bilan almashtiriladi: *loy-poy, mosh-posh, non-pon, bosh-mosh, poda-mod, patir-satir, meva-cheva, g`idi-bidi* kabi.

3.Otning takrorlanuvchi qismida keng va cho`ziq unli qisqa va tor unli bilan almashadi: *don-dun, xashak-xushak* kabi.

4.Takrorlanuvchi qismda birinchi undosh ham, keng unli tovush ham almashadi: *latta-putta* kabi.

Ba'zan otning o'zi aynan hech o'zgarishsiz takrorlangan holda qo'llanib, kuchaytirish ma'nosini hosil qiladi: *tog`-tog`, xirmon-xirmon* kabi.

Turkumdan turkumga ko'chish vositasida ot yasalishi (semantik usul). 1) sifatdan otga ko'chish: *o'g'il* (bola), *qiz* (bola), *ayol* (kishi), *chol* (odam); 2) fe'lidan otga ko'chish: *kelajak* (O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir); 3) juft fe'llar otga ko'chadi: *keldi-ketdi*, *oldi-sotdi*, *qo'ydi-chiqdi*.

So'zlarni takrorlash yordamida ot yasash. *Lik-lik* (ko'kat turi), *pat-pat* (mototsikl), *bog'cha-bog'cha* (o'yin), *yugur-yugur* (shoshilish), *biyovbiyov* (qush), *shaqshaq* (qush).

8 -§. Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Otlar tuzilishi jihatdan sodda ot, qo'shma ot, juft ot, qisqartma otlarga bo`linadi.

1. Sodda ot bir o'zak morfemadan tashkil topadi: *daraxt*, *kitoblar*, *gulzor*, *uycha* kabi.

2. Qo'shma ot ikki va undan ortiq o'zak morfemaning birikishidan hosil bo`ladi: *belbog`*, *atirgul*, *oqsoqol* kabi.

3. Juft ot ikki o'zak morfemaning o'zaro teng bog`lanishidan tuziladi: *aka-uka*, *o'y-xayol*, *temir-tersak* kabi.

4. Qisqartma otlar birikma qismlarini qisqartish yo`li bilan tuzilgan otlar: *AQSH*, *MDH*, *O`zMU* kabi.

5. Takroriy otlar: *choy-poy*, *in-iniga*, *tomir-tomiriga*, *don-dun*, *irim-sirim*, *yor-yor* (qo'shiq nomi).

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo'yib yoziladi.

Agar juft otlar o`rtasida ikki otni bir-biri bilan bog`laydigan *u*, *yu* tovushlari bo`lsa, kirilcha yozuvda chiziqcha qo'yilmaydi: *Onayu bola - gulu lola*. Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi: *Aytilgan so`zlar jon-jonidan o'tib ketdi*. Tilimizda takrorlangan, so`zning boshida kelgan undosh *p* eki *m* undoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin *p* tovushi orttiriladigan *choy-poy*, *non-pon*, *qop-mop*, *osh-posh*, *pul-mul* kabi **takroriy** otlar ham bor.

Ot tahlili namunasi	
1. So`rog`i.	uning shaxs-soni aniqlanadi.
2. Ma'no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turlari).	6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'-nolari bo`lsa, aniqlanadi.
3. Birlik yoki ko`pligi (soni)	7. Tuzilish turi.
4. Kelishigi.	8. Tub yoki yasamaligi.
5. Egalik qo'shimchasi bo`lsa,	9. Gapdagи sintaktik vazifasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ot turkumining ta'rifi va so'roqlarini aytинг, misollar keltiring.
2. Otlarning xususiyatlari va gapdagи vazifalarini aytинг.
3. Turdosh otlar deb qanday otlarga aytildi?
4. Qanday tushunchani ifodalashiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.
5. Birlik shaklda ko`plikni ifodalash-ifodalamasligiga ko`ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring.
6. Atoqli otlarning ta'rifi va turlari haqida gapiring.

7. Turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o`tishiga misollar keltiring.
8. Otlardagi birlik ma`nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
9. Otlardagi ko`plik ma`nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
10. Qanday otlar faqat birlikda qo`llanadi?
11. Faqat birlikda qo`llanadigan otlarga **-lar** qo`shimchasi qo`shilsa, qanday ma`no ifodalanadi?
12. **-lar** qo`shimchasi yana qanday turkumdagি so`zlarga qo`shiladi va qanday ma`nolarni ifodalaydi?
13. Otlarning turlanishi deganda nimani tushunasiz?
14. Kelishiklarni qo`shimchalari bilan aytib bering.
15. Qaysi kelishikdagi otlar qanday so`zlarga bojlanishi haqida gapiring.
16. Belgili va belgisiz kelishiklar haqida gapiring.
17. Qaysi kelishik qo`shimchalari qisqaradi?
18. Egalik qo`shimchalari qanday ma`noni ifodalaydi?
19. Egalik qo`shimchalari bilan bojliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.
20. Kichraytirish, erkalash va hurmatlash ma`nolarini ifodalovchi qo`shimchalarni misollari bilan sanab ko`rsating .

SIFAT

1 -§. Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning doimiy, o`zgarmas belgisini ifodalaydigan so`zlar sifat deyiladi.

Sifat mustaqil so`z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgisi. Sifat belgi ma`nosini bildiradi.
 2. Morfologik belgisi: Sifat *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?* so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.
- Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo`lib, ma`nosiga ko`ra bir necha guruhgа ajratiladi:
- a) rang-tus ma`nosini bildiradigan sifatlar: *oq*, *qizil*, *sariq*, *havo rang*, *kul rang*, *yashil*, *zangori*;
 - b) hajmi ma`nosini bildiradi: *keng*, *tor*, *baland*, *past*, *uzun*, *chuqur*, *yirik*, *mayda*;
 - d) shakl va ko`rinish ma`nosini bildiradi: *dumaloq*, *yassi*, *egri*, *qiysi*, *do`ng*;
 - e) maza-ta'm ma`nosini bildiradi: *shirin*, *achchiq*, *nordon*, *sho'r*, *taxir*, *chuchmal*, *bemaza*;
 - f) xarakter-xususiyat ma`nosini bildiradi: *muloyim*, *odobli*, *shirinso`z*, *chaqqon*, *sho'x*, *yalqov*, *dangasa*, *chechan*, *qo`rs*, *qaysar*. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobjiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;
 - jj) hid ma`nosini bildiradi: *sassiq*, *qo`lansa*, *badbo`y*, *xushbo`y*, *muattar*;
 - h) holat ma`nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo`ladi:
- 1) psixik holatni ifodalaydi: *xursand*, *xafa*, *shod*, *kasal*, *injiq*;
 - 2) tabiiy holatni ifodalaydi: *yosh*, *qari*, *keksa*.

Sifat belgini bevosita yoki bavosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma`no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko`rsata oladi: *katta*, *kattaroq*, *eng katta* kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: *yosh-qari*, *yaxshi-yomon* kabi.

Belgini bavosita, ya`ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o`xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar **nisbiy sifat** deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so`z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o`xshashlik, o`rin yoki paytga munosabat, mo`ljal ma`nolarini bildiradi:

- a) xoslik ma`nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so`zga -iy, -viy qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi: *zamonaviy*, *oilaviy*, *ma'naviy*, *siyosiy*;

b) o`xhashlik ma`nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so`zga –simon, -sifat birliklarini qo`shish bilan yasaladi: *odamsimon, hayvonsifat, devsifat*;

v) o`rin va payt ma`nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so`zlarga –gi, -qi, -ki, -dagi affikslarini qo`shish bilan yasaladi: *qishki, yozgi, bahorgi, bulturgi, tushki, kechki*;

g) mo`ljallanganlik, xoslik, o`lchov ma`nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so`zlarga –lik affiksini qo`shish bilan yasaladi: *ko`rpilik, ko`rpachalik, toshkentlik, ko`ylaklik*.

Sifat ba`zan ravish o`rnida qo`llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: *ma`noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o`qimoq* kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko`rsatishi (*qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil*), yasalish sistemasiiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilardan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba`zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog`lanadi va o`zi bog`lanib kelayotgan so`zga tobelanadi.

Sifat otga bog`lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: *Biz do`stlarning eng yaxshi do`sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin.* (Y.Shukurov).

Sifat fe'lga bog`lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: *Yulduzlar odatdagidan ko`ra toza, kattaroq, yorqinroq ko`rinardi.* (P.Qodirov).

2 -§. Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko`ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasini deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor:

1. Oddiy daraja. Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xudi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko`rsatadi va u maxsus ko`rsatkichga ega bo`lmaydi: *go`zal tabiat, shirin qovun, keng hovli*.

2. Qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xudi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:

1) morfologik usul. Oddiy darajadagi sifatga –roq affiksini qo`shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog`ishtirish, qiyoslash ma`nosini anglashilib turadi. Misol: *Shu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan donoroq va hatto savlatliroq ko`rinib ketdi. Donoroq, savlatliroq* sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so`z (*har vaqtdagidan*) qiyoslash mazmun munosabatini ifodalayapti. *O`shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o`rtadan ko`ra pastroq... xo`jaligi bor.* (A.Qahhor). Bu misolda *pastroq* so`zi belgining kamligi bildiryapti, qiyoslash ma`nosini o`rtadan ko`ra so`zleri ifodalayapti.

2) leksik usul. Qiyosiy darajadagi sifat oldidan **sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli** so`zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: *sal baland, bir oz baland*,

3) leksik-morfologik usul: *picha kattaroq, xiyol achchiqroq*.

4) fonetik usul. Unlilar cho`zib, undoshlar esa ikkilantirilib aytildi: *balaand, chuquur, tekkis* kabi.

3. Orttirma daraja. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgiga nisbatan eng ko`p, oliy darajada ekanligini ifodalash orttirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi usullar bilan ifoda qilinadi:

1) leksik usul. Oddiy darajadagi sifat oldidan *eng, juda, nihoyatda, behad, g`oyat, g`oyatda, hammadan* kabi so`zlarni keltirish bilan: *juda chiroyli, nihoyatda shirin, g`oyatda mehribon* kabi.

Leksik usulda ba`zan belgi bildiruvchi sifatlar o`rnida boshqa so`zlar ishlatilishi mumkin: *zahar (garmdori), olov (sho`x)*.

Sifat tovush o`zgarishlarisiz takrorlash orqali ham orttirma daraja hosil qilinadi: *katta-katta, shirin-shirin*.

- sifat oldidan to`q, jiqqa, tim, g`irt kabi so`zlarni keltirish bilan: jiqqa ho`l, tim qora.
- sifat oldidan so`z birikmalari va iboralarni qo`llash orqali: haddan ziyod (chiroyli), qulung o`rgilsin (jonon).

2) fonetik usul. Bunda sifatni tovush o`zgarishlari orqali takrorlash yo`li bilan.

- sifatning birinchi bo`g`ini ikkinchi bo`g`inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun kabi.
- sifatni birinchi bo`g`inidagi p undoshi qo`sib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.
- sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib, unga p, m tovushlaridan biri qo`shiladi va undan keyin so`zning o`zi takrorlanadi: yap-yangi, ko`m-ko`k.
- sifatning birinchi bo`g`inidan keyin –ppa shakli qo`shiladi: soppa-sog`, to`ppa-to`g`ri.

3 -§. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.

Sifat belgini ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalashiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

- ozaytirma sifat;
- kuchaytirma sifat.

Ozaytirma sifat o`zakdan anglashilgan belgining me`yoridan ozligini bildiradi. Ular morfologik va leksik usullar bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. Sifatlarga –ish, -imtir, -mtir affikslarini qo`sib ozaytirma sifat hosil qilinadi: *ko`kish, qizg`ish, oqimtir, qoramitir*. –ish qo`sishimchasi qo`shilgan ba`zi sifatlar o`zagida tovush o`zgarishlari sodir bo`ladi: *sariq+ish-sarg`ish*. Bu so`zda o`zakdag'i unlisi tushib qolgan, q undoshi g` undoshiga almashgan. *Qizil* sifatiga –ish qo`shilishi bilan o`zakdag'i –il tovushlari tushib, g` tovushi orttirilgan.

Sifatlarga –gina, -kina, -qina affikslari qo`silib, belgilarni kuchsizlantirish ozaytirishi mumkin. Bunda –k bilan tugagan sifatlarga –kina, -q bilan tugagan sifatlarga -qina, qolgan sifat shakllariga –gina affiksi qo`shiladi. Misol: *tuzukkina, oriqqina, sariqqina, kattagina*.

2. Leksik usul. Sifatning oldidan och, nim so`zlarini keltirish bilan belgi kamaytiriladi: *och pushti, nimqizil*.

Kuchaytirma sifatlar o`zakdan anglashilgan belgining ortiqligini bildiradi. Kuchaytirma sifatlar leksik va morfologik usul bilan hosil qilinadi.

- morfologik usul. Bu usulda sifatni tovush o`zgarishlari orqali takrorlash yo`li bilan:
 - Sifatning birinchi bo`g`ini ikkinchi bo`g`inidagi undosh bilan takrorlanadi: *dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun*
 - Sifatning birinchi bo`g`iniga –p undoshi qo`sib takrorlanadi: *sap-sariq, qip-qizil*.
 - Sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo`shiladi va undan keyin so`zning o`zi takrorlanadi: *yap-yangi, ko`m-ko`k*.
 - Sifatning birinchi bo`g`inidan keyin ppa shakli qo`shiladi: *soppasog`, to`ppato`g`ri*.
- leksik usul. Sifat tovush o`zgarishlarisiz takrorlanib orttirma daraja hosil qilinadi: *katta-katta*

Qiyosiy darajadagi sifat oldida ma'noni kuchaytiruvchi yana, yanada, yana ham so`zları kelishi mumkin: *yanada yaxshiroq, yana ham balandroq, yana jonliroq*.

4 -§. Sifatlarning otlashishi

Sifat turkumidagi so`zlar ba`zan ot turkumidagi so`zlarning ma'nosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat o`zining leksik va grammatik ma'nosini yo`qotib, predmetlik ma'nosini ifodalaydi. Gapda sifat bog`lanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik ma'nosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham o`z ustiga oladi. Misol: *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi* gapida *yaxshi, yomon* sifatlari tushib qolgan, kim? so`rog`iga javob bo`lgan, bosh kelishikdagi, ega vazivasidagi ot (*odam*) vazifasini bajargan. *Odam* oti gapda tushib qolgani tufayli *yaxshi, yomon* sifatlari otlashishgan. Bu hodisa gap tarkibida yuz bergen. Bunga nutqning ixchamlikka intilishi sabab

bo`ladi. Sifatlarga oid so`zlarning hammasi ham otlashavermaydi. Asosan belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar, kishilarning laqabini bildiruvchi (tajang, maymoq, cho`tir, daroz) sifatlar, hayvonlarning tusini bildiruvchi (saman, to`riq, bo`z, qashqa) sifatlari otlashadi.

Otlashgan sifatlar aniqlovchilik vazifasidan chiqib, otga xos ega, kesim, to`ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma vazifasini bajaradi. Misol: *Aqlsizlar gap bermaydi otasiga. (A.Po`lat) Mard bo`lgandan keyin yomonni ham yaxshilik bilan engar ekan. (P.Kodirov) Yaxshining so`zi qaymoq, yomonning so`zi to`qmoq. (Maqol) Yaxshilar, uni eslangu!*

5-§. Sifatlarning yasalishi

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. Sifat yasovchi qo`shimchalar bilan. 2. So`zlarni qo`shish bilan. 3. So`zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo`shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifat yasovchi qo`shimchalar:

-li:	<i>rasmli</i> kitob , <i>kuchli</i> shamol
-dor:	<i>aybdor</i> , vafodor
ba-:	<i>badavlat</i> , baquvvat
ser-:	<i>serhosil</i> olma .
-mand:	<i>kasalmmand</i> , davlatmand

YUqoridagi qo`shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz:	<i>tuzsiz</i> ovqat .
be-:	<i>beg`ubor</i> , bexabar

Bu qo`shimchalar esa (*no-* qo`shimchasi bilan birgalikda: **noaniq**, **notinch.**) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik:	<i>toshkentlik</i> (bola)
-iy, -viy:	<i>tarbiyaviy</i> soat , <i>devoriy</i> soat .
-gi, -ki, -qi:	<i>bahorgi</i> ishlar , <i>qishki</i> kiyim (paytga xos belgini bildiradi).
-aki, -oqi:	<i>jizzaki</i> , <i>jirttaki</i> , pistoqi
-yi:	<i>havoyi</i> .
-chan:	<i>ishchan</i> bola .
-simon:	<i>odamsimon</i> maymun (o`xshashlik ma'nosini bildiradi).
-kor, -gar:	<i>isyonkor</i> , zulmkor , <i>javobgar</i> , <i>ig`vogar</i> .
-i:	<i>qishloqi</i> , <i>qozoqi</i> , <i>jannati</i>
-cha:	<i>farg`onacha</i> , <i>erkakcha</i> , <i>arabcha</i> (o`yin) <i>avliyonamo</i> , darveshnamo
-namo:	<i>xalqparvar</i> , adolatparvar
-parvar:	<i>charog`on</i> , <i>za`faron</i>
-on:	
-aki:	<i>dahanaki</i> , <i>og`zaki</i>
bad-:	badbaxt , badnafs
-shumul	olamshumul , jahonshumul
-don:	gapdon , bilimdon
-kash:	dilkash , hazilkash
-bop:	<i>palovbop</i> , <i>qishbop</i>
xush-:	<i>xushfe'l</i> , xushhavo
-in:	erkin , otashin
-vor:	devonavor , afsonavor
-parast:	mansabparast , maishatparast
bar-:	barhayot , barvaqt

<i>-chil:</i>	<i>xalqchil, izchil.</i>
<i>-lik(-liq):</i>	<i>ko`ylaklik(chit), bolalik(chog`lar)</i>
<i>-i:</i>	<i>jannati_(kampir)</i>
<i>-loq:</i>	<i>baqaloq, qo`shaloq (g`o`za)</i>
<i>-kor:</i>	<i>devkor(ish), fusunkor(husn)</i>
<i>-kash:</i>	<i>zahmatkash(odam), noskash(kampir)</i>
<i>-chi:</i>	<i>gapchi(odam), vahimachi/ayol)</i>
<i>-von:</i>	<i>zo`ravon(odam)</i>
<i>-qa:</i>	<i>loyqa(suv)</i>
<i>-omuz:</i>	<i>hazilomuz(gap), zaharomuz(hazil)</i>
<i>-xo`r:</i>	<i>g`amxo`r(odam), go`shtxo`r(hayvon)</i>
<i>-soz:</i>	<i>soatsoz(usta)</i>
<i>-dek(-day):</i>	<i>muzdek(suv), jo`jabirday(jon)</i>

2) Fe'ldan sifat yasovchi qo`shimchalar:

<i>-choq, -chak, -chiq:</i>	<i>maqtanchoq, kuyunchak, qizg`anchiq</i>
<i>-gir, -g`ir, -kir, -qir, -qur:</i>	<i>sezgir, topqir, o`tkir, olg`ir,</i> <i>uchqur</i>
<i>-ma:</i>	<i>qaynatma sho`rva, burma ko`ylak</i>
<i>-k (-uk, -ik, -ak)</i>	<i>chirik, teshik, tuzuk, g`alvirak</i>
<i>-q(-uq, -iq, -a/oq):</i>	<i>iliq, siniq, buzuq, qoloq.</i>
<i>-oq:</i>	<i>qochoq, qo`rqoq, baqiroq</i>
<i>-qi:</i>	<i>sayroqi qush,</i>
<i>-qoq, -g`oq:</i>	<i>tirishqoq, uyushqoq, toyg`oq</i>
<i>-ag`on:</i>	<i>bilag`on, chopag`on</i>
<i>-mon:</i>	<i>bilarmon, qirarmon</i>
<i>-kun, -qin, -g`in,</i>	<i>tushkun, ozg`in, jo`shgin.</i>
<i>-g`un, -qun:</i>	<i>turg`un, tutqun</i>
<i>-(a)rli:</i>	<i>etarli, zerikarli</i>
<i>-ch:</i>	<i>tinch, jirkanch</i>
<i>-g`ich:</i>	<i>yulg`ich (odam)</i>
<i>-ong`ich:</i>	<i>tepong`ich, suzong`ich</i>
<i>-ovuch:</i>	<i>hurkovuch, iskovuch</i>
<i>-mas:</i>	<i>o`tmas(pichoq), indamas(odam)</i>
<i>-(i)ndi:</i>	<i>asrandi (bola)</i>
<i>-a:</i>	<i>ko`tara (savdo)</i>
<i>qarimsiq, achiimsiq</i>	<i>-msiq:</i>

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo`shimchalar :

Ravishdan: *-gi:* *kechagi, dastlabki*

Sifatdan: *no-:* *noma'lum, noto`g`ri.*

-lom: *sog`lom*

Taqlid so`zdan: *-ildoq:* *bijildoq, likildoq*

2. So`zlarni qo`shish, bog`lash va juftlash bilan quyidagi turdag'i sifatlar yasaladi:

1) **qo`shma** sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo`shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*

b) sifat va otdan. Bular qo`shib yoziladi: *qimmatbaho;*

v) ot yoki ravishga *-ar* qo`shimchali fe'lni qo`shish bilan yasaladi. Bular qo`shib yoziladi: *tezoqar daryo, ertapishar (o`rik)*

g) otga aro, umum, yarim, g`ayri, nim, rang so`zlarini qo`shish bilan. Bular qo`shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g`ayridin, nimpushti.*

Qo`shma sifatlar a) ikki tub so`zdan tashkil topadi: *sovujqon, xom semiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so`zdan iborat bo`ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o`zbilarmon.*

2) birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so`zdan iborat bo`ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo`ladi, bunday sifatlar *aralash, yo`q, ko`p, oliv, och, to`q, to`la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so`zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo`q, ko`p tarmoqli, oliv ma'lumotli, och qizil, qorni to`q, to`q qizil, to`la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug`* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so`zlardan: *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi;* 2) sinonim ko`rinishdagi so`zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo`min-qobil, xor-zor;* 3) yaqin ma'noli so`zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o`ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog`lansa, chiziqcha qo`yilmaydi: *yakkayu yagona farzand.*

3. So`zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: *yo`l-yo`l* (ko`ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam),

6-§. Sifatlarning tuzilish turlari

1. Sodda sifatlar bir o`zakdan iborat bo`ladi: *aqli, yaxshi.*

2. Qo`shma sifatlar - *rahmdil, ertapishar, havo rang.* Bunday sifatlar: 1) ikki tub so`zdan tashkil topib, ot+ot (*kulcha yuz bola*), ot+sifat, sifat+ot (*sovujqon*), ravish+ot ko`rinishlarida bo`ladi: *ommabop, xom semiz* (yigit), *kamgap;* 2) biri tub, ikkinchisi yasama so`zdan iborat bo`ladi: *sovujqon, ishyoqmas, erksevar, tilbilmas.*

3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug`* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

4. Juft sifatlar - *o`ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq.*

5. Takroriy sifatlar - *baland-balad, uzun-uzun, yo`l-yo`l* (ko`ylak).

Sifat tahlili namunasi	
1. So`rog`i.	4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2. Darajasi.	5. Tuzilish turi.
3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?	6. Tub yoki yasamaligi. 7. Gapdagti sintaktik vazifasi

Takrorlash uchun savollar

1. Sifatning ta'rfi va so`roqlarini aytинг.
2. Sifatning ma'no jihatdan turlarini misollar bilan ko`rsating.
3. Asliy va nisbiy sifatlar haqida gapiring.
4. Sifat darajalari deb... (davom ettiring).
5. Orttirma daraja hosil qilishning leksik va morfologik usullari haqida gapiring.
6. Orttirma daraja hosil qilishning semantik va fonetik usullari haqida gapiring.
7. Qiyosiy daraja qanday ifodalananadi?
8. Ozaytirma daraja qanday yasaladi?
9. Otdan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring.
10. Fe'ldan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring.
11. Boshqa so`z turkumlaridan yasalgan sifatlarga 3 ta misol keltiring.
12. Qo`shma sifatlar qanday yasaladi va yoziladi?

13. Juft sifatlar qanday yasaladi va yoziladi?
14. So`zlarni takrorlab yasalgan sifatlarga misollar keltiring.
15. Otlashgan sifatlar qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?
16. Qaysi turkumdagи so`zlar sifat o`rnida qo`llanadi? Misollar keltiring.
17. Qo`shma sifatlar qanday so`zlardan iborat bo`ladi?
18. Birikmali sifatlar haqida gapiring va misollar keltiring.
19. Juft sifatlarning turlariga misollar keltiring.
20. Boshqa so`zlarning sifat o`rnida qo`llanishiga misollar keltiring.

SON

1-§. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning miqdorini, sanog`ini, joylashish tartibini, ba`zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so`z turkumi son deyiladi. Son *necha?* *nechanchi?* *nechta?* *qancha?* kabi so`roqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog`lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba`zan fe`lga bog`lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: *to`rtta daftар*, *ikki oy o`qidi*, *birinchi keldi* kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe`lga bog`lanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum ma`noga ega bo`ladi: *ikki qo`shuv uch*. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo`shilishi bilan besh hosil bo`lishi aniq emas.

Sonlar ko`pincha raqamlar bilan yoziladi:

- 1) arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.
- 2) rim raqamlari bilan: ***birliklar***: I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); ***o`nliklar***: X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90); ***yuzliklar***: C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); ***mingliklar***: M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...

Badiiy asarlarda sonlar so`z bilan yoziladi: *To`rt yil kutdi*.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son bo`lib, boshqa sonlar shularning qo`shilishidan hosil bo`ladi: *nol*, *bir*, *ikki*, *uch*, *to`rt*, *besh*, *olti*, *etti*, *sakkiz*, *to`qqiz*, *o`n*, *yigirma*, *o`ttiz*, *qirq*, *ellik*, *oltmish*, *et mish*, *sakson*, *to`qson*, *yuz*, *ming*, *million*, *milliard*.

Eski yozuv tilida tuman (o`n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo`lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalangan. Ravish so`z turkumiga doir *ko`p*, *oz*, *kam*, *mo`l* kabi so`zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so`zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so`zlar son so`z turkumiga oid emas.

Son so`z turkumi o`ziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma`nosini ifodalashidir, ya`ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko`ra (ba`zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo`ladi.

2. Son ma`no jihatdan predmetning sanog`ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma`nolarni ifodalaydi. Shu ma`no xususiyatlariga ko`ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo`linadi. Sonning ma`no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: *uchta*, *beshovlon*, *ikala*, *yuzlab*, *to`rttadan*, *uch-to`rt*, *o`ninchи* kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo`shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o`zgarmaydi, ya`ni egalik, kelishik, ko`rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog`lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi* *Otabeckning yoniga ikkita yostiq olib qo`ydi va bittani o`z yonboshiga ham oldi*. (A.Qodiriyl.)

Son hech qachon belgi ifodalovchi so`zni o`ziga tobe qilib kelmaydi - aniqlovchi olmaydi.

Son ba'zan fe'lga bog`lanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Marg`ilonga yetti-sakkiz marta kelibdi* (A.Qodiriy.)

4. Son bog`lanib kelgan ot qo`llanmaganda, otga qo`shilib kelgan so`z o`zgartiruvchi affikslar, ya`ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko`plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o`zgargan son **otlashgan son** sanalib, gapda ot bajargan ega, to`ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, o`z joyida ikkovi ham yaxshi (Shukrullo). Bilagi zo`r birni yiqar, bilimi zo`r mingni.* (Amir Temur o`gitlari). *O`nning yarmi besh.*

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi (maqol, matal, aforizmlarda ko`p uchraydi). Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o`zgarmaydi (chama son hosil qiluvchi -tacha, -lab, -lar qo`shimchalari kasr songa qo`shilmaydi).

5. Sonlarning hisob so`zlari (numerativlar) bilan birga qo`llanishi uni boshqa so`z turkumlaridan ajralib turuvchi o`ziga xos belgilardan biri sanaladi. Hisob so`zlari ot so`z turkumiga doir bo`lib, u son bilan bog`lanib kelgan ot va fe'l orasida ishlatiladi: *ikki tup daraxt, besh kilogramm olma, o`n kilometr yurdi, to`rt sahifa o`qidi* kabi.

Sonlar hisob so`zlari bilan ham, hisob so`zlarisiz ham qo`llanadi (Bu so`zlar haqida quyida to`xtalamiz).

6. Son so`z yasalish tizimiga ega emas. Boshqa so`z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so`z turkumlari yasalishi mumkin: *birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe'l), bittalab (ravish)* kabi.

2 -§. Sonning ma'no turlari

Son ma'no jihatdan va grammatik xususiyatlarga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: **sanoq sonlar va tartib sonlar**.

1. **Sanoq son** predmet yoki ish-harakatning sonini, miqdorini, belgisini bildiradi: *uch bola, ikkita kitob, besh tonna paxta, olti kilogramm sotib oldi* kabi.

Sanoq sonlar hisob so`zlarisiz va hisob so`zlari bilan qo`llanish xususiyatiga ega: *ikkita qalam, besh talaba, o`ntacha o`quvchi - hisob so`zlarisiz; olti tup daraxt, uch litr sut, o`n oy o`tdi, ikki marta chaqirdi* - hisob so`zlari bilan kelgan.

Hisob so`zlari ko`p hollarda predmetning, ba'zan ish-harakatning hisobini ko`rsatuvchi o`lchov birligi bo`lib, u orqali predmetning ish harakatning miqdori belgilanadi. Hisob so`zlar sanoq son bilan sanaladigan predmet, ish-harakat anglatuvchi so`z orasida kelib, ularni og`irligiga, uzunligiga, hajmiga, vaqtiga va shunga o`xshash xususiyatlarga ko`ra o`lchovini bildiradi: ikki bosh uzum, uch kilogramm olma, bir qultum suv, ikki hektar er kabi.

O`zbek tilida hisob so`zlari ot so`z turkumiga oid bo`lib, ular qo`llanilishiga ko`ra quyidagi ma'nodagi otlarni o`z ichiga oladi:

1. Predmetni yakkalab, donalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: *dona, nusxa, bosh, tun, nafar* kabi.

2. Butunning bo`lagini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: *burda, parcha, varaq, og`iz, luqma, siqim, tilm, chindim, xarch, qop, arava, mashina, chaqmoq* kabi.

3. Juft predmetlar hisobini ko`rsatuvchi hisob so`zlari: *juft, par, jo`ra* kabi.

4. Og`irlikni o`lchash uchun ishlatiladigan hisob so`zlari: *gramm, kilogramm, tsentner, tonna* kabi.

Eski o`zbek tilida *misqol, qadoq, botmon* kabi otlar og`irlik miqdorini hisoblash uchun ishlatilgan: *Namangan va Andijon tumanlarida ikki ming botmongacha yer sug`orilar edi.* (A.Qodiriy)

5. Uzunlik o`lchovi uchun ishlataladigan hisob so`zlari: *millimetrik, santimetr, metr, kilometr, qadam, qarich, quloch* kabi.

Bu hisob so`zlarining *gaz, tanob, tosh, chaqirim* kabi sinonimlari mavjud bo`lib, hozir bu so`zlar arxaiklashgan hisob so`zlari sanaladi.

6. Suyuqlik hajmini ifodalovchi hisob so`zlari: *litr, kosa, stakan, piyola, qoshiq, ho`plam, hovuch, chelak* kabi.

7. Pul qiymatini ifodalovchi hisob so`zlari: *tiyin, so`m, dollar* kabi.

Tanga, chaqa, tilla so`zlari ilgari pul qiymatini hisoblash uchun ishlatalgan bo`lib, hozirgi kunda arxaik so`zlar qatoridan o`rin olgan: *Solih maxdum ... bir tangalik go`sht, sakkiz pullik piyozi olib hovliga kirdi.* (A.Qodiriy)

8. Vaqt o`lchovi uchun ishlataladigan hisob so`zlari: *asr, yil, oy, hafta, sutka, kun* so`zlari hamda sutkaning bo`laklarini ifodalovchi *soat, daqiqa, minut, sekund* kabi so`zlar kiradi.

Asr, yil, oy, hafta, sutka, kun so`zlari turli kelishik affikslarini olib kelishi, shuningdek, ko`makchilar bilan birga ham qo`llanishi mumkin: *Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi to`g`risida materiallar yig`a boshlagan edi* (Z.Saidnosirova).

9. Yosh hisobi uchun qo`llanadigan hisob so`zlari: *yosh, yashar, kunlik, oylik* kabi.

10. Harakat miqdorini ko`rsatish uchun ishlataladigan hisob so`zlari: *marta, karra, bor, hissa, qatla, daf'a, sidra* kabi.

Sanoq son ma`no xususiyatlariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: 1) miqdor son; 2) dona son; 3) chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

1) miqdor son bir turdag'i predmetlarning umumiyligi miqdorini, ba'zan ish-harakatning umumiyligi miqdoriy belgisini anglatadi: *uch kishi, ikki qop guruch, besh yil o`qimoq* kabi.

Sizga munosib yigit, balki etti iqlimda ham yo`qdir (P.Qodirov). *Tejamkor kishi pulini keragidan ortiqcha sarflamaydi, o'n so`mga olinadigan narsa uchun hovliqib yuz so`m sarf etmaydi* («Odob bo`stoni va axloq guliston»).

Miqdor sonlar hisob so`zlarisiz va hisob so`zlari bilan qo`llanadi.

Miqdor sonni hosil qiluvchi shakl yasovchi affikslar mavjud emas.

2) dona son bir xil predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiyligi miqdorini anglatadi.

Dona son miqdor son negiziga *-ta* affiksini qo`shish bilan yasaladi: *o`nta o`quvchi, beshta daftar* kabi. Shuningdek, dona son miqdor sondan so`ng donalikni ifodalaydigan *dona, tup, nusxa, nafar, tuyoq, bosh* kabi hisob so`zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: *yuz nusxa kitob, ikki bosh qo`y, besh dona qalam, uch tup daraxt* kabi.

G`avvoslarning rahmi kelib, unga bitta qimmatbaho tosh hadya qildilar («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»). *Vaqti kelsa, o`nta quruq gapdan bitta dalil, o`nta qonun-qoidadan bitta amaliy mashg`ulot a`lo* (A.Soliyev). *Gulshan kirganida uch nafar kaniz sanoliya tikmoqda edi* (A.Qodiriy). *Javonda Abu Ali ibn Sino hazratlarining tibbiyot masalalariga oid yigirma jildlik «Kitob ush shifo»si turardi.* (O.Yoqubov).

3) chama son predmetning, ish-harakatning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi.

Chama son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga *-tacha* affiksini qo`shish bilan: *beshtacha, o`ntacha, yuztacha* kabi. *Ikki tomonga uch qavatdan oltmishtacha joy qilingan.* (A.Q.)

Hisob so`zlari bilan birga qo`llanadigan sonlarda *-cha* affiksi hisob so`ziga qo`shilib keladi: *Ikkala to`rg`ay taxminan bir-birlaridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti* (S.Ahmad).

2. Miqdor son negiziga *-larcha* affiksini qo`shish bilan (miqdor jihatdan yirik sonlarga qo`shiladi): *o`nlarcha, yuzlarcha, minglarcha* kabi: *Menga bir bechora, notavonning sevinch ko`z yoshi minglarcha qimmatbaho toshlardan afzaldir* («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

3. Miqdor son negiziga *-lab* affiksini qo`shish bilan (bu affiks ham *miqdor jihatdan yirik sonlarga qo`shiladi*): o`nlab, yuzlab, minglab kabi: *O`zbekistonda butun jahondan yig`ilgan yuzlab millatlar va elatlar yashaydi* («*O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh*»).

4. Ketma-ket kelgan ikki sonni juft holda keltirish orqali: *bir-ikki, uch-to`rt* kabi: *Hanifa xolaning sandig`ida bo`lajak kelinga atab yig`ilgan besh-o`n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi* (B.Qodirov).

Ba`zan *-ta* affiksi bu juft sonlarning har bir qismiga yoki ikinchi qismiga qo`shilib keladi: *bitta-ikkita, uch-to`rtta* kabi: *Daraxtlar orasidan sarg`ayib bir-ikkita yulduz ko`rindi* (O`Umarbekov).

5. Hisob so`zları bilan qo`llangan miqdor sonlarga –lar ko`plik affiksi hamda kelishik affiksini qo`shish bilan yasaladi. Bunda ko`pincha vaqt bildiruvchi hisob so`zi oldin keladi: *Saida uya kech soat o`n birlarda qaytdi* (A.Qahhor). Bunda ish-harakatning bajarilishidagi payt, vaqtga nisbatan taxmin ma`nosi ifodalanadi.

Ba`zan bu affikslar hisob so`ziga ham qo`shiladi: *Ro`zimat qorong`ida ko`ziga yigirma besh yoshlarda ko`ringan edi.* (A.Qahhor)

5. Chama sonlar taxmin ma`nosini ifodalovchi *chamasi, chog`li, taxminan, qariyb, shuningdek, yaqin, ortiq, kamida* kabi so`zlarning ishtiroki bilan ham hosil qilinadi: *Maktabda o`n chog`li bola yig`ilgan* (O). *Ko`chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiqroq ko`chat o`tkazildi* (A.Qahhor).

4) jamlovchi son bir turdagı predmetlarning miqdorini jamlab, to`dalab ko`rsatadi.

Jamlovchi son miqdor songa quyidagi affikslarni qo`shish bilan hosil qilinadi:

a) miqdor songa *-ov* affiksini (ikkidan yettigacha bo`lgan sonlarga) qo`shish bilan: *ikkov, uchov, to`rtov, beshov, oltov, yettov* kabi. Ba`zan o`n sonidan ham yasaladi *o`novi* kabi. Bu affiks bilan yasalgan son otlashgan holda kelib, doimo egalik affikslari bilan birga (I shaxs birlik egalik affiksidan tashqari) qo`llanadi, ya`ni ular ko`pchiligi predmetning miqdoriga ko`ra belgisini ko`rsatmaydi, miqdor ma`nosi bilan birga predmetlik ma`nosini anglatadi: *Ular ikkovi birining og`zidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar* (A.Qodiriy). *Maqsud akaning qaytganini eshitganimiz hamon Oybek men Mirtemir uchchovimiz suyunib yugurdik* (Z.Saidnosirova).

b) miqdor songa *-ala* affiksini qo`shish bilan yasaladi: *ikkala, uchala, to`rtala, beshala* kabi. *Olti va yetti* sonlariga ham qo`shiladi. (*Ikki va olti* sonlariga qo`shilganda negiz oxiridagi *i* unli tushib qoladi). *Teshaboy ikala otni jilovidan ushlab tolning naryog`iga olib o`tib ketdi* (S.Ahmad).

d) miqdor songa *-ovlon* affiksini qo`shish bilan yasaladi: *ikkovlon, uchovlon*. Bu affiks ham ikkidan yettigacha bo`lgan sonlarga qo`shiladi: *Oltovlon ola bo`lsa og`zidagin oldirar, to`rtovlon tugal bo`lsa tepadagin endirar* (Maqol).

Otga bog`lanib kelgan jamlovchi son sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Haqiqat uchun, Vatan uchun jonini ayamagan ikala pahlavon sal o`tmay jangda mardona halok bo`ldi. (SHukrullo)

Lekin jamlovchi son gapda ko`pincha ega, to`ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: Ikkovlari kech salqinda adir tagida bitta-bitta yurib ketishyapti (S.Ahmad.). Uchalasining maqsadi bir. Talabalarning beshoviga ham mukofot topshirildi.

5) taqsim son predmetlarning miqdor jihatdan teng taqsimlanishini, guruhanish miqdorini anglatadi.

Taqsim son quyidagicha yasaladi:

a) miqdor son negiziga *-tadan* affiksini qo`shish bilan: *Azim har yelkasiga to`rttadan odam sig`adigan yigit bo`libdi* (A.Qahhor).

2. Donalik anglatadigan sonni takrorlash yo`li bilan: bitta-bitta, uchta-uchta kabi. Ba`zan so`nggi qismiga *-dan* chiqish kelishigi affiksi qo`shilishi ham mumkin: bitta-bittadan, uchta-uchtadan kabi.

3. Miqdor sonlarning takrorlanishi bilan yasaladi: *ikki-ikki, uch-uch* kabi.

3 -§. Bir sonining o`ziga xos grammatik xususiyatlari

Sonlar ichida ***bir*** soni o`ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bir soni yuqorida qayd etilgan sonlarga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo`lishi bilan birga o`ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega:

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, gumon va noaniqlik ma`nosini ifodalaydi: *Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergen edi.* (Z.Saidnosirova.)

Miqdor anglatadigan so`zлari, so`roq olmoshlari yoki *narsa* so`zidan oldin *bir* so`zini kiritish bilan gumon, noaniqlik ma`nosidagi ravishlar yasaladi: *bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa, bir zum, bir payt* kabi.

Bir so`ziga *-ov, -on, -or* affiksi qo`shilishi bilan ham gumon ma`nosini bildiruvchi gumon olmoshlari yasaladi: *birov, biron, biror* kabi.

2. *Bir* so`zi fe'l, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (*juda, g`oyat*) va kuchaytiruv yuklamasi (*hatto*) kabi ma`noni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi.* (Said Ahmad)

3. *Bir* so`zi sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham ma`noni kuchaytiradi: *Gulnor uchun ulug` bir baxt shu uchrashuv bo`ldi.* (A.Q.) *Juvon asabiy bir harakat bilan ro`molini olib o`radi.* (A.Q.)

4. Ayiruv chegaralov yuklamalari (-*gina, faqat*) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi ma`nolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham bir xislat* («*Tafakkur gulshani*»). *Mening ishonchim bir sensan.* Bunda bir so`zi *-gina, faqat* vazifasini bajargan.

5. Bog`lovchi vazifasida kelib, uyushiq gap bo`laklarini yoki qo`shma gap qismlarini bog`lashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning* (Maqol).

6. *Bir* so`zi o`zi bog`lanib kelgan so`z bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlar ma`nosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. Kesim vazifasini bajarib kelganda, birdamlik, o`xshashlik, umumiylik ma`nosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir* (Maqol). *Odamning tili bilan dili bir bo`lsin.*

Bir sonidan olmosh, ravish, ot va fe'l yasaladi: *bir necha, bir narsa, bir zum, bir payt, bir vaqt, birlik, birik* kabi.

4 -§. Sonlarning otlashishi

Gapda otning so`rog`iga javob bo`ladigan va ot kabi ko`plik, egalik, kelishik shakllarida kela oladigan son ***otlashgan son*** hisoblanadi: *Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar.* Otlashgan sonlar xuddi otlar kabi ega, ot-kesim, to`ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va hol vazifalarini bajaradi: *Besh -o`nning yarmi. Beshni uchga qo'shsa, sakkiz bo`ladi. Imtihonlar yibirmanchida bo`ladi.*

5 -§. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Sodda sonlar bir o`zidan iborat bo`ladi: *bir, uch.*

2. Qo`shma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: *o'n uch, bir yuzo 'n sakkiz.*

3. Juft sonlar ikkita turli o`zakning juftlashishidan tuziladi: *besh-olti, yetti-sakkiz, o'n besh-o'n olti.*

4. Takroriy sonlar bir o‘zakning takrorlanishidan tuziladi: *ikki-ikki, to’rtta-to’rtta,o’nta-o’nta.*

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Son tahlili namunasi	
1. So`rog`i. 2. Butun yoki kasrligi. 3. Ma’no turi. 4. Hisob so`zi bor-yo`qligi.	5. Otlashgan yoki otlashmaganligi. 6. Tuzilish turi. 7. Gapdagи sintaktik vazifasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday so`zlarga son deyiladi?
2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo`shimchalarni olishi mumkin?
3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so`zlarga bojlab 5 ta misol keltiring.
4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
5. Nutqimizda tez-tez qo`llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang.
6. Eskirgan sonlarga misol keltiring.
7. Butun va kasr sonlarning o`zaro farqini tushuntiring.
8. Kasr sonning turlari haqida gapiring.
9. Aralash sonlar haqida gapiring.
10. Miqdor sonlar haqida gapiring.
11. Hisob so`zlarining ma’no guruhlari haqida gapiring.
12. “Bir” so`zining qanday ma’nolari bor?
13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring.
14. CHama sonlar qanday hosil qilinadi?
15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi?
16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring.
18. Otlashgan sonlar qanday qo`shimchalarni oladi?
19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring.
20. “Beshtacha kitob” birikmasidagi sonni yoddan to`liq tahlil qilib bering. 21. Omonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring.
22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo`lgan sonlar haqida gapiring .

O L M O S H

1-§. Olmoshning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba’zan so`z birikmasi va gap o`rnida qo`llana oladigan, aniq lug`aviy ma’noga ega bo`lmagan so`z turkumi **olmosh** deb ataladi: 1) ot o`rnida: **Karim juda quvondi, chunki u o`z orzusiga erishgan edi.** 2) sifat o`rnida: **Kechagi kitobining berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman.** 3) son o`rnida: **Menda ikkita qalam bor, senda nechta bor?** 4) ravish o`rnida: **Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?** 5) so`z birikmasi o`rnida: **Yomon so`z bosh qozig`idir, shunday so`zni gapirmagan ma’qul.** 6) gap o`rnida: **Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagi eng yomon xislatdir.** Olmoshlar turlanadi, gapda ko`pincha ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi va undalma bo`lib keladi: **Hamma keldi. Bizni tabriklang. SHu kitobni bering. Hoy sen, beri kel!**

Olmoshlar gapda so`zlarni o`rinsiz takrorlashdan qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi. Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlariga ega: 1) so`z yasalish

xususiyati yo`q (lekin olmoshlar asosida ot, fe'l, ravish, sifat yasalishi mumkin: *o`zlik, sensirama, o`zicha, menbop*); 2) juftlanib, boshqa so`z turkumi vazifasida keladi: *o`sha-o`sha, shu-shu* (ravish); 3) olmoshlar otlarga xos so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarini olishi mumkin: *unga, shunisi*; 4) olmosh hech vaqt o`zidan oldin aniqlovchi olmaydi. Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko`ra quyidagi turlarga bo`lsa bo`ladi: 1) **ot toifasidagi olmoshlar**. Bular otlarning so`roqlariga javob bo`ladi, otlarga o`xshab so`z o`zgarturuvchi qo`shimchalarini qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi. 2) **sifat toifasidagi olmoshlar**. Bular sifatlarga o`xshab sifatlovchi-aniqlovchi, kesim va hol vazi-falarini bajaradi, otlashish xususiyatiga ega. 3) **son toifasidagi olmoshlar**. Bular miqdorni ifodalash uchun qo`llanadi va gapda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim, ba`zan hol vazifalarini bajaradi.

2-§. Olmoshlarning ma'no turlari

1. **Kishilik (shaxs) olmoshlari** uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. *U* kishilik olmoshiga jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigi qo`shimchalari qo`shilganda, bir *n* orttiriladi: *unga, unda, undan*. Qaratqich, tushum kelishigi va qarashlilik shakli qo`shimchasi *-niki* qo`shilganida esa, *-n* tushiriladi: *men+ning=mening, sen+ni=seni, sen+niki=seniki*. Ayrim vaqtarda *biz, siz, ular* olmoshlari birlik ma`nosida ham ishlatiladi, bunda *biz* olmoshi kamtarlik, bajirilgan ishda o`zining rolini oshirmslik kabi ma`nolarni ifodalaydi. *Siz, ular* esa hurmat ma`nosini bildiradi, bunda *siz* olmoshiga ko`plikni ifodalash uchun *-lar* qo`shimchasi qo`shiladi. Bu olmoshlarga egalik qo`shimchalari deyarli qo`shilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega (*Men keldim*), to`ldiruvchi (*Sen ga aytaman*), qaratqich aniqlovchi (*Uning ukasi kelibdi*), ot-kesim (*Mening do`stim sensan*) vazifalarini bajaradi.

2. **O`zlik olmoshi** narsa-buyumni aniqlab yoki ta`kidlab ko`rsatish uchun ishlatiladigan *o`z* so`zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsnинг tanholigini bildiradi: *o`z uyi, o`z ukasi*. O`zlik olmoshi egalik qo`shimchasini olib, kishilik olmoshlari sinonim bo`ladi: *o`zim - men, o`zing - sen, o`zi - u*. Bu olmosh kishilik olmoshlari bilan qo`llanganda, ularga ta`kid ma`nosini yuklaydi: *men o`zim, sen o`zing*.

O`zlik olmoshi turlanganda kelishik qo`shimchalaridan oldin egalik qo`shimchalari bo`lishi shart: *o`ziga, o`zingdan* va b. **O`z olmoshi** belgisiz kelishik ko`rinishida qo`llanishi mumkin: *O`z uying - o`zingning uying*.

3. **Ko`rsatish olmoshlari** narsa-buyumni, kimsani ko`rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlari: *u, bu, shu, o`sha, ana, mana, ana u* yoki *anovi, mana bu* yoki *manavi, ushbu* (ko`tarinki, tantanali ma`no ifodalaydi). Ko`rsatish olmoshlari oldingi gap, gap ichidagi ma`lum bir so`z yoki so`z birikmasi o`rnida qo`llanadi va ularga ishora qiladi yoxud biror-bir so`zni aniqlab keladi. So`z ma`nosini aniqlab keluvchi bunday olmoshlar aniqlanayotgan so`zdan oldin keladi: *o`sha odam*.

Kishilik olmoshi *u* bilan ko`rsatish olmoshi *u* ni gapdagi ma`nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda *u* kishilik olmoshi *kim?* so`rog`iga (*U keldi*), ko`rsatish olmoshi *u* esa *qaysi?* so`rog`iga javob bo`ladi (*U kishi keldi*). *U, bu, shu, o`sha* olmoshlari jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *-day, -dek, -aqa, -cha* qo`shimchalari qo`shilganda, qo`shimcha oldidan bir *n* tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o`shanday, uncha, shunaqa, o`shandek*.

U, bu olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, *unaqa-bunaqa* tarzida belgining ortiqligi, *uncha-muncha* tarzida oz miqdor ma`nolarini ifodalaydi. Ko`rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi (*Bu kitob ukamniki*) va kesim (*Men aytgan odam shu*) vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega (*SHu mening maqsadimdir*), to`ldiruvchi (*Buni tushundim*), qaratqich aniqlovchi (*Shuning egasi sensan*), hol (*Bunda bulbul kitob o`qiydi*) bo`lib ham kela oladi.

4. So`roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so`roqni bildirgan olmoshlardir. So`roq olmoshlarining nimaga nisbatan so`roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo`ladi:

Nº	So`roq turi	Olmoshlar
1.	Shaxsga so`roq	<i>Kim?</i>
2.	Narsaga so`roq	<i>Nima?</i>
3.	Belgi-xususiyatga so`roq	<i>Qanday? Qanaqa? Qaysi?</i>
4.	Miqdorga so`roq	<i>Qancha? Necha? Nechta?</i>
5.	Tartibga so`roq	<i>Nechanchi?</i>
6.	Sabab-maqsadga so`roq	<i>Nega? Nimaga ?</i>
7.	O`rin-joyga so`roq	<i>Qaerda? Qayda? Qayoqqa?</i>
8.	Paytga so`roq	<i>Qachon?</i>
9.	Mavjudlikka so`roq	<i>Qani?</i>

Kim birlik va ko`plikda qo`llanadi, egalik va kelishik qo`shimchalarini oladi: *Kim so`zladil?* *Nimalarni ko`rding?* *Nimang bor?* *Nima* olmoshi belgisiz kelishik shaklida kelishi mumkin: *Nima(ni) olding?*

Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlataladi: *qanaqa odam, qaysi kitob.* *Qaerda, qayda, qani, qayoqqa, qachon, nega* olmoshlari o`rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlataladi: *Qachon keldi? Qaerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega keldi?*

5. Belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yig`indisini bildiradi yoki ularni ayirib ko`rsatadi, shuning uchun ularni ikkiga bo`lish mumkin: 1) **jamlovchi** belgilash olmoshlariga *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi* so`zлari kiradi. 2) **ayiruvchi belgilash** olmoshlariga har so`zining o`zi (*Har qovunlarki...*) va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so`zлar kiradi va bu olmoshlar to`pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradi. Har so`zi ayrim yoziladi.

Hamma, barcha, bari olmoshlari ko`plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko`plik qo`shimchalari bilan qo`llanadi: **Hammalari jim. Har kimga aytaverma.**

6. Bo`lishsizlik olmoshlari inkor ma`nosini bildirgan olmoshlardir. Bular **hech** so`zining o`zi va shu so`zning ba`zi so`roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi, **hech** so`zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik, kelishik qo`shimchalari bilan qo`llanadi: *U hech kimni ko`rmadi. Hech kimim yo`q.*

Hech so`zi yakka holda qo`llanganda, ko`pincha fe'lllar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi (lekin butunlay ravish turkumiga o`tmaydi): *U hech qiyalmadi.*

Bo`lishsizlik olmoshlari ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo`ladi: **Hech qachon unutmaydi.**

Kimsa so`zi ham bo`lishsizlik olmoshlari o`rnida qo`llanishi mumkin: *Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.*

7. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki voqeа haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular *alla-* yordamida yoki *-dir* qo`shimchasi bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allanarsa* (*narsadir emas*), *allaqaysi, allaqaer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimir, nimadir, qachondir, qandaydir, qaerdadir, qaergadir, negadir.* Gumon olmoshlari so`roq olmoshlariga *bir, ham* so`zlarini qo`shish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni kim ham chaqirayotgan edi-ya.* Akasi unga *bir nima deganday bo`ldi.* (*Ba`zan bir nima* birikmasi bo`lishsiz olmosh o`rnida kelishi mumkin: *Buni ko`rib bir nima demadi.*) Bu olmoshlar birlik va ko`plikda (*allakimlar*) keladi, kelishiklarda turlanadi: (*kimnidir*), egalik qo`shimchasini oladi (*allakimim*). **Birov** so`zi ham *kimdir, allakim* so`zlariga sinonim bo`lgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi. **Birov** so`zi, shuningdek, *har kim, hech kim, bitta* degan so`zlarga ham sinonim bo`lishi mumkin.

3-§. Boshqa turkumga oid so`zlarning olmoshga ko`chishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so`zlar olmoshga ko`chadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish*; 2) sifat: *ba`zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*; 3) son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so`zleri bilan keladigan ko`pgina so`zlar olmoshga ko`chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har erda*.

Eski o`zbek tilida **men** olmoshi o`rnida **kamina** (hozir ham ishlataladi), **faqir, kaminalar, kamtarin, qulingiz, bandai ojizingiz** kabi so`zlar qo`llangan (25; 28).

4-§. Olmoshlarning tuzilish turlari

1. **Sodda olmoshlar** barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o`z, kim, hamma, hech, birov*.
2. **Qo`shma olmoshlar** faqat ko`rsatish, belgilash, bo`lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima*.
3. **Juft olmoshlar** faqat kishilik, ko`rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu*.
4. **Takroriy olmoshlar** ko`rsatish, o`zlik, so`roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o`z-o`zini, kim-kim, barcha-barchasi*.

Olmosh tahlili namunasi	
1. So`rog`i.	4. Tuzilish turi.
2. Qaysi turkum o`rnida kelganligi.	5. Gapdagи sintaktik vazifikasi
3. Ma`no guruhi.	

Takrorlash uchun savollar

1. Olmosh deb qanday so`zlarga aytildi?
2. Olmoshlarning grammatic xususiyatlarini sanab ko`rsating.
3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
4. O`zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ko`rsatish olmoshlari va ularning ususiyatlari haqida gapiring.
6. So`roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
8. Bo`lishsizlik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
9. Guman olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
10. Olmoshlar bilan boqliq tovush o`zgarishlari haqida gapiring.
11. Qaysi turkumga oid so`zlar olmoshlarga ko`chadi?
12. Olmoshlarning tuzilish turlari haqida gapiring.
13. Turlanadigan olmoshlar haqida gapiring.
14. Turlanmaydigan olmoshlarga misollar keltiring.
15. Omonim xarakterdagi olmoshlar haqida gapiring.
16. O`zaro sinonim bo`la oladigan olmoshlar haqida gapiring.
17. **-lar** qo`shimchasi qo`shilganda kuchaytirish ma`nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
18. **-lar** qo`shimchasi qo`shilganda kinoya ma`nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
19. **-lar** qo`shimchasi qo`shilganda hurmat ma`nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring.
20. Qaysi olmoshlar daraja ko`rsatkichlarini olishi mumkin?

FE'L 1 -§. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlari

Shaxs va predmetning ish-harakati va holatini ifodalaydigan mustaqil so`zlar **fe'l** deyiladi. Masalan: *Men olimlarga, ilohiyotchilarga, tarixshunoslarga hurmat-ehtirom ko`rsatdim va e'zozladim.* (*A.Temur*). *Mehnat insonda ijodiy kuch uyg`otadi* (*Tafakkur jurnali*).

Grammatikada harakat va holat tushunchasi juda keng. Fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, o`zgarishi kabi jarayonlarni ham harakat tarzida anglatadi: *o`rik gulladi, yaproqlar sarg`aydi, bola u xlabelapti* kabi.

Fe'llarning barchasi bir umumiy *nima kilmoq?* degan so`roqqa javob bo'ladi.

Fe'l o`ziga xos morfologik belgilarga ega, ya'ni:

1) ish-harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe`ldagi o'timli va o'timsizlik ma'nosini hosil qiladi: *o`qimoq, yozmoq* - o'timli fe'l; *o`tirmoq, chiniqmoq* - o'timsiz fe'l;

2) ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkorni anglashilishiga ko`ra fe'llar bo`lishli va bo`lishsizlik ma'nosini bildiradi: *ayt* - bo`lishli, *aytma* - bo`lishsiz; *bilgan* - bo`lishli, *bilgani yo`q* - bo`lishsiz fe'l;

3) ish-harakat bilan uning bajaruvchisi, obyekt va subyektlar orasidagi munosabat nisbat ma'nosini hosil qiladi: *kiydi* - aniq nisbat, *kiyindi* - o`zlik nisbat, *kiyildi* - majhullik nisbat, *kiyirdi* - orttirma nisbat;

4) ish-harakatning vogelikka munosabati mayl ma'nosida aks etadi: *bordi, bormoqda, bormoqchi* - aniqlik mayli; *boray, borgin, borsin* - buyruq-istak mayli; *borsa* - shart mayli;

5) ish-harakatning nutq so`zlanib turgan payt bilan munosabati fe`ldagi zamon ma'nosini hosil qiladi: *o`rgandim* - o`tgan zamon, *o`rganayapman* - hozirgi zamon, *o`rganmoqchiman* - kelasi zamon;

6) ish-harakatning biror grammatik shaxs (birlik yoki ko`plikda) tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligi fe`ldagi shaxs-son ma'nosida aks etadi. Fe'l shaxs-son qo`shimchalari bilan tuslanadi: *qiziqdik, qiziqdining, qiziqlik, qiziqdik, qiziqdiningiz, qiziqdilar*.

Demak, fe'l o'timli-o'timsizlik, bo`lishli-bo`lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalash kabi o`ziga xos morfologik belgilarga ega.

Shu bilan birga fe'lning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi o`ziga xos vazifadagi shakllari ham mavjud (*ishongan odam* - sifatdosh; *ishonib, ishongach* - ravishdosh; *ishonish, ishonmoq kerak* - harakat nomi). Fe'lning bu vazifadagi shakllari gapda ma'lum bir gap bo`lagi vazifasini bajarishga moslashgan bo`ladi.

Fe'l o`ziga xos maxsus so`z yasalish tizimiga ham ega: *bahola, ulg`ay, tinchi, suvsira* - affiksatsiya usul bilan yasalgan fe'llar; *xursand bo`lmoq, javob bermoq, sotib olmoq* - kompozitsiya usuli bilan yasalgan yasama fe'llar.

Fe'llarda modal shakl yasalishi ham mavjud, u o`z ichida turli xil qo`shimcha ma'nolarni aks ettiradi: *kulimsira* - kuchsizlik, *turtkila* - davomiylik, *yozib bo`ldi* - tugallanganlik kabi.

Fe'l o`ziga xos sintaktik vazifalarga ham ega:

1) sof fe'l gapda, asosan, kesim vazifasini bajarib keladi. Masalan: *Insonni mehnat, odobni yaxshi fazilat bezaydi* (*Hikmatlar xazinasi*);

2) fe'lning vazifadosh shakllari sifatdosh, sifatlovchi-aniqlovchi, ravishdosh, hol, harakat nomi, ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to`ldiruvchi kabi gap bo`laklari vazifasini ham bajarib keladi. Masalan: *O`zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r* (*Hadis namunalari*). *Dunyoda eng yomoni faqat o`zini bilib o`zgani unutib yashashdir* (*I.Karimov*). *Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harkatlaridandir* (*Pedagogika tarixi*).

2 -§. O'timli va o'timsiz fe'llar

O'timli va o'timsiz fe'llar fe'l anglatgan harakatning predmetga munosabati orqali belgilanadi.

Fe`ldagi anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so`z bilan) ifodlangan predmetga o`tganligini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi.

Masalan: *Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non-tuzini eganmiz* (*I.Karimov*).

Bu gap *ichganmiz*, *yeganmiz* fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigi shaklidagi *suvin*, *non-tuzini* so'zleri bilan ifodalangan predmetga o'tadi. Demak, o'timli fe'llar tushum kelishigi shaklidagi ot bilan bog`lanadi.

Ba'zan fe'l anglatgan harakat yoki holat predmetning bir qismiga o'tishi yoki harakat o'tgan predmet shu harakatning bajarilishida vosita bo`lishi mumkin. Bunday holda o'timli fe'llar jo'nalish va chiqish kelishigi shaklida qo'llangan otlar bilan ham birikadi. Qiyoslang: *nonni oling – nondan oling, otni mining – otga mining*.

Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'l deyiladi. Masalan: *Ko`ngil quvonchi uning kuchsizligidan dalolat beradi* (*Tafakkur gulshani*). *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi* (*U.Mahkamov*).

Bu gaplardagi *dalolat beradi*, *qutqaradi* fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigida kelgan otni boshqarmagan, boshqa predmetga o'tmagan, balki harakat bajaruvchining o'zida qolgan.

Fe'ldagi o'timli va o'timsizlik ma'nosini ikki xil usul bilan ifodalanadi:

1. Leksik-semantik usul. Bunda fe'llar o'z leksik ma'nosiga ko`ra biror affiks olmagan, hech qanday shakl o`zgarishisiz (o`zak-negiz holida) o'timli yoki o'timsiz bo`ladi. Masalan: *ol*, *och*, *ko'r*, *yoz*, *ich*, *qo'y*, *so'ra*, *ber* kabilari o'timli; *bor*, *kel*, *o'tir*, *uxla*, *yot*, *yur* kabilari o'timsiz fe'llardir.

2. Morfologik usul. Bunda fe'l o'zak-negiziga qo'shiladigan fe'l nisbatini yasaydigan qo'shimchalar (o'zlik, majhullik, orttirma nisbat qo'shimchalari) o'timli va o'timsiz fe'llarni belgilab beradi. Fe'l o'zak-negiziga nisbat qo'shimchalari qo'shilganda, fe'lning o'timli-o'timsizligi quyidagicha yuz beradi:

1) o'zlik va majhullik nisbat qo'shimchalari o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: *so`radi* - o'timli fe'l, *so`raldi* - o'timsiz fe'l; *ko`rdi* - o'timli fe'l, *ko`rindi* - o'timsiz fe'l. *So`radi* o'timli fe'liga qo'shilgan -*l* majhullik nisbat qo'shimchasi, *ko`rdi* o'timli fe'lga qo'shilgan -*in* o'zlik nisbat qo'shimchasi *so`radi*, *ko`rdi* fe'llarini o'timsiz fe'llarga aylantirdi;

2) orttirma nisbat qo'shimchalari, aksincha, o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: *kuldi* - o'timsiz fe'l, *kuldirdi* - o'timli fe'l; *yurdi* - o'timsiz fe'l, *yurgizdi* - o'timli fe'l; *uxladi* - o'timsiz fe'l, *uxlatdi* - o'timli fe'l.

3) orttirma nisbat qo'shimchalari orqali o'timli fe'lidan yana o'timli fe'l hosil qilinadi: *esladi* - o'timli fe'l, *eslatdi* - o'timli fe'l; *ichdi* - o'timli fe'l, *ichirdi* - o'timli fe'l.

Qo'shma fe'llarda o'timli va o'timsizlik ma'nosini yyetakchi qismiga qarab belgilanadi. Masalan: *aytib berdi*, *ko`ra boshladi*, *yozib chiqdi* qo'shma fe'llarda *aytib*, *ko`ra*, *yozib* yetaksi qismning o'timli ekanligi shu fe'llarning o'timli ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, qo'shma fe'llarning yyetakchi qismi o'timsiz fe'lidan bo'lsa, butun qo'shma fe'l o'timsiz bo'ladi: *o'sa boshladi*, *quvonib ketdi*, *kulib qo'ydi* kabi.

3 -§. Bo`lishli va bo`lishsiz fe'llar

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchasi fe'ldagi bo`lishli va bo`lishsizlik ma'nosini anglatadi.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe'llar bo`lishli fe'l deyiladi. Fe'ldagi bo`lishlilik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich yo'q: *o'qi*, *eslat*, *qolgan*, *borsa*, *aytib bergan*, *o`qib chiqdi*, *hurmat qil* kabi. Masalan: *Ona so`zining o`zi har yurakka jarangli sado beradi* (*Hikmatlar guldastasi*). *O'z burchini bajarishdan mammun odamligina erkin yashaydi* (*Tafakkur gulshani*).

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi inkorni anglatuvchi fe'llar bo`lishsiz fe'l deyiladi. Bo`lishli fe'l bo`lishsiz fe'lni hosil qilish uchun asos bo'ladi. Fe'lning bo`lishsiz shakli quyidagicha yasaladi:

1. Fe'l negiziga *-ma* (bu affiks urg`u olmaydi), *-may*, *-mas*, *-masdan*, *-maslik* affikslarini qo'shish: *ko`rmadi*, *kelmagach*, *bajarmadi*, *yoqmas*, *avaylamasdan*, *o`smaslik* kabi.

Ko`rinadiki *-ma* elementi *-may*, *-mas*, *-masdan*, *maslik* affikslarining tarkibida uchraydi. Bu affikslar sof fe'lga va fe'l shakllariga (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) qo'shilib inkor ma'nosini ifodalashda asosiy morfologik ko`rsatkich sanaladi. Masalan: *G`ulomjon darpardasi yonidan qalin qorni g`irchillatib o'tgan dupurni ham eshitmadi*. (*M.Ismoilii*). *Tog` arqon bilan eshilmaydi* (*M.Qoshg`ariy*). *Mehnat qilmagan rohat ko`rmas* (*O`zbek xalq maqoli*). *Uydagilarga aytmasdan do`sti bilan Qudratnikiga ketibdi*. *Kasal tabib kasalni davolay olmas* (*Abu Ali ibn Sino*). *Bu voqeani ko`rmaslik uchun bolalar ko`zlarini chirt yumdilar*.

-ma, *-may* affikslari qo'shma fe'llarga quyidagicha qo'shiladi:

a) asosiy qismga yetakchi fe'lga qo'shiladi: *eshitmay qoldi*, *uxlamay chiqdi*, *ko`rmay qoldi* kabi;

b) ko`makchi fe'lga qo'shiladi: *sotib olmadi*, *javob bermadi*, *o'qib chiqmadi* kabi;

d) qo'shma fe'lning har ikala qismiga qo'shiladi: *aytmay qo'ymaydi*, *bormay qolmaydi*. Bunday holda bo`lishsiz shakl orqali bo`lishlilik ma'nosini anglashiladi, ya'ni *aytadi*, *boradi* kabi.

Masalan: *Buvijonimning aytishicha, astoydil yaxshi niyat qilgan odam murodi maqsadiga etmasdan qolmas ekan* (*X.To`xtaboev*).

Eslatma: ravishdoshning *-gani* (*-kani*, *-qani*) affikslari bilan yasalgan shakliga bo`lishsizlik ifodalovchi affikslar qo'shilmaydi.

2. Fe'lning ayrim sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllaridan so`ng *emas*, yo`q so`zlarini kiritish bilan bo`lishsiz fe'l hosil qilinadi: *hayratlangan emas*, *boradigan emas*, *egib emas*, *tinchigani yo`q*, *ishonish emas* kabi. Masalan: *Lekin ularning nima o'qiganini ko`rgan ham, qanday o`qiganini eshitgan ham emas* (*P.Tursun*).

3. *Na* inkor yuklamasini uyushiq bo`lak sifatida qo`llangan bo`lishi fe'lidan oldin keltirish bilan bo`lishsiz fe'l hosil qilinadi. Masalan: *Keksa cholning kesatiq gapidan u dong qotib qoldi: na o`tirdi, na ketdi* (*A.Qodiriy*).

4. Ba'zan ohang va fe'lga yuklamani (*-mi*, *-a*, *-ya*) qo'shish hamda fe'lni takrorlash orqali bo`lishsizlik ma'nosini ifodalanadi: *oladi-ya oladi* (*olmaydi*); *aytasan-a*, *aytasan* (*aytmaysan*).

Masalan: *Bolasi tushmagur-ey*, *chumchuqning uyasini buzib rohat toparmidi?* (*G`ayratiy*). «*Katta bo`lsam, akamga o`xshab, albatta komandir bo`laman*», - dedi Sobir. *Bo`lasan-a*, *bo`lasan*. *Komandir bo`lishga yurak kerak...* (*H.Nazir*).

4 -§. Fe'l nisbatlari

Fe'l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (subyekti) va predmeti (obyekti) yoki bir necha bajaruvchi (subyektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo`ladi. Ma'lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: *Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi* (*P.Qodirov*).

Boshqa bir shaklda harakatning subyekti (ega) ham, obyekti ham bir shaxsning (predmetning) o`zi bo`ladi. Masalan: *Feruza hovliga tushib*, *shabnamda qiyg`os ochilgan atirgullar ustiga egildi*. (*H.G`ulom*).

Yana bir ko`rinishda harakatning bajaruvchisi sub'ekt emas, ob'ekt sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo`ladi. Masalan: *Tashqarida so`riga gilam to`shaldi*, *ko`rpacha solindi*. *Dasturxon yoyildi*, *choy damlandi* (*Tog`ay Murod*).

Shuningdek, harakat bir necha sub'ekt tomonidan birqalikda bajarilishi mumkin. Masalan: *Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib kelishdi* (*Tog`ay Murod*).

Yana bir nisbat shaklida esa harakat grammatick subyekt (ega)ning boshqa bir subyekt va obyekt ta'siri bilan bajariladi. Masalan: *Mo'minning ovozidan qat'iyat, buyruq Laylini bo'shashtirdi* (S.Z.).

Shunga ko'ra fe'llarda besh xil nisbat ko'rinishi mayjud: 1. Aniq nisbat. 2. O'zlik nisbat. 3. Majhullik nisbati. 4. Birgalik nisbati. 5. Orttirma nisbat.

Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi qo'shimchalar yordami bilan yasaladi. Bu qo'shimchalar fe'lning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, balki unga qo'shimcha ma'no qo'shadi, ya'ni bu qo'shimchalar harakatning bajaruvchisi (subyekti) va predmeti (obyekti) ni ko`rsatib, gap qurilishining qanday bo'lishini bildirib turadi. Masalan: *yozdi* – subyekt (ega)ning o'zi bajaradigan harakat, *yozildi* – predmet (obyekti) tomonidan bajarilib, subyekti noma'lum harakat, *yozishdi* – bir necha subyektlar bajaradigan harakat, *yozdirdi* – subyektning obyektga ta'siri bilan bajariladigan harakat.

1. Aniq nisbat

Bu shakldagi fe'lida harakatning bajaruvchisi grammatick jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo'ladi. To`ldiruvchi esa harakatning obyekti bo'ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. Masalan: *Navoiy shiringina yasog'liq uyda tanho ishlar edi* (O.). Ushbu gapda *ishlar edi* harakatining bajaruvchisi (subyekti) Navoiy bo`lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning obyekti esa *uyda holi* orqali ifodalangan.

Bunday shaklda maxsus nisbat ko`rsatkichi yo'q. Bu nisbat ma'nosи fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilishi uchun asos bo`la oladi (qiyoslang: *o`qidi, o`qildi, o`qishdi, o`qitdi* kabi).

2. O'zlik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lida harakatning subyekti bilan obyekti bir shaxsnинг o'zi bo'ladi. Masalan: *Men har tong Toshkentning go`zilligi, fayzi bilan zavqlanaman* (U.Mahkamov) gapida *zavqlanaman* fe'l tarkibida kelgan *-lan* qo'shimchasi harakatning subyekti bilan obyekti *men shaxsi* ekanligini ko`rsatib turibdi.

O'zlik nisbati quyidagi affikslar bilan yasaladi:

- fe'l negiziga unlidan so`ng *-n*, undoshdan so`ng *-in* qo'shish bilan: *maqta-n, o'ra-n, yuv-in, kiy-in* kabi;
 - fe'l negiziga unlidan so`ng *-l*, undoshdan so`ng *-il* qo'shish bilan: *surka-l, shosh-il* kabi;
 - lan* (-la+-n dan tuzilgan qo'shma affiks) affiksini qo'shish bilan: *zavq-lan, tinch-lan, shod-lan* kabi;
 - ish* qo'shimchasini qo'shish bilan: *ker-ish* kabi.
- So`ra, bor, yugur* kabi fe'l negizlaridan (o'timli, ba'zi bir o'timsiz) o'zlik nisbati yasalmaydi.

3. Majhul nisbat

Bu shakldagi fe'lida harakat bajaruvchisi subyekt (ega) emas, obyekt (to`ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi.

Masalan: *Ot-aravalor birin-ketin saroyga olib kirildi* (H.G.) gapida *olib kirildi* harakatining bajaruvchi subyekti noma'lum, *ot-aravalor* so`zi ega vazifasida kelsa-da, obyekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda **passiv konstruktsiya** deb yuritiladi.

Majhul nisbat quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng -l, undoshdan so`ng -il affiksini qo`shish bilan: *yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di)* kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so`ng -n, undoshdan so`ng -in affiksini qo`shish bilan: *bastala-n(-di), ol-in(-di)* kabi.

Majhul nisbatdagi fe'lni hosil qilishda -l (-il) affiksi ko`proq qo`llanadi. Ba'zan ayni bir fe'l negizidan -l (-il), -n (-in) affikslari bilan ham o`zlik, ham majhul nisbat yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe'l negizining o`zlik yoki majhul nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: *Zulfiya darsga tayyorlandi. Muolajaga tibbiy uskunalar tayyorlandi.*

4. Birgalik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lida ish-harakat bir necha subyekt tomonidan birgalikda bajariladi. Masalan: *Ayollar chaqaloqqa ko`z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini bitirishgach, bolani beshikka belashdi* (*O'.Hoshimov*) gapida *bitirishgach, belashdi* fe'llari anglatgan harakatning bir necha subyekt, ya`ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

Birgalik nisbatdagi fe'l quyidagicha yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so`ng -sh, undoshdan so`ng -ish affiksini qo`shish bilan: *sana-sh(di), yugur-ish(di)* kabi;

b) so`z o`zagiga -lash (-la+sh qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: *yordam-lash(di), bahs-lash(di)* kabi.

5. Orttirma nisbat

Bu nisbat shaklida harakat grammatik subyekt (ega)ning boshqa bir subyekt yoki obyektga ta'siri, tazyiqi bilan bajariladi.

Masalan: *Kampir nevarasiga xatni o'qitdi* gapida ikkita subyekt mavjud bo`lib, asosiy subyekt vositali to`ldiruvchi (*nevarasiga*), ikkinchi darajali subyekt esa ega (*kampir*) vazifasida qo`llangan bo`lib, *o'qitdi* harakati subyektning subyektga ta'siri natijasida bajarilgan.

Shuningdek, orttirma nisbatdagi fe'lida faqat bir subyekt mavjud bo`ladi. Bunday holda harakat obyektga (to`ldiruvchiga) o`tadi. Masalan: *U kitob keltirdi* kabi.

Orttirma nisbat fe'l negiziga quyidagi affikslarni qo`shish bilan yasaladi:

1) fe'l negiziga -t affiksini qo`shish bilan: *qisqart, boyit* kabi;

2) fe'l negiziga -tir (-dir) affikslarini qo`shish bilan: *keltir, chaqirtir, kuldir, buzdir* kabi;

3) *sh, ch, t* undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -ir affiksini qo`shish bilan: *shoshir, ichir, botir* kabi;

4) oxiri undosh bilan tugagan bir bo`g`inli fe'l negizlariga -ar affiksini qo`shish bilan: *chiqar, qaytar* kabi;

5) oxiri undosh bilan tugagan fe'l negizlariga -g`iz, -giz, -qaz, -g`az, -kaz, -qiz, -kiz affikslarini qo`shish bilan: *turg`iz, egiz, o`tkaz, qutqaz, yutqiz, etkiz* kabi;

6) oxiri *m, q* undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -iz affiksini qo`shish bilan: *tomiz, oqiz* kabi;

7) fe'l negiziga -sat (-sa+-t qo`shma affiksi) affiksini qo`shish bilan: *ko`rsat* (faqat *ko`r* fe'l negiziga qo`shiladi) kabi.

5 -§. Fe'lning vazifadosh shakllari

Fe'lning gapda ma'lum bir gap bo`lagi vazifasini bajarishga mos bo`lgan shakli uning funktsional⁷⁵ formasi deyiladi. Fe'lning funktsional formalari gapda kesim, hol, aniqlovchi, ega va to`ldiruvchi vazifalarida keladi.

O`zbek tilida fe'lning funktsional formalariga sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi kiradi.

1. Sof fe'l

Fe'lning tuslangan formada qo`llanib, kesim vazifasini bajarishga mos shakli **sof fe'l** deb ataladi. Sof fe'l har uch zamon shaklida qo`llangan anqlik, buyruq-istik, shart mayli formasidagi fe'llarni o`z ichiga oladi. Masalan: *To`g`ri so`z odam butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini tarqatadi* (U.Mahkamov). *Kimki oz bilsa, ozga o`rgatadi.* (Tafakkur gulshani). *Aqlni beaqldan o`rgan* (Maqol).

2. Ravishdosh

Harakatning belgisini (harakat tarzidagi belgi) anglatadigan, gapda ko`pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo`lgan fe'l shakli ravishdosh deyiladi. Masalan: *Ilmu hunarni Xitoydan bo`lsa ham borib o`rganinglar* ("Pedagogika tarixi" dan). *Choyga fotiha o`qilgach, hamma o`rnidan turdi* (S.Ahmad). Bu misollarning birinchisida *borib* ravishdoshi hol vazifasini, ikkinchi misoldagi *o`qilgach* ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

- 1) fe'l o`zak-negiziga unlidan so`ng -b, undoshdan so`ng -ib affiksini qo`shish bilan: *o`qib, borib*;
- 2) fe'l o`zak-negiziga unlidan so`ng -y, undashdan so`ng -a affiksini qo`shish bilan: *o`qiy-o`qiy, bora-bora*.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda, asosan, takroriy holda qo`llanadi; -b (-ib), -a, -y affikslari bilan yasalgan ravishdosh qo`shma fe'l (sof fe'l) tarkibida yetakchi qism vazifasida ham keladi: *yoza boshladi, o`qib chiqdi* kabi.

- 3) -gani (-kani, -qani) affikslari bilan: *o`qigani, aytgani* kabi;
- 4) -gach (-kach, -qach) affikslari bilan: *o`qigach, borgach* kabi;
- 5) -guncha (-kuncha, -quncha) affikslari bilan: *o`qiguncha, borguncha* kabi.

Fe'l o`zak-negizi k yoki g undoshi bilan tugasa, -kani, -kach, -kuncha tarzida, **q** yoki **g** undoshi bilan tugasa, -qani, -qach, -quncha tarzida qo`shiladi: *ekkani, ekkach, ekkani, ekkuncha; chiqqani, chiqqach, chiqquncha* kabi.

Fe'lning ravishdosh shakli fe'l singari harakat tushunchasini anglatib, fe'lga xos quyidagi morfologik belgilarga ega, ya`ni:

- 1) o`timli-o`timsizlik ma`nosini ifodalaydi: *eslab* - o`timli, *kulib* - o`timsiz ravishdosh;
- 2) bo`lishli-bo`lishsizlik ma`nosiga ega: *ko`rib* - bo`lishli, *ko`rmay*, *ko`rmasdan* - bo`lishsiz ravishdosh; *kelguncha* - bo`lishli, *kelmaguncha* - bo`lishsiz ravishdosh; *o`tgach* - bo`lishli, *o`tmagach* - bo`lishsiz ravishdosh.

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdoshning bo`lishsizlik shakli yo`q (-ma bo`lishsizlik qo`shimchasini olmaydi).

- 3) nisbat ma`nosini anglatadi: *yasab* - aniq nisbat, *yananib* - o`zlik nisbat, *yasalib* - majhullik nisbat, *yasashib* - birgalik nisbat, *yasatib* - orttirma nisbat;

⁷⁵ Funktsiya – lat. function – «faoliyat», «vazifa».

4) ravishdoshlar tuslovchi qo`shimchalarni olish-olmaslik xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: tuslanadigan ravishdoshlar va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga fe'l negiziga *-b* (*-ib*), *-a*, *-y* affikslarni qo`shish bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslangan holda sof fe'lga aylanadi. Masalan: *Kechaning tili qorasida yulduzlar yorqin yonadi* (*O*). *Oyoq ostimizda munchoq-munchoq oq, sariq gullar sochilib yotibdi* (*B.Jahongirov*).

Tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda ham qo`llana oladi. Masalan: *Vohid ho'l sochlarini taray-taray boqqa sho'ng`idi* (*O.YOqubov*). *Mashina silkinib oldinga intildi* (*S.Ahmad*).

Ravishdoshlarning *-gach* (*-kach, -qach*), *-gani* (*-kani, -qani*), *guncha* (*-kuncha, -quncha*) affikslari yordamida hosil qilingan shakllari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi: *etgach, ekkach, chiqqach; etgani, ekkani, chiqqani; etguncha, ekkuncha, chiqquncha* kabi. Masalan: *Sultonali tong otguncha ikki go`dakning qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirib chiqqan* (*A.Qodiriy*). *Uzun, qorong`i yo`lakka chiqqach, Unsin to`xtadi* (*O*). *Siz bilan maslahatlashgani keldim* (*B.Rahmonov*).

d) zamon ma'nosini ifodalaydi. Ravishdoshning zamon ma'nosini ifodalashi nisbiy zamon sanaladi, chunki ravishdoshning zamoni shu gapdagi tuslangan fe'lning zamoniga nisbatan belgilanadi.

Ravishdoshlar zamon ma'nosiga ko`ra uchgaga bo`linadi: o'tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi, kelasi zamon ravishdoshi.

O'tgan zamon ravishdoshlari fe'l o`zak-negiziga *-b* (*-ib*), *-gach* (*-kach, -qach*) affikslarini qo`shish bilan hosil qilinadi: *qolib, o`qib, qolgach, o`qigach* kabi.

-b (*-ib*) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakatdan ilgari bo`lgan harakatni yoki asosiy harakatdan oldin boshlangandek ko`rinsa ham ammo u bilan bir vaqtda yuz bergen harakatni anglatadi. Masalan: *Zulfiya javob so`rab keldi gapida so`rab ravishdoshi asosiy harakatdan (keldi harakatidan) oldin ro`y bergen harakatni bildirsa, U kulib gapirmoqda gapida esa kulib ravishdoshi asosiy harakat (gapirmoqda harakati) bilan bir vaqtda yuz beradigan harakatni anglatadi.*

-b (*-ib*) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslanganda, o'tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi.

Fe'l negiziga *-gach* (*-kach, -qach*) affiksini qo`shish bilan yasalgan ravishdosh tuslanmaydigan ravishdosh bo`lib, u tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan ilgari uning bajarilishi (yoki bajarilmashlik) sababi yoki paytini ko`rsatadigan harakatni anglatadi. Masalan: *Uch-to`rt kun mehmondorchilikda yurishgach, maktabdan qaytdilar* (*P.Tursun*). *Zorlanishdan, ichni eyishdan boshqa hech nima qo`lidan kelmagach, nima qilsin* (*M. Ismoilov*).

Hozirgi zamon ravishdoshi fe'l o`zak-negiziga *-a*, *-y* affikslarini qo`shish bilan hosil qilinadi: *bora-bora, ishlay-ishlay* kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda ro`y beradigan harakatni anglatib, uning bajarilish holati, paytini ko`rsatadi. Masalan: *Toma-toma ko`l bo`lur, hech tommasa cho`l bo`lur* (*Maqol*). *Tog` oralig`idagi qalin qor eriyery odam bemalol kira oladigan g`or bo`lib qolibdi* (*S.Anorboyev*).

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda odatda, takroriy so`z shaklida qo`llanadi. Yakka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan tuslangan fe'l anglatgan harakatga tezlik bilan o`tilganlik ma'nosini hosil bo`ladi. Masalan: *Sultonmurod kela o`qishga kirishdi*.

Hozirgi zamon ravishdoshi tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini hosil qiladi. Masalan: *Sada tagidagi hovuzning suvida yaproqlar suzadi* (*S.Z.*).

Kelasi zamon ravishdoshlari fe'l negiziga *-gani* (*-kani, -qani*), *-guncha* (*-kuncha, -quncha*) affikslarini qo`shish bilan yasaladi: o`qigani, tinchguncha kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar tuslanmaydi. Fe'l negiziga *-gani* (*-kani*, *-qani*) qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan so`ng bajarilishi maqsad qilib olingen harakatni anglatadi. Masalan: *Men bugun yuragimni ochib gapirgani keldim* (U.).

Fe'l negiziga *-guncha* (*-kuncha*, *-quncha*) affiksini qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatning davom qilish vaqtining o'lchovi sifatidagi harakatni ifodalaydi. Masalan: *Yo'lchi so'zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong`ida yo`qoldi* (O.).

Shu bilan birga ravishdosh o'ziga xos sintaktik belgilarga ham ega, ya'ni:

- 1) gap tarkibida boshqa so`zlarni boshqarib kela oladi;
- 2) tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda hol va *-b* (*-ib*) affiksi bilan yasalgan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Gulnorning egnida kaltagina qora (lapis) kamzul yuvila-yuvila yupqalashgan* (O.). *Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kului* (M.Osim). *Kursi ustiga dasturxon yozilib*, meva-cheva to`la patnis qo'yildi (O.).

Shuningdek, tuslanadigan ravishdoshlar o`zlariga tobe bo`lgan so`zlar bilan sostavli hol sifatida, ravishdosh o`ram tarzida ajratilgan hol vazifasini ham bajaradi: *Bozor darvozasi yoniga kelishganida bir to`da odamni ko`rib to`xtab qolishdi* (O.Hoshimov). *Aprel oqshomlaridan birida Farida ikkovlari shahar aylanib yurib stadionga kirib qolishdi* (O.Hoshimov). *Keng, baland, serhasham chodirda oltin shamdonlarni qo'yib, Navoiy yaqin beklari bilan suhbatlashib o`tirardi* (O.).

3) tuslanmaydigan ravishdoshlar gapda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo`lak va ergash gapning kesimi vazifasini bajarib keladi: *Oradan uch oy o'tib hash-pash deguncha issiq kunlar etib keldi* (S.A.). *U oltinsoylıklarini kanal va buloq qazigani boshlab ketdi* (SH.R.). *Shartning nozik va qaltisligi ko`z oldiga kelgach, yuragi orqasiga tortib ketdi* (H.N.). *Asalxon karvon o'tib ketguncha, yo'l yoqasida qo'l siltab turdi* (H.G`).

-gani (*-kani*, *-qani*) affiksi bilan yasalgan ravishdosh gapda faqat hol vazifasini bajaradi.

3. Sifatdosh

Predmet belgisini harakat va holat vositasida bildiradigan, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajarishga mos bo`lgan fe'l shakli **sifatdosh** deb ataladi: *So`zlayotgan kishining o`ziga emas, so`ziga e'tibor qil* («Tafakkur gulshani»). *Ko`chaning ikki chetidagi turli mollar bilan savdo qiluvchi do`konlar joylashgan* (M.Qoriev) gaplaridagi *so`zlayotgan, savdo qiluvchi* sifatdoshlari *kishi, do`konlar* otlariga bog`lanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqlovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

- 1) fe'l o`zak-negiziga *-gan* (*-kan*, *-qan*) affikslarni qo'shish bilan: yuklagan, kechikkan, qiziqqan (fe'l negizi *k* yoki *g* bilan tugasa, *-kan*; *q* yoki *g`* bilan tugasa, *-qan* tarzida).

Bu affiks sifatdosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski o`zbek adabiy tilida *-gan* affiksining ekvivalenti *-mish*, *-dik* affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) fe'lning *-a*, *-y* affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga *-digan*, *-yotgan* affikslarini qo'shish bilan: *kelayotgan, o`qiyotgan, boradigan, ishlaydigan* kabi;

3) fe'l o`zak-negiziga *-r* (*-ar*) qo'shilishi bilan (unlidan so`ng *-r*, undoshdan so`ng *-ar*): *buklar, ko`kar* kabi;

4) fe'l o`zak-negiziga *-vchi* (*-uvchi*) qo'shilishi bilan (unlidan so`ng *-vchi*, undoshdan so`ng *-uvchi*): *boshlovchi, kutuvchi* kabi;

Eski adabiy tilda sifatdoshning bu turi *-guchi*, *-g`uchi* shaklida ham ishlatilgan: *aytguchi, kelguchi*. Bu shakl hozir ham she'riyatda uchraydi: *Kulimsirab turg`uchi toleing porloq* (G`G`).

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot so`z turkumiga ko`chish holati ham uchraydi: *o`quvchi, to`quvchi, yozuvchi* kabi.

5) fe'l negiziga *-ajak* qo'shilishi bilan: *kelajak, bo`lajak* kabi;

6) fe'l negiziga -gusi, -g`usi qo`shilishi bilan: *kelgusi*, *bo`lg`usi* kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. Shunga ko`ra sifatdosh fe'l sanaladi va fe'lga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga egadir, ya'ni:

1) o`timli-o`timsizlik ma'nosini ifodalaydi: *o`qigan*, *yozdirgan* - o`timli; *qolgan*, *qiziqtirgan* - o`timsiz sifatdosh;

2) bo`lishli-bo`lishsizlik ma'nosini ifodalaydi: *o`qigan* - bo`lishli, *o`qimagan* - bo`lishsiz; *aytar* - bo`lishli, *aytmas* - bo`lishsiz sifatdosh;

3) nisbat ma'nosini anglatadi: *yuvgan* - aniq nisbat, *yuvtingan* - o`zlik nisbat, *yuvilgan* - majhullik nisbat, *yuvishgan* - birgalik nisbat, *yuvdirgan* - orttirma nisbat;

4) sifatdoshlar tuslanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos bo`lgan fe'lni hosil qiladi (sof fe'lga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan* (O.).

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tuslanish xususiyatiga (-yotgan shaklidan tashqari) ega. -r (-ar) bilan yasalgan sifatdosh shakli esa hozirgi tilda ko`proq tuslangan shaklda ishlatalidi: *o`qirman*, *o`qirsan*, *o`qir*; *o`qirmiz*, *o`qirsiz*, *o`qir(lar)* kabi;

5) sifatdosh zamon ma'nosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon ma'nesi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamon nutq momentiga nisbatan emas, balki fe'l-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Ko`nglini kichik tutgan*, *kamtarlik yo`lidan yurgan kishi ulug`likka etadi* (YUsuf Xos Xojib) gapida tuslangan fe'l etadi hozirgi-kelasi zamonni ifodalasa, *ko`nglini kichik tutgan*, *kamtarlik yo`lidan yurgan* sifatdoshlari o`tgan zamonni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon ma'nosiga ko`ra uch guruhga bo`linadi: o`tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko`rsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon ko`rsatkichi ham sanaladi.

O`tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtadan ilgari bo`lgan harakat belgisini anglatadi. -gan (-kan, -qan) grammatik ko`rsatkichlari bilan yasalgan sifatdosh o`tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *Murabbiysi bo`lmagan odamni hayot o`zi tarbiyalab qo`yadi* («Otalar so`zi»).

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlashib turgan vaqtida davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi -yotgan, -vchi (-uvchi) affikslarini qo`shish bilan hosil bo`ladi: *Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo`lmog`i darkor* (I.A.Karimov). *Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi* (P.Tursun).

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtadan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi -r (-ar), -digan, -ajak affikslari bilan yasaladi: *Aytar so`zni ayt*, *aytmas so`zdan qayt* (Maqol). *Dehqon kelasi kuzda oladigan* hosilining g`amini shu kuzdan ko`radi (M.Ismoiliiy).

Sifatdosh fe'l shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga ko`radir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, ya'ni:

1) sifatdosh morfologik jihatdan o`zgarmaydi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini olmaydi);

2) sifatdosh otga bog`lanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: *Ko`klam quyoshidan ko`kargan qirlar*, *ko`m-ko`k* (H.Olimjon). *Xadichabegim yurt uchun qayg`uradigan bir malika ekanini ko`rsatishni sevardi* (Oybek).

3) sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bog`lanib kelgan ot qo`llanmaydi va sifatdosh ot kabi so`z o`zgartiruvchi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini) affikslarini oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: *Yo`lni bilgan qoqilmaydi* (Maqol). *Qishloq xo`jaligida bevosita ishlab chiqaruvchining o`zi xo`jayin*

bo`lishi shart (I.Karimov). Ko`p yurgandan so`rama, ko`p ko`rgandan so`ra (Maqol). Dushmanga nafrati bo`lmaganning Vatanga muhabbati bo`lmas (Maqol).

4. Harakat nomi

Ish-harakatning atamasi bo`lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo`lgan fe'l shakli **harakat nomi** deb ataladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliv ma'naviy harakatlaridandir. *Chavandoz bu gaplarni Ertoyevga aytishini ham, aytmaslikni ham bilmay turgandi (O.YOqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosiga xolisona yondashishning guvohi va shohidi bo`lmoqdamiz (Rahim Vohidov)* gaplaridagi intilish, aytishni, aytmaslikni, yondashishning fe'l shakllari harakatning atamasi (nomi) bo`lib, gapda otga xos ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan.

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l negiziga -sh (-ish) qo`shish bilan (unlidan so`ng -sh, undoshdan so`ng -ish): *o`qish, yozish, ishslash, chiqish* kabi;

Harakat nomining -sh (-ish) affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga ko`chishga moyil bo`ladi.

2) fe'l negiziga -v (-uv) qo`shish bilan (unlidan so`ng -v, undoshdan so`ng -uv): *ishlov, bag`ishlov, boruv, keluv* kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o`zbek tilida kam ishlatiladi;

3) fe'l negiziga -moq qo`shish bilan: *o`snoq, ulg`aymoq, o`rganmoq* kabi.

Harakat nomining -moq affiksi bilan yasalgan shakli fe'lga juda yaqin turadi, chunki har qanday fe'lning bosh shakli yo buyruq-istik mayli shaklida *esla, shosh* kabi; yoki *eslamoq, shoshmoq* kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. Shu jihatdan harakat nomi fe'lga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) o`timli-o`timsizlik ma'nosini ifodalaydi: *o`rganish, ko`rmoq* - o`timli harakat nomi; *yugurish, ishonmoq* - o`timsiz harakat nomi;

2) nisbat ma'nosiga ega: *yutmoq* - aniq nisbat, *yananmoq* - o`zlik nisbat, *baholanmoq* - majhullik nisbati, *qiziqtirmoq* - ortirma nisbat;

3) harakat nomining bo`lishsiz shakli faqat -maslik affiksi bilan yasaladi: *aytish* - bo`lishli harakat nomi, *aytmaslik* - bo`lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma'nosiga ega emas. Lekin ma'lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma'nosini aks etadi: *Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e'tibor bermoq lozim (O.Karimova)*.

5) boshqa fe'l shakllari singari harakat nomi boshqarish xususiyatiga ega.

Shuningdek, ish-harakatning nomini bildirish jihatdan harakat nomi otga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga ham ega, ya'ni:

1) harakat nomi son, egalik va kelishik affikslarini oladi;

2) harakat nomi ot singari ega, qaratqich aniqlovchi, to`ldiruvchi ko`makchili shaklda hol va kesim vazifalarini bajaradi: *Zumradning tikishi* - go`zal, *ipakni turlashi ham mohirona (O.). Bilim va tushunishga intil kunu tun (YUsuf Xos Xojib). Rais Jo`raboev bilan jiddiy tortishuvdan so`ng* juda qattiq asabiylashdi (SH.R.). *O`zini olim, fozilman deb maqtanish, shu bilan g`ururlanish jaholatning bir ko`rinishidir* («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

6 -§. Fe'llarning tuslanishi(shaxs-son kategoriyasi)

Ish-harakat ma'lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shaxs yoki predmet) bo`lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatic son (birlik yoki ko`plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe'llardagi bunday grammatic shaxs va son ma'nosi ma'lum bir grammatic ko`rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o`qidim, o`qisam, o`qisang, o`qiyapman, o`qibman, o`qiy fe'llari tarkibidagi *-m*, *-man*, *-y* qo`shimchalari ish-harakatning I shaxs so`zlovchi, ya`ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko`rsatsa; *o`qidik*, *o`qisak*, *o`qiyapmiz*, *o`qibmiz*, *o`qiylik* fe'llari tarkibidagi *-k*, *-miz*, *-ylik* affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko`p so`zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o`z ichiga oladi. Shuning uchun ham bunday affikslar **shaxs-son affikslari** deb yuritiladi. Fe'llarning shaxs-son affikslari bilan o`zgarishi esa tuslanish deyiladi. Shaxs-son affikslari tilshunoslikda **tuslovchi affikslar** deb ham yuritiladi.

O`zbek tilida tuslovchi affikslar fe'l shakllariga turlicha ko`rinishda qo`shiladi. Shu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo`linadi.

1. Birinchi guruh tuslovchilar

Bu guruhga mansub tuslovchilar aniqlik va shart-istik maylidagi *-di*, *-sa* qo`shimchalarini olgan sof fe'l negizidan so`ng va edi to`liqsiz fe'liga qo`shiladi: keldi-m, keldi-n, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe'llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozdim</i> , <i>yozsam</i> , <i>yozgan edim</i>	<i>zdiķ</i> , <i>yozsak</i> , <i>yozgan edik</i>
II	<i>yozding</i> , <i>yozsang</i> , <i>yozgan eding</i>	<i>yozdingiz</i> , <i>yozsangiz</i> , <i>yozgan edingiz</i>
III	<i>yozdi</i> , <i>yozsa</i> , <i>yozgan edi</i>	<i>yozdi(-lar)</i> , <i>yozsa(-lar)</i> , <i>yozgan edi(-lar)</i>

2. Ikkinci guruh tuslovchilar

Bu affikslar *-b(-ib)*, *-a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan (*-yotgan* qo`shimchasidan tashqari), shuningdek, *-yap*, *-moqda*, *-yotib*, *-moqchi* bilan shakllangan fe'l negizidan so`ng qo`shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko`rinishda bo`ladi, ya`ni birinchi xil ko`rinishda *-b(-ib)*, *-a(-y)* qo`shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda *-yap*, *-yotib* bilan shakllangan fe'llar III shaxs birlikda *-di* (-ti), ko`plikda *-di(lar)*, *-ti(lar)* shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinci xil ko`rinishda esa fe'lning sifatdosh shakllariga (*-gan*, *-r(-ar)*, *-digan*, *-vchi(-uvchi* bilan hosil qilingan shakllariga), *-moqda*, *-moqchi*, *-yotir* bilan shakllangan fe'l negizlari, shuningdek, fe'llar ekan, emish to`liqsiz fe'llari bilan birga qo`llansa, III shaxsda shaxs ko`rsatkichi shakllanmaydi (nol ko`rsatkichli shaklda keladi).

Fe'llarning ikkinchi guruh (A.B ko`rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha: «A» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozib-man</i> , <i>yozayotib-man</i> , <i>yoza-man</i> <i>yozyap-man</i>	<i>yozib-miz</i> , <i>yozayotib-miz</i> , <i>yoza-miz</i> , <i>yozyap -miz</i>
II	<i>yozib-san</i> , <i>yozayotib-san</i> , <i>yoza-san</i> , <i>yozyap -san</i>	<i>yozib-siz</i> , <i>yozayotib-siz</i> , <i>yoza-siz</i> , <i>yozyap -siz</i>

III	<i>yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap -ti</i>	<i>yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar</i>
-----	--	---

«B» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man</i>	<i>yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz</i>
II	<i>yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san</i>	<i>yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz</i>
III	<i>yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi</i>	<i>yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar</i>

3. Uchinchi guruh tuslovchilar

Bular buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so`ng qo`shiladi.

Fe'llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozay, yozayin, o`qiy, o`qiyin</i>	<i>yozaylik, o`qiylik</i>
II	<i>yoz, yozgin, o`qi, o`qigin</i>	<i>yozingiz, o`qingiz,</i>
III	<i>yozsin, o`qisin</i>	<i>yozsinlar, o`qisinlar,</i>

7 -§. Fe'l zamonlari

Ish-harakatning voqe bo`lishi (yoki bo`lmasligi) mantiqan zamon bilan bog`liq bo`ladi. Fe'llardagi zamon nutq so`zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya`ni ish-harakat nutq so`zlanib turgan paytdan oldin, nutq so`zlanib turgan paytda, nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. Shunga ko`ra, fe'l uch zamon ko`rinishiga ega: 1. O`tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. Fe'llarda zamon ma'nosini fe'l tarkibida qo`llangan grammatik ko`rsatkichlar orqali belgilanadi. Masalan: 1. *Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o`tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi.* (R.Shog`ulomov). 2. *Ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan kishi ulug`likka yetadi* (Yusuf Xos Hojib). 3. *Ilm ko`pga yetkazar, hunar esa ko`kka* (Maqol). Keltirilgan misollarning birinchisida *bunyod etdi, nom qoldirdi* fe'llari tarkibidagi *-di* o`tgan zamonni, ikkinchisida *yetadi* fe'l tarkibidagi *-a* ko`rsatkichi hozirgi zamonni, uchinchisida *yetkazar* fe'lidagi *-ar* ko`rsatkichi esa kelasi zamon ma'nosini ifodalagan.

Har bir zamon o`z navbatida yana bir necha turga bo`linadi. Chunki har bir zamon vaqtning katta qismini ko`rsatish bilan birga o`zining ichki xususiy modal ma'nolariga (qo`shimcha ma'nolarga) ham ega. Masalan: *o`qimoqchiman, o`qiydiganman* fe'llari nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajariladigan harakatni ifodalab, vaqtning katta qismini ko`rsatish bilan birga, bajarilishi maqsad qilib olingen harakatni anglatishi kabi o`ziga xos modal ma'noga ham ega.

1. O`tgan zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

O`tgan zamon fe'li xususiy modal ma'nolariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1) yaqin o`tgan zamon fe`li; 2) uzoq o`tgan zamon fe`li; 3) o`tgan zamon hikoya fe`li; 4) o`tgan zamon davom fe`li; 5) o`tgan zamon maqsad fe`li.

Yaqin o`tgan zamon fe`li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so`zlovchining ko`z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: Go`zal vodiydagি Gullar bog`i ko`klam libosi bilan bezandi (SH.R.).

Yaqin o`tgan zamon fe`li sof fe`l negiziga –di qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (I guruh tuslovchi) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shim- chasi	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shim- chasi
I	o`qidim	-di	-m	o`qidik	-di	-k
II	o`qiding	-di	-ng	o`qidingiz	-di	-ngiz
III	o`qidi	-di	-	o`qidilar	-di	(-lar)

Uzoq o`tgan zamon fe`li nutq so`zlanib turgan paytdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq so`zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: SHoyi, atlas, chit, las ko`ylak; nimcha, durra, peshonabog`, xullas bor boricha yo`q holicha yasalgan (N. Safarov).

Uzoq o`tgan zamon fe`li negiziga –gan sifatdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (II guruh «B» ko`rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shim- chasi	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shim- chasi
I	o`qiganman	-gan	-man	o`qiganmiz	-gan	-miz
II	o`qigansan	-gan	-san	o`qigansiz	-gan	-siz
III	o`qigan	-gan	-	o`qiganlar	-gan	(-lar)

Uzoq o`tgan zamon fe`li nutqda aniq eslash (yoki eslatish), kutilmaganda eslash, eshitilganlik kabi qo`shimcha modal ma`nolarga ham ega bo`ladi. Uzoq o`tgan zamonning bo`lib o`tgan ish-harakatni aniq eslash ma`nosи –gan sifatdoshiga edi (qisqa shaklida) to`liqsiz fe`lini biriktirib tuslash orqali: o`qigan edim, o`qigan eding, o`qigan edi; o`qigan edik, o`qigan edingiz, o`qigan edilar kabi; kutilmaganda eslash ma`nosи –gan sifatdoshiga ekan (qisqa shakli –kan) to`liqsiz fe`lini biriktirib tuslash bilan: o`qigan ekanman, o`qigan ekansan, o`qigan ekan; o`qigan ekanmiz, o`qigan ekansiz, o`qigan ekanlar kabi; bo`lib o`tgan ish-harakatning so`zlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi –gan sifatdoshiga emish (qisqa shakli –mish) to`liqsiz fe`lini biriktirib tuslash orqali: o`qigan emishman, o`qigan emishsan, o`qigan emish; o`qigan emishmiz, o`qigan emishsiz, o`qigan emishlar kabi shakllanadi. Masalan: *Nasibaning yuzidagi bo`g`riqish yo`qolib, uning o`rnida nafislik paydo bo`lgan edi* (X.No`mon). Mirza Bahrom unday ma`no chiqishini sira ko`zda tutmagan ekan, o`sال bo`ldi (A.Qahhor).

O`tgan zamon hikoya fe`li kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yo`li bilan ifodalaydi. Masalan: *Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma'rifat qilingan holda o`tkazibdi* (*Hadisdan*).

O`tgan zamon hikoya fe`li fe`l negiziga -b (-ib) o`tgan zamon ravishdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan (II guruh «A» ko`rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son						
	Birlik			Ko`plik			
	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shim- chasi	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	Shaxs- son qo`shimc hasi	
I	o`qibman	-b	-man	o`qibmiz	-b	-miz	
II	o`qibsan	-b	-san	o`qibsiz	-b	-siz	
III	o`qibdi	-b	-di	o`qibdilar	-b	-di(-lar)	

O`tgan zamon hikoya fe`lining eslay (eslatish) ma`no ko`rinishi ham bor. Bu shakl o`tgan zamon -b (-ib) ravishdoshiga edi to`liqsiz fe`lini biriktirib tuslash orqali hosil bo`ladi: o`qib edim, o`qib eding, o`qib edi; o`qib edik, o`qib edingiz, o`qib edilar kabi. Masalan: *Urush tugasa, biznikiga mehmongan borasiz, o`shanda ayamning qanaqaligini ko`rasiz deb edi* (*S.Zunnunova*).

O`tgan zamon davom fe`li nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari ma'lum bir muddat davomli bo`lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma`no ottenkasi bilan ifodalaydi. Masalan: 1. *Bu yerda Boburning doim o`z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi* (*P.Qodirov*). 2. *Daryolardan kuylab o`tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O`xhashini topmasdim aslo* (*H.O.*). Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe`li o`tmishda ma'lum bir muddat davomli bo`lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o`tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqt-i vaqt bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O`tgan zamon davom fe`li -r(-ar), -yotgan sifatdosh fe`l negiziga hamda -moqda qo`shimchasini olgan sof fe`l negiziga edi to`liqsiz fe`lini biriktirib tuslash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs- son qo`sh.	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs- son qo`sh.
I	o`qir edim, o`qiyotgan edim, o`qimoqda edim	-r+edi, -yotgan+edi, - moqda+edi	-m	o`qir edik, o`qiyotgan edik, o`qimoqda edik	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-k
II	o`qir eding, o`qiyotgan eding, o`qimoqda eding	-r+edi, -yotgan+edi, - moqda+edi	-ng	o`qir edingiz, o`qiyotgan edingiz, o`qimoqda edingiz	-r+edi, -yotgan+edi, - moqda+edi	-ngiz

III	o`qir edi, o`qiyotgan edi, o`qimoqda edi	-r+edi, -yotgan+edi, - moqda+edi	-	o`qir edilar, o`qiyotgan edilar, o`qimoqda edilar	-r+edi, - yotgan+edi, - moqda+edi	(-lar)
-----	--	--	---	---	---	--------

O`tgan zamon maqsad fe`li nutq so`zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo`lmagan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: U bugun Malika bilan xoli gaplashib, ko`nglidagi hamma sir-asrorini to`kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

O`tgan zamon maqsad fe`li -moqchi, -digan qo`shimchalarini olgan fe'l negiziga edi to`liqsiz fe`lini biriktirib (I guruh tuslovchilar bilan) tuslash bilan shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shimc	Misol	Zamon ko`rsat- kichi	qo`shimc ha
I	o`qimoqchi edim, o`qiydigan edim,	-moqchi+edi, - digan+edi	-m	o`qimoqchi edik, o`qiydigan edik,	-moqchi+edi, - digan+edi	-k
II	o`qimoqchi eding, o`qiydigan eding,	-moqchi+edi, - digan+edi	-ng	o`qimoqchi edingiz, o`qiydigan edingiz,	-moqchi+edi, - digan+edi	-ngiz
III	o`qimoqchi edi, o`qiydigan edi,	-moqchi+edi, - digan+edi	-	o`qimoqchi edilar, o`qiydigan edilar,	-moqchi+edi, - digan+edi	(-lar)

2. Hozirgi zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe`li qo`shimcha modal ma'nolariga ko`ra 2 turga bo`linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe`li, 2) hozirgi zamon davom fe`li.

Hozirgi-kelasi zamon fe`li nutq so`zlanib turgan paytda va undan keyin ro`y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: Bobur bu chigal tugunlarni o`zi echilmasligini sezadi (P.Qodirov). YOshlikda zahmat chekib, ilm o`rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).

Hozirgi-kelasi zamon fe`li sof fe`l negiziga -a, -y ravishdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shim-chasi	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	SHaxs-son qo`shim-chasi
I shaxs	o`qiymen, boraman	-y, -a	-man	o`qiyemiz, boramiz	-y, -a	-k
II shaxs	o`qiysan, borasan	-y, -a	-san	o`qiysiz, borasiz	-y, -a	-ngiz
III shaxs	o`qiydi, boradi	-y, -a	-di	o`qiydilar, boradilar	-y, -a	-di(-lar)

Hozirgi zamon davom fe’li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: Mustaqillikka erishganimizdan so`ng xalqimizning o`z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqish ortib bormoqda (I.Karimov).

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shimcha	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shimcha
I	o`qiyapman, o`qimoqdaman, o`qiyotibman	-yap, -moqda, -yotib	-man	o`qiyapmiz, o`qimoqdamiz, o`qiyotibmiz	-yap, -moqda, -yotib	-miz
II	o`qiyapsan, o`qimoqdasan, o`qiyotibsan	-yap, -moqda, -yotib	-san	o`qiyapsiz, o`qimoqdasiz, o`qiyotibsiz	-yap, -moqda, -yotib	-siz
III	o`qiyapti, o`qimoqda, o`qiyotibdi	-yap, -moqda, -yotib	-ti - -di	o`qiyaptilar, o`qimoqdalar, o`qiyotibdilar	-yap, -moqda, -yotib	-ti(-lar) - -di(-lar)

SHuningdek, murakkab fe’l tarkibida qo`llangan yot, yur, tur, o`tir ko`makchi fe’llarni tuslash bilan ham hozirgi zamon davom fe’li hosil qilinadi: o`qib yotibman, o`qib yuribman, o`qib turibman, o`qib o`tiribman kabi.

3. Kelasi zamon

Bu zamondagi fe’llar ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe’li qo`shimcha modal ma’nolariga ko`ra ikki turga bo`linadi:

1) kelasi zamon gumon fe’li; 2) kelasi zamon maqsad fe’li.

Kelasi zamon gumon fe’li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilish-bajarilmasligi mo`ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: *Bugun havo ochiq bo`lar* (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe’li ba’zan hozirgi-kelasi zamon ma’nosida kelib, anqlik, qat’iylik ma’nolarini ham ifodalaydi: *Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar* (*Maqol*).

Kelasi zamon gumon fe’li sof fe’l negiziga -r(-ar) sifatdosh qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shim-chasi	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shim-chasi
I	o`qirman, borarman	-r, -ar	-man	o`qirmiz, borarmiz	-r, -ar	-miz
II	o`qirsan, borarsan	-r, -ar	-san	o`qirsiz, borarsiz	-r, -ar	-siz
III	o`qir, borar	-r, -ar	-	o`qirlar, borarlar	-r, -ar	(-lar)

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilishi maqsad qilib olingen ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Men kuzdan boshlab o`qishni davom ettirmoqchiman, so`ngra qishloq xo`jalik institutiga kirmoqchiman (SH.R.). Oho qora ko`z deganda, u devordan oshadigan (O.).

Kelasi zamon maqsad fe'li sof fe'l negiziga -moqchi hamda fe'lning ravishdosh (-a, -y bilan shakllangan) shakliga -digan qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shimch ha	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	o`shimch
I	o`qimoqchiman, o`qiydiganman	-moqchi, -digan	-man	o`qimoqchimiz, o`qiydiganmiz	-moqchi, -digan	-miz
II	o`qimoqchisan, o`qiydigansan	-moqchi, -digan	-san	o`qimoqchisiz, o`qiydigansiz	-moqchi, -digan	-siz
III	o`qimoqchi, o`qiydigan	-moqchi, -digan	-	o`qimoqchilar, o`qiydiganlar	-moqchi, -digan	(-lar)

8 -§. Fe'l mayllari

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ko`rsatuvchi grammatik kategoriyaga fe'l mayli deyliladi. Mayl kategoriyasi grammatik zamon (o`tgan, hozirgi, kelasi) va grammatick shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog`langan bo`lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish tizimiga kiradi. Fe'l mayllarida voqelik bilan bog`liq ravishda ish-harakatning bajarilish xususiyatlari turlicha bo`ladi. Masalan: 1) *Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi* (O'.Hoshimov). 2) *Yoshlikda zaxmat chekib, ilm o`rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.* (Koshifiy). 3) *So`zlayotgan kishining o`ziga emas, so`ziga e'tibor qil* (Monteske. Tafakkur gulshani). Bu misollarning birinchisida kezadi fe'li ish-harakatning aniq bajarilishini, ikkinchisida o`rgansang, egallasang fe'llari ish-harakatning bajarilishi uchun shart qilib olingen harakat ma'nosini, uchinchi misolda esa e'tibor qil fe'li ish-harakatning bajarilishi haqidagi buyruq, maslahat ma'nosini anglatgan. Demak, fe'l anglatgan ish-harakat voqelikka munosabatiga ko`ra aniqlik, shart (istak), buyruq (istak) kabi qo`shimcha modal ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko`ra fe'llar, asosan, 3 fe'l mayli ko`rinishiga ega: 1) aniqlik mayli, 2) shart mayli, 3) buyruq-istak mayli.

Aniqlik mayl

Bu mayldagi fe'l ish-harakatning uch zamondan birida aniq (real) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi, ya'ni aniqlik maylidagi fe'l o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon fe'llarining barcha ma'no ko`rinishlarini o'z ichiga qamrab oladi: *o'qidim*, *o'qimadim* - yaqin o'tgan zamon fe'li; *o'qiyapman* - hozirgi zamon davom fe'li; *o'qimoqchiman*, *o'qimoqchi emasman* – kelasi zamon maqsad fe'li kabi. Masalan: *Men unga mustaqil odam ekanligimni ko`rsatib qo`ymoqchiman* (*P.Q.*) gapida ko`rsatib qo`ymoqchiman fe'li ish-harakatning kelasi zamonda (kelasi zamon maqsad fe'li) I shaxs tomonidan (-man shaxs-son affiksi) aniq bajarilishini anglatadi.

Aniqlik maylidagi fe'llar I-II guruh tuslovchi affikslar bilan tuslanadi.

2. Buyruq-istik mayli

Bu mayldagi fe'l kelasi zamonga oid bo`lib ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so'rash, istash, iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma'nolarni anglatadi va III guruh tuslovchi affikslar bilan o`zgaradi: *o'qiy* (*o'qiyin*), *o'qigin* (*o'qi*), *o'qisin*; *o'qiylik*, *o'qingiz*, *o'qisinlar* kabi.

Buyruq-istik maylining I shaxsi istak iltimos, undash-chaqirish ma'nolarini (I shaxsda buyurish, iltimos ma'nolari ifodalanmaydi); II-III shaxsi buyruq, iltimos, maslahat o`rni bilan do`q kabi ma'nolarni ifodalaydi va ma'nolarning har biri o`ziga xos intonatsiya bilan ajralib turadi. Masalan: 1. *O`z shaxsiy foydangni izlama, xalqning foydasini izla, xalqqa mashaqqat yukki tushirib, uni qiynama, o`zing yuk ko`taruvchi bo`l* (*YUsuf Xos Xojib*). 2. *Naqadar buyuk zamonda yashayotganligimizni unutmaylik* (*I.Karimov*) birinchi misolidagi *izlama*, *izla*, *qiynama*, *bo`l* fe'llari II shaxs (nol ko`rsatkichli shaklda)da kelib maslahat, iltimos kabi ma'nolarni, ikkinchi misoldagi unutmaylik fe'li I shaxs ko`plikda kelib, shu harakatni bajarishga undash, shu bilan birga istak, xohish kabi ma'nolar bildiriladi.

3. Shart (istik) mayli

Bu mayldagi fe'l birinchidan, ma'lum ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo`lgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda shart maylidagi fe'l ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: *Bolalaring senqa qanday munosabatda bo`lishini istasang, ota-onangga ham shunday munosabatda bo`l* (*Tafakkur gulshani*). Ikkinchidan, bu shakldagi fe'lning o`zi orzu-istik, xohish, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydi va sodda gapning yoki qo`shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida qo`llanadi: *Qani endi inqilob bo`lsa-yu, mehnatkash xalq xonni ag`darib mamlakatni o`zi idora qilsa, hamma erkin nafas olsa* (*N.SHaripov*). *Qani endi bu qirlarga ko`klamda chiqsang. Onajon, shu suratni menga bersangiz* (*A.Q.*)

Ko`rinadiki, shart maylidagi fe'l kelasi zamon tushunchasini anglatib, shart-istik ma'nosi fe'lning buyruq-istik maylidan bosh shaklga -sa qo`shimchasini qo`shish va tuslash orqali shakllanadi: o`qisam, o`qisang, o`qisa; o`qisak, o`qisangiz, o`qisalar kabi.

Shart mayli formasidagi fe'l edi, ekan to`liqsiz fe'llar bilan; kerak, bo`lmoq, ehtimol kabi modal ma'noli so`zlar bilan birga qo`llanishi mumkin: o`qisa edi, o`qisa ekan; o`qisa kerak, o`qisa bo`ladi kabi. Bunday shaklda kelgan fe'llar tilak, orzu, gumon, noaniqlik kabi ma'nolarni bildiradi: *Nahotki Muqaddas shu yotoqxonada tursa?* (*O.Y.*), *bu erda sho`r imoratning ofati bo`lsa kerak* (*A.Q.*). *Xo`sh, endi sizlarga nima sovg'a bersam ekan* (*O.*).

Shuningdek, shart maylidagi fe'l qo`shma gapning bir necha turlarida ergash gapni bosh gapga bog`lash uchun xizmat qiladi: *Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq...* (*O.*). *To`tiqiz... dugonasini o`ylasa, xolasi o`z ko`ksida panoh topgandek bag`riga kirib olgan jiyанини о`йлар edi* (*M. Ismoiliy*).

9 -§. Fe'llarning yasalishi

O'zbek tilida fe'llar so'z yasalish xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

1. Morfologik usulga ko`ra, maxsus fe'l yasovchi affikslar yordamida boshqa so'z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so`zlardan) fe'l yasaladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi so'z yasovchi affikslar qo'llanadi:

-la affiksi: *kuyla, bahola, tozala, oqla, sizla, tezla, sekinla, ufla, dodla, shitirla, shivirla* kabi. Bu affiks unumdon fe'l yasovchi affiks sanalib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi.

-a affiksi: *tuna, o'yna, qiyina, yasha, guldura, shildira* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so`zlardan fe'l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: *eskir, qisqar, ko'kar* kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe'l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: *ulg`ay, kuchay, qoray, ko'pay, ozay* kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe'l yasaladi.

-sira affiksi: *suvsira, yotsira, sizsira, sensira* kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe'l yasaladi.

-lan affiksi: *otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan* kabi. Bu affiks tuzilishiga ko`ra qo'shma (-la+n) bo`lib, ot, sifat, sondan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbat (o'zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: *gplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash* kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko`ra qo'shma (-la+sh) bo`lib, u ot, son, undov so'zdan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: *changi, boyi, tinchi* kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe'l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: *yo`liq, do`riq, birik, kechik* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe'l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: *hayqir, yarqira, yaltira, miltira, taqilla, gurilla, vishilla* kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so`zlardan fe'l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: *gapir, tupur*. Bu affiks ham unum so'z yasovchi affiks bo`lib, u ot va undov so'zdan fe'l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so'z yasovchi affikslar bo`lib, bu affikslar yordamida otdan fe'l yasaladi: *iska, suvska* kabi.

2. Sintaktik usulga ko`ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikishi bilan yangi so'z qo'shma fe'l yasaladi. Masalan: *Borlig'imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz* (I.Karimov). *Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi* (*Tafakkur gulshani*). Bu misollardagi *ayon qilmoqdamiz, olib keladi* fe'llari sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.

Qo'shma fe'llarning qismlari qaysi so'z turkumidan tuzilishiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) ot+fe'l qolipidan qo'shma fe'llar. Bunday fe'llarda birinchi qism fe'lidan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe'l bo`ladi: javob bermoq, qo'l qo`ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo`lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe'l+fe'l qolipidan qo'shma fe'llarning har ikala qismi fe'llardan tuziladi: *olib chiqmoq, sotib olmoq* kabi. Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi -b (-ib), -a (-y) qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo'shimchalar ikkinchi qismga qo'shiladi.

Fe'l+fe'l qolipidagi qo'shma fe'llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo'shma fe'llarning har bir qismi o'z leksik ma'nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan qo'shma fe'llar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe'llarda leksik ma'no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (yetakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko'makchi fe'l) unga (yyetakchi qism ma'nosiga) qo'shimcha modal ma'no qo'shadi: *aytib ko'r, olib tur, ko'rib chiq* kabi qo'shilmalarda *aytib, olib, ko'rib* qismi yetakchi, *ko'r, tur, chiq* qismlari esa ko'makchi fe'lidir.

10 -§. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari

O`zbek tilida fe'l o`ziga xos turli modal ma'nolarga (qo'shimcha ma'nolarga) ega. Fe'llardagi modal ma'nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shadigan shakl yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) **-la** affiksi fe'l negiziga qo'shilib, takror, davomiylilik ma'nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirlala, cho`qila* kabi;

2) **-gila (-kila, -qila, -g`ila)**: *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg`ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo'shilib, harakatning davomiyligi, takror ma'nosini bildiradi;

3) **-(i)msira, -(i)nqira**: *yig`lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo'shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) **-(i)sh** affiksi ham harakatning kuchisizligini bildiradi: *oqarishdi, to`lishdi* kabi;

5) **-qilla**: *chopqilla*. Bu affiks fe'l negiziga qo'shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe'ldagi modal ma'no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi: yozib ko'r, aytib chiq, ko'ra qol, so`zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi.

Ko'makchi fe'llar bilan shakllangan qo'shilmalar ikki so'z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma'no ifodalaydi. SHu tufayli yetakchi fe'l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma'no ifodalaydi va ko'makchi fe'l sanaladi. Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lning ma'nosiga qo'shimcha modal ma'nolar qo'shadi.

Ko'makchi fe'l tarzida *kel, ket, bor, yubor, chiq, o't, tur, qol, bo'l, ol, bil, qo'y, ber, tashla, ko'r, boshla* kabilar keladi. Bu fe'llar bir tomondan, harakat ma'nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya'ni *keldi, borgan, ko`rmoqchi, bilib* kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe'l shakliga qo'shilib, o'z leksik ma'nosini vaqtincha yo'qotib, o'zi aloqador bo`lgan fe'lning leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shadi va ko'makchi fe'lga aylanadi. Masalan: *yoza boshladi* fe'li tarkibidagi *boshladi* fe'li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo'shilmada o'z leksik ma'nosini yo'qotib yozish fe'lining leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no, ya'ni harakatning endi boshlanish ma'nosini qo'shgan.

Shu bilan birga ko'makchi fe'l yetakchi ma'nosiga davomiylilik, tugallanganlik, takroriylik (*yoza tur, yozib tur, aytib bo'l* kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (*yoziq ko'r, aytib boq* kabi); harakatning boshqa shaxsdan so`zlovchiga yo`nalishi (*aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber*), harakatning bajarilish usuli (*yoziq tashla, aytib yubor*) kabi modal ma'nolarni qo'shadi.

Fe'llarda modal ma'no just va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'l bir xil shaklda kelib, juft fe'lni hosil qiladi. Bunda leksik ma'no salmog'i birinchi qismda bo`ladi: *aytdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, oldi-qoldi* kabi.

Ko'makchi fe'llar fe'lning -b (-ib), -a (-y) bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo'llanadi: *o`qib ber, o`qiy boshla* kabi.

Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan fe'l shakllarida ko'makchi fe'l birdan ortiq bo`lishi ham mumkin: *yoziq yo`ya qol, yozib berib yo`ya qol* kabi.

Ko'makchi fe'lli fe'l shakllarida shaxs-son qo'shimchalari ko'makchi fe'llarga qo'shiladi: *yoziq chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz* kabi.

11 -§. To'liqsiz fe'llar

Mustaqil holda ish-harakat ma'nosini ifodalamay, turli fe'l shakllaridan so'ng (keng ma'noda ot bilan) qo'llanib, faqat grammatik modal ma'no ifodalaydigan fe'llar to'liqsiz fe'llar

deyiladi. To`liqsiz fe'llarga *edi* (-*di*), *ekan* (-*kan*), *emish* (-*mish*) kabi fe'l shakllari kiradi. *Yozar edi* – *yozardi*, *yozar ekan* – *yozarkan*, *yozar emish* – *yozarmish* kabi. Bu fe'lllar aslida bir *e* (arxaik *er*) fe'l negizining turli shakllari bo`lib, ular hozir ayrim-ayrim so`z sifatida tushuniladi.

To`liqsiz fe'l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi bilan birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To`liqsiz fe'llar *edi*, *ekan*, *emish* turlicha modal ma'nolar ifodalaydi:

1) *edi* to`liqsiz fe'li qatnashgan fe'l shaklida ta'kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma'nolarni bildiradi: *Bo`shagan erlearning bag`rini pluglarning o`tkir tig`lari tilka-tilka qilmoqda edi* (H.N.). *Shu kuni endi ko`chaga chiqib edi...* (M.Ismoilov). *Ular bir partada o`tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qayerga o`qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar edi* (S.Zunnunova).

2) *ekan* to`liqsiz fe'l qatnashgan shakllarda o'tmishda yuz bergen voqe-a-hodisaning so`zlovchiga keyinchalik ma'lum bo`lganligi va uning davomi ekanligi anglashiladi: *Aytishingizdan, oradan hech gap o`tmagan ekan* (A.Qahhor).

3) *emish* to`liqsiz fe'li esa noaniqlik, gumon, eshitilganlik ma'nolarini bildiradi: *O`zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo`yi juda uzun bo`lib ketgan emish* (S.Ahmad).

To`liqsiz fe'llar boshqa so`z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog`lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: *Uy kichkina, lekin yorug` va toza edi* (O.)

Fe'llarda modal ma'no fe'lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomliligi, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo`lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma'nolar anglashiladi: *ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin* kabi.

Fe'l tahlili namunasi	
1. So`rog`i.	8. To`liq yoki to`liqsizligi.
2. Bo`lishli yoki bo`lishsizligi.	9. Yetakchi, ko`makchi fe'llar aniqlanadi.
3. O`timli yoki o`timsizligi.	10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari.
4. Nisbati.	11. Tuzilish turi.
5. SHaxs-soni	12. Tub yoki yasamaligi.
6. Zamon turi.	13. Gapdagti sintaktik vazifasi
7. Mayl turi.	

Nazorat savollari:

1. Fe'lning so`roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo`lishli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Bo`lishsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
4. O`timli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
5. O`timsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
7. O`zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
8. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
9. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
10. Ortirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
11. Maxsus qo`shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe'lga misol keltiring.
12. Birdan ortiq orttirma nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe'llarga misollar keltiring.
13. Qaysi nisbatdagti fe'llardan orttirma nisbat hosil qilib bo`lmaydi?
14. Ortirma nisbatdagti fe'llardan qaysi nisbatdagti fe'llarni hosil qilish mumkin?
15. Birdan ortiq nisbat qo`shimchasi qo`shilgan fe'llarga 4 ta misol aytинг.
16. Tuslanish nima?

17. **-m, -ng, -k, -ngiz** qo`shimchalari qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi?
18. **-man, -san, -miz, -siz** kabi qo`shim -chalar qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi?
19. **-gin, -ay, -ing(iz)** kabi qo`shimchalar qanday shakldagi fe'llarga qo`shiladi?
20. O`tgan zamon fe'llarining turlari haqida gapiring.

RAVISH

1-§. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba'zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so`z turkumi ravish deyiladi. Masalan: *Qutlug`jon tez orada o`zbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi* (O.). *Ko`kday bepoyon mening Vatanim* (*Q.Hikmat*).

Sifat so`z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi.

Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (*astoydil urindi*), payti (*hozir keldi*), o`rni (*yuqoriga intildi*), miqdori (*kam gapirdi*), darajasi (*nihoyatda achindi*), sababi (*noiloj ko`ndi*) va maqsadi (*jo`rttaga indamadi*)ni anglatadi.

Ayrim ravishlar ba'zan otga bog`lanib, predmetning noaniq miqdorini (*ko`p kitob*), sifat va ravishning o`ziga bog`lanib, belgini kuchini; darajasini, o`xhashligini (*obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq*) ifodalaydi. Shu ma`no xususiyatlariga ko`ra ravish *qanday? qay tarzda? qachon? qayerga? qayerda? qayerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda?* kabi so`roqlariga javob bo`ladi.

Ravish o`ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so`z bilan bog`lanib kelganda morfologik jihatdan o`zgarmaydi (so`z o`zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma'lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko`chgan so`zlar mavjud: *kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga* kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so`z bo`lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog`ishtirib ko`rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko`rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Daraja ma`nosи sifat darajalaridagi vositalarning o`zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog`ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o`ziga xos morfologik ko`rsatkichga emas: *Usmonjon gunoxkorona jilmaydi* (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog`ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko`pligi, ya`ni kuchaytirish ma`nosini ko`rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo`shish bilan hosil qilinadi: *astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq* kabi: *Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi* (A.Qodiriy). Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo`l bilan yanada orttirilgan bo`ladi: *Sal burunroq o`tkazilsa, ancha bo`y bergen bo`ladi* (Sh.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so`zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o`ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: *Bu yurtda eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing* (E.Vohidov). *Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas* (*Hadisdan*).

3) ravishning fe'lga bog`lanib, gapda ko`pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: *Ogahiy yaratgan she'riy misralar o`zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o`ziga rom qilib kelmoqda* (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba'zan otga bog`lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog`day og`ir bilak berdim... (H.O.).

Ba'zi ravishlar otga ham bog`lanib, uning belgisini ko`rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe'lga bog`lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so`z turkumiga o`tib ketmagani kabi, otga bog`langan ravishlar ham sifat turkumiga o`tmaydi: U ancha jo`yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Yetti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

5) ravish otlashish xususiyatiga ega, ya'ni ravish bog`lanib kelgan ot gapda qo`llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko`plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko`pni ko`rgan ko`hna dunyoda Baxt axtarib ko`plar o`tdilar (H.O.). Ilm ko`pga etkazar, hunar esa ko`kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o`g`lim (O.).

Ravishlarda otlashish hodisasi, asosan, holat, miqdor belgisini (ba'zan payt belgisi) bildiruvchi ravishlarga xos.

6) ravish gapda hukm tushunchasini anglatib bosh bo`lak ot kesim vazifasida ham keladi: Odam har qancha olim bo`lsa ham, uning o`zi sezmagan kamchiliklari ko`p («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

7) ravish so`z yasalish xususiyatiga ega. Ravish yasovchi maxsus so`z yasovchi affikslar mavjud: do`stona, yangicha, tasodifan, butunlay kabi. Bunday usul bilan ravish yasalishi morfoloqik usul sanaladi. Ravish sintaktik usul bilan ham yasaladi: bir oz, har gal, bir yo`la, dam-badam kabi.

8) ravishlarda modal ma'no yasalishi ham mavjud. Bunday shaklda kelgan ravishlar harakat belgisining kuchsizligi, ta'kid, noaniqlik kabi ma'nolar anglatadi. Bu modal ma'no sintetik shakl orqali hosil qilinadi, ya'ni ravishga -roq, -gina (-kina, -qina) affikslarini qo`shish orqali: ko`proq, endigina, sekingina, kechagina kabi hamda ravishlarni aynan takrorlash yo`li bilan hosil qilinadi: asta-asta, tez-tez, sal-pal.

Men ko`proq uni ko`rish niyatida yurar edim, lekin o`ylaganim bo`lmadi (P.Qodirov). *Hasanali sekingina daricha ostig`a yotib hujra ichiga quloq soldi* (A.Qodiriy). *CHiqsak ham Sulton amaki bilan chiqardik. Sekin-sekin unga o`rgana boshlagandik* (H.Nazir).

2 -§. Ravishlarning ma'no turlari

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo`linadi: 1) holat ravishi, 2) payt ravishi, 3) o`rin ravishi, 4) miqdor-daraja ravishi, 5) sabab ravishi, 6) maqsad ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishi ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildirib, qanday? qay tarzda? qay holda? kabi so`roqlarga javob bo`ladi: asta, sekin, tez, piyoda, ayov, qo`qqisdan, tasodifan, xomlay, ochin-to`kin, butunligicha, jim, darov, darhol, zo`rg`a, birdan, birga, majburan, yaqqol, harbiylarcha, o`zbekcha, yuzma-yuz, ochiq-oydin kabi.

Holat ravishlari, asosan, ravish holi otga bog`lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi: Bobur ota yurtidan ajralganini endi astoydil his qildi (P.Q.). Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning g`olibona bayrog`imizni (A.M.). Auditoriya jimjit, hamma unga qarar (P.Q.).

Payt ravishi. Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so`roqlarga javob beradi. Payt ravishlariga: hozir, boyta, hali, endi, oldin, burun, avval, qadim, bultur, tunov kun, yaqinda, hamisha, hanuz, hamon, bugun, indin, keyin, so`ng, yiliga, dastlab, har kuni, erta-indin, erta-kech, qishin-yozin kabilalar kiradi.

Payt ravishlari asosan, payt holi, ba'zan kesim vazifasida keladi. Masalan: Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo`lsang, avval o`z ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy). Bugun sening tug`ilgan kuning, Bugun uying to`ladi gulga (H.O.).

O`rin ravishi. O`rin ravishi ish-harakatning bajarilish o`rnini va harakat yo`nalgan tomonni anglatadi. O`rin ravishi qayerga? qayerda? qayerdan? kabi so`roqlarga javob berib,

ularga *nari*, *beri*, *oldinga*, *pastda*, *tubanda*, *yuqoridan*, *quyidan*, *u yoqqa*, *bu yoqqa*, *yaqinda*, *orqadan*, *to`riga*, *chapda*, *o`ngda* kabilar kiradi.

O`rin ravishlari gapda, asosan, o`rin holi ba`zan esa kesim vazifasini bajaradi: *Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo`ysa, demak bu gap omonatdir* (*Hadisdan*). *YOShi ulug` Nazarali ota shu erda* (*G`G`ulom*).

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi ish-harakatning miqdoriy belgisi, bajarilish darajasini, shuningdek, predmetning noaniq miqdori, belgining dariasi va miqdorini anglatadi.

Miqdor-daraja ravishlari ma`no xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: miqdor ravishi va daraja ravishi.

Miqdor ravishi miqdor tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilishida uning miqdoriy belgisini ko`rsatadi. Shu bilan birga miqdor ravishi otga ham bog`lanib kela oladigan ravish turidir, shu jihatdan bu ravishlar predmetning noaniq miqdorini ham ifodalaydi. Miqdor ravishi *qancha?* so`rog`iga javob berib, ularga *ko`p, mo`l, kam, bir oz, sal, picha, xiyol* kabilar kiradi.

Daraja ravishi daraja tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilish darajasini ko`rsatadi. Ba`zan daraja ravishlari sifat va ravishning o`ziga bog`lanib kelib, belgi ma`nosini kuchaytirib keladi. Bu ravishlar qay darajada? so`rog`iga javob berib, ularga *g`oyat, nihoyatda, obdon, o`ta, aslo, sira* kabilar kiradi.

Daraja ravishlari belgi ma`nosini kuchaytirishiga ko`ra (*juda, g`oyat*) sifat va ravishlarning orttirma darajasini hosil qiladigan element sifatida ham qatnashadi.

Miqdor-daraja ravishlari, asosan, miqdor-daraja holi, ba`zan kesim vazifasini bajaradi: *Mo`l-ko`l nur to`kar, ko`kdan qadrdon quyoshimiz* (*E.Vohidov*). *Biroq ko`zgu shunaqangi xira ediki, o`zimning yuzimni zo`rg`a ko`rardim* (*O`H.*).

Miqdor-daraja ravishi predmetning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida ham keladi: *Ko`p gap quloqqa yoqmas* (*Maqol*).

Sabab ravishi. Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi. Sabab ravishi *nega? nima uchun? nima sababdan?* kabi so`roqlarga javob bo`ladi va ularga *noiloj, noilojlikdan, chorasziz, choraszizlikdan* kabi ravishlar kiradi.

Sabab ravishi, asosan, sabab holi vazifasini bajaradi: *Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o`tirdi* (*Oydin*).

Maqsad ravishi. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, *nega? nima maqsadda?* kabi so`roqlarga javob beradi. Bu ravishlarga *atay(in), ataylab, jo`rttaga, qasddan* kabilar kiradi. Maqsad ravishi gapda, asosan, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Yuksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin* (*Po`lat Mo`min*).

3 -§. Ravishlarning yasalishi

O`zbek tilida ravishlar, asosan, 2 xil usul, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan ravish yasashda so`z negiziga maxsus ravish yasovchi affikslarni qo`shish bilan ravish yasaladi. Ravishning bu usul bilan yasalishida ko`pincha ot, ba`zan sifat, son, olmosh, fe'lning sifatdosh va harakat nomi shakllari, shuningdek ravishning o`zi asos bo`ladi.

Ravish yasovchi affikslar quyidagilar:

-an: taxminan, rasman, tasodifan, majburan kabi. Bu affiks ot, sifat asosidan ravish yasaydi.

-cha: *o`zbekcha, yangicha, boshqacha, o`zicha, istagancha, hozircha* kabi. Bu affiks ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ravish asosidan ravish yasaydi.

-incha: *ko`pincha, aksincha* kabi. Bu affiks ravish, sifat asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-larcha: *o`rtoqlarcha, qarindoshlarcha, aybdorlarcha, vahshiylarcha* kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-ligicha: *tirikligicha, xomligicha, ozligicha, xo`lligicha* kabi. Bu affiks sifat, ravish asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-lay: *tiriklay, butunlay* kabi. Bu affiks sifat va olmosh asosidan ravish yasaydi.

-ona: *do`stona, fidokorona, g`olibona, qadimona* kabi. Bu affiks ot, sifat, ravish asosidan ravish yasaydi.

-lab: *haftalab, yaxshilab, bittalab, ko`plab* kabi. Bu affiks ot, sifat, son, ravish asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-chasiga: *dehqonchchasiga, eskichasiga* kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo`shiladi.

-siga: *tikkasiga, yappisiga* kabi. Bu affiks sifat, olmosh asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-n (-in): *ertan, kechin, yashirin* kabi. Bu affiks ravish, fe'l asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

-siz, be-: *tinimsiz, to`xtovsiz, beto`xtov* kabi. Bu affikslar omonim affiks sifatida sifatdan tashqari ot, harakat nomi asosidan ravish yasaydi.

-day (-dek): *toshdek, gulday* kabi. Bu affikslar ot asosiga qo`shilib ravish yasaydi.

Kompozitsiya usuliga ko`ra ikki so`z asosini ma'lum bir qolipda birikishi, tizilishi orqali harakatning bitta belgisini ifodalaydigan ravish yasaladi. Bu usul bilan qo`shma va juft ravishlar yasaladi.

Qo`shma ravish quyidagicha yasaladi:

1) har olmoshi bilan o`rin yoki payt ma'nosini bildiruvchi so`zlarni biriktirish bilan: *har vaqt, har lahza, har on, har gal, har yoq, har zamon* kabi;

2) ko`rsatish olmoshlariga *yon, yer, yoq* so`zlarini qo`shish bilan: *shu yer, shu yoqqa, shu yonda, bu yerda, bu yoqqa, o`sha yoqda, o`sha yoqqa, u yerdan* kabi;

3) *bir* soniga o`rin, payt, miqdor ma'nosini bildiruvchi so`zlarni yoki mustaqil ishlatilmaydigan so`zlarni qo`shish bilan: *bir zum, bir lahza, bir zamon, bir yo`la, birmuncha, birvarakay, bir yoqqa, birato`la, bir oz* kabi;

4) turli so`z turkumiga oid ikki so`z shaklining (o`z leksik ma'nosini saqlagan, ba'zan mustaqil ishlatilmaydigan so`z bilan) birikishi bilan: *tez orada, hali zamon, shu zahoti, tunov kun, kuni kecha, qadim zamon, ozmuncha* kabi.

Juft ravish ikki so`zning teng bog`lanishi bilan yasaladi.

Juft ravish quyidagicha yasaladi:

1) ma'nosni bir-biriga yaqin (sinonim) so`zlarning teng bog`lanishi bilan: *asta-sekin, ochiq-oydin, eson-omon* kabi;

2) qarama-qarshi ma'noli (antonim) so`zlarning teng bog`lanishi bilan: *bugun-erta, yozin-qishin, nari-beri* kabi;

3) -ma (-ba) elementlari, shuningdek, chiqish va jo`nalish (ba'zan bosh) kelishigi shaklini olgan so`zlarni takrorlash bilan: *yuzma-yuz, yonma-yon, dam-badam, kundan-kunga, naridan-beri, kamdan-kam* kabi;

4) turli fe'l shakllarining takrorlanishi hamda ularni bo`lishli va bo`lishsiz shaklda takrorlash bilan: *qayta-qayta, sezilar-sezilmas, qo`yarda-qo`ymay, bilinar-bilinmas* kabi.

Boshimga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiq qilib rohat-rohat uyquga ketdim.

4 -§. Ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari

Ravish tuzilishiga ko`ra: 1) sodda, 2) qo`shma, 3) juft, 4) takroriy ravishlarga bo`ladi.

Sodda ravishlar bir o`zak morfemadan tuziladi: *yaqqol, ko`p, hozir, vijdonan, kamtarona* kabi.

Qo`shma ravishlar ikki so`z asosining birikishi orqali tuziladi: *har gal, bir vaqt, tez fursatda, shu yoqqa* kabi.

Juft ravishlar ikki so`z asosining teng bog`lanishidan tuziladi: *hali-beri*, *erta-kech*, *eson-omon* kabi.

Takroriy ravishlar esa bir so`z asosini aynan takrorlash bilan yoki ikkinchi takrorlangan ravishda tovush o`zgarishi yuz bergan holda tuziladi: *endi-endi*, *asta-asta*, *oz-moz*, *sal-pal*, *zo`rg`a-zo`rg`a* kabi.

Takroriy ravishlar so`zning leksik ma`nosini o`zgartirmay, balki ortiqligi, kamligi, noaniqlik, ta`kid kabi qo`srimcha ma`nolarni ifodalab keladi.

Ravish tahlili namunasi	
1. So`rog`i. 2. Ma`no turi. 3. Darajasi. 4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.	5. Tuzilish turi. 6. Tub yoki yasamaligi. 7. Gapdagti sintaktik vazifasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ravishning ta'rifi va so`roqlari haqida gapiring.
2. Ravishlar qanday so`zlarga bojlanib keladi? Misollar keltiring.
3. Ravishlarning daraja ko`rsatish xususiyatlari haqida gapiring.
4. Holat ravishlari haqida gapiring.
5. Payt ravishlari haqida gapiring.
6. O`rin ravishlari haqida gapiring.
7. Sabab ravishlari haqida gapiring.
8. Maqsad ravishlari haqida gapiring.
9. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring.
10. Daraja-miqdor ravishlari qanday turlarga bo`linadi?
11. Ravishlar qo`srimchalar yordamida qanday so`z turkumlaridan yasaladi?
12. Qo`sma ravishlar qanday yasaladi?
13. Qo`sma ravishlar qaytarzda yoziladi?
14. Juft ravishlar qanday yasaladi?
15. Takroriy ravishlar qanday yasaladi?
16. O`rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan so`zlar haqida gapiring.
17. Qanday so`zlar ravishga ko`chadi?
18. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring.
19. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring.
20. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhibi so`z haqida gapiring.
21. Sifatga bojlanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring.
22. Boshqa turkum so`zleri ravishga aylan-ganda qanday qo`srimchalarni olgan bo`ladi?

YORDAMCHI SO`Z TURKUMLARI

Yordamchi so`z turkumlari mustaqil so`z turkumlaridan farqlanadi. Ular lug`aviy ma`noga ega emas, morfologik jihatdan o`zgarmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, yasalish xususiyatiga ega emas.

Mustaqil lug`aviy ma`noga ega bo`lmay, gap bo`laklari va gaplarni o`zaro bog`lash, xilma-xil munosabatlarni ko`rsatish yoki ularga qandaydir qo`srimcha ma`no qo`sishiga xizmat qiladigan so`z turkumlari yordamchi so`z turkumlari deyiladi. Yordamchi so`z turkumlariga bog`lovchi, ko`makchi va yuklama kiradi.

1-§. Ko`makchi haqida ma'lumot

Ot, va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan boG'laydigan yordamchi so'zlar **ko'makchi** deyiladi: *O'z qo'li bilan to'g'riladi.* Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar luG'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: *ilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yangliG'.* Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

2. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar (vazifadosh ko'makchilar gapdao'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladi. Bular quyidagi turkumlardan ko'makchilarga ko'chadi:

- 1) **ot** turkumidan: *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda;*
- 2) **sifatdan:** *sababli, tufayli, qarshi, choG'li, doir, muvoftiq, o'zga, boshqa; 3) fe'lidan:* *qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;*
- 4) **ravishdan:** *avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.*

3. Ko'makchi-bohlovchilar boG'lovchi vazifasini ham bajaradigan ko'makchilar: *ilan, deb, deya.* Masalan: *daftor bilan qalam; Umrilm shirino 'tsin deb(deya), u ko'p mehnat qildi.*

4. Ko'makchi otlar o'z luG'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchio'rnida kelib, harakat bilan predmeto'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so'zlardir. Bu so'zlar o'rni-payt, chiqish kelishigi va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepe, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon.* Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgandagina ko'makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqiG'i ostida.* Aks holda, ularo'rni otlari hisoblanadi: *stolning ustida (stolning qayerida?), uyning oldida.* Ko'makchi otlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: **1) vertikal** yo'nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag.*

2) gorizontal yo'nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon;*

3) aralash yo'nalishni bildiruvchi: *o'rta, ora, bosh.*

1. Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari

1) bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Bilan (qisqa shakllari: **-la, -ila**) ko'makchisi birgalik, vosita, tez bosG'lanish, payt, ish-harakat ob'ekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi.*

Uchun (qisqa shakli: **-chun**) ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. o'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat.*

D i q q a t ! -la, -chun shakllario'zi bog'lanib kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qo'llarim-la, Vatan-chun.*

Uchun, bilan, kabi, singari ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin: *shuning uchun, bunung kabi, shuning singari.*

2. Ko'makchilar va kelishiklar

Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi kelishik qo'shimchasi rni yoki kelishik qo'shimchasi ko'makchiorni almashib kelishi mumkin. Ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rni-payt, chiqish kelishiklario'rni almashib kelishi mumkin: *Radio orqali eshitdik - Radiordan eshitdik. Ukam uchun oldim - Ukamga oldim. Qalam bilan yozdi - Qalamda yozdi.* Borgani **haqida** gapirib berdi - **Borganini** gapirib berdi. Biroq hamma

vaqt ham ko'makchio'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *Do'stiga yordamlashdi* gapida jo'naliш kelishigi qo'shimchasio'rnida ko'makchini qo'llab bo'lmaydi.

2-§. Bog`lovchi

Gap bo`laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog`laydigan yordamchi so`zlar bog`lovchi deyiladi. Bog`lovchilar gap bo`laklari va ayrim sodda gaplarni o`zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko`rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o'r ganib dono bo'lur») Kumush ichkariga kirib ko`zdan g`oyib bo`ldi, lekin Ot abek yana bir necha daqiqqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog`lovchilar qo`llanishiga ko`ra ikki turli bo`ladi: 1. Yakka bog`lovchilar. 2. Takroriy bog`lovchilar.

Yakka bog`lovchilar uyushgan bo`laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo`llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go`yo, basharti, garchi, go`yoki, holbuki, vaholanki.

Xazon qilmas Zaynabni zamona Va otashda o`rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizzon, go`yo ona o`z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Ot abekni ko`klarga ko`tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g`ijingandek ko`rinar edi. (A.Qod.)

Takroriy bog`lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o`rinda gap bo`laklari, shuningdek qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir..., bir. Masalan, *U goh dashtdag'i otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go`zal kanilarning mayin kulgulariga qulq solib yotarkan, olam beg`ubor bo`lib tuyular edi. (O.YO.) YO bir maslahatni aytib bo`ladi, yo ro`zg`or ishni. (CHO`pon). Dam bobomga, dam uning o`rtog`iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoy o`g`lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)*

Takroriy bog`lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo`llanishi mumkin, ham, ba'zan, bir so`zleri esa yakka holda qo`llansa bog`lovchi bo`la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo`lgan yoki dunyodan ko`z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o`zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Bog`lovchilar gapdagi vazifasiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

1) teng bog`lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog`lovchilar.

1. Teng bog`lovchilar

Teng bog`lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo`laklarini va gaplarni o`zaro bog`lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so`zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)*

Teng bog`lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog`lovchilariga bo`linadi.

1) biriktiruv bog`lovchilar guruhiга **va, hamda, bilan, ham** kabi so`zlar kiradi. Bu bog`lovchilar gapning uyushiq bo`laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog`laydi. Biriktiruv bog`lovchisi **va** eng ko`p qo`llanadigan bog`lovchidir. Bu bog`lovchi:

1) gapning uyushiq bo`laklarini bog`laydi: *Aqli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhabatlarida bo`ladi, ulardan bahra oladi* («Oz-oz o'r ganib dono bo'lur»);

2) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lashga xizmat qiladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: *Hamid Rahmat bilan birga Ot abekni Ziyo akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo`natgan edik.* (A.Qod.)

Ham, hamda bog`lovchilari ham gapning uyushiq bo`laklarini va qo'shma gap qismlarini bog`lash uchun qo`llanadi. Sultonmurod ham do`s t Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.) Kun sovidi hamda erlar muzladi.

Ham so`zi bog`lovchi bo`lib emas, balki gap ma`nosini yoki ayrim gap bo`laklarini ta`kidlash, kuchaytirish uchun ko`p ishlataladi. Quyosh ham oltin to`rlarini to`kib, mag`rur ko`tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog`lovchilar ilan ko`makchisi, -da, -u(-yu) yuklamalari ham qo`llanadi.

Bobom asta ko`zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) Onayu bola-gulu lola. (Maqol). SHudgorda Jannatxola ilan Zebixon qoldi. (S.A.)

1) zidlov bog`lovchilar guruhiba *biroq, ammo, lekin, balki, holbuki* kabi so`zlar kiradi. Bu bog`lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan bo`laklarni yoki gaplarni bog`lash uchun xizmat qiladi.

*Biroq, ammo, lekin bog`lovchilar gap bo`laklarini bog`lab kelganda zidlik ma`nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to`ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo`shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog`lashda esa keyingi qism avvalgi qismida aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar, voqeahodisalardan faqat bittasining bo`layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma`nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko`p, lekin bir-biriga o`xshamaydi. (O.) Har narsaning yangisi, ammo do`stning eskisi yaxshi. («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»). O`xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi. (O.)**

Zidlov bog`lovchilar gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo`lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog`laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo`laklari va gaplarni bog`lashda -da, -u (-yu) yuklamalari ham qo`llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina (O.)*

2) ayiruv bog`lovchilar guruhiba *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba`zan..., ba`zan, bir-bir* kabi so`zlar kiradi.

Bu bog`lovchilar narsa, voqeahodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo`lishini ko`rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog`lovchilar uyushgan bo`laklarning birini ikkinchisidan, biror voqe, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko`rsatish uchun ishlataladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko`rmadi, yo ko`rsa ham nazarga ilmadi. (CHo`lpon). «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) Xoh ishoning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to`qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

Ba`zan..., ba`zan, dam..., dam, goh..., goh bog`lovchilar esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalarydi. *Dam tekisliklar bo`ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong`i shiftga tikilib yotgancha xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O`Hoshimov) Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

2. Ergashtiruvchi bog`lovchilar

Ergashtiruvchi bog`lovchilar qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo`li bilan bog`laydi.

Ergashtiruvchi bog`lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma`nolariga qarab: 1) aniqlov bog`lovchisi; 2) sabab bog`lovchilar; 3) chog`ishtiruv bog`lovchilar; 4) maqsad bog`lovchisi; 5) shart va to`liqsizlik bog`lovchilariga bo`linadi.

1) aniqlov bog`lovchilariga ya`ni, -ki (-kim) so`zları mansub bo`lib, ular ergash gaplarni bosh gapga bog`lash uchun qo`llanadi. Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi. *Mirzo Ulug`bek joyiga o`tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi. (O.Y.)*

2) sabab bog`lovchilariga chunki, shuning uchun, negaki, zeroiki, nainki kabi so`zlar kiradi. Bu bog`lovchilar ergash gapni bosh gapga bog`lab, sabab, payt ma`nolarini ifodalarydi. *Chorasi bo`lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo`lmaydi. (Amir Temur o`gitlari) Ko`chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o`z to`yini kutar edi. (O.)*

3) chog`ishtiruv bog`lovchilari: *go`yo, go`yoki.* Bu bog`lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko`rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko`rkam bir yoshlik, go`yo qalbimda ulg`aydi quyoshday viqor.* (J.Jabborov). *Nihoyat chollar jim bo`lishadi, go`yo yoshliklarini sog`inganday boshlarini quyi solishadi* (O.)

4) maqsad bog`lovchisi *toki* qo`shma gap tarkibidagi maqsad ma`nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog`laydi. *Yomonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar.* (H.G`.)

5) shart va to`liqsizlik bog`lovchilari: *agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo.*

Bu bog`lovchilar shart va to`liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo`lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to`liqsizlik ma`nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g`oya uchun kurash bilan o`tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak.* (M.Ibr.) *Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo`lsa ham, kechagidan ko`ra qo`rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi.* (O.)

Bog`lovchi vazifasini bajaruvchi so`zlar

Boshqa so`z turkumiga oid ba`zi so`zlar ham bog`lovchi o`rnida qo`llanadi: *ilan, deb, degan, bordi-yu, u(-yu), -da.*

Masalan: *Umrim shirin o`tsin deb, tilni tiydim hamisha.* Ayvonda *Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o`tirishibdi* (O.)

2 -§. Yuklama

Ayrim so`z yoki gapga qo`shimcha ma`no berish uchun qo`llanadigan yordamchi so`zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo`ladi.* (M.Hasaniy). *Quyosh ham atayin nurlarini to`kib, mag`rur ko`tarildi.* (O.)

YUklamalar tuzilishiga ko`ra ikki xil: a) qo`shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so`z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos. To`ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g`irch etib ochildi-da, ruxsat so`rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G`iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o`tirib, uni erkalatmasmidi.

1. Yuklamalarning turlari

Hozirgi o`zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so`zlarga beradigan qo`shimcha ma`nolariga ko`ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo`lish mumkin.

1. So`roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so`roq, taajjub, hayrat kabi ma`nolari bildiradi. Masalan: - *Kelinning suluvligi Marg`ilonda ma'lum ekanmi?* (A.Qodiriy) *Men dalada ishlashish kerakmishmi?* (O.)

-chi yuklamasi so`roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta`kid ma`nolarini bildiradi. - *Sizga-chi, Anvar* (A.Qodiriy) - *O`g`ling qaytsin-chi, bo`lmasa...* (A.Qod.) - *Loaqlar bir og`iz o`g`lingizga aytib o`tishga va'da bering-chi, -dedi* (A.Qod.) - *O`rtoqjon, bir narsa desang-chi.* (Cho`lpon).

-a (-ya) yuklamalari so`roq, taajjub, hayratlanish ma`nolarini bildiradi. *Bu gap oramizda qolsin-a!* (T.Malik) *Gulnorni sevishimni bilardi-ya* (O.) - *Qizim, bugun mehmonlaringni Sultanxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolmasinmi!* (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta`kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma'noni kuchaytirish, to`liqsizlik, tezlik va davomiylik ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi. *Shundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo`ldim (A.Q.)* - *O`z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (Cho'lpon) Mirzo Ulug`bek maktubni o`qib tugatmasdanoq o`rnidan turib ketdi. (O.Y.) Ko`plar yomg`irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)*

Ham, axir, hatto, hattoki, nahot (nahotki) so`z yuklamalari fikrni ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. (S.A.) Oyim o'rta bo`yli, oppoq, nozik tabiat ham ipakday muloyim, istarasi issiq xotin edi. (Zarifa Saidnosirova) Axir bu qal'ani olguncha ozmuncha talofat berildimi? (P.Q.) Sizni otasi o`rnida ko`rsak-u, nahotki sizdan beso`roq ish tutsak (A.Q.) Uzoq cho`zilgan bu suhabatda Miryoqubning qulog`i bir marta g`alati dingkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko`zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. (CH.) Bir qissakim, buning so`ngida Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina)*. Bu yuklamalar turli so`z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko`rsatish va ma'no jihatdan ajratish uchun qo'llanadi. *O`zi haqida o`ylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bog`lagan olim kishi xudi shamga o`xshaydi, sham o`zini yondiradi, xalqqa ziyo bag`ishlaydi. (M.Hasaniy) YOqimli do`stgina suhbatli olis yo`lni yaqin qiladi. (M.Hasaniy) Dunyoda ko`rib o`taturgan barcha orzuimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan (A.Qod.)*

Faqat yuklamasi o`rnida yolg`iz so`zi qo'llanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolg`iz mingboshi orqali bo`lsa, unga «epaqa» nomini qo'yish to`g`ri bo`larmidi. (Cho'lpon)

4. Aniqlov yuklamasi: *xuddi, naq, ayni*. Bu yuklamalar o`zi mansub bo`lgan so`zning ma'nosini aniqlab ko`rsatish uchun qo'llanadi. *Ilm o`rganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq yer haydab, uni ekmagan kishiga o`xshaydi. (M.Xasaniy) Hayosi yo`q po`sti shilib olingan yog`och va xuddi yog`i tugagan chiroqqa o`xshaydi. (M.Hasaniy)*

5. Guman yuklamasi: -dir barcha so`z turkumlariga qo'shib kela oladi va o`zi aloqador bo`lgan so`zga guman, noaniqlik ma'nosini qo'shami: - Sizga nimadir va'da bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkor yuklamasi *na... na* uyushiq bo`laklar va qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, bo`lishsizga aylantiradi. Inkor shaklli gap bo`laklari va gaplar oldida kelganda, bo`lishsizlik kuchaytiriladi, ta'kidlanadi. *Bu buyruqqa na ona e'tiroz qildi va na qiz (Cho'lpon). Na qor, na yomg`irdan darak bor. (O.)*

2. Yuklamalarning yozilishi

1) -mi, -oq(-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir yuklamalari o'zidan oldingi so`zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2) -chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya) yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

D i q q a t! Juft so`zlar tarkibida boG'lovchi vazifasida kelgan -u(-yu) yuklamasi kirilcha yozuvda so`zga qo'shib yoziladi: Гапу сўз кўпайди. Yangi alifboda esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *Gap-**u** so`z ko'paydi.*

4) *faqat, ham, hatto, axir* kabi so`z yuklamalar ayrim yoziladi: *ToG'larda hatto yoz oylarida **ham** yomG'ir yoG'adi.*

5)

Ko`makchi tahlili	Bog`lovchi tahlili	Yuklama tahlili
1. Turi aniqlanadi.	1. Qo'llanish turi.	1. Tuzilishiga ko`ra turi.
2. Qaysi kelishikdag'i so`zga bog`langan?	2. Ma'no hamda vazifasiga ko`ra turi.	2. Ma'nosiga ko`ra turi
3. Grammatik ma'nosи.	3. Nimani bog`lagan?	
4. Qaysi so`zni qaysi so`zga		

Takrorlash uchun savollar:

1. Ko`makchi ta'rifini aytинг va misollar keltiring.
2. Ko`makchi qanday gap bo`lagi bo`lib keladi?
3. Sof ko`makchilar haqida gapiring.
4. Ko`makchi vazifasida qo`llanuvchi so`zlar haqida gapiring.
5. Ko`makchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
7. Qaratqich kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
8. Jo`nalish kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring.
9. CHiqish kelishikdagi so`zlar bilan qo`llanadigan ko`makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring
10. Ko`makchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
11. Bojlovchining ta'rifini aytинг.
12. Bojlovchilar qo`llanishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
13. Teng bojlovchilar ta'rifini aytинг.
14. Biriktiruvchi bojlovchilarning ta'rifini aytинг.
15. Zidlov bojlovchilar ta'rifini aytинг.
16. Ayiruv bojlovchilar ta'rifini aytинг.
17. Ergashtiruvchi bojlovchilarning ta'rifini aytинг.
18. Aniqlov bojlovchilari haqida so`zlang.
19. Sabab bojlovchilari haqida gapiring.
20. SHart va o`xshatish bojlovchilari haqida gapiring.

ALOHIDA OLINGAN SO`ZLAR GURUHI**1-§. Modal so`zlar**

So`zlovchining o`z fikriga bo`lgan munosabatini bildiradigan so`zlar **modal so`zlar** deyiladi:
Ehtimol, bugun etib kelar.

Modal so`zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so`zlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat* (ax.). 2) fikrning qat'iyligi ta'kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so`zsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelevkning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o`z-o`zidan*, 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to`g`ri, xoynaxoy, muhaqqaq* (axxaik), *aslida, darvoqe, rostdan*.

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so`zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog`i;*

2) fikrning gumanli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*

3) fikrning tusmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*

4) fikrning chinligiga guman ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*

6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*

7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*

8. Quvonch: *xayriyat.*

9. Mayjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo`q.*

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so`zlar ham mavjud.

Modal so`zlarning ko`pchiligi mustaqil so`zlardan o`sib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan*, *haqiqatan*, *mazmuni*, *ehtimol*, *darhaqiqat*; 2) sifatdan: *yaxshi(ki)*, *to`g`ri*, *so`zsiz*, *shubhasiz*, *tabiiy*; 3) ravishdan: *albatta*; 4) fe`ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohnaxohi* so`zidan); 4) bog`lovchidan: *balki*; 5) so`z birikmasidan: *har qalay*, *har holda*; 6) gapning modal so`zga aylanishi: *holbuki* (*Hol buki*); 7) so`z tushirish natijasida hosil bo`lgan: *o`z-o`zidan* (*aniq so`zi tushib qoladi*).

Modal so`zlar **sof** va **vazifadosh** modal so`zlarga bo`linadi. *Haqiqatan*, *darhaqiqat*, *afsuski*, *attang*, *albatta*, *shekilli*, *avvalo*, *xullas*, *masalan*, *umuman*, *taxminan* so`zları sof modal so`zlar hisoblansa, modal ma`noda ham qo`llanadigan *aftidan*, *chamasi*, *balki*, *ehtimol*, *shubhasiz* kabi so`zlar vazifadosh modal so`zlar hisoblanadi.

Modal so`zlar gap tarkibidagi so`zlardan vergul bilan ajratiladi va ko`pincha **kirish so`z** vazifasini bajarib keladi.

2-§. Undov so`zlar haqida ma'lumot

His-hayajon, tuyg`uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so`zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh*, *uh*, *o*, *e*, *uf*, *voy*, *ura*, *barakalla*, *ofarin*, *salom*, *xayr*, *xo`sh*, *rahmat*, *balli*, *bay-bay*, *voy-bo`y*, *a*, *ax*, *ohho*, *abbo*, *ey*, *ehhe*, *i*, *ie*, *o`h*, *o`hho`*, *hm*, *him*, *be*, *tuf*, *hah*, *ho*, *hay-hay*, *eh*, *o`*, *ha*, *iyi*. Bu so`zlar mustaqil so`zlarga ham yordamchi so`zlarga ham kirmaydigan ayrim so`z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo`llanishi mumkin: *oh*, *voy*, *oh-voh*, *dod-voy*, *bay-bay*, *hay-hay*.

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma`no jihatidan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. **His-hayajon** undovlari quyidagi ma`nolarni ifodalaydi:

1) shafqat, mehribonlik: *ie*, *o*, *voy*, *voy-ey*, *eh*; 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho*, *o`h-ho`*, *ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh*; 4) mammuniyat, faxrlanish, mag`rulanish, xayrihohlik: *e-ha*, *eh*, *ha-ya*, *o`*; 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha*.

Undovlar yozuvda gap bo`laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo`lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo`yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so`zlardan undovlarga ko`chgan so`zlar ham mavjud: 1) olmoshdan : *qani*; 2) fe`llardan: *kel*, *hormang*, *yo`qol*, *bor-ey*, *yashang*, *kechirasiz*: *Kel*, *bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo`lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so`z, yoki so`z-gap bo`lib kelishi mumkin: *Ie, men kimni ko`ryapman?* - *Dod!* - ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.

2. **Buyruq-xitob** undovlari ikki xil bo`ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarining diqqatini tortish uchun qo`llanadigan: *hoy*, *hay* (bir marta aytilsa), *hey*, *allo*, *ey*; b) ta`kid, buyurish uchun qo`llanadigan: *ma*, *tss*, *jim*, *marsh*; 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo`llanadigan: *kisht*, *bah-bah*, *mosh-mosh*, *tu-tu-tu*, *kuch-kuch*, *gah*, *chuh*, *beh-beh*, *quarey-quarey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to`xtatish uchun qo`llanadigan: *ishsh*, *ho`k*, *tak*; v) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlataladigan: *pisht*, *drr*, *xix*, *hov-hov*, *cho`k*, *tek*, *hayt*, *chu*.

3. **Ko`rsatish, ta`kid** undovlari quyidagi ma`nolarni ifodalaydi:

1) ko`rsatish: *hu*, *huv*, *hovv*; 2) javob, tasdiq, ta`kid, mulohaza: *ha-ha-ha*, *xo`sh*, *labbay*, *ha*.

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim darsliklarda **nutqiy odat**) undovlari deb ataladi: (25; 100.) tarzida ajratish mumkin: *rahmat*, *marhamat*, *salom*, *xayr*, *barakalla*, *ofarin*, *balli*, *yashang*, *hormang*, *qulluq* va b.

Undovlar odatda **deb** so`zi bilan qo`llanib, hol (*U “voy” deb yonboshiga yiqildi*), **degan** so`zi bilan qo`llanib, gapda ko`pincha sifatlovchi-aniqlovchi (*Ko`chada “dod” degan* ovoz eshitildi) bo`lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (*Ularning dod-voyi osmoni*

falakka chiqdi.), kesim (Endi uning holiga voy) to`ldiruvchi (Uning oh-yohiga kim qulog soladi?), qaratqich-aniqlovchi (Dod-voyning foydasi yo`q.) vazifalarini bajaradi.

3-§. Taqlid so`zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so`zlar **taqlid so`zlar** deyiladi. Bunday so`zlar ma`no jihatidan ikki turga bo`linadi:

1. **Tovushga taqlid** bildiradigan so`zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g`arch-g`urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo`o`, maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g`a-g`a, qag`-qag`, pit-pildiq, parr, viz-viz.*

2. **Holatga taqlid** bildirgan so`zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g`uj-g`uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo`lt-mo`lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g`ivir-g`ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so`zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo`llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so`zlar orasiga chiziqcha qo`yiladi.

Taqlid so`zlar mustaqil so`zlar kabi gap bo`lagi bo`la oladi: *Shamol g`ir-g`ir* (hol) *esmoqda*.

Tovushga taqlid so`zlar ba`zan otlashib, ko`plik, egalik va kelishik qo`shimchalarini qabul qiladi va **ega, qaratqich aniqlovchi** hamda **to`ldiruvchi** vazifalarini bajaradi: *Odamlarning g`ovur-g`ovuri bosildi. YUragining duk-dukini eshitdi. CHug`ur-chug`urning to`xtashi amri mahol.*

Modal so`zlar tahlili	Undov, taqlid so`zlar tahlili
1. Ma`no turi. 2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan? 3. Gapda bajargan vazifasi	1. Ma`no turi. 2. Tuzilish turi. 3. Otlashgan-otlashmaganligi. 4. Gapda bajargan vazifasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Modal so`zlarning ta`rifini ayting.
2. Modal so`zlarning ma`no jihatidan turlarini ayting.
3. Ma`lum bir guruhgaga kirmagan modal so`zлarni sanab ko`rsating.
4. Mustaqil so`zlardan o`sib chiqqan modal so`zlar haqida gapiring.
5. Modal so`zlar kelib chiqishiga ko`ra yana qanday bo`lishi mumkin?
6. Undov so`zlarning ta`rifini ayting.
7. Undov so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanishi mumkin?
8. His-hayajon undovlari haqida gapiring.
9. Mustaqil so`zlardan his-hayajon undovlariga o`tgan so`zlarga misollar keltiring.
10. Haydash-chaqirish undovlari haqida gapiring.
11. Haydash-chaqirish undovlari qanday so`zlar bilan qo`llanadi?
12. Taqlid so`zlarning ta`rifini ayting.
13. Tovushga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
14. Holatga taqlid so`zlar haqida so`zlang.
15. Taqlid so`zlar qanday ko`rinishlarda qo`llanadi?
16. Taqlid so`zlar mustaqil so`zlarga qaysi jihatlari bilan o`xshaydi?
17. Taqlid so`zlarning otlashishi haqida gapiring.
18. Eskirgan modal so`zlarga misollar keltiring.
19. “O`z-o`zidan” modal so`zi qaysi mustaqil so`z turkumlariga omonim bo`la oladi?
20. Ham tovushga, ham holatga taqlid bildiradigan so`zlarga misollar keltiring.

SINTAKSIS

1-§. Sintaksis haqida umumiylar ma`lumot

Sintaksis (grekcha – *syntax* – «tuzish» so‘zidan olingan) grammatikaning bir bo‘limi bo‘lib, so‘zlarning birikish yo‘llari, so‘z birikmasi, gap, uning turlari, xususiyatlarini tekshiradi.

Sintaksis, bir tomondan, so‘z va so‘zshakllarning, shuningdek, gaplarning aloqa qilish, birikish yo‘llarini tekshirsa, ikkinchi tomondan, ma’lum bog‘lanish asosida yuzaga keladigan sintaktik birliklarni o‘rganadi.

So‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari asosiy sintaktik birliklar, sintaktik kategoriyalar hisoblanadi.

2-§. Sintaktik aloqa turlari

So‘zlarning, shuningdek, gaplarning orasidagi bog‘lanish, aloqa ikki xil bo‘ladi: 1) teng bog‘lanish yoki teng aloqa; 2) tobe bog‘lanish yoki tobe aloqa.

Teng bog‘lanish sintaktik jihatdan teng huquqli bo‘lgan biri ikkinchisiga bo‘ysunmagan so‘zlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi so‘zlar yoki gaplar o‘zaro teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar, ohang yordamida munosabatga kirishadi. Masalan: 1. *Beminнат qilingan eзgulik eng maqbul va go‘zal eзgulikdir.* (*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*). 2. *Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdир.* (*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*). Birinchi misolda *eng maqbul, go‘zal* so‘zları o‘zaro teng bog‘lanib, gapda uyushiq sifatlovchi vazifasini bajargan. Ikkinci misolda esa *Bilmaslik ayb emas* va *Bilishni istamaslik aybdир* gaplari bir-biri bilan teng aloqaga kirishgan.

Tobe bog‘lanishda biri hokim, ikkinchisi tobe bo‘lgan a’zolar (so‘zlar, ergash gapli qo‘shma gap qismi) o‘zaro aloqaga kirishadi. Ularning biri ikkinchisini aniqlash, izohlash, to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Aniqlaydigan, izohlaydigan, to‘ldiradigan a’zosi **tobe**, izohlanadigan a’zo **hokim** deb yuritiladi: 1. *Kitobni o‘qimoq, qiziqarli voqeа.* 2. *Kimning himmati baland bo‘lsa, qadr-qimmati ham bo‘ladi* (*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*). Birinchi misolda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlardan biri hokim qism (*o‘qimoq, voqeа*), ikkinchisi (*kitobni, qiziqarli*) tobe a’zo bo‘lib kelgan. Ikkinci misolda ergashgan qo‘shma gapning qismlaridan biri «*qadr-qimmati ham baland bo‘ladi*» hokim a’zo, bosh gap sifatida, ikkinchisi «*kimning himmati baland bo‘lsa*» tobe a’zo ergash gap sifatida qatnashgan. Shunday qilib, bog‘lanishning ikki xil turini so‘zlar orasida ham, gaplar orasida hamkuzatish mumkin. (Gaplar orasidagi bog‘lanish haqida «Qo‘shma gap» bo‘limida baxs yuritiladi).

So‘zlar orasidagi tobe bog‘lanish ikki xil bo‘ladi:

1) **predikativ** tobe bog‘lanish; 2) **nopredikativ** tobe bog‘lanish.

Ega va kesimning bog‘lanishi predikativ tobe bog‘lanish hisoblanadi va bunday bog‘lanishdan gap hosil bo‘ladi. Tobe (ergash) bog‘lanishning qolgan ko‘rinishlari (aniqlovchi+aniqlanmish, to‘ldiruvchi+to‘ldirilmish, hol+hollanmish) nopredikativ tobe bog‘lanish bo‘lib, bunday bog‘lanishdan so‘z birikmasi yuzaga keladi.

So‘zlarning nopredikativ tobe bog‘lanishi uch xil bo‘ladi: 1) **boshqaruv;** 2) **bitishuv;** 3) **muvofiqlashuv.**

1. Boshqaruv. Tobe so‘zning hokim so‘z talab etgan shaklda kelishi boshqaruv deyiladi. Bunda boshqariluvchi so‘z bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa kelishik shaklini yoki ko‘makchini olib keladi. Boshqariluvchining qaysi kelishik yoki ko‘makchi bilan shakllanishi boshqaruvchi so‘zning ma’nosи, semantikasi bilan belgilanadi: *kitobni o‘qimoq, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilmoq, universitetda o‘qimoq, ishdan qaytmoq, o‘quvchilar bilan suhbatlashmoq* kabi.

Boshqaruv ikki xil bo‘ladi: **kelishikli** boshqaruv va **ko‘makchili** boshqaruv.

Kelishikli boshqaruvda boshqariluvchi so‘z ma’lum kelishik shaklida qo‘llanadi: *kattalarни hurmat qilmoq, tog`га chiqmoq* kabi.

Ko‘makchili boshqaruvda boshqariluvchi so‘z ko‘makchi orqali shakllanadi: *zavq bilan ishlamoq, telefon orqali gaplashmoq* kabi.

Boshqaruv usuli bilan bog‘lanish to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish, hol-hollanmish munosabatlarini yuzaga keltiradi.

2. Bitishuv. Hokim va tobe so‘zlarning o‘zaro so‘z tartibi hamda ohang yordamida birikishiga **bitishuv** deyiladi. Bitishuv yo‘li bilan bog‘lanish sifatlovchi-sifatlanmish (*yangi libos*), izohlovchi-izohlanmish (*shoir Erkin Vohidov*), qisman hol-hollanmish (*to‘satdan uchrab qolmoq*) munosabatidagi birikmalarga xos bo‘lib, uning qismlari ifoda materialiga ko‘ra turlicha bo‘ladi:

- 1) sifat + ot: *ziyrak bola, yam-yashil dala;*
- 2) ot + ot: *temir darvoza, oltin kuz;*
- 3) son + ot: *besh kishi, o‘n tup ko‘chat;*
- 4) olmosh + ot: *barcha xalqlar, shu yo‘l;*
- 5) sifatdosh + ot: *sinalgan odam, aytilgan so‘z;*
- 6) ravish + ot: *mo‘l hosil, ko‘p xususiyatlar;*
- 7) taqlid so‘z + ot: *g‘ir-g‘ir shabada, tars-turs ovozlar;*
- 8) ravish + fe’l: *tez yurmoq, erta kelmoq;*
- 9) ravishdosh + fe’l: *o‘ylab gapirmoq, quvonib aytmoq;*
- 10) taqlid so‘z + fe’l: *duv-duv to‘kilmox, gir-gir aylanmoq.*

3. Muvofiqlashuv. O‘zbek tilida qaratqich va qaralmishning aloqasi bog‘lanishning alohida turini tashkil qiladi. Bunda so‘zlardan birini hokim, birini tobe deb qarash qiyin, chunki qaralmishning talabi bilan qaratuvchi bo‘lak qaratqich kelishigi shaklini oladi, o‘z navbatida, qaratuvchining talabiga ko‘ra qaralmish egalik affiksini qabul qiladi: *bolalarning quvonchi, mening kitobim, sening daftaring, ularning vazifasi* kabi. Bunda munosabatdorlik (o‘zaro hokimlik, tobelik) kuzatiladi.

Aslida moslashuv deyilganda, tobe so‘z shaklining hokim so‘z shakliga mos kelishi nazarda tutiladi. Bu holat rus tiliga xos, negaki moslashuv yo‘li bilan tuzilgan qurilmalarda, jumladan, aniqlovchili birikmalarda tobe so‘z hokim so‘z bilan grammatic shaklda moslashib, hokim so‘z bildirgan xususiy grammatic ma’nolarga ega bo‘ladi. Masalan, *interesnaya kniga* birikmasida *kniga* hokim so‘z bo‘lib, bosh kelishik, birlik, jenskiy rod (jins) kabi xususiy grammatic ma’nolar anglatgan; tobe so‘z (*interesnaya*) hokim so‘zning aynan shu shakliga moslashib, xuddi shunday grammatic ma’nolarni ifodalaydi.

O‘zbek tilida qaratuvchi va qaralmishning munosabati yuqorida qayd etilgan birikma qismlarining munosabatidan farq qiladi. Shuning uchun bunday bog‘lanishni moslashuv deb emas, **muvofiqlashuv** deb izohlash lozim bo‘ladi.

Demak, o‘zbek tilida qaratuvchi va qaralmishning birikishi muvofiqlashuv asosida voqe bo‘ladi.

3-§. So‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvi

Gapda so‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvi quyidagi vositalar orqali bo‘ladi:

1. Affikslar. O‘zbek tilida so‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvida turlovchi va tuslovchi affikslarning xizmati katta. Masalan: *Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ladi* (O‘.H.). Bu gapdagisi so‘zlar o‘zaro kelishik affikslari (-ning, -ga), egalik affiksi (-i) va shaxs-son affiksi (-di) orqali sintaktik aloqaga kirishgan.

2. Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar, bog‘lovchilar gapda so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi. Masalan: *Xalqning ulug‘vorligi uning soni bilan o‘lchanmaydi, yagona o‘lchov uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir.* («*Tafakkur gulshani*»). Bu gapda ot (soni) fe’lga (o‘lchanmaydi) bilan ko‘makchisi orqali bog‘langan; *kamoloti, barkamolligi* so‘zleri teng aloqaga kirishib, uyushgan ot kesim vazifasini bajargani holda va bog‘lovchisi yordamida sintaktik munosabatga kirishgan.

Ba'zi hollarda **yuklamalar** ham bog'lovchi vazifasida kelib, gaplar, so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni ko'rsatib keladi: *Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi.* (P.Q.).

Bog'lama ega va ot kesim munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan yordamchidir: *Hayotda go 'zallik, quvvat va saodatning manbai soddalikdir.* («Oz-oz o'rghanib dono bo'lur»).

3. So'z tartibi. Gap tarkibidagi so'zlarda maxsus grammatik ko'rsatkichlar bo'lganda, ularning o'rnini almashtirish sintaktik holatni o'zgartirmaydi. Qiyoslaylik: *daraxtlarning tagida... nozikkina maysalar ko'riniq qoladi.* (O'.U.). – *Nozikkina maysalar daraxtlarning tagida ko'riniq qoladi.*

So'zlarda maxsus grammatik ko'rsatkichlar bo'lmaganda, ularning o'rnini almashtirish sintaktik holatga ta'sir qiladi. Qiyoslang: *yam-yashil dala (aniqlovchili birikma)* – *Dala yam-yashil* (ega, kesimdan iborat yig'iq gap).

4. Pauza(to`xtam). Pauza ham sintaktik vosita sifatida ahamiyatga ega. Pauzaning o'zgarishi sintaktik holatning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan: *Quloq solib o'tirgan boladan so'radi.* Bunda boladan so'zidan so'ng pauza qilinsa, quloq solib o'tirgan sifatdoshi boladan so'ziga nisbatan sifatlovchi vazifasini bajaradi. Agar quloq solib o'tirgan sifatdoshidan keyin pauza bo'lsa, sifatdosh anglashgani holda ega vazifasini bajaradi.

4-§. So'z birikmasi

Odatda, nutqda, gapda so'zlar ma'lum qonun-qoidalar asosida o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi. Masalan, *qiziqarli kitob, tog`ga chiqmoq, tez o'qimoq.* Bunday juftlik bir butunlik hosil qilib, yaxlit, lekin o'z ichida qismlarga bo'linadigan bir butun tushunchani bildiradi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z va so'z shakllarning noprifikativ tobe aloqasi asosida birikishidan hosil bo'lgan bog'lanma **so'z birikmasi** deyiladi.

So'z birikmasi mustaqil so'zlarning bog'lanishidan hosil bo'ladi, yordamchi so'zlar (ko'makchilar) o'z oldidagi mustaqil so'z bilan birga birikmaning bir qismi, a'zosi sanaladi. Masalan, *do'stlik haqida suhbatlashmoq, qarsaklar bilan olqishlamoq* kabi.

So'z birikmasi tarkibidagi so'zlardan biri hokim, ikkinchi tobe bo'ladi. So'z birikmasi boshqaruv, bitishuv, muvofiqlashuv usullari bilan hosil bo'ladi.

So'z birikmasi, birinchidan, frazeologik iboralardan farq qiladi. Frazeologik iboralar so'z kabi til birligi bo'lib, so'z kabi tayyor holda qo'llanib, bir butun holda lug'aviy ma'no ifodalaydi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z birikmasi tarkibidagi a'zolar boshqa-boshqa gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

So'z birikmasini, ikkinchidan, gapdan farqlash lozim. So'z birikmasi tushuncha ifodalab, nominativ (nomlash, atash) vazifasini bajaradi, shuning uchun intonatsion tugallikka ega bo'lmaydi. Gap esa fikr bildirib, **kommunikativ** (aloqa qilish) va **kognitiv** (fikr almashish) vazifalarini bajaradi. So'z birikmasi kamida ikki mustaqil so'zdan tuzilsa, gap ba'zan bir so'zdan ham tashkil topishi mumkin.

So'z birikmasi, uchinchidan, o'zaro teng bog'langan so'zlardan ham farq qiladi. Masalan: *Maqsad va marom insonning eng buyuk quvvatidir.* (Oz-oz o'rghanib dono bo'lur). Bunda maqsad va marom so'zleri o'zaro teng bog'lanib, gapda uyushiq bo'lak hosil qilib, so'z birikmasi sanalmaydi.

So'z birikmasi, to`rtinchidan, fonetik taktdan (sintagmadan) farqlanadi.

5-§. So'z birikmalarining tasnifi

So'z birikmalari quyidagi xususiyatlari asosida tasnif qilinadi:

1. So'z birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga ko'ra.
2. So'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra.

So'z birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga ko'ra tasnif qilinganda, hokim a'zoning qaysi so'z turkumidan ekanligi, tobe a'zoning sintaktik vazifasi asosga olinadi.

So‘z birikmalari hokim qismning qaysi so‘z turkumidan ekanligiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) otli birikma; 2) fe’lli birikma; 3) sifatli birikma; 4) ravishli birikma; 5) modal so‘zli birikma.

1. Otli birikma. Bunday birikmaning hokim so‘zi vazifasida ot, otlashgan so‘zlar keladi va u quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

Hokim a’zo vazifasida ot keladi: *g‘ayratli odam, samimiyl inson, ezgu niyatli kishi*.

Hokim a’zo sifatida olmosh keladi: *bolaning o‘zi, Karimaning o‘zi*.

Hokim so‘z sifatida otlashgan sifat keladi: *kishilardan eng mardi, qizlarning sarasi*.

Hokim a’zo vazifasida otlashgan son keladi: *talabalarning beshtasi, o‘quvchilardan biri*.

Hokim a’zo vazifasida otlashgan olmosh keladi: *tilaklarning barchasi, kutib oluvchilarning hammasi*.

Hokim a’zo vazifasida otlashgan sifatdosh keladi: *onamlarning aytganlari, bolalarning o‘qiyotgani* va b.

Hokim a’zo vazifasida otlashgan ravish keladi: *jumhuriyatimizning buguni, ishlarning ko‘pi*.

Hokim a’zo sifatida otlashgan undov so‘z keladi: *ularning dod-voyi, bolalarning qiy-chuvi*.

Hokim a’zo vazifasida otlashgan taqlid so‘z keladi: *otlarning dupur-dupuri, to‘plarning gumbur-gumburi*.

Ko‘rinadiki, otli so‘z birikmasi qismlari bitishuv, muvofiqlashuv va boshqaruv yo‘li bilan grammatik aloqaga kirishadi. Otli birikma so‘z shakli bilan so‘zning (leksemaning) yoki ikki so‘z shakllarning bog‘lanishidan hosil bo‘ladi.

2. Fe’lli birikma. Bunday birikmaning hokim qismi fe’l bilan ifodalanadi: *tez ishlaromoq, oldinda yurmoq, diqqat bilan tinglamoq, kulib gapirmoq*.

Fe’lli birikmaning a’zolari o‘zaro bitishuv va boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. Fe’lli so‘z birikmasi so‘z shakl bilan so‘zning (leksemaning) o‘zaro bog‘lanishidan yuzaga keladi.

3. Sifatli birikma. Mazkur birikmada hokim so‘z otlashmagan sifat bilan ifodalanadi, birikmaning qismlari boshqaruv yo‘li bilan sintaktik munosabatga kirishadi: *akasidan kuchli, singlisidan ziyrakroq*.

4. Ravishli birikma. Bunday birikmaning hokim so‘zi otlashmagan ravish bilan ifodalanadi. Ravishli so‘z birikmalarida tobe va hokim qismlar o‘zaro boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi: *raketadan tez, toshbaqadan sekin*.

5. Modal so‘zli birikma. Bunda modal so‘z birikmaning hokim so‘zi sifatida keladi. Birikma boshqaruv yo‘li bilan tuziladi: *bizga kerak, o‘quvchilarda bor*.

Sifatli, ravishli, modal so‘zli birikmalar ham fe’lli birikma singari so‘zshakl bilan so‘z (leksema)ning o‘zaro bog‘lashi natijasida hosil qilinadi.

So‘z birikmalari, tobe a’zoning sintaktik vazifasiga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) **aniqlovchili birikma;** 2) **to‘ldiruvchili birikma;** 3) **holli birikma.**

1. Aniqlovchili birikma. Bunday birikmalarning tobe a’zolari aniqlovchining barcha turlari vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra ularni: 1) sifatlovchili birikma; 2) qaratuvchili birikma; 3) izohlovchili birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *yozma ish, ilmiy maqola, beshta kitob, allaqanday ovozlar* – sifatlovchili birikma; *iqtisodiyotning taraqqiyoti, maktab hovlisi* - qaratuvchili birikma; *o‘qituvchi Salimova, professor Qodirov* - izohlovchili birikma.

Aniqlovchili birikma bitishuv va boshqaruv yo‘li bilan tuziladi.

2. To‘ldiruvchili birikma. Tobe a’zosi to‘ldiruvchi vazifasini bajaradigan so‘z birikmasi to‘ldiruvchili birikma deb yuritiladi. Bunda qismlar o‘zaro boshqaruv yo‘li bilan birikadi. Masalan: *yoshlarga nasihat qilmoq, odamlarni qadrlamoq, talabalar uchun darslik, ilm-fan haqida so‘zlamoq*.

3. Holli birikma. Bu xil so‘z birikmalarining tobe qismi hol vazifasini bajaradi. Holli birikmaning tobe va hokim a’zolari o‘zaro bitishuv yoki boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi: *yangicha fikrlamoq, birga ishlaromoq, maktabdan qaytmoq, erta boshlamoq*.

So‘z birikmalari tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1) oddiy so‘z birikmalari, 2) murakkab so‘z birikmalari.

Oddiy so‘z birikmasi. So‘zshakl bilan so‘z (leksema)ning yoki ikki so‘zshaklning bog‘lanmasi oddiy so‘z birikmasi hisoblanadi: *keng dala, tekisroq yo‘l, tinchlikka da’vat qilmoq, davlatlarning hamdo ‘stligi, maktab hovlisi*.

Biror qismi frazeologik ibora yoki murakkab tushunchani bildiradigan turg‘un birikma bilan ifodalanadigan so‘z birikmasi ham oddiy so‘z birikmasiga mansub bo‘ladi. Masalan: *yulduzni benarvon uradigan odam, Fanlar akademiyasi institutlari* kabi.

Murakkab so‘z birikmasi. Bunda birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi so‘z birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, *mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh bo‘lgan kishi* kabi so‘z birikmalarining tobe a’zosi («*mehnat qilishni sevadigan*», «*odamlarga xayrixoh bo‘lgan*») so‘z birikmasi shaklida qo‘llanib, hokim so‘zga bitishuv yo‘li bilan bog‘langan.

Murakkab so‘z birikmasining biror qismi, ko‘pincha tobe qismi predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ham ifodalanishi mumkin: *qiliqlari yoqimli bola, ota-onalarimiz bergen nasihatlar* kabi birikmalarining tobe a’zosi («*qiliqlari yoqimli*», «*ota-onalarimiz bergen*») gapga teng qurilma, ya’ni predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ifodalangan.

So‘z birikmasi tahlili	
1. Gapdagi so‘z birikmalari aniqlanadi.	5. So‘z birikmasining hokim a’zo turkumi bo‘yicha turi aniqlanadi.
2. Hokim va tobe a’zo lar aniqlanadi.	6. So‘z birikmasidagi tobe a’zoning vazifasi bo‘yicha turi aniqlanadi.
3. Hokim va tobe a’zo larning bog‘lanish usuli (moslashuv, boshqaruv, bitishuv).	7. So‘z birikmasining tuzilish turi aniqlanadi
4. Hokim va tobe a’zolarni bog‘lovchi vosita (kelishik qo‘srimchasi, ko‘makchi yoki ohang) aniqlanadi.	

GAP

1-§. Gap va uning belgilari

Sintaksisda o‘rganiladigan asosiy sintaktik birlik **gap** hisoblanadi. Gap – kishilar nutqining kichik birligi bo‘lib, u grammatik jihatdan tashkil qilingan, mazmun va intonatsiya jihatdan nisbiy tugallikka ega bo‘lgan so‘zlar bog‘lamasi yoki yakka so‘zdir. Aloqa birligi bo‘lmish gap fikrni ifodalash va shakllantirish birligi hamdir. Shunga ko‘ra gap **kommunikativ** (aloqa qilish) va **kognitiv** (fikr ifodalash) vazifalarni bajaradigan nutq birligi sanaladi. Gapning mazkur xususiyatlari uni so‘zdan va so‘z birikmasidan farqlaydi.

Gapning quyidagi asosiy belgilari mavjud:

1. Gapning ko‘pgina turlari mantiqiy hukm bilan chambarchas bog‘liq. Hukmda esa biror narsa haqida nimadir tasdiqlanadi yoki inkor etiladi va aynan ana shunda predikativlik o‘z ifodasini topadi. Demak, gapning muhim belgilaridan biri **predikativlikdir**. Predikativlik gap mazmunining obyektiv borliqqa bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Predikativlikni ifodalovchi grammatik vositalar mavjud bo‘lib, ular mayl, zamon, shaxs-son kategoriylaridir.

Predikativlik odatda so‘zlarning predikativ aloqaga kirishuvi bilan, ya’ni ega-kesim aloqasi bilan ifodalanadi. Masalan: *Bolalar keldi. Bolalar xursand.*

Ayrim hollarda predikativlik bir bosh bo‘lak bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Tinchlik uchun kurashaylik.

2. Gapda bayon qilinayotgan fikrga so‘zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Bunday munosabat **modallik** deb yuritiladi. Anglashiladiki, gapning asosiy belgilaridan biri modallik hisoblanadi. Modallik (tasdiq, inkor, guman, shubha kabilar) mayl kategoriysi, modal so‘zlar, yuklamalar kabi vositalar orqali ifolanadi.

3. Gap intonatsiya (ohang) jihatdan tugallikka ega bo‘ladi. Intonatsiya ham predikativlik, modallik belgilari singari gapni so‘z birikmasidan chegaralashga xizmat qiladi. Intonatsiya, birinchidan, so‘zlar bog‘lanmasi yoki yakka so‘z gapni shakllantirganini ko‘rsatsa, ikkinchidan, gapning tugallanganligini ifodalab, uni boshqa gapdan ajratib turadi. Intonatsiyaning xabar, so‘roq, buyruq va boshqa turlari farqlanadi.

4. Gap mazmun jihatdan ham nisbiy tugal bo‘ladi. Uning tugal fikrni ifodalashi ma’lum sharoit bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, predikativlik (gap mazmunining borliqqa munosabati), modallik (so‘zlovchining aytilyotgan fikrga munosabati), intonatsiya shakllanganlik va mazmunan nisbiy tugallik gapning asosiy xususiyatlari, belgilari sanaladi.

2-§. Gapning turlari

O‘zbek tilida gaplar turli nuqtai nazardan tasnif qilinadi.

- I. Ifoda maqsadiga ko‘ra.
- II. Emotsionalikka ko‘ra.
- III. Tuzilishiga ko‘ra.

Ifoda maqsadiga va bu maqsad bilan bog‘liq bo‘lgan intonatsiyaga ko‘ra gaplar **darak**, so‘roq, buyruq gaplarga ajratiladi.

Emotsionalikka ko‘ra gaplar ikki turga bo‘linadi: emotsiyal gaplar yoki undov gaplar va emotsiyal bo‘limgan gaplar. Darak, so‘roq, buyruq gaplar darak, so‘roq, buyruq ohangi bilan aytilda, emotsiyal bo‘limgan gaplar deb yuritiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan gaplar kuchli his-hayajonga ega bo‘lishi bilan emotsiyal gapga aylanadi. Emotsional gaplar **undov gaplar** deb ataladi.

Tuzilishiga ko‘ra gaplar sodda va qo‘shma bo‘ladi. Gaplarning bunday bo‘linishi ularning tarkibidagi predikativ birliliklarning soniga, miqdoriga asoslanadi.

3-§. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) **darak gap**; 2) **so‘roq gap**; 3) **buyruq gap**.

1. Darak gap

Borliq hodisalarini tasdiq yoki inkor yo‘li bilan xabar qiluvchi gap **darak gap** deyiladi. Darak gap nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda ko‘p qo‘llanadi.

Darak gap mazmunan va tuzilishi jihatdan rang-barang bo‘ladi. Darak gap darak intonatsiyasi bilan aytildi. Bunda gapning birinchi qismida ohang ko‘tariladi, ikkinchi qismida esa pasayadi. Masalan: *Yoz kechasining yoqimli salqini. Ko‘kda, daraxtlar ustida g‘uj-g‘uj yulduzlar yonadi. Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to‘ldirgan, go‘yo kechaning o‘zi kuylaydi.* (O.).

Darak gapning kesimi ko‘pincha aniqlik (xabar) maylidagi fe’l bilan yoki fe’ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalanadi.

Darak gap oxiriga nuqta qo‘yiladi.

2. So‘roq gap

So‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan voqe-hodisa, harakat-holat haqida ma’lumot olish ko‘zda tutiladigan gap **so‘roq gap** deyiladi.

So‘roq gaplar ko‘proq dialogik nutqda qo‘llanadi. Bunday gaplar alohida intonatsiya bilan aytildi.

So‘roq gaplarni quyidagi vositalar shakllantiradi:

1. So‘roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya). Masalan: *Chindan qo‘rqqanining mi bu, Robiya?* (P.Q.). *Ammo Naziraning o‘rniga o‘zimni qo‘yib ko‘rsam-chi?* (O’.Usmonov).

2. So‘roq olmoshlari (*kim, nima, qanday, qaysi, qachon, qaerda, nega va boshqalar*).
Masalan: *Akmalxon, nega bizga qatnamay qo‘ydingiz?* (F.Musajonov). *Nega o‘rtoqlaringizga qaramaysizlar? Bu qanaqa tartibsizlik?* (O‘.Usmonov).

3. So‘roq intonatsiyasi. Bunda savol mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zda intonatsiya (ohang) ko‘tariladi. Masalan: *Soyliqqa borasiz? – deb so‘radi.* (O‘.Usmonov). *Juda kamnamolar, Akmalxon?* (F.Musajonov).

So‘roq gaplar so‘roqning xususiyatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: **sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, so‘roq buyruq gaplar.**

Sof so‘roq gaplar tinglovchidan so‘roqqa javobni talab qiladi. Masalan: *Kechagi maqola nima bo‘ldi, Rahim aka?* (F.Musajonov). *Qishloq xo‘jalik bo‘limi shumi?* (F.Musajonov)

Ritorik so‘roq gaplarda so‘roq ichida uning javobi ham anglashilib turadi. Masalan: *Dunyoda sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko‘radigan kishining yuziga oyoq bosishdan og‘ir jinoyat bormi?* (A.Muhiddin).

So‘roq-buyruq gaplar so‘roq orqali buyruq jilvasini o‘z ichiga oladi. Masalan: *Aka, nega indamaysiz?* (P.Qodirov). *Uka, Murtazobekning o‘zi qayerdaligini aytib berolmaysizmi?* (O‘.Usmonov).

3. Buyruq gap

So‘zlovchining biror narsaga buyurish-xohishini bildiradigan gap **buyruq gap** deyiladi. Buyruq gapda quyidagilar ifodalanadi:

1. Buyruq, do‘q-po‘pisa. Masalan: *Taqsim, ... bitta surat chizib bering.* (P.Qodirov). *Bolalar tezroq olib chiqilsin!..* (P.Qodirov). *Professor Jamolov senga ham ota, ham ustozlik qiladi, o‘g‘lim... Gapidan chiqma.* (J.Abdullaxonov.). – *Sen darsingga o‘tir, qizim, - buyruq qildi u Yulduzga, - sen Qunduz, Temirjonga darrandayu parrandalaringni ko‘rsat.* (J.Abdullaxonov.).

2. Iltimos, yalinish, istak. Masalan: *Oshiqmang, bo‘ladi. Faqat iltimos qilamanki, bo‘tam, buni hozircha zinhor-bazinhor sir tuting. Zero, nifoq solguvchilar paydo bo‘lib, biror ishkallikni o‘ylab topmasinlar. Institutimiz rahnamolari bu maqsadga uncha ro‘yixushlik bermayotganlarini unutmang.* (J.Abdullaxonov).

3. Maslahat. Masalan: *Fanda kashf qilishdan buyuk narsa yo‘q, toylog‘im, - deb qoldi professor, - siz ham faoliyattingizni kashf qilishdan boshlang.* (J.Abdullaxonov). *Keling, institutda olgan nazariy bilimingizni amaliyot bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ling avval.* (J.Abdullaxonov).

Buyruq gapning ko‘pgina ma’nolari intonatsiya orqali anglashiladi.

Buyruq gapni shakllantirishda quyidagi vositalar xizmat qiladi: 1) buyruq intonatsiyasi; 2) ko‘pincha buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalanigan kesimi; 3) gapga buyruq jilvasini qo‘shadigan maxsus so‘zlar (*keling, kel, yaxshisi, iloji bo‘lsa* va boshqalar).

Buyruq gap kesimning ifodalanish usuliga ko‘ra farqlanadi:

1. Buyruq gapning kesimi ko‘p hollarda buyruq-istak maylidagi fe’l bilan ifodalanadi. Masalan: Och odamning ustidan kulmang.

*Yetishmasa ishga qurbati,
Xunukkina qizlarni siylang,
Go‘zal bo‘lar ular siyrati.
Birovlarning haqqin yeganni
Dasturxonga yo‘lata ko‘rmang.
Rostni ko‘rib yolg‘on deganning
Kosasini to‘lata ko‘rmang.* (A.Oripov).

2. Buyruq gapning kesimi sifatida shart maylidagi fe’l keladi. Masalan: *Iloji bo‘lsa, uzoq kutdirib qo‘ymasangiz...* (J.Abdullaxonov). *Unday bo‘lsa, marhamat qilib uni ishlarimiz bilan ham oshno qilsangiz.* (J.Abdullaxonov).

3. Ba'zan buyruq gapning kesimi aniqlik (ijro, xabar) mayli shaklidagi fe'l bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *Professor haliginday takror qo'l siltadi: - Raddiyani uning o'ziga yozdirasiz, bo'tam.* (J.Abdullaxonov).

4. Buyruq gapning kesimi vazifasida fe'lidan boshqa so'zlar ham kelishi mumkin. Masalan: *Uztoz Ali! Oldinga!* (P.Q.). *Bobur uning so'nggi yillarda o'rgangan chavandozlik mashqlaridan ko'rsatmoqchi ekanini sezdi.* - *Qani, qani,- dedi maroq bilan.* (P.Q.). *Hazratim, lozim bo'lsa, endi musiqadan, bir imtihon qilib ko'ring.* - *Qani, qani!* (P.Q.). *Orqadan kimdir: «E, bas, bas!» deb qichqirdi.* (P.Q.).

4-§. Gapning emotsionallikka ko'ra turlari

Gaplar emotsionallikka ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) emotsional bo'limgan gaplar, 2) emotsional yoki undov gaplar.

Xabar-darak, so'roq, buyurish intonatsiyasiga ega bo'lgan gaplar emotsional bo'limgan gaplardir. Yuqorida ko'rib o'tilgan gaplarning barchasi, ya'ni darak gap, so'roq gap va buyruq gaplar emotsional bo'limgan gaplarni tashkil qiladi.

Emotsional yoki undov gaplar kuchli his-hayajon bilan ifoda qilingan gaplardir. Bunday gaplar maxsus his-hayajon intonatsiyasi, ohangi bilan talaffuz etiladi.

Darak, so'roq, buyruq gaplar his-hayajon bilan aytilsa, undov gapga aylanadi. Shunga ko'ra undov gaplarning darak undov-gap, so'roq-undov gap, buyruq-undov gap turlari yuzaga keladi.

Darak-undov gap: *Ishonganidam senikiga olib keldim-da, o'rtoq!* (O'H.

So'roq-undov gap: *Bu gaplardan so'ng menga ko'ngillarini ocharmisdilar?!* (P.Q.).

Buyruq-undov gap: *Yo'qolgan pichoqning sopi oltin bo'lavermasin!- dedi Davlatbekov.* (P.Q.).

Undov gap quyidagi grammatik vositalar yordamida shakllanadi:

1) turli his-tuyg'ularni: shodlik, quvonch, taajjub, afsuslanish, hayratlanish, g'azab va shu kabilarni bildiruvchi intonatsiya yordamida. Masalan: *Odamlar bilan... yashash, ishlash, do'stlashish, yordamlashish va yordam olish naqadar yaxshi!* (CH.Aytmatov). Aya, ayajon, shu ham gapmi! (A.Q.). Ayam bilan xollam yo'lga nima pishirsak ekan deb maslahat qilib o'tirishibdi! (A.Q.). Yillar, yillar o'tdi! (A.Q.). Kecha g'ishtdan tekkan edi, endi paxtadan tegibdi-da! (A.Q.);

2) undov so'zlar yordamida, masalan: *E, u gaplar o'tdi-ketdi-da!* (P.Q.). *Obbo, noshudlar-ey!- dedi Ortiq qo'ziga achinib.* (P.Q.). *Ha, barakalla!- dedi keksa ishchi.* (A.Q.). *O'h-o'h-o'h! Chuchvara-ku... Hay-hay, og'izda erib ketadi-ya!..* (A.Q.);

3) yuklamalar yordamida. Masalan: *Nahot, Mavloningiz jiiyanining to'yiga kelmasa!* (A.Q.). ... *birpas tinch qo'ymaydi-ya!- deb bolalarini koyidi.* (P.Q.). *Boyaqishlar selda qoldiyov!- deb Suyunboy aka qoyatoshning kamaridan chiqdi.* (P.Q.).

GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

Gaplar tuzilish jihatdan ikki guruhg'a bo'linadi:

1. Sodda gap bir predikativ birlikdan iborat bo'lib, uning tarkibi ayrim gaplarga bo'linmaydi. Masalan: *G'ir-g'ir shabada turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keladi.* (O.). *Oqil va donolar bilan suhabtdosh bo'ling.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Qo'shma gap mazmun va grammatick jihatdan birikkan ikki va undan ortiq predikativ birlklardan tuzilib, uning tarkibi ikki va undan ortiq gaplarga bo'linadi. Masalan: *Hali daraxtlar barg chiqarmagan-u, pushti gulastaga o'xshab gullagan bir tup bodom qo'shni hovlining devori osha yashnab turibdi.* (P.Q.). *Haqiqiy do'stlik suvdek zilol, qalbaki do'stlik – tuz qo'shilgan asal.* (Maqol).

1-§. Sodda gap turlari

Sodda gaplar grammatic asosining tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: **1) ikki bosh bo‘lakli gaplar; 2) bir bosh bo‘lakli gaplar.**

Grammatik asosi ikki bosh bo‘lakdan: ega va kesimdan iborat bo‘lgan gaplar ikki bosh bo‘lakli gaplar deyiladi. Masalan: *Mehnatdan do‘st ortar.* (*Maqol*).

Grammatik asosi bir bosh bo‘lakdan iborat bo‘lgan gaplar bir bosh bo‘lakli gap deb yuritiladi. Masalan: *Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga.* (*Maqol*).

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo‘laklarning qatnashishi-qatnashmasligiga ko‘ra ikki xid bo‘ladi: **yig‘iq gaplar va yoyiq gaplar.**

Bosh bo‘laklardangina yoki bir bosh bo‘lakdan tashkil topgan gap yig‘iq gap, ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etgan gap yoyiq gap deyiladi. Masalan: *Yomg‘ir tindi. Bulutlar hamon qaysarlik bilan quyosh yuzini to‘sib turardi.* (*S.Karomatov*). Birinchi gap yig‘iq gap bo‘lib, faqat bosh bo‘laklardan tuzilgan. Ikkinci gapda bosh bo‘laklar (*bulutlar* – ega, *to‘sib turardi* – kesim)dan tashqari, ikkinchi darajali bo‘laklar ham (*hamon, qaysarlik bilan* – hollar, *quyosh* – aniqlovchi, *yuzini* – to‘ldiruvchi) qatnashgan. Shuning uchun bu gap yoyiq gapdir.

Bir bosh bo‘lakli gaplar ham, ikki bosh bo‘lakli gaplar ham zarur bo‘laklarning to‘la ifodalaniishi yoki tushirilishiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: to‘liq gap va to‘liqsiz gap. To‘liq gaplarda fikrni ifodalash uchun zarur bo‘laklarning barchasi qatnashadi, to‘liqsiz gaplarda zarur bo‘laklarning biri yoki bir qismi tushiriladi.

Masalan: - *Ilgari qayerda ishlagan edilar?* (To‘liq gap). – *Dastavval Surxondaryoda, keyin qarshi cho‘lida.* (*O.Y.*) (To‘liqsiz gap).

Sodda gaplar bo‘laklarga ajralish-ajralmasligiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: **bo‘laklarga ajraladigan gaplar va bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar.** So‘zlar bog‘lanmasidan yoki yakka so‘zdan tuzilib, gap bo‘laklarini aniqlash (ajratish) mumkin bo‘lgan gaplar bo‘laklarga ajraladigan gaplar deb yuritiladi. Masalan: *Mashina darvoza oldida to‘xtadi.* (*O.Y.*). Bir so‘zdan tashkil topib, tarkibi bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar yoki **so‘z-gaplar** deyiladi. Masalan: - *Assalomu alaykum, dada.* (*P.Q.*).


2-§. Ikki bosh bo‘lakli gapning tuzilishi

Ikki bosh bo‘lakli gap ikki grammatic tarkibi: ega tarkibi va kesim tarkibi mavjud bo‘lgan gapdir.



Ega yoki ega va unga taalluqli so‘zlar ega tarkibini tashkil etsa, kesim yoki kesim va unga taalluqli so‘zlar kesim tarkibini tashkil qiladi.

Masalan: *Kecha tunda esgan kuchli shamol katta archaning tanasini ikkiga ayirib yubordi.* Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:

Ega tarkibi:



Kesim tarkibi:





3-§. Bir bosh bo‘lakli gaplar

Bir bosh bo‘lakli gaplarning tuzilish asosi yo kesim tarkibidan, yo ega tarkibidan tashkil topadi. Kesim yoki kesim tarkibidan tashkil topgan gaplarda ega, ega yoki ega tarkibidan tashkil topgan gaplarda kesim qatnashmaydi va bunday bo‘lakka ehtiyoj ham bo‘lmaydi. Bunday gaplarda predikativlik bir bo‘lak bilan ifodalanadi. Masalan: *Oyko ‘lliklarni yaxshi gaplar bilan yo ‘ldan qaytarishdi* (P. Q.). *Bugungi ishni ertaga qo‘yma.* (Maqol). *Yosh bo‘lsa ham ko‘p narsani boshidan kechirgan.* (P.Qodirov). *Oqshom chog‘i...* Vatan bo‘ylab qadam - qadamlab *Quyosh o‘tdi dengizlar, tog‘lar ortiga.* (Shayxzoda). *Aqlni beaqldan o‘rgan.* (Maqol).

Bir bosh bo‘lakli gaplar, bosh bo‘lakning qaysi biridan tashkil topishiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi: **egasiz gaplar, kesimsiz gaplar.**

Egasiz bir bosh bo‘lakli gaplar faqat kesim tarkibidan iborat bo`lib, egani topish mumkin yoki mumkin emasligiga ko‘ra **egasi topiladigan** va **egasi topilmaydigan** gaplarga bo‘linadi.

Kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar nominativ (atov) gaplardir.

1. Egasi topiladigan gaplar

Egasi topiladigan gaplarda egasini kesim orqali beriladigan so‘roq bilan topish mumkin bo`ladi. Bunday gaplar **shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplarga** bo‘linadi.

Shaxsi aniq gap. Kesimi, asosan, fe’l bilan, ba’zan fe’ldan boshqa so‘z bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko‘rsatib turadigan bir bosh bo‘lakli gap **shaxsi aniq gap** deyiladi.

Shaxsi aniq gaplarda ega lesik jihatdan shakllanmaydi va unga hech qanday ehtiyoj ham bo‘lmaydi; kesim vazifasida kelgan so‘z tarkibidagi tuslovchi affikslar shaxsni aniq ko‘rsatib turadi.

Shaxsi aniq gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi:

1. Aniqlik (ijro) maylidagi fe’l va boshqa so‘z turkumlari bilan. Masalan: *Ertalabki poezddan qolmaslik uchun shoshilib chiqib ketayotgan edi.* (O’.Hoshimov).

Shaxsi aniq gap kesimining aniqlik maylidagi fe’l bilan ifodalanishi quyidagicha:

1) o‘tgan zamon fe’l shakllari bilan: *Ular bilan ham murosa qilolmagan edingiz-ku ...* (P.Qodirov). *Abdukarimova haqida bilmoqchi edim.* (F.Musajonov).

2) hozirgi zamon fe’l shakllari bilan: *Endi ularning xatosini tuzatish uchun qancha mashaqqat chekamiz.* (P.Qodirov). *Gapimni tushuntirolmay qolamanmi deb qo‘rqiypman.* (J.Abdullaxonov).

3) kelasi zamon fe’l shakllari bilan: *Hech kim bilan hech qanaqa raqobat qilmoqchimasman.* (J.Abdullxonov). *Saviyasini tekshirmoqchimisan?* (F.Musajonov).

2. Buyruq - istak mayidagi fe’l bilan: *Xatlarni menga bering! – deb qoldi Tolib aka.* (F.Musajonov). *Gazeta ishidan misol keltiib gapiRAY.* (F.Musajonov).

3. Shart maylidagi fe’l bilan:

Xulosangizga astoydil ishonsangiz, nimdan qo‘rqasiz? Tushuntirsangiz, tushunishadi. (J.Abdullaxonov).

Shaxsi aniq gapning kesimi ba'zan fe'lidan boshqa so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Kelishgan, o'qimishlisiz, buning ustiga yoshsiz.* (F.Musajonov). *Mulla Usmon, ... hammasidan xabardorsiz.* (P.Qodirov).

Shaxsi aniq gaplar badiy adabiyotda, ayniqsa dialogik nutqda ko'p qo'llanadi.

Shaxsi noaniq gap. Kesimi, odatda, fe'l bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap **shaxsi noaniq gap** deyiladi.

Shaxsi noaniq gapning kesimi uchinchi shaxsga qaratilgan bo'lsa ham, bajaruvchisi noaniq bo'ladi.

Shaxsi noaniq gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi.

1. Aniqlik (ijro) maylidagi fe'l bilan:

1) o'tgan zamon fe'l shakllari bilan: *Axtargan topar, deb bejiz aytmaganlar.* (J.Abdullaxonov). *Xuddi shu kunning ertasiga kimdir uni qidirib yurganini aytdilar.* (J.Abdullaxonov). *Baribir to'y-hashamlarda, gap-gashtaklarda uni goh Aleksandr Sergeevich Pushkin. goh Alisher Navoiy ... deb chaqirishardi.* (S.Ahmad).

2) hozirgi zamon fe'li bilan: *Yong'oqni suv ombori deyishadi.* (J.Abdullaxonov). *Mehr ko'zda deb bekor aytmadilar.* (F.Musajonov).

3) kelasi zamon fe'li bilan: *Ularni yarashtirishga urinishmoqchilar.* (P.Qodirov).

2. Buyruq-istik maylidagi fe'l bilan: ... *mayli, mehnatimdan qirsinlar.* (A.Qahhor).

3. Shart maylidagi fe'l bilan: *Bir oydan beri uchovidan birortasini ko'rsatarmikin deb ko'zim to'rt bo'lib qarayman. Hechki ko'rsatishmasa!* (P.Qodirov).

Shaxsi umumlashgan gap. Kesimi fe'l bilan ifodalanib, umumga qaratilgan bir bosh bo'lakli gap **shaxsi umumlashgan gap** deyiladi. Bunday gaplarda hayotiy xulosalar, hayotiy tajribalar, umumiyy qoidalar, umumlashgan mulohazalar ifoda qilinadi.

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ko'pincha buyruq-istik maylining ikkinchi shaxs shakli bilan ifodalanadi.

Maqollar ko'pincha shaxsi umumlashgan gap shaklida bo'ladi: *Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma.* (Maqol). *Tulkining tavbasidan qo'rq, mug'ambirning - yig'isidan.* (Maqol). *Kattani katta bil, kichikni -kichik!* (Maqol). *Tilingni botir qilma, o'zingni botir qil* (Maqol).

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ba'zan buyruq-istik maylining birinchi shaxs ko'plik shakli orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Xushmuomalali bo'laylik, bu go'zal sifat baxt-saodatning tiganmas xazinasi ekanini unutmaylik.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). *Qarilikning yuzimizdan ko'ra aqlimizda ajinlar hosil qilishdan ehtiyyot bo'laylik.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Shaxsi umumlashgan gapning bosh bo'lagi ot kesim shaklida ham qo'llanishi mumkin. Masalan: *Kattaga xizmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.* (Maqol). *Salobatli bo'lma, sabotli bo'l.* (Maqol).

2. Egasi topilmaydigan gap

Kesimi orqali harakatni bajaruvchi shaxs (ega)ni topish mumkin bo'lмаган bir bosh bo'lakli gap **egasi topilmaydigan** yoki **shaxssiz gap** deyiladi. Bunday gaplarda egani kiritib ham bo'lmaydi, gapning kesimi orqali aniqlab ham bo'lmaydi.

Egasi topilmaydigan gapning kesimi ko'pincha tarkibli bo'lib, quyidagicha ifodalanidi:

1. -(i)b affiksli ravishdosh hamda «bo'ladi»//«bo'lmaydi» so'zi bilan: *El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.* (Maqol). *Momaqaldiroqning gumburiga chidab bo'lmaydi.* (J.Abdullaxonov). – *Nima endi, haq gapni ham gapirib bo'lmaydimi?* - ... so'radi u. (F.Musajonov).

2. Shart maylidagi fe'l hamda «bo'ladi»// «bo'lmaydi» so'zi bilan: - *Shu tor yo'ldan Afg'onistonga o'tsa bo'ladi.* (K.Yashin.).

3. Harakat nomi va «zarur», «mumkin», «shart», «lozim», «darkor», «kerak» so'zlaridan biri bilan: *Fazilat farzand kabidir. Uni avaylab saqlash va yanada barkamol etish lozim.* («Oz-oz

o 'rganib dono bo 'lur»). Qo 'lda bo 'lgan pul va molni kerakli joylarga sarf eta bilish, yaxshi idora qila olish uchun isrofdan saqlanish kerak. («Oz-oz o 'rganib dono bo 'lur»).

4. «Yaxshi», «yomon» sifatlari hamda «bo 'ladi»// «bo 'lmaydi» so'zi bilan: *Shu shiypon bitmay qolib ketsa, el oldida yaxshi bo 'lmaydi.* (P.Qodirov).
5. Majhul nisbati shaklidagi fe'l bilan: *Unga pastdan ikki yuz elliq uchta tosh zinani bosib chiqiladi.* (K.Yashin).
6. «To 'g 'ri» so'zi va «kelmoq» fe'lining tuslangan shakli bilan: *Mashina kabinasidan chiqishga to 'g 'ri keldi.* (Ch.Aytmatov).

3. Nominativ (atov) gap

Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanib, predmet yoki voqeahodisalarning hozirgi zamonda yoki zamondan tashqarida mavjudligini tasdiqlovchi bir bosh bo'lakli gap nominativ, yoki atov gap deyiladi.

Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi, predikativlik ohang orqali ifodalanadi. Ohang mazkur gaplarda alohida ahamiyat kasb etadi. Ohang tufayli oddiy so'z gapga aylanadi. Nominativ gap, odatda, yakka holda qo'llanmaydi, undan so'ng ko'pincha boshqa bir gap keladi.

Nominativ gaplarda nutq so'zlanib turgan paytda mavjud bo'lgan predmet yoki voqeahodisalar nomlanadi, qayd etiladi. Bunday gaplar quyidagi semantik xususiyatga ega:

1. Aniq predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi: *Bir chetdag'i stol ustida katta- kichik limonlarning suratlari. Boshqa stolda mikroskop. Mayda shishachalarda limon suvlari, yaproq tolqonlari, limon poyalari.* (J.Abdullaxonov).

2. Mavhum tushunchalarning mavjudligini tasdiqlaydi: *Avazlarning hovlisida boshqa o'ylar, boshqa tashvishlar.* (P.Qodirov).

3. Turli tabiat hodisalarining mavjudligini tasdiqlaydi: *Yaproqlar... yaproqlar! Quyosh shu'lasida jilva urib, cho 'g 'dek tovlanib turgan oltinrang va shafaqrang yaproqlar! Hazin va za'faron yaproqlar! O, ko 'p latofat bor sizlarda!* (F.Musatjonov). *Ariq bo'yida gulsapsar, namozshomgul, rayhon, uch-to 'rt tup atirgul, yarim bo 'yracha joyda elpillab o'sgan o'sma.* (Oybek).

4. O'rinn-joyning mavjudligini tasdiqlaydi: *Cho 'U! ... Cho 'Ining ham o'z gashti bor, zavqi bor!* (Sh. Xolmirzaev). **Tanish ko'cha.** *Yo 'l yoqasida o 'sha novcha daraxtlar!* (SH. Xolmirzaev).

5. Aniq paytini tasdiqlaydi: **Mayning oxirlari.** *Vodiylarda barvaqt xazon bo'lgan lolaqizg'aldoqlar Turkiston tizma tog 'ining etaklarida endi ochilgan.* (P.Qodirov). **Xazonrezlik payti.** *Hirot bog 'lariga suv beradigan Hiriyrud daryosi va Injil anhorining qirg'oqlariga za'faron yaproqlar to 'kilgan.* (P.Qodirov).

6. Hayot voqealarini tasdiqlaydi: **Yoqimli ohang, zavqli qo'shiqlar.** *Anorxon yo 'lidan to 'xtab tinglaydi.* (J.Abdullaxonov).

7. Ko'rsatishni ifoda qiladi: *Mana, yosh-yosh chinorlar! Barglari to 'kilmabdi. Shoxlarini qor bosgan. Ana, archalar.* (SH. Xolmirzayev). **Ana, akasi bilan yangasi turadigan imorat.** *Bu imorat Zeboga yaqin, aziz ko 'rinib ketdi.* (SH. Xolmirzayev).

Nominativ gap yig'iq va yoyiq bo'lishi mumkin. Yig'iq nominativ gap bosh bo'lakning o'zidan iborat bo'lsa, yoyiq nominativ gap bosh bo'lakdan tashqari ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topadi. Masalan: **Kechqurun.** *Quyosh ufqni qip-qizil qondek lovillatib botib bormoqda.* (Oybek). **Iliq tun.** *Qumlarning shitirlashi suv yuzida engilgina suzgan qayiq sasiyday mayin sadoni eslatadi.* (J.Abdullaxonov).

4. Infinitiv gaplar

Bunday gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodaladanigan, yakka so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lgan gaplardir: **Sevish!** *Bu qanday baxt!* **Birovni kutish!** *Bundan azob narsa bo 'lmasa kerak!*

GAP BO'LAKLARI

1-§. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan vao'zaro tobe boG'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas.

Gap bo'laklarining gap tarkibidagi mavqeい bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi:

- 1) bosh bo'laklar;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinci darajali bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so'z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinci darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan yoki o'zaro tobe aloqada bo'lib, ularni izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh bo'laklar **ega** va **kesimdan** iborat. Ikkinci darajali bo'laklar **aniqlovchi**, **to'ldiruvchi** va **holdir**.

2-§. Gapning bosh bo'laklari

1. Ega va uning ifodalanishi

Kesim orqali izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan, gapning boshqa bo'laklariga tobe bo'laman bosh bo'lakka **ega** deyiladi.

Ega keng ma'noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan predikativ belgining kimga yoki nimaga qarashliligin ko'rsatadi.

Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanib, *kim?* *nima?* *qayer?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Ega, odatda, yakka so'z: ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan so'z (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, ravish, taqlid so'z, undov so'z, modal so'z) bilan ifodalanadi.

Eganing ot bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi atoqli yoki turdosh ot ko'pincha ega vazifasini bajaradi: *Sirdaryo hammasini yig'ib olib, rosa kuchga to'ladi-da.* (P.Q.).

Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi. (O'.H.).

Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega bosh kelishik shaklidagi ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar bilan ifodalanadi: *Ular kulimsirab askiyaga qulog solishdi* (P.Q.) *Kimdir* unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi. (O'.Usmonov). *O'zingiz* juda aqlli, uzoqni ko'radigan odamsiz. (S.Soliyev).

Eganing harakat nomi bilan ifodalanishi. Ega harakat nomi bilan ifodalana oladi: ... ariqdan oqqan suvning **shildirashi** eshitila boshladi... (P.Q.). *Boshliq bo'lish oson, boshlamoq qiyin.* (Maqol).

Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi. Sifatlar otlashib, gapda ega bo'lib kelishi mumkin: **Botir topsa, barcha yer, baxil topsa, bosib yer.** (Maqol). **Yaxshi** yaxshining qadriga yetar. (Maqol).

Eganing otlashgan son bilan ifodalanishi. Sonlar ham otlashib, ega vazifasida keladi: Ikkovi ham bir-biriga juda o'xshash... (P.Q.). Tarbiya axloq va oqillikka tayanmog'i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o'stirsa, ikkinchisi ba'zilarning illatidan himoya qiladi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Eganing otlashgan olmosh bilan ifodalanishi. Ega vazifasida sifat, son o'rnida qo'llanuvchi otlashgan olmosh bilan ham ifodalanadi: Bu, ehtimol, ona suti bilan kirgan g'ayrishuuriy bir tuyg'udir. (P.Q.). Odamlar uchun xuddi mana shunisi kerak edi. (CH.Aytmatov).

Eganing otlashgan sifatdosh bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi otlashgan sifatdosh ega vazifasini bajaradi: *Ishlagan xor bo'lmas* (*Maqol*). Oimirlagan qir oshar (*Maqol*). Birlashgan daryo bo'lar, tarqalgan irmoq bo'lar (*Maqol*).

Eganing otlashgan ravish bilan ifodalanishi. Ravish otlashganda, gapda ega bo'lib kelishi mumkin: *Ko'p so'zning ozi* yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi (*Maqol*). *O'qishning ertakechi* bo'lmas (*Maqol*).

Eganing otlashgan taqlid so'z bilan ifodalanishi. Taqlid so'zlar otlashib ega vazifasini bajaradi: *Otning dukura-dukuri* relslarning tutashgan joyiga urilayotgan g'ildirak tovushi bilan uyg'unlashib ketardi. (Ch.Aytmatov). Bu shovqinlarni karnayning vat-vati bosib ketadi. (S.A.)

Eganing otlashgan undov so'z bilan ifodalanishi. Ega vazifasida otlashgan undov so'z kelishi mumkin: *Yer kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «qur-ey!» bunday keyin ham tinmaydi.* (S.Nurov).

Eganing otlashgan modal so'z bilan ifodalanishi. Otlashgan modal so'z ega vazifasini bajarishi mumkin: Bor so'ylaydi, yo'q o'ylaydi. (*Maqol*).

Ega ba'zan **frazeologik ibora bilan** ham ifodalanishi mumkin: *Birovning ko'nglini ko'tarish* qiyin, ko'nglini cho'ktirish esa oson.

Bundan tashqari, ega so'z birikmasi yoki gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanadi.

Eganing so'z birikmasi bilan ifodalanishi. Ega vazifasida so'z birikmasi kela oladi: Haqiqat va to'g'rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Eganing gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanishi. Ega-kesim munosabati aks etgan predikativ birlik ega vazifasida kela oladi: Bilagi zo'r birni yiqitadi, bilimi zo'r – mingni (*Maqol*).

2. Kesim va uning ifodalanishi

Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan, ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh bo'lak **kesim** deyiladi.

Kesim o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh bo'lak hisoblanadi.

Kesim ifoda materialiga ko'ra (qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra) ikki turga ajratiladi: **1) fe'l kesim; 2) ot kesim.**

Fe'l kesim. Turli fe'l shakllari bilan ifodalanadigan kesim **fe'l kesim** deb yuritiladi: *Yo'l chetida zarg'aldoqlar sayraydi.* (P.Q.). *O'rik qiyg'os gullaganda, birdan havo sovib, laylakqor yog'ib berdi.* (P.Q.).

Fe'l kesim ba'zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi: *Tog' etagida qishloqning mirzateraklari elas-elas ko'zga tashlanadi.* (P.Q.).

Ot kesim. Fe'lidan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va b.) bilan, shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim **ot kesim** deb ataladi.

1) kesimning ot bilan ifodalanishi. Ot kesim vazifasida ko'pincha bosh kelishikdagi ot, ba'zan esa o'rin-payt, chiqish, jo'naliш kelishiklardagi ot yoki ko'makchi bilan qo'llangan ot kelishi mumkin: *Yoshning hurmati - qarz, qarining hurmati - farz.* (*Maqol*). So'zning ko'rki -

maqol. (*Maqol*). *O'sha kuni Norboy ota dalada edi*. (P. Q.). *Safaviylar ham o'zimizning turkiy ulusdan*. (P.Q)

Ot bilan ifodalangan kesim nafaqat bosh kelishik shaklida, ba'zan jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklar shaklida bo'lishi mumkin, hatto ko'makchi orqali shakllangan bo'lishi mumkin. Masalan: *Ilmu hunar yerga emas, elga*. (*Maqol*). *Haqiqat kuchda emas, kuch haqiqatda*. (V.Kataev). *Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun*. (*Maqol*).

2) kesimning sifat bilan ifodalaniishi: *O'rmon ichi sersoya, salqin*. (P.Qodirov) *Uning bo'yil baland edi*. (P.Qodirov)

3) kesimning son bilan ifodalaniishi: *Besh karra besh - vigirma besh*. *Qayiq kattagina, eshkagi to'rtta edi*. (P.Qodirov) *So'zimiz, va'damiz, ahdimiz bitta, do'stlikda yaratgan baxtimiz bitta*. (*Maqol*). **4) kesimning olmoshbilan ifodalaniishi :** *Endi navbat sizniki*. (P.Qodirov) *Sen uning kimi bo'lasan?* (Ch.Aytmatov) *Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun.* (*Maqol*)

5) kesimning harakat nomi bilan ifodalaniishi: *Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish.* (*Maqol*)

6) kesimning ravish bilan ifodalaniishi: *Podshoni kuyov qilishga havasmandlar ko'p edi*. (P.Qodirov). **7) kesimning modal so'z bilan ifodalaniishi:** *Oy tunda kerak, aql kunda kerak*. (*Maqol*) *Tengdoshlari ichida undan tez chopadigani, chillak otishda undan ustasi yo'q*. (P.Qodirov). **8) kesimning undov so'z bilan ifodalaniishi:** *Ellarni qutqazgan mardlarga balli! Mardlarni yetkizgan yurtlarga balli!* (M.SHayxzoda)

Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) sodda kesim yakka bir asosli fe'llar bilan ifodalangan kesimlar hamda bog'lamasiz kelgan ot kesimlardir. Sodda kesim ifoda materialiga ko'ra ikki xil: **sodda fe'l kesim, sodda ot kesim.** **a) sodda fe'l kesim** tuslangan fe'l, ravishdosh, sifatdosh bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: *Ot yigilayotganda, Humoyun oyoqlarini uzangidan chiqarib egardan qumga sakradi*. (P.Qodirov) *Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi.* (Ch.Aytmatov) **b) sodda ot kesim** fe'lidan boshqa so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov so'z, modal so'z, shuningdek, fe'lning harakat nomi bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: *Yolg'onchi kishi har kim qoshida beobro'dir*. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») *Keng-keng ko'chalari bor-u, lekin markazi tigilinch*. (P.Qodirov) *Soyda tosh ko'p, terib chiqaraverasan.* (P.Qodirov)

2) tarkibli kesim ikki va undan ortiq so'z shakllarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan kesimdir. U doim yetakchi va yordamchi qismlardan tashkil topib, yetakchi qism asosiy ma'noni, yordamchi qism qo'shimcha ma'noni ifodalaydi. Ifodalishiga ko'ra tarkibli kesim ham ikki xil bo'ladi:

a) tarkibli fe'l kesim fe'lning analitik shakli bilan ifodalaniadi. Bunda o'zining leksik ma'nosini saqlagan fe'l yetakchi fe'l, qolganlari esa ko'makchi fe'l yoki to'liqsiz fe'l bo'lib, yetakchi fe'lidan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarini ifodalaydi. Yetakchi fe'l asosan ravishdosh shaklida bo'ladi. Masalan: *Bu yumshoq, mulohazali odamga yotoqdoshlarning mehri oshib qolgan edi*. (A.Muxtor). *O'rmon ichidan quşlarning sayrashi... eshitilib turadi*. (P.Qodirov). **b) tarkibli ot kesim** fe'lidan boshqa so'z turkumlarining bog'lama bilan birikishidan yuzaga keladi. Bunda tarkibli ot kesimning ot qismini ot, sifat, son, olmosh, ravish yetakchi qismini tashkil qiladi, yordamchi qismini esa bog'lama vazifasidagi «bo'lmoq», «sanalmoq», «hisoblanmoq», «tuyulmoq» kabi fe'llar, shuningdek, «edi», «ekan», «emish» to'liqsiz fe'l tashkil etadi.

Tarkibli ot kesimda asosiy ma'no yetakchi qism, ot qisvida bo'ladi. Yordamchi qism, bog'lama esa qo'shimcha ma'noni, grammatik ma'noni: mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalaydi.

O'zbek tilida bog'lamani qo'llanishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

1. So'z bog'lamalari: *bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, ko'rinoq, tuyulmoq, edi, ekan* kabilar.

2. Affiks bog'lama: *-dir.*

Affiks bog'lama sodda ot kesim tarkibida qo'llanib, doimiy sintaktik zamonni ifodalaydi. Masalan: *Agar yolg'iz esang hamdam kitobdir, Bilim subhidagi nur ham kitobdir.* (Abdurahmon Jomiy)

Ko'pincha mazkur bog'lama qo'llanmasligi mumkin, nol shaklida ishlatilishi mumkin: *Aqlning o'lchovi – idrok Ø. (Maqol). Dono durdan a'lo Ø. (Maqol).*

So'z bog'lama tarkibli ot kesimni shakllantiradi va turli mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Yomonga bosh bo'lguncha, yaxshiga yo'ldosh bo'l. (Maqol). Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lzin. (Maqol). Shirboz qo'zining tandir kabobi juda yaxshi bo'ladi-da.* (P.Qodirov). Avazning akasi *Ortiq shu edi* (P.Qodirov).

Tarkibli ot kesim *harakat nomi + kerak, lozim, mumkin, shart, darkor* kabi so'zlar shaklida ham kelishi mumkin. Masalan: *Endi jiyan panoh istab borsa, qanoti tagiga olishi mumkin.* (P.Qodirov). *Bu vatanni tashlab ketmoqchi bo'lganlarga qat'iy zarba berilmog'i lozim.* (P.Qodirov).

3-§. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi

Yozuvda ba'zan kesim bilan ega orasida tire ishlatiladi. Bu quyidagi holatlarda sodir bo'ladi:

1. Kesim ot, olmosh, son bilan ifodalanib, **-dir** affiks bog'lamasi qo'llanmaganda: *Mehnat - hurmatning toji.* (Maqol). *Tashqaridagi gap – kir o'rada mag'zava* (Shuhrat). *To'rt karra to'rt - o'n olti.*
2. Gapning egasi yoki kesimi, yo bo'lmasa ham egasi, ham kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, **-dir** bog'lamasi bo'limganda: *Bekor yurish – illatning onasi, g'urbatning makoni.* («Tafakkur gulshani»). *O'qish - ulg'ayish.* (Maqol). *Tilni bilish – dilni bilish* (Maqol).
3. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanib, kesim tarkibida affiks bog'lama ishlatilmaganda: *Bular – ko'm-ko'k dov-daraxtlar.* (K.Yashin).

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

1-§. Ainqlovchi

Predmet ma'nosini bildiruvchi so'zni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo'lakka **ainqlovchi** deyiladi.

Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashlilagini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil bo'ladi: **sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.**

1. Sifatlovchi aniqlovchi

Aniqlovchining bu turi ot bilan ifodalangan bo'lakka odatda bitishuv yo'li bilan bog'lanib, otdan anglashilgan predmetning belgi-xususiyatini, sifatini, miqdorini, o'ringa munosabatini bildiradigan aniqlovchining bir turidir. U *qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, necha?, nechanchi?, qachongi?, qayerdagi?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Sifatlovchi bog'lanib kelgan so'z **sifatlanmish** deb ataladi.

Sifatlovchi turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) sifat bilan: *Quyoshning issiq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi.* (O'.Hoshimov). **Rang-barang** gullar, har xil ekinlar, bog'lar, suvlar quyoshda yashnab tovlanadi (Oybek). **Yaxshi** so'z, **yaxshi muomala, ishq-muhabbat – insonni insonga, qalbni qalbga bog'laydigan sehrli ip.** (Sh.Ubaydullayev).

2) son bilan: *Ikkita zog'ora non bilan to'rtta turshakni dasturxoniga qo'yib tamaddi qilgan bo'ldim.* (O'.Hoshimov). **Birinchi** qor ham shu tepalik boshiga yog'adi, **birinchi** mayalar ham

Xirmontepa bag'rida ko 'karadi. (O'.Hoshimov). **Uch-to'rtta** yirik-yirik qora qushlar nimanidir mo 'ljalga olib shoshilmay aylanishadi. (P.Qodirov).

3) olmosh bilan: *Allaqaysi* dengiz qushlarining odati qiziq ekan. (O'.Usmonov) **Har bir** qiyinchilikdan so 'ng bir rohat bor. (Maqol).

4) ot bilan: Asfalt ko 'chaning u er bu erida suv xalqob bo 'lib yotardi. (O'.Hoshimov). **Kumush** so 'zingni chaqaga mayda qilma. (Maqol).

-*dagi* affiksini olgan otlar ham sifatlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Uydagi har bitta buyum Ma'sudani esimga soladi.* (P.Q.). Toshkentlik yosh olim... **atrofdagi** cho 'ponlarni to 'plab, ziyofat qilib bermoqda... edi. (P.Q.).

5) sifatdosh bilan: *Unda dam oladigan* va yo *tunab qoladigan* manzil yo 'q. (K.Yashin). **Aytar** so 'zni ayt, *aytmas* so 'zdan qayt. (Maqol).

6) ravish bilan: *Ko 'p* befoyda narsalarni o 'rganganingdan ko 'ra senga doimo xizmat qiladigan besh-o 'nta yaxshi o 'gitni bilganing ma 'qulroq. (Seneka).

7) taqlid so 'z bilan: *G'ir-g'ir* mayin bahor shamoli. (Oybek). Bir gala o 'rdak kanal bo 'yiga tushdi. Bularning *g'aq-g'uq* ovozi ancha vaqtgacha bosilmadi. (S.Ahmad).

Sifatlovchi ba 'zan so 'z birikmasi bilan ham ifodalanadi. Masalan: *Qarama-qarshi turgan* ikki eshikning birini shaxt bilan ochdi... (P.Qodirov). *Dunyoda xushfe'l, oljanob, hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan* odamlar juda ko 'p (O.Husanov).

Sifatlovchi vazifasini gapga teng predikativ birliklar ham bajarishi mumkin: **Himmati** zo 'r kishining qimmati zo 'rdir. («Oz-oz o 'rganib dono bo 'lur»).

2. Qaratqich aniqlovchi

Bu aniqlovchi ot yoki otlashgan so 'z bilan ifodalangan bo 'lakka muvofiqlashuv yo 'li bilan bog 'lanib, o 'zi ifodalayotgan shaxs yo predmetga boshqa bir shaxs yoki predmetning qarashli, tegishli ekanini bildiruvchi aniqlovchining bir turidir. U *kimning? nimaning?* *qayerning?* so 'roqlaridan biriga javob bo 'ladi.

Qaratuvchi bog 'lanib kelgan so 'z **qaralmish** deb yuritiladi.

Qaratuvchi quyidagicha ifodalanadi:

1) ot yoki ot o 'rnida qo 'llanadigan olmosh bilan: *Tip-tiniq fazoning* bir burchida *turnalar* karvoni ko 'rindi. Zum o 'tmay *ularning* o 'ychan sadolari havoni to 'ldirdi... (O'.Hoshimov).

2) harakat nomi bilan: *U bilan uchrashishning* ming xil yo 'lini izladi. (S.Ahmad). **Ovora** bo 'lmoqning nima zarurati bor? (A.Qodiriy).

3) otlashgan sifat bilan: *Nomardga ishi tushmagan mardning* qadrini bilmas. (Maqol). *Tekinning minnati* ko 'p, **mehnatning** ziynati ko 'p. (Maqol). **Qo 'rroqning** ko 'zi katta, **ahmoqning** so 'zi katta. (Maqol).

4) otlashgan son bilan: *O'nning yarmi – besh.*

5) otlashgan olmosh bilan (sifat, son o 'rnida qo 'llanadigan otlashgan olmosh bilan): *Buning* sababi ko 'p. (P.Qodirov).

6) otlashgan sifatdosh bilan: *O'qiganning tili* ko 'p uzun bo 'ladi. (Maqol).

7) otlashgan ravish bilan: *Ertaning buguni bor, bugunning ertasi bor.* (Maqol).

Qaratuvchi ba 'zi hollarda so 'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: ... *kim bo 'lsa ham beklardan birining* shunday tinchsizlik chiqarishig 'a «mumkin va bo 'ladirg 'an ish» deb qarar edi. (A.Qodiriy). **Cho 'qqida yashashning** ta 'rifi ulug ', cho 'qqidan olam keng, cho 'qqida - yorug '!!! (Shuhrat).

Qaratuvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanadi. Masalan: *Uyda rohati* yo 'qning ko 'chada farog 'ati yo 'q. (Maqol). **Dili qing 'irning** tili qing 'ir. (Maqol). **Qizi borning** nozi bor. (Maqol).

Qaratuvchi ikki xil shaklda bo 'lishi mumkin: belgili va belgisiz. Aniqlovchi qaratqich kelishigi affiksini olgan bo 'lsa, **belgili** bo 'ladi. Masalan: **Har narsaning** dalili bor: **aqlning** dalili – **fikrning** dalili sukutdir. («Oz-oz o 'rganib dono bo 'lur»).

Aniqlovchi qaratqich kelishigi affiksini olmagan bo'lsa, **belgisiz** sanaladi. Masalan: *Xullasi, ikkala qal'a ahli bir-biri bilan ahil, bir onaning bolasidek yashar ekan.* (S.Ahmad). *Mashina Hazrat Botir burulishiga kelganda, Tolibjon kabina tomini tapillatib urdi.* (S.Ahmad).

3. Izohlovchi

Bu bo'lak aniqlovchining bir turi sifatida o'zi aloqador bo'lgan so'zga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, uni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlab, izohlab keladi.

Izohlovchi bog'lanib kelgan so'z **izohlanmish** deb qaraladi.

Izohlovchi, asosan, ot bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- 1) **unvонни:** *Orqadagi «Chayka»dan general Luqmonov tushdi.* (S.Ahmad). *Ro'para kelgan bir ayoldan: «Professor Jabborov qayerda o'tiradi?»- deb so'radi.* (O'.Usmonov).
- 2) **амални:** *Qishloq xo'jalik bo'limining mudiri Zokir Qo'shmoqov qotmadan kelgan, jikkakkina yigit bo'lib, harakatchan yigit edi.* (O'.Usmonov). *Ko'rinishidan qo'rs odamga o'xshab ketadigan bo'lim mudiri O'sar Qurbonovich kirib keldi.* (Y.Yakvalxo 'jaev).
- 3) **касбни, мутаксисликни:** *Rafiqov idorada turolmaydi, chunki idorada hisobchi Umar Alidan boshqa hech kim yo'q.* (A.Qodiriy). *Adabiyot o'qituvchisi YAmin afandi bir dasta insholar yozilgan daftalar ustiga bitta kitob qo'yib, kirib kelarmish* (Y.Yakvalxo 'jaev). *U rassom O'rol Tansiqboev asarlarining nushasini jurnallardan qirqib olib saqlardi.* (S.Ahmad).
- 4) **қариндошликни:** *Nomimni dadam emas, bobom Ahmadbek hoji qo'yan ekanlar.* (Y.Yakvalxo 'jayev). *Hojar xolam ham qozon nonni yopadilar-ku.* (P.Qodirov). *Saltanatning ukasi Mirvosil armiyadan ta'tilga kelgani, shunda qarindosh-urug'larining barii yig'ilganini xabarlashdi.* (O'.Usmonov).
- 5) **лақабни:** *Mahamat chatoq keyingi fikrlarini bir safga jamlayotganday tag'in bir oz jim qoldi.* (O'.Usmonov). *Islom Novcha ketmonini qo'liga olib, hammadan yarim gaz yuqori turgan qaddi bilan g'o'zaning ustiga keladi.* (A.Qodiriy). *Dalavoy kal dadangni tanirdi, o'shandan so'radim.* (S.Ahmad).
- 6) **таксусни:** *Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek - taniqli o'zbek yozuvchisi.*
- 7) **жинси:** *Nahot qiz bola o'z otasini shunchalik mensimasa?* (O.Yoqubov). *Maktab yonidagi ikki xonali uychada o'qituvchi qiz Cho'lponoy istiqomat qiladi.* (P.Qodirov).
- 8) **яқинликни:** *Yana do'stim Mamajon Ali jonimga oro kirdi.* (Y.Yakvalxo 'jayev). *Malohatxon dugonasi Hamida bilan Akromni hazil-mutoyibalar bilan kuzatib qo'yishar edi.* (O.Yoqubov).

Izohlovchi ba'zan so'z birikmasi bilan ham ifoda etiladi. Masalan: *Ayniqsa, yosh olim Aziz Qosimovning xizmatlari salmoqli bo'ldi.* (O'.Usmonov). *Xonaga kichkina sandiqcha ko'tarib, asab doktori Shamsiqamar kirib keldi.* (Y.Yakvalxo 'jayev). *Bu ma'ruza institutning bosh arxitektori Zafar Boboyevning bir loyihasi to'g'risida edi.* (O.Yoqubov).

Izohlovchi izohlanmishdan oldin ham, undan keyin ham kelishi mumkin: *So'ng boshqarma boshlig'i G'iyosiddinovni esladi.* (P.Qodirov). *U dadasi bilan mendan tashqari, Oqsoqolga, Xolposh xolasiga, Potma-Zuhra kelinoyilariga salom aytibdi.* (O'.Hoshimov).

2-§. To'ldiruvchi

Ko'pincha fe'l bilan ifodalangan, ba'zan fe'lidan boshqa ayrim so'zlar bilan ifodalangan bo'lakka boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keladigan ikkinchi darajali bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi.

To'ldiruvchi boshqaruvchi so'zning talabiga ko'ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko'makchilar orqali shakllanadi. Masalan: *Aql va idrok quyoshga o'xshaydi, ular dog'larni bekitadi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

To'ldiruvchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan (fe'l, sifat, ravish, ot, modal so'z bilan) «to'ldiruvchi-to'ldirilmish» sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi.

To'ldiruvchi ifoda materialiga ko'ra egaga hamda qaratuvchiga o'xshaydi, faqat grammatik shakl jihatdan ulardan farq qiladi.

To‘ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Nodon kishi o‘zining nasl-nasabiga*, olim kishi esa o‘zining **ilm va adabiga** tayanadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Oy to‘lmagan bo‘lmasa ham, juda yorug‘, **shabadada silkinayotgan terak barglarini** bitta-bitta sanab chiqish mumkin. (P.Qodirov).
2. Olmosh bilan: *Shaharliklar... o‘zlarini tog‘da yashayotganday his qilishadimi?* (Sh.Xolmirzayev). O‘g‘il ham otaga shunchalik o‘rgandiki, **u bilan** birga yotadigan bo‘ldi. (Sh.Xolmirzayev).
3. Harakat nomi bilan: *Xalqning hurmat qilishini* tilasangiz, avval o‘zingiz hammani hurmat qiling. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Olim kishi... **maqtashlar** va **olqishlarga** uchib, o‘zini yuqori tutmaydi, kamtar bo‘ladi («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).
4. Otlashgan sifat bilan: **Yomondan** qoch, **yaxshiga** quloch och. (Maqol). Aziz o‘g‘lim, **yomonlar bilan** suhabatdosh bo‘lma, ulardan arslondan qochganday qoch, hammaga rahm va shafqat ko‘zi bilan qara. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). **Botirdan** yaxshi ish qolar, **donodan** – yaxshi so‘z. (Maqol).
5. Otlashgan son bilan: *Chiqmasa... bittasini* menga ber, bir-ikki oy boqay... (P.Qodirov). **Ikkovga** birov botolmas, otliqqa yayov etolmas. (Maqol).
6. Otlashgan olmosh bilan: *Manmanlik yaramas odat ekanini anglang, hamisha buni* yodingizda tuting. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Kattami, kichikmi - **har qaysisini** hurmatlab, yoshi va martabasiga ko‘ra muomala qiling. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).
7. Otlashgan sifatdosh bilan: **Ayrilganni** ayiq er, **bo‘linganni** bo‘ri yer. (Maqol).
8. Otlashgan ravish bilan: **Ko‘kka boqma, ko‘pga boq.** (Maqol). **Ko‘pni** bilgan oz so‘zlar, oz bo‘lsa ham soz so‘zlar. (Maqol).
9. Otlashgan taqlid so‘z bilan: *To‘g‘ri, studentlar allaqachon paxtadan qaytib, yomg‘irdan ivigan parklar yana oshiq-ma’shuqlarning shivir-shiviriga* to‘ldi. (O’.Hoshimov).
10. To‘ldiruvchi so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: **O‘zingdan kichiklarni** kamsitmang. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). *Ular bosh silkib, shundoq muhtaram odam bilan tanishganlaridan minnatdor ekanliklarini izhor qilishdi* (O’.Hoshimov).

To‘ldiruvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanishi mumkin: **Yoshi ulug‘ni ulug‘lasa, baxt topar.** (Maqol).

1. Vositasiz to‘ldiruvchi

To‘ldiruvchi o‘z vazifasi va shakliga ko‘ra ikki turga ajratiladi: **vositasiz** to‘ldiruvchi va **vositali** to‘ldiruvchi.

Vositasiz to‘ldiruvchi harakatni o‘ziga qabul qilgan, harakat o‘ziga bevosita o‘tgan predmetni bildiradi. Shu bois u odatda o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lakka bog‘lanadi.

Vositasiz to‘ldiruvchi ko‘pincha tushum kelishigidagi birliklar bilan ifodalanib, *kimni? nimani? qaerni?* kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi: **Bolani** yoshdan asra, **niholni** boshdan asra. (Maqol). **Aqlni** beaqlidan o‘rgan. (Maqol). *U hamma qishloqlarni* o‘zi aylanib chiqdi. (P.Qodirov).

Vositasiz to‘ldiruvchi ba’zan chiqish kelishigidagi so‘z bilan ham ifodalanadi: **Temirjon quymoqdan** ko‘p yemadi. (J.Abdullaxonov).

Vositasiz to‘ldiruvchi tushum kelishigi shaklidagi so‘z bilan ifodanganda, harakat butunlay predmetga o‘tadi, chiqish kelishigidagi so‘z bilan ifodalanganda esa, harakat qisman predmetga o‘tganligi anglashiladi.

Vositasiz to‘ldiruvchi ikki xil shaklda: belgili va belgisiz shaklda ishlatiladi. Belgili vositasiz to‘ldiruvchi tarkibida tushum kelishigi –**ni** affiksi saqlanadi: **Bor borini** yeydi, **uyatsiz orini** yeydi. (Maqol). **Odamni** po‘stin emas, ish qizdiradi. (Maqol). Belgisiz vositasiz to‘ldiruvchida –**ni** qo‘sishchasi qatnashmaydi, lekin uni tiklash mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday vositasiz to‘ldiruvchi belgisiz tushum kelishidi so‘z bilan

ifodalanadi: *Non emoqchi bo 'lsang, o'tin tashishdan erinma (Maqol). Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top (Maqol).*

2. Vositali to'ldiruvchi

Vositali to'ldiruvchi bosh, qaratqich, tushum kelishiklaridan boshqa kelishikdagi birliklar bilan hamda ko'makchili ishlatilgan birliklar bilan ifodalanadi. Vositali to'ldiruvchilarining ma'nolari va so'roqlari turlichadir. Mazkur to'ldiruvchilarini jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishiklari affikslari hamda «*bilan*», «*uchun*», «*to g'risida*», «*haqida*» kabi ko'makchilar shakllantirib, ular *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim uchun? kim to g'risida? nima xususida?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Masalan: *Inson bilimga intiladi va qachonki unda bilimga tashnalik so'nsa, u insoniylikdan mahrum bo'ladi.* («*Tafakkur gulshani*»). **Do'sting bilan sirdosh bo'l (Maqol).** Mineral tuz, **bosh miya uchun** zarur bo'lgan efir moyi aksar yong'oqning **mag'zidan** olinadi. (J.Abdullaxonov). G'oyib endi «**studentlikning oltin davri**» **haqida** zavq-shavq bilan hikoya boshladi. (J.Abdullaxonov). **Mana endi uning yaxshi xislatlari to g'risida** gap ketyapti. (J.Abdullaxonov).

Vositali to'ldiruvchi ko'pincha fe'l bilan ifodalangan bo'laklarga, ba'zan esa sifat, ravish, ot, modal so'z bilan ifodalangan bo'laklarga ham bog'lanib keladi. Masalan: *Bu – professor Jamolovning saxiyligi, yoshlarga mehr-muhabbatining mevasi, albatta.* (J.Abdullaxonov). *Temirjon gamma nurlarini hayot uchun faqat ofat manbai deb bilardi.* (J.Abdullaxonov). *Temirjon uning bu uyda xizmat qilishidan bexabar edi.* (J.Abdullaxonov). *Uning tashqi ko'rinishi sokin tuyulsa-da, ichki dunyosi olam-olam orzularga boy...* (J.Abdullaxonov).

3-§. Hol

Odatda fe'l bilan ifodalangan bo'lakka bitishuv yoki boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakka **hol** deyiladi. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'rinn, payt, sabab, maqsad, miqdor-daraja kabilarni bildiradi. Hol ravish, jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishiklari shakllaridagi ot yoki ko'makchili ishlatilgan so'zlar, sifat, son, fe'l shakllari, taqlid so'z hamda so'z birikmasi orqali ifodalanadi.

Ravish, asosan, hol vazifasini bajaruvchi mustaqil so'z turkumidir. Masalan: *Faqat idora yaqinidagi MTS tomonidan yakka traktorning o'qtin-o'qtin gurillagani eshitildi.* (O'.Hoshimov). **Asta esa boshlagan shamol tumanni pastliklarga olib ketdi.** (J.Abdullaxonov).

Gapda hol bo'lib kelish fe'lning ravishdosh shaklining ham asosiy vazifalaridandir. Masalan: *Tomchilarning derazaga chirsillab urilishi aniq eshitila boshladi.* (O'.Hoshimov). *Erali bu gaplarni choyxonada odam gavjum paytida maqtana-maqtana aytib berdi.* (S.Ahmad).

Ot jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigida kelib yoki ko'makchi bilan birga ishlatilib hol vazifasini bajarishi mumkin: **Toshkentga butun mamlakatdan katta geolog olimlar kelishgan.** (S.Karomatov). **Mashina shiddat bilan qaltis tog'yo'lidan uchib ketdi.** (O'.Hoshimov).

Harakat nomi gapda hol bo'lib kelganda, u ham ot kabi shakllanadi: **Mehmonlarni kutish uchun bog`ga dasturxon tayyorlatib qo'yishgan edi.** (S.Ahmad).

Taqlid so'z ham gapda hol vazifasida kela oladi: *Toshlar havoni g'iz-g'iz yorib o'tadi.* (Oybek). **Ko'chadan dupur-dupur o'ynoqlab bir gala otlar o'tadi.** (J.Abdullaxonov).

Ba'zan hol so'z birikmasi bilan ifodalanadi: **Tong otar payti** bulbullar paydar-pay sayraydi. (S.Ahmad). **Aqlni o'stirmoq uchun** hadeb o'qiyvermasdan ko'proq fikrlash kerak. («*Tafakkur gulshani*»).

Hol o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan «hol-hollanmish» sintaktik munosabatini yuzaga keltiradi.

Hollar ma'nolariga ko'ra bir necha turga bo'linadi.

1. Ravish holi ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, *qanday? qanday qilib?* *qay tarzda? qay holda?* degan so'roqlarning biriga javob bo'ladi. U quyidagicha ifodalanadi:

1) holat ravishi bilan: Sahnada hozir biron yangilik yuz berishi kerakday, hamma nafasini ichiga yutib, **jimgina** tikilib qoldi. **Birdan** qarsak chala boshladilar. (J.Abdullaxonov).

2) ravishdosh bilan: To'rg'aylar bir nuqta ustida **qanot qoqib** g'ujurlashadi. (P.Qodirov). Temirjon ularning **kuyib-pishib** bir-birlariga gap uqtirishlarini ko'rib, o'qituvchilarning muvaffaqiyatidan qanchalik faxlanishlarini his qila boshladi. (J.Abdullaxonov). **Qiqirlab kulganicha** qochib borayotgan qizning ortidan **jilmayib** qarab turdi. (J.Abdullaxonov). Ona yana o'yay-o'yay o'yiga etolmay qoldi. (J.Abdullaxonov).

3) sifatdosh+ «holda» ko'makchi so'zi bilan: Bu payt Yulduzning dugonalari o'zaro **bahslashgan holda** yaqinlasha boshladilar. (J.Abdullaxonov).

4) bosh kelishikdagi ot yoki ko'makchili ishlatilgan ot bilan: Turmushning yaxshi o'tib, **farovonlik bilan** yashashni istasang, isrofgarchilikka yo'l qo'yma. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

5) sifat bilan: **Qiyshiq** o'tirsang ham, **to'g'ri** gapir. (Maqol). Albatta, mendan ko'ra paxta ishining ustalari **yaxshiroq** bilishadi. (J.Abdullaxonov).

6) taqlid so'z bilan: Ufqlqa yonboshlagan quyoshning so'nggi nurlaridan yaltiragan mirzateraklar uchidagi nurlar **lip-lip** o'chdi. (J.Abdullaxonov). Ba'zilar negadir **hiring-hiring** kulishar, **pichir-pichir** so'z qotishardi. (J.Abdullaxonov).

7) frazeologik ibora bilan: **U tarvuzi qo'ltig'idan tushib** ko'chaga chiqdi. (F.Musajonov).

2. Payt holi ish-harakatning bajarilish paytini, uning chegarasini bildirib, **qachon?** **qachongacha?** **qachondan beri?** kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Payt holi payt ravishi, ravishdosh, jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigidagi so'zlar bilan, ko'makchili ishlatilgan so'zlar bilan, so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: **Tomosha qilib turganlar doim uni kulgi qilishardi.** (P.Qodirov). **Ertalab bolalar uchun olgan suvlaridan ozgina qolgan edi.** (P.Qodirov). **Hech qachon** o'z aybingni birovga yuklashni o'rganma!.. (J.Abdullaxonov). **Yoshligingda** odat qilsang, **qariguncha** ko'nikasan, **qariganingda** odat qilsang, **ko'nikkuncha** ko'milasan. (Maqol). **O'ttizida er atangan, qirqida sher atanar.** (Maqol). **Kuni bilan** jiiyanlarini erkatalib, soy bo'ylarida aylandi. (J.Abdullaxonov). **Biz dam olish kuni** shahardan tashqariga, Bo'zsuv bo'yiga chiqdik. (O.Yoqubov).

Payt holi harakatning bajarilish **paytini** bildiradi: **Shunday diqqat bo'lgan kunlarning** birida **Tolibjon kechasi** xontaxtaga bag'rini berib... xat yozdi. (S.Ahmad). Temirjonning ongi **hech qachon** bunchalik yangiliklar bilan boyimagan edi. (J.Abdullaxonov).

Payt holi harakatning bajarilishidagi **chejarani** bildiradi: **Yangi yilgacha** yog'ingarchilik kam bo'ldi... (J.Abdullaxonov). **Ertalabdan to qorong'i tushgunga qadar barcha qatori dala qoshidan nari ketmasdi.** (J.Abdullaxonov). Temirjon **allamahalgacha** uyqusi qochib, Usmonali otaning Hilol aka haqidagi gaplarini eslab yotdi. (J.Abdullaxonov). **Men yigirma besh yildan beri** paxta ekaman. (J.Abdullaxonov).

3. O'rin holi ish-harakatning bo'lish, boshlanish, yo'nalish o'rnini bildirib, **qayerda?** **qayerdan?** **qayerga?** **qayergacha?** kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi. O'rin holi o'rinn ravishi, jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigidagi otlar hamda ko'makchili ishlatilgan otlar, so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: **Unda yuqoridan shitob bilan quyilib kelayotgan tiniq** suv toshlarga urilib, **qirg'oqqa sapchib oqardi.** (S.Ahmad). Afsus, **oyoqlar ostida** tuzoqlar ko'p. (T.Malik). **Osmoni falakka** burgut qanotini tarang yozib uchadi. (S.Ahmad).

O'rin holi ma'nosiga ko'ra uch xil:

1) ish-harakatning **bo'lish o'rnini** bildirib, **qayerda?** so'rog'iga javob bo'ladi. U o'rinn ravishi, o'rinn-payt kelishigidagi so'zlar hamda ko'makchili ishlatilgan so'zlar bilan ifodalanadi: **Bostirmada** g'ildiraklari olingan... «Volga» mashinasini turibdi. (P.Qodirov). **Yuqorida** ... bola shitirlashni eshitgan zahoti **bu tomonga** qarab chopgan edi. (P.Qodirov). **Ular yuqoridan** shildirab tushayotgan suv bo'yida archa bilan ayzashib o'sgan **zirk tagida** o'tirib ovqatlanishadi. (P.Qodirov).

2) ish-harakatning **yo‘nalish o‘rnini** yoki harakatning bo‘lishidagi eng so‘nggi **chegarani** bildirib, *qayerga? qayergacha?* so‘rog‘idan biriga javob bo‘ladi: *U Tolibjonga ro‘para kelishdan qo‘rqib, so‘qmoqdan o‘ngga burildi...* (S.Ahmad). *Ishkomlar tunnel singari bir tekis olis-olislarga cho‘zilgan.* (J.Abdullaxonov). *Qo‘rg‘oshindek qora bulutlar Oyqor tog‘lari tomon o‘tib ketdi.* (S.Ahmad). – *Kelib turing, xola,- eshikkacha kuzatib qo‘ymoqchi bo‘ldi Qunduz.* (J.Abdullaxonov).

3) ish-harakatning boshlanish o‘rnini ifodalab, *qayerdan?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi: **Ministrlikdan** telefon qilishardi. (J.Abdullaxonov). *Ammo qayoqdandir hoshiya tortib kelayotgan qora bulut uning yuzini sholday bir nafas o‘rab turdi...* (J.Abdullaxonov). *Temirjon haligina kutubxonadan olib kelib, divanga betartib sochib qo‘ygan kitoblariga qaradi.* (J.Abdullaxonov).

4. Sabab holi ish-harakatning bajarilish sababini anglatib, *nimaga? nima uchun? nima sababdan?* kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi.

Sabab holini ko‘pincha «uchun», «sabali», «tufayli», «bois» kabi ko‘makchilari yoki chiqish kelishigi –*dan* affiksi shakllantiradi.

Sabab holi ravish, ot, olmosh, sifatdosh, so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: *U tortinchoqligi, parishonholligi tufayli* ayrimlarga g‘alatiroq ko‘rinayotganini ham sezsa boshladi. (J.Abdullaxonov). *Muvaffaqiyatsizliklardan ranjishlar yo‘llariga g‘ov bo‘lmas.* (J.Abdullaxonov). *Negadir* birdan zildek bo‘lib ketgan qo‘lini arang ko‘tarib, qo‘ng‘iroq tugmasini bordi. (F.Musajonov). *Hozirgina savdosi yaxshi bo‘lganidan* Azizbekning ko‘ngli vayron bo‘ldi. (S.Ahmad).

5. Maqsad holi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, *nimaga? nima uchun? nima maqsadda?* degan so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi.

Maqsad holini ko‘pincha «uchun», «maqsadida», «niyatida» yordamchi so‘zлари, shuningdek jo‘nalish kelishigi –*ga* affiksi shakllantiradi.

Maqsad holi ravish, ravishdosh, ot, frazeologik ibora, harakat nomi, so‘z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *Qadamimni ataylab dadil-dadil bosaman.* (P.Qodirov). *Ular baliqlarni tomosha qilgani* pastga tushishdi. (S.Ahmad). ... *Votti kennoyi andak ko‘nglini yozib ketish uchun kelgan ko‘rinadi.* (J.Abdullaxonov).

6. Miqdor-daraja holi ish-harakatning bajarilishini miqdor jihatdan belgilab, qancha? necha marta? qanchalab? kabi so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Miqdor-daraja holi ko‘pincha miqdor-daraja ravishlari bilan ifodalanadi: *Gapni oz so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla.* (Maqol). *Dodamat akaning qotma va abjir gavdasiga mos qoramag‘iz basharasi Ahmadga borgan sari ko‘proq yoqardi.* (F.Musajonov). *Bular dushman pozitsiyasiga mumkin qadar yaqinroq borib, biron qulay joyda soatlab...* poylab etishadi. (A.Qahhor). *Yelkasiga charm xalta osgan yigit tarjimon bilan xiyla* tortishib qoldi. (J.Abdullaxonov).

Miqdor-daraja holi son bilan ifodalanadi. Bunda son yakka o‘zi yoki «marta», «karra» so‘zлари bilan kelib miqdor-daraja holi vazifasini bajaradi: *Yetti o‘lchab, bir kes.* (Maqol). *Ana shunaqa, azizlar, fan yana bir karra g‘alaba qozondi.* (J.Abdullaxonov). *Ortiq ham ayiq ovini bir marta ko‘rgan.* (P.Qodirov).

So‘z birikmasi ham miqdor-daraja holi vazifasini bajarishi mumkin. Masalan: *Mehmonlar yana bir necha muddat teplitsani aylanishdi.* (J.Abdullaxonov).

7. Shart holi *nima qilsa (-m, -ng, -k, -ngiz)* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va bir harakatning bajarilishi uchun shart bo‘lgan ish-harakatni bildiradi: *Eksang, o‘rasan. Qaytarish sharti bilan oldi.*

8. To‘siksizlik holi *nima qilsa (-m, -ng, -k, -ngiz) ham//da?* so‘roqlariga javob bo‘lib, bir ish-harakatning bajarilishi uchun to‘sik bo‘la olmaydigan ish-harakatni bildiradi va *shart fe‘li+ham//da*), ravishdosh, sifatdosh+*bilan* ko‘makchisi, *qaramay, qaramasdan* so‘zлари qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi: *Chaqirilmasa ham qatnashdi. Kichik bo‘lgani bilan ancha og‘ir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.*

4-§. Gap bo‘laklarining joylashish tartibi

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining tartibi, asosan, erkin. Ularning o‘rnini almashtirish odatda grammatik holatni o‘zgartirmaydi. Masalan: *Oppoq bulutlar qishloq ustidan shoshilmay, tog`ga qarab o‘tib ketadi.* (S.Ahmad). - *Qishloq ustidan oppoq bulutlar shoshilmay o‘tib ketadi tog`ga qarab.* - *O‘tib ketadi shoshilmay tog`ga qarab oppoq bulutlar qishloq ustidan.* – *Shoshilmay o‘tib ketadi qishloq ustidan tog`ga qarab oppoq bulutlar.* Mazkur gaplarda gap bo‘laklarining o‘rinlarini almashtirish grammatik holatni o‘zgartirmagan, ammo gap mazmuniga ma’lum darajada ta’sir etgan, negaki har gal boshqa-boshqa gap bo‘laklariga odatdagidan ko‘proq ahamiyat berilgan. Lekin, shunga qaramay, gap bo‘laklari ma’lum bir normativ tartibda joylashish xususiyatiga ega.

O‘zbek tilida ega, odatda, gap boshida, kesim gapning oxirida keladi. Ikkinci darajali bo‘laklar esa ega va kesim orasida joylashadi. Bunday tartib, asosan, darak gaplarda bo‘lib, u **to‘g‘ri** yoki **normativ tartib** deyiladi.

Har bir gap bo‘lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo‘ladi:

I. Ega, odatda, gap boshida keladi: *Kishilar mirishkor raisni qarsaklar bilan olqishladilar.* (Y.Shukurov).

Yoyiq gaplarda ega ba’zan kesim oldida ham kelishi mumkin: *Uning yigirmataga yaqin qo‘y-echkisi borligini ko‘p odam bilar edi.* (P.Qodirov).

Ba’zan ega gapning oxirida ham keladi: *G‘o‘za umriga zavol-ku u.* (J.Abdullaxonov).

II. Kesim odatda gapning oxirida keladi: *Bog‘da yetti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o‘sigan edi.* (J.Abdullaxonov).

She’riyatda, shiorlarda kesim gapning boshida ham keladi:

Intilar borliqni inson

Barkamol etmoq uchun.

Ne ajab, insonni borliq

Barkamol etgan emas.

(E.Vohidov.)

III. Vositasiz to‘ldiruvchi odatda fe’l kesim oldida keladi. Masalan: *Mashina shamoli brezentning **uchini** hilpiratib, chakmonning **etaklarini** tortqilaydi.* (P.Qodirov).

Ba’zan vositasiz to‘ldiruvchi gapning boshida keladi: *Yomonlik **o‘tini** faqat yaxshilik o‘chiradi.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Vositali to‘ldiruvchi ham ko‘pincha kesimdan oldin keladi: *Xayrli va savobli ishlar insonni turli **halokatlardan saglaydi.*** (Hadis namunalari).

IV. Hol ham asosan kesimdan oldin keladi:

1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba’zan egadan keyin, ayrim hollarda kesimdan oldin keladi. Masalan: *Bugun vahshiy tog‘lar orasida u bilan yuzma-yuz keldi.* (S.Ahmad). *Gazeta yo‘q, televizor **hali ham** ishlamaydi.* (S.Ahmad). *Erali **allaqachon** juftakni rostlab qolgan edi.* (S.Ahmad).

2. O‘rin holi, odatda, kesimdan oldin keladi, ba’zan esa gap boshida keladi: ... *mashina tog‘ etagidagi ellik-oltmish hovlilik **Qyko‘l qishlog‘iga** kirib bordi.* (P.Qodirov). Tekislikka yoqqan yomg‘ir **tag‘tepasiga** qor bo‘lib tushgan ekan. (P.Qodirov).

3. Ravish holi, odatda, kesim oldida, ba’zan gap boshida keladi: ... *barglar orasiga to‘planib qolgan oppoq yomg‘ir suvi oftobda **yaltirab, tirairab** to‘kildi.* (P.Qodirov). – *Keling,-deb **soruggina** ko‘rishdi.* (P.Qodirov). *Qo‘qisidan* qorasovuq boshlanib, cho‘ponlarni tashvishga solib qo‘ydi. (M.Qoriyev).

4. Miqdor-daraja holi ham kesim oldida keladi: *Ko‘p yurgan **ko‘p** ko‘rar, ko‘p o‘qigan **ko‘p** uqar.* (Maqol).

5. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida yoki o‘rtasida keladi: *Aqlning eng katta g‘alabalari, ehtimol, ehtiroslar...tufayli ro‘yobga chiqqandir.* («*Tafakkur gulshani*»). *Atay izlab keldim, oq qoya, sen naqadar mag‘rur va kibor.* (*Mirtemir*). Endi ularning xatosini *tuzatish uchun*, hammamiz qancha mashaqqat chekamiz. (*P.Qodirov*).

V. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o‘zgarsa, ularning grammatik holati ham o‘zgaradi.

1. Qaratuvchi qaralmishdan oldin keladi: *Har bir kishining so‘zi o‘z fazilatlari dalili va aqlining tarjimonidir.* («*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*»).

2. Sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: *Havoda ... yong‘oq hazonlarining o‘tkir hidi gurkirardi.* (*O‘.Hoshimov*). *Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri - o‘quvchiga hurmatda bo‘lish.* («*Tafakkur gulshani*»).

Gapda sifatlovchi birdan ortiq qo‘llansa, ularning tartibi quyidagicha bo‘ladi:

1) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi+sifatlanmish: *U atrofida mavj..urib..turgan yashil daraxtlarga ... zavq bilan tikilardi.* (*P.Qodirov*).

2) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Osmonning yarmigacha chiqib.borgan bu bahaybat devorning u yer - bu yerida cho‘ponlar yoqqan gulxanlar milt-milt qiladi.* (*P.Qodirov*).

3) *-dagi* affiksli so‘z bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Hulkar chelakdagi tiniq suvdan ... olib kelib berdi.* (*P.Qodirov*).

4) miqdor tushunchasini bildiruvchi so‘z (son, olmosh, ravish) bilan ifodangan sifatlovchi + sifat bilan ifodangan sifatlovchi + sifatlanmish: ... *suvdan bir chinni kosa olib kelib berdi.* (*P.Qodirov*).

5) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + son bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Yomg‘irdan keyingi loyqada muhrlanib..golgan ikkita izning nimasidir go‘dak tovonini eslatar edi.* (*P.Qodirov*).

Izohlovchi izohlammishdan oldin yoki keyin keladi: *O‘sanda Oxunboboev bilan quvalik temirchi Shakarxon Mo‘minova degan juvonning suvrati gazetada chiqqandi.* (*S.Ahmad*). Norboy *ota usta* Qambarga gap uqtirib ketdi. (*P.Qodirov*).

Agar gap bo‘laklarining normativ, to‘g‘ri tartibi o‘zgarsa, **inversiya** hodisasi ro‘y beradi. Inversiya hodisasi ko‘proq jonli tilda va she’riyatda kuzatiladi. Inversiyada odatda gap bo‘laklarining grammatik holati o‘zgarmaydi. Masalan: *Zotiljam kasali-yu yurak siqilishi nimaligini bilmaydi o‘sha xonardon ahli.* (*J.Abdullaxonov*). (Ega, ega tarkibi gap oxirida kesimdan so‘ng kelgan). *Chindan ham hayvonot bog‘i desa bo‘larkan bu..yerni.* (*J.Abdullaxonov*). (Vositasiz to‘ldiruvchi inversiyaga uchrab kesimdan keyin qo‘llangan.) *Qaysi bir gazetada ota-bolaning ko‘chat ekib turgandagi surati ham e‘lon qilingan edi bir.yili.* (*J.Abdullaxonov*). (Payt holi gap oxirida kesimdan keyin kelgan.).

GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI

1-§. Uyushiq bo‘laklar haqida umumiy ma’lumot

Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil sintaktik vazifasini bajaradigan, o‘zaro teng aloqaga kirishgan, bir umumiy bo‘lakka bog‘lanadigan gap bo‘laklari **gapning uyushiq bo‘laklari** deyiladi. Masalan: *Odamning eng shirin, lazzatli va halol taomi o‘z mehnati, qo‘l kuchi bilan topgan rizqidir.* («*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*»). Mazkur gapda *eng shirin, lazzatli va halol hamda o‘z mehnati, qo‘l kuchi bilan* guruh so‘zshakllari uyushib kelgan. Bunda birinchi guruhdagi so‘zshakllar bir xil so‘roqqa - *qanday?* degan so‘roqqa javob bo‘lib, sifatlovchi vazifasini bajargani holda, *taomi* so‘zi orqali ifodalangan umumiy bo‘lakka – egaga bog‘langan; ikkinchi guruhdagi so‘zshakllar ham bir xil so‘roqqa - *qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘lib hol vazifasida kelib, *topgan* umumiy bo‘lagiga – sifatlovchiga bog‘langan. Har bir guruhdagi so‘zshakllar o‘zaro teng aloqaga kirishgan.

Bunday teng aloqadagi so‘zshakllar soni ikkita va undan ortiq bo‘lib, keyingi paytlarda ular tilshunoslikda **uyushiq qator**, **tenglanishli qator** deb yuritilmoqda. Tenglanishli qatorda ikkidan tortib o‘n, hatto undan ko‘p so‘zshakl qatnashishi mumkin: *Saroytoshning ikki tomonida qad ko‘targan dara sohillari, undagi archazorlar, soy bo‘yida o‘suvchi yulg‘unzoru bizning uyimiz yaqinidagi eski chashma, chashma atrofida ko‘karib yotadigan nilufarlar, yana qishloqning tor, egri-bugri ko‘chalari, tuyulishda do‘mpaygan go‘ng to‘dalari, atrofdan eshitilib turadigan kakliklar sayrog‘i, oqshom tushganida uylar ayvonida yonuvchi chiroqlar, chiroqlar tevaragida qur tutib suhbatga berilgan odamlar – bularning hamma-hammasi biz uchun aziz, qadrdon edi.* (Sh.Xolmirzayev).

Uyushiq qator quyidagi uyushiq bo‘laklar o‘rnini egallaydi:

1. Uyushiq ega: *Qor-yomg‘ir yog‘ayotgan paytlarda ham ayollar va bolalar suvgal kelistadi.* (P.Qodirov).

2. Uyushiq kesim:

a) uyushiq fe’l kesim: ... *ufqqacha cho‘zilgan lolazor rang-barang tovlanmoqda, yonmoqda.* (J.Abdullaxonov);

b) uyushiq ot kesim: *Qalbi pok bo‘lgan kishining ishlari ham pok bo‘ladi, toza bo‘ladi.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

3. Uyushiq aniqlovchi:

a) **uyushiq sifatlovchi:** *Tabiatning hech kimga ba‘ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so‘rab a‘tirmaydigan o‘z qonunlari bor.* (O‘.Hoshimov). Ba‘zan ikki va undan ortiq sifatlovchilar sifatlanmishni turli tomondan aniqlaydi va shuning uchun ham uyushmagan sanaladi. Masalan: *Tog‘tepasida to‘planayotgan qora* bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi. (P.Qodirov). Bunda sifatlanmish (bulutlar) o‘rniga nisbatan harakatdagi belgi (tog‘ teпасida to‘planayotgan) va rang-tus (qora) jihatdan aniqlangan. Uyushgan sifatlovchilar esa sifatlanmishni bir tomondan aniqlaydi. Masalan: *Ular ichida sariq, binafsha rang* gullar... asta silkinib, o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lardilar. (J.Abdullaxonov). Bu gapda sifatlanmish (gullar) faqat rang-tus (sariq, binafsha rang) jihatdan tavsiflangan. Sifatlovchilarning uyushganligini belgilashda sanash intonatsiyasi muhim rol o‘ynaydi;

b) **uyushiq qaratuvchi:** *Hayotda ga‘zallik, quvvat va saodatning manbai soddalikdir.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

d) **uyushiq izohlovchi:** ...*bo‘lajak katta san’atkor, arxitektura professori Akramjon Holiqov, deb bilasizlar!»- deb tanishtirdi.* (O.Yoqubov).

4. Uyushiq to‘ldiruvchi:

a) **uyushiq vositasiz to‘ldiruvchi:** ... *asrlar davomida qasr, koshona, machit, madrasa va uylar qurishda chinordan keng foydalanib kelingan.* (A.Aminov);

b) **uyushiq vositali to‘ldiruvchi:** *Yengil qor parchalarining osmondan uchib tushishida ham, daraxtlarga go‘nishida ham nafis bir xotirjamlik bor!* (P.Qodirov).

5. **Uyushiq hol:** *Qadimgi Movarounnahrda chinorzar bog‘lar barpo etish an‘analari hurmat, ishtiyoga... bilan davom ettirilgan.* (A.Aminov). Mirzo Ulug‘bek Samargand, Kattaqo‘rg‘on, Balx va Shahrisabzda ana shunday bog‘lar barpo etishga farmoyish bergen.

(A.Aminov).

Uyushiq bo‘laklar grammatik jihatdan ikki xil shakllanadi: **mustaqil holda** va **umumlashgan holda**.

Uyushuvchilar **mustaqil** holda shakllanganda, grammatik ko‘rsatkichlar (ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan bo‘laklarda – kelishik, egalik, ko‘plik affikslari, -*dagi* o‘rin belgisi affksi hamda ko‘makchilar; ot va fe’l kesimlarida – to‘liqsiz fe’l va ko‘makchi fe’llar hamda -*dir* affiks bog‘lamasi va so‘z bog‘lamalari) uyushiqli qatorning har bir a’zosida qatnashadi. Masalan: *Qahraton sovugqa va qurg‘ogchilikka chidamli bo‘lgani uchun chinor manzarali daraxt sifatida qadrlanadi.* (A.Aminov). Kitoblar orqali **asrlar bilan, ming yillar bilan, qadim faylasuflar bilan...** suhbatlashish mumkin (Oybek).

Uyushuvchilar **umumlashgan** holda shakllanganda, turli grammatik ko'rsatkichlar uyushiq qatorning oxirgi a'zosida qo'llanib, barchasi uchun taalluqli bo'ladi. Bunda turli umumlashtiruvchi grammatik ko'rsatkichlar qavsdan tashqariga chiqariladi va bu holda shakllangan uyushuvchilarni bitta bo'lak deb qarash lozim bo'ladi. Masalan: *Sharq chinorlari (Kavkaz, Qrim va O'rta Osiyo)da... o'stiriladi.* (A.Aminov). *Mahkam (karavotlar va tumbochkalar) bilan qurshalgan stolga qaradi.* (P.Qodirov). ... *bu xona boshqa xonalaridan (nihoyatda yorug'ligi, ozoda, haddan tashqari sarishtaligi) bilan farq qilardi.* (J.Abdullaxonov). *Temirjon... Abdulla Karimovich Salimovni (tanimas, ammo eshitgan) edi.* (J.Abdullaxonov). *Qishloq bolalari (pishiq, tadbirli) bo'ladi.* (S.Ahmad). Birinchi gapda bitta uyushiq o'rin holini – **da** o'rin payt kelishigi affiksi, ikkinchi, uchinchi gapda bitta uyushiq vositali to'ldiruvchini **bilan** ko'makchisi, to'rtinchi gapda bitta uyushiq fe'l kesimni **edi** to'liqsiz fe'li va beshinchi gapda bitta uyushiq ot kesimni **bo'ladi** bog'lamasi umumlashgan holda shakllantirib kelgan.

2-§. Uyushiq qator a'zolarining o'zaro aloqaga kirishuvi

Uyushiq qator a'zolari tenglashish yo'li bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Bu aloqa teng bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar hamda bog'lovchisiz, faqat ohang, sanash ohangi orqali amalga oshiriladi. Sanash ohangi uyushuvchilarning bog'lovchilar yordamida aloqaga kirishganda ham mavjud bo'ladi.

Uyushuvchilar quyidagi bog'lovchilar yordamida aloqaga kirishadi:

1. Biriktiruvchilar (va, hamda, ham): *Uning tegrasida osmon benihoyat tiniq va ko'k ko'rindi.* (P.Qodirov). *U yotoqxonaga borishga qaror berdi hamda narigi korpusga qarab ketdi.* (P.Qodirov).

Na ... na inkor yuklamasi biriktiruv bog'lovchilar vazifasida kelib, inkor ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladi: *Na hovlidan, na uyidan sado chiqdi* (I.Rahim).

Biriktiruv bog'lovchisi **va** o'rnida -*u* (-yu), -*da*, *na* ... *na* yuklamalari ham qo'llanishi mumkin. *Keyin chakmonning ikki yengini xurjunga o'xshatib yelkasiga tashladi-da, orqaga qaytdi.* (P.Qodirov). *Yigit qora qushlarni ko'rди-yu, birdan sergaklandi.* (P.Qodirov). Biriktiruv bog'lovchisi **va** o'rnida **bilan** ko'makchisi ham bajarishi mumkin: *Deraza bilan doska orasida qo'lini orqasiga qilib yurib, ma'ruza o'qiyotgan surrang kostyumlri barvasta kishi to'xtadi.* (P.Qodirov).

Bilan yordamchisi **va** bog'lovchisi singari, juft–juft qo'llangan uyushuvchilarda har bir juft o'rtasida keladi: *To'g'rilik bilan xiyonat, yolg'onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi.* («Oz – oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Zidlovchilar (lekin, ammo, biroq): *Tolibjon bolalarining beg'ubor, ammo almoysi-jalmoysi gaplaridan zavqlanib jimgina borardi.* (S. Ahmad). *Usta Qambar o'g'lini urmadi, so'kmadi, lekin bir-ikki oy u bilan gaplashmadi.* (P.Qodirov).

Zidlov bog'lovchilar vazifasida **-u**, (-yu) yuklamasi ham qo'llanishi mumkin. Masalan: *O'ttiz yildan beri shu qishloqda uy quribman-u, ... shu buloq ... Oyko'lni Oyko'l qilib turgan shu suv oldimizda oqqani uchun qadrsiz bo'lib yotganini sezmabman.* (P.Qodirov).

3. Ayiruvchilar (yo, yoki, yoxud, yoinki, dam ... dam, goh ... goh, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan): *Bir xil irmoqlar ... katta-katta toshlarni aylanib o'tib, ba'zan qoyalarning ostidan yo'l topib, goh to'lib, goh mildiratib ohistalik bilan ko'lga tushadi.* (E.Vohidov). *U dam sahnada o'tirganlarga, dam pastdagilarga qarab she'rni sharillatib o'qib ketdi.* (O'. Hoshimov).

3-§. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar

Uyushiq bo'lakli gaplarda ba'zan umumlashtiruvchi birliklar ham qatnashadi. Ular uyushuvchilarni jamlab ko'rsatadigan so'z va so'z birliklari bo'lib, uyushiq bo'lakdan oldin yo keyin keladi. Uyushiq bo'lakdan oldin kelgan umumlashtiruvchilar odatda izoh talab qiladi. Uyushiq bo'lakdan keyin kelgan umumlashtiruvchilar esa yakunlash, xulosalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan: **Hamma narsa:** *uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ulikka jimgina cho'kdi.*

(Oybek). Ko'cha – ko'y ham, dala ham, qishloq ham - **hammasi** mendan Ma'sudani so'rqlayotganday bo'ladi. (P.Qodirov).

Uyushiq bo'lakli gaplarda xilma-xil **tinish belgilari** qo'llaniladi.

Uyushuvchilar o'zaro bog'lovchisiz (faqt sanash intonatsiyasi bilan); zidlov bog'lovchilar, takrorlanuvchi bog'lovchilar; bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida aloqaga kirishganda, ular orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *Qashqardaryo, Surxondaryo, Namangan, Samarqand viloyatlarida bo'lsangiz, 500-600 yillik chinorlarni ko'rasiz.* (A.Aminov). *U doktorlarga goh zug'um qilib, goh yaxshi gapirib statsionardan chiqdi.* (S.Ahmad).

Uyushuvchilar o'zaro va, *hamda, bilan* biriktiruv bog'lovchilari orqali, shuningdek, yakka ayiruv bog'lovchilari yordamida aloqaga kirishganda, ular orasiga vergul qo'yilmaydi: *Anhorda suv sokin va ulug'vor oqardi.* (F.Musajonov). *Salim ota bilan yigitlar mehmonni ... kuzatib tashqariga chiqishdi.* (S.Karomatov).

Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar uyushuvchilardan oldin kelsa, shu birlikdan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: *Hamma yerda: uylarda, ko'chalarda ivirsib yotgan xazon yuzi ertalab qirovdan ... oppoq bo'lib qoladi.* (Oybek).

Umumlashtiruvchi birliklar uyushuvchilardan so'ng kelganda, undan oldin tire qo'yiladi: *Kishilar, xotinlar, bolalar – kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopdilar.* (R.Fayziy).

GAPNING AJRATILGAN BO'LAKLARI

1-§. Ajratilgan bo'laklar haqida umumiyyat

Sodda gap tarkibida ayrim hollarda ajratilgan bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Ajratilgan bo'laklar odatda o'zлari aloqador bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, aniqlashtirib keladi va boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam (pauza) bilan ajratilib, mantiqiy urg'u oladi. Masalan: *Soyda, qo'sh yong'oqning tagida, oppoq qorga ko'milib uzoq turdi.* (O.Y.). *Ish qanchalik qiyin bo'lmasin, biz, ayniqsa yoshlar, ishtiyoq bilan, g'ayrat va shijoat bilan ishlardik.* (Ch.Aytmov).

Birinchi gapda *qo'sh yong'oqning tagida* o'rin holi o'zidan oldin kelgan *soyda* so'zining ma'nosini, ikkinchi gapda *yoshlar* o'zidan oldin kelgan *biz* so'zining ma'nosini izohlab, asosiy gap bo'laklaridan to'xtam (pauza) bilan ajratilgan. Ajratilgan bo'laklarning har ikkisi ham oddiy gap bo'lagi shaklida qo'llangan.

Ajratilgan bo'laklar oborot shaklida ham bo'lishi mumkin. Masalan: *Vohid Mirobidov-ku, uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib, qulog'ining yonidan o'tkazib yubordi.* (O.Yoqubov).

Keltirilgan gapda *uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib* ravishdosh oboroti kesimdan anglashilgan ish-harakatning qanday holatda bajarilganini ta'kidlab, alohida ohang yordamida ajratilgan.

Demak, ajratilgan bo'laklar ikki xil shaklda: 1) oddiy gap bo'lagi shaklida va 2) oborot shaklida bo'lishi mumkin.

Ajratilgan bo'laklar qaysi gap bo'lagiga oid ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ajratilgan to'ldiruvchilar.
2. Ajratilgan aniqlovchilar.
3. Ajratilgan izohlovchilar.
4. Ajratilgan hollar.

2-§. Ajratilgan to'ldiruvchilar

Ajratilgan to'ldiruvchilar shakllanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Ko'makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to'ldiruvchilar.
2. Oddiy gap bo'lagi shaklidagi ajratilgan to'ldiruvchilar.

Ko'makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to'ldiruvchilar kesimdan uzoqda kelib, *qaraganda, ustiga, singari, bilan, birga* va shu kabi ko'makchilar yordamida shakllanadi.

Oddiy gap bo‘lagi shaklidagi ajratilgan to‘lidiruvchilar o‘zidan oldin kelgan to‘ldiruvchining ma’nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Bunda vositasiz to‘ldiruvchi ham, vositali to‘ldiruvchi ham ajratilishi mumkin. Masalan: *Sizga, o‘rta bo‘yli qizga, atlas ko‘ylak juda yarashibdi.* (Y.Shukurov). *Bu norozilik, hech shubhasiz, uning dadasiga, Otaqo‘ziga, qarshi qaratilgan edi.* (O.Yoqubov).

3-§. Ajratilgan aniqlovchilar

Ajratilgan aniqlovchilar ikki xil: **ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi.**

Ajratilgan sifatlovchi predmetning belgisini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ajratiladi. Masalan, *Muxtor, yalangbosh, majnuntollar tagida aylanib, xayol surib yurardi.* (S.Soliyev) gapida *yalangbosh* sifatlovchisi shaxsning (*Muxtor*) belgisini bo‘rttirib berish uchun sifatlanmishdan keyin keltirilgan.

Ajratilgan qaratuvchi. Bunda qaratuvchi o‘zidan oldin kelgan boshqa bir qaratuvchini izohlash, aniqlashtirish yo‘li bilan ajratiladi. Masalan: *To‘g‘ri, uning yozganlari, aniqrog‘i, mashinistkaga aytib turib, qog‘ozga tushirganlarining aksari mazmunan sayoz bo‘lar, oldingilarini takrorlardi.* (T.Po‘lat). Bu gapda «*mashinistkaga aytib turib, qog‘ozga tushirganlarining*» aniqlovchisi, o‘zidan oldin kelgan qaratuvchining (yozganlari so‘zining) ma’nosini izohlab, bo‘rttirib kelgan.

4-§. Ajratilgan izohlovchilar

Izohlovchilar ko‘pincha ajratilgan bo‘ladi. Bunda ular izohlanmishdan keyin kelib, maxsus intonatsiya bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *Siz, Sunnatillo, o‘zingiz juda aqli, o‘zi uzoqni ko‘radigan odamsiz.* (S.Soliyev). *Ko‘rimsizgina jangchi – Ali tajang ... kelib o‘zbekcha cho‘kkaydi.* (Oybek). *Minbarni institutni oldinroq bitirganlar - yuqori kurs studentlari egalladi.* (J.Abdullaxonov).

5-§. Ajratilgan hollar

Ajratilgan hollar shakllari jihatdan ikki xil bo‘ladi:

- I. Oborot shaklidagi ajratilgan hollar.
- II. Oddiy gap bo‘lagi shaklidagi ajratilgan hollar.

Oborot shaklidagi ajratilgan hollar o‘z navbatida uchga bo‘linadi:

1. Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.
2. O‘xhatish oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.
3. Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. Ravishdosh o‘ziga oid so‘zlar bilan kengayib keladi va bunday qurilma **ravishdosh oboroti** deb yuritiladi. Ravishdosh oboroti, odatda, ajratilgan bo‘ladi. Masalan: *Odamlar, qopdan to‘kilgan yong‘oqday gurr etib, hamma vagonlardan baravariga perronga yopirilishdi.* (T.Po‘lat).

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar ish-harakatning bajarilish holatini, paytini, shartini, sababini va shu kabi ma’nolarni ifoda etadi. Masalan: *Bola, olmani yeb bo‘lgach, xalacho ‘pni qo‘liga oldi.* (A.Muxtor).

O‘xhatish oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. *-day, -dek* qo‘srimchasini olib kelgan so‘zlar ham kengayib ajratilishi mumkin. Masalan: *Bu zavodda, hamma zavodlardagidek, oshxonada ilg‘orlar stoli alohida.* (A.Qahhor).

Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. Ko‘makchili qurilma shaklidagi hollar kesimdan uzoqda kelib, o‘zlariga oid so‘zlar bilan kengayib, gapning boshqa bo‘laklaridan ajratilishi mumkin. Bunda qurilma *qarshi, singari, kabi, tufayli, yarasha, holda* kabi ko‘makchilar bilan shakllanadi. Masalan: *Nozik, oppoq bilagini daraxtga cho‘zgan holda, qorayib pishgan shotutdan og‘ziga tashlar ekan, tebrandi.* (H.G‘ulom).

Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar turli holatni, o‘xshatishni ifodalaydi.

Oddiy gap bo‘lagi shaklidagi ajratilgan hollar o‘zidan oldin kelgan holning ma’nosini izohlaydi. Uning so‘rog‘i, vazifasi izohlanayotgan holning so‘rog‘i va vazifasiga teng bo‘ladi. Bunda ko‘pincha payt va o‘rin hollari ajratiladi.

Ajratilgan o‘rin holi: *Qishloqdan bir qir narida - behisob qizg‘aldoqlar dalani qizartirib, xiyol chayqalib turgan joyda - hulkar o‘t o‘rardi.* (P.Qodirov). *Oyko l qishlog‘ining o‘rtasida, buloq bo‘yida, usta Qambar bilan Norboy ota shunaqa ustundan uchtasini tiklashgan.* (P.Qodirov).

Ajratilgan payt holi: *Ertaga, yigit, seni kuzatganim zahoti, orqamga qaytaman.* (P.Markov).

Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilaringning ishlatalishi

Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilari quyidagicha ishlataladi:

1. Ajratilgan bo‘laklar, odatda, vergul bilan ajratiladi. Masalan: *Biz, tibbiyat xodimlari, xalqqa jon-dildan xizmat qilamiz.* (S.Soliyev).
2. Ajratilgan bo‘laklarning tarkibi keng bo‘lsa yoki uning ichida verguli bo‘lsa, bunday ajratilgan bo‘laklar tire bilan ajratiladi. Masalan: *Kotiba qiz – Ulfatoy o‘rta bo‘yli, oq yuzli, yonoqlari loladay, qop-qora qosh-ko‘zli ayol – choynakda choy ko‘tarib kirdi...* (S.Soliyev)

GAP BO‘LAKLARI SANALMAYDIGAN BIRLIKLER

Gap tarkibida ba’zan shunday so‘zlar va so‘z birikmalari hatto gaplar qo‘llanadiki, ular gapning biror bo‘lagi bilan grammatic jihatdan aloqaga kirishmaydi. Shu tufayli bunday so‘z yoki so‘z birikmalari gap bo‘laklari hisoblanmaydi. **Undalma, kirish so‘z, kirish birikma** va **kiritma gap** ana shunday xususiyatga ega.

1-§. Undalma

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs (yoki predmet)ni anglatadigan so‘z yoki so‘z birikmasi **undalma** deyiladi. Undalma bayon qilinayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi.

Undalma o‘zi ishtirok etgan gap bilan grammatic jihatdan bog‘lanmaydi. U bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so‘z bilan ifodalanadi. Bu jihatdan undalma egaga o‘xshaydi, biroq u gapning kesimi bilan grammatic jihatdan bog‘lanmasligiga ko‘ra o‘ziga xos undosh intonatsiyasi, pauza (to‘xtash) bilan aytilishiga ko‘ra egadan farq qiladi. Masalan: *Aziz o‘g‘lim, yomonlar bilan suhabatdosh bo‘lma, ularдан asrlondon qochganday qoch, hammaga rahm va shafqat ko‘zi bilan qara ...* («Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur»). **Yurak, sensan mening sozim, tilimni nayga jo‘r etding.** (U.Nosir).

Undalma ba’zan **-ey, -u (-yu)** kabilar bilan birga qo‘llanadi: *Luqmon hakim o‘g‘liga nasihat qilib aytdi: - Ey o‘g‘il, odamlr so‘zga ustomonliklari bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtan.* («Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur»).

Undalma vazifasida atoqli otlar, shaxs otlari, qarindoshlik, kasb, hunar kabilarni anglatuvchi so‘zlar keladi. Masalan: **- Onajon, Xonzoda begin ham sizning suyukli farzandingizku** (P.Qodirov). **Kechagi maqola nima bo‘ldi, Rahim aka?!** (F.Musajonov). **Siz mendan ko‘ra qo‘ylaringizni ko‘proq o‘ylang, cho‘pon aka!** (P.Qodirov).

Undalma otlashgan sifat, otlashgan undov so‘z, so‘z birikmasi va shu kabilar bilan ham ifodalanishi mumkin: *O‘ynashma, puchuq, tek tur, hamma yog‘ing suv bo‘ldi...* (O.Yoqubov). **- Hoy, biron gap topib keldingmi?** (S.Ahmad). **Yaxshilik ... yaxshilikning ham bahosi bor, o‘rtoq Zargarov** (A.Muxtor).

Undalma gap boshida, o‘rtasida, oxirida keladi va yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan, odatda, vergul bilan ajratiladi: **- Olim bola, rayhonlarni bir silkitib chiqmaysizmi ...** (J.Abdullaxonov). **Ey rais, bu kitobni avval bir o‘qib ko‘ring.** (S.Ahmad). **Nima qilasiz, dada,**

bolaning yuragini ezib. (S.Ahmad). Mening etti pushtim bog'bon o'tgan, o'g'lim. (J.Abdullaxonov).

Undalma kuchli his-hayajon bilan aytilda, undan so'ng, undov belgisi qo'yiladi: **-Xolbek!** *Qanisan? – dedi Eshmurot aka. – Kelsang-chi, kutib qoldik-ku.* (P.Qodirov).

2-§. Kirish so'z va kirish birikma

So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga bo'lgan turli munosabatini bildiruvchi so'z yoki so'z birikmasi **kirish so'z** yoki **kirish birikma** deb yuritiladi.

Kirish so'z, kirish birikma mazmunan butun bir gapga yoki uning biror bo'lagiga tegishli bo'ladi.

Kirish so'z va kirish birikma:

I. So'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga bo'lgan turli munosabatini ifodalaydi:

1. Ishonch yoki tasdiqni (albatta, to'g'ri, haqiqatan, darhaqiqat, shubhasiz, so'zsiz kabilar): *Albatta, mendan ko'ra paxta ishining ustalari yaxshiroq bilishadi.* (J.Abdullaxonov). **To'g'ri, til suyaksiz-u, lekin suyakni sindiradi.** (*Shuhrat*).

2. Gumnooni (ehtimol, balki, aftidang, chamsasi kabilar): **Ehtimol, o'z xatolarini tuzatmoqchi bo'lib yurgandir?** (P.Qodirov). **Aftidan, professorning so'zlari unchalik quvonishga arziyadigan emas shekilli.** (J.Abdullaxonov).

3. Afsuslanish, taajjubni (afsuski, attang, essiz, baxtga qarshi kabilar): **Afsuski, boyha hamma raislarni mehnatga chaqirmagan ekansiz,** *Otaqo'zi aka, - dedi Xolmurodov.* (O.Yoqubov).

4. Eslatishni (darvoqe, aytgandek, aytmoqchi kabilar): **Aytgandek, sizdan bir nima so'ramoqchi edim...** (A.Muxtor). **Darvoqe, Anvarga ko'p mehnatim singgan ...** (A.Qodiriy).

II. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalaydi (menimcha, sizningcha, ularning aytishicha, aytishlaricha kabilar): **Menimcha, to'g'risini o'z vaqtida aytib, xatoning oldini olgan yaxshidir.** (J.Abdullaxonov). **Keksalarning aytishicha, o'sha suv tog'ning tirqishidan oqib kelib, manna shu buloqdan chiqarmish.** (P.Qodirov). **Eshitishimcha, Anorxon bilan musobaqalashishga kelishibsizlarmi?** (J.Abdullaxonov). **Tadqiqotchi olimlarning fikricha, chinor daraxtini qadim - qadim davrlarda yurt kezuvchi sayyoхlar, savdogarlar ... Eron va unga qo'shni mamlakatlardan O'zbekistonga olib kelishgan.** (A.Aminov).

III. Bayon qilingan fikrning tartibini ifodalaydi (avvalo, nihoyat, birinchidan, ikkinchidan kabilar): **Nihoyat, xuddi yoshi ulug' odamlardek viqor bilan qadam bosib Asadillo paydo bo'ldi.** (F.Musajonov). **Birinchidan, bugun hamisha opaning yubiley kechalari, ikkinchidan, ertaga oblast yosh yozuvchilarining konferentsiyasi ochiladi.** (O.Yoqubov).

IV. Aytيلayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi (demak, xullas, ishqilib, shunday qilib, binobarin, ko'rindiki kabilar): **Xullas, barcha bilan ahillashib ketganligi ko'rindib turardi.** (J.Abdullaxonov). **Ishqilib, shu oqshomgi suhbat bekor ketmadi.** (J.Abdullaxonov).

Kirish so'z ko'pincha modal so'z bilan, kirish birikma esa so'z birikmasi bilan ifodalananadi. Masalan: **Chamasi, o'n minutcha yurilsa, salqin va so'lim sayribog' bor edi.** (F.Musajonov). **Keksalarning aytishicha, bunday paytlarda tepalikning ustida yerning nafasini eshitarmishsiz?** (O'.Hoshimov).

Kirish so'z va kirish birikma gapning boshida kelib, yozuvda undan keyin, gap oxirida kelib, undan oldin vergul qo'yiladi: **Albatta, uning yuzida kasaldan asar ham yo'q ...** (F.Musajonov). **Achchiq gapirganingiz ma'qul, albattra.** (P.Qodirov).

3-§. Kiritma gap

So'zlovchining asosiy fikr ichida yo'l-yo'lakay aytigan fikrini anglatuvchi gap **kiritma gap** deyiladi. Kiritma gap o'zi kiritilgan gapning biror bo'lagiga mazmunan aloqador bo'lib, maxsus pauza bilan ajratiladi. Masalan: *Nima uchundir Ahmad yuragida ayriliq jafosi, achinish sezmadni (bu his keyin uning yuragini o'rtaydi).* (F.Musajonov).

Kiritma gap ko‘pincha qavs ichida beriladi: *Hay, aytmoqchi, Oyim kelgan ekanlar (u «Oyim» deb Humayrabonuni ko‘zda tutardi)*. (J.Abdullaxonov). Ba’zan esa u asosiy gapdan tire orqali ajratiladi: *Shunday qilib, Asal va Samad - o‘g‘lining ismi shunday ekan – bizning yo‘l uchastkamizda qolishdi.* (Ch.Aytmatov).

QO‘SHMA GAP

1-§. Qo‘shma gap turlari haqida ma’lumot

Qo‘shma gaplar, qismlarining o‘zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko‘ra, uch xil bo‘ladi: 1) bog‘langan qo‘shma gap; 2) ergashgan qo‘shma gap; 3) bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

Qiyoslang: *Iste’dod hamisha har xil bo‘ladi, iste’dodsizlar esa hamma joyda bir xildir.* (E.Vohidov) *Shuni aytmoqchimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo‘lishi shart.* (F.Julio Kyuri).

Keltirilgan misollarning birinchisi bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari *esa* yordamchisi vositasida o‘zaro teng bog‘langan; ikkinchisi ergashgan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari *-ki* aniqlov bog‘lovchisi orqali ikkinchi qismni birinchi qismga tobelik yo‘li bilan bog‘langan; uchinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari o‘zaro hech qanday bog‘lovchi vositasiz - faqat **ohang** orqali birikkan.

2-§. Bog‘langan qo‘shma gap

Qismlarining o‘zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap **bog‘langan qo‘shma gap** deyiladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilar (*va, hamda, ham*), zidlov bog‘lovchilar (*ammo, lekin, biroq, balki*), ayiruv bog‘lovchilar (*yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba’zan... ba’zan, hali... hali, bir... bir*), teng bog‘lovchi vazifasidagi *-da, -u (-yu), na... na* yuklamalari, shuningdek, *bo ‘lsa, esa* yordamchilar vositasida bog‘lanadi.

Shunga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog‘lovchilar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
2. Zidlov bog‘lovchilar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
3. Ayiruv bog‘lovchilar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.
4. Teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

5. Bo‘lsa, esa yordamchi so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

Biriktiruv bog‘lovchilarini (va, hamda; ba’zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqeа-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: *Haqiqat va to‘g‘rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech kim hokim bo‘la olmaydi. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.) Keng bog‘dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o‘sса boshladi. (O’.Hoshimov.)*

Zidlov bog‘lovchilarini (lekin, ammo, biroq, balki) **yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap** qismlari mazmunan bir-biriga zid bo‘ladi. Masalan: *Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bo‘lmaydi. («Ajoyib nasihatlar») Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga o‘xshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar o‘g‘liday ajinsiz, quyuq qora sochli bo‘lganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).*

Ayiruv bog‘lovchilarini (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba’zan..., ba’zan...) **yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gapda** birini tanlash lozim bo‘lgan yoki galma-gal ro‘y beradigan voqeа-hodisalar ifodalananadigan qismlar birikadi.

a) *yo (yo..., yo), yo..., yo bo‘lmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh bog‘lovchilarini birini tanlash lozim bo‘lgan voqeа-hodisalarini ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: Yo ko‘k unga o‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko‘zgusi xiralashib qolgan. (O.Yoqubov.)*

b) *goh..., goh; dam..., dam; ba’zan..., ba’zan bog‘lovchilarini galma-gal ro‘y beradigan voqeа-hodisalarini ifodalovchi qismlarni bog‘laydi. Masalan, Ba’zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyib yuboradi, ba’zan bulut oy yuzini qoplab oladi. (Oybek.)*

Teng bog‘lovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqeа-hodisalar yoxud mazmunan zid bo‘lgan voqeа-hodisalar anglashilib turadi.

Bunda *-u, (-yu), -da, na..., na* yuklamalari biriktiruv bog‘lovchilarining vazifasini, *-u (-yu)* yuklamasi zidlov bog‘lovchilarini vazifasini bajaradi. Masalan: *Oyko‘l ilgari alohida xo‘jalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi. (P.Qodirov.) Ikki tomondagи kitoblarga to‘lib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qo‘lyozma bor. (O.Yoqubov.)*

Bo‘lsa, esa so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlaridan bir vaqtida yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqeа-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: *Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada do‘st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbob qiladi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)*

3-§. Bog‘langan qo‘shma gaplarda tinish belgilaring ishlatalishi

1. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilarini yordamida biriksa, shuningdek yakka qo‘llanuvchi *yo, yoki, yoxud* ayiruv bog‘lovchilarini yordamida biriksa, ular orasiga vergul qo‘yilmaydi. Masalan: *Shamol tag‘in shu tomonga burildi va ingichka, qo‘ng‘iroqday ovoz jaranglab eshitildi. (O’.Hoshimov.)*

2. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari zidlov bog‘lovchilarini yordamida biriksa, bunday bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi. Masalan: *Qorong‘ida buloq suvining o‘zi ko‘rinmas edi, ammo shildirashi aniq eshitilar edi. (P.Qodirov.)*

3. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi qismlar **bo‘lsa, esa** so‘zlari vositasida biriksa ham, ular orasiga vergul qo‘yiladi. Masalan: *Harakatchan kishilar odatda omadli bo‘ladilar; aksincha qiladigan ishlarini hadeb o‘ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan-kam nasib etadi. (Gerodot.)*

4. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi qismlar takrorlanuvchi ayiruv bog‘lovchilarini yoki inkor yuklamasi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan yordamchidan oldin vergul qo‘yiladi. Masalan: *Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimog‘iga urilardi, goh tom orqasidagi yo‘ng‘ichqazorda hasharotlarning bir qiyomda chirillashi e’tiborini tortardi... (P.Qodirov.)*

4-§. Ergashgan qo'shma gap

1. Ergashgan qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarning biri ikkinchisiga mazmunan, grammatik va ohang jihatdan tobe bo'lib, uni aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham qismlardan biri hokim, ikkinchisi tobe sanaladi. Bunda ergashgan qo'shma gap tarkibidagi hokim qism **bosh gap**, tobelanib kelgan qism esa **ergash gap** deb yuritiladi. Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash to'ldirish uchun xizmat qiladi. Masalan: *Gar kishi olmasa hayotdan ta'lim, Unga o'rgatolmas hech bir muallim* (Rudakiy). gapida *Unga o'rgatolmas hech bir muallim* - bosh gap, *gar kishi olmasa hayotdan ta'lim* - ergash gap. Ergash gap bosh gapni shart munosabatiga ko'ra izohlagan.

Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar, asosan, ergash gapning kesimi tarkibida keladi yoki undan so'ng qo'shiladi. Masalan: *O'z darajingga munosib o'ringa bilib o'tirsang, bu o'rindan seni hech kim qo'zg'atolmaydi.* (*Oz-oz o'rganib dono bo'lur*) gapida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita (-sa) ergash gapning kesimi tarkibida kelgan.

2. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1. Ergashtiruvchi bog'lovchilar (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, chunki, negaki, toki, go'yo, -ki*) **yordamida**: *Shunday odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi.* (H.G.'ulom.) *Nafas olmay qulqoq tutgan kishi muttasil shovullagan tovush eshitadi, go'yo olisda shivalab yomg'ir yog'ayotgandek.* (S.Ahmad.)

2. Ko'makchilar (fe'l formalaridan so'ng kelgan ko'makchilar) **yordamida**: *Toshtemir shaharga ketgandan keyin, Sodiq ota qiziga hech narsa demadi.* (H.G.'ulom.) *Eshik ortiqcha tor bo'lgani uchun, ot siqilibgina o'tdi...* (A.Qodiriy.)

3. Yuklamalar yordamida: *Osmonda bulutlar paydo bo'lganidanmi, dengiz motam tutayotgan ayolga o'xshardi.* (O'.Umarbekov.)

4. Nisbiy so'zlar yordamida: *Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo'lsa, ba'zan unutish ham shunchalik zarur.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

5. Sifatdosh shakli hamda kelishik affaksi yordamida: *Ota-onalarimiz qarib qolganda, ularga mehr-muhabbat tuyg'ularimizni baxsh etmog'imiz lozim.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

6. Fe'lning ravishdosh shakli yordamida: *Nasiba chiqib ketgach, Buvsora ona sekin kosaga nazar tashladi.* (S. Mahmudova) *Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi.* (Ch.Aytmatov.)

7. Fe'lning shart mayli shakli yordamida: *Diqqat bilan qulqoq solsangiz, uning bulbulga taqlid qilayotganini sezasiz.* (H.G.'ulom.)

8. Fe'lning buyruq-istak mayli formasi yordamida: *Ona ishdan qanday o'y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko'zlarni ko'riboq, ko'ngli yozildi.* (A.Muhtor.)

9. -day (-dek) o'xshatish ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha yordamida: *To'yning bo'ldi-bo'ldisi qiziq tuyulganday, yangi ishning boshlanish arafasi qiziq bo'ladi.*

Ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan: *Da'vogar sust kelsa, qozi muttaham...* (H.G.'ulom.) *Qo'rkoq do'st dashmandan xavflidir, chunki dashmandan ehtiyyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan.* (L.N.Tolstoy.)

Ayrim hollarda ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin. Masalan: *Uning sovuq nafasi, eshik ochilarkan, o'rmonlarning shovqini bilan oqib kirib, yigitni biroz hushyorlantirardi.* (Oybek.)

3. Ergash gapning turlari

Ma'lumki, ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra ergash gap ikki katta guruhga bo'linadi: **1) bosh gapning biror qismi (bo'lagi)ni izohlovchi ergash gaplar; 2) butun bir bosh gapni izohlovchi ergash gaplar.** Masalan: *Dunyoda shunday odamlar bo'ladiki, ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o'tgan yo'llari biz uchun... yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi.* (O.Yoqubov.) *Kechasi shudring tushmagan bo'lsa ham, daraxt yaproqlari nam va muzdek edi.* (O.Yoqubov.)

Birinchi gap tarkibidagi ergash gap (*ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o'tgan yo'llari biz uchun... yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi*) bosh gapdagi aniqlovchi (*shunday*) ni izohlagan bo'lsa, ikkinchi gap tarkibidagi (*kechasi shudring tushmagan bo'lsa ham*) ergash gapni bosh gapni to'siqsizlik munosabati orqali butun holda izohlagan.

Bosh gapning biror bo'lagini izohlaydigan ergash gaplarga ega ergash gaplar, kesim ergash gaplar, aniqlovchi ergash gaplar, to'ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

Bosh gapni butun holda izohlovchi ergash gaplarga payt ergash gaplar, o'rin ergash gaplar, sabab ergash gaplar, maqsad ergash gaplar, shart ergash gaplar, to'siqsiz ergash gaplar, ravish ergash gaplar, miqdor-daraja ergash gaplar, o'xshatish ergash gaplar, natija ergash gaplar kiradi.

1. Ega ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan egani izohlagan ergash gapdir. Ega ergash gap bosh gap bilan birgalikda **ega ergash gapli qo'shma gap** hisoblanadi. Ega ergash gap -*ki* bog'lovchisi va fe'lning shart mayli qo'shimchasi -*sa* hamda so'roq va ko'rsatish olmoshlari (*kimki - u, kimki - o'sha, kimki- o'zi, nima - o'sha, nimaiki - hammasi*) yordamida bog'lanadi: *Kimki birovning payini qirqsa, o'ziniki ham qirqiladi.* («Ajoyib nasihatlar».) *Kimki o'tmishni yaxshi bilsa, u hozirgi zamon qadriga etadi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».) Ba'zan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan ega tushirilishi mumkin: *Sizga ayonki, siz o'z oilangizdasiz.* Bu gapda **shu** (ega) tushirilgan. Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------------|----------------------------------|
| 1. Kim-sa, u | 5.Nimaiki-sa, o 'sha |
| 2. Kim-sa, o 'zi | 6.Nima.....-sa, o 'sha.... |
| 3. Kimki-sa, u | 7. Shunisi-ki, |
| 4. Kimda-kim-sa, u | 8.-ki, |

2. Kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimni izohlagan ergash gap bo'lib, u bosh gap bilan birgalikda kesim ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi: *Ikkinchisi shuki, xalq boshiga ko'p ofat keltirgan Andijon zilzilasi Qorabuloqni suvdan mahrum qilib qo'ydi.* (M.Ism.) Kesim ergash gaplar bosh gapga -*ki* bog'lovchisi, o'rin-payt yoki bosh kelishikdagi **shu** olmoshi yordamida bog'lanadi. Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesim tushiriladi: *Yaxshisi, sen darsingni tayyorlagin.* Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| 1.....shuki, | 3.....shundaki, |
| 2.....shu yerdaki, | 4. shundayki, |

3. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gapdir. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi. To'ldiruvchi ergash gap, odatda, bosh gapga -*ki* bog'lovchisi, shart mayli qo'shimchasi -*sa* yordamida bog'lanadi. *Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma.*(O.) Bosh gap tarkibida *shuni, shunga, shundan* kabi to'ldiruvchilar qatnashadi. Ba'zan bu to'ldiruvchilar tushirilishi mumkin. *Iltimos qilamanki, oldin rais so'zlasinlar.* Bu gapda *shuni* tushirilgan. Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|---------------------------|----------------------------------|
| 1. Shuni.....-ki, | 5. Nima (ni)sa, shuni |
| 2. Shundan.....-ki, | 6. Kimda.....-sa, uni..... |

3. *Shunga*.....-ki,
4.-ki,

7. *Nima bilan*...-sa, o 'shani...
8. *Buni*.....-ki,

4. Aniqlovchi ergash gap bosh gapda aniqlovchi bo'lib kelgan olmosh va ayrim sifatlarni izohlab kelgan ergash gapdir. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan -*ki* bog'lovchisi (bunda bosh gap tarkibida ko'pincha aniqlovchi bo'lib kelgan *shunday*, *ayrim*, *ba'zi* so'zları ishtirok etadi) yoki shart mayli qo'shimchasi -*sa* (bunda ergash gap tarkibida *qanday*, *qaysi*, *kimning* kabi olmoshlar, bosh gap tarkibida esa *shu*, *shunday*, *o'sha*, *uning*, *ba'zi*, *bir xil*, *ayrim*, *bir*, *bir qancha* kabi olmoshlar bo'ladi) yordamida bog'lanadi: 1. *Shunday inson haqida xabar keltirdimki*, *uning har bir so'zi gavhardir*. 2. *Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri*. Ba'zan bosh gapdagagi aniqlovchi tushirilishi mumkin: *Shoirlar bo'ladiki, ularni bir kishi yolg'iz o'zi kechasi o'qiydi*. (E.Vohidov.) *Odam borki*, hayvon undan yaxshiroq. Sxemasi quyidagicha:

1. *Shunday*.....-ki,
2. *shunday*.....-ki,
- 3...*shunday*....-ni....-ki, *unday*

4.*shunday* (*aniql.*)-ki, ...
5.*shunday(hol)*.....-ki, ...
6.*qaysi*.... – *sa*, o 'sha.....

5. Ravish ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirgan ergash gapdir. Ravish ergash gap bosh gap bilan birga ravish ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi: Bog'lovchi vositalar: -*b*(-*ib*), -*may*, -*masdan*, *deb*. *Birdan qo'llari bo'shashib*, *bog'layotgan bog'ichi barmoqlari orasidan chiqib ketdi*. (O'.Hoshimov). *Naimiying biror ishi o'ngidan kelmasdan*, *umri bekorga o'tib ketdi*. (As.M.) *Chambil obod bo'ldi deb, kelayotir Avazzonday zo'ravon*. (F.Y.) Sxemasi quyidagicha:

- 1.....-ib,
2.-may,

- 3.....-masdan,
- 4.....-deb,

6. Payt ergash gap bosh gapdagagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gapdir. Payt ergash gap bosh gap bilan payt ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi: *U hovliga chiqqanda*, *Qumri bilan dugonasi supa yonida suhbatlashib turishardi*. (H.G'urom.) Sxemasi quyidagicha:

1.-*ganda*,
2.-*gan zahoti*,
3.-*gan vaqtدا*,
4.-*gan paytda*,
5.-*gan zamon*,
6.-*gandan keyin*,
7.-*gunga qadar*,
8.-*gan edi*,
9.-*ganicha yo'q edi*,

10.-*ar ekan*,
11.-*sa*,
12.-*masdan avval*,
13.-*ib*,
14.-*gach*,
15.-*guncha*,
16.-*may*,
17.—*ishi bilan(oq)*,.....

7. O'rin ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradigan ergash gapdir. U bosh gap bilan birgalikda o'rin ergash gapli qo'shma gap deyiladi: *Qayerda intizom kuchli bo'lsa*, *shu yerda tartib bo'ladi*. Bog'lovchi vositalar: -*sa* (*qayerdan*, *qayga*, *qayerga*, *qayerda*, *shu yerda*, *o'sha yerda*, *shunda*, *shu yerga*, *shu yerdan*, *u yerda*) -*mang*, -*masin*, *ekan*: *Qayerda erkaklar bilan ayollar bir-birlarini astoydil qadrlasa*, *o'sha joyda ikki tomonning ham qadr-qimmati ko'tarilib ketyapti*. (P.Qodirov.) Sxemasi quyidagicha:

- 1...*qayerga*...-*sa*, o 'sha yerga...
- 2...*qayerda*...-*sa*, o 'sha yerda,..

- 4.....-*mang*, *u yerda*
5.-*masin*, o 'sha yerda....

3....qayga....-sa o'sha yerda, ...

6.qayerda, shu yerda....

8. Sabab ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga sabab ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. *Samimiylaytilgan so'z sodda bo'ladi, chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo'ladi.* (G'.G'ulom.) Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|-------------------------------|----------------------------------|
| 1.,shuning uchun..... | 10., chunki |
| 2.,-ganidan | 11., negaki..... |
| 3.-gani uchun, | 12. ...-masdan avval, |
| 4.-ganidan keyin,..... | 13., sababki..... |
| 5.-ganidan so 'ng,..... | 14.-gach, |
| 6.shekilli, | 15. ..shuning uchun.....-ki, ... |
| 7.-gunga qadar, | 16.-may, |
| 8.-gan bo'lsa kerak..... | 17.-ki, |
| 9.,-mi, | 18.-ib, |

9. Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish- harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga maqsad ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. Bog'lovchi vositalar: *deb, -sin deb, -di deb, -ar deb, -sa deb, -mi ekan (deb, deya, uchun), toki: Hamma bahramand bo'lsin deb, yaxshi ishslash kerak.* (Oybek). Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|------------------------|-----------------------------|
| 1.....,deb, | 6.,-mi ekan deb, |
| 2.-sin deb, | 7.,-deya, |
| 3.-di deb , | 8.,uchun, |
| 4.-ar deb, | 9. , toki..... |
| 5.-sa deb, | 10.,-sin deb. |

10. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga shart ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa, -sa edi, agar, mabodo, bordi-yu, -ganda(edi), -r(-ar) ekan, -gan ekan, -mi, bo'lmasa, yo'qsa, -may, bo'lay desang, -sinki: Yer baquvvat bo'lsa, g'o'za baquvvat o'sib, hech qanday dardga chalinmaydi.* (J.Abdullaxonov). Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|------------------------------------|------------------------------|
| 1.(Agar)-sa, | 8.,-mi, |
| 2.(Agar).....-sa edi, | 9., bo'lmasa |
| 3.(Agar).....-ganda, | 10., yo'qsa |
| 4.(Agar).....-ganda edi, | 11.,-may, |
| 5.(Bordi-yu)...-r(-ar) ekan, | 12.-masdan avval, |
| 6. (Mabodo)....-gan ekan, | 13.bo'lay desang, |
| 7.(Agar).....-moqchi ekan, ... | 14.-sinki, |

11. To'siqsiz ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqeal-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa ham(ki), qancha, qanchalik, naqadar, garchi, garchnd, -ganda ham, -sa-da, -ganda-da, -gani bilan, -masin, qaramay, qaramasadon, -i(ib), -gani holda, -di hamki, xoh...xoh (-sa -masa), -sa: Ular o'tirgan joyga sel kelmagan bo'lsa ham, Oqdaraning shag'irlashi qulqlariga chalingan edi.* (P.Qodirov). Ba'zan garchi so'zi qo'llanishi mumkin. Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------------|-----------------------------|
| 1. Qancha-sa ham, | 8.,qaramasdan, |
| 2. Qancha-sa hamki, | 9.,-gani holda,..... |
| 3.-ganda ham, | 10.hamki, |
| 4.,-sa-da, | 11. Xoh.....xoh..., |
| 5.-gani bilan, | 12.-sa...-masa, |
| 6.-masin, | 13.-sa... -diki, |

7.-qaramay,

14.-sa,

12. Miqdor-daraja ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdor-darajasini bildirgan ergash gapdir. Bu gaplar bosh gap bilan birga miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi: *Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi.* (A.Qahhor).

1..qancha...-sa,shuncha... 3. ...qancha....-sa, ...shunchalik.... 4.qanchalik.-
2..qanchalik..-sa, shunchalik.. gan sayin.,shunchalik..

13. O'xhatish ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini o'xhatish yo'li bilan bildirgan gapdir. U bosh gap bilan birga o'xhatish ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi: *Toshbaqa jayronni quvib etib g'ajib tashlashi mumkin bo 'Imaganidek, Zaynabning o'z orzulariga etmog'i mumkin emasdi.* (T.Malik).

Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------|--------------------------------|
| 1.kabi, | 7. Go 'yo.....-ganday, |
| 2.-day, | 8.degandek, |
| 3.-singari, | 9....qanday....-sa, shunday .. |
| 4. yanglig', | 10.-guncha, |
| 5.-ki, go 'yo | 11.-gandan ko 'ra, |
| 6.-ki, xuddi..... . | 12.....-ishdan ko 'ra, |

14. Natija ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birga natija ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga -ki bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibida *shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada, shuncha, chunon* kabi so'zlar, ergash gaplar tarkibida esa *natijada, oqibatda, hatto* kabi so'zlar qo'llanishi mumkin: *Yulduzlar shu qadar ko'p chiqqan ediki, allaqanchasi Somon yo'lining ortlarida ham milt-milt qilardi.* (P.Qodirov). Sxemasi quyidagicha:

- | | |
|------------------------------------|----------------------------------|
| 1.shunday....-ki, natijada... | 4. ...shu darajada.....-ki,..... |
| 2...shu qadar...-ki, oqibatda.. | 5.shuncha.....-ki, |
| 3.shunchalik.....-ki, | 6.chunon.....-ki, |

5-§. Bog'lovchisiz qo'shma gap

Qismlarining o'zaro bog'lovchi vositalarsiz birikishidan tuzilgan qo'shma gap **bog'lovchisiz qo'shma gap** deyiladi. Bunday qo'shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun va qurilish jihatdan bog'lashda **ohang** yetakchi vazifa bajaradi. Masalan: *Tashqarida qor uchqunlanib turar, daraxtlarning shoxlari kumush rangda tovlanib, ko'zni qamashtirardi.* (J.Abdullaxonov).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qismlari ko'pincha tenglik ohangi orqali bog'lanadi. Masalan: *Oldindan salqin shabada esa boshladi, yo'l qishloqning tutzor ko'chasiga kirdi.* (Sh.Xolmirzaev). *Piyozning po'sti ko'p, yomonning do'sti ko'p.* (Maqol). Ba'zan bunday qo'shma gaplarning predikativ qismlari tobek intonatsiyasi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: *Ortiq ham o'zicha quvonib qo'ydi: sintetik o'tovning narhi salkam ikki ming so'm...* (P.Qodirov).

Shuning uchun ham tenglik intonatsiyasi orqali tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gap mazmunan bog'langan qo'shma gapga, tobek intonatsiyasi orqali tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gap ergashgan qo'shma gapga mos keladi. Ammo ba'zi bir bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi intonatsiya tenglik va tobek holatidan o'zgacha bo'ladi. Masalan: *So'z doriga o'xshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

6-§. Bog'lovchisiz qo'shma gapning turlari

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining qanday shakllanishiga ko'ra, ikki xil bo'ladi:

1. Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Bu xil qo‘shma gap qismlarining kesimlari bir xil shakllangan bo‘ladi: *Chin muhabbat husn tanlamas, Husn uchun sevmas vafodor.* (*Shukrullo*).

Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi semantik munosabatlar quyidagicha bo‘ladi:

1. Bir paytda sodir bo‘ladigan voqeа-hodisalar anglashiladi: *Motor esa zo‘r berib tirillar, mashina silkinar edi.* (*Ch.Aytmatov*). *Bunday paytda butun vujudida ajoyib bir safarbarlik sezар, xotirasi, zehni, shuuri bir nuqta atrofida inoq to‘planardi.* (*P.Qodirov*).

2. Ketma-ket ro‘y beradigan voqeа-hodisalar anglashiladi: *Tog‘ tepasida to‘planayotgan bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi, oftob g‘oyib bo‘ldi.* (*P.Qodirov*).

3. Voqeа-hodisalar qiyoslanadi: *Bahodir qo‘shinga boshchilik qiladi, donishmand yo‘l ochib beradi.* («*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*»). *Yangi libos – oroyish, yaxshi yo‘ldosh – osoyish.* (*Maqol*).

4. Voqeа-hodisalar zid qo‘yiladi: *Adolatparvar bo‘lish oson - e’tiqoding uchun kurashish qiyin.* (*F.Musajonov*).

II. Turli tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Bu xildagi qo‘shma gap qismlarining kesimlari turlicha shakllanadi. Bunda qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan voqeа-hodisalar bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: *Aqli, farosatl, ilmu hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l, hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi.* («*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur*»).

Bog‘lovchisiz qo‘shma gapning bu turida tarkibidagi qismlar orasida quyidagi semantik munosabatlar yuzaga keladi:

1. Sabab munosabati anglashiladi: *Havo yaxshi, dalada dehqonlar yig‘im-terim bilan ovora.* (*Oybek*). *Nomarddan yordam so‘rama, yuzingga soladi.* (*Maqol*).

2. Payt munosabati anglashiladi: *Quyosh pasayib oppoq cho‘qqilar ustiga qo‘na boshlagan, tog‘ning qori ko‘zni olar darajada yaltiraydi.* (*P.Qodirov*).

3. To‘siksizlik munosabati anglashiladi: *Bular bizni oyoq osti qilib tepyapti, sen uyda baqrayib o‘tiribsан.* (*P.Qodirov*). *Biz ilmdan yiroqmiz, tajriba bor, xolos.* (*J.Abdullaxonov*).

4. Natija munosabati anglashiladi: *Shuncha xo‘jalik yangi uylarga ko‘chib kirdi, Oyko‘l butunlay o‘zgarib ketdi.* (*P.Qodirov*).

5. Izoh munosabati anglashiladi: ... bir narsa mening esimda turibdi: *Oyko‘l g‘allani ko‘p olgan yillari chorvasi ham hozirgidan besh barobar ko‘p edi.* (*P.Qodirov*). *Bu gapdan Ismat bobo bir cho‘chib tushdi: u Kattaevning eng yaqin kishilaridan edi.* (*P.Qodirov*).

6. Shart munosabati anglashiladi: *Ozroq kutib turgin, tez kelaman.* (*S.Ahmad*).

7-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilari quyidagicha ishlataladi:

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqeа-hodisalar anglashilsa, ular bir-biridan **vergul** bilan ajratiladi. Masalan: *Siz marg‘ilonlik og‘aynilarni qipchoqlarga qarshi oyoqlantirmoqchi bo‘lasiz, buni ham yaxshi bilamiz...* (*A.Qodiriy*).

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari mazmun jihatdan mustaqilroq bo‘lsa yoki ular turkibida vergul ishlatalgan bo‘lsa, qo‘shma gap tarkibidagi qismlar bir-biridan **nuqtali vergul** bilan ajratilib yoziladi. Masalan: *Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol; sen kulolning qizi emassan...* (*A.Qodiriy*). *Yosh chog‘ida ... qattiqchilikda o‘sdi; uning ba’zi yarashmagan harakatlari balki o‘scha qattiqchilikning ruhga singib qolgan yomon ta’siridir.* (*A.Qodiriy*).

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo‘lagini izohlasa, uning mazmunini to‘ldirsa, qismlar orasiga **ikki nuqta** qo‘yiladi. Masalan: *Arslonbob yong‘oqlariga kelganda shuni aytmoqchiman: bular nihoyatda noyob, zotli yong‘oqlar.*

(J.Abdullaxonov). Xolbek bir narsani endi sezmoqda edi: Avaz bilan Hulkar unga negadir kerak edi. (P.Qodirov).

4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bir-biridan **tire** orqali ajratiladi. Quyidagi holatlarda qo'shma gap qismlari orasiga tire qo'yiladi:

1) qo'shma tarkibidagi gaplar mazmunan **zid** bo'lsa: *Kiygan to'ning eskiydi – kiydirganing eskimas.* (*Maqol*).

2) birinchi gap ikkinchi gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish **natijasi** yoki **shartini** bildirsa: *Qaring bor – baring bor. (Magol).*

3) birinchi gap mazmuni ikkinchi gap mazmuniga **o'xshatilsa**: *Qor yog'di – don yog'di.* (*Maqol*). *Vaqting ketdi – baxting ketdi.* (*Maqol*).

4) qismlardan **tez almashinuvchi** voqeа-hodisalar anglashilsa: - *Hoy, oyimcha, sen yaxshi bo'lding – biz yomon bo'lib qoldikmi hali?...* (P.Qodirov). *Shu payt oy bulutlar orasidan suzib chiqdi – kamtigi bulutning chetiga urilib, sho'x bir silkinib qo'yganday ko'rindi.* (P.Qodirov).

8-§. Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot

Qo'shma gaplar komponentlarning soniga ko'ra, ikki xil bo'ladi: **1) ikki** komponentli qo'shma gaplar (bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar), **2) ko'p** komponentli (murakkab) qo'shma gaplar.

Ko‘p komponentli (murakkab) qo‘shma gaplar uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo‘ladi.

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi qismlar (komponentlar) o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bog‘langan qo‘shma gap toifasidagi (bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan) murakkab qo‘shma gap.
 2. Ergashgan qo‘shma gap toifasidagi (ergashish yo‘li bilan tuzilgan) murakkab qo‘shma gap.
 3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap toifasidagi (bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo‘shma gap.
 4. Aralash tipdagи tuzilgan murakkab qo‘shma gap.

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Bog‘langan qo‘shma gap toifasidagi (bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan) murakkab qo‘shma gap komponentlari (qismlari) o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki teng bog‘lovchilar vazifasidagi yuklamalar orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Bunday murakkab qo'shma gap, tarkibidagi komponentlarning bog'lanish usullariga ko'ra, shuningdek, ularning semantik munosabatlariga ko'ra, bog'langan qo'shma gapdan farq qilmaydi, lekin bunda komponentlar soni uch va undan ortiq bo'ladi. Masalan: *Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi va terimchilar soni to'rt kishiga ortdi.* (P.Qodirov).

Keltirilgan misolda 3 ta komponent murakkab qo'shma gap tarkibida qatnashib, birinchisi ikkinchisiga teng bog'lovchi vazifasidagi **-yu** yuklamasi bilan, ikkinchisi uchinchisiga **va** bog'lovchisi bilan bog'langan. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gapni quyidagi chizgi bilan ko'rsatish mumkin:

-yu, va
qo'shma gaplariga (ergashan tuzilgan) murakkab qo'shma
gaplar.

Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gapda ergash gap bir necha bo'lib, ular bitta bosh gapga tobelanadi. Qo'shma gapning bu turi bir necha ergash gapli qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Bunday qo'shma gapda ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

1. Birgalik ergashishda qo'shma gap tarkibidagi bir necha ergash gaplar biri ikkinchisi bilan grammatik aloqaga kirishmay, to'g'ridan-to'g'ri bosh gapga bog'lanadi. Masalan: *Ot to'xtaganida, u kuch yig'ib olsin deb, Tanaboy kutib turar ... edi. (Ch.Aytmatov)*.

Bu qo'shma gapning sxemasi (chizgisi) quyidagicha:



Birgalik ergashish ikki xil bo'ladi:

1) bir tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar bir xil turga mansub bo'ladi va ularning har biri bosh gapning ma'lum bo'lagini yoki bosh gapni butunicha bir xilda izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Bunday ergash gaplar uyushgan ergash gaplar deb yuritiladi. Murakkab qo'shma gap tarkibida ergash gapning har bir turi uyushib kelishi mumkin. Ularning ayrimlariga misollar:

a) **ega** ergash gaplarning uyushib kelishi: *Yo'lchiga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda ... hamma daraxtlar bir chiziq ustida tekis saf tortib turadi, daraxtlar o'rtasidagi masofa ham baravar. (Oybek)*;

b) **aniqlovchi** ergash gaplarning uyushishi: *Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (A.Muxtor)*;

d) **sabab** ergash gaplarning uyushib kelishi: *Kun bo'yli piyoda yurib charchadimmi, karnaydan hadeb yangrayotgan muzika elitdimi, uqlab qolibman. (O'.Hoshimov)*

e) **ravish** ergash gaplarning uyushib kelishi: *Adirlarni qoplab yotgan qor tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'kara boshladi. (Ch.Aytmatov)*.


Bir tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:



2) turli tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar har xil bo'ladi va ularning har biri bosh gapdagi biror bo'lakni yoki bosh gapni butunicha turli tomondan izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ularning so'roqlari ham har xil bo'ladi. Bunday ergash gaplar uyushmagan ergash gaplar deb yuritiladi: *Qor tingach, tashqarida juda sovuq bo'lsa ham, ular tekshirishni davom ettirdilar. (CH.Aytmatov)*.

Bu qo'shma gapda payt ergash gap va to'siqsiz ergash gap bosh gapni turli tomondan izohlab kelgan.


Turli tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:



2. Ketma-ket ergashishda ergash gaplar bosh gapga to'g'ridan-to'g'ri tobelanmay, biri ikkinchisiga bo'ysunib, so'ng bosh gapga bog'lanadi. Bu xil qo'shma gaplarda ergash gaplar mazmunan zinch bog'langan bo'ladi va ergash gaplardan biri tushirilsa, umumiyl mazmun

anglashilmay qoladi. Masalan: *Yuk oz bo'lsa ham, olis va o'nqir-cho'nqir yo'llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas.* (Ch.Aytmatov).

Ketma-ket ergashishni chizgida quyidagicha ko'rsatish mumkin:



3. Bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Murakkab qo'shma gapning bu turida uch va undan ortiq gaplar bog'lovchi vositalarsiz, ohang (intonatsiya) orqali bog'lanadi, bu jihatdan u oddiy bog'lovchisiz qo'shma gapdan farqlanmaydi, lekin bunda gaplar orasidagi semantik munosabatlar murakkabroq bo'ladi:

1) gaplar o'zaro teng munosabatda bo'ladi:


Suv tiniq, yaproqlar qirmizi rang tortgan, havo musaffo edi. (F.Musajonov).

Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



2) teng munosabatdagi ikki va undan ortiq gaplar ular uchun umumiyl gapdan anglashilgan fikrni izohlab keladi: *Tushdan keyin hamma jonlanib qoldi: birov hazil qilgan, birov shang'illab qandaydir voqeani so'zlagan, eng dangasa ishyoqmaslar ham allanechuk serg'ayrat, chaqqon bo'lib qolgan.* (F.Musajonov).

Keltirilgan gaplarning chizgisi quyidagicha:



5. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo'shma gap

Aralash murakkab qo'shma gap bir necha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

1) bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Bunday gaplarning qismlari ham tenglanish, ham tobelanish aloqalari orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Masalan: *Qutidor do'koniga jo'nagandan keyin, Oftob oyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi.* (A.Qodiriyy).

Keltirilgan misolda birinchi gap (payt ergash gap) ikkinchi gapga (bosh gapga) ergashish yo'li bilan birikkan, bularning ikkalasi uchinchi gap bilan **va** biriktiruv bog'lovchisi orqali teng bog'lanish yo'li bilan munosabatga kirishgan.

Yana bir misol: *Qilichdan yetgan jarohat tildan yetgan jarohatga qaraganda yengilroqdir, chunki qilich badanni jarohatlaydi, til esa qalbni jarohatlaydi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Bunda ikkinchi va uchinchi gaplar o'zaro **esa** yordamchisi vositasida bog'lanish yo'li bilan **teng** munosabatga kirishgan va yaxlit holda birinchi gapga **chunki** bog'lovchisi yordamida sabab munosabati orqali **ergashish yo'li** bilan birikkan.

2) bog'lanish yo'li bilan va bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Bunday aralash murakkab qo'shma gap qismlari o'zaro ham teng bog'lovchilar (yoki teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar) orqali, ham bog'lovchisiz munosabatga kirishadi: *Kiyimlari bezaksiz, odmi ipakdan, kichkina sallasiga ham gavhar yoki boshqa toshlar qadalmagan, ammo burgutnikiga o'xshah ko'z qarashlari va mag'rur o'ltilishi Bayramxonda hayiqishga o'xshash bir tuyg'u uyg'otdi* (P.Q.). Bunda birinchi gap ikkinchi gap bilan o'zaro ohang yordamida, ikkinchi bilan uchinchi gap esa **ammo** zidlov bog'lovchisi orqali aloqaga kirishgan. Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



3) ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan aralash murakkab qo‘shma gap.


Bunday aralash murakkab qo‘shma gap qismlari o‘zaro ham ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar, ham bog‘lovchisiz munosabatga kirishadi: *Dilda saqlangan adovat temir zangiga o‘xshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Bunda ikkinchi gap uchinchi gapga o‘xhatish munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikib, birinchi gap esa yaxlit qilib olingan keyingi gaplarga bog‘lovchi vositalarsiz munosabatga kirishgan.

4) har uch munosabat: bog‘lanish yo‘li bilan, ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday qo‘shma gap qismlarining o‘zaro munosabati turlicha bo‘ladi:

Tolib aka eski xodim, umri shu redaksiyada o‘tgan va uni bu yerdan haydab bo‘lmaydi, shuning uchun Ahmadning o‘zi ketishi kerak. (F.Musajonov).

Bu aralash murakkab qo‘shma gap to‘rtta gapdan tuzilib, birinchisi ikkinchisiga bog‘lovchi vositalarsiz, ikkinchisi uchinchisi bilan *va* biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘lanish yo‘li bilan munosabatga kirishgan, birinchi uchala gap yaxlit holda to‘rtinchi gapga sabab munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikib kelgan. Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



1. Qo‘shma gapning ta’rifini aytинг.
2. Sodda va qo‘shma gap o‘rtasida qanday farq bor?
3. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro qanday vositalar bila bojlanadi?
4. Qo‘shma gapning qanday turlari bor?
5. Ergash gapli qo‘shma gapning ta’rifini aytинг.
6. Bosh gap deb qanday gapga aytildi?
7. Ergash gap deb qanday gapga aytildi?
8. Ergash gapning bosh gapni izohlashi qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?
9. Ergash gapning joylashish o‘rnlari haqida gapiring.
10. Ergash gaplar bosh gaplarga qanday vositalar yordamida bojlanadi?
11. Bojlangan qo‘shma gap ta’rifini aytинг.
12. Bojlangan qo‘shma gap turlarini sanang.
13. Biriktiruv munosabatlari bojlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
14. Zidlov munosabatlari bojlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
15. Ayiruv munosabatlari bojlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
16. Inkor munosabatlari bojlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
17. Bojlovchisiz qo‘shma g. ta’rifini aytинг.
18. Bojlovchisiz qo‘shma gap ohangdan tashqari qanday vositalar bilan bojlanadi?
19. Bojlangan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladigan bojlovchisiz qo‘shma gaplarga misollar keltiring.
20. Ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladigan bojlovchisiz qo‘shma gaplarga misollar keltiring.

O'ZGA GAP VA UNING TURLARI

Muallif o'z nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar ko'chirma gap, o'zlashtirma gap shaklida beriladi.

1-§. Ko'chirma gap

O'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi **ko'chirma gap** deyiladi. Ko'chirma gapda ikki xil gap bo'ladi: **ko'chirilgan gap** va **muallif gapi**. Ikkalasi birgalikda **ko'chirma gapli qo'shma gapni** hosil qiladi. Muallif gapining kesimi *dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zlandi, aytdi* kabi fe'llar bilan ifodalandi. Ko'chirma gaplar so'zlashuv va badiiy uslublarda ko'p ishlataladi. Ko'chirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: "*Mehnat ishtaha ochar*", - *deydi bobom. Cho'pondan so'radik: "Bu qo'ylar kimning qo'yi?"* "Men, - *dedi u, - ertaga kelaman*". *Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo'q, - dedi.*(J.Abd.)

2-§. Ko'chirma gapda tinish belgilarining ishlatalishi

Ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Ko'chirma gapda, ko'chirilgan gapning o'rniga qarab, tinish belgilarining ishlatalishi quyidagicha bo'ladi:

1. Ko'chirilgan gap darak gap bo'lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo'yiladi: "*YUring, men o'sha tomonga boraman*", - *dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlataladi). So'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin qo'yiladi.

2. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling!* ("El desa Navoiyni")

3. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo'lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomonidan vergul va tire bilan ajratiladi: "*Hazrat, - debdi Xudoyerberdi unga qarab, - tandirni qurolmadim*". ("El desa Navoiyni")

2) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng esa nuqta qo'yiladi: "*Noyib to'raning gaplaridan bilinadi o'zi, dedi Miryoqub. – Siz bo'lgan gaplarni aytib bering*". (CH.)

3) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng so'roq yoki undov belgisi qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan avval o'sha belgi va tire qo'yiladi, muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: "*Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga bizonikiga shaharlilik mehmonlar kelishar ekan!*".(CH.)

4. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi; ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.*

2) ko'chirilgan gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ularning belgilari qo'shtirnoq ichida bo'ladi: *O'qituvchimiz : "Sen qaysi badiiy kitoblarni o'qib chiqqansan?" - deb so'radilar.*

5. Ko'chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo'yiladi. Bu luqmalarda muallif gapi bo'lmaydi: - *Shaharda qarindoshingiz bormi? - Yo'q.*

3-§. O'zlashtirma gap

O‘zgalarining shakli o‘zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o‘zlashtirma gap** deyiladi. O‘zlashtirma gap ko‘chirma gapga aylantirilishi mumkin bo‘lgan gapdir: *Qurban ota ertaga kelishini aytdi* (*o‘zl. gap*) – *Qurban ota dedi: “Men ertaga kelaman”* (*ko‘ch. gap*).

So‘roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
- <i>Ehtiyyot bo‘ling, qoching, Bektemir aka!</i> (As.M.)	<i>Bektemir akaga ehtiyyot bo`lish kerakligini, qochish zarurligini aytdi.</i>

Undalma, kirish so‘z qatnashgan ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so‘zlar tushib qoladi, undalma vositali to‘ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko‘rsatuvchi so‘zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
<i>Mahalla-ko ‘y, guzardagi kim ko ‘rgan meni masxara qilib: —Ha, farzand katta bo ‘lib yotibdimi? — deb so ‘rab qo ‘yishadi. - Men ketdim, - dedi ukasi.</i>	<i>Mahalla-ko ‘y, guzardagi kim ko ‘rgan meni masxara qilib, farzandning katta bo `layotganligi haqida so `rab qo `yishadi. Ukasi <u>o‘zining</u> ketayotganini aytdi.</i>

O‘zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so ‘ramoq, undamoq* (*demoq fe’lidan tashqari*) so‘zları bilan ifodalanadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Muallifning nutqida ifodalangan boshqalarning fikrlari qanday shakllarda bo‘lishi mumkin?
2. Ko‘chirma gapning ta’rifini aytинг.
3. Ko‘chirilgan gap va muallif gaplari haqida ma’lumot bering.
4. Ko‘chirilgan gapning joylashish o‘rnlari haqida gapiring.
5. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan oldin kelsa, tinish belgilari qanday qo‘llanadi?
6. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, tinish belgilari qanday qo‘llanadi?
7. Muallif gapi ko‘chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari qanday qo‘llanadi?
8. Ko‘chirilgan gap muallif gapining o‘rtasida kelsa, tinish bo‘lgilari qanday qo‘llanadi?
9. Muallif nutqida ishlatilgan qanday birliklar qo‘shtirnoqqa olinadi?
10. Ko‘chirma gaplar dialogik nutqda luqma tarzida kelgan bo‘lsa, qanday tinish belgilari ishlatiladi?
11. O‘zlashtirma gapning ta’rifini aytинг.
12. Ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gaplarga aylantirilganda, ular tarkibidagi gap bo‘laklari hisoblanmaydigan birliklar qanday o‘zgarishlarga uchraydi?
13. Ko‘chirma va uning turlari haqida gapiring.
14. Ko‘chirmada tinish belgilari qanday ishlatiladi?
15. Ko‘chirma gapda ishlatiladigan tinish belgilarining barchasini sanab ko‘rsating.

USLUBIYAT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI

1-§. Uslubiyat haqida umumiylar ma’lumot

U s l u b i y a t tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlar bilan tanishtiradi.

Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammafik birliliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rGANiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxs narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: **so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub** (Ayrim darsliklarda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslublar **kitobiy uslub** degan umumiyl nom ostida beriladi): *durust, metro, ko'k, tuzuk* (so'zlashuv uslubi); *moviy, metropoliten* (kitobiy).


Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Leksik vositalar: Sinonim, omonim, antonim, paronim, ko'p ma'nolilik, tag ma'no (gapning tagida yashiringan ma'no), sifatlash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, so'kish, qarg'ish kabilar) kasb-hunar so'zları, mubolag'a (giperbola), arxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

2. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg'u.

3. Grammafik vositalar: a) **morfologik vositalar:** har bir so'z turkumi; b) **sintaktik vositalar:** gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Uslubni yaratuvchi vositalar



Ma'lum bir uslubga tegishli bo'lgan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar** deb yuritiladi: *yanglig'* so'zi badiiy uslubga, *omonim, sinonim* so'zları ilmiy uslubga, *balli, ketvorgan* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *faollar yig'ilishi, siyosiy maydon* kabi so'z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatalaveradigan so'zlar **uslubiy betaraf** so'zlar hisoblanadi: *suv, tog', bola, xat*. Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

2-§. Nutq uslublari

1. So'zlashuv uslubi

Uyda, ko‘chada, insonlarning o‘zaro so‘zlashuvida qo‘llanadigan uslub **so‘zlashuv** uslubi deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me’yorlariga rioya qiladigan ko‘rinishi **adabiy so‘zlashuv uslubi** deb yuritilsa, bunday me’yorlarga rioya qilinmaydigan ko‘rinishi **oddiy so‘zlashuv uslubi** deb ataladi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik shaklda bo‘ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq **dialogik nutq** deyiladi.

So‘zlashuv uslubida ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni do‘ndiribsiz-da. Mazza qildik. Kelaqo-o-o!*

So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko‘plab ishlatiladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

2. Ilmiy uslub

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar **ilmiy uslubda** yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qidalar, ta’riflar)ga boy bo‘lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *YOmг ‘ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi.

3. Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar **rasmiy-idoraviy uslubda** yoziladi. Ariza, tilxat, ma’lumotnoma, chaqiruv qog‘ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e’lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: **jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo‘lishi**. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi, *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so‘z va so‘z birikmalari ko‘plab uchraydi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi: *O‘z lavozimini suiste’mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e’lon qilinsin.*

4. Ommabop (publitsistik) uslub

Tashviqot-targ‘ibot ishlarni olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya’ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo‘lish, ta’sirchanlik, adabiy til me’yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilardan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televidenieda ishlatiladigan ko‘rinishi **og‘zaki ommabop uslub** deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko‘rinishi **yozma ommabop uslub** hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Nutq ta’sirchan bo‘lishi uchun ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *1. Azamat paxtakorlarimiz mo‘l hosil etishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. 2. Partiya faollari o‘zlarining navbatdagi majlisiga yig‘ilishdi.*

5. Badiiy uslub

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik jihatdan ta’sir qiluvchi uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi: *O‘lkamizda fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoymoqda*. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so‘zları, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi.

3-§. Nutq madaniyati haqida

Nutq to‘g‘ri, aniq va yoqimli bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, aniq va yoqimli gapirish uchun mantiqiy izchillikka va adabiy me’yorlarga rioxha qilish kerak.

Nutq madaniyati deganda mantiqiy izchillikka, adabiy til me’yorlariga rioxha qilgan holda to‘g‘ri, aniq va yoqimli so‘zlash tushuniladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Uslubiyat nima va bu bo‘limda nimalar o‘rganiladi?
2. Adabiy til uslubining ta’rifini ayting.
3. So‘zlashuv uslubi haqida gapiring.
4. So‘zlashuv uslubida ko‘proq qanday gaplardan foydalaniladi?
5. Ilmiy uslub haqida gapiring.
6. Ilmiy uslubda ko‘proq qanday til vositalaridan foydalaniladi?
7. Rasmiy-idoraviy uslubda nimalar yoziladi?
8. Rasmiy-idoraviy uslubda qanday gaplardan foydalaniladi?
9. Ommabop uslub haqida gapiring.
10. Ommabop uslubda qanday gap va til vositalaridan foydalaniladi?
11. Badiiy uslubning xususiyatlari haqida gapiring.
12. Badiiy uslub nega aralash uslub deyiladi?
13. Nima uchun ma’nodoshlik uslubiyatning asosi deyiladi?
14. To‘liq sinonimlar haqida gapiring.
15. Ma’noviy sinonimlar haqida so‘zlang.
16. Uslubiy sinonimlar haqida gapiring.
17. Frazeologik sinonimlar haqida gapiring.
18. Grammatik sinonimlar haqida so‘zlang.
19. Qanday me’yorlar adabiy tilning hamma ko‘rinishlari uchun xos?
20. Qanday me’yorlar adabiy tilning hamma ko‘rinishlari uchun xos emas?
21. Nutq madaniyati haqida so‘zlang.

USLUBIYAT TURLARI

1-§. Yozma va og‘zaki nutq me’yorlari haqida

Lug‘aviy, grammatik, uslubiy me’yorlar adabiy tilning h a m m a ko‘rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me’yorlar adabiy tilning faqat yo z m a shakli uchun, to‘g‘ri talaffuz me’yorlari esa faqat o g‘ z a k i nutq shakli uchun xosdir.

2-§. Leksik uslubiyat

1. *Omonimlarning uslubiy xususiyatlari*. Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so‘z o‘yinlari hosil qilinadi: *Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot*, *YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot*, *Nasihatim yod qilib ol, farzandim*, *YOlziz yursa chang chiqarmas yaxshi ot*. Bu o‘rinda *ot* omonim so‘zleri turlicha ma’nolarni ifodalayapti. Omonim so‘zlardan foydalangan holda so‘z o‘yinlarini yaratish **tajnis (jinos)** san’ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san’at qo‘llanib yaratilgan to‘rt qator she’r esa **tuyuq** deb ataladi.

2. *Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari*. Sinonimlarni qo‘llashda hissiy-ta’siriyl bo‘yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diyord* sinonimik qatoridagi *yuz* so‘zi ma’nosi betaraf so‘z bo‘lsa, *bet, aft* so‘zleri salbiy bo‘yoqqa ega, *bashara* so‘zida esa salbiy bo‘yoq yanada kuchli, *turq* so‘zida *bashara* so‘ziga nisbatan ham kuchliroqdir;

chehra ijobiylar bo‘yoqqa ega, jamol so‘zida bu bo‘yoq yanada kuchli. SHuningdek, sinonimlarning ishlatalish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo‘lishi mumkin: keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo‘ysafid sinonimik qatoridagi gari so‘zining ishlatalish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan. Sinonimlarni o‘rinsiz ishlatalish oqibatida turli uslubiy xatolar kelib chiqadi: *Buldozer ko‘chamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo‘l ochar edi* gapida yiqilay so‘zi noo‘rin qo‘llangan, chunki bu so‘z odamlarga nisbatan ishlataladi; bu gapda devorga nisbatan gulamoq so‘zi ishlatalishi kerak edi.

3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari. Antonimlardan to‘g‘ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: *Choyxona mudiri YUsufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o‘xshaydi*. Bu gapdagi issiq-chuchugini juftligi o‘rnida achchiq-chuchugini juftligi ishlatalishi kerak edi. Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san‘at **tazod (antiteza)** deb ataladi.

4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari. Paronimlarni to‘g‘ri qo‘llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *CHanoqlardagi lo‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi*. Bu gapdagi toblanadi so‘zi o‘rnida tovlanadi so‘zi ishlatalishi kerak edi.

5. Turli sabablarga ko‘ra qo‘llanishi chegaralangan so‘zlarning uslubiy xususiyatlari. Bunday so‘zlarga eskirgan va yangi so‘zlar, sheva, kasb-hunarga oid so‘zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so‘zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so‘zlardan o‘tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. SHeva so‘zları mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlataladi, jargonlar esa ma’lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Albatta, bu guruh so‘zlardan foydalanganda, chegaradan chiqmaslik lozim, aks holda nutqda g‘alizlik paydo bo‘ladi:

1. *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko‘tarimchi ajratildi.*

2. *Buning ustiga tokarlik stanogining reztsoderjateli o‘rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni tozalovchi frez o‘rnatildi.* Birinchi gapda ko‘tarimchi degan o‘rinsiz yasalgan yangi so‘z ishlataligan bo‘lsa, ikkinchi gapda atamalar me’yordan ortiq ishlataligan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma’lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvozlik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi: Bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi badiiy nutqqa mansub bo‘lsa, bir jon, bir tan bo‘lmoq iborasi umumnutqqa xosdir. YOzuvchi va shoirlarimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: *O‘likning yog‘ini, tirikning tirnog‘ini eydi bu. (Abdulla Qahhor) O‘qsiz soldat – qilichsiz qin. (Oybek)*

6. Mubolag‘a (yoki **giperbola**) uslubiy vosita bo‘lib, ifodalangan tushunchaning ko‘pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag‘a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlataladi: *To‘qson molning terisidan kavushi...* (“Alpomish” dostonidan)

7. Sifatlash (yoki **epitet**) narsa, shaxs, hodisalarining belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagи belgi bildiruvchi so‘z turkumlari (asosan, sifatlar) qo‘llanadi: Zolim jallod, bilmaganim bildirgin... (“Kuntug‘mish” dostonidan)

3-§. Fonetik uslubiyat

1. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari

1) *asir, devon* kabi so‘zlardagi tovushlarning noto‘g‘ri (*asr, divan* kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi.

2) *-da, -va, -qa (yoki -q)* kabi bo‘g‘inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan so‘zlarni keltirish nutqiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi: *So‘zlarning gapda qo‘llanishi ya vazifalari...*

2. Urg‘uning uslubiy xususiyatlari

So‘z urg‘usining ko‘chishi shu so‘z ma’nosini o‘zgartirishi mumkin: *yangú kiyim*(sifat) - ángi *damlandi* (ravish). Gapda ohangning o‘zgarishi ham yangi uslubiy mazmun paydo bo‘lishiga olib keladi: *Siz ahmoq odam emassiz* jumlasida **ahmoq** so‘zidan keyin to‘xtam (pauza) qilinsa, fikr qaratilgan shaxsning ham ahmoq, ham odam emasligi ifodalanishi mumkin: *Siz ahmoq, odam emassiz.*

GRAMMATIK USLUBIYAT. MORFOLOGIK USLUBIYAT

1-§. Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Kelishik qo‘srimchalarning uslubiy xususiyatlari.

Kelishik qo‘srimchalari o‘zaro almashib qo‘llanishi mumkin:

- 1) -ni va -dan qo‘srimchalari almashib qo‘llanishi mumkin: *Qani, oshdan (ni) oling, mehmon.*
- 2) -ni va -ga qo‘srimchalari almashib qo‘llanishi mumkin: *Gapingizga (gapingizni) tushunmadim.*
- 3) -ni va -da qo‘srimchalari almashib qo‘llanishi mumkin: *Dalani (da) aylandim.*
- 4) -ning va -dan qo‘srimchalari almashib qo‘llanishi mumkin: *kelganlarning biri – kelganlardan biri.*
- 5) kelishik qo‘srimchalari va ko‘makchilar almashib qo‘llanadi:
 - a) -ga qo‘srimchasi o‘rnida **uchun** ko‘makchisi qo‘llanadi: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim.*
 - b) -da qo‘srimchasi o‘rnida **ilan** ko‘makchisi qo‘llanadi: *Xatni qalamda yozdi – Xatni qalam bilan yozdi.*
 - v) -dan qo‘srimchasi o‘rnida **orgali** ko‘makchisi qo‘llanadi: *Xabarni radiodan eshitdik – Xabarni radio orgali eshitdik.*
 - g) -ni qo‘srimchasi o‘rnida **haqida** ko‘makchisi qo‘llanadi: *Akasi kelganini gapirdi – Akasi kelgani haqida gapirdi.*

2. Egalik qo‘srimchalarning uslubiy xususiyatlari.

- 1) otlarda qo‘llangan egalik qo‘srimchasi qaratqich kelishigi qo‘srimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qo‘srimchasi esa egalik qo‘srimchasining mavjudligini ko‘rsatib turadi: *maktab hovlesi, bizning maktab.*
- 2) egalik (qarashlilik ma’nosı) -niki qo‘srimchasi yordamida ham ifodalanishi ham mumkin, faqat bu qo‘srimcha shaxs-son ko‘rsatmaydi: *Bizning maktab – maktab bizniki.*
- 3) qaratqichli birikmalarda shaxs almashib qo‘llanishi ham mumkin: *Mening uyim shu erda – Kaminaning uyi shu erda.*

3. Ot yasovchi qo‘srimchalarning uslubiy xususiyatlari.

Bu qo‘srimchalar orasida o‘zaro sinonim bo‘lgan qo‘srimchalar ham uchraydi: *adabiyotshunos – adabiyotchi, mehnatkash – mehnatchi.*

2-§. Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Sifatlardagi qiyosiy darajani yasovchi -roq qo‘srimchasi o‘rnida -mtir, -imtil, -ish qo‘srimchalari qo‘llanishi mumkin: *ko‘kroq – ko‘kish, qoraroq – qoramtir.*
2. Sifat yasovchi qo‘srimchalar orasida sinonimlik hodisasi ko‘plab uchraydi: *aybdor – aybli, serg‘ayrat – g‘ayratli, chopqir – chopag‘on, beg‘ubor – g‘uborsiz, bama‘ni – ma‘nilı.*
3. Bu qo‘srimchalar orasida antonimlik hodisasi ham uchraydi: *suvli – suvsiz.*

3-§. Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. *U, bu, shu* olmoshlari o‘rnida **bir** so‘zi (yoki *bir xil* so‘zları) qo‘llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.*
2. **Men** olmoshi o‘rnida **kamina** so‘zi, **siz** o‘rnida **o‘zlari** so‘zi qo‘llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo‘q. Siz va’da bergen edingiz – O‘zlari va’da bergen edilar.*

3. Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig‘ilishlarda men olmoshining o‘rnida biz olmoshi ishlatiladi: Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko‘rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.
4. Hurmatni ifodalash uchun sen olmoshi o‘rnida siz olmoshi ishlatiladi. Siz bugun kelasizmi? Aksincha humatsizlikni ifodalash uchun esa sen olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi: Senlar buni tushunmaysanlar.
5. Ko‘rsatish olmoshlari ta’kidlash, ajratish ma’nolarini ifodalaydi: Kitob – bu dono maslahatchi.

4-§. Fe’llarga xos uslubiy xususiyatlar

1. SHaxs-son qo‘shimchalarining sinonimiysi:

- 1) fe’lning 2-shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida 2-shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanadi: Amaki, ertaga kelasizmi?
- 2) fe’lning 1-shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida 2-shaxs birlik qo‘shimchasi ishlatiladi: Tabiatning ishlariiga hayron qolasan kishi.
- 3) 2-shaxs ko‘plik o‘rnida 1-shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanadi: Bolalar, bugun diktant yozamiz.
- 4) 2-shaxs ko‘plik o‘rnida 3-shaxs birlik qo‘shimchasi ishlatiladi: U norozi ohangda dedi: - SHunaqa ish bilan hazillashib bo‘ladimi?

2. Zamon qo‘shimchalarining sinonimiysi:

- 1) hozirgi zamon davom fe’li o‘rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo‘lla-nadi: Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishyapti).
- 2) kelasi zamon o‘rnida hozirgi zamon shakli qo‘llanadi: Ertaga terimga tushyapmiz.
- 3) hozirgi zamon o‘rnida o‘tgan zamon shakli keladi: Qarasam, yugurib kelayotibdi.

3. Mayl qo‘shimchalari sinonimiysi:

- 1) ijro maylidagi fe’l buyruq mayli o‘rnida keladi: Qani, ketdik, bolalar.
- 2) ijro mayli shart mayli o‘rnida keladi: Kelaman dedingmi, kelish kerak.

4. Nisbat qo‘shimchalari sinonimiysi:

- 1) birgalik nisbati qo‘shimchasi ko‘plik qo‘shimchasiga sinonimdir: Ular kelishadi – Ular keldilar.
- 2) nisbat qo‘shimchalari ichida o‘zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: -l, il, -n, -in, -sh, -ish; -t, -tir, -dir, -ir, -giz; -kiz, -kaz, -qiz, -qaz.

5. Fe’lyasovchi qo‘shimchalar sinonimiysi:

- 1) ba’zi yasama fe’llar iboralarga sinonim bo‘ladi: gulladi – gulga kirdi.
- 2) qo‘shimcha yordamida yasalgan fe’llar qo‘shma fe’llarga sinonim bo‘ladi: himoyaladi – himoya qildi.
- 3) fe’l yasovchilar o‘zaro sinonim bo‘ladi: sizlamoq – sizsiramoq, suvsamoq- suvsiramoq.

SINTAKTIK USLUBIYAT

1-§. Gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlari

- 1) **sifatlovchi aniqlovchilar** ot bilan ifodalansa, majoziy ma’no ifodalaydigan bo‘lib qoladi: Kumush choyshab yopib dalalar, qor qo‘ynida uxbab yotadi. (Uyg‘un)
- 2) **sifatlovchi aniqlovchilar** turli so‘z turkumlaridan tuzilib, sifatlash vazifasini bajargan ibora va so‘z birikmalari bilan ifodalanadi: Osmon o‘par tog‘lar, bag‘ri keng inson, cheki yo‘q qirlar, fikri tiniq insonlar.
- 3) **sifatlovchi-aniqlovchi** takroriy so‘zlar bilan ifodalanganda ma’no kuchayishi yuz beradi: Baland-balando binolar tez uchrav boshladi.
- 4) **izohlovchi** ham uslubiy vazifa bajaradi. Ma’lumki, izohlovchi laqab, qarindoshlik, o‘xshatish kabi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda ma’lum shaxsga nisbatan munosabat seziladi, ya’ni uslubiy ma’no yuzaga keladi: Mamajon quruq, Ali tajang, Soli sovuq va h.

O‘xshashlik ma’nosidagi izohlovchi jumлага ko‘tarinkilik(pafos) xususiyatini kiritadi: *ona-Vatan, gulchalar-qizchalar.*

5) ajratilgan bo‘laklar jumla tarkibidagi ayrim bo‘laklarga urg‘u berish, ularni alohida ajratib ko‘rsatish, shaxs va narsa haqida qo‘shimcha ma’lumot berish, belgi-xususitlarni ta’kidlash kabi vazifalarni bajaradi: *Biz, yoshlar, ota-bobolarimiz merosini ko‘z qorachig‘iday asrashimiz lozim.*

6) undalmalar ham turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ular gap boshida va o‘rtasida kelsa, chaqiriq va murojaatni ifodalaydi: *Uka, mening yo‘qligimni bilintirma.* Gap oxirida kelgan undalma tinglovchiga nisbatan hurmat, muhabbatni ifodalaydi: *Tuprog‘ingni zar bilarman, ona-Vatanim!* Bulardan tashqari undalmalar iltimosni, so‘zlovchining his-tuyg‘usini, kuchli ehtirosini, ko‘tarinki holatni, piching va kinoyani ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

7) kirish so‘z va kirish birikmalar so‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat sifat, son, olmosh, fe’l va modal so‘zlar yordamida ifodalananib, gumon, tasdiq, inkor, fikr tartibi, fikr izohi, e’tiborni tortish, xulosa, ikki fikrni o‘zaro bog‘lash kabi ma’nolarni aks ettiradi: *U bugun kelmaydi, shekilli.*

2-§. Ayrim gap turlari o‘rtasidagi sinonimiya

1) ayni bir fikr gapning har xil turlari bilan ifodalananidi:

a) sodda gap bilan: *Har kim ekkanini o‘radi.* b) qo‘shma gap bilan: *Kim nimani eksa, shuni o‘radi.*

2) bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplar o‘zaro sinonim bo‘ladi: *Bugun ketamiz – Biz bugun ketamiz.*

3) darak va so‘roq gap sinonim bo‘ladi: *Vatanni kim sevmaydi – Vatanni hamma sevadi.*

3-§. Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari

1) bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibida biriktiruv va zidlov bog‘lovchilari o‘rnida -u, -yu, -da yuklamalari sinonim holatda qo‘llanishi mumkin: *Havo bulutlashdi ya yomg‘ir yog‘a boshladi. Havo bulutlashdi-yu, yomg‘ir yog‘a boshladi.*

2) ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar sodda gaplarga sinonim bo‘ladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yo‘lga chiqa olmaymiz – Bizning bugun yo‘lga chiqa olmasligimiz aniq.*

3) sabab, maqsad, o‘xshatish ergash gaplarning kesimlari sifatdosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gaplarga sinonim bo‘ladi: *Tog‘ etagi juda go‘zal edi, go‘yo chirolyi gilam to‘shalganday – CHirolyi gilam to‘shalganday tog‘ etagi juda go‘zal edi.*

4) payt, sabab, shart, to‘siqsiz, natija, ravish ergash gaplarni o‘z doirasida sinonimlari bilan almashtirish mumkin:

U kelsa (kelgan paytda, kelar ekan), hamma ketib bo‘libdi.

5) bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladi: *Qor yog‘di – don yog‘di (Qor yog‘sa, don yog‘adi. Qor yog‘di-yu, don yog‘di).*

4-§. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari

Birovlarning hech o‘zgarishsiz berilgan gapi (ko‘chirma gap) o‘zgalarning mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan holda berilgan gapi (o‘zga gap) bilan sinonimik holatda bo‘ladi: *O‘qituvchimiz dedi: “Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaring” – O‘qituvchimiz topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish lozimligi haqida gapirdi.*

Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

1. Ko‘chirma gap birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi: “*Hamma yig‘ildi*”, - dedi navbatchi. *Navbatchi hammaning yig‘ilganini aytdi.*

2. Ko‘chirma gap tarkibidagi undalma vositali to‘ldiruvchiga aylanadi: “**Rasulbek, biz bilan yuring**”, - deb taklif qildi do‘sti. **Rasulbekka do‘sti o‘zlari bilan yurishni taklif qildi.**

3. Ko‘chirma gap tarkibida kirish so‘z vazifasida kelgan undovlar, taqlid so‘zlar tushiriladi: “*Voy, qo‘rqib ketyapman*”, - dedi xotini. Xotini qo‘rqib ketayotganini aytdi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
5. Turli sabablarga ko‘ra qo‘llanishi chegaralangan so‘zlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
6. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
7. Urjuning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
8. Kelishik qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
9. Egalik qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
10. Ot yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
11. Sifatning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
12. Olmoshning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
13. SHaxs-son qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
14. Mayl qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
15. Nisbat qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
16. Fe’l yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
17. Gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.
18. Ayrim gap bo‘laklari o‘rtasidagi sinonimiya haqida gapiring.
19. Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring.

ISHORAT QOIDALARI (PUNKTUATSIYA)

Tinish belgilari va ularning yozma nutqda qo‘llanishini o‘rganadigan bo‘lim **punktuatsiya** deb yuritiladi.

1-§. Nuqta

Nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o‘z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uning kuchi etsa.*
2. Birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng: "*Men hozir jo‘nayman, - dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo‘lga chiqing*".
3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoil)*
4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo‘llangan raqam yoki harflardan keyin: 27.09.2002 kabi.

D i q q a t ! Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o‘z o‘rnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi: *Ketdi.* (A.Q.) Shuningdek, sarlavhalardan keyin (darak gap bo‘lsa) nuqta qo‘yilmaydi.

2-§. So‘roq belgisi

1. So‘roq belgisi so‘roq gaplardan keyin qo‘yiladi: *Ishga tayyormisiz?*
2. So‘roq gaplar bittadan ortiq bo‘lib kelishi mumkin: Bunday paytlarda so‘roq belgisi quyidagicha qo‘yiladi:
 - 1) so‘roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so‘roq gap mazmuniga ko‘ra mustaqil bo‘lsa, har biridan so‘ng so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Qishloqlar qanday? Og‘aynilar yaxshi yurishibdimi?*

2) agar so‘roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so‘roq belgisi eng so‘nggi so‘roq gapdan keyin qo‘yiladi: - *Tag‘in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini etaklab kelyapsanmi? (G‘.G‘.)*

3. So‘z yoki ibora noaniq bo‘lsa, unda gumon ifodalansa, so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Bu ishlarning hammasini yarim soat (?) ichida bir o‘zi bajardimikin?*

D i q q a t ! Ba’zan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan biri so‘roq gap shaklida, ikkinchisi esa uning izohi sifatida kelishi mumkin, bunday holatda ular orasiga vergul yoki tire qo‘yilishi mumkin: *U ertaga keladimi, kelmaydimi, bu men uchun qorong‘i.*

3-§. Undov belgisi

Undov belgisi quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so‘ng: *YOshligimizda naqadar baxtiyor edik!*
2. Buyurish, tilak, orzu ma’nolarini ifodalagan gaplardan so‘ng: *Hoziroq bularni ko‘zimdan yo‘qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!*
3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda **ha** va **yo‘q** so‘zlaridan so‘ng: *Yo‘q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!*

4-§. Ko‘p nuqta

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so‘zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko‘rsatish uchun: *Agar hozir gapingizni to‘xtatmasangiz...*
2. Ba’zan ko‘p nuqta so‘zlovchining o‘ylashi, mulohaza qilishini ko‘rsatadi: *Bugun... bugun oldingizga o‘tsam bo‘ladimi?*
3. Ba’zan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko‘rsatish uchun ham ko‘p nuqta qo‘yiladi:
 - *Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...*
 - ...
4. Biror so‘z yoki gapning tushirilganini ko‘rsatish uchun: *Bugun ettinchi bo‘limga kelib, ... fig‘oni oshdi.(T.Malik)*

5-§. Ko‘p nuqta, undov va so‘roq belgilarning birikkan holda kelishi

1. So‘roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo‘lgan so‘roq gaplardan keyin undov va so‘roq belgisi birikkan holda (!?) qo‘yiladi: *Go‘zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?*
2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq va undov belgisi birikkan holda qo‘yiladi: - A?! – *Xonkeldieva turgan erida surat bo‘lib qoldi. - Direktorimiz-a?!* (H.G‘.)
3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (!..) qo‘llanadi: - *Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o‘pkasi yumshab, ko‘zlariga qaynoq yosh keldi.* (H.G‘.)
4. Mazmunan tugallanmagan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (...) ishlatiladi: - *Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?...*

6-§. Vergul

Vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

1) bog‘lovchisiz birikkan uyushiq bo‘laklar orasida *Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon – O‘zbekning chamani, bog‘u bo‘stoni.* (G.G.) 2) takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur o‘yga toladi.* 3) zidlovchi bog‘lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.* (P.Q.)

2. Undalmalarni ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa jo‘naymiz.*
 3. Kirish so‘zlarni va tuzilishiga ko‘ra murakkab bo‘lmagan kirish gaplarni ajratish uchun: *Xullas, ertaga shu erda yig‘iladigan bo‘ldilar. Men sizga aytSAM, odamning yomoni bo‘lmaydi.*
 4. Ha va yo‘q so‘zlarini gap bo‘laklaridan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz to‘g‘ri. Yo‘q, ertaga kela olmayman.*
 5. Gapning ajratilgan bo‘laklarini ayirib ko‘rsatish uchun: "Biz, **yoshlar**, ota-bobolarimiz qoldirgan bebaHO merosni ko‘z qorachig‘iday asrashimiz kerak".
 6. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.*
 7. Va, ham, hamda, yoki (yolg‘iz kelgan) bog‘lovchilaridan boshqa bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush o‘tirar edi.*
 8. Ergash gapni bosh gaplardan ajratish uchun: *Hamma yig‘ilgach, majlis boshlandi.*
 9. Muallif gapini ko‘chirma gapdan ajratish mumkin:
- *Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, - dedi ota, - kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.*

7-§. Nuqtali vergul

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:
1. O‘z ichida vergul bo‘lgan yoyiq uyushiq bo‘laklar orasida:
Mehnat, ijod, odam sharafi;
Dil yorug‘i, hayot quvonchi
Hammasining asli manbai
Sen, Vatanim - tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

2. O‘z ichida verguli bo‘lgan, mazmunan ma’lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdag'i gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.*

8-§. Ikki nuqta

1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan so‘ng: *Yig‘ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so‘zga chiqishdi.*

E s l a t m a : Ba‘zan umumlashtiruvchi so‘z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo‘yilaveradi: *Qilinishi kerak: traktorlar ta‘mirdan chiqarilsin, ishchilarga etarli sharoit yaratilsin.*

2. Quyidagi ma’nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda: 1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: *U ikariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: *SHamol juda zo‘raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironita odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

3. Ko‘chirma gapdan oldin, muallif gapidan so‘ng: *U baland ovozda so‘radi: - Kim bor?*

9-§. Tire

Tire quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalaniib, kesim bilan bog‘lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz. Bularni amalgamoshiradigan – siz. O‘qish – hayotni uqish.*

2. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o‘tirishgan ekan.*

3. Ajratilgan bo‘lak bilan izohlanmish bo‘lak orasiga: *Men – Valiev Mahmud, 1954 yilda Toshkentda tug‘ilganman.*

4. Kirish gap bilan gap bo‘laklari orasiga: *Tunov kungi ovchi – men uni o‘rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so‘zlab berdi.*

5. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida: - *Bugun kelasizmi? – so‘radi qizi.*

6. Dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda: - *Keldimi? - Keldi.*

7. Kutilmagan voqe-a-hodisalarini ifodalagan gaplardan oldin: *Kecha sizlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!*

8. Zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: *Jismimiz yo‘qolur - o‘chmas nomimiz.*

10-§. Qavs

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a‘lochisi) oly o‘quv yurtiga kiribdi.*

Eslatma: Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: *CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoev xafa bo‘ladi, aytmasa bar joydan chatog‘i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo‘ladimi? (O.YO.)*

2. Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: *Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi. A z i z K a m o l (xayol og‘ushida). Vatanimizga qarshi ko‘tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho‘qqisiga chiqdi. (S.Az.)*

3. Misol yoki ko‘chirmaning manbai: ...*Eshik qars etib yopildi.(O.YO.)*

4. Kirish so‘z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi: *To‘satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (o‘shandan beri undan dom-darak yo‘q!) ... tushdi. (O.YO.)*

11-§. Qo‘shirnoq

1.Ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun: *"Ertaga kelaman", - dedi.*

2. Ko‘chma ma’nodagi, shartli nom yoki taxallus ma’nosidagi ayrim so‘z va so‘z birikmalari ham qo‘shirnoqqa olinishi mumkin: “*Tog‘ asali” sotadigan yigit ... dovonning nariyog‘iga o‘tib ketgan. (S.Ahm.)*

E s 1 a t m a : Qo‘shirnoqqa olinishi kerak bo‘lgan so‘zlarda turlovchi (kelishik) qo‘shimchalar mavjud bo‘lsa, bu qo‘shimchalar qo‘shirnoqdan keyin qo‘yiladi: *Bularni ko‘rgan Aziz o‘zi haydab kelayotgan «GAZ-69” yurishini tezlatib, yo‘lga chiqdi-da, “Jiguli” tomonga burildi. (H.G.).*

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbek tilida jami nechta tinish belgisi bor? 2. Nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?	12. Qo‘shirnoqning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
3. So‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.	13. Qaysi tinish belgisi nisbatan ko‘p qo‘llanadi?
4. Undov belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.	14. Qaysi o‘rinlarda vergul doimo ikki marta qo‘llanadi?
5. Ko‘p nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?	15. Qaysi o‘rinlarda tire doimo ikki marta qo‘llanadi?
6. Tinish belgilarining birikkan holda ishlatilishi haqida gapiring.	16. Qaysi tinish belgilari juft(takroriy) ko‘rinishga ega?

<p>7. Vergulning qo'yilish o'rnlari haqida gapiring.</p> <p>8. Nuqtali vergulning qo'yilish o'rnlari haqida gapiring.</p> <p>9. Ikki nuqtaning qo'yilish o'rnlari haqida gapping.</p> <p>10. Tirening qo'yilish o'rnlari haqida gapiring.</p> <p>11. Qavsning qo'yilish o'rnlari haqida gapiring.</p>	<p>17. Qaysi tinish belgilari qisqartirilgan so'zlar bilan qo'llanadi?</p> <p>18. Inson ruhiyati bilan bojliq o'rnlarda ishlataladigan tinish belgilarini sanab ko'rsating.</p> <p>19. Izoh ma'nosi ifodalangan o'rnlarda ishlataladigan tinish belgilarini sanab ko'rsating.</p> <p>20. Raqamlar bilan birga ishlataladigan tinish belgilarini sanab ko'rsating.</p>
---	---

GLOSSARIY

A

Abbreviatsiya usuli – q. Qisqartma usul.

“Abushqa” lug‘ati –XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan lug‘at. Nomi lug‘atdagi birinchi so‘zdan, ya’ni *abushqa* so‘zidan olingan.

Adabiy til –milliy tilning ma'lum qoidalarga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli.

Agglutinativ tillar – har bir grammatic ma'no alohida qo'shimcha bilan ifodalanigan tillardir: *maktabga* – jo‘nalish ma'nosini ifodalaydi, *maktablar* – ko‘plik ma'nosini ifodalaydi. Bunday tillarga turkiy tillar, mo‘g‘ul, yapon, ugor-fin tillari kiradi.

Affiks – q. Qo'shimcha.

Affiksatsiya usuli – so‘z yasovchi qo'shimchalar yordamida so‘z yasash: *oqla*, *o'tkir*, *zargar*, *eskicha*.

Ajratilgan bo'lak – gap tarkibida boshqa bolaklardan mazmun va ohang jihatidan pauza bilan (yozuvda tinish belgilari bilan) ajratilgan bo'lakdir: *Qarshidagi daraxtga tirmashib, telefon simini qirquvchi qora chuponli bir yigitni – do'sti O'rozni ko'rди...(O.)*

Ajratilgan hol – o‘zidan oldin kelgan holni izohlaydigan yoki kengaygan shaklda boshqa bo'laklardan pauza bilan ajratilgan holdir: *Pastda, soy bo'yida tegirmon novlardan quyilgan suvning bir maromda shovillashi eshitildi.(O.Y.) Yo'lchi tishini...qayrab, boyvachchaning ko'kragiga zarb bilan bir musht tushirdi.(O.)*

Ajratilgan qaratqich aniqlovchi – o‘zidan oldingi aniqlovchini izohlab keladigan aniqlovchidir: *Ukasining, ya’ni Komiljonning ishlari yurishib ketdi.*

Alfavit (alifbo) - harflarning ma'lum tartibda joylashgan majmui.

Allofon – fonemaning real borliqda talaffuz qilinadigan va qulqoq yordamida eshitiladigan ko‘rinishidir.

Alovida guruh so‘zlar – lug‘aviy ma’no bildirmaydigan (ya’ni, so‘roqqa javob bo‘lmaydigan), morfologik jihatdan o‘zgarmaydigan (ya’ni, qo‘sishchalar olmaydigan), lekin ba’zan gap bo‘lagi vazifasini bajara oladigan so‘zlardir: **modal so‘zlar, undov so‘zlar, taqlid so‘zlar**.

Amorf tillar – tarkibidagi so‘zlar o‘zaro hech qanday qo‘sishchalarsiz, ohang yordamida yoki yordamchi so‘zlar orqali bog‘lanadigan tillardir: *qadimgi xitoy tili*.

Aniq otlar - insonning 5 ta sezgi a’zosi (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish va teri orqali sezish) yordamida sezish mumkin bo‘lgan narsalarni bildiruvchi otlar: *qalam, tovush, hid, havo*.

Aniqlanmish – aniqlovchi aniqlab kelgan bo‘lakdir: ...*Gulnorning nozik va nafis gomati dahlizda ko’rinib qoldi.*(O.)

Aniqlik nisbatidagi fe’llar - harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradigan fe'llardir. Bunday fe'llarda maxsus nisbat qo‘sishchalar bo‘lmaydi: *o‘qidi, kelyapti, bormoqchi*.

Aniqlov bog‘lovchisi – gapning ma'lum bir bo‘lagini yoki gapni to‘laligicha izohlaydigan, aniqlashtiradigan quyidagi bog‘lovchilar: *ya’ni, -ki(-kim), toki: U ko‘rdiki, kamchiliklar ko‘p*. Ba’zan *-ki* ot turkumidagi so‘zlar bilan birga kelib, ta’kidlash, uqtirish ma’nolarini anglatadi, bunda u bog‘lovchi emas, yuklama sanaladi: *Har qovunlarki, quchog‘ingga sig‘maydi*.
Aniqlov yuklamalari – q. O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari.

Aniqlovchi - gapdagi biror bo‘lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo‘lakdir. Aniqlovchi gap ichida har doim otga yoki otlashgan so‘zga bog‘lanadi: *Mayda qor yog‘yapti. Qovunning og‘iri, tarvuzning yengili shirin bo‘ladi*. Aniqlovchi gap ichida egaga ham, kesimga ham, to‘ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo‘la oladi (bunda mazkur bo‘laklar ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan bo‘ladi): *Oppoq mashina keng ko‘chada navbatdagi chorrahani kesib o‘tmogda edi. Toshkent juda chiroyli shahar*.

Antonimlar – qarama-qarshi ma’noli so‘zlar: 1) to‘liq antonimlar barcha ma’no xususiyatlari bilan o‘zaro zid bo‘lgan so‘zlardir: *ost-ust, yaxshi-yomon, keldi-ketdi, oz-ko‘p; 2) yarim* antonimlar ayrim ma’no xususiyatlari bilangina o‘zaro zid bo‘lgan so‘zlardir: *aka-uka* (yoshi jihatidan zid), *ota-on* (jinsi jihatidan zid), *opa-singil* (yoshi jihatidan zid).

Arab yozuvi - O‘zbekistonda taxminan 720-yildan to 1929-yilgacha amalda bo‘lib kelgan yozuv.

Aralash son - butun son bilan kasr sonning birgalikda ishlatilishidan hosil bo‘lgan son: *bir yarim, ikki butun o‘ndan uch*.

Asliy sifatlar - narsalarning belgisini bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko‘rsata oladigan (ya’ni *-roq* qo‘sishchasi qabul qila oladigan) sifatlar: *kichik, yomon, aqli, qora, oriq* va b.

Asos – so‘zning tub (atash) ma’nosini bildirib, mustaqil qo‘llana oladigan qismdir: **paxtazor, darvozabon, aqli, o‘yla**. Asos so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. Asos so‘z tarkibida doim qatnashadi. **Asosdosh so‘zlar** – bir asosdan yasalgan so‘zlar: *ishchi, ishla, ishchan; yo‘lak, yo‘ldosh, yo‘liq; paxtakor, paxtazor, paxtali*.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta’siri natijasida o‘zgarishga uchrashi: *ket+di – ketti, to‘k+gan=to‘kkan, chiq+gan =chiqqan, tuz+siz=tussiz*.

Atamalar – Ilm-fan, texnika, san’atga yoki biron kasb-hunarga xos so‘zlardir: *sinonim, nota, kosinus* va h.

Atoqli otlar – bir xildagi tushunchalardan birini ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladigan, atab qo‘ylgan otlar: ism, familiya (*Akbar Yunusov*), taxallus (*Oybek, Fitrat*), laqab (*Sakson ota*), hayvon va parranda nomlari (*Olapar, Targ‘il, Kesha*), davlat, korxonalar nomlari (*O‘zbekiston Respublikasi*), jug‘rofiy nomlar (*Amudaryo, Pomir, Tinch okeani*), astronomik nomlar (*Mars, Merkuriy*), mashhur sanalar (*Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami*).

Atov gap – bosh kelishik shaklidagi ot yoki otli so‘z birikmasi bilan ifodalanib, narsa hamda voqealari bildiruvchi gaplardir: **Qahraton qish. Nima ko‘p — ishsiz ko‘p.** (O)

Ayiruv bog'lovchilari – so‘z va gaplar ifodalagan tushuncha yoki hodisalardan birini ajratib ko‘rsatish yoki ketma-ketlikni ifodalash uchun qo‘llanadigan bog‘lovchilardir: *yo, yoki, yoxud, goh, ba’zan, yoinki, yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, ba’zan...ba’zan, bir...bir, xoh...xoh, dam...dam: Akam yo ukam keladi. Aljon goh menga, goh yerga qarab jim turaverdi.*

Ayiruv yuklamalari - *faqat, ham, -gina (-kina, -qina), xolos* so‘zlaridir. *Ham* yuklamasi ba’zan bog‘lovchi o‘rnida ham qo‘llanadi: *Uni o‘qishga qabul qilishdi ham stipendiya tayinlashdi.* Bu so‘z takrorlanib kelganda, fonetik o‘zgarishga uchrashi mumkin: *Meniyam, seniyam mukofotlashlari mumkin. Faqat, -gina yuklamalari o‘rnida yolg‘iz so‘zi* qo‘llana oladi: *Bu yolg‘iz nomgina, xolos.*

B

Belgilash olmoshlari - predmet va shaxslarning yigindisini bildiradigan yoki ularni ayirib ko‘rsatadigan olmoshlardir. Ularni ikkiga bo‘lish mumkin: 1) jamlash olmoshlariga *hamma, barcha, bari, jami, butun, yalpi* so‘zlari kiradi. 2) belgilash olmoshlariga *har* so‘zining o‘zi va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so‘zlar kiradi. *Har* so‘zi ayrim yoziladi. *Hamma, barcha, bari* olmoshlari ko‘plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: *Hammalari jim. Har kimga aytaverma.*

Belgili kelishik – qo‘shimchasi tushirilmagan kelishik: belgili qaratqich kelishigi – *kitobning varag‘i; belgili tushum kelishigi – kitobni o‘qimoq; belgili jo‘nalish kelishigi – Dadam Toshkentga ketdi; belgili o‘rin-payt kelishigi – Tongda esgan shabada.*

Belgisiz kelishik - qo‘shimchasi tushirilgan kelishik: belgisiz qaratqich kelishigi – *kitob varag‘i; belgisiz tushum kelishigi – kitob o‘qimoq; belgisiz jo‘nalish kelishigi – Dadam Toshkent ketdi; belgisiz o‘rin-payt kelishigi – Tong esgan shabada.*

Berber guruhi - kobil, shilx, rif, tamazist tillarini o‘z ichiga olgan til guruhi.

Bir ma'noli so‘zlar – gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma‘noni ifodalaydigan, ya‘ni gap ichidagi ma‘nosi bilan gapdan tashqarida, alohida olinganda ifodalaydigan ma‘nolari mos keladigan so‘zlardir: *qush, chumchuq, men, omonim, sinonim* va b.

Birgalik nisbatidagi fe’llar - ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradigan fe’llardir. Ular unli bilan tugagan negizga *-sh*, undosh bilan tugagan negizga *-ish* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: *Karim va Ahmad insho yozishdi. Bolalar paxta terishdi. To‘qnashdi, boqishdi, qarashdi* (yordamlashdi), *aytishdi* (janjallashdi), *tortishdi* (bahslashdi) fe’llari aniqlik nisbatadir, chunki bu fe’llar ish-harakatning bir shaxs tomonidan bajarilganini ifodalaydi. Agar bu fe’llardan birgalik nisbatini yasamoqchi bo‘lsak, ularga yana bir marta nisbat qo‘shimchasini qo‘shish kerak bo‘ladi: *to‘qnashishdi, boqishishdi, qarashishdi, aytishishdi, tortishishdi.*

Birikmali sifatlar - tarkibi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan va bu so‘zlar orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan sifatlardir. Bunday sifatlar *aralash, yo‘q, ko‘p, oliy, och, to‘q, to‘la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so‘zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo‘q* (inson), *ko‘p tarmoqli* (soha), *oliy ma‘lumotli* (yigit), *och qizil* (rang), *qorni to‘q* (odam), *to‘q qizil, to‘la huquqli, chala mulla, yarim avtomat, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori qosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug‘* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

Biriktiruv bog‘lovchilari - so‘z va gaplarni biriktirib bog‘laydigan bog‘lovchilar. Bular *va, ham, hamda* bog‘lovchilaridir: *Un va yog‘ olindi hamda uyga olib kelindi.*

Birlikdagti otlar - yakka predmet va tushunchalarni ifodalaydigan otlar: *bola, uy, tovush.*

Bitishuv - ergash so‘zning bosh so‘z bilan grammatik vositasiz (ya‘ni kelishik qo‘shimchalarisiz va ko‘makchilarsiz), faqat ma‘no jihatdan yoki so‘z tartibi yordamida birikishidir. Bitishuvda doimo ergash so‘z avval, bosh so‘z keyin keladi: *tiniq suv, katta ko‘cha.* Ularning o‘rni o‘zgartirilsa, gap hosil bo‘ladi: *Suv tiniq. Ko‘cha katta.* Bitishuvda ergash so‘z vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so‘zlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, o‘qigan odam, jo‘shib kuylamoq.* Bosh so‘z ot va fe'l so‘z

turkumidan iborat bo‘ladi. *Birga o‘qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg‘ondan gapirmoq* kabi birikmalar o‘rin-payt, jo‘nalish, chiqish kelishigi qo‘shimchalari, ko‘makchilar bilan bog‘langan bo‘lishiga qaramay, boshqaruv emas, balki bitishuv sanaladi. *Devor soat, uy vazifa, ot to‘rva, non zavod* kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalar ham bitishuv munosabatiga misol bo‘ladi.

Bosh ma‘no – so‘zning gapdan tashqarida, alohida olinganda ifodalaydigan ma’nosisi: *oyoq – a’zo; (stolning oyog‘i – bu ko‘chma ma‘no); qulog – eshitish a’zosi; (qozonning qulog‘i – bu ko‘chma ma‘no).*

Bosh kelishikdagи so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar - bilan ko‘makchisi birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat obyekti, holat, maqsad ma’nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxmlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi. Uchun ko‘makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma’nolarini ifodalaydi: Bolalar uchun qurildi. O‘qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat. Kabi, singari, yanglig‘ (ba’zan misoli so‘zi) ko‘makchilari o‘xshatish, qiyoslash ma’nolarini ifodalaydi: Shamol kabi yeldi. Cho‘l singari bepoyon. Oy yanglig‘ chiroyli. Sayin ko‘makchisi payt, izchillik ma’nolarini ifodalaydi: Sovuq kun sayin kuchaydi. Sari ko‘makchisi yo‘nalish ma’nosini ifodalaydi: Dala sari ketdi. Sababli, tufayli ko‘makchilari aloqadorlik, sabab ma’nosini ifodalaydi: Chaqirilmaganligi sababli kelmadi. Orqali ko‘makchisi vosita ma’nosini, chog‘li, chamasi ko‘makchilari chama, taxmin, ma’nolarini, osha, bo‘ylab ko‘makchisi makon bo‘ylab sodir bo‘lish ma’nosini, bo‘yicha ko‘makchisi moslik ma’nosini, uzra ko‘makchisi biror sath bo‘ylab yo‘nalish ma’nosini, ichra ko‘makchisi biror predmetning ichida sodir bo‘lish ma’nosini, degan ko‘makchisi atash ma’nosini, bo‘yi ko‘makchisi davomlilik ma’nosini, haqida (to‘g‘risida) ko‘makchilari fikr qaratilgan predmet ma’nosini, holda (yo‘sinda) ko‘makchilari holat ma’nosini ifodalaydi: Pochta orqali jo‘natdi. O’n chog‘li odam to‘plandi. Asrlar osha yetib keldi. Ariq bo‘ylab yurishdi. Urush haqida so‘zлади.*

Bosh (hokim) so‘z – so‘z birikmasi tarkibidagi ma’nosisi izohlanayotgan so‘z: *qizil gul, hammadan chiroyli, ulardan biri, bularning hammasi, o‘qishga kirmoq, shamoldan tez.*

Bosh (oddiy) darajadagi ravishlar – belgini qiyoslamasdan ifodalaydigan, me'yordagi belgini ifodalaydigan ravishlar: *asta, tez, kech, oldin.*

Boshqaruv - ergash so‘zning bosh so‘z bilan kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida birikishidir: 1) tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt yoki chiqish kelishigi qo‘shimchasi yordamida birikish (kelishikli boshqaruv): *ilg‘orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish.* 2) ko‘makchilar yordamida birikish (ko‘makchili boshqaruv): *Sayr haqida suhbat, paxta uchun kurash, sayohat to‘g‘risida gapirish.* Ayrim hollarda grammatik vosita bo‘imasligi ham mumkin: *olma terish, shahar borish.* Boshqaruvda tobe so‘z ot yoki ot o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlardan, shuningdek, harakat nomi va sifatdoshdan iborat bo‘ladi. Bosh so‘z vazifasida esa ko‘pincha fe'l qo‘llanadi. Ba’zan bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa so‘zlar ham qo‘llanishi mumkin. Boshqaruvda ko‘pincha ergash so‘z avval, bosh so‘z keyin keladi, she’riy asarlarda qofiya talabi bilan bosh so‘z oldin, ergash so‘z keyin kelishi mumkin.

Bog‘lama – ot kesimni ega bilan bog‘lovchi vositalarning umumiyl nomi. Bog‘lama *-dir* kesimlik qo‘shimchasi (*Mehnatning noni shirindir*), shu qo‘shimchaga sinonim bo‘lgan *bo‘lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq* fe’llari (*U kishi mening ustozim hisoblanadi.*), to‘liqsiz fe’llar (*U mening do‘stim edi.*), shuningdek, ot kesimlarga qo‘shilgan shaxs-son qo‘shimchalari (*Men o‘quvchiman.*) bilan ifodalanadi.

Bog‘lovchilar – so‘zlarni va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlardir. *Obid ya Alisher o‘z vaqtida kelishdi, lekin ish bitmadi, chunki to‘garak rahbari kechikayotgan edi.*

Buyruq-istik maylidagi fe’llar - ish-harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma’nolarni bildiradigan fe’llar. Bunday fe’llar *-(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar* qo‘shimchalari yordamida yasaladi: *yozay, o‘qiy, yozgin, yozsin, o‘qiylik, boring(iz).*

Buyruq gap - suhbatdoshni nimadir qilishga undash, da'vat qilish maqsad qilib qo'yiladigan gap. Bunday gaplar quyidagi mazmunga ega bo'lishi mumkin: *Avval o'yla, keyin so'yla* (maslahat). *Dadil harakat qil!* (buyruq) *Ashuladan yana bo'lsin* (iltimos). *Qani hamma odamlar sizday bo'lsa!* (orzu) *Nahotki, bu siz bo'lsangiz!* (hayratlanish) *Sovqotib qolma, issiqroq yot* (g'amxo'rlik). *Kunning tig'ida nima qilasan, bu yerga kelib, salqinda o'tirsang-chi!* (tashviq) *Qo'rqqan bo'lsa kerak!* (gumon) *Xatdan o'chir o'g'limni hozir!* (g'azab, do'q) Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga ko'pincha undov belgisi, ohangiga qarab esa nuqta ham qo'yilishi mumkin.

Burun tovushlari – talaffuzida o'pkadan keladigan havo to'lqinining bir qismi burun bo'shlig'i orqali chiqib ketadigan undosh tovushlardir: ***m, n, ng***.

Butun son - narsa-buyumning sanog'ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydigan son: *bir, uch, o'n, yuz, ming* kabi.

Bo'lishli fe'llar - bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi*. Bo'lishlilikni hosil qiluvchi maxsus qo'shimcha yo'q.

Bo'lishsiz fe'llar - bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: *yozmadni, yozmayapti, yozmohchi emas*. Bo'lishsiz fe'llar fe'l negiziga *-ma* qo'shimchasini ho'shish, fe'llardan keyin *emas, yo'q* so'zlarini keltirish, fe'llardan oldin *na* so'zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: *Kelmadi. Yozgani yo'q. Na yozdi, na o'qidi. Boradi, boradi-ya!* (bormaydi)

Bo'lishsizlik olmoshlari - inkor ma'nosini bildiradigan olmoshlardir. Bu olmoshlar *hech* so'zining o'zi va shu so'zning ba'zi so'roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi; *hech* so'zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *Hech kimni ko'rmadim. Hech nimam yo'q. Hech* so'zi yakka holda qo'llanganda, ko'pincha fe'llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi: *U hech qiyalmadi. Kimsa* so'zi ham bo'lishsizlik olmoshlari o'rnida qo'llanishi mumkin: *Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.*

Bo'g'in – o'pkadan chiqadigan havo to'lqiniga bir zarb berish bilan aytildigan tovush yoki tovushlar yig'indisi: *o-na, u-ka, bo-la, ki-tob, daf-tar, mu-o-ma-la, ma'-no, pal-to*.

D

Daraja-miqdor ravishlari - ish-harakatning darajasini, miqdorini, belginining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, *qancha?, qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladigan ravishlardir: *juda, eng, g'oyat(da), nihoyatda; ko'p, mo'l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, biroz, ko'plab*. Bular o'z ichida quyidagi guruahlarga bo'linadi: 1) kuchaytiruv ravishlari: a) tasdiq – *eng, juda, nihoyat(da), g'oyat(da), yana(da) tag'in, tamomila, uncha, ozmuncha, o'bdan, naq, o'ta, qoq, zir;* b) inkor – *sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda;* 2) kuchsizlantiruv ravishlari: *arang, zo'rg'a, zo'r-bazo'r, xiyol, sal.*

Darak gaplar - biror narsa haqida xabar beradigan gaplardir; ularning oxiriga nuqta qo'yiladi: *Men imtihonlarga tayyorlanyapman*. Darak gaplar quyidagi mazmun turlariga ega: darak-xabar (*Bugun imtihon bo'ladi*), orzu-umid (*Sizlarga imtihonlarda omad tilayman.*), ishonch, ta'kid va g'urur (*Sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tasan, albatta.*), maslahat va tashviq (*Bugun dars tayyorlaganimiz ma'qul.*), sevinch (*Bugun omadim keldi, shu desangiz.*), taajjub (*Tavba, shunday ajoyib insonni birinchi ko'rishim.*), gumon (*U ertaga kelib qolsa kerak.*), achinish (*Boshingizga ko'p tashvishlar tushibdi, aka.*) tashvish (*Agar shunday yuraversam, ishim yurishmasa kerak.*), g'azab, norozilik (*Bunday qiliqlar biz uchun begonadir.*), kinoya (*Imtihonlardan qing'ir yo'llar bilan o'tgan ekansiz-da, ukam.*) kabi mazmun turlarini ifodalaydi.

Dialog – ikki kishining nutqi.

“Devonu lug‘otit-turk” - XI asrda yashab o‘tgan mashhur tilshunos, lug‘atshunos, adabiyotshunos, elshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning asari bo‘lib, unda turkiycha so‘zlarning arabcha tarjimalari berilgan. Turkiycha so‘zlarning ma’nolarini izohlash uchun maqol, matal, qo‘sinq, marsiyalardan misollar keltirilgan.

Differentsiatsiyalash (farqlash) tamoyili – so‘zlarni tutuq belgisi(‘) yoki urg‘u (‘) yordamida farqlab yozishni talab qiladigan yozuv: *sher* (hayvon) – *she‘r* (adabiy janr); *hózir* (payt ma’nosida) – *hozír* (tayyor).

Dissimilyatsiya – so‘z tarkibidagi ikkita bir xil tovushning noo‘xhash bo‘lib qolishi: *zarur* – *zaril*, *birorta* – *bironta*, *kabob* – *kavob*, *bebosh* – *bevosh*, *koridor* – *kolidor*.

Dona son - narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradigan son. Dona son miqdor songa -*ta* qo‘sishmasini qo‘sish yoki miqdor sondan keyin *dona*, *nafar* so‘zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: *beshta qush*, *uch dona non*, *o‘n nafar odam*.

E

Ega - gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, boshqa bo‘laklarga grammatic tobe bo‘lman bo‘lak. Ega *kim?*, *nima?*, *qayer?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi: *Ali Oushchi qizarinqirab yerga qaradi*. (O.Y.) *O’tloqda bedana* (*nima?*) ko‘p. *Atrof* (*qayer?*) jimji. Ega bosh kelishikda bo‘lib, odatda, quyidagicha ifodalanadi: 1. Ot bilan: *Hakimboyvachcha Yo’lchiga jazo berishga qaror qildi*. (O.) 2. Olmosh bilan: *U qimir etmadi*. (O.) 3. Harakat nomi bilan: *Ro‘za tutish* musulmonchilik shartlaridan biri hisoblanadi. 4. Otlashgan (sifat, son, sifatdosh, ravish, taqlid so‘z) so‘zlar bilan: *Yaxshilar* ko‘paysin, *yomon* qolmasin. *Ikkovimiz dala aylandik*. *Bilgan* bilganin ishlar, *bilmagan* barmog‘in tishlar. *Ko‘plar* qatnashdi. Uzoqdan to‘planning *gumbur-gumburi* eshitilardi. 5. Ibora bilan: *Kamchiliklarga panja orasidan qarash* yaxshilikka olib kelmaydi. 6. Sintaktik birliklar bilan: *Anjumanda qatnashish uchun kelganlar* mehmoxonalarga joylashtirildi.

Egalik qo‘sishchalari – predmetning (keng ma’noda) uch shaxsdan (so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga) biriga tegishli ekanligini bildiradigan va ot yoki otlashgan so‘zlarga qo‘silib keladigan quyidagi qo‘sishchalalar: *uyim*, *uying*, *uyi*; *ukam*, *ukang*, *ukasi*; *uyimiz*, *uyingiz*, *uylari*; *ukamiz*, *ukangiz*, *ukalari*.

Egasiz gaplar – tarkibida ega ishtirok etmaydigan, faqat kesim tarkibidan iborat bo‘lgan gaplardir: *Anchagacha jim o‘tirdik*.

Eron turkumi - fors, afg‘on, osetin, kurd, tojik va h. tillarni o‘z ichiga oladigan til turkumi.

Eski o‘zbek adabiy tili – o‘zbek adabiy tili rivojining ikkinchi bosqichidagi (XIII asrdan -XIX asrning ikkinchi yarmigacha) nomlanishi. Namunalari: Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maximur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlari shu tilda yozilgan.

Ergash (tobe) so‘z – so‘z birikmasida bosh so‘zning ma’nosini izohlab keladigan so‘z: *keng ko‘cha*, *beshta bola*, *tez yurmoq*, *o‘qigan bola*, *jo‘shib kuylamoq*, *bu kitob*, *ko‘p odam*.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar - ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo‘li bilan bog‘laydigan bog‘lovchilar: *Gap shundaki*, *u bugun kela olmaydi*, *chunki ishi ko‘payib ketdi*, *shuning uchun men keldim*.

Etimologiya – so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadigan bo‘lim: *yurak* = *yur* (*yurmoq* ma’nosida) + *ak*, *tegimon* = *tegir* (aylan ma’nosida)+ *mon*.

Evfemizm(yun. *eu-* yaxshi, *phemi* – gapiraman, ya’ni *yaxshi* so‘zlayman) - dag‘al, qo‘pol so‘zlar o‘rniga yoqimliroq, silliqroq so‘zlarni qo‘llash hodisasidir: *o‘ldi* demasdan, *vafot etdi*, *dunyodan o‘tdi*, *qazo qildi* deyiladi.

F

Faol nutq a’zolari – bir qancha nutq tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan nutq a’zolari: *tovush paychalari*, *lablar va til*.

Faqat birlikda qo'llanadigan otlar – mavhum (harakat-holat) otlari (*g'azab, tuyg'u*), atoqli otlar (*Alisher, Farhod*), donalab sanalmaydigan narsa otlari (*yog', guruch, qum, suv, shakar*), juft a'zolar otlari (*ko'z, quloq* va h.)

Fe'l – predmetning, shaxsnинг ish-harakatini bildirib, **nima qildi?**, **nima qilyapti?**, **nima qilmoqchi?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladigan so'zlar. Fe'llar gapda ko'pincha kesim vazifasini bajaradi: *Dars boshlandi*.

Fe'l kesim - fe'l yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadigan kesimdir. *Men keldim. Odamlar targala boshladi. U ketgan edi.*

Fe'l mayli - so'zlovchining ish-harakatga moyilligini bildiruvchi shakllar: *ijro (xabar, aniqlik) mayli, ...*

Fe'l nisbati (darajasi) - fe'lda ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi: *Kitobni o'qidi. Ukasi kiyindi. Kitob o'qildi. Kitobni o'qitdi. Kinoni ko'rishdi.*

Fe'l zamonlari - fe'l ifodalagan ish-harakatning paytga munosabati: *o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.*

Fe'lli so'z birikmasi - bosh so'zi fe'l va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalangan so'z birikmasi: *kitobni o'qish, ishni bajarib, tez kelgan.*

Fe'lning munosabat shakllari - fe'llarni gap tarkibida kesim vazifasiga moslashtiradigan shakllardir. Munosabat shakllariga fellarning **shaxs-son, zamon, mayl** shakllari kiradi

Fe'lning vazifa shakllari - fe'lning gap ichida ma'lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllaridir. Bularga **soffe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi** kiradi.

Fin guruhi - fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordva tillarini o'z ichiga oladigan guruh.

Fin-ugor tillar oilasi - fin, ugor guruhlarini o'z ichiga oladigan til oilasi.

Flektiv (flexio lot. - egilmoq, bukilmoq degani) tillar – so'zlardagi qo'shimchalar o'zaklar bilan zich bog'lanadigan, bir qo'shimcha bir qancha grammatik ma'nolarni ifodalaydigan tillardir: *knigi – i* qo'shimchasi ham ko'plik, ham kelishik ma'nolarini ifodalaydi. Bularga hind-yevropa tillari va som tillari kiradi.

Fonema – muayyan so'z va qo'shimchalarni shakllantiradigan va ularni boshqa so'z va qo'shimchalardan farqlash uchun xizmat qiladigan til birligidir: *bor – bosh, bir – ber, qor – tor.*

Fonetik yozuv (tamoyil) - so'z va qo'shimchalarni eshitilgani bo'yicha yozishni talab qiladigan qoida: *ek + gan = ekkan, og 'iz + i = og 'zi, orzu + im = orzuyim, top + dir = toptir.*

Fonetika – fone – "tovush" degan ma'noni bildirib, nutq tovushlarini, ularning akustik xususiyatlarini, bo'g'in, urg'u va ohangni o'rganadigan bo'lim.

Fonologiya – nutq tovushlarining amaliy tomonini, ya'ni so'z ma'nolarini farqlash xususiyatlarini o'rganadigan bo'lim.

Frazeologiya – fraza – jumla, logos – ta'limot degan ma'nolarni bildirib, tilshunoslikning turg'un birikma(ibora)larni o'rganadigan bo'limi.

Frazeologik birikma – q. ibora.

Frazeologik omonimlar – iboralar o'rtasidagi omonimlik: 1. *Boshga ko'tarmoq – e'zozlamoq.* 2. *Boshga ko'tarmoq – to'polon qilmoq.* 1. *Dong qotmoq – hayratlanmoq.* 2. *Dong qotmoq – qattiq uxlamoq.* 1. *Ko'z yummoq – vafot etmoq.* 2. *Ko'z yummoq – e'tibor bermaslik.*

Frazeologik paronimlar – talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lib, ma'nolari har xil bo'lgan iboralar: *joni kirdi* (rohatlandi) – *jon kirdi* (tetiklashdi).

Frazeologik sinonimlar – iboralar o'rtasidagi sinonimlik: *og'zi qulog'ida – og'zining tanobi qochgan – do'ppisini osmonga otmoq* (barchasi "o'ta xursand" degan ma'noni bildiradi).

G

Gap – kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi, ohang va fikriy jihatdan tugallikka ega bo'lgan yakka so'z yoki so'zlar qo'shilmasi: *Biz yo'lga tushdik. Tun. Ikki qadam narini ko'rib bo'lmaydi. Tayyormisan? Ha. Ketdik.*

Gap bo‘lagi - gapda biror so‘roqqa javob bo‘lgan va o‘zaro tobe bog‘langan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Gap bo‘laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So‘zlarga so‘roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo‘shimchalar olishi tom ma’noda gap bo‘lagi turlarini belgilashda asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo‘lak bo‘lmash ekan, u yoki bu gap bo‘lagi haqida gapirish mumkin emas: *Bugun biz ajoyib yoqeani tomosha qildik.*

Gap urg‘usi – gap tarkibidagi ayrim so‘zning boshqalariga qaraganda kuchliroq, balandroq ohangda aytilishi (bu so‘z gapdagisi kesimning yonida joylashadi): *Bugun matabga men bordim. Men bugun matabga bordim. Men matabga bugun bordim.*

Grafika - har bir tilning harflar tizimi o‘rganiladigan bo‘limi.

Grammatika – grammatische – “o‘qish va yozish haqidagi bilim” degan ma’noni bildirib, tilning grammatik qurilishini o‘rganadigan bo‘lim.

Grammatik ma‘no – lug‘aviy ma‘no ustiga qo‘shilib, so‘zning shakliy qismi orqali ifodalangan va uning ma'lum turkumga mansubligini, gapda qanday vazifa bajarishini ko‘rsatuvchi ma‘no. *Kitob o‘qildi* gapdagisi **kitob** so‘zining grammatik ma’nolari quyidagicha: ot, turdosh ot, bosh kelishikda, birlikda, tub(yasalmagan), gapda ega vazifasini bajargan. Grammatik ma‘no qo‘shimchalar (*uyga, bolalar*), yordamchi so‘zlar (*qalam bilan yozmoq*), so‘z tartibi (*baland bino – Bino baland*), ohang (*Ish tugadi. Ish tugadi? Ish tugadi!*), so‘zlarni juftlash yoki takrorlash orqali (*idish-tovoq, tez-tez yurmoq*), urg‘u (*olma – meva, ólma - harakat*) yordamida ifodalanadi.

Gumon olmoshlari - narsa, belgi yoki voqeа haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular **alla-** yordamida yoki **-dir** qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allaqaysi, allaqayer, allaqayoq, allanechuk, allaneanchachi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qayerdadir, qayergadir, negadir.* Gumon olmoshlari so‘roq olmoshlariga **bir, ham** so‘zlarini qo‘shish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni kim ham chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga bir nima deganday bo‘ldi.* (Ba’zan **bir nima** birikmasi bo‘lishsiz olmosh o‘rnida kelishi mumkin: *Buni ko‘rib bir nima demadi.*) Bu olmoshlar birlik va ko‘plikda keladi, turlanadi: *allakimlar, kinnidir, nimasidir.*

Gumon yuklamasi - so‘z va gaplarga gumon, noaniqlik ma’nolarini kiritadigan yuklama: **-dir:** *Uyiga yetib borgandir.*

H

Harakat nomi - ish-harakatning nomini bildirib, zamon va shaxs-sonni ko‘rsatmaydigan fe'l shaklidir. U fe'l o‘zak-negiziga **-sh, -ish, -v, -uv** **-moq (-mak)** qo‘shimchalarini qo‘shib yasaladi: *yozmoq, demak. o‘qish, yozish, o‘quv, yozuv.* Harakat nomlarining bo‘lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: *o‘qish – o‘qimaslik.* Harakat nomlari tuslanmaydi, otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi. Gapda ega, ot kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo‘lib keladi: *O‘qimoq - yuksalmoq. Botirlar qo‘rquyni bilmaydi. O‘qishning foydasи katta.*

Harakat fe'llari - shaxs va narsaning jismoniy faoliyat natijasida yuz bergen harakatni bildiradigan fe'llardir: *yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o‘tmoq* va h.

Harf – nutq tovushlarini yozuvda aks ettiruvchi grafik belgidir: *a, b, d, e, f ...*

Haydash-chaqirish undovlari - 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo‘llanadigan: *hey, allo, ey; b) ta’kid, buyurish uchun qo‘llanadigan: ma, tss, jim, marsh;* 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va

jonivorlarni chaqirish uchun qo‘llanadigan: *kisht, beh-beh, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, qurey-qurey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llanadigan: *ishsh, ho‘k, tak* d) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladi: *pisht, drr, xix, hov-hov, cho‘k, tek, hayt, chu*.

Harf – nutq tovushlarining yozuvdagagi shakli: *a, o, t, s, sh...*

Hind turkumi - hind, urdu, bengal, panjob, gujarat va boshqa tillarni o‘z ichiga olgan turkum.

Hind-yevropa oilasi - hind turkumi, eron turkumi, slavyan turkumi, boltiq turkumi, german turkumi, roman turkumi, kelt turkumi, anatoliy turkumi (o‘lik), tohar turkumi (o‘lik) kabi til turkumlarini o‘z ichiga oladigan til oilasidir. Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo‘lmasdan, shu til oilasiga kiradi.

His-hayajon undovlari - so‘zlovchining his-tuyg‘usini, ruhiyatini ifodalaydigan so‘zlardir. Ular quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) shafqat, mehribonlik: *iye, o, voy, voy-ey, eh*; 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o‘h-ho’, ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay, oh-oh*; 4) mammuniyat, faxrlanish, mag‘rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o’*; 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha*. His-hayajon undovlari odatda gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanmaydi, ular kirish so‘z vazifasini bajaradi. Undovlar yozuvda gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undash kuchli bo‘lsa, his-hayajon bilan aytilda, undov belgisi qo‘yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!* His-hayajon undovlari, odatda, gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular kirish so‘z yoki so‘z-gap bo‘lib kelishi mumkin: *Ie, men kimni ko‘ryapman? - Dod!* - ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.

Hisob so‘zлari (numerativlar) - miqdor sonlar bilan qo‘llanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan so‘zlar: *besh so‘m, o‘n gramm, yuz yil*. Bunday so‘zlar aslida ot turkumiga mansub bo‘lib, o‘z lug‘aviy ma’nolarini qisman yo‘qotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir. Hisob so‘zлari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan: *dona, nusxa, tup, bosh, nafar*; 2) butunning qismini hisoblash uchun: *parcha, varaq, burda, og‘iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, ho‘plam, tomchi, chaqmoq(qand), nimta, to‘g‘ram, poy, toqa, bo‘lak, shingil*; 3) to‘dalab ko‘rsatuvchi: *gala, to‘p, guruh, to‘da, dasta, bog‘, quchoq, shoda, hovuch*; 4) juftlab ifodalovchi: *juft, para*; 5) og‘irlikni o‘lchaydigan: *gramm, kilogramm, sentner, tonna, mis‘ol, pud, botmon, qadoq, paysa*; 6) uzunlik o‘lchovini bildiradigan: *millimetrik, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh (eskirgan), gaz, qarich, quloch, qadam*; 7) yosh o‘lchovini bildiradigan: *yashar, yoshlik, oylik, kunlik*; 8) vaqt o‘lchovini bildiradigan: *soniya, saat, kun, oy, hafta, yil, asr*; 9) qiymat o‘lchovini ifodalaydigan: *so‘m, tiyin, tanga, miri, paqir*. Bulardan tashqari, quyidagi hisob so‘zлari son va fe'l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: *marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf‘a*.

Hissiy-ta'siri bo‘yoq – so‘zlarning lugaviy ma’nolariga qo‘shimcha tarzda ifodalaydigan ijobiy va salbiy ma’nolari: *chehra, jamol* – ijobiy bo‘yoqdir; *aft, bashara* – salbiy bo‘yoqdir.

Hol - ko‘pincha fe'l-kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildirgan bo‘lakdir. Holning tagiga nuqta-nuqta (.....) chiziladi: *Kecha sahar paytida osmoni falakda turna o‘tdi.* (S.Ahm.) Hol ba’zan fe’ldan boshqa turkumga ham bog‘lanishi mumkin: *Tepada ko‘m-ko‘k osmon, atrofda govjiragan sap-sariq qamish...*

Holat fe'llari - shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan boshqa holatga otishini bildiradigan fe’llardir: *uxlamoq, kulmoq, yig‘lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo‘lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo‘lmoq, og‘rinmoq* va h.

Holat ravishlari - ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildiradigan ravishlardir. Ular *qanday?, qayholda?, qaytarzda?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi: *asta, sekin, tez, birdan, qo‘qqisdan, to‘satdan, yonma-yon, qo‘lma-qo‘l, omon-eson, zo‘rg‘a, piyoda, yayov, do’stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri* va b.

Holat ravishdoshlari - **-b, -ib, -a, -y, -gudek** qo'shimchalari bilan yasaladigan ravishdoshlardir: *o'qib, borib, qola, o'qiy-o'qiy, yig'lagudek*.

Holatga taqlid bildiruvchi so'zlar – turli harakat, holat, shu'la, yorug'lik ko'rinishlariga taqlidni bildiradigan so'zlardir: *yalt-yult, apil-tapil, g'uj-g'uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo'lt-mo'lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g'ivir-g'ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Hozirgi zamon fe'llari - nutq paytining o'zida bajarilayotgan yoki bajarilmayotgan ish-harakatni bildiradigan fe'llardir: *o'qiyapti, boradi, o'qiydi*.

Hozirgi zamon davom fe'llari - nutq paytining o'zida, so'zlovchining ko'z oldoda yuz berayotgan ish-harakatni bildiradigan fe'llardir. Ular **-yap, -moqda, -yotir** qo'shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: *kelyapti, bormoqdamiz*. Bu zamon turi *yot, tur, yur, o'tir* ko'makchi fe'llari yordamida ham yasaladi: *yozib yotibdi, yozib turibdi, o'qib yuribdi, gaplashib o'tiribdi*.

Hozirgi-kelasi zamon fe'llari – nutq paytida va undan keyin ham davom etadigan ish-harakatni ifodalaydigan fe'llardir. Ular **-a** yoki **-y** qo'shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: *boraman, kelasan, o'qiyman*.

Hozirgi zamon sifatdoshi - **-(a)yotgan** qo'shimchasi bilan yasaladi: *kelayotgan, o'qiyotgan*.

Hozirgi o'zbek adabiy tili - o'zbek adabiy tilining rivojidagi uchinchi bosqichda nomlanishi bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan (aniqrog'i, 1870-yildan, ya'ni «Turkiston viloyati gazeti» chiqa boshlagan yildan) to hozirgi kungacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi.

I

Ibora – ma'nosi ko'pincha bir so'zga teng keladigan, tilimizda yaxlit holda mavjud bo'ladigan, xotirada xuddi so'zlar singari tayyor holda saqlanadigan, obrazlilikka, ta'sirchanlikka ega bo'lgan ko'chma ma'noli so'z birikmalari: *hafsalasi pir bo'ldi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, tegirmonga tushsa butun chiqadigan, ko'zi tushdi, boshiga ko'tarmoq, ko'z yummoq, dong qotmoq, ko'ngli ochiq*.

Ikki nuqta – muallif gapidan, umumlashtiruvchi so'zdan, izohtalab so'zlardan keyin, raqamlar nisbatini ifodalash uchun, izoh mazmunidagi bog'lovchisiz qo'shmaa gaplar qismlari orasida ishlataladigan tinish belgisi.

Imlo(orfografiya) – so'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisi.

Inkor bog'lovchi-yuklamasi – so'z va gaplarni inkor ma'nosi orqali bog'laydigan yoki ularga inkor ma'nosini qo'shadigan *na* so'zidir: *Na o'qidi, na yozdi. Na xat bor, na biron xabar keldi*.

Ismlar – egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qilib, o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlardir. Bularga **ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, taqlid so'zlar** kiradi.

Istak gaplar - biror-bir narsa haqida istak, xohish, orzu kabi tuyg'ular aks ettiriladigan gaplar. Bunday gaplarning kesimi shart maylidagi (*-sa* qo'shimchali) fe'lllar bilan ifodalangan bo'ladi: *Qani endi, A'zamjon ham shunaqa bo'la qolsa edi. (S.Ahm.)* Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

Izohlovchi - shaxs yoki narsaning boshqacha nomini bildirib, buni uning belgisi sifatida izohlaydigan bo'lakdir. Izohlovchi izohlagan ot **izohlanmish** bo'ladi: **General Sobir Rahimov**. Izohlovchilar unvon, kasb, laqab, qarindoshlik, jins, o'xshatish, taxallus kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Gazeta, jurnal, korxona, muassasa nomini bildirgan atoqli otlar ham izohlovchining bir ko'rinishi hisoblanadi: *"Yoshlik" jurnali, "Turkiston" gazetasি*.

Ichki manba – tilning boyishi uchun yordam beradigan, tilning o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan holda til lug'at boyligini oshirish uchun xizmat qiladigan manba: **so'z yasash va shevalardan so'z olish**.

J

Jamlovchi otlar - birlik shaklda ham (ya'ni, *-lar* qo'shimchasisiz ham) ko'plik ma'nosini ifodalay oladigan otlar: *xalq, guruh, karvon, poda, suruv* (qo'ylar), *uyur* (otlar), *armiya, lashkar*.

Jamlovchi sonlar - narsa-buyumning umumiylar sonini jamlab ifodalaydigan sonlar. Ular miqdor songa quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi: 1) *-ov* qo'shimchasini qo'shish bilan: *uchovi, to'rtovi*; 2) *-ala* qo'shimchasini qo'shish bilan: *ikkala, uchala*; 3) *-ovlon* qo'shimchasini qo'shish bilan: *beshovlon, oltovlon*; *Ikki, olti, yetti* miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, asosdagisi *i* tovushi tushib qoladi: *ikkovi, oltovi, yettovi*. Jamlovchi sonlar ko'pincha 1 dan 7 gacha bo'lgan sonlardan, shuningdek, *o'n* sonidan yasaladi: *birovi, ikkala, uchala, to'rtovi, beshala, oltovi, yettovi, o'nala, o'novi*.

Jarangli undoshlar - talaffuz qilinganda shovqindan tashqari ovoz ham qatnashadigan undoshlar: *b, v, g, d, j* (vijdon), *dj* (jo'ja), *z, y, l, m, n, r, g', ng* (tong).

Jarangsiz undoshlar - talaffuz qilinganda ovoz emas, faqat shovqin qatnashadigan undoshlar: *k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h*.

Jargonizmlar - ayrim guruh odamlar tomonidan ishlataladigan yashirin ma'noli so'zlardir: *yakan, loy, mullajiring, soqqa* - barchasi "**pul**" ma'nosida.

Juft otlar - ikkita har xil asosli so'zning juftlanishi orqali hosil bo'ladigan otlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *uy-joy, oyoq-qo'l*. 2) sinonim so'zlardan: *kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat*. 3) antonimlardan: *yer-osmon, ost-ust*. 4) butun-bo'lak ma'nosini ifodalovchi so'zlardan: *tog'-tosh, idish-tovoq, gap-so'z, oy-kun, vaqt-soat*.

Juft ravishlar - ikkita har xil asosli so'zning juftlanib, bir urg'u bilan aytishidan hosil bo'lган ravishlar. Ular asosan quyidagicha yasaladi: 1) bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *eson-omon, ochiq-oydin*. 2) antonim so'zlardan: *erta-kech, kecha-kunduz, ochin-to'qin*.

Juft sifatlar - ikkita har xil asosli so'zning juftlanishidan hosil bo'lган sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi* (essiz); 2) ma'nodosh so'zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor*; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq*. Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi: *katta-kichik*.

Juft sonlar - ikkita turli asosli sonning juftlashishidan tuzilgan sonlar: *besh-olti, yetti-sakkiz, o'n besh-o'n olti*.

Juft so'zlar - ma'no jihatidan bir-biriga mos kelib, jamlik, umumiylar ma'nosini bildirgan va bir umumiylar urg'u bilan aytildigan so'zlar: *ota-ona, katta-kichik, besh-olti, siz-u biz, aytdi-qo'ydi, eson-omon*.

Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar - o'zidan oldin jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladigan ko'makchilardir. Bularga quyidagi so'zlar kiradi: *tomon qadar ko'ra qarshi qarab, qarata qaraganda qaramasdan, qaramay yarasha doir asosan, binoan, muvofiq*. Masalan: *Uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o'tirdi. Uning buyrug'iga ko'ra yetib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo'yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. Shu fikrga asosan qaror qilishdi. Odamlarga qarata nutq so'zldi*.

K

Kasr son - butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydigan sonlar: *yarim yoki ikkidan bir, chorak yoki to'rdan bir, nimchorak yoki sakkizdan bir*.

Kavkaz oilasi - g'arbiy guruh (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari), nax guruhi (chechen, ingush, batsbiy tillari), dog'iston guruhi (avar, darg'in, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari), janubiy guruh (megrel, chan, gruzin, kartaliv, svan, guriy) tillarini o'z ichiga oladigan til oilasidir.

Kelasi zamon fe'llari - nutq paytidan keyin bajariladigan yoki bajarilmaydigan ish-harakatni bildiradigan fe'llardir. Ular ikki turga ajratiladi: 1) kelasi zamon maqsad fe'llari *-moqchi*

qo'shimchasi va tuslanish yordamida yasaladi: *bormoqchiman, kelmoqchisan*; 2) kelasi zamon gumon fe'llari -(a)r qo'shimchasi va tuslanish yordamida yasaladi: *borarman, kelarsan, o'qirman*.

Kelasi zamon sifatdoshi - -(a)r, -(a)digan, -(u)vchi qo'shimchalari bilan yasaladigan sifatdosh: *oqar suv, qaynar buloq, boradigan bola, o'qiydigan kitob, keluvchi odamlar*.

Kelishiklar - otlarni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiladigan, otlarning gapda bajaradigan vazifalarini belgilab beradigan shakl. Kelishiklar 6 xil: bosh kelishik (qo'shimcha yo'q), qaratqich kelishigi (*bolaning, taqdir kitobin varag'i*), tushum kelishigi (*uyni, boshin burdi*), jo'naliш kelishigi (*uyga, etikka, bog'ga, qo'lina, yorima*), o'rinn-payt kelishigi (*uyda*), chiqish kelishigi (*uydan*).

Kesim - ega haqidagi xabar(hukm)ni bildirib, unga grammatik tobe bo'lgan bo'lak. Kesim *nima qildi?, nima qiladi?, nima qilar?, qandaydir?, (u) kim?, (u) nima?, (u) nechta?* singari so'roqlarga javob bo'ladi: *Safarov aytgan gaplarmi hammamiz tushundik. Havo mayin, osmon tip-tiniq. O'nning yarmi – besh.*

Kesimlik so'zları - o'z mustaqil ma'nosidan uzoqlashib, gapning fikriy markazi vazifasida keladigan, -moq, -sh(-ish) qo'shimchali harakat nomlari bilan kelib kesim tarkibida qatnashadigan so'zlardir. Ular aslida ot (*shart*), sifat (*kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim*) turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: *Bu ishni bajarish kerak (lozim, zarur...)*.

Kirish birikma – so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan so'z birikmasi: *baxtga qarshi, mening fikrimcha, shunday qilib*. Kirish birikmalarning ma'nolari ham kirish so'zlarnikiga o'xshaydi.

Kirish so'z - so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildiradigan so'zdir. Kirish so'zlar asosan **modal** so'zlar bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) Ishonch va tasdiqni: *Albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, so'zsiz*. 2) Gumanoni: *ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin*. 3) Shodlik yoki achinishni: *Baxtinga, , attang, afsus*. 4) Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: *menimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha*. 5) Bayon qilingan fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan...* 6) Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini: *demak, , umuman, aksincha, ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan*. 7) Tasdiq yoki inkorni: *ha, yo'q, mayli, to'g'ri*.

Kishilik olmoshlari - uchta shaxsni bildiradigan olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. *Men, sen* olmoshlariга qaratqich, tushum kelishigi hamda -niki qo'shimchasi qo'shilganda, bir **n** tushib qoladi: *mening, seniki, seni*. **U** kishilik olmoshiga jo'naliш, o'rinn-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda, bir **n** orttiriladi: *unga, unda, undan*. Bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari deyarli qo'shilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega (*Men yozdim*), to'ldiruvchi (*Seni so'rashdi.*), qaratqich aniqlovchi (*Bizning sinfimizda a'lochilar ko'p*), kesim (*Buning sababchisi sen.*), izohlovchi (*Sen yaramasni bir boplashim kerak.*) vazifalarini bajaradi.

Kichraytirish, erkalash va hurmatlash otlari - narsalarni kichraytirish, shaxslarni erkalash va hurmatlash ma'nolarini ifodalaydigan otlar: *uya, qizaloq, toychoq, kelinchak, Sobirjon, Xolisxon, Hurmatoy, Rixsibibi, Zebiniso, Zuhrabegim, Otabek, Gunashbonu*.

Kompozitsiya usuli – so'zlarni bog'lab qo'shish yordamida yangi so'z yasash: *guldasta, O'rtta Osiyo, ertapishar (o'rik), havo rang, olib kelmoq, javob bermoq, bir mahal, unda-bunda, shu kuni.*

Kushit guruhi - galla, somali, saho, beja tillarini o'z ichiga olgan til guruhi.

Kuchaytirma darajadagi ravishlar – takrorlangan holda belgini kuchaytirib ifodalaydigan ravishlardir: *juda-juda charchadi, kuppa-kunduzi kelishdi*.

Kuchaytirma fe'llar - harakatning kuchliligini ifodalaydigan fe'llardir. Quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi: **-la:** *savala, quvla.* **-kila (-gila, -g'ila, -qila):** *turtkila, torqila, yugurgila, ezg'ila.*

Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari - *nahotki, axir, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(-kim)* yuklamalari kuchaytirish va ta'kid ma'nolarini anglatса, *tim(qora), liq(to'la), lim(to'la), g'irt(yolg'on), qip-shir-(qip-yalang'och), g'arq(pishgan), jiqla(ho'l)* yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so'z ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Kuchsizlantiruv fe'llari - harakatning kuchsizligini ifodalaydigan fe'llar. Quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi: **-(i)sh:** *to'lishmoq, oqarishmoq;* **-(i)msira:** *kulimsiramoq, yig'lagsiramoq;* **-(i)nqira:** *oqarinqiramoq.*

Ko'makchi - ot, olmosh va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlardir: *Qalam bilan yozdi. Men uchun olibdi. Yaxshi bilan yurdim, yetdim murodga.* Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *Paxtani mashina bilan (to'ldiruvchi) terishdi. Paxtani zavq bilan (hol) terishdi.*

Ko'makchi fe'l - ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi yetakchi fe'lning ma'nosini izohlaydigan, to'ldiradigan fe'l: *o'qib chiqdi, ko'ra boshladi, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo'ya qol.*

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi – tarkibida bir-birini izohlaydigan fe'llar mavjud bo'lgan qo'shilma: *ko'rib qoldi, o'qib yuribdi, yozdi-oldi, gapira ketdi, yasay boshladi.*

Ko'makchi otlar - o'z lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchi o'rnida kelib, harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan otlar. Bu so'zlar jo'naliш, o'rinpayt va chiqish kelishigi hamda egalik qo'shimchalarini qabul qiladi. *Old(ida), o'rt(a)siga, yon(iga), orqasi(dan), ket(ida), ich(iga), ust(ida), tepa(sidan), ost(iga), tag(ida), ora(sida), bosh(ida), qosh(ida), yoqa(sida).* Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgandagina ko'makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig'i ostida.* Aks holda ular o'rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida, uyning oldida.* Ko'makchi otlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) vertikal yo'naliшni bildiruvchi: *ost, ust, tag.* 2) gorizontal yo'naliшni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich;*

Ko'plikdagи otlar - birdan ortiq predmetlarni ifodalaydigan otlar. Ifodalanishi: 1) morfologik usul: **-lar** qo'shimchasi bilan – *kitoblar;* 2) leksik usul: maxsus so'zlar bilan – *ancha kitob;* 3) leksik-morfologik (aralash) usul – *ko'p odamlar.*

Ko'p ma'noli so'zlar - gapdan tashqarida bir ma'noni, gap ichida esa boshqa ma'noni ifodalaydigan so'zlar: *ko'z – derazaning ko'zi; buloqning ko'zi; ignaning ko'zi; taxtaning ko'zi; ishning ko'zi; uzukning ko'zi; tizzanining ko'zi.*

Ko'p nuqta – mazmunan tugallanmay qolgan gaplardan keyin, so'zlovchining ikkilanishini ifodalash uchun, qisqartirilgan matn ichida, so'zlar duduqlanib aytilganda, javobsiz qolgan gaplarda tushirib qoldirilgan harflar o'rnida ishlatiladigan tinish belgisi.

Ko'rsatish olmoshlari - narsa-buyumni, kimsani ko'rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: *u, bu, shu, o'sha, ana shu, mana bu.* Kishilik olmoshi **u** bilan ko'rsatish olmoshi **u** ni gapdag'i ma'nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda **u** kishilik olmoshi **kim?** so'rog'iga, ko'rsatish olmoshi **u** esa **qaysi?** so'rog'iga javob bo'ladi. *U, bu, shu, o'sha olmoshlari jo'naliш, o'rinpayt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga -day, -cha* qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir **n** tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o'shanday, uncha.* Ko'rsatish olmoshlari ega (otlashganda), aniqlovchi, hol va kesim vazifalarini bajaradi.

Ko'rsatish-ta'kid undovlari – biror narsaning o'rnini ko'rsatish, biror voqeani eslatish, javob-ta'kid ma'nolarini ifodalaydigan quyidagi so'zlardir: *hu, huv, hovv; ha-ha-ha, xo'sh, labbay.*

Ko'chirma gap - o'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapidir: **"Mehnat ishtaha ochar", - deydi bobom. Cho'pondan so'radik: "Bu qo'ylar kimning qo'yi?"** "Men, - dedi u, - ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiglik bilan: - **Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo'q, - dedi.** (J.Abd.)

Ko'chirma gapli qo'shma gap - ko'chirma gap va muallif gapidan iborat bo'lgan gap: - *O'tiring, - dedi sud raisi Zebiga.*

L

Lablangan unlilar – talaffuz paytida lablar faol ishtirok etadigan (qimirlaydigan) unlilar: *u, o', o*.

Lablanmagan unlilar – talaffuz paytida lablar deyarli qimirlamaydigan, kam ishtirok etadigan unlilar: *i, e, a*.

-lar qo'shimchasining ma'nolari - hurmat (*Dadamlar keldilar*), kinoya (*Janoblari kelibdilar-da*), kuchaytirish (*Boshlarim og'rib ketdi*), jamlash (*farhodlar, alpomishlar*), tur, xil (*yog'lar, suvlar*), chama, taxmin (*Soat beshlarda keldi*).

Lahja(dialekt) – bir-biriga yaqin shevalar yig'indisi: *qarluq-chigil-uyg'ur lahjası, qipchoq lahjası, o'g'uz lahjası*.

Leksik-frazeologik sinonimlar – so'z bilan ibora o'rtasidagi sinonimlikdir: *qo'y og'zidan cho'p olmagan* (ibora) – *yuvosh* (so'z).

Leksikografiya – tilshunoslikning lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limi.

Leksikologiya – *leksis* – so'z, *logos* – ta'lilot degan ma'nolarni ifodalab, tilning lug'at boyligini o'rGANADIGAN bo'limdir.

Logik urg'u – q. Gap urg'usi.

Lug'at boyligi - muayyan tilda mavjud bo'lgan va sh tilni boshqa tillardan farqlantiruvchi so'zlar yig'indisi.

Lug'atlar – ma'lum tilni boshqa tillardan farqlantiruvchi so'zlar, iboralar va shu kabi til birliklarining majmui: qomusiy lug'atlar ("O'zbek milliy entsiklopediyasi", "U kim, bu nima"), tilshunoslik lug'atlari (izohli lug'at, imlo lug'ati, tarjima lug'atlari va h.).

Lug'aviy birliliklar - tilning lug'at boyligiga mansub bo'lgan va so'zga teng har qanday birlikdir: so'z (*bola, qizil...*), qo'shma so'z (*qo'lqop, havo rang, olib keldi, O'rta Osiyo...*), juft so'z (*ota-on, katta-kichik...*), takroriy so'z (*tez-tez, choy-poy, yura-yura...*), birikmali so'z (*oliy ma'lumotli qiz, tengi yo'q inson, ibora (boshi qotgan, kalavasining uchini topdi...)*), tasviriy ifoda (*oq oltin, hayvonlar podshosi...*).

Lug'aviy (leksik) ma'no – so'zning borliqdagi narsa, belgi, harakat, miqdor kabi tushunchalar haqida ma'lumot beradigan ma'no: *kitob* – o'quv quroli; *qizil* – rang; *o'qimoq* – harakat; *sakkiz* – miqdor; *ertaga* – payt.

Lug'aviy (leksik) omonimlar – so'zlarning o'zaro shakldoshligi: *tush* – harakat, *tush* – tush ko'rish, *tush* - vaqt

Lug'aviy paronimlar – talaffuzi bir xil bo'lib, yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir: *asr – asir, amr – amir, borlik – borliq, yorug – yoriq, yuvindi – yuvundi*.

Lug'aviy shakl - ismlar guruhiga kiruvchi so'zlarning ko'plik, kichraytirish-erkalash va qiyoslash ma'nolarini ifodalaydigan qismidir: *qushlar, kitobcha, paxtaday*.

Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar - o'zakka qo'shilib, uning ma'nosini bir oz o'zgartiradigan, lekin yangi lug'aviy ma'no hosil qilmaydigan qo'shimchalar: *kitobcha, bo'shroq, keltir, beshta, ozgina*.

Lo'mbitepa bitigi – Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan topilgan yozuv turi. Bu yozuv, taxminan, eramizning V-VI asrlariga taalluqlidir.

M

Majhul nisbatdagagi fe'llar - ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydigan fe'llardir. Bu fe'llar *-n, -in, -l, -il* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *to'kildi, to'plandi, ochildi, olindi*. O'zlik va majhul nisbatdagagi fe'llar bir xil qo'shimcha yordamida hosil qilinganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe'lidan oldin *o'zi* so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi: *Mukofotlar berildi. Anvar o'qishga berildi*. (1-fe'l majhul nisbatda, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir).

Mavhum otlar – sezgi a'zolari emas, balki ong yordamidagina idrok qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar: *do'stlik, quvonch, sevgi, nafrat, vijdon*.

Ma'no kengayishi - tarixiy rivojlanish jarayonida yoki nutqiy qo'llanishda so'z ma'no hajmining ko'payishidir. Masalan, *suv* so'zi hozirgi paytda "ichiladigan suyuqlik" ma'nosidan tashqari "anor suvi", "mineral suv", "oshqozon suvi" degan ma'nolarda ham ishlatiladi. Atoqli otlarning turdosh otlarga ko'chishi ham ma'no kengayishiga misol bo'la oladi: *amper* (tok o'lchovi), *volt* (kuchlanish o'lchovi), *napoleon* (shirinlik), *makintosh* (kiyim), *xosiyatxon* (atlas turi) kabi.

Ma'no ko'chishi – turli usullar orqali bir so'z ma'nosining boshqasiga ko'chishidir: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, vazifadoshlik* asosida ma'no ko'chishi.

Ma'no torayishi – tarixiy rivojlanish jarayonida yoki nutqiy qo'llanishda so'z ma'no hajmining kamayishidir. *Dehqon* so'zi ilgari quyidagi ma'nolarni bildirgan: 1) katta yer egasi; 2) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan shaxs; 3) boshqalar mehnatidan foydalanadigan shaxs. Hozirgi paytda bu so'zning bitta ma'nosini, ya'ni "qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan shaxs" degan ma'nosigina saqlanib qolgan. Turdosh otlarning, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi so'zlarning atoqli otlarga o'tishi ham ma'no torayishiga misol bo'la oladi: *Po'lat, Go'zal, Kimsan, Oltiboy, To'xtasin*.

Ma'no urg'usi – q. Gap urg'usi.

Ma'no o'zgarishi - so'z ma'nosining ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi kabilarning umumiyl nomidir.

Maqsad maylidagi fe'llar - ish-harakatni bajaruvchining maqsadi, mo'ljali, niyatini bildiradigan fe'llardir. Bu fe'llarning o'tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli va kelasi zamon shakllari bor: *kelmoqchi bo'ldim, bormoqchi bo'lyapman, bormoqchi bo'laman* va b.

Maqsad ravishdoshi -*gani, -kani, -qani, -gali* qo'shimchalari bilan yasaladi: *olgani, to'kkani, boqqani, ko'rgali*.

Maqsad ravishlari - ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradigan va **nega?**, **nima maqsadda?** so'roqlariga javob bo'ladigan ravishlardir: *atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza*.

Metateza – tovushlarning o'rinn almashinushi: **p↔r: tuproq – turpoq, l↔n: aylanmoq – aynalmoq, h↔v: ahvol – ayhol, p↔sh: peshona – shepana, l↔r: telmurmoq – termulmoq.**

Milliy til – qayerda yashashidan qat'i nazar bir millatga mansub odamlar tomonidan ishlatiladigan til: ***o'zbek milliy tili***.

Miqdor son - bir turdag'i narsa-buyumlarning umumiyl sonini, miqdorini bildiradigan son: *besh, o'n ikki, o'ttiz uch*.

Mixxat – eramizdan oldingi davrlarda Old Osiyoda (Messopotamiya) paydo bo'lgan yozuv turi.

Modal so'zlar - so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlardir: *Ehtimol, bugun yetib kelar*. Modal so'zlar fikrning aniqligi (*darhaqiqat, shubhasiz, shaksiz, so'zsiz, albatta*), noaniqligi (*shekilli, chamasi, chog'i, ehtimol, balki, aftidan*), xulosa (*xullas, demak, nihoyat, xullas kalom*), afsuslanish (*afsus, attang, esiz*), zaruriyat (*kerak, zarur, lozim*), mavjudlik va mavjud emaslik (*bor, yo'q*) kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Monolog – bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi.

Morfemik tarkib – so'zning asosi va unga qo'shilgan barcha qo'shimchalar nazarda tutiladigan tarkib: *ter+im+chi+lar+imiz+dan* (6 ta qismdan iborat).

Morfemika – tilshunoslikning asos va qo'shimchalarni o'rganadigan bo'limi: *bilimlarga - bil* – asos, *-im* – so'z yasovchi qo'shimcha, *-lar* – shakl yasovchi qo'shimcha, *-ga* – so'z o'zgartuvchi qo'shimcha.

Morfologik yozuv (tamoyil) – so'z va qo'shimchalarni eshitilgani bo'yicha emas, balki asliga muvofiq yozishni talab qiladigan qoida: *ot + di = otti* emas, *otdi*; *uch+inchi = uchunchi* emas, *uchinchi*, *yigit+cha = yigichcha* emas, *yigitcha*; *maxsad* emas, *maqsad*; *tuz+siz=tussiz* emas, *tuzsiz* yoziladi.

Morfologik tarkib – asos+so'z o'zgartuvchi va shakl yasovchi qo'shimchadan iborat bo'lgan tarkib: *bilimdonlik+lar+i* (3 ta qismdan iborat).

Morfologiya – morfe – “shakl”, **logos** – “ta’limot” degan ma’nolarni bildirib, grammaticaning so‘z turkumlari, so‘zning grammatic ma’nosи, grammatic shaklini o‘rganadigan qismi.

Moslashuv - bosh so‘z bilan ergash so‘zning qaratqich kelishigi hamda egalik qo‘srimchasi yordamida birikishidir: *uyning tomi*. Qaratqich kelishigi qo‘srimchasi ergash so‘zga, egalik qo‘srimchasi bosh so‘zga (ba’zan har ikkalasiga ham) qo‘siladi: *ukamning kitobi*. Ega va kesim ham moslashuv usulida bog‘lanadi, chunki ular shaxs va sonda moslashadi: *Biz keldik*.

Muallif gapi – ko‘chirma gapni o‘z nutqida keltirayotgan shaxsning gapidir. Muallif gapining kesimi *dedi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zladi, aytdi* kabi fe’llar bilan ifodalandi: *Ota, — dedi Yo‘lchi cholga borib, — rahmat sizga, lekin zaharini solgan ilonga yalinish yaramaydi!(O.)*

Munosabat shakli – ismlar guruhiга kiruvchi so‘zlarining egalik, kelishik va *-man, -san, -dir* qo‘srimchalarini olgan shaklidir: *bolani, kitobim, talabaman, fermerdir*.

Murakkab ot-kesim – kamida ikkita so‘zdan iborat bo‘lgan kesim. *Mehnatning noni shirin bo‘ladi. Uzoqda ko‘ringan sharpa bir zumda yo‘q bo‘ldi.* Bugun to‘garakda *qatnashishi kerak*.

Murakkab qo‘srimchalar – kamida ikkita qo‘srimchaning qo‘silishidan hosil bo‘lgan, ma’lum so‘z tarkibida ajralmaydigan holatga kelib qolgan qo‘srimchalar: *dehqonchilik, uydagi, ovoragarchilik, zavqlan, salomlash, do‘stlarcha, harbiychasiga, yuzlab, butunlay*.

Murakkab so‘z birikmasi - tarkibida uchta va undan ortiq mustaqil so‘z qatnashib, shaklan kamida ikkita so‘z birikmasidan iborat bo‘lgan, mazmunan esa boshqa so‘z birikmalariga ajratib bo‘lmaydigan so‘z birikmasidir: *g‘ayratli yosh bolalar, yangi ommabop kitob, katta qora qo‘y, asfalt yotqizilgan keng ko‘chalar, bugun kelgan ishchilar*. Bunda sodda so‘z birikmasi kengayadi.

Mustaqil kesimlar - har doim alohida qo‘llana oladigan gaplar tarkibida qatnashadigan kesimlardir: *Dars boshlandi*.

Mustaqil so‘z turkumlari - lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib (ya’ni, savolga javob bo‘ladigan), morfologik jihatdan o‘zgaradigan (ya’ni, qo‘srimcha qabul qiladigan), gap ichida ma’lum gap bo‘lagi bo‘lib kela oladigan so‘zlar: *ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish*.

N

Negiz – o‘zakka so‘z yasovchi qo‘srimcha qo‘silishidan hosil bo‘lgan qism: *gulzorlarda, ochiqroq, izlamoq*.

Nisbiy sifatlar - narsalarning belgisini bevosita emas, balki o‘rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko‘pincha daraja ko‘rsata olmaydigan sifatlar. Bunday sifatlar yasovchi qo‘srimchalar yordamida yasalgan bo‘ladi: *sharsimon, yozgi, uydagi, oilaviy, ilmiy, toshkentlik*.

Nomustaqil kesimlar - shart maylidagi fe’llar, ravishdosh shakllari bilan ifodalanib, qo‘srimma gap qismlaridan birining kesimi bo‘lib kelgan kesimlardir: *Dovul ko‘tarilib, yomg‘ir yog‘adigan bo‘lib goldi. U kelsa, men ketaman*.

Nuqta – his-hayajonsiz aytildigan darak, buyruq, undov, atov gaplardan, qisqartirilgan ism-familiyalardan, shartli ravishda qisqartirilgan so‘zlardan, yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan keyin qo‘yiladigan tinish belgisidir: *O‘qish boshlandi. Menga javob bering. Bahor. Bu faslni juda sevaman. A.Qahhor. Daftар, qalam va sh.k. 03.03.2009*.

Nuqtali vergul – qismlari mazmunan bir-biridan uzoq bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘srimma gaplarda, guruh-guruh bo‘lib kelgan uyushiq bo‘laklar orasida, qavsli raqamlar yoki kichik harflar bilan raqamlangan jumlalardan keyin qo‘yiladigan tinish belgisi.

Nutq – tilning ma’lum paytda va ma’lum joyda ma’lum shaxs nutqiy faoliyatida namoyon bo‘lishidir: **monologik** nutq (bir kishining nutqi), **dialogik** nutq (ikki kishining nutqi), **polilogik** nutq (ko‘p kishining nutqi).

Nutq a'zolari – nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan a'zolar: *o'pka, kekirdak, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, katta va kichik til, yumshoq va qattiq tanglay, yuqori va pastki tishlar, yuqori va pastki lablar, burun bo'shlig'i, bo'g'iz bo'shlig'i*.

Nutq tovushlari – inson talaffuz qilganda bevosita qulq bilan eshitiladigan nutq parchasidir.

Nutq tovushlarining fiziologik belgisi – ularning nutq a'zolari yordamida hosil qilinishidir.

Nutq tovushlarining akustik belgisi - ularning balandligi, kuchi, miqdori, tembri kabi belgilaridir.

Nutq tovushlarining funksional(vazifaviy) belgisi - so'zlar ma'nolarini farqlash belgisidir.

Nutq tovushlarining birlashtiruvchi belgilari - bir-biriga qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki nutq tovushining birlashtiruvchi belgilaridir: *b* va *p* tovushlarining birlashtiruvchi belgilari: *b* ham, *p* ham lab-lab tovushlaridir, *b* ham, *p* ham portlovchi tovushlardir.

Nutq tovushlarining farqlovchi belgilari - bir-biriga qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki nutq tovushining farqlovchi belgilaridir: *b* va *p* tovushlarining farqlovchi belgilari: *b* jarangli, *p* jarangsiz tovushdir.

Nutqiy faoliyat – so'zlovchi shaxs bilan tinglovchi shaxs o'rtasida tovush to'lqinlari yoki harflar yordamida axborot almashinish faoliyatidir.

O

Oddiy darajadagi sifatlar - belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydigan sifatlar. Bu daraja belgining me'yordagicha ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas: *keng ko'cha, yashil yaproq, yaxshi odam*.

Ohang – nutq melodikasini, tembrini, tempini, ritmini, mantiqiy urg'uni o'z ichiga qamrab oluvchi murakkab majmudir.

Old qator unlilar - *i, e, a* tovushlari bo'lib, talaffuz paytida til old tomonga harakatlanadi.

Old qo'shimchalar (prefikslar) – asosdan oldin qo'shilib keladigan qo'shimchalardir: *bebaho, bahavo, serquyosh*. Bunday qo'shimchalar asosan sifat turkumidagi so'zlarni hosil qiladi.

Olinma (o'zlashma) so'zlar - boshqa tillardan o'tgan so'zlardir: *respublika, stol, pomidor*.

Olmosh - ot, sifat, son, ravish, so'z birikmasi yoki gap o'rnida almashib keladigan so'z turkumi: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering*.

Olmoshlashish hodisasi – boshqa turkumdagagi so'zlarning olmoshlarga ko'chishi. Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so'zlar olmoshga ko'chadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, ish*; 2) sifat: *ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*; 3) son: *bir*.

Oltoy tillar oilasi - turkiy tillar, mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys turkumlarini o'z ichiga oladigan til oilasi.

Omonimlar (grekcha – “bir xil”, “nom” degani) – talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lib, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir: *och* – harakat, *och* – qorni och.

Orfografiya (orfos – “to'g'ri”, *grafo* – “yozmoq” degan ma'nolarni anglatadi) - so'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisi.

Orttirma darajadagi ravishlar – belgining o'ta ortiqligini ifodalaydigan ravishlar: *juda tez, ancha kech, juda oldin, eng ko'p*.

Orttirma darajadagi sifatlar - predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko'p ekanligini ifodalaydi: *dum-dumaloq, pak-pakana; yap-yangi, ko'm-ko'k; soppa-sog'; to'ppa-to'g'ri. eng kichik, hammadan chiroqli, zap g'alati, beqiyos chiroqli, naqadar ulug'vor, xo'p bemaza, cheksiz quvonchli; zo'r-zo'r* (polvonlar), uzundan-uzun (kechalar), ne-ne (olimlar); *haddan ziyyod chiroqli, misli ko'rilmagan* (qahramonlik), *quling o'rgilsin* (jonon) *zahar* (garmdori), *olov* (bola); *tooza, chuquur; tekkis, yummshoq*.

Orttirma nisbatdagagi fe'llar - ish-harakatning boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradigan fe'llar. Ular *-t, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -qiz, -gaz, -g'iz, -sat* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *o'qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, toshir, chiqar, qaytar, tomiz, emiz, o?iz, yurgiz, ko'rgaz, turg'iz, ketkiz, tutqaz, o'tkaz, ko'rsat*.

Orfoepiya - *orfos* – “to‘g‘ri”, *epos* – “nutq” degan ma'nolarni bildirib, to‘g‘ri talaffuz qilish bo‘yicha qoidalar yig‘indisidir.

Orqa qator unlilar – talaffuzi paytida til orqaga tortiladigan unlilar: *u, o‘, o.*

Ot – narsa-buyum va kishilarning nomini bildirib, kim?, nima?, qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘z turkumi: *odam, kitob, ko‘cha*. Ot gap takibida asosan ega (*Olma pishdi*), kesim (*Mening akam - magistrant*), to‘ldiruvchi (*Men mashqni bajardim.*), aniqlovchi (*qo‘liga tilla bilaguzuk taqibdi.*), hol (*Men institutda o‘qiymen.*) va undalma (*Salimjon, biz bilan yur.*) vazifalarini bajaradi.

Ot-kesim - ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, modal so‘z bilan ifodalananadigan kesimdir. Ot va otlashgan so‘zlar bosh, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ot-kesim bo‘lib kelishi mumkin: *Olamni qutqaradigan narsa – go‘zallik. O‘nning yarmi – besh.*

Otlashish – otdan boshqa so‘z turkumlarining otning so‘rog‘iga javob bo‘lishi va otga xos qo‘shimchalarni olishi: 1) sifat otlashadi: *Yaxshilaridan tanlang*; 2) son otlashadi: *Ikkovlarini taklif qilishdi*; 3) olmosh otlashadi: *Bularingizdan qachon qutulaman*. 4) fe'lning sifatdosh shakli otlashadi: *O‘qiganlaringizni eslang*; 5) Ravish otlashadi: *Ko‘plarni tabriklashdi*; 6) undov so‘z otlashadi: *Dodimni eshititing*; 7) taqlid so‘z otlashadi: *Shitir-shitiri eshitildi*.

Oqli birikma - bosh so‘zi ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi yoki modal so‘z bilan ifodalangan so‘z birikmasi: *baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, vazifani bajarish, men uchun ko‘p, senga kerak.*

Ovozdor(sonor) undoshlar – talaffuzida ovoz asosiy rol o‘ynaydigan, shovqin kam qatnashadigan yoki umuman qatnashmaydigan undoshlar: *m, n, ng, l, r.*

Ozaytirma daraja - belgi miqdorining normal darajaga yetmaganligini, normaldan pastligini ifodalovchi daraja. Ifodalaniishi: 1) qo‘shimchalar yordamida: *oqish, qizg‘ish, qoramtil*. **-roq** qo‘shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): *eskiroq* (kiyim); 2) sifatdan oldin *yarim, nim, och, xiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar* so‘zlarini keltirish bilan: *yarim ochiq(eshik), uncha katta emas.*

Og‘zaki nutq – muayyan fikrning nutq tovushlari yordamida ifodalangan ko‘rinishidir.

Ochiq bo‘g‘in – unli tovush bilan tugaydigan bo‘g‘in: *o-i-la, o-ta, a-ka, i-ni, u-ka, o‘-ra, e-sa.*

P

Payt holi – harkatning bajarilish-bajarilmaslik paytini bildirib, *qachon?, qachongacha?, qachondan beri?, qayvaqt?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi va ko‘pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanganadi: *Imtihonlar yozda bo‘ladi.*

Bugun mifikta yonidan *o‘tdim.* **Nafasimni rostagach**, tikilibroq qaradim. Buni o‘qiyotganimda sezib qoldim. **Shunda** men bir sapchib tushganman. **Qaytishda** siznikiga kirib o‘tamiz. **Qo‘lim bo‘shida o‘qiymen.** Yig‘ilish *uchda bo‘ladi.*

Payt ravishlari - ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan ravishlar: *avval, oldin, ilgari, so‘ng, bugun, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada, har doim, har kuni.*

Payt ravishdoshlari - harakat bajarilish paytini harakat orqali ifodalaydigan fe'l shakli. Bunday ravishdoshlar *-gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha* qo‘shimchalari bilan yasaladi: *kelgach, to‘kkach, chiqqach, olguncha, ekkuncha, boqquncha.*

Paronimlar – talaffuzi bir xil bo‘lib, yozilishi (shakli) va ma'nosi har xil bo‘lgan so‘zlar: *nufuz* (obro‘) – *nufus* (aholi), *shoh* (podsho) – *shox* (daraxt shoxi).

Polilog – ikkitadan ortiq kishining nutqi.

Polisintetik (ko‘p terkibli) tillar – butun boshli gap bir so‘z sifatida ifodalananadigan tillardir. Bulariga chukot tili kiradi.

Portlovchi-sirg‘aluvchilar – *m, n, ng, l, r* tovushlari.

Portlovchi undoshlar – talaffuz qilinganda havoning ikki nutq a'zosi orasidan otilib chiqishidan hosil bo'ladigan undoshlar: *b, d, g, p, t, k, q, j (jo'ja), ch.*
Progressiv assimilyatsiya – oldingi tovushning o'zidan keyingi tovushni o'zgartirishi: *yurak+ga = yurakka, ayt+di = aytti.*
Punktuatsiya - tinish belgilarini qo'llash qoidalari o'rganiladigan bo'lim.

Q

Qadimgi turkiy adabiy til - o'zbek adabiy tili rivojlanishining bиринчи bosqichi (X-XII asrlar) dagi nomlanishi. Namunalari: O'rxun-Enasoy yodgorliklari, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" ("Turk tillari devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asarları.

Qaralmish – qaratqich aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak: *talabaning intilishi, o'qiganning foydasi, o'nning yarmi.*

Qaratqich-aniqlovchi - biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradigan va *kimning?, nimaning?, qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladigan aniqlochi turidir. Qaratqich va qaralmish moslashuv orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: *Odamning qo'li gul.* Qaratqich-aniqlovchi, odatda quyidagicha ifodalanadi: 1) qaratqich kelishigidagi ot, olmosh bilan: *Gulnor yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi.* 2) qaratqich kelishigidagi otlashgan so'zlar bilan: *O'nning yarmi - besh.* 3) ibora bilan: *Omadi yurishganning oshig'I olchi.* Qaratqich-aniqlovchi -ning qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: *Bolalar xonasi ozoda edi.*

Qarashlilik shakli – *-niki* qo'shimchasi bilan yasalgan va narsa yoki shaxsning shu qo'shimchani olgan narsa yoki shaxsga tegishli ekanligini bildiradigan shakl: *Kitob Ahmadniki; qopqoq choynakniki.* Bu qo'shimchani olgan so'z gap tarkibida kesim vazifasini bajaradi.

Qarindosh tillar – kelib chiqishi bir ajdoddan bo'lgan, umumiy tomonlari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan tillardir: o'zbek turkman, ozarbayjon va boshqa turkiy tillar qarindosh tillardir.

Qarluq lahjası – Toshkent, Farg'ona, Andijon va boshqa yirik shaharlarda yashovchi o'zbeklar shevalarini o'z ichiga oluvchi lahja: *oka (aka), ukamni(ng) daftari, aytmoq – etmoq .*

Qavs belgisi – kirish gaplarda, remarkalarda, olingan misollarning manbalarida, qisqartirilgan ism-familiyalarda, izoh ma'nosidagi so'z va birikmalarda ishlataladigan tinish belgisi.

Qipchoq lahjası - O'zbekistonning asosan qishloq shevalarini (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumani va Turkmaniston Respublikasining Toshovuz viloyati qishloqlari) qamrab oluvchi lahja: *tov(tog'), jo'q (yo'q), kitobdi (kitobni), sari (sariq).*

Qisqartma so'zlar (abbreviaturalar) – turg'un birikma qismlarini turli ko'rinishlarda qisqartirish asosida yasalgan so'zlar: *GES, ijroqo'm, ToshMI, pedinstitut.*

Qiyosiy daraja - predmetdag'i bir belgining boshqa predmetdag'i xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydigan daraja. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin bir-biridan, undan ham, yanada so'zlarini keltirish bilan yasaladi: *Olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan go'zal, bundan ham battar, yanada kuchli.*

Qiyosiy darajadagi ravishlar – bir harakat belgisini boshqa shunday belgiga qiyoslaydigan, chog'ishtiradigan ravishlar: *tezroq, oldinroq, kechroq, astaroq.*

Qorishiq portlovchilar – boshlanishida portlash, oxirida sirg'alish bo'ladigan undoshlardir: *j (jo'ja), ch.*

Quyi keng unlilar – talaffuzi paytida til pastga, o'z joyiga tushadigan unlilar: *a, o.*

Qo'shimcha - asosga qo'shilib, unga turli ma'nolar kiritadigan qism: *o'yla, uyni, qizcha.*

Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar - *-ku, -mi, -a(-ya), -gina, -chi, -da, -dir, -u(-yu).*

Qo'shma gap - Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gapdir *Po'k ildizdan o'tin chiqmas, bu o'tindan olov chiqmas.(S.Ahm.)*

Qo'shma otlar - ikki va undan ortiq so'zning qo'shilishidan yoki bog'lanishidan hosil bo'lagan otlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) ot bilan otdan: *otquloq, qo'larra*; 2) sifat bilan otdan: *ko'ksulton, xomtok*; 3) ot bilan sifatdan: *gulbeor, oshko'k*; 4) son bilan otdan: *mingoyoq, qirqog'ayni, uchburchak*; 5) ot bilan fe'lidan: *o'rribosar, beshiktervatar*; 6) fe'l bilan fe'lidan: *iskabtopar, olibtosar*; 7) fe'l va undalmadan: *urto'qmoq, ochildasturxon*. Biror belgisiga ko'ra atalgan joy nomlari ham ko'pincha qo'shma ot orqali ifodalanadi: *Oqtepa, To'ytepa, Uchqo'rg'on*.

Qo'shma ravishlar - asosan ikki so'zdan yasaladigan ravishlar. Ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi: 1) tarkibida *u, bu, shu* olmoshlari bo'lgan payt va o'rin ravishlari: *u yoqqa, bu yoqqa, u yerga, shu yerda* va b. 2) tarkibida *har, hech, hamma, bir* so'zлari bo'lgan ravishlar: *har vaqt, har zamon, har qachon, hech vaqt, hamma vaqt, bir zum, bir necha*. 3) tarkibida *alla-* elementi bor bo'lgan ravishlar qo'shib yoziladi: *allavaqt. Biryo'la, birmuncha, birvarakayiga, birpas* ravishlari qo'shib yoziladi.

Qo'shma sifatlar – ikkita va undan ortiq so'zning qo'shilishidan yoki bog'lanishidan yasalgan sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi va yoziladi: 1) ot va otdan. Bular ajratib yoziladi: *havo rang bo'yog*; 2) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *qimmatbaho sovg'a*; 3) ot yoki ravishga - ar qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: *tezoqar daryo*; 4) otga aro so'zini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: *xalqaro*.

Qo'shma sonlar - ikki yoki undan ortiq sonning bog'lanishidan tuzilgan sonlar: *o'n uch, bir yuz o'n sakkiz*.

Qo'shma so'zlar – kamida ikkita o'zakning qo'shilishi yoki bog'lanishidan hosil bo'lgan va bitta so'roqqa javob bo'ladigan so'zlar: *qo'lqop, Markaziy Osiyo, rahmdil, havo rang, sotib olmoq, javob bermoq, bir oz, birmuncha, mana bu, ana shu, har kim, o'n ikki*.

Qo'shtirnoq - ko'chirma gaplarda, sitatalarda, kinoya usuli bilan ko'chgan so'zlarda, ayrim atoqli otlarda ishlatiladigan tinish belgisi.

R

Ravish - ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi. Ravish *qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?, nega?, qay darajada?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi: *asta, hozir, pastda, yuqorida, o'ngga, ko'p, noiloj, juda*.

Ravishdosh - ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini bildirgan fe'l shakli: *jo'shib kuylamoq, o'qigani kelmoq, kelguncha kutmoq*.

Regressiv assimilyatsiya - keyingi tovushning oldingi tovushni o'zgartirishi: *yigit+cha = yigichcha, sakkiz+ta = sakkista*.

Ritorik so'roq gaplar - so'roq gaplarning javob talab qilmaydigan turi bo'lib, javobi o'z ichida yashiringan bo'ladi: *Men uning to'satdan kelib qolishini qaydan bilay?* Ritorik so'roq gaplar quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin: *Bu Vatanda nimalar yo'q* (tasdiq). *O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga* (inkor). *Bu qanaqasi?!* (taajjub) *Yolg'iz qolib ketmaymanmi?!* (tashvish) *Ko'zingga qarab yurmaysanmi?!* (g'azab) *Balki, ertaga yomg'ir yog'mas?* (gumon) *Qachongacha bizni qiynashadi?!* (kuchli hayajon)

Run (runik) yozuvi - Mo'g'ulistonning O'rxun va Rossiya hududidagi Enasoy (Yenisey) daryolari bo'ylaridan topilgan va toshga, charmga, shishaga yozilgan yozuv turi.

S

Sabab bog'lovchilari – ma'lum bir gapning sababini bildiradigan gapni o'sha gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan bog'lovchilar: *zeroki, chunki, shuning uchun*. Ba'zan *uchun* ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: *Ular yetib kelsin uchun, Avaz kutib turdi*.

Sabab ravishlari - ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, nega? so'rog'iga javob bo'ladigan ravishlar: *noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan)*.

Semantik usul bilan so‘z yasalishi – so‘z ma'nolarining taraqqiyoti natijasida yangi so‘z hosil qilish; bunda bir turkumdag'i so‘z boshqa turkumga o‘tadi: *o‘g‘il bola* (sifat) – *O‘g‘il tug‘ildi* (ot). *O‘quv, yozuv* so‘zlari fe'lidan otga o‘tgan; ***kelishgan*** yigit (fe'lning sifatdosh shakli sifatga o‘tgan);

Semit guruhi - arab, axmar, xarari, oysor, ivrit tillarini o‘z ichiga olgan til guruhi.

Sifat - predmetning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘z turkumi: *go‘zal, uzun, kechagi*.

Sifatlarning ma'no turlari - 1) xususiyat bildiruvchi: *yaxshi, yomon, aqlli, sergak, so‘zamol;* 2) holat bildiruvchi: *go‘zal, chirolyi, suluv, cho‘loq, maymoq, cho‘tir, soqov, kar, ko‘r.* 3) rang-tus bildiruvchi: *oq, qora, sariq, kul rang;* 4) shakl-ko‘rinish bildiruvchi: *yapaloq, tekis, yassi, dumaloq;* 5) hajm-o‘lchov-masofa bildiruvchi: *keng, tor, chu?ur, katta, kichik;* 6) mazata'm bildiruvchi: *shirin, achchiq, nordon, sho‘r, achimsiq;* 7) hid bildiruvchi: *xushbo‘y, sassiq, badbo‘y, muattar, qo‘lansa;* 8) vazn-og‘irlilik bildiruvchi: *og‘ir, yengil, zildek, vazmin;* 9) o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi: *yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, uydagi, ko‘chadagi.*

Sifat darajasi - predmetlardagi bir xil belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja (*baland*), orttirma daraja (*juda baland*), qiyosiy daraja (*balandroq*), ozaytirma daraja (*sal baland*).

Sifatdosh - narsa-buyumning belgisini harakat orqali bildiradigan fe'l shakli. Sifatdosh fe'l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlikni bildiradi: *qolgan* - bo‘lishli, o‘tgan zamon, aniq nisbatda. Sifatdosh sifat kabi otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi: *Talabalar berilgan topshiriqni bajarishdi. Vazifalar bajarilgan.* Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: *borgan– bormagan, borayotgan – bormayotgan, borar – bormas, o‘qigan emas.*

Sifatlovchi-aniqlovchi - predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va *qanday?, qanaqa?, qaysi? qancha?, nechanchi?, necha?, qayerdagi?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo‘lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi: 1) sifat: ***Kechagi voqeа esiga tushdi.*** 2) son bilan: *Yuzlab odam to‘plandi;* 3) olmosh bilan: *Bu kitob meniki;* 4) sifatdosh bilan: *O‘qigan odam qiynalmaydi;* 5) ravish bilan: *Ko‘p vazifa yuklandi;* 6) taqlid so‘z bilan: *Pichir-pichir ovoz eshitildi.* 7) ot bilan: *Asfalt yo‘ldan mashinalar g‘iz-g‘iz o‘tib turibdi.* 8) ibora bilan: *Unda og‘zining tanobi qochadigan odat bor.* 9) so‘z birikmasi bilan (sifatlovchi va sifatlanmish, qaratuvchi va qaralmish, to‘ldiruvchi va to‘ldirilmish, hol va hollanmish birikmalari sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib keladi): *U birinchi kungi ishni yakunladi. U kamning uyidagi mollarni ham olib ketishibdi. Menga tegishli bo‘lakni qoldiring. Ertaga bo‘ladigan majlis qoldirildi.*

Sinonimlar (ma‘nodosh so‘zlar) - grekcha *synonymos* yoki *synonymon* – “bir nomli” degan ma‘noni bildirib, bir umumiy ma‘noni ifodalaydigan kamida ikkita so‘zdir. Sinonimlar deyarli barcha turkumlar ichida uchraydi: ot – *dushmanlik, adovat;* sifat - *dongdor, mashhur, nomdor;* son – *yarim, ikkidan bir;* olmosh – *hamma, barcha;* fe'l – *nolimoq, shikoyatlanmoq, zorlanmoq;* ravish – *ko‘p, mo‘l, bisyor, serob;* ko‘makchi – *kabi, yanglig‘, singari;* bog‘lovchi – *lekin, ammo, biroq;* yuklama – *faqat, -gina;* modal so‘z – *chamasi, chog‘I.*

Sintagma – jumla tarkibidagi ikkita qisqa to‘xtam (pauza) orasidagi nutqiy bo‘lak: *Kitobni o‘qib bo‘lib, / joyiga qo‘ydim.*

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, uyg‘unlashuvi: *burun, quruq, qoloq, bobo, uzun, tutun, tutqun.*

Sintaksis – grekcha *tuzish* degan ma‘noni bildirib, grammatikaning so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, gap va uning turlarini o‘rganadigan qismi.

Sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar - so‘zlarni bir-biriga bog‘laydigan qo‘srimchalar: 1) kelishik qo‘srimchalari: *uyni, oyning, oshga, ishda, otdan;* 2) egalik qo‘srimchalari: *sochim, uying, oti, sochimiz, itingiz;* 3) shaxs-son qo‘srimchalari: *yurdim, kirding, bordik, berdingiz.*

Sirg‘aluvchi undoshlar – havo to‘lqinining ikkita nutq a’zosi bir-biriga yaqinlashgan paytida yuzaga kelgan tirqishdan sirg‘alib chiqishi natijasida hosil bo‘lgan tovushlar: *v, j(vijdon), z, y, g’, f, s, sh, x, h*.

Sodda ot-kesim - bir so‘z bilan ifodalananadigan kesim: *Mening eng yaqin do‘stim – kitob*.

Sodda so‘z birikmasi - faqat ikkita mustaqil so‘zdan tuzilgan so‘z birikmasi (bunda yordamchi so‘zlar ham ishtirot etishi mumkin): *beshta daftar, bugun keldi, o‘zining uyi, shaharda yashaydi, akasi haqida so‘radi*. Ajralmas birikmalar, iboralar qatnashgan birikmalar ham sodda so‘z birikmasi hisoblanadi: *qilich bo‘yin ot, borsa kelmas oroli*.

Sodda so‘zlar – bir asosdan iborat bo‘lgan so‘zlar: *kitob, havo, odamlar, bizni, aqlli, kunduzi*.

Sodda qo‘srimchalar – boshqa qo‘srimchalarga ajralmaydigan qo‘srimchalar: *tanla, uycha, yozdik*.

Sodda yig‘iq gap - tarkibida faqat bosh bo‘laklargina mavjud bo‘lgan gaplardir: *Azizzon qahramon bo‘ldi*.

Sodda yoyiq gaplar - tarkibida bosh bo‘laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo‘laklar ham qatnashadigan gaplardir: *Ufgoda olovli bulutlar goldi*.

Sof ko‘makchilar – lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘srimchalariga yaqin turadigan so‘zlardir: *ilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig‘*.

Som-xom tillar oilasi - semit, qushit, berber guruhi, chad-xom guruhi, arab guruhini o‘z ichiga oladigan til oilasi.

Son - sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar turkumi. Son **necha?, qancha?, nechta?, nechanchi?** kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sonlarning morfologik xususiyatlari: 1) sonlar *juft, dona, metr, siqim* kabi hisob so‘zlar bilan qo‘llana oladi; 2) so‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shilavermaydi; 3) boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. Sonning sintaktik xususiyatlari: 1) doim otlar bilan birga qo‘llanadi; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: *Ikkala do‘st quchoqlashib ko‘rishishdi*. 4) son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: *beshta shirin qovun*. 5) Sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: *Beshta qalam oldi. Maqsadimiz bitta*.

Sof portlovchilar - havo to‘lqinining ikkita nutq a’zosi orasidan otilib chiqishi natijasida paydo bo‘ladigan nutq tovushlari: **b, d, g, p, t, k, q**.

Sof so‘roq gaplar - javob talab qiladigan so‘roq gaplar: *Siz ertaga kelasizmi?*

Sof fe'l - gap ichida fe'l-kesim vazifasini bajaradigan va fe'lga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lgan fe'l shakli: *U yozdi*. (bo‘lishli, o‘timli, aniq nisbatda, o‘tgan zamon, xabar maylida, 3-shaxs, birlikda)

Sof so‘roq gaplar - javob talab qiladigan gaplar: *Siz ertaga kelasizmi? (Ha. Yo‘q.)*

So‘roq olmoshlari - biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so‘roqni bildirgan olmoshlardir: *kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi, qancha, necha, nechanchi, nega, nimaga, qayerda, qayda, qayoqqa, qachon, qani*.

So‘roq belgisi – so‘roq gaplardan, darak gap ichidagi tushunarsiz, mujmal bo‘lgan so‘zlardan keyin qo‘yiladigan tinish belgisidir: *Siz necha yoshdasiz? Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy institut(?) talabasi ekan*.

So‘roq gap - so‘zlovchining o‘zi bayon qilgan fikriga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydigani, o‘zi uchun noma'lum bo‘lgan narsa, belgi, harakat, holat, miqdor haqida ma'lumot olish uchun qo‘llanadigan gap: *Bugun darsga borasizmi?* Yozuvda so‘roq gapning oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi. Bu gaplar ko‘proq dialogik nutqda uchraydi. So‘roq gaplar so‘roq olmoshlari (*kim, nima, qanday, qancha, necha, qaysi*), so‘roq yuklamalari (-*mi, -chi, -a, -ya*) yoki so‘roq ohangi yordamida hosil bo‘ladi: quyidagi misolda so‘roq ohangi qatnashgan: *Ertaga yakuniy nazorat o‘tkaziladi. Ertaga?*

So‘roq va taajjub yuklamalari - *-mi, -chi, -a(-ya)* yuklamalaridir. *-mi* so‘roq va taajjubdan tashqari modal ma’noni ham bildiradi, bunda u noaniqlikni ifodalaydi: *Uyidami, ko ‘chadami, uning uchun farqi yo‘q edi.* *-chi* yuklamasi so‘roqdan tashqari buyruq, do‘q, iltimos, qistash, ta‘kid, uqtirish ma’nolarini ham bildiradi: *Qani, yur-chi! Kitobingni berib tur-chi.* *-a, -ya* yuklamalari ham so‘roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni, tasdiq va ishonchni ham bildiradi: *Qanday chiroyli-ya!*

Ko ‘ylagingiz shunday ho ‘l-a.

So‘z birikmasi - ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo‘lib bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birlik: *charm qo ‘lqop, baland bino, beshta bola, shu odam, kelgan kishi, jo ‘shib kuylamoq, kitobni o‘qib, dars haqida suhbat, tez yurmoq, kitobning varagi i.*

So‘z tarkibi – so‘zning ma’noli qismlari, ya’ni asos va qo‘shimchalar yig‘indisidan iborat: *gul+don+lar+ga.*

So‘z turkumlari – tildagi so‘zlarning umumiy grammatik ma’no hamda vazifalariga ko‘ra ma'lum guruhlarga bo‘linishi: *ot, sifat, bog‘lovchi, taqlid so‘z* va h.

So‘z urg‘usi – so‘z tarkibidagi ayrim unli tovushlarning boshqalariga qaraganda balandroq, kuchliroq aytilishi: *qalám, albáttá, áksiya.*

So‘z yasalishi – turli usullar yordamida yangi so‘zlar hosil qilish: *ish+la=ishla, qo ‘l+qop=qo ‘lqop, BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti).*

So‘z yasovchi qo‘shimchalar – o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan qo‘shimchalar: *sinfodosh, guldon, suvli, sezgir, oqla, ko ‘pay, do ‘stona, majburan.*

So‘z yuklamalar – so‘z ko‘rinishidagi yuklamalar: *faqat, ham, axir, hatto.*

So‘z shakli yasovchi qo‘shimchalar – *q.* **Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar.**

So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar – *q.* **Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar.**

So‘zlarni takrorlash yordamida so‘z yasash – so‘zlarning takrorlanib yangi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lishi natijasida so‘z yasalishi. Bunda boshqa turkumga mansub so‘z yasalishi mumkin yoki shu turkumga xos yangi so‘z hosil bo‘lishi mumkin: *yo ‘l-yo ‘l ko ‘ylak* - ot takrorlanib sifat hosil bo‘lgan; *yor-yor* – ot takrorlanib yangi ot (qo‘shih nomi) hosil bo‘lgan.

So‘zlashuv tili - kundalik turmushda ishlataladigan til: *bo ‘lsa – bo ‘sa, kelsa – kesa, olib kel – opkel, qolibdi – qopti, maza – mazza.*

T

Takroriy bog‘lovchilar – gap tarkibida kamida ikki o‘rinda takrorlanib ishlataladigan bog‘lovchilardir: *Yo u keladi, yo men boraman. Goh kuladi, goh yig ‘laydi.*

Takroriy ravishlar – bir ravishning takrorlanib, bir umumiy urg‘u bilan aytishidan hosil bo‘lgan ravishlardir. Ular quyidagicha yasaladi: 1) ot bilan ot takrorlanadi: *qator-qator, yildan-yilga qadam-baqadam;* 2) sifat bilan sifat: *chaqqon-chaqqon, uzundan-uzoq, bekordan-bekorga;* 3) fe‘l shakkari: *uzil-kesil, bilinar-bilinmas, bora-bora, ura-sura, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo ‘yarda-qo ‘ymay;* 4) ravish bilan ravish: *nari-beri, oldinma-ketin, birin-ketin, undabunda, hali-beri;* 5) olmosh, son, taqlid so‘zlarning aralash holda takrorlanishi: *o ‘z-o ‘zidan, yakka-yakka, taqa-taq.*

Takroriy sifatlar – sifatdan boshqa turkumlarga mansub so‘zlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan sifatlar: **1) tub takroriy sifatlar:** *baland-balando, uzun-uzun;* **2) yasama takroriy sifatlar:** *yo ‘l-yo ‘l (ko ‘ylak); manman (odam); liplip (chiroq).*

Takroriy sonlar - bir asosning takrorlanishidan tuzilgan sonlar: *ikki-ikki, to ‘rtta-to ‘rtta, o ‘nta-o ‘nta.*

Takroriy so‘zlar - bir o‘zakning ikki marta takroridan hosil bo‘lib, bir umumiy urg‘u bilan aytiladigan so‘zlar: *tog ‘-tog ‘, katta-katta, beshta-beshta, kim-kim, yurib-yurib, bora-bora, yig ‘lay-yig ‘lay, bilinar-bilinmas, kuydirgani-kuydirgan, tez-tez, voy-voy, gurs-gurs.*

Tarixiy-an'anaviy yozuv (tamoyil) – so‘z va qo‘sishimchalar tarixan, an'anaga ko‘ra qanday yozib kelingan bo‘lsa, hozir ham shunday yozishni talab qiladigan yozuv: *cho‘t* (aslida *schyot*), *pudratchi* (aslida *podryadchik*).

Tartib son - narsa-buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa - *nchi*, undosh bilan bitgan miqdor songa -*inchi* qo‘sishimchasini qo‘sish bilan hosil qilinadi: *birinchi*, *ikkinchi*. Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo‘sishimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo‘yiladi: rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo‘yilmaydi: *2-brigada, VI sinf, 2008-yil 8-Mart*.

Taqlid so‘zlar - tovushga va harakat-holatga taqlidni bildirgan so‘zlardir: *taq-tuq*, *lip-lip*. Taqlid so‘zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo‘llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi. Taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi gap bo‘lagi bo‘la oladi: *Shamol g‘ir-g‘ir* (hol) *esmoqda*.

Taqsim son - narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadigan son va u miqdor songa -*tadan* qo‘sishimchasini qo‘sish bilan hosil qilinadi: *ikkitadan*, *o‘ntadan*, *yuztadan*. Ba‘zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: *Ikki-ikki bo‘lib yurdik*. (hisob so‘zi bo‘lsa, -*ta* tushiriladi: *Ikki metrdan berildi*.)

Tasnif - to‘plamni o‘xhash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo‘lishdir: ***undosh tovushlar tasnifi, unli tovushlar tasnifi, so‘z turkumlari tasnifi*** va h.

Tasviriy ifoda - narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so‘z birikmasidir: *yashil vodi* (Farg‘ona), *oq oltin* (paxta), *zangori ekran* (televizor), *yashil qit‘a* (Avstraliya), *kunchiqar mamlakat* (Yaponiya).

Teng bog‘lanish - bir so‘zning boshqasiga sanash ohangi yoki teng bog‘lovchilar yordamida bog‘lanishi: *Ko‘chalar, tomlar, devorlar, daraxtlar oppoq. Xona sovuq va nimqorong‘i*.

Teng bog‘lovchilar - gapdagi so‘zlarni va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog‘laydigan bog‘lovchilar: *Ota ya onasi keldi, lekin u kelmadi*.

Tire – dialoglardagi har bir gapdan oldin, bog‘lamasiz ishlatilgan ot kesim va ega o‘rtasida, ko‘chirma gaplarda, tartib bilan sanalgan har bir gapdan oldin, zid, o‘xshashlik yoki izoh mazmunidagi bog‘lovchisiz qo‘shta gap qismlari orasida, uyushiq va ajratilgan bo‘laklarda, tenglik ma’nosini bildirgan so‘zlar orasida ishlatiladigan tinish belgisi.

Til – muayyan jamiyatda yashovchi a’zolar uchun bir xilda xizmat qiluvchi, ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasidir.

Til oilasi - kelib chiqishi jihatidan bir xil bo‘lgan tillar yig‘indisi: ***oltoy tillar oilasi, hind-yevropa tillar oilasi*** va h.

Tinish belgilari (punktuatsiya) – tinish belgilarining qo‘yilish o‘rinlari haqida ma’lumot beruvchi bo‘lim: *nuqta, vergul, tire, nuqtali vergul, undov belgisi, so‘roq belgisi, ko‘p nuqta, qo‘shtirnoq, qavs, ikki nuqta*.

Tirik tillar - hozirgi davrda ma’lum bir xalq vakillari uchun muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilayotgan tillar: *o‘zbek, rus, ingliz...*

Titroq tovush - talaffuz qilinganda tilning uchi titraydigan tovush: *r*.

Tobe bog‘lanish - bir so‘zning boshqasiga kelishik qo‘sishimchalar, ko‘makchilar yoki tobelanish ohangi yordamida bog‘lanishi: *uyga ketmoq, maktabdan kelmoq, institutga kirmoq, kitobning varag‘i, testni yechmoq, qalam bilan yozmoq, uy tomon ketmoq, ukasi uchun olmoq, imtihon haqida suhbatlashmoq*. Ega bilan kesim ham o‘zaro tobe bog‘lanadi: *Tabib inkor etmaydi*. Tobe bog‘lanishning eng asosiy belgisi shuki, unda har doim bir so‘z ikkinchi bir so‘zni izohlab, to‘ldirib, aniqlab keladi.

Tovush – nutq a’zolari yordamida hosil qilinadigan eng kichik, bo‘linmaydigan nutq birligi: ***a, b, v, g, d***.

Tovush almashishi – talaffuz jarayonida so‘zlardagi tovushlarning boshqa tovushga almashinuvni: *son – sana, yutuq – yutug‘i*.

Tovush orttirilishi – so‘zning boshiga, o‘rtasiga, oxiriga tovush qo‘shilishi: *stakan* – *istakan*, *stol* – *ustol*, *fikr* – *fikir*, *doim* – *doyim*, *tank* – *tanka*, *disk* – *diska*, *bank* – *banka*.

Tovush tushishi – talaffuz jarayonida so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning tushib qolishi: *shahar* – *shahri*, *o‘g‘il* – *o‘g‘li*, *burun* – *burni*; *past* – *pasay*, *farzand* – *farzan*, *kelsa* – *kesa*.

Tovushga taqlid bildiradigan so‘zlar - atrof-borliqdagi tabiat tovushlariga, hayvon va parrandalar tovushlariga taqlidni bildiradigan so‘zlar: *gumbur-gumbur*, *dup-dup*, *duk-duk*, *shiq-shiq*, *qiy-chuv*, *taq-tuq*, *g‘arch-g‘urch*, *inga-inga*, *pix-pix*, *qult-qult*, *bidir-bidir*, *vov*, *uv*, *irr*, *mo‘o*, *maa*, *baa*, *mee*, *ing-ing*, *ang-ang*, *miyov*, *vah-vah*, *vish-vish*, *qu-qu*, *g‘a-g‘a*, *qa-qa*, *g‘aq-g‘aq*, *pit-pildiq*, *parr*, *viz-viz*. Tovushga taqlid so‘zlar ba’zan otlashib, ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qiladi: *Odamlarning g‘ovur-g‘ovuri bosildi*. *Yuragining duk-dukini eshitdi*.

Tub so‘z - bironta usul yordamida yasalmaydigan so‘zlardir. Bunday so‘zlar tarkibiy jihatdan asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linmaydi, lekin ular tarkibida shakl yasovchi qo‘shimchalar qatnashishi mumkin: *qo‘l*, *uylar*, *ukamni*, *qizcha*.

Turdosh otlar - bir turdag'i predmetlarning umumiy nomini bildirgan otlar: *shahar*, *bola*, *qalam*, *uy*, *meva*, *talaba*.

Turkiy tillar - o‘zbek, turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turk, uyg‘ur, boshqird, qoraqalpoq, tatar, chuvash, yoqut, qorachoy, balqar, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz, shor, qoraim, qumiq, no‘g‘oy, oyrot, karagas tillari.

Turlanish - otlarning kelishik yoki egalik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi: *bolaning*, *dalani*, *kitobga*, *uyda*, *ko‘chadan*; *ko‘ylagim*, *bobong*, *onasi*.

Tuslanish - fe'lning shaxs-son qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi: *bordim*, *bording*, *bordik*, *bordingiz*, *boraman*, *borasan*, *boryay*, *borgin*, *borsin*.

Tuslanadigan ravishdoshlar - *-b(-ib)*, *-a,-y*, *-gudek* qo‘shimchlari bilan yasalib, shaxs-son qo‘shimchlari yordamida o‘zgaradigan ravishdoshlar: *boribman*, *ko‘rasan*, *o‘qiyman*, *o‘qigudeksan*.

Tuslanmaydigan ravishdoshlar - *-gach(-kach, qach)*, *guncha(-kuncha, quncha)*, *gani (-kani, -qani, -gali)* qo‘shimchlari bilan yasalib, shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qilmaydigan ravishdoshlar.

Tutuq belgisi (’) - lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi ikkita vazifani bajaradigan belgi: 1) kirilchadagi ayirish belgisi (*в*) o‘rnida qo‘llanadi: *a‘lo*, *ma‘no*; 2) *sh* harfiy birikmasidagi s hamda *h* harflarining alohida tovushlar ifodalashini ko‘rsatish uchun: *Is‘hoq*, *as‘hob*.

To‘ldiruvchi - gapdagi biror bo‘lakni to‘ldirib, unga boshqaruv yo‘li bilan tobe holatda bog‘langan bo‘lakdir. To‘ldiruvchi asosan fe'l-kesimga bog‘lanadi va tahlilda uning tagiga shtrix (- - - -) chiziladi: *Men bu gapni ukamdan eshitdim*.

To‘liq assimilyatsiya - bir tovushning boshqasini o‘ziga to‘la o‘xshatishi: *ot+dan=ottan*.

To‘liqsiz assimilyatsiya – bir tovushning boshqasini o‘ziga qisman o‘xshatishi: *maqsad* – *maxsad*, *uchta* – *ushta*, *oqshom* – *oxshom*, *to‘qson* – *to‘xson*, *taqsim* – *taxsim*, *o‘sdir* – *o‘stir*.

To‘liqsiz fe’llar - o‘zining lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, yordamchi so‘zlarga yaqinlashib qolgan fe’llar. Bularga *edi*, *ekan*, *emish*, *emas* so‘zlari kiradi (*esa bog‘lovchilar guruhiга o‘tib ketgan*).

To‘plam - o‘rganish uchun olingan turli narsa, voqeа-hodisalar yig‘indisidir: *so‘z turkumlari*, *gap bo‘laklari* va h.

U

Ugor guruhi - venger, mansiy, xantiy tillarini o‘z ichiga oladigan til guruhi.

Umumlashtiruvchi bo‘lak – uyushiq bo‘laklarning ma’nosini jamlab, umumlashtirib ifodalaydigan bo‘lakdir. Bu bo‘lak quyidagicha ifodalananadi: 1) otlar bilan: *Bayramda do‘stlarim*: *Ahmad va Sobir mehmon bo‘lib kelishdi*. 2) olmosh bilan: *Buni hech kim*: *otasi ham, onasi ham bilmasligi kerak*. Akam, opam, singlim – *hammamiz* talabamiz. 3) son bilan: *Sen, Po‘lat* va

Kamol – uchovingiz uni kuzatib qo'yasiz. 4) birikma bilan: **Darsga yaxshi tayyorlanganlar:** Roziya, Husnora, Muxtasarlar yuqori ballarga ega bo'lishdi. Umumlashtiruvchi bo'lak qanday vazifani bajarsa, uyushiq bo'laklar ham shunday vazifani bajaradi. Umumlashtiruvchi bo'laklar uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Oldimizdan qo'shnilarimiz: Raimjon va Abdurahim akalar chiqib qolishdi.* Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin tire qo'yiladi: *U kishi o'z farzandlariga ham, begona bolalarga ham – barchaga bir xilda muomala qilardi.*

Undalma - so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'zdir. Undalma odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Undalmalar quyidagicha ifodalanadi: 1) ot bilan: — **Aka, nimaga jim bo'lib ketdingiz?** 2) olmosh: **Hay, kim,** — *Gulnorni shunday chaqirdi u, — ovqatni tezroq qilinglar.*(O.) 3) otlashgan so'zlar: *Shunday demaysizmi, azizim!* (sifat) **Beshinchilar, saflaning!** (son). 4) undov so'zlar: *Hoy! - dedi Nasriddin uchoviga qarata. - Men insof nimaligini tushunmayman!* (Z.A'lam) 5) so'z birikmali bilan: *Hoy, soqoling ko'ksingga to'kilgur!* 6) iboralar bilan: *Hoy, yigit tushmagur, nima qilib qo'yding!*

Undov so'zlar - his-hayajon, tuyg'uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so'zlar: *eh, uh, uf, voy, xix, drr, chuh.* Bu so'zlar mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan ayrim so'z turkumidir. Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay.* Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undosh tovushlar - hosil bo'lishida o'pkadan chiqadigan havo to'lqini og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydigan, cho'zib aytish mumkin bo'lman, talaffuz qilinganida un paychalari yo titrab, yo titramaydigan tovushlardir: *b, v, g, d, j(vijdon), j(jo'ja), z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng (tong).*

Undov belgisi – kuchli his-hayajon bilan aytildiyan gaplardan, buyurish, istak ma'noli gaplardan, gap ichidagi alohida ta'kidlangan so'zlardan keyin qo'yiladigan tinish belgisidir.

Unli tovushlar – hosil bo'lishida o'pkadan chiqadigan havo to'lqini og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydigan, cho'zib aytish mumkin bo'lgan, talaffuz qilinganida un paychalari albatta titraydigan tovushlardir: **a, o, u, o', i, e.**

Urg'u – so'z bo'g'inlaridagi unli tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi ayrim so'zlarning boshqalariga nisbatan kuchliroq, balandroq aytılıshi. Belgisi - (''): *kitób, bárcha, qórday.*

Uslubiy belgi – so'zning ma'lum uslubga mansubligini ko'rsatuvchi belgi: *ozod* - uslubiy betaraf so'z – *hur* – badiiy uslubga tegishli so'z.

Uslubiy betaraf so'z – barcha uslublarda qo'llanadigan so'z: *bola, yaxshi, bu, besh, bugun.*

Uslubiyat – til vositalarining ishlatilish sohalarini qamrab oluvchi bo'lim.

Uyadosh so'zlar – bir turdag'i narsa, belgi, harakat tushunchalarini ifodalaydigan so'zlar: odam a'zolari – *oyoq, qo'l, ko'z, qulog, burun;* rang – *oq, ko'k, yashil.*

Uyushiq bo'laklar - bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapdagi bir bo'lakka bog'lanadigan gap bo'laklaridir: *U odamlarning hammasi ham muloyim, sermulozamat, sertazim, shirinso'z edi.* (A.Q.)

Uyg'ur yozuvi – VI-VII asrlardan XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar foydalaydigan yozuv. Namunalari: «Qutadg'u bilig» dostonining Vena nusxasi, “Hibat-ul-haqoyiq”, “Muhabbatnama” dostonlari.

Uzoq o'tgan zamon fe'llari - nutq so'zlanib turgan vaqtidan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydigan fe'l shaklidir. Bu zamon shakli -**gan** qo'shimchasi va **edi, ekan** fe'llarini tuslash yordamida hosil qilinadi: *kelgan edim;*

V

Varvarizmlar - tilda o'rinsiz ishlatiladigan chet so'zlar: *uspet qilolmadim, znachit, tak, vau, ess.*

Vazifadosh bog'lovchilar - boshqa turumlarga mansub bo'lib, o'rni bilan bo'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bular quyidagi turumlardan bog'lovchilarga o'tgan: 1) **bilan** ko'makchisi:

Akam bilan (va) *ukam kelishdi*. 2) **ham, na, -u(-yu), -da** yuklamalari: *O'qishga qabul qilishdi ham* (va) *stipendiya tayinlashdi*. 3) **balki** modal so'zi: *Bundan keyin uning g'ayrati susaymadi, balki yana oshdi*.

Vazifadosh ko'makchilar - gapda o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladigan so'zlardir. Bularga quyidagi so'z turkumlaridan o'tgan so'zlar kiradi: 1) ot turkumidan: *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda*; 2) sifat turkumidan: *sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa*; 3) fe'l turkumidan: *qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata*; 4) ravish turkumidan: *avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan*.

Vazifadosh undovlar - boshqa turkumdag'i so'zlardan ko'chgan so'zlar: *Kel, bir bahslashaylik!* Bu gapdag'i *kel* so'zi fe'l turkumidan undovlar guruhiga o'tgan. **Kechrasiz, hormang, yashang** kabi fe'llar ham undovlarga ko'chadi.

Vaziyat (ravish, tarz) holi - qanday?, qay holda?, qay tarzda? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan va har doim fe'lga bog'lanadigan hol turidir. Vaziyat hollari ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlidiy so'zlar, ibora bilan ifodalanadi: *U diqqat bilan tingladi. Ukam chiroyli yozadi. U shoshmasdan jo'nadi. Rais bilan ikkisi do'starcha xayrlashdi. U qorovul bo'lib turdi. Daraxt barglari duv to'kildi. Buni qanday bajarasiz?* Boshini eggan holda kelardi.

Vergul – uyushiq va ajratilgan bo'laklar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, kiritma gap, qo'shma gap qismlari, ko'chirma gaplar tarkibida ishlataladigan tinish belgisi.

Vositali to'ldiruvchi - *kimga?, nimaga?, kimda?, nimada?, kimdan?, nimadan?, kim bilan?, nima bilan?, kim haqida?* kabi so'roqlarga javob bo'ladigan to'ldiruvchi turidir. U quyidagicha ifodalanadi: 1) ot yoki olmosh bilan: *Ravshan sen bilan boradi*. 2) otlashgan so'z bilan: *Yaxshiga yondash, yomondan qoch*. 3) ibora bilan: *Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi*. Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllangan vaziyat hollari savollariga qarab farqlanadi: *Paxta mashina bilan terildi* (nima bilan? - to'ld.). *Paxta zavq bilan terildi* (qanday? - hol). Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlar doimo to'ldiruvchi bo'lib kelavermaydi, ular hol vazifasini ham bajaradi, bunda ham ular savolga qarab farqlanadi: *U yolg'ondan hayron bo'ldi* (qanday? - hol). *U akasidan eshitdi* (kimdan? - to'ld.). *U mакtabga bordi* (qaerga? - hol). *Menga gapirdi* (kimga? - to'ld.).

Vositasiz to'ldiruvchi - harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiradigan va *kimni?, nimani?, qayerni?*, so'roqlariga javob bo'ladigan to'ldiruvchi turidir. Bu to'ldiruvchi ko'pincha tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi, bunda u harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: 1. Ot va olmosh bilan: *Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar*. 2. Otlashgan so'zlar bilan: *Bo'linganni bo'ri yer*. 3. Ibora bilan: *O'ziga birovning oz-moz til tegizishini ko'tarmasdi*. Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasiz ham qo'llanadi: *O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti*. Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: *Qani, oshdan oling!*

Vulgarizmlar – tilda mavjud bo'lgan dag'al, so'kish va qarg'ish so'zlar: *haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqpadar* va h.

X

Xabar (ijro, aniqlik) mayli - ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida xabar beradigan fe'l mayli: *yozdi, kelyapti*. Bunday fe'llar darak gapning kesimi bo'lib keladi. Bu maylning maxsus qo'shimchasi yoq.

Xitoy-tibet oilasi - tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vietnam tillari), tibet-birma guruhi(tibet, birma tillari)ga kiradigan tillarni o'z ichiga olgan til oilasi.

Y

Yakka bog‘lovchilar - gap tarkibida yakka holda qo‘llanadigan bog‘lovchilar: *va, ammo, chunki*.

Yakka otlar - birlik shaklda (ya’ni, *-lar* qo‘shimchasisiz) yakka predmetni ifodalaydigan otlar: *daftар, uy, bola, maktab, shahar, davlat*.

Yaqin o‘tgan zamon fe’llari – nutq so‘zlanib turgan vaqtan sal oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli *-di* qo‘shimchasi va tuslanish yordamida hosil qilinadi: *keldi, bordim*;

Yasama so‘zlar - so‘z yasash usullardan biri yordamida hosil qilinadigan yangi so‘zlardir: *qalamdon, atirgul, ko‘zoynak*.

Yetakchi fe’l - ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi tarkibidagi assosiy ma’noni ifodalaydigan fe’ldir: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, aytib berib tura qol*.

Yon tovush - tilning tanglayga tegishi natijasida ikki tomonida hosil bo‘lgan tirkishdan havoning chiqishidan paydo bo‘ladigan tovush: *I.*

Yopiq bo‘g’in – undosh tovush bilan tugaydigan bo‘g’in: *kar-nay, ay-von, qat-tiq, ham-roh, Bur-hon, qar-moq, o‘z-bek, chaq-qon*.

Yordamchi so‘zlar - yakka holda ma’no anglatmaydigan (ya’ni, so‘roqqa javob bo‘lmaydigan), gap bo‘lagi vazifasini bajara olmaydigan, grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so‘zlar: *ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama*.

Yoyiq vaziyat holi - o‘ziga tobe bo‘lgan bo‘laklar bilan so‘z birikmasini hosil qilishi mumkin bo‘lgan ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holidir: *Eshikni oyog I bilan ochib, ichkariga qaradi*.

Yozma nutq – og‘zaki nutqni ma’lum grafik belgilari bilan ifodalangan ko‘rinishidir.

Yuklama - mustaqil so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no beradigan yordamchilar: *U kelsa-chi?* *Senigina taklif qilishdimi? Keldi-yu, gapira ketdi. U ham ketdi.*

Yuqori tor unlilar - talaffuz paytida til tanglayga tomon ko‘tariladigan unlilar: *i, u*.

Z

Zamon kategoriyasi - fe’l ifodalagan ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan vaqtga munosabatidir: *o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon*.

Zid ma’noli so‘zlar – q. Antonimlar.

Zidlov bog‘lovchilari – so‘z va gaplarni bir-biriga zidlab bog‘laydigan quyidagi bog‘lovchilardir: *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki*. Masalan: *U keldi, ammo gapirmadi*.

O‘

O‘lik tillar - hozirgi davrda hech bir xalq uchun muomala vositasi bo‘lib xizmatqilmayotgan, lekin qoldiqlari bizgacha yetib kelgan tillar: *lotin, qadimgi hind yoki sanskrit tili, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazmiy tili, qadimgi arab tili, qadimgi fors tili, sug’d tili* hozirgi paytda o‘lik tillar hisoblanadi.

O‘rin ravishlari - ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildirib, *qayerda?, qayerdan?, qayerga?* so‘roqlariga javob bo‘ladigan ravishlar: *oldinda, orqada, o‘ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o‘rtada, tashqarida, olg‘a, u yoq-bu yoqqa* va b.

O‘rin qoli - *qayerga?, qayerda?, qayoqqa?, qayerdan?* kabi so‘roqlaridaqn biriga javob bo‘ladigan va ko‘pincha o‘rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifodalananadigan hol turidir: *Bolalar ko‘chaga chiqib ketishdi. U orqadan qochdi. Bunda bulbul kitob o‘qydi... (H.O.)*

O‘rta keng unlilar – talaffuz paytida til og‘iz bo‘shlig‘ida muallaq turadigan tovushlar: *e, o‘*.

O‘tgan zamon fe’llari - nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradigan fe’llardir: *yozdi, keldi, bordi*.

O‘tgan zamon hikoya fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni hikoya qilish orqali ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli - *(i)b* qo‘shimchasini olgan fe’llarni tuslash yordamida hosil qilinadi: *kelibman*;

O‘tgan zamon davom fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtidan oldin bajarilishi yoki bajarilmasligi davom etayotgan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli - **(a)r** qo‘srimchasi va *edi* fe’lini tuslash yordamida yasaladi: *kelar eding*.

O‘tgan zamon maqsad fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtidan oldin bajarilishi yoki bajarilmasligi maqsad qilib qo‘yilgan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli - **-moqchi** qo‘srimchasi va *edi* fe’lini tuslash yordamida yasaladi: *kelmoqchi edik*;

O‘tgan zamon sifatdoshi - **-gan, -kan, -qan** qo‘srimchalari bilan yasaladi: *otgan, tikkan, chiqqan*.

O‘timli fe’llar - tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llar: (*kitobni*) *o‘qidi, (xatni) yozdi*.

O‘timsiz fe’llar - tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llar: *yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi, keldi*.

O‘xhatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, ayni. Xuddi shu yerda uchrashamiz.*

O‘z ma’no - q. Bosh ma’no.

O‘zakdosh so‘zlar – bir o‘zakdan yasalgan so‘zlardir: *gulli, guldor, gulzor, sergul, guliston, gulchi*.

O‘zlik nisbat - ish-harakatning boshqa buyumga o‘tmay, bajaruvchining o‘zida qolganini anglatadigan nisbat shakli. Bu nisbat unli bilan tugagan negizga **-n, -l**, undosh bilan tugagan negizga **-in, -il** qo‘srimchalarini qo‘sish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe’lda -(i)sh qo‘srimchasi bilan yasalish bor: kerishdi, joylashdi): *taranmoq, sevinmoq, shoshilmoq. Quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq* fe’llari tarkibida **-n** ko‘rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe’llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi **-n** qo‘srimchasi ajaratilmaydi. *Yayra, qichqir, uxla, bor* kabi fe’llardan o‘zlik nisbat yasalmaydi.

O‘zlik olmoshi - narsa-buyumni aniqlab yoki ta’kidlab ko‘rsatish uchun ishlatiladigan **o‘z** so‘zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o‘z uyi, o‘z ukasi*. O‘zlik olmoshi egalik qo‘srimchasin olib, uchala shaxs o‘rnida ham ishlatiladi va kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi: *o‘zim - men, o‘zing - sen, o‘zi - u*. O‘zlik olmoshi turlanganda kelishik qo‘srimchalaridan oldin egalik qo‘srimchalari bo‘lishi shart: *o‘ziga, o‘zingdan* va b. O‘z olmoshi belgisiz kelishik ko‘rinishida qo‘llanishi mumkin: *O‘z uying – o‘zingning uying*.

O‘g‘uz lahjası – Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo‘siko‘pir, Shovot tumanlari, Turkmaniston Respublikasining Toshovuz shahri) bir qancha shevalarni qamrab oluvchi lahja: *galdi* (keldi), *o‘d* (o‘t), *taka* (yostiq), *cho‘rak* (non), *qarinja* (chumoli), *secha* (chumchuq).

SH

Shakl yasovchi qo‘srimchalar asosga qo‘silib, ma’noni bir oz o‘zgartiradigan yoki so‘zлarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladigan qo‘srimchalaridir: *maktabimiz, odamlar, keldik*.

Shakldosh so‘zlar – q. Omonimlar.

Shakliy yozuv (tamoyil) – boshqa tillardan kirgan so‘zlar o‘sha tillarda qanday yozilsa, o‘shanday yozishni talab qiladigan yozuv: *to‘nna emas tonna; doym emas doim; g‘ish emas g‘isht*.

Shart bog‘lovchiları – ikkita gapni o‘zaro shart munosabati asosida bog‘laydigan quyidagi so‘zlar: *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti: Agar sen kelsang, biz boramiz*.

Shart mayli - biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma’nolarni anglatadigan fe’l mayli bo‘lib, **-sa** qo‘srimchasi yordamida hosil qilinadi: *borsa, kelsam, yoursak*. Bu mayldagi fe’llar sof shart ma’nosini (*Kelsa, boramiz*), orzu-istak (*Qani endi, o‘qishga kirsam*), iltimos, maslahat (*O‘sha kishini cha?irib bersangiz*), faraz (*Yomg‘ir yog‘sa*

kerak), payt (Tashqariga chiqsam, ukam turibdi), buyruq-istak mayliga xos (Gapisangiz-chi!) ma'nolarini ifodalaydi. Bu fe'lllar ekan fe'li bilan qo'llansa, shart ma'nosiga istak ham qo'shiladi: o'qisa ekan...

Shaxs-son (tuslovchi) qo'shimchalari - fe'llardagi birlik-ko'plikni va shaxsni ko'rsatuvchi qo'shimchalaridir: *o'qidim, o'qiding, o'qidi(-), o'qidik, o'qidingiz, o'qidi(lar)*,

Shevaga oid so'zlar – bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan so'zlardir: *paqir* (chelak), *cho'rak* (non).

Shevashunoslik (dialektologiya) – tilshunoslikning shevalarni o'rganadigan bo'limi.

CH

Chad-xom guruhi - xuase, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi tillarini o'z ichiga olgan til guruhi.

Chama son - narsa-buyumlarning taxminiylarini bildiradigan son. Quyidagicha hosil bo'ladi: 1) miqdor songa *-tacha* qo'shimchasini qo'shish bilan: *o'ntacha mashina*; 2) miqdor songa *-lar, -larcha* qo'shimchasini qo'shish bilan: *Soat o'n birlar edi. Yuzlarcha odam yig'ildi.* 3) miqdor songa *-lab* qo'shimchasini qo'shish bilan: *minglab odam*; 4) ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: *besh-olti, uch-to'rt*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
2. A.Nurmonov, B. Yo`ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. – T.: 2001,
Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati.
O`zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002,
Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005,
3. A.Hojiev. Hozirgi o`zbek adabiy tili
"O'qituvchi" T.,1979, Sintaksis.
4. Jamolxonov H.A. O`zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi, Toshkent, 1992-yil.
5. G` Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiev Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent. 2000-yil.
6. A. Abduazizov. O`zbek nutqi madaniyati ocherklari. "Fan" nashriyoti, T., 1988 y.
7. H. Jamolxonov. O`zbek tili. T., "O'qituvchi" 1978 yil
8. E. Begmatov, A. Boboeva, M. Asomiddinova B.Umirqulov Hozirgi uzbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2000-yil
9. M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov
10. M. Asqarova.

11. U.Tursunov .
J. Muxtorov
12. SH. SHoabdurahmonov
M.Asqarova, A. Xojiev
I.Rasulov, X.Doniyorov
13. A.SHomaqsov, I.Rasulov
R.Qo`ng`urov, X.Rustamov
14. U. Tursunov, J.Muxtorov.
Sh. Rahmatullaev..
15. A.G`ulomov, .N.Tixonov,
R.Qo`ng`urov
16. O`zbek tilining imlo lug`ati.
17. O`zbek tili grammatikasi.
18. O`zbek tili grammatikasi.
19. O`zbek tilining imlo lug`ati.
20. R. Yunusov.
21. Q. Safaev, R. Yunusov
22. M. Sodiqova. Usmonova.
23. D. Muhamedova, D.
Shodmonqulova, M. Maqsudova.
24. R. Ikromova,
D. Muhamedova,
D. Shodmonqulova,
M. Maqsudova, X. G`ulomova.
25. R.Ikromova
D. Muhamedova,
D. Shodmonqulova,
X. G`ulomova.
26. M.A.Hamroev
- 27.
28. A. Hojiev
29. A. G`ulomov, A.N.Tixonov,
R.Qo`ng`urov.
- 30.
31. Sh. Rahmatullaev.
32. Sh.Rahmatullaev.
33. Sh. Rahmatullaev.
- Hozirgi o`zbek adabiy tili T.,”O`qituvchi” 1979 yil
- Hozirgi o`zbek adabiy tili. 1-qism. T., “O`qituvchi” 1980 yil
- O`zbek tili stilistikasi. T., “O`qituvchi” 1983 yil
- Hozirgi o`zbek adabiy tili. «O`zbekitson», Toshkent. 1992-yil
- O`zbek tili morfem lug`ati. T., “O`qituvchi”, 1977 y.
T., “Fan” nashriyoti 1976 yil
- T., “Fan” 1975 yil. 1-qism
- T.,“Fan” 1976 yil 2-qism
- T., “O`qituvchi”, 1995- yil.
- Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Leksiqologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
- Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent. 2000.
- O`zbek tilining orfoepik lug`ati. T., 1977-yil.
- Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksiqologiya, frazeologiya, leksikografiya). Toshkent. 2001-yil.
- Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So`z yasalishi. Morfologiya.). Toshkent. 2001-yil.
- Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
- O`zbek tilidan ma'ruzalar majmasi. T., 2007-yil.
- O`zbek tilining izohli lug`ati. 1-2 tom. Moskva. 1981-yil
- O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati. Toshkent. 1974-yil
- O`zbek tili morfem lug`ati. Toshkent. 1977-yil.
- “Qalqon” jurnali. 2004 yil, 7-son.
- O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati. T., 1980-yil.
- O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. T., 1978-yil.
- O`zbek tili omonimlarining izohli lug`ati. T., 1984-yil.

32. SH.Rahmatullaev ”, Hozirgi adabiy o`zbek tili. –T., “Universitet 2006.
 33. R.Sayfullaeva va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. –T., 2006

MUNDARIJA

So`z boshi	5
Tilshunoslik haqida umumiylumot	6
1-§ Tilshunoslik fani haqida ma'lumot	6
2-§ Til ijtimoiy hodisadir	6
3-§ Tilning tuzilishi	7
4-§ Til – taraqqiy qilib, o`zgarib boruvchi hodisa	7
5-§ Milliy til va uning tarkibiy qismlari	8
6-§ Tillarning tasnifi	10
7-§ Tillarning geneologik tasnifi	11
8-§ Tillarning morfologik tasnifi	12

FONETIKA	16
1-§ Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot	16
2-§ Tovush va fonema	17
3-§ Fonetik akustika	18
4-§ Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi	18
5-§ O'zbek tilining fonetik vositalari	19
6-§ Nutq tovushlarining tasnifi	21
7-§ Unli tovushlar va ularning tasnifi	22
8-§ Ayrim unli tovushlar tavsifi	23
9-§ Undosh tovushlar va ularning tasnifi	23
10-§ Undosh tovushlar tavsifi	24
11-§ Til undoshlari	28
12-§ Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi	30
13-§ Nutqning asosiy fonetik birliklari	30
14-§ Urg`u	32
15-§ Nutq tovushlarining o'zgarishi	34
16-§ Til va yozuv	37
17-§ Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi	38
18-§ Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar	39
19-§ Orfografiya (imlo)	40
LEKSIKOLOGIYA	48
1-§ Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot	48
2-§ So'zning leksik va grammatic ma'nolari	49
3 -§ Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar	50
4 -§ So'zlarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	52
5 -§ O'zbek tilining lug'at tarkibi	54
6 -§ O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlamlar	56
7 -§ O'zbek tili leksikasining ishlatalish doirasi	58
8 -§ Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi	60
9 -§ O'zbek tili leksikasining boyish manbalari	62
10-§ Frazeologiya	63
11-§ Leksikografiya	64
SO'Z YASALISHI	68
GRAMMATIKA	70
1-§ Grammatika haqida umumiy ma'lumot	70
2-§ So'z shakl va grammatic ma'no	70
3-§ Grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari	71
4-§ So'zning grammatic shakli	71
5-§ Grammatik kategoriya	73
6-§ So'z turkumlari	73
OT	78
1-§ Otning leksik-grammatik xususiyatlari	78
2-§ Otlarning ma'no turlari	79
3-§ Otlarda son kategoriysi	81
4-§ Otlarda egalik kategoriysi	82
5-§ Otlarda kelishik kategoriysi	84
6-§ Otlarning yasalishi	89
7-§ Otlarda modal shakl yasalishi	93
8-§ Otlarning tuzilish jihatdan turlari	94
SIFAT	99

1-§ Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari	99
2-§ Sifat darajalari	100
3-§ Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar	100
4-§ Sifatlarning otlashishi	102
5-§ Sifatlarning yasalishi	102
6-§ Sifatlarning tuzilish turlari	105
SON	109
1-§ Sonning leksik-grammatik xususiyatlari	109
2-§ Sonning ma'no turlari	111
3-§ Bir sonining o`ziga xos grammatik xususiyatlari	114
4-§ Sonlarning otlashishi	115
5-§ Sonlarning tuzilish jihatdan turlari	115
OLMOSH	119
1-§ Olmoshning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari	119
2-§ Olmoshlarning ma'no turlari	119
3-§ Boshqa turkumga oid so'zlarning olmoshga ko'chishi	122
4-§ Olmoshlarning tuzilish turlari	122
FE'L	126
1-§ Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlari	126
2-§ O'timli va o`timsiz fe'llar	127
3-§ Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	128
4-§ Fe'l nisbatlari	130
5-§ Fe'lning vazifadosh shakllari	132
6-§ Fe'llarning tuslanishi(shaxs-son kategoriyasi)	139
7-§ Fe'l zamonlari	141
8-§ Fe'l mayllari	147
9-§ Fe'llarning yasalishi	148
10-§ Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari	150
11-§ To'liqsiz fe'llar	151
RAVISH	155
1-§ Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari	155
2-§ Ravishlarning ma'no turlari	157
3-§ Ravishlarning yasalishi	158
4-§ Ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari	160
YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI	163
1-§ Ko'makchi haqida ma'lumot	163
2-§ Bog`lovchi	164
2-§ Yuklama	167
ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI	172
1-§ Modal so`zlar	172
2-§ Undov so`zlar haqida ma'lumot	173
3-§ Taqlid so`zlar	174
SINTAKSIS	178
1-§ Sintaksis haqida umumiyl ma'lumot	178
2-§ Sintaktik aloqa turlari	178
3-§ Boshqaruv	179
4-§ Bitishuv	179
5-§ Moslashuv (muvofiqlashuv)	180
6-§ So`zlarning o`zaro sintaktik munosabatga kirishuvi	180
7-§ So`z birikmasi	181

8-§ So`z birikmalarining tasnifi	182
GAP	183
1-§ Gap va uning belgilari	183
2-§ Gapning turlari	184
3-§ Gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlari	185
4-§ Gapning emotsionallikka ko`ra turlari	187
GAPLARNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARI	190
1-§ Sodda gap turlari	190
2-§ Ikki bosh bo`lakli gapning tuzilishi	191
3-§ Bir bosh bo`lakli gaplar	192
GAP BO`LAKLARI	198
1-§ Gap bo`laklari haqida umumiy ma'lumot	.198
2-§ Gapning bosh bo`laklari	199
3-§ Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi	203
GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLARI	203
1-§ Ainqlovchi	203
2-§ To`ldiruvchi	206
3-§ Hol	208
4-§ Gap bo`laklarining joylashish tartibi	211
GAPNING UYUSHIQ BO`LAKLARI	218
1-§ Uyushiq bo`laklar haqida umumiy ma'lumot	218
2-§ Uyushiq qator a'zolarining o`zaro aloqaga kirishuvi	219
3-§ Uyushiq bo`lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar	220
GAPNING AJRATILGAN BO`LAKLARI	221
1-§ Ajratilgan bo`laklar haqida umumiy ma'lumot	221
2-§ Ajratilgan to`ldiruvchilar	222
3-§ Ajratilgan aniqlovchilar	.222
4-§ Ajratilgan izohlovchilar	223
5-§ Ajratilgan hollar	223
GAP BO`LAKLARI SANALMAYDIGAN BIRLIKLER	227
1-§ Undalma	227
2-§ Kirish so`z va kirish birikma	228
3-§ Kiritma gap	229
QO`SHMA GAP	232
1-§ Qo`shma gap turlari haqida ma'lumot	232
2-§ Bog`langan qo`shma gap	232
3-§ Bog`langan qo`shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi	234
4-§ Ergashgan qo`shma gap	234
5-§ Bog`lovchisiz qo`shma gap	241
6-§ Bog`lovchisiz qo`shma gapning turlari	242
7-§ Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi	243
8-§ Murakkab qo`shma gap haqida ma'lumot	244
O`ZGALARING NUTQINI IFODALASH USULLARI	252
1-§ Ko`chirma gap	252
2-§ Ko`chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi	252
3-§ O`zlashtirma gap	253
4-§ Ko`chirma va unda ishlatiladigan tinish belgilari	254
5-§ Dialog	254

USLUBIYAT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI	257
1-§ Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot	257
2-§ Nutq uslublari	257
3-§ Nutq madaniyati haqida	259
USLUBIYAT TURLARI	262
1-§ Yozma va og'zaki nutq me'yorlari haqida	262
2-§ Leksik uslubiyat	262
3-§ Fonetik uslubiyat	264
GRAMMATIK USLUBIYAT. MORFOLOGIK	
USLUBIYAT	264
1-§ Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	264
2-§ Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	265
3-§ Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	265
4-§ Fe'llarga xos uslubiy xususiyatlar	265
SINTAKTIK USLUBIYAT	.266
1-§ Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari	266
2-§ Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya	267
3-§ Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari	267
4-§ Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari	267
ISHORAT QOIDALARI (PUNKTUATSIYA)	271
1-§ Nuqta	271
2-§ So'roq belgisi	271
3-§ Undov belgisi	272
4-§ Ko'p nuqta	272
5-§ Ko'p nuqta, undov, so'roq belgilarning birikkan holda kelishi	272
6-§ Vergul	273
7-§ Nuqtali vergul	273
8-§ Ikki nuqta	274
9-§ Tire	274
10-§ Qavs	274
11-§ Qo'shtirnoq	275
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	295

—